



Oybek ABDIMUROTOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti kafedra mudiri, dotsent
E-mail: o.abdimurotov@cspu.uz

TDPU dotsenti F.Saydamatov taqrizi asosida

CURRENT STATUS AND PROSPECTS OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF LEARNING PROCESSES IN GEOGRAPHY EDUCATION IN THE CONDITIONS OF THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Annotation

This article analyzes the introduction of the credit-module system in geography education and its impact on increasing its effectiveness in the educational process. The credit-module system allows students to independently formulate educational programs, and teachers to use modern pedagogical methods. The article also considers the challenges of teaching geography teachers new educational technologies and pedagogical approaches, making the educational process more effective using international educational systems, and the obstacles encountered in the implementation of the system and ways to overcome them. The article concludes with proposals for improving the skills of geography teachers, improving the quality of education, and developing independent learning.

Key words: Geography education, credit-module system, independent learning, pedagogical technologies, teacher qualifications, international educational experiences, educational process, educational effectiveness, educational resources, educational materials.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА ПО ГЕОГРАФИЧЕСКОМУ ОБРАЗОВАНИЮ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация

В статье анализируется внедрение кредитно-модульной системы в географическое образование и ее влияние на повышение эффективности процесса обучения. Кредитно-модульная система позволяет студентам самостоятельно формировать образовательные программы, а преподавателям использовать современные педагогические методы. В статье также рассматриваются проблемы обучения учителей географии новым образовательным технологиям и педагогическим подходам, повышающим эффективность процесса обучения с использованием международных образовательных систем, а также препятствия, возникающие при внедрении этой системы, и пути их преодоления. В заключение статьи даны предложения по повышению квалификации учителей географии, улучшению качества образования и развитию самостоятельного обучения.

Ключевые слова: Географическое образование, кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, педагогические технологии, квалификация учителей, международный образовательный опыт, образовательный процесс, эффективность обучения, образовательные ресурсы, учебные материалы.

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA GEOGRAFIYA TA'LIMIDAGI O'QUV JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola, geografiya ta'limida kredit-modul tizimining joriy etilishi va uning o'quv jarayonidagi samaradorligini oshirishga bo'lgan ta'sirini tahlil etadi. Kredit-modul tizimi talabalarga ta'lim dasturlarini mustaqil ravishda shakllantirish, o'qituvchilarga esa zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash imkonini yaratadi. Maqolada, shuningdek, geografiya o'qituvchilari uchun yangi ta'lim texnologiyalari va pedagogik yondashuvlarni o'rgatish, xalqaro ta'lim tizimlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini yanada samarali qilish, va tizimni joriy etishda duch kelinayotgan to'siqlar va ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqilgan. Maqola, geografiya o'qituvchilarining malakasini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va mustaqil ta'limni rivojlantirish bo'yicha takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Geografiya ta'limi, kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, pedagogik texnologiyalar, o'qituvchi malakasi, xalqaro ta'lim tajribalari, o'quv jarayoni, ta'lim samaradorligi, ta'lim resurslari, o'quv materiallari.

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini xalqaro talablar asosida modernizatsiya qilish, bo'lajak pedagoglarni yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlash va ularning kasbiy mahoratini rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun" shiori ostida jadal rivojlanayotgan Respublikamizda ta'lim jarayoniga innovatsion va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali uning sifatini va samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Ushbu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi qarori bilan 2020-2021-o'quv yilidan boshlab mamlakatimizdagi 35 ta OTM kredit-modul tizimiga o'tgan. Kredit-modul tizimi tamoyilida ikkita bosh masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash hamda talabalar bilimini reyting asosida baholash. Kredit-modul tizimi o'quv jarayonini yanada moslashuvchan,

samarali va shaffof qilishga imkon berib, talabalar uchun mustaqil ta'limni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'limning kredit-modul tizimi sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishga umumiy yondashuvlar borasida xorijiy davlatlar olimlaridan: N.A.Asanov, Y.L.Artamonova, O.V.Boyev, G.N.Gamamik, G.G.Pivnya, A.A.Kusainov, S.R.Ibatulin, O.A.Sevostyanova, A.L.Chuchalina va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, mamlakatimiz olimlaridan: V.O'rinov, M.Sultonov, A.Umarov, B.Sh.Usmonov, R.A.Habibullayev, G.A.Nazarqulovalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

O'quv jarayonlari davomida talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish masalalari yuzasidan xorijiy davlatlarda T.V.Gabay, G.S.Abramov, G.I.Aleksandrov, V.G.Razumovskiy, A.V.Usova, V.K.Buryak kabi olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan bo'lsa, yurtimiz olimlaridan K.A.Tursunmetov, S.R.Abdalova, O.A.Qo'ysinov, M.U.Qo'chqarov, Sh.E.Eshonqulova, M.L.Boltayeva, S.B.Ibragimova, B.R.Muqimov, M.Murodova, N.R.Saitkulovalar kabi metodist olimlar ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning ilmiy asoslari,

pedagogik-psixologik ahamiyati va shakllari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, yurtimizda geografiya o'qitish metodikasi sohasida M.Nabixonov, O.Mo'minov, T.Abdullayeva, P.Musayev, M.Yunusova, R.Qurboniyozov, O.Safarov, A.Xayitov, M.Abduraxmanov, Q.Bahromov, R.Gaypova, S.Matsaidova, F.Jumanova, X.Nikadamboyeva, F.Xamroyeva, A.Jonzakov, F.Saydamatov, M.Qo'ldasheva, X.Amanov, F.Rajabov, H.Shodiyev, D.Abdullayeva kabi olimlar tomonidan geografiyani o'qitish bo'yicha dissertatsiya tadqiqotlari olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fanini o'qitish jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, kreativ va mantiqiy fikrlashga o'rgatish, zamonaviy ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Geografiya fani o'qituvchisining metodik mahorati, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ta'lim metodikasi boy ilmiy meros, tajriba va pedagogik ta'minotdan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishda muvaffaqiyatini ta'minlashi mumkin. Shunday qilib, geografiya fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish, o'quvchilarning ilmiy va amaliy bilimlarini samarali ravishda rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Tahlil va natijalar. Kredit-modul tizimi sharoitida geografiya ta'limidagi o'quv jarayonlarini samarali tashkil etishning hozirgi kundagi holati va istiqbollari quyidagi asosiy vazifalar va tahlillarni o'z ichiga oladi:

1. Rivojlangan davlatlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or ta'lim tajribalari asosida, geografiya o'qituvchilariga mo'ljallangan ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish va mustahkamlash zarur. Bu orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlari uchun zarur bo'lgan resurslar va o'quv materiallari ishlab chiqilishi, o'qituvchilarni xalqaro ta'lim metodologiyalari bilan tanishtirish muhim hisoblanadi.

2. Ta'lim jarayonida talabalarning, professor-o'qituvchilarning va izlanuvchilarning almashinuv dasturlarini kengaytirish geografiya o'qituvchilari uchun ham katta imkoniyatlarni yaratadi. Xorijiy tajribalar, yangi pedagogik yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlar, o'quv jarayoniga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu hamkorlik orqali, o'qituvchilar o'z bilimlarini va pedagogik salohiyatini oshirishi, talabalar esa dunyo miqyosida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

3. Ta'lim texnologiyalarini samarali joriy etish: Geografiya o'qituvchilari uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'rganish va pedagogik kadrlar salohiyatini oshirishga ko'maklashuvchi raqobat muhitini yaratish muhim vazifa bo'ladi. Bu o'qituvchilarni faqatgina texnologiyalarga qiziqtirib qolmay, balki ularni o'quv jarayonida yangi yondashuvlar va metodlarni joriy qilishga undaydi.

4. Kredit-modul tizimi sharoitida, talabaga ta'lim dasturini mustaqil shakllantirish imkoniyati yaratish, uning o'ziga xos va individual yondashuvini ta'minlashga yordam beradi. Bu, geografiya o'qituvchilari uchun o'quv jarayonini o'z vaqtida va samarali yakunlash imkoniyatini beradi. Bunda o'quvchilarning ish yukini boshqarish, o'quv materiallarining moslashuvi va malakali o'qituvchilar bilan ishlash juda muhimdir.

5. O'tgan davrda kredit-modul tizimini joriy etishda qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, tizimning to'liq amalga oshirilishi uchun hali bir qancha to'siqlar mavjud. Ob'ektiv va sub'ektiv sabablar kredit tizimining to'liq tatbiq etilishiga to'siqlik qilmoqda. Masalan, o'qituvchilarning metodologik tayyorgarligi, o'quv materiallarining yetishmovchiligi yoki tizimning dastlabki bosqichlarida yuzaga kelgan muammolar ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kredit-modul tizimini to'liq amalga oshirish, geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni tashkil etishning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu tizimning to'liq joriy etilishi orqali, talabalar o'z bilimlarini yanada chuqurlashtirishi, o'qituvchilar esa yangi pedagogik metodlarni o'zlashtirishi mumkin. Biroq, tizimni takomillashtirish va undan to'liq foydalanish uchun mavjud to'siqlarni bartaraf etish, sifatli o'quv materiallarini ishlab chiqish va o'qituvchilarni doimiy ravishda malakasini oshirish zarur. Shu tarzda, kredit-modul tizimi sharoitida geografiya o'qituvchilarining mustaqil ta'limni

tashkil etish jarayoni yanada samarali bo'lishi va xalqaro ta'lim standartlariga moslashtirilgan ta'lim tizimi yaratish mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi tahlil va xulosalardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida quyidagi ishlarga alohida e'tibor berilishi lozim.

1. Kredit-modul tizimi asosida oliy ta'lim jarayonini tashkil etish uchun mavjud me'yoriy hujjatlarda zarur o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish kerak. Bu, tizimni amalda samarali qo'llashga yo'l ochadi, shuningdek, kredit tizimi tashkil etishga qarshi bo'lgan tushunchalarni bartaraf etish va mavjud cheklolarni bartaraf etish imkonini beradi. Oliy ta'limning yangi tizimiga mos ravishda, geografiya o'qituvchilariga ta'lim berish jarayonini takomillashtirish mumkin bo'ladi.

2. Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun majburiy va tanlov fanlari, har bir fan bo'yicha kreditlar, fan sillabuslari va boshqa o'quv-uslubiy materiallar o'z ichiga olgan o'quv metodik komplekslarini tayyorlash zarur. Bu materiallar, talabalarga o'z mustaqil ishlarini samarali tashkil etish, shuningdek, geografiya o'qituvchilari uchun o'qitish jarayonini qulay va samarali qilish imkonini beradi.

3. Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini tayyorlashda, professor-o'qituvchilar talabalarning o'qish shaklini (kunduzgi, sirtqi, masofaviy va kechki) hisobga olgan holda ishlab chiqilgan universitetdagi kredit tizimi tuzilmasi va faoliyati bo'yicha to'liq yo'riqnomaga bilan ta'minlanishi kerak. Bu hujjat, o'qituvchilar va talabalar uchun tizimni to'g'ri tushunish va unga mos ravishda faoliyat olib borish imkonini beradi.

4. Talabalarning fanlar bo'yicha o'zlari tanlash huquqini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu talabalar uchun o'z ixtisosliklari va qiziqishlariga mos keladigan fanlarni tanlash imkonini beradi. O'qituvchilar va talabalar, o'zlariga mos fanlarni tanlash orqali o'quv jarayonini yanada samarali o'tishlariga erishishlari mumkin.

5. Bo'lajak geografiya o'qituvchilari uchun mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasini ishlab chiqish va uni uslubiy ta'minlash muhim. O'qish shaklini (kunduzgi, sirtqi, masofaviy) hisobga olgan holda, talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan resurslar va yo'riqnomaga ishlab chiqilishi lozim. Bu orqali talabalarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

6. Talabalar uchun ruxsat etilgan dars soatlaridan ortiq sababsiz qatnashmaslikka yo'l qo'ymaslik va ularning tegishli fanlarni qayta o'rganishlarini ta'minlash zarur. Bu bo'lajak geografiya o'qituvchilarining sifatli ta'lim olishlari va bilim darajalarini doimiy ravishda oshirishlariga yordam beradi. Shuningdek, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro mas'uliyatni kuchaytiradi.

7. Kafedralar tarkibini va professor-o'qituvchilar yuklamalarini o'z vaqtida shakllantirish maqsadida, talabalarning fanlarni tanlash jarayonini o'quv semestrindan ikki oy oldin o'tkazish zarur. Bu o'qituvchilarning yuklamalarini to'g'ri taqsimlashga yordam beradi va o'quv jarayonini yaxshilaydi. Shuningdek, geografiya o'qituvchilarining o'z sohalarida professional malakasini oshirishga imkon yaratadi.

8. Talabalarning mustaqil ishlari samaradorligini oshirish maqsadida, professor-o'qituvchilar yuklamalarining o'quv mashg'ulotlari soatini kamaytirish lozim. Bu orqali, bo'lajak geografiya o'qituvchilari mustaqil ishlarni olib borish va ilmiy va metodik ishlarga ko'proq e'tibor qaratishlari mumkin. Talabalarni ilmiy tadqiqotlar va pedagogik metodlarni rivojlantirishga rag'batlantirish, o'quv jarayonining sifatini oshiradi.

Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni tashkil etishning samaradorligini oshirish uchun yuqoridagi takliflarni amalga oshirish zarur. Bu ishlarning qisman amalga oshirilishi, ta'lim jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi va geografiya o'qituvchilarini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Geografiya ta'limida mustaqil ta'limni tashkil etishda kredit-modul tizimining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Kredit-modul tizimi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirsa, geografiya ta'limida ham uning o'quv jarayonini takomillashtirishga ham salmoqli hissa qo'shadi. Ushbu tizim ta'lim sifatini oshirish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida yanada

samarali muloqot o'rnatish va geografiya o'qituvchilarining malakasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Kredit – modul tizimiga o'tish geografiya sohasidagi talabalarga quyidagi imtiyozlarni beradi:

1. Kredit-modul tizimining asosiy afzalliklaridan biri, talabalar o'zlari to'plagan kreditlarini boshqa oliy ta'lim muassasalariga ko'chirib, o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lishidir. Bu, geografiya ta'limida ham talabalar uchun katta imkoniyat yaratadi. Talabalar, o'zlari istagan va ularning qiziqishlariga mos keladigan kurslarni tanlash orqali o'z ta'lim yo'llarini yanada moslashuvchan va samarali qilishlari mumkin.

2. Geografiya o'qituvchilarining malakasini oshirish uchun, o'quv jarayonida o'qituvchini tanlash huquqini taqdim etish zarur. Talabalar o'qituvchini tanlash orqali o'qituvchi va talaba o'rtasida yanada samarali akademik muloqot o'rnatilishi mumkin. Bu, geografiya ta'limida ilmiy-izlanuvchi muhitni rivojlantirishga, talabalarga mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Geografiya ta'limida kredit-modul tizimi, talabalar uchun mustaqil ta'limni tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Talabalar, majburiy fanlardan tashqari, o'zlariga qiziqarli yoki kelajakdagi kasbiy faoliyatiga mos keladigan fanlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu o'quv jarayonida talabalarni faollashtiradi, chunki ular o'z bilimlarini yanada kengaytirish va mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladi.

4. Kredit-modul tizimi, talabalar uchun ta'lim dasturini mustaqil ravishda shakllantirish imkonini yaratadi. Talabalar, o'zlarining shaxsiy qiziqishlari va kasbiy yo'nalishlariga mos ravishda kurslarni tanlab olishlari mumkin. Bundan tashqari, baholash tizimining oshkoraligi ta'lim jarayonini yanada shaffof qiladi. Har bir talabaga berilgan baho aniq va izchil asosda taqdim etiladi, bu esa ta'lim tizimida korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi.

5. Kredit-modul tizimida talabalar har bir fan uchun belgilangan kreditlarni to'plashga majbur. Agar talaba belgilangan kreditni to'play olmasa, u fanni qayta o'qishi va qayta imtihon topshirishi kerak bo'ladi. Bu, geografiya o'qituvchilari uchun o'quv jarayonini yaxshilashga yordam beradi, chunki talabalar har bir fanni to'liq o'rganish uchun kerakli vaqt va resurslarga ega

bo'ladi. Qayta o'qish pullik bo'lishi va o'qish natijalari faqat belgilangan kreditlar yig'ilganidan so'ng taqdim etilishi, ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga olib keladi.

6. Geografiya ta'limi jarayonida kredit-modul tizimi talabalarning o'quv faoliyatini samarali baholash imkoniyatini yaratadi. Semestr yakunida talabalarning bahosi, fan o'qituvchisi tomonidan o'tkazilgan oraliq nazorat, uyga vazifalar va amaliy mashg'ulotlar asosida shakllanadi, yakuniy baho esa OTM rahbariyati tomonidan olinadi. Bu ikki darajali baholash tizimi, talabalar tomonidan o'rganilgan materiallarni yaxshiroq baholash va talabaning umumiy bilim darajasini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Geografiya ta'limida kredit-modul tizimining joriy etilishi, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarga yanada moslashuvchan va o'ziga mos ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, mustaqil ta'limni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu tizim geografiya o'qituvchilarining malakasini oshirishga, ilmiy va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirishga, hamda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga imkon yaratadi. Kredit tizimi talabalarga o'z ta'limlarini yanada samarali shakllantirish va jahon miqyosida raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlanish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Kredit-modul tizimi asosida geografiya ta'limi jarayonini samarali tashkil etish uchun bir qator muhim takliflar va chora-tadbirlar mavjud. Birinchi navbatda, oliy ta'lim tizimida me'yoriy hujjatlarga zarur o'zgartirishlar kiritilishi, geografiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv materiallari va metodik komplekslar ishlab chiqilishi zarur. Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining tayyorlanishi jarayonida, professor-o'qituvchilarni to'g'ri yo'riqnomaga bilan ta'minlash va talabalarga o'zlari tanlagan fanlarni o'rganish imkoniyatini yaratish muhimdir. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish uchun zarur resurslar va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilishi lozim. Nihoyat, professor-o'qituvchilar yuklamalarining samarali boshqarilishi va talabalarning mustaqil ishlari samaradorligini oshirishga yordam beruvchi uslubiy yondashuvlar ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilashga olib keladi. Bu chora-tadbirlar kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilari uchun o'quv jarayonlarini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining mustaqil ta'limini tashkil etish shakllari // "Pedagogika" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023. 4-son. 289-293 b.
2. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni samarali tashkil etish vositalari // ILIM hám JÁMIYET (FAN va JAMIYAT) ilmiy-uslubiy jurnal 2024. № 5/2. 56-59 b.
3. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida // "Ta'lim, fan va innovatsiya" jurnali 2023. 6-son. 106-110 b.
4. Murodova M. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2023
5. Nazarqulova G.A. Kredit-modul tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini takomillashtirish. Dissertatsiya. – T.: 2023. –152 b.
6. Rajabov F.T., Abdimurotov O.U. Geografiya ta'limida mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha xalqaro tajribalar // "Geografiya - nazariyadan amaliyotga" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Qo'qon. 2024-yil 25-noyabr. 393-398-b.



Muborak ABDULLAEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, biologiya fanlari doktori
Ma'mura MURADOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: murodovamamura26@gmail.com

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori D.Nomozova taqrizi asosida

METHODS OF FORMING GLOBAL COMPETENCE IN STUDENTS IN TEACHING BIOLOGY

Annotation

This article analyzes innovative approaches to developing global compensation in students during biology education. The concept of global compensation includes fostering students' ecological awareness, forming an integrated approach to biological processes, and developing the ability to live in harmony with nature. The article explores the effective use of problem-based learning, interactive methods, and digital technologies in biology teaching. Additionally, suggestions are provided to enhance students' critical thinking skills and adaptability to global ecological challenges.

Key words: Biology education, global compensation, ecological awareness, innovative approach, problem-based learning, interactive methods, digital technologies, critical thinking, ecological challenges, adaptability.

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГЛОБАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ В ОБУЧЕНИИ БИОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье анализируются инновационные подходы к формированию глобальной компенсации у студентов в процессе преподавания биологии. Понятие глобальной компенсации включает развитие экологического сознания студентов, формирование интегрированного подхода к биологическим процессам и способность жить в гармонии с природой. В статье рассматриваются возможности эффективного использования проблемного обучения, интерактивных методов и цифровых технологий в преподавании биологии. Кроме того, предлагаются меры по развитию критического мышления студентов и формированию адаптивности к глобальным экологическим проблемам.

Ключевые слова: Биологическое образование, глобальная компенсация, экологическое сознание, инновационный подход, проблемное обучение, интерактивные методы, цифровые технологии, критическое мышление, экологические проблемы, адаптивность.

БИОЛОГИЯ FANINI O'QITISHDA TALABALARDA GLOBAL KOMPENSATSIYANI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Аннотatsiya

Mazkur maqolada biologiya fanini o'qitishda talabalarda global kompensatsiyani shakllantirishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Global kompensatsiya tushunchasi talabalarning ekologik ongini rivojlantirish, biologik jarayonlarga integratsiyalashgan yondashuvni shakllantirish va tabiat bilan uyg'un hayot kechirish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Maqolada biologiyani o'qitishda muammoli ta'lim, interfaol usullar va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish va global ekologik muammolarga moslashuvchanlikni shakllantirish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: Biologiya ta'limi, global kompensatsiya, ekologik ong, innovatsion yondashuv, muammoli ta'lim, interfaol usullar, raqamli texnologiyalar, tanqidiy fikrlash, ekologik muammolar, moslashuvchanlik.

Kirish. XXI asrda biologiya fani nafaqat ilmiy kashfiyotlar, balki ekologik muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda. Barcha tirik organizmlar o'zaro bog'liq ekotizimning bir qismi bo'lib, insoniyatning tabiatga ta'siri tobora ortib bormoqda[1]. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, oziq-ovqat xavfsizligi va atrof-muhitning ifloslanishi kabi global muammolarni tushunish va ularga moslashish kelajak avlodning asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shu sababli, biologiya ta'limi faqatgina an'anaviy nazariy bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasligi, balki talabalarning atrof-muhit bilan uzviy munosabatini shakllantirish va global o'zgarishlarga moslasha oladigan shaxslar yetishtirishga qaratilishi zarur.

Oliy ta'limda biologiya darslarini o'qitishda nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali – Biologiyani o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni hayotga tadbiiq etish. Shuningdek, biologiya fanini o'qitishda mustaqil ishlay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Kompetensiyalarni rivojlantirish g'oyasi ta'limni modernizatsiya qilishdagi asosiy g'oyalardan biridir. Ushbu g'oya zamonaviy ta'lim maqsadini u haqidagi an'anaviy g'oyalardan tashqarida bilimlar yig'indisini uzatish va tegishli ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish tizimi sifatida qabul qiladi. Hozirgi bosqichda aynan kompetensiya

ta'limning yangi sifati ko'rsatkichiga aylandi, chunki hozirgi vaqtda jamiyatda ilgari ixtiyoriy bo'lgan shaxsiy fazilatlarining roli oshdi, masalan: o'zgaruvchan dunyoda tezda harakat qilish qobiliyati; yangi kasblar va bilimlar sohasini egallash, turli kasb egalari bilan umumiy til topish qobiliyati. Shu sababli, ta'limni modernizatsiya qilish kompetensiyaga asoslangan yondashuvning ustuvorligini nazarda tutadi. Bunda birinchi o'rinda talabaniy ongliligi emas, balki turli vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyati turadi.

Global kompensatsiya tushunchasi ta'lim jarayonida muhim o'rin egallaydi[2]. U biologiya fanini o'rganayotgan talabalar uchun ekologik tafakkurni shakllantirish, ilmiy-tahliliy fikrlashni rivojlantirish, yangi bilimlarni tezda o'zlashtirish hamda fanlararo integratsiyani ta'minlash imkonini beradi[3]. Talabalarga biologiyani faqatgina darslik doirasida emas, balki amaliy muammolar bilan bog'liq holda o'rgatish – ularning ekologik mas'uliyatini oshirish va muammolarga innovatsion yondashish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

An'anaviy o'qitish metodlari ushbu maqsadlarga to'liq javob bermasligi sababli, interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, muammoli ta'limni joriy etish va biologiyani real hayot bilan bog'lab o'rgatish zarurati ortib bormoqda. Ushbu maqolada biologiyani o'qitishda global kompensatsiyani shakllantirishning innovatsion yondashuvlari, zamonaviy

pedagogik texnologiyalar va ekologik tafakkurni rivojlantirish bo'yicha samarali usullar tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Ma'lumki, har qanday davlatning rivojlanishi uning intellektual salohiyatiga bog'liq. Intellektual salohiyat xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotni ta'minlay oladigan mustaqil fikrli, malakali, bilimli, yuksak insoniy fazilatlariga ega kadrlarning majmuidir.

Bugungi kunda ijodiy faol, harakatchan, muammoli vaziyatlarni mustaqil ravishda hal qila oladigan va olingan bilimlarni yangi, nostandart muammolarni hal qilishda qo'llay oladigan kadrlar talabga ega.

Axborotlar jadallik bilan integratsiyalashib borayotgan hozirgi davrda zamonaviy ta'limning asosiy vazifalardan biri atrof-olam voqea-hodisalarini bilish orqali mustaqil tahlil qila oladigan shaxsni kamol toptirishda namoyon bo'ladi. Bu maqsadga, albatta, talabalarning bilish faolligini oshirib borish orqali erishish mumkin. Chunki inson hamisha o'zini qurshab turgan olam haqida tobora ko'proq bilishga intilib kelgan.

Ta'lim tizimidagi yangi maqsadlar inson shaxsini ustuvor vazifa qilib qo'yadi. Ta'lim tizimidagi ushbu yangi ijtimoiy yo'nalishlar turli yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: uzluksiz ta'lim tizimini qurishda, tizim strukturasi o'zgartirishda, muqobil ta'limning paydo bo'lishida, yangi mazmunni shakllantirishda, yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda. Bunday reformatsiyalar bevosita "Biologiya" fani o'rganishda ham amalga oshirilmoqligi, modulli darslar tashkil etilishi, mustaqil ta'lim olishni joriy etishni talab qiladi.

1. Global kompensatsiya tushunchasi va uning ta'limdagi o'rni

Zamonaviy ta'lim jarayonida global kompensatsiya tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha talabalarning o'z bilimlarini faqat nazariy darajada emas, balki amaliy hayotda qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Biologiyani o'rganishda global kompensatsiya ekologik muammolarni tushunish, ularga moslashish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Masalan, ekologik inqirozlar, biomuhandislik sohasidagi yutuqlar va atrof-muhit muhofazasiga oid dolzarb masalalar bo'yicha tanqidiy fikrlashni rivojlantirish global kompensatsiyani shakllantirishning muhim yo'nalishlaridandir.

Biologiya ta'limida global kompensatsiyani rivojlantirish orqali talabalarga ekologik muvozanatni tushunish, resurslardan samarali foydalanish, biotexnologiyalar va genetik tadqiqotlarning inson hayotiga ta'siri haqida chuqur bilim berish mumkin. Bu esa ularning kelajakda barqaror rivojlanishga hissa qo'shadigan mutaxassislar bo'lishiga zamin yaratadi[4].

2. Biologiya ta'limida innovatsion yondashuvlar

An'anaviy biologiya ta'limida asosiy e'tibor nazariy bilimlarni berishga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda interfaol va amaliy yondashuvlar tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Quyida global kompensatsiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik metodlar tahlil qilinadi:

2.1. Muammoli ta'lim (Problem-Based Learning – PBL)

Muammoli ta'lim usuli orqali talabalar real hayotda uchraydigan biologik va ekologik muammolarni o'rganadi, tahlil qiladi va ularga yechim topishga harakat qiladi. Masalan, talabalar iqlim o'zgarishi natijasida paydo bo'ladigan ekologik inqirozlar yoki genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO)ning atrof-muhitga ta'siri bo'yicha tadqiqot olib borishi mumkin. Bunday usul talabalarning tanqidiy fikrlash, mustaqil tadqiqot olib borish va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

2.2. Interfaol metodlar va STEAM yondashuvi

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, and Mathematics) yondashuvi biologiyani boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganish imkonini beradi. Masalan, biologiyani texnologiyalar va muhandislik bilan integratsiya qilish orqali talabalar biotexnologiya va bioinformatika sohasida amaliy loyihalar ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladi. Bunday yondashuv global muammolarni kompleks tahlil qilish va ularga kreativ yechim topishga yordam beradi.

2. Raqamli texnologiyalar va virtual laboratoriyalar

Zamonaviy biologiya ta'limida virtual laboratoriyalar va raqamli texnologiyalar katta ahamiyatga ega. Masalan, molekulyar biologiya va genetik tadqiqotlar bo'yicha interfaol

dasturlar yordamida talabalar tajribalarini virtual muhitda amalga oshirishi mumkin. Bunday usullar nafaqat vaqt va resurslarni tejaydi, balki talabalar uchun real ilmiy tadqiqot jarayonlarini simulyatsiya qilish imkonini ham beradi.

3. Biologiyani hayot bilan bog'lash va ekologik ongni rivojlantirish

Biologiya ta'limining eng muhim jihatlaridan biri uni real hayot bilan bog'lashdir. Talabalar atrof-muhitni muhofaza qilish, qishloq xo'jaligi, tibbiyot va oziq-ovqat xavfsizligi kabi sohalarga oid dolzarb masalalarni o'rganish orqali bilimlarini mustahkamlaydi[5].

Masalan, talabalar mahalliy ekologik muammolarni tadqiq qilish va ularga yechim topish bo'yicha loyihalar ustida ishlashlari mumkin. Bu nafaqat ularning ilmiy bilimlarini oshiradi, balki jamiyatga foydali bo'lish hissini ham shakllantiradi. Bundan tashqari, biologiya fanida dala amaliyotlari va ekologik ekskursiyalarni tashkil qilish ham talabalar uchun juda foydalidir. Bu usul ularga tabiat bilan bevosita muloqot qilish va ekologik muammolarni o'z ko'zi bilan ko'rish imkonini beradi.

4. Biologiya ta'limining jamiyat va texnologiyalar bilan integratsiyasi

Biologiya fani nafaqat akademik bilim berish, balki texnologiyalar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib borayotgan sohadir. Genetika, biotexnologiya, farmatsevtika va atrof-muhit muhofazasi kabi yo'nalishlarda biologik bilimlarning qo'llanilishi tobora ortib bormoqda.

Shu sababli, ta'lim jarayonida talabalarga biologiyani amaliy jihatlarini ko'rsatish va ularni texnologiyalar bilan uyg'un holda o'rgatish zarur.

Masalan, CRISPR texnologiyasining genetik muhandislikdagi o'rni yoki sun'iy go'sht ishlab chiqarishning ekologik afzalliklari bo'yicha interfaol mashg'ulotlar tashkil qilish mumkin. Shuningdek, ekologik inqirozlarni bartaraf etishda biotexnologiyalarning roli haqida ilmiy tadqiqotlar olib borish talabalar uchun motivatsion omil bo'lishi mumkin.

Biologiyani o'qitishda global kompensatsiyani shakllantirish zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir. Talabalarga nafaqat biologik bilim berish, balki ularni ekologik ongli, muammolarni tahlil qila oladigan va innovatsion fikrlashni mutaxassislariga aylantirish muhim.

Muhokama va natijalar. Biologiya ta'limining zamonaviy talablarga javob berishi uchun talabalarda global kompensatsiyani shakllantirish nafaqat ta'lim metodologiyasining yangilanishini, balki ekologik ong va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishni talab qiladi. Ushbu maqolada keltirilgan innovatsion yondashuvlar biologiya ta'limini yanada samarali, interfaol va amaliy jihatdan o'qitish imkoniyatlarini yaratmoqda. Muammoli ta'lim va STEAM yondashuvlari, virtual laboratoriyalar va raqamli texnologiyalar yordamida talabalar nafaqat biologiya faniga oid bilimlarni egallash, balki ekologik muammolarga yechim izlashda kreativ yondashuvni ham rivojlantiradilar[6].

Biologiyani o'rganish faqatgina ilmiy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Talabalar ekologik tizimlar va biotexnologiyalar kabi kompleks sohalarda mustaqil fikrlashni o'rganishi, ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni anglashlari kerak. Shu nuqtada, biologiya fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish, talabalarni ekologik muammolarni tahlil qilishga jalb etish, hayotiy vaziyatlarga moslashishga o'rgatish zarur.

Yuqorida ko'rsatilgan pedagogik yondashuvlar nafaqat talabalarning ekologik ongini shakllantiradi, balki ularning ilmiy izlanishlar olib borish, jamoaviy ishda faol qatnashish va global ekologik muammolarga innovatsion yechimlar taklif qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. O'quv jarayonida amaliyot va nazariyaning uyg'unlashishi talabalar uchun ancha samarali va qiziqarli bo'lishi mumkin. Biologiya darslarini real hayotdagi muammolarni bog'lash orqali ularning ijodiy salohiyatini oshirishga erishish mumkin.

Bundan tashqari, ekologik tafakkur va global kompensatsiyani shakllantirishning nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati ham katta. Biologiya fanini o'rganayotgan yosh mutaxassislar ekologik barqarorlikni ta'minlash,

resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy muammolarga yechim izlashda muhim rol o'ynaydi. Kelajakda, ushbu yondashuvlar yordamida biz nafaqat ilmiy kashfiyotlarni, balki jamiyatdagi ekologik ongni rivojlantirishni ham ta'minlaymiz.

1. Global kompensatsiya va ekologik tafakkurning shakllanishi: Talabalarda global kompensatsiyani shakllantirish uchun biologiya ta'limi nafaqat nazariy bilimlar, balki ekologik ong va jamiyat oldidagi mas'uliyatni tushunishni ham o'z ichiga olishi zarur. Muammoli ta'lim, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar yordamida bu maqsadga erishish mumkin.

2. Innovatsion metodlarning samaradorligi: Muammoli ta'lim va STEAM yondashuvlari talabalarga real hayotdagi ekologik va biologik muammolarni hal qilishda yordam beradi. Bu metodlar talabalar uchun qiziqarli va interfaol tarzda biologiya fanini o'rganishga imkon yaratadi.

3. Jamiyatga ta'sir: Biologiya ta'limining ekologik muammolarni yechim topishga qaratilgan yondashuvlari kelajak avlodni ijtimoiy mas'uliyatli, ilmiy-innovatsion fikrlovchi mutaxassislariga aylantiradi. Bu esa jamiyatda ekologik muammolarni hal qilishga ko'maklashadi.

4. Kelajak avlodni tayyorlash: Biologiya ta'limida global kompensatsiyani shakllantirish orqali yosh mutaxassislarni ekologik muvozanatni saqlash, resurslardan samarali foydalanish va biotexnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlash mumkin.

Shu bilan birga, biologiya fanining amaliy ahamiyatini talabalar ongiga singdirish, ularni ekologik muammolarga yechim topishda yaratgan imkoniyatlar yordamida tayyorlash ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlariga aylanadi[7]. Maqolada ta'kidlangan innovatsion metodlar va pedagogik yondashuvlar

biologiya ta'limining sifatini yanada oshirish va global ekologik muammolarga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Biologiya ta'limida global kompensatsiyani shakllantirish talabalarning nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy va ekologik ongini ham rivojlantiradi. Bugungi kunda, ekologik muammolarga yechim topish, biotexnologiya va resurslardan samarali foydalanish kabi sohalar bilimlarni o'zlashtirish talab etilmoqda. Innovatsion pedagogik yondashuvlar, masalan, muammoli ta'lim va STEAM yondashuvi, talabalarni biologiya fanining amaliy jihatlarini tushunishga undaydi, ularga o'z bilimlarini real hayotdagi muammolarni hal qilishda qo'llash imkonini yaratadi.

Shuningdek, zamonaviy biologiya ta'limi ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Talabalar nafaqat ilmiy bilimlarni, balki atrof-muhitni saqlash, ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va innovatsion fikrlashni ham o'rganadilar. Biologiya fanining jamiyatga, ayniqsa ekologik va texnologik sohalar, ta'sirini oshirish orqali kelajakda barqaror rivojlanishga hissa qo'shadigan mutaxassislar tayyorlash mumkin.

Natijada, biologiya ta'limida global kompensatsiyani shakllantirishning o'zi bilimlarni kengaytirishdan tashqari, talabalar uchun yangi fikrlash va innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlarini yaratadi. Bu jarayon nafaqat ilmiy kashfiyotlarni, balki jamiyatni ekologik barqaror rivojlantirishga tayyorlashni ta'minlaydi. Shunday qilib, biologiya ta'limining sifatini oshirish va ekologik muammolarga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun innovatsion metodlarni joriy etish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Mustafo, Z. (2023). Biologiya ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar. Tashkent: Akademiya nashriyoti.
2. Karimova, A. (2024). Global kompensatsiya va ekologik tafakkur: O'zbekiston ta'lim tizimida yangiyondashuvlar. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Xusanov, F. (2023). Biologiya fanining ekologik muammolarni hal qilishdagi roli. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
4. Bekmuratov, S., & Sattorova, G. (2024). STEAM ta'limi: Biologiya fanida amaliy yondashuvlar. Tashkent: Ta'lim va ilm-fan nashriyoti.
5. Rahimov, M. (2023). Biologiya o'qitish metodikasi va ekologik tafakkur. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
6. Tursunov, K. (2024). Innovatsion pedagogik metodlar va biologiya o'qitishdagi yangiliklar. Bukhara: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti.
7. Shukurov, U. (2023). Ekologiya va biotexnologiya: Kelajak mutaxassislari uchun yangi imkoniyatlar. Tashkent: Yangi Navoiy nashriyoti.



Dilnozaxon ABDULLAJANOVA,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, DSc
E-mail: dnekbayeva@inbox.ru

DSc, professor v.b N.M.Mullaboyeva taqrizi asosida

KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANISHIDA YO'NALGANLIK, QADRIYATLAR VA XULQ-ATVOR STRATEGIYALARIGA DIFFERENSIAL YONDASHUVLAR

Аннотация

Inson resurslari har qanday tashkilot uchun muhim muvaffaqiyat omilidir. Zamonaviy iqtisodiyotdagi inqirozni hisobga olgan holda, kapitalning ko'pligi va foiz stavkalarining pasayishi har doim ham korxonalariga qiyin paytlarda yordam bermasligi mumkin va bu kapital kompaniyalar muvaffaqiyatining kichik omili ekanligini ko'rsatadi. Shu jihatdan olib qaralganda, boshqaruv sohasida ham muvaffaqiyatli faoliyat olib borish bir jihatdan tashkilotning psixologik iqlimiga, boshqa jihatdan esa, faoliyat olib boruvchilarning o'zidan, muhitdan qoniqqanlik hamda qadriyatlar va xulq-atvor strategiyalarining rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq.

Kalit so'zlar: Kadrlar siyosati, kadrlar zaxirasi, qadriyatlar, yo'nalganlik, xulq-atvor strategiyalari, differentsiatsiya, boshqaruv kadrlari, oilaviy hayot, ijtimoiy hayot.

ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ОРИЕНТАЦИЯМ, ЦЕННОСТЯМ И ПОВЕДЕНЧЕСКИМ СТРАТЕГИЯМ В ФОРМИРОВАНИИ КАДРОВЫХ РЕСУРСОВ

Аннотация

Кадровые ресурсы являются важным фактором успеха любой организации. Учитывая кризис в современной экономике, обилие капитала и низкие процентные ставки не всегда могут помочь бизнесу в трудные времена, что позволяет предположить, что капитал является второстепенным фактором успеха компаний. С этой точки зрения успешная деятельность в сфере управления зависит, с одной стороны, от психологического климата организации, а с другой стороны, от удовлетворенности самих работников, окружающей среды, уровня развития ценностей и поведенческие стратегии.

Ключевые слова: Кадровая политика, кадровый резерв, ценности, направления, поведенческие стратегии, дифференциация, управленческий персонал, семейная жизнь, социальная жизнь.

DIFFERENTIAL APPROACHES TO DIRECTION, VALUES AND BEHAVIORAL STRATEGIES IN HUMAN RESOURCE FORMATION

Annotation

Human resources are an important success factor for any organization. Given the current economic downturn, the abundance of capital and low interest rates may not always help companies through difficult times, and this shows that capital is a minor factor in the success of companies. From this perspective, successful activity in the field of management depends, on the one hand, on the psychological climate of the organization, and on the other hand, on the satisfaction of those carrying out the activity with themselves, the environment, and the level of development of values and behavioral strategies.

Key words: Personnel policy, personnel reserve, values, orientation, behavioral strategies, differentiation, management personnel, family life, social life.

Kirish. Dunyoda boshqaruv sohasida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasi o'laroq kuchayayotgan kadrlar inqirozi jahon hamjamiyati tomonidan ham e'tirof etilayotganligi zaxira kadrlar o'rtasidagi raqobatbardoshlikni rivojlantirishni, kadrlar infratuzilmasini maqsadli yaxshilashni, faoliyat samaradorligini rejalashtirishni, amaldagi hamda zaxira nomzodlarni kasbiy mavqeyi, kompetentlik ko'rsatkichlari, moslik mezonlarini takomillashtirish, inson resurslarini baholashni boshqaruvning muhim elementi sifatida ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishni taqozo etmoqda. Bu borada, boshqaruv kadrlari zaxirasini samarali shakllantirish hamda joy-joyiga qo'yishda psixologik jins xususiyatlariga ko'ra tanlov usullarini ilmiy tadqiq etish, psixologik madaniyatni modellashtirishni takomillashtirish zarurati kuzatilmogda [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda davlat boshqaruv tizimida yuqori lavozimlarga tanlashda ayniqsa, davlat boshqaruv apparatiga katta yoshdagi kadrlarni tayinlash bo'yicha ba'zi qoidalar saqlanib qolgan. Uning natijadorligi asosan, katta yoshdagi kadrlarning tajriba va malakalariga bog'liq. Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari (Yaponiya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Angliya)da katta yoshdagi, tajribali kadrlarni tayinlash amaliyoti keng tarqalgan bo'lib, Yaponiyada ko'p hollarda yirik tashkilot, kompaniya boshqaruviga o'rtacha 63-64 yoshdagi kadrlar tavsiya etiladi. AQShda esa bu ko'rsatkich, 59 yoshni tashkil etadi. Tadqiqotchi fikricha, yosh kadr serg'ayrat, ishchan, innovatsiyalarni tez o'zlashtiradi va ularda natijadorlik tezroq

yuzaga chiqadi. Katta yoshdagi kadr esa, ko'p yillik tajribaga ega bo'lishi bilan birga tashkilotni o'ziga xosligini aniq ajrata oladi, ya'ni, har bir masalaning eng muhim va nomuhim jihatlarni ko'ra oladi. Emotsional barqaror, yuqori salohiyat bilan jamoani uzoq yillar samarali boshqarishi hamda ijobiy ko'rsatkichlarni namoyon etishi bilan farqlanadi [2]. Kadrlar zaxirasini shakllantirishda ma'lum bir chegaralarni belgilash shaxsning individual ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan birgalikda kasbiy kompetentlik, tashkilotchilik, mas'uliyatlilik, odob-axloq tamoyillarini jam bo'lishini talab qiladi.

Kadrlar zaxirasini shakllantirishda kasbiy kompetentlik nomzodni tanlagan yo'nalishiga muvofiqligi; ish yo'nalishi bo'yicha tajriba; bilim; ko'nikma; hujjat va axborotlarni tahlil qila olish qobiliyati; asosli qarorlar qabul qilish va amalga oshirishga erishish; ishbilarmonlik madaniyati; ilmlilik, kasbiy malakalarni tizimli ravishda oshirib borish; lavozimda o'sish uchun o'zini to'liq yo'naltira olish, tashkilotchilik tamoyili jamoani boshqarish, faoliyatni yo'naltirish, nazorat qilish, boshqaruvning zamonaviy usullarini, texnikalarini qo'llash bo'yicha bilim va malakaga ega bo'lish, lavozim vakolatlari doirasida o'z majburiyatlarini amalga oshirish qobiliyati, tashabbuskorlik xususiyatlarini o'z ichiga oladi [3]. Mas'uliyatlilik tamoyili o'zi va qo'l ostidagilarga nisbatan talabchanlik; faoliyatni obyektiv-tanqidiy baholash, tahlil etish va majburiyatlarni tan olishdir. Odob-axloq esa, vijdoniylik, mehnatsevarlik, obyektivlik, ijtimoiy-psixologik va axloqiy yetuklik, jamoa bilan muloqotda do'stona munosabat,

kommunikativlik, to'g'ri so'zlik, e'tiborlilik sifatlarining majmuini tashkil etadi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizdan o'rin olgan navbatdagi tahlil erkak jinsiga mansub boshqaruv hamda zaxiradagi kadrlarda shaxs yo'nalganligining namoyon bo'lishini solishtirish ishlariga bag'ishlanadi. Quyida keltirilgan jadvaldan ma'lum bo'ladi, shaxsning o'ziga yo'nalganlik ko'rsatkichida zaxiradagi va boshqaruv kadrlarida ahamiyatli tafovutni tashkil 1-jadval

Erkak jinsiga mansub boshqaruv hamda zaxiradagi kadrlarda shaxs yo'nalganligining namoyon bo'lishini taqqoslash natijalari (Mann-Uitni U-mezoni)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Zaxiradagi kadrlar (n=1010)	Boshqaruv kadrlari (n=168)		
O'ziga	580,4	644,4	75619	0,024*
Odamlarga	594,5	559,3	79772,5	0,213
Faoliyatga	592,3	572,5	81988,5	0,484

Izoh: * - $p < 0,05$

Zaxiradagi kadrlarda esa, ko'proq e'tiborni faoliyatga yo'naltirish, hamkasblari bilan yaxshi "til topa olish"ga urinish tufayli ularda samaradorlik o'z ustida emas, balki ijtimoiy muhit ta'siriga yo'naltirilgan bo'ladi, deb baholashimizga imkon beradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, shaxsning yo'nalganligi asosida g'oyaviy ishonch, e'tiqodlar yotadi. Boshqaruvdagi kadrlarda mazkur prinsipial ishonch yillar davomida "charxlangan" bo'lib, ushbu darajaga erishishda dastur-ul amal bo'lib xizmat qilgan. Zaxiradagi kadrlarga faoliyatlarida davomida g'oyaviy ishonch, konkret hayotiy strategiyalarni shakllanib borishi ulardagi yo'nalganlikning o'zidagi faoliyat natijalari samaradorligiga 2-jadval

Ayol jinsiga mansub boshqaruv hamda zaxiradagi kadrlarda shaxs yo'nalganligining namoyon bo'lishini taqqoslash natijalari (Mann-Uitni U-mezoni)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Zaxiradagi kadrlar (n=1477)	Boshqaruv kadrlari (n=388)		
O'ziga	929,4	946,6	281247,5	0,574
Odamlarga	929,7	945,7	281612,5	0,601
Faoliyatga	946,6	881,4	266499	0,033*

Izoh: * - $p < 0,05$

Faoliyatga yo'nalganlik shkalasi bo'yicha ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar mavjudligi kuzatildi ($U=266499$; $p < 0,05$). Quyida aytilgan ko'rsatkichda zaxiradagi ayol kadrlarda yuqori farqlar bo'lishi "jon-jahdi" bilan ishlash orqali faoliyatini yanada takomillashtirish, samaradorlikka intilish singari aqidalarning ayollar hayot strategiyalarida yetakchi faktorlardan biri bo'lib qolayotganligi bilan tavsiflashimiz mumkin. Faoliyat subyektning dunyo bilan o'zaro aloqalarini aks ettiruvchi dinamik sistemalar yig'indisi bo'lib, reallikni shaxs idrok etadi, tashqi olam predmetlari bilan munosabatlarga kirishadi va natijada, subyektning dunyo haqida tasavvurlari yanada kengayadi. Kadrlarda ko'proq faoliyatning psixologik komponentlaridan 3-jadval

Erkak jinsiga mansub boshqaruv hamda zaxiradagi kadrlarda ustuvor qadriyatlarining namoyon bo'lishini taqqoslash natijalari (Mann-Uitni U-mezoni)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Zaxiradagi kadrlar (n=1010)	Boshqaruv kadrlari (n=168)		
Maqsadli qadriyatlar				
Obro'-e'tibor	588,5	595,3	83873,5	0,813
Moddiy ta'minlanganlik	588,0	598,2	83371,5	0,719
Kreativlik	591,7	576,0	82568,5	0,577
Faol ijtimoiy munosabatlar	588,5	595,5	83827	0,804
O'z ustida ishlash	588,3	596,5	83668	0,774
Yutuqlarga erishish	584,0	622,3	79332	0,176
Ma'naviy qoniqish	595,2	555,4	79106	0,160
O'z individualligini saqlash	601,6	516,5	72576	0,003**
Hayotiy sohalar				
Kasbiy faoliyat	586,7	606,6	81965,5	0,481
Ta'lim olish	593,5	565,2	80755,5	0,316
Oilaviy hayot	593,0	568,2	81260,5	0,380
Ijtimoiy hayot	590,2	585,1	84108,5	0,858
Qiziqishlar (sevimli mashg'ulotlar)	589,0	592,3	84376	0,909

Izoh: ** - $p < 0,01$

O'z shaxsiy pozitsiyalarini mahkam tutish orqali individualligini "saqlash" qadriyatining maqsadlar tizimida yetakchilik qilishi ko'rsatkichida ishonch darajasida ahamiyatli farqlar aniqlandi ($U=72576$; $p < 0,01$). Diqqatimizni tortgan jihati zaxiradagi kadrlarda mazkur ko'rsatkich bo'yicha boshqaruvdagi kadrlarga qaraganda yuqori natijalar qayd etilganida bo'ldi. O'ylashimizcha, zaxiradagi kadrlarda o'z ichki "men"ligi saqlash o'zligini namoyon qilish "garovi" bo'lsa, aynan ushbu

etar ekan ($U=75619$; $p < 0,05$). Erkak jinsiga mansub boshqaruvdagi kadrlarda o'ziga yo'nalganlikning zaxiradagi kadrlarga nisbatan yuqori bo'lishini ulardagi o'zini ustida ishlash orqali professional muvaffaqiyatga erishish motivining baland bo'lishi, doimiy mehnat faoliyatiga bandlik natijasida faqat yuqoriga intilish istagining qadriyatlar sohasida "samaradorlik"ning ustunlik kasb etayotganligi bilan ham izohlashimiz mumkin [5].

qaratishga imkon beradi. Shuningdek, erkak jinsiga mansub boshqaruv va zaxira kadrlardagi shaxs yo'nalganligi bevosita jarayonda ahamiyat kasb etmasligi kuzatildi. Erkaklardagi o'zligini saqlab qolish, karyerada o'zini namoyon etishda ko'proq o'ziga yo'nalganlik ustunlik qilishi kuzatilar ekan. Metodikaning odamlarga ($U=79772,5$; $p > 0,05$), faoliyatga ($U=81988,5$; $p > 0,05$) yo'nalgan shkalalarida ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Bu erkak jinsiga mansub sinalluvchilarning individual-psixologik xususiyatlaridan tashqari asosan har qanday faoliyatda ichkariga yo'nalganlikning ustunligini yana bir namoyishi bo'lishi mumkin.

pertsektiv, emotsional va fikrlaydigan turlari yetakchilik qilishini ko'rish mumkin. A.N.Leontev fikriga ko'ra, faoliyat faollik shaklidir. Faollik individning ehtiyojlari, qadriyatlar va hokozalar natijasida paydo bo'ladi. Ushbu mulohazalardan, zaxiradagi ayol kadrlarda yuksalish, faol bo'lish ehtiyojining yuqori bo'lishi ham faoliyat jarayonida o'zini o'zi aktualashtirish motivini keltirib chiqaradi [6]. Aynan mazkur belgilarni inobatga olgan holda zaxiradagi ayollarning faoliyat jarayonidagi ehtiyojlarini muvofiqlashtirish orqali ularni boshqaruv sohasiga tayyorlash ko'nikmalarini va subyektiv pozitsional yondashuvlarini rivojlantirish ishlarini takomillashtirishimiz mumkin.

qadriyatning shaxsdagi maqsadlarida namoyon bo'lishi jamiyat talablarini qabul qilmaslik orqali pozitiv ko'nikuvchanlik instiktining buzilishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, kadrlar yuksaklashuvi jarayonini beqarorlashtiruvchi omillardan biri bo'lib, bir pog'onaga ko'tarilish motivining "so'nishiga" sabab bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, zaxiradagi erkak kadrlarni boshqaruv jarayoniga tayyorlash va faol jalb etishda

ularda nafaqat individual ko'nikmalarni, balki, kollegial-hamkorlik pozitsiyasini shakllantiruvchi sotsial mexanizmlarni ham takomillashtirish ishlarini yo'lga qo'yish lozim. Boshqaruvdagi erkak kadrlarda esa, mazkur maqsadli qadriyat bo'yicha nisbatan past natijalar aniqlanganligi rahbariy lavozimlardagi erkaklarning psixoprofessogrammasida kollektiv manfaatlarini ko'zlagan holda faoliyat olib borish shablonining ijtimoiy ustanovka darajasida ularning "ijtimoiy onglarida" qotib qolganligining natijasi, deb xulosalar chiqarishimizga turtki bo'ladi.

Natijalarimizga ko'ra, yuqorida keltirilgan erkak jinsiga mansub boshqaruv hamda zaxiradagi kadrlarda ustuvor qadriyatlarining namoyon bo'lishi bitta shkalada ahamiyatli farqni aniqlanganligi erkaklarga xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik 4-jadval

Ayol jinsiga mansub boshqaruv hamda zaxiradagi kadrlarda ustuvor qadriyatlarining namoyon bo'lishini taqqoslash natijalari (Mann-Uitni U-mezoni)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Zaxiradagi kadrlar (n=1477)	Boshqaruv kadrlari (n=388)		
Maqsadli qadriyatlar				
Obro'-e'tibor	946,4	881,9	266729,5	0,036*
Moddiy ta'minlanganlik	948,2	875,0	264042	0,017*
Kreativlik	939,0	910,1	277644	0,345
Faol ijtimoiy munosabatlar	922,3	973,6	270768,5	0,094
O'z ustida ishlash	913,0	1009,2	256956,5	0,002**
Yutuqlarga erishish	924,8	964,3	274406	0,198
Ma'naviy qoniqlash	937,1	917,3	280445	0,518
O'z individualligini saqlash	950,0	868,4	261484	0,008**
Hayotiy sohalar				
Kasbiy faoliyat	929,2	947,4	280950,5	0,553
Ta'lim olish	922,7	972,3	271295	0,106
Oilaviy hayot	953,5	854,8	256208	0,001**
Ijtimoiy hayot	924,7	964,6	274281,5	0,193
O'z qiziqishlar (sevimli mashg'ulotlar)	936,8	918,5	280909	0,551


Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$

Moddiy ta'minlanganlik qadriyati yuzasidan ham ishonch ko'rinishidagi farqlar aniqlangan bo'lib ($U=264042$; $p < 0,05$), tabiiy ravishda boshqaruvdagi ayollarda mazkur qadriyatga nisbatan baho zaxiradagi kadr ayollarga qaraganda pastroq natijada bo'ldi. Ushbu farqni boshqaruvdagi ayollarda o'zining mehnati uchun yetarlicha rag'bat olish orqali moddiy ahvolini yaxshilash darajasi balandligi bilan tavsiflasak, aksincha zaxiradagi kadr ayollarda rag'batlantirish, moddiy jihatdan yanada o'zini takomillashtirish motivining balandligi ulardagi boshqaruvga intilish va o'zini yanada takomillashtirish ko'nikmasini oshirish uchun xizmat qilishi mumkinligi haqida fikrlar bildirishimizga imkon yaratadi.

xususiyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ayol jinsiga xos boshqaruv va zaxira kadrlarda esa, ustuvor qadriyatlarining namoyon bo'lishida ko'proq shkalalar bo'yicha bog'liqliklar namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Ayol jinsiga mansub zaxiradagi hamda boshqaruvdagi kadrlar natijalari asosida tahlil qilganimizda obro'-e'tiborni ustuvor-maqsadli qadriyat sifatida baholash jihatidan zaxiradagi ayol kadrlarda ustuvorlik kuzatilgan bo'lib ($U=266729,5$; $p < 0,05$), ularning hayotiy strategiyalarida obro'-e'tibor qozonish orqali professional muvaffaqiyatga erishish motivi ustunlik qilishi ma'lum bo'ldi. Aynan faoliyat jarayonidagi muvaffaqiyat ularda boshqaruv jarayoniga bevosita kirish, qatnashishi shuningdek, "o'zini ko'rsatish" istaklarini amalda tatbiq etuvchi vosita rolini ham bajarar ekan.

O'z ustida ishlash qadriyati bo'yicha tafavutlar aniqlanib ($U=256956,5$; $p < 0,01$), boshqaruvdagi kadrlarda hamon o'z o'rnini "birovga bo'shatib bermaslik" ning kaliti sifatida tinimsiz mehnat qilish orqali muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining yuqori ekanligi ma'lum bo'lsa, zaxiradagi kadrlarda "ko'tarila olmaslik"ning asosiy sababiy kategoriyasi sifatida o'z ustida ishlash chastotasining pastligi hamda vazifalarni ado etishda faqat topshiriqlardan chetga chiqmaslik, ijodiy fikrlashning amaliy hayotga hamda ish jarayoniga to'liq tatbiq etish ko'nikmasining yetishmasligi sababiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.



1-rasm. Ayol jinsiga mansub boshqaruv hamda zaxiradagi kadrlarda ustuvor qadriyatlarining namoyon bo'lishini taqqoslash natijalari

O'z individualligini saqlash darajasi bo'yicha ham sinaluvchilarning natijalari o'zaro solishtirilganda ahamiyatli farqlar aniqlandi ($U=261484$; $p < 0,01$). Zaxiradagi kadrlarda o'z ichki "men" ini saqlab qolish, individual pozitsiyasini yo'qotmaslikka intilish ularning karyeralarida ko'tarilish imkoniyatini pasaytirsa, aksincha rahbar kadrlarda o'zganing tinglash, fikrlar xilma-xilligini inobatga olish hamda qarorlarini boshqalar bilan muhokama qilish orqali chiqarish ko'nikmasining shakllanganligi ulardagi individual egoning nisbatan past darajada namoyon bo'lishini ta'minlar ekan.

Mavjud ish muhitida xodim yoki rahbar xulq-atvorining strategik boshqarilishi yuqori professional va malakali inson kapitalini, mas'uliyatli va hamjihat jamoani shakllantirish bo'yicha uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun ustuvor va zarur bo'lgan muassasa rahbariyati tomonidan o'ylangan va ishlab chiqilgan, tashkilotning strategik maqsadlari va uning resurs imkoniyatlarini hisobga olish bilan bog'liq harakat yo'nalishi hisoblanadi. Strategik xodimlarni boshqarish tashqi va ichki chaqiriqlarga zudlik bilan javob berishi, o'z faoliyatida shaxslarning ehtiyojlariga e'tibor qaratib, raqobatdosh ustunlikka

erishishga yordam berishi kerak. Jamoada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zaro tushunmovchiliklar, nizolar va murosasiz holatlarda shaxsning xulq-atvor strategiyalari "maydonga" chiqadi. Boshqaruv va zaxiradagi kadrlarda xulq-atvor strategiyalari namoyon bo'lishining ijtimoiy status hamda gender jihatdan farqlarini tadqiq etish samarali boshqaruvdagi xodimlar jamoasining ijobiy muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Har qanday boshqaruvning negizida boshqaruv subyekti boshqaruv obyekti bo'yicha tartibga solish, takomillashtirish, rivojlantirishga qaratilgan harakatlari yotadi. Tomonlardan biri o'zining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ta'sirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi, ikkinchisi esa ularni idrok etadi (reaksiya qiladi) va o'z xatti-harakati va faoliyatini ularga mos ravishda quradi. O'zgaruvchan ta'sirga bo'lgan reaksiyaning to'g'ridan-to'g'ri namoyon bo'lishi - bu sodir bo'layotgan voqealarning ahamiyatini his qilish va aks ettirishidir. Tuyg'ular tashqi ta'sir natijasida "teskari reaksiya" va nafaqat xodimning, balki butun tashkilotning mehnat samaradorligini oshirish uchun yangi manbaga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullajanova D.S. Kadrlar zaxirasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Monografiya. – T.: “Tafakkur tomchilari”. 2021. – 143 b. [ISBN: 978-9943-7099-1-1]
2. Абдуллажанова Д.С. Влияние управленческих мотивов на активность женщин. Вестник интегративной психологии. Ярославль. Выпуск №24. 2022. –С.11-16.
3. Абдуллажанова Д.С. Социально-психологические критерии формирования психологического портрета при подготовке кадров к инновационно-управленческой деятельности. «Психология». Бухара. Научный журнал. №2, 2022. –С. 37-42.
4. Sattorov E.N. Kadrlar zaxirasi shakllanishi masalasining nazariy asoslanganligi kadrlar bilan ishlashni to'g'ri tashkil etishning muhim sharti sifatida/ilmiy maqola / Zamonaviy ta'lim / Современное образование 2021. 4 (101). – В. 86-88.
5. Агеев Н.В. Сплоченность трудового коллектива: управленческий аспект: сборник материалов XIII Международного социального конгресса. М.: РГСУ. 2014. – С 19-72.
6. Леонтьев А.Н. Некоторые психологические вопросы воздействия на личность// Проблемы научного коммунизма. М.:1968. Вып. № 2. – С. 30-42.



UDK :323/321:1(09) (584.4)

Muxiddin ABDURAXMONOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: Muxiddin1967@gmail.com

O'zMU professori B.To'ychiyev taqrizi asosida

JAHON YETAKCHI AKTORLARINING MARKAZIY OSIYODA GEOSIYOSIY TA'SIR UCHUN KURASHINING AYRIM XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada jahonning yetakchi aktorlarining Markaziy Osiyoda o'z ta'sir doirasini kengaytirish va milliy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha strategik rejalarini, ularni amalga oshirish tamoyillari va navbatida mintaq mamlakatlarining ushbu vaziyatda samarali siyosiy-iqtisodiy xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha xatti-harakatlari hamda ularning tashqi siyosiy konsepsiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, yetakchi aktorlar, milliy manfaatlar, strategik rejalar, tashqi siyosiy konsepsiya, yumshoq kuch, harbiy-siyosiy ittifoq, milliy qadriyatlar.

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ БОРЬБЫ ВЕДУЩИХ МИРОВЫХ АКТОРОВ ЗА ГЕОПОЛИТИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация

В данной статье освещены стратегические планы ведущих мировых акторов в Центральной Азии по расширению своего влияния, принципы их осуществления и в свою очередь действия стран региона по установлению международных политическо-экономических связей в складывающейся ситуации, а также их внешнеполитических концепций.

Ключевые слова: Центральная Азия, ведущие акторы, национальные интересы, стратегические планы, внешнеполитические концепции, мягкая сила, военно-политический союз, национальные ценности.

SOME FEATURES OF THE STRUGGLE OF LEADING WORLD ACTORS FOR GEOPOLITICAL INFLUENCE IN CENTRAL ASIA

Annotation

This article highlights the strategic plans of the world's leading actors in Central Asia to expand their influence, the principles of their implementation and, in turn, the actions of the countries of the region to establish international political and economic relations in the current situation, as well as their foreign policy concepts.

Key words: Central Asia, leading actors, national interests, strategic plans, foreign policy concepts, soft power, military-political alliance, national values.

Kirish. Hozir jahonda ro'y berayotgan chuqur global siyosiy o'zgarishlar jarayonida, ikkinchi jahon urushidan keyin shakllangan siyosiy tartib va ta'sir doiralarning kelajakda mavjud bo'lishi mavhum qolayotgan bir davrda Markaziy Osiyo mintaqasining dunyo siyosatidagi ahamiyati ortib bormoqda. Bu mintaqaning boy tabiiy zaxiralari, hamda Sharq-G'arb va Shimol-Janub kesishmasida strategik joylashuvi bilan izohlanadi. Dunyoning siyosiy tuzilishi va global boshqaruvining o'zgartirilishi tobora yaqqol ko'zga tashlanayotgan hozirgi davrda jahonning yetakchi "o'yinchilari" AQSh, Xitoy va Yevropa Ittifoqi hamda mintaqaviy yetakchilar Turkiya, Eron, Yaponiya va boshqa davlatlar Markaziy Osiyoda yuqori siyosiy, iqtisodiy va diplomatik faolligini namoyish qilmoqdalar.

O'z navbatida mintaq davlatlari ushbu tahdidlarni hisobga olib, ko'pvektorli tashqi siyosat yuritish va mazkur "o'yinchilar" bilan pragmatik munosabatlar o'rnatish hamda hozirgi yangi jahon siyosiy realligi shakllanayotgan davrda o'zlarini teng huquqli sherik sifatida ko'rsatish yo'lini tutdilar.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi hukumati mustaqillikka erishgandan keyin o'zining tashqi siyosatida shakllantirgan barcha davlatlar bilan o'zaro samarali hamkorlik qilish va turli blok va ittifoqlarga qo'shilmaslik siyosatini izchil amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Biz barchamiz Markaziy Osiyo kelajagi uchun mas'ulmiz. O'zbekiston har doim o'zaro anglashuv va yaxshi qo'shnichilik aloqalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi. Bizning maqsadimiz mintaqani iqtisodiy rivojlangan va gullab-yashnagan makonga aylantirishdir" [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyoda Rossiya, Xitoy, Turkiya, Eron kabi mamlakatlar uchun "yumshoq kuch" mexanizmlari hozirda ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mintaq geosiyosiy aktorlar tomonidan nodavlat tashkilotlar imokniyatlarini, g'oyaviy, til, ta'lim, diniy instrumentlardan foydalanib "yumshoq kuch"dan keng foydalanishning namunasi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, so'nggi paytda dunyo siyosatida harbiy kuch va iqtisodiy sanksiyalarni qo'llash ortib borayotganligiga qaramasdan, Markaziy Osiyoga ta'sir o'tkazuvchi davlatlar strategiyasida "yumshoq kuch" instrumentlari alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mintaq davlatlari bilan aktorlarning ikki va ko'p tomonlama hamkorlik (Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, 5+1, Yel, AQSh, Xitoy, Turkiyaning turli iqtisodiy va ta'lim loyihalari va boshq.), mediazaxiralari, tarixiy-madaniy qadriyatlar (Rossiya, Turkiya) shakllaridagi o'zaro hamkorlikning bir qator zaif tomonlari mavjud [4]:

o'zaro birlashtiradigan g'oyaning yo'qligi;
aktor davlatlar tillarining mintaqada foydalanilmasligi yoki foydalanish darajasining qisqarishi;
mintaq davlatlari elitasi uchun aktor davlatlar tashqi siyosatlarining Markaziy Osiyoda hukmronlikka erishishga yo'naltirilganligidan xavfsirashi.

Mintaq davlatlari tashqi siyosatida tashqi siyosiy ko'pvektorli siyosat olib borishlariga qaramasdan, ularning tashqi siyosiy konsepsiyalarining tahlili bir qator farqli tomonlarini shuni ko'rsatadi. Jumladan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikistonning tashqi siyosiy kursi xalqaro munosabatlarda maksimal darajada ishtirok etishga yo'naltirilgan bo'lsa, O'zbekiston harbiy-siyosiy ittifoqlarga qo'shilmaslik tamoyiliga amal qiladi, Turkmaniston esa umuman doimiy betaraf maqomiga olgan [3].

Shuningdek, mintaqada ta'sir kuchiga ega bo'lmoqchi bo'lgan davlatlarning Markaziy Osiyodagi faol siyosati ularning umumiy tashqi siyosiy strategiyasidan kelib chiqadi, jumladan AQSh va Yel dunyo siyosatidagi o'z ustunliklariga, mintaqaviy

yetakchi davlat maqomiga erishish (Turkiya), energetik zaxiralari ustidan nazorat o'rnatishga (Xitoy) va o'z ta'sirini saqlab qolishga (Rossiya) yo'naltirilgan [5].

Asosiy aktorlarning mintaqaga e'tiborining kuchayishi ko'rsatkichlaridan biri ularning o'z manfaatlarini ilgari surish uchun turli shakldagi o'zaro hamkorlikni taklif qilishlarida ko'rish mumkin:

- yevroosiyo iqtisodiy integratsiyasi doirasida (Rossiya);
- amerika hamkorlik loyihalari (AQSh);
- “bir yo'l-bir belbog” loyihasi (Xitoy)
- maslahat kengashlari;
- vazirlar uchrashuvi va boshq.

So'nggi paytda AQSh bilan jahonda yetakchilikka da'vogarlik uchun raqobat jarayonida Xitoy uchun yangi iqtisodiy taraqqiyot zaxiralari topishni talab etadi. Shunday manbalardan biri shubhasiz qo'shni Markaziy Osiyo mintaqasi bo'lib, u bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida transport-kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish, yuk tashish hajmini oshirish, mintaqa davlatlari bilan yevroosiyo integratsiyasi doirasida siyosiy, iqtisodiy, infrastrukturaviy, investitsiyaviy va boshqa shakllardagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirishni taqozo etadi [2].

O'z navbatida mintaqa davlatlarining xalqaro miqyosda, jumladan, jahonning yetakchi davlatlari ishtirokidagi tashkilotlar va alyanslarda ko'p tomonlama formatlarda ishtirok etishlari muayyan qadriyatlariga asoslanmagan bo'lib, ularning ichki siyosiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish imkoniyati sifatida qarashdan iborat xolos.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasini Markaziy Osiyo mintaqasida o'zaro hamkorlik va xalqaro aktorlar bilan munosabatlarni o'zaro samarali shaklda, mintaqaviy xavfsizlik nazariyasi, O'zbekiston Respublikasi hamda xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari natijalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosat konsepsiyasi, tegishli farmon va qarorlari tashkil etadi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalar, mintaqa davlatlari va mintaqada ta'sir kuchiga ega davlatlarning strategik konsepsiyalarini tadqiq qilish hamda ularni tahlil qilish asosida tashqi siyosatni olib borish kutilgan samarani berishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ushbu tadqiqotning metodologik jihati mamlakatimiz tashqi siyosatida jahon tajribasiga asoslangan samarali konseptual g'oyalarni amaliyotga joriy etish yo'llarini asoslashdan iborat.

Tahlil va natijalar. Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosat konsepsiyalari, aktorlarning mintaqada o'z ta'sir kuchini mustakamlashga bo'lgan intilishlarini tahlil qilish asosida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

mintaqa davlatlari davlat mustaqilligini saqlab qolish maqsadida milliy manfaatlarini himoya qilish doirasida iqtisodiy pragmatizmga asoslangan siyosat yuritmoqdalar, ammo O'zbekiston va Turkmaniston turli ittifoqlarga qo'shilmaslik siyosatini yuritishiga qaramasdan, barcha davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlashga erishmoqdalar;

mintaqadagi asosiy aktorlar, jumladan AQSh Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyodagi intilishlariga nisbatan 2019-2025 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy va investitsiyaviy strategiyasi, o'z navbatida Xitoy va Rossiya siyosat, iqtisodiyot, transport yo'nalishlarida investitsiyaviy loyihalar va xavfsizlik sohasida hamkorlik doirasida faol siyosat olib bormoqdalar;

Yel mintaqa davlatlari bilan ikki va ko'p tomonlama formatda turli sohalarida hamkorlik, ayniqsa uglevodorod zaxiralari Kavkaz orqali Yevropaga yuborish, rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, Markaziy Osiyoda mustaqil faoliyat yuritish strategiyasini olib bormoqda;

Turkiya Markaziy Osiyoda mintaqadagi turkiyzabon davlatlarni o'z bayrog'i ostida birlashtirish strategiyasini, bu yo'nalishda mintaqaviy hamkorlikning institutsional mexanizmlaridan (siyosiy, iqtisodiy, til, madaniy, etnik, milliy

qadriyatlarini rivojlantirish maqsadida Turkiya davlatlar tashkiloti doirasida) foydalanib o'z geostrategik imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qiladi.

Eron turkiyzabon (Tojikistondan tashqari) Markaziy Osiyoda o'zining cheklangan imkoniyatlariga qaramasdan, iqtisodiy pragmatizmga tayangan holda mintaqada asosiy “o'yinchi”lardan biri bo'lishga hamda ikki va ko'p tomonlama shaklda hamkorlikni kengaytirishga intiladi;

Yaponiya mintaqaviy siyosatining ustuvor yo'nalishlari iqtisodiy, siyosiy va gumanitar sohalarida uzoq muddatli strategik formatda (“Yaponiya - Markaziy Osiyo”) hamkorlikni chuqurlashtirish, Xitoy va Rossiya manfaatlariga qarshi geosiyosiy raqobatni vujudga keltirishdan iborat.

Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini kuchaytirish borasidagi geosiyosiy kurashda yetakchi davlatlar “yumshoq kuch” instrumentlari sifatida asosan nodavlat-notijorat tashkilotlari, ta'lim loyihalari va madaniy diplomatiya imkoniyatlaridan keng foydalanadilar. Yetakchi davlatlarning “yumshoq kuch” siyosati mintaqa davlatlarida o'zlariga moyil siyosiy lobbin shakllantirish bilan birga, aholi, asosan yoshlar bilan ishlash orqali davlat boshqaruv idoralari o'z tarafdorlarini vujudga keltirishga qaratilgan. So'nggi paytgacha Markaziy Osiyoda Rossiyaning siyosiy-iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarida “yumshoq kuch” instrumentlari kuchli bo'lgan bo'lsada, rus tilidan foydalanish darajasining qisqarishi, Xitoy va AQSh (iqtisodiy), Yel, Turkiya (g'oyaviy qadriyatlar) va boshqa aktorlar faolligi tufayli ushbu ta'sir jarayoni sezilarli darajada kamaymoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, so'nggi yillarda jahonda o'rnatilgan tartibning transformatsiyasi sharoitida Markaziy Osiyoda ta'sir doirasi uchun geosiyosiy raqobatning kuchayishi kuzatilmoqda. Yetakchi aktorlar tomonidan geosiyosiy faollikning kuchayishi mintaqaning muhim geostrategik joylashuvi bilan asoslangan. Bu mintaqaning Yevropa va Osiyoni birlashtiradigan quruqlikdagi xalqaro savdo-iqtisodiy yo'nalishlar kesishadigan geografik joylashuvi va Kaspiy dengiziga chiqish yo'liga egaligi bilan izohlanadi. Markaziy Osiyodagi aktorlar uchun mazkur ustunliklar bilan birga mintaqaning ayrim davlatlaridagi samarasiz davlat boshqaruvi hamda ekstremizm, terrorizm tarafdorlarining mavjudligi, keskin millatlararo munosabatlari, suv-energetika zaxiralari, korrupsiya va ixtisoslashgan kadrlar muammolari mintaqaning konfliktlik salohiyatini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O'zbekiston Respublikasi, mintaqada xalqaro geosiyosiy aktorlarning faolligi fonida o'z siyosiy-iqtisodiy taraqqiyoti va milliy xavfsizligini ta'minlash jarayonida bir qator strategik qadamlarni amalga oshirishi muhim ahamiyatga ega:

O'zbekiston Respublikasi hukumatining 2016 yildan keyingi davrda amalga oshirib kelayotgan mintaqaviy miqyosda barcha sohalarida hamkorlik, mavjud o'zaro muammolarni zudlik bilan hal qilish, xalqaro aktorlar bilan muvozanatlashtirilgan siyosat, o'zaro samarali aloqalarni olib borish, Markaziy Osiyoni turli mintaqaviy va xalqaro konfliktli vaziyatlardan xoli hududga aylanishiga imkon beradi;

mintaqadagi mavjud siyosiy institutlarning yagona siyosiy maqsadga, ya'ni mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirish uchun Markaziy Osiyo davlatlarining bevosita mas'ul vazirlik va muassasalari o'rtasida mavjud muammolarni hududlarda hal qilish uchun yaqin hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq;

Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro aktorlar bilan ikki va ko'p tomonlama strategik hamkorlik aloqalarini mintaqaviy xavfsizlik, teng huquqlilik, milliy manfaatlarini himoya qilish nuqtai-nazaridan tahlil qilib borilishi va aksincha holatlarni diplomatik vositalar orqali maqsadga muvofiq ravishda shakllantirishga erishish zarur.

ADABIYOTLAR

1. «Markaziy Osiyo: bir o'tmish va bir kelajak, barqaror rivojlanish va o'zaro farovonlik uchun hamkorlik» xalqaro konferensiyasi. // <https://kun.uz/kr/51369693?q=%2Fuz%2F51369693#1>.
2. Матвеев В.А. Новые стратегические инициативы Китая по интеграции пространства Большой Центральной Азии. // <https://cyberleninka.ru/article/n/>.
3. Концепция внешней политики Узбекистана от 13 августа 2012 г. <https://parliament.gov.uz>.

4. Концепция внешнеполитического курса нейтрального Туркменистана 2017-2023 г. <https://www.turkmenistan-kultur.at/oesterreich826-2017-2013-aussenpolitik.html>.
5. Гарбузарова Е.Г. Центральная Азия в современных мирополитических процессах. - М.: Издательство «Аспект Пресс», 2020. – 192 с.



UDK: 311:(901.3)

Xasan ABDURAXMONOV,
Toshkent farmatsevtika institute Phd, dotsent
E-mail: hasanabdurahmonov1991@mail.ru
Tel: +998998820791

TDTrU.f.f.d. prof. J.Ramatov taqrizi asosida

FORMS AND MODELS OF MANIFESTATION OF INNOVATIVE THINKING IN THE WORLDVIEW OF YOUTH

Annotation

This article discusses the forms and models of manifestation of innovative thinking in the worldview of young people, as well as important views and approaches to the need to revolutionize the minds of young people today and humanize their worldview.

Key words: New technology, youth, modern innovative thinking, youth worldview, innovative thinking, philosophical category, society, man, human life, concept, mythology, religion, philosophy, research.

ФОРМЫ И МОДЕЛИ ПРОЯВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ В МИРОВОЗЗРЕНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются формы и модели проявления инновационного мышления в мировоззрении молодежи, а также важные взгляды и подходы к необходимости революционизировать сознание современной молодежи и гуманизировать ее мировоззрение.

Ключевые слова: Новые технологии, молодежь, современное инновационное мышление, мировоззрение молодежи, инновационное мышление, философская категория, общество, человек, человеческая жизнь, концепция, мифология, религия, философия, исследование.

YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TAFAKKURNING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI VA MODELLARI

Аннотация

Ushbu maqolada yoshlar dunyoqarashida innovatsion tafakkurning namoyon bo‘lish shakllari va modellari hamda bugungi kunda yoshlarning ongida revolyusiya sodir etish, ularning dunyoqarashini insonparvarlashtirish zarurligi haqidagi muhim qarashlar, yondashuvlar haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi texnika, yoshlar, zamonaviy innovatsion tafakkur, yoshlar dunyoqarashi, innovatsion tafakkur, falsafiy-kategoriya, jamiyat, inson, inson hayoti, tushuncha, mifologiya, din, falsafa, tadqiqot.

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida barcha turdagi va ko‘rinishdagi axborotlar ahamiyati o‘sishi novatsiya va innovatsiya faoliyat muammosini tadqiq qilish dolzarbligini asoslaydi. Bu tushunchalar ko‘pincha aynan o‘xshatiladi, biroq bizning nazarimizda bu noto‘g‘ri. Tadqiqotlar natijasida mazkur muammo doirasida kategorial apparat shakllanmagan. Adabiyotlarda innovatsiya haqida ko‘p gapiriladi, biroq u negadir, faqat iqtisodiy kategoriya sifatida ko‘rib chiqiladi, shuningdek masala asosi hisoblanadigan innovatsion tafakkur nima ekanligi diqqat e‘tibordan chetda qolib ketgan. Fan va texnika tobora rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda mazkur masalani atroflicha va chuqurroq, ya‘ni falsafiy nuqtai nazardan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, tushunchalarning o‘zini aniqlash bunda etarlicha bo‘lmay, aksincha uni bir hodisa sifatida mavjud metodologiyaga asoslanib, novatsiya va innovatsiya o‘rtasida qiyosiy tahlillarni o‘tkazib tizimli tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi.

Innovatsiyalar inson faoliyatini belgilovchi asosiy mezoniga aylanib, faoliyat doirasida moddiy va ma‘naviy qadriyatlarga e‘tibor qaratishni talab etishi lozim. Innovatsiya ob‘ektiv jarayon bo‘lish bilan birga sub‘ektlarning aqliy mehnat faoliyatiga asoslanadi va ular tomonidan takomillashtirilib boriladi. Innovatsion tafakkur sohiblari novator, innovator, dastlabki foydalanuvchilar va boshqa jarayonga aloqador shaxslar hisoblanadi. Innovatsiyalar taraqqiyoti natijasida innovatsion muhit, ong, madaniyat, maqsad va tanlovlarning yuzaga kelishi, ular asosida faoliyatning amalga oshishi va innovatsion guruhlar faoliyatining qo‘llab-quvvatlanishi tobora dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham “Madaniyat, — deb yozadi P.Kozlovskiy, — bugungi kunda innovatsiya va jamiyat rivojlanishining kaliti sifatida tavsiya etiladi, u yangi texnikaning kiritilishi va jamiyat tomonidan “tan olinishi”ni engillashtiradi, xalqaro tajriba almashinuv va bir-birini tushunishga yordam beradi. Madaniyat

barcha ijtimoiy indikatorlar va jamiyat taraqqiyotining o‘shish mezonlari oralig‘ida bo‘lishi lozim”. Innovatsion tizimda madaniyat fenomeni muhim rol ahamiyat kasb etadi va innovatsion rivojlanishni ta‘minlaydi.

Hozirgi jamiyatni harakatlantiruvchi sub‘ekti – yosh avlodidir. Hozirda innovatsion shaxsni tarbiyalash dolzarb omildir. “Innovatsion shaxs” tushunchasini amerikalik faylasuf Everett Xagen tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Hozirgi davrda taraqqiyot jarayonida innovatsion dunyoqarash qobiliyatiga ega yoshlarni tarbiyalash muammosi dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Innovatsion dunyoqarashga ega shaxs tarbiyasida ta‘limni modernizatsiyalash muhim masala hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta‘kidlaganidek: “Rivojlangan mamlakatlarda ta‘limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya‘ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e‘tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e‘tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”. Innovatsion qarashlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivoji bo‘lib, yoshlarning aniq maqsadlarini belgilab olish va amaliyotga joriy etishni ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Innovatsion tafakkur to‘g‘risida qarashlar va yondashuvlar kabi unga berilgan ta‘riflar ham xilma-xildir. A.Begmatov innovatsion tafakkur mahsuli bo‘lgan innovatsion faoliyatni quyidagicha tavsiflaydi: “Innovatsion faoliyat” atamasi ishlab chiqarishda yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratish bo‘yicha xizmatlar bajarishni, yangi takomillashtirilgan texnologik jarayonni anglatadi. Innovatsion faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: - yangi mahsulotni yaratish bo‘yicha faoliyat; - yangi original g‘oyalarni tayyor mahsulot sifatida

bozorga chiqarish; - yangi original g'oyalarni takomillashtirish va h.k.". Bu izlanish va yoshlarni etaklash tizimini yaratish demakdir. Zamonaviy innovatsion tafakkurga ega yoshlar kelajakda aqlli iqtisodiyot, aqlli shaharlar, aqlli mamlakatni bunyod qiladilar...bunday yoshlarni maktabda, universitet va universitetdan keyingi davrdanoq birinchi natijalarni ko'rsatganlaridayoq to'g'ri yo'lga etaklashimiz kerak. Innovatsion jamiyatga innovatsion tafakkuri rivojlangan yangi professionalarni berish kerak. Haqiqatdan yangi nanotexnologiyalar, axborot texnologiyalari, fundamental ilmiy rivojlantirar ekanmiz, shuni yodda saqlashimiz kerakki, ishni quyidan boshlashimiz kerak, bog'cha, maktab partasidan: yuqori texnologiyalardan foydalanish uchun bog'cha bolalaridayoq to'g'ri tafakkurni shakllantirish lozim.

Tafakkurning empirik, nazariy, vizual, mantiqiy, fazoviy va boshqa turlari aynan innovatsion tafakkuri shakllanishida o'ziga xos xususiyatga egadir. Masalan, nazariy tafakkur yuqori darajadagi mavhumlik tushunchalari bilan ishlash bilan bog'liq bo'lgan innovatsion tafakkurning bir qismi hisoblanadi. Empirik tafakkur esa hissiy idrok etish natijasida olingan vizual tasvirlar orqali innovatsion tafakkur qilish jarayoni sifatida tavsiflanadi. Aslida innovatsion tafakkur innovatsion faoliyatning yagona, ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki aynan innovatsion tafakkur innovatsion faoliyatda namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bizning fikrimizcha, innovatsion tafakkur o'zida ijodiy, ilmiy va nazariy, ijtimoiy, konstruktiv, pragmatik, transformativ xususiyatlarni aks ettirishi kerak. Masalan, innovatsion tafakkur ijodiy, ya'ni mavjud algoritmlar, namunalar, modellar doirasidan tashqariga chiqishi ham mumkin. Chunki aynan ijodiy tafakkur insonga asosan sub'ektiv ravishda yangi natijalarni qo'lga kiritishiga yordam beradi. Bundan tashqari innovatsion tafakkur san'atda amalga oshirilgan ijodiy fikrlashdan farq qiladi. Rassom tomonidan ichki hissiy dunyo orqali yaratilgan asarlar har doim ob'ektiv yangilik sifatida baholanadi. Ixtirochi uchun esa innovatsion maqsad kam mehnat sarf qilib ulkan natijaga erishish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijodiy fikrlash jarayonidagi tushuncha – bu mavjud algoritmlar doirasida tug'ilishi mumkin bo'lmagan yangi bir narsaning tug'ilish vaqtidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Innovatsion tafakkur ilmiy va nazariy jihatdan ham inson faoliyatida o'zgacha tarzda namoyon bo'ladi. Chunki V.P.Deliya to'g'ri ta'kidlaganidek, ilmiy tafakkur "nazariy tafakkurga nisbatan uning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bu davrning nazariy tafakkurini oldingilaridan ajratib olish imkonini beradi". Nazariy tafakkur asosida ishlaydigan tushunchalar zamonaviy fan darajasida mavjud bo'lgan mavhumlik darajasiga ham ega bo'ladi. Chunki busiz o'rganilayotgan hodisa va jarayonlar uchun bir necha bor sinovdan o'tgan nazariy modellarni yaratmasdan, umumlashtirmasdan, ilm-fan va texnikaning zamonaviy rivojlanishida talab qilinadigan innovatsion mahsulotni yaratish mumkin emas. Masalan, yangi energiya manbasini yaratish faqat zamonaviy bilim va texnologiyalar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Innovatsion tafakkur konstruktivdir. Konstruktivlik deganda kerakli oldinga qo'yilgan maqsadga to'g'ri xulosa berish va unga faoliyat jarayonida to'g'ri keladigan usullar va asoslarni tanlash, jarayon ketma-ketligini belgilash, maqsadga etishishni aniqlash va uni dialektik tarzda yangilash, maqsadga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish, yangiliklarni amalda joriy etilishining kelib chiqadigan holatlarini anglash qobiliyatidir. Konstruktivlik tushunchasi qatorida uning mukammal mujassamlashtirish sifatida yaxshi natijaga ega bo'lishi mumkin. Musiqani montaj chizig'ida bajarish innovatsion tafakkurda ijodiy va texnologik jihatdan ideal kombinatsiyadir. Aynan shu narsa Amerikaning taniqli kashfiyotchisi Edison tomonidan amalga oshirildi, u o'z texnik qarashlarini oqimga va ulardan foyda olishga muvaffaq bo'ldi.

Innovatsion tafakkur pragmatizmi shu hodisa bilan birgadir. Har bir kasb sohasida o'ziga xos innovatsion o'zgarishlarning bo'lishi tabiiy holat. Chunki tibbiyotdagi innovatsion bilish, arxitektornikidan farq qiladi va shu sohalaridagi bilim ularni innovatsion tafakkurini aniq maqsadlarga yo'naltirishga xizmat qiladi. Chunki SH.T.Kubaeva aytganidek, "...innovatsiyalar innovatsion tafakkurga ega bo'lgan individlar

tomonidan amalga oshiriladi. Innovatsion tafakkurning ob'ektlashuvi innovatsion ta'limni yaratish orqali yuz beradi. Innovatsion ta'lim esa, o'z navbatida, bo'lg'usi mutaxassislarda turmushning mazmuni va uni qayta ishlab chiqarishni tushunishning rivojlanishiga yordam beradi, bu bilan shaxsning innovatsiyalarni ro'yobga chiqarishga undovchi innovatsion tafakkuri shakllanadi".

Innovatsion tafakkur sohibi mavjud sharoitlardan xabardor bo'lishi, ulardan samarali foydalanishi kerak. Ayniqsa, Oksford universiteti direktori Nik Bostrom to'g'ri ta'kidlaganidek: "Texnologik progressning tezlashuvi tufayli insoniyat hozir o'z taraqqiyotining keskin burilish nuqtasiga katta tezkir bilan yaqinlashib borayotgan bo'lishining ehtimoli katta. Jamiyatga tanish bo'lgan yadroviy qurol xavf yoniga nanotizmlar va mashina intellekti kabi sohalarida jadal rivojlana boshlagan texnologiyalarning misli ko'rilmagan imkoniyatlari va xatarlari kelib qo'shilmog'da. Bizning kelajagimiz, agar u bo'ladigan bo'lsa, bizning ana shu jarayonlarga nisbatan munosabatimizga bog'liq. Biz jadal rivojlanayotgan texnologiyalarga bog'liq ekanmiz, insoniyat jamiyatdan "post-insoniyat" (noinsoniy) jamiyatiga o'tish dinamikasini yaxshi anglab etishimiz kerak. Ayniqsa, tuzoqlar qo'lda joylashganini: muqarrar o'limga olib borishi mumkin bo'lgan yo'lni payqashimiz kerak".

Innovatsion tafakkurni rivojlantirish innovatsion xatti-harakat qilishni, innovatsion g'oyalarni amalga oshirishni ham talab qiladi. Ya'ni odamlarga o'z g'oyalari va orzularini o'z hayotlariga tatbiq qilishga imkoniyat berilishi kerak bo'ladi. Zero har bir innovatsion g'oyaga ehtiyoj iste'molchi tomonidan qoplanishi kerak. Shu sababli innovatsion tafakkurning tarkibiy qismlaridan biri sifatida g'oyalar kommersializatsiyasi hisoblanadi. Innovatsion tafakkur bu oxir natijada – daromad degani, bu har qanday ish, biznes taraqqiyoti qurolidir. "Innovatsion jarayonlarning tizimli xarakterga ega ekanligi uning maqsadga yo'naltirilganligi bilan ham bog'liq bo'ladi, shuning uchun innovatsion jarayonlarning barcha tarkibiy qismlari manfaatlar muvozanati va taraqqiyotning umumiy rivojlanish dinamikasini aniqlaydi".

Innovatsiya sintetik, o'ziga faol tafakkurning turli qirralarini o'z ichiga oluvchi tushunchadir. Yadrosi sifatida ongning yangi bilimlarga yo'nalganligi, ularga psixologik ehtiyoj sezishi va ularni qabul qilishga intellektual tayyorgarligini tushunish kerak. Kuch shunchaki bilimda emas ekan. Faqat dolzarb va fundamental bilimlar kuch-qudratga ega. Innovatsion tafakkur bu ijodkor shaxs uchun ko'p variantlar mavjud emas – yoxud o'zi yangilik yaratishi yoxud o'z vaqtda yangiliklarga javob qaytara olish, novatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilinishining zarurati va maqsadga muvofiqligini asoslay olish lozim. SHunday qilib, innovatsion tafakkur ijodiy ongga xos hodisadir.

Innovator – homo pragmaticus – pragmatik shaxs. U g'oyani amaliyotga qanday joriy qilish, yangilikka aylantirishni aniq biladi. Konservativ – homo tecnicus – texnologik shaxs esa biaz oldingi salbiy holatlarni bartaraf etish, jamiyat va insonga innovatsiyalarni qabul qilish va undan samarali foydalanishga keng imkon beradigan texnologiyalar sohibi hisoblanadi. Ko'rib turganimizdek, innovatsion jarayonga jalb qilingan barcha insonlar o'z qobiliyati va tajribasidan kelib chiqqan holda biridan alohida ajralib turadi. Biz uchun hozirgi vaqtda yoshlar o'zini shaxs sifatida qanday anglashi, dunyo va innovatsion o'zgarishlar jarayonidagi o'rni bilan belgilanadi, desak yangilishmagan bo'lamiz. SHu boisdan ham I.G'.Abdullaeva innovatorga xos bo'lgan xislatlarni quyidagicha izohlaydi: "1. Tafakkur mahsuli bo'lgan intellektual mulkka (yakka tartibda yoki boshqalar bilan birlashgan tarzda) innovatorlar egalik qiladi. 2. Innovatsiyani amaliyotga joriy etishda iqtisodiy huquqlardan foydalaniladi. 3. Mehnat qilish va mehnat turi erkin tanlanadi. 4. Hech kim noqonuniy tarzda innovatsion izlanishlardan, mulkiy munosabatlarni takomillashtirish va mulkini kengaytirish huquqlaridan mahrum qilinmaydi. 5. Innovatorlar kasb-kor assotsiatsiyalariga birlashish va ular orqali mamlakatni, korxonasi, xo'jalik hayotini boshqarish huquqiga ega. 6. Xalq yoki mehnat jamoasining irodasi, ayniqsa, innovatorlar faolligi va tashabbuslari hokimiyat yoki mulk egasi faoliyatining asosi hisoblanadi. 7. Innovatorlar ijod va iqtisodiy huquqlarini amalga oshirish,

ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlanish (ta'minot) huquqiga ega. 8. Innovator inson sifatida mehnatiga yarasha haq olishi va taqdirlanish huquqiga ega. 9. Innovatorlar iqtisodiy va madaniy huquqlarini himoya qiladigan kasaba uyushmalari (ittifoqlari) tuzishi mumkin. 10. Innovatorlarning alohida imtiyozlarga ega bo'lishi mehnat tartiblarini, shartnomalarini buzish hisoblanmaydi".

Novator, homo creator – yangi g'oyalarni yaratuvchi avlod hisoblanadi. Novator o'ziga xos ideal shaxs, ijodkor odamdir. Bunday insonlarning dunyoqarashi sivilizatsiya bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Sivilizatsion yondashuv innovatorga jahonning turli taraflaridan o'z g'oyalarini jalb qilishga juda ko'p imkonlar beradi. Kashfiyotchi odatda faqat sivilizatsiyaning bir qancha elementlariga e'tibor qaratadi. Innovator, homo pragmaticus, innovatordan olgan yangi narsalarni tanishtiradi, ularni innovatsiyalarga o'zgartiradi va ularni amalga oshirish uchun konservatorga beradi.

Tahlil va natijalar. Mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirish, ularni muntazam ravishda tashkil etish va "innovatsion shaxs" ega bo'lishi kerak bo'lgan asosiy vakolatlar to'plamini aks ettiradi. Innovatsion tafakkur va unga asoslangan innovatsion faoliyat, o'z navbatida, ijtimoiy o'zgarishlarga moslashish strategiyalaridan biridir. Innovatsion rivojlanishga o'tish zamonaviy jamiyatning muhim vazifasidir. "Innovatsion ta'lim" o'ziga xos intellektual vosita yoki texnologiya sifatida

innovatsiyalarni yaratish jarayonining barqarorligini ta'minlaydi. "Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz birona sohaning rivojlanishi mumkin emas".

Innovatsion ziyalik deyilganda shaxsning yangilik kiritilishiga uning mazmuni va ehtimoliy / kuzatilayotgan oqibatlarini baholash va "qabul qilish/ qabul qilmaslik, qo'llab-quvvatlash/ qarshilik ko'rsatishda ifodalanuvchi, izlanishning ahamiyati va ustuvorligi hamda unda qo'lidan kelgancha ishtirok etish" tushuniladi. Ishonch deyilganda ijtimoiy tizimlarga nisbatan kishilar tomonidan ko'rsatiladigan istiqbolga yo'naltirilgan ishonch, oldindan ishonch tushuntiriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, innovatsion tafakkur har doim yangilik qilishga yo'naltiriladi. Innovatsion tafakkur insonparvarlik g'oyalariga asoslanish bilan bir qatorda innovatsiyalar mehnat unumdorligini oshiradi, mehnat sharoitlarini engillashtiradi, hayotiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Biz bu innovatsion tafakkur xususiyatini ijtimoiy ijobiy deb ataymiz. Shuning uchun uni yangilik deyshimiz maqsadga muvofiq kelmaydi, misol uchun, odamlarni o'ldirish uchun ixtiro qilingan va foydalanilgan gaz xonalarini. Gaz kamerasini ixtiro qilgan natsistlarning fikrlashini garchi u ham amaliy, ham konstruktiv jihatdan innovatsion tafakkur xususiyatlariga mos kelsa ham innovatsion va ijodiy yutuq deb yuritilmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-ж. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 85.
2. Saitqosimov A.I. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish qonuniyatlari. Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2019. – B.17.
3. Аминова Дженнет Камилевна Мугадова Сиясат Тимуровна Мунгиева Нина Зурабовна Цахаева Анжелика Амировна. "Шпаргалки по общей психологии" Киев-2017.
4. Франкл В. Человек в поисках смысла. – М.: Прогресс, 1990. – Б. 24-54.
5. Ксендзюк А. Тайна Карлоса Кастанеды. – Одесса, 1995. – Б. 264-265.
6. Абдуллаева И.Ф. Миллий тараққиётнинг янги босқичида иқтисодий ва инновацион тафаккур уйғунлиги. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2019. – Б.12.
7. Шумпетер Й. Десять великих экономистов от Маркса до Кейнса. Издательство Института Гайдара 2011. – 416 с.

Садокат АБИДОВА,

И.о.доцент Ташкентский государственный педагогический университет, PhD

Рецензент док.пед наук, проф.Д.Д.Шарипова

ADVANTAGES OF DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN THE PROCESS OF TEACHING ZOOLOGY AT THE UNIVERSITY

Annotation

This article discusses the issues of digitalization of education, concepts related to digitalization, forms of application of digitalization, as well as the advantages of digital educational resources in teaching biology. The use of digital resources in teaching zoology allows solving some problems associated with providing visibility in the study of zoological objects.

Key words: Digitalization, IR competence, professional training, education, biology, zoology, multimedia resources.

ПРЕИМУЩЕСТВА ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ЗООЛОГИИ В ВУЗЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы цифровизации образования, понятия, связанные с цифровизацией, формы применения цифровизации, а также преимущества цифровых образовательных ресурсов в преподавании биологии. Применение цифровых ресурсов в преподавании зоологии, позволяет решить некоторые проблемы, связанные обеспечением наглядности при изучении зоологических объектов.

Ключевые слова: Цифровизация, ИК-компетентность, профессиональная подготовка, образование, биология, зоология, мультимедийные ресурсы.

OTMDA ZOOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINING AFZALLIKLARI

Аннотация

Ushbu maqolada ta'limni raqamlashtirish masalalari, raqamlashtirish bilan bog'liq tushunchalar, raqamlashtirishni qo'llash shakllari, shuningdek, biologiyani o'qitishda raqamli ta'lim resurslarining afzalliklari ko'rib chiqiladi. Zoologiyani o'qitishda raqamli resurslardan foydalanish zoologik ob'ektlarni o'rganishda aniqlikni ta'minlash bilan bog'liq ba'zi muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, IK kompetensiyasi, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim, biologiya, zoologiya, multimedia resurslari.

Для профессиональной подготовки и формирования социально активного преподавателя биологии, необходимо обеспечить сочетание фундаментального образования и глубокого усвоения научных основ профессиональной деятельности с формированием практических навыков и умений. Основной целью эффективности профессиональной подготовки преподавателя, способствующего гармоничному развитию личности обучающего, является всестороннее развитие личности преподавателя, соответствующая наблюдаемым тенденциям развития общества и личности современного обучающегося. Для повышения эффективности подготовки учителей общеобразовательных школ, необходимо комплексное последовательное и методическое решение этих проблем. Реализация задач профессиональной подготовки преподавателей в соответствии с современными требованиями реформирования образования включает в себя также формирование ИК-компетентности, необходимой в

современном цифровом образовательном процессе. В связи с этим необходимо совершенствование процесса подготовки преподавателей биологии к проектированию своих занятий и создание дидактических материалов с использованием средств ИТ, что предполагает комплексное использование средств ИТ и традиционных методов и форм обучения, создание целостного учебно-методического электронного обеспечения на всех этапах обучения [1].

Исходя из этого, следует отметить, что в настоящее время в нашей стране наблюдается процесс широкомасштабного внедрения процесса цифровизации во все сферы жизнедеятельности. Что же из себя представляет процесс цифровизации и почему в последнее время данный процесс получил широкое распространение? Ниже приведены определения понятию цифровизация, предложенные рядом зарубежных и отечественных учёных (см. рис.1.):



Рис. 1. Определения понятию цифровизация.

Ряд российских учёных утверждают, что цифровизация образования является важнейшим мировым трендом, заменяющим аналоговые технологии цифровыми технологиями и оказывает существенное влияние на современное образование. «Цифровизация образования основана на использовании цифровых технологий, облачных, когнитивных технологий и технологий искусственного интеллекта, которые позволяют автоматизировать большое количество функций и создавать специализированные образовательные среды для полноценного обучения» [2]. «Использование цифровых технологий стало неотъемлемой частью современного высшего образования, и его изучение вызывает все больший интерес и академического сообщества, и практиков, и управленцев» о чём констатирует группа российских учёных [3].

В последнее время наблюдается широкое распространение цифровизации в сфере образования.

«Учитывая специфику подрастающего поколения, университеты все чаще используют цифровые каналы в бренд-коммуникациях. Это позволяет создать единый, целостный образ, близкий и понятный современному студенту. Их не интересует образовательный процесс, направленный на передачу и запоминание знаний, так как они живут в условиях свободного доступа к огромному количеству информации. Цифровые технологии однозначно влияют на бренд вуза. В исследовании отмечается, что студенты напрямую не связывают цифровые технологии с брендом университета, но ждут от них реализации обязательных функциональных элементов бренда вуза: удобство обучения, актуальные знания, удовлетворенность процессом обучения за счет экономии времени и возможности обучения 24/7 в любой точке мира, учиться легче, с интересом и непрерывно, обучаться у ведущих мировых практиков и специалистов» [4].

В современном образовательном процессе даже появилось выражение технологии BYOD - Bring you own device (Принеси своё устройство), которое подразумевает использование студентами или обучающимися своих мобильных устройств для осуществления какой-либо запланированной работы в учебной деятельности. На сегодняшний день это актуальные формы ИКТ – технологий в образовательном процессе, поскольку фактически у всех современных студентов и учащиеся имеются смартфоны или планшеты, которые представляют собой мобильные персональные компьютеры с выходом в интернет и доступны в использовании [5].

Исследования показали, что компьютеризация образования является одним из крупномасштабных инноваций, привнесенных в Узбекистан за последние десятилетия. Основными направлениями внедрения компьютерных технологий в образование являются:

- компьютерные технологии как средство совершенствования образовательного процесса и повышения его качества и эффективности;
- использование современных информационных технологий в качестве средства для организации интеллектуального досуга;
- компьютерная технология как инструмент обучения, самопознания и изучения реальности;
- рассмотрение современных средств информационных технологий в качестве объектов изучения;
- применение средств информационных технологий для передачи и приобретения педагогического опыта, методической и учебной литературы;
- использование средств информационных технологий в качестве механизма творческого развития обучаемого;
- использование компьютерной техники с целью автоматизации процессов контроля, коррекции, тестирования и психодиагностики;
- интенсификация и совершенствование управления учебным заведением и учебным процессом на основе использования системы современных информационных технологий [6].

С.К.Антипов считает, что в цифровой среде акцент следует делать на персонализации обучающихся и, исходя из личных характеристик, исключать возможность использования унифицированного инструмента обучения, что требует много времени и большего объема ресурсов [7]. Индивидуализация и персонализация образования не является техническим решением, гарантирующим, что учителя будут уделять особое внимание каждому ученику ("глаза в глаза"), а это особый способ построения образовательного процесса, при котором шаг за шагом развивается субъектность самого учащегося и вырабатывается способность самостоятельно организовывать педагогическую и развивающую деятельность [8].

Изучая информационно-коммуникативные технологии в современном образовании Е.С.Тужикова дала классификацию информационно-коммуникационных технологий, в которой охарактеризовала их по трём признакам:

5) Hamkorlikda o'rganish – o'quvchilar o'zaro bilim almashishadi, bir-biriga dars o'tirishadi va tushunmagan jihatlarni tushuntiradilar. Bu o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash va boshqa bolalar bilan hamkorlikda o'rganishni o'rgatadi.

6) Raqamli vositalar yordamida o'quvchilarni jamoa bo'lib o'rganish – o'quvchilar raqamli platformalarda birgalikda ishlash, o'zaro fikr almashish, savol-javob o'tkazish va topshiriqlarni bajarish orqali texnologiyani samarali ishlatish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi;

7) Ijodiy yondashish – o'quvchilar guruhlar bo'lib, ijodiy yondashish yoki muammolarni yechish uchun yangi g'oyalarni ishlab chiqadilar. Bunday mashg'ulotlar ijodkorlikni, fikrni ochiq bildirishingizni va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;

8) Jamoa bo'lib o'z fikrlarini bayon etish – o'quvchilar guruhlar bo'lib, turli mavzularda bo'yicha tayyorlangan ko'radi va ular o'z bilimlarini boshqalarga taqdim etadilar. Bu ularning jamoada ishlash, ma'lumotlarni tizimlashtirish va nutq madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu kollaborativ o'qitish texnologiyalarini turlaridan foydalanish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, ayniqsa, ijtimoiy, mantiqiy, raqamli va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Tahlil va natijalar. Keltirilgan tahlillar asosida aytish mumkin, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda kollaborativ o'qitish texnologiyasidan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. O'quvchilarning muloqot ko'nikmalari rivojlanadi. Kollaborativ o'qitish texnologiyasi o'quvchilarni faol muloqotga jalb qiladi. Guruhlarda ishlash jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalashni, boshqalarni diqqat bilan tinglashni va mulohazali javob qaytarishni o'rganadilar. Bu jarayon ularning og'zaki va yozma nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi;

2. O'quvchilarning jamoaviy ishlash madaniyati shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari guruhda birgalikda ishlash orqali mas'uliyatni taqsimlash, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash tamoyillarini o'zlashtiradilar. Bu o'quvchilarda bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lish va jamoaning umumiy maqsadiga erishishga intilish madaniyatini shakllantiradi;

3. O'quvchilarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Kollaborativ o'qitishda muammoli

vaziyatlar yaratish orqali o'quvchilarni fikrlashga undash mumkin. Ular muammolarni hal qilishning turli yo'llarini tahlil qiladi, muqobil yechimlarni taklif etadi va birgalikda qaror qabul qiladi. Bu jarayon ularning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;

4. O'quvchilarning ijodkorlik va tashabbuskorligi rivojlanadi. Birgalikdagi faoliyat o'quvchilarga o'z g'oya va tashabbuslarini erkin ifodalash imkonini beradi. Ular turli masalalarni hal qilishda ijodiy yondashuvni qo'llaydi, bu esa ularning innovatsion fikrlash qobiliyatini oshiradi;

5. O'quvchilarning o'zini-o'zi baholash va mas'uliyat hissi rivojlanadi. Guruh ishida o'quvchilar o'z ishtirokini tahlil qilish va boshqa ishtirokchilar faoliyatini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ularning o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlashiga yordam beradi hamda faoliyat uchun javobgarlikni his qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

6. Boshqalarni tinglash va o'zaro tushunish qobiliyati shakllanadi. Kollaborativ ta'lim jarayonida o'quvchilar boshqalarni diqqat bilan tinglash, ularning fikrlarini tushunishga intilish va fikrlar xilma-xilligini qabul qilishni o'rganadilar. Bu esa kelajakda muloqot va hamkorlikda muhim ahamiyatga ega;

7. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish. Guruhda ishlash orqali o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini boshqarishni, boshqalarning hissiyotlarini tushunishni va ijtimoiy moslashuvchanlikni

rivojlantiradilar. Ular muvaffaqiyatga erishishda birgalikda harakat qilishning muhimligini anglaydilar;

8. O'quvchilarning o'quv motivatsiyasi oshadi. Kollaborativ o'qitish o'yin elementlari va qiziqarli vazifalar orqali o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Guruhda ishlash jarayonida ular o'z natijalarini boshqalar bilan solishtirish, rag'batlantirish va muvaffaqiyat hissini boshdan kechirish imkoniga ega bo'ladilar;

9. O'quvchilarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi rivojlanadi. Kollaborativ o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning texnologik savodxonligini oshiradi. Masalan, virtual hamkorlik platformalari yoki interaktiv vositalar yordamida ishlash ularda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlag'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda kollaborativ o'qitish texnologiyasidan foydalanish samaradorligi yuqori. Kollaborativ o'qitish texnologiyasidan foydalanish nafaqat boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirishga, balki ularning jamoaviy ishlash va kognitiv ko'nikmalari, o'zini namoyon qilish, ijodiy hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. Ziyoyeva M.S. Ta'lim jarayonida dasturiy vositalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Special Issue. – С. 92-97.
2. Begmatova G.H. Pedagogical Conditions for Forming Basic Competencies in Primary School Pupils. European journal of innovation in nonformal education, 5(1), – 2025. – P. 141–146.
3. Aliqulov A. O'quv jarayonini tashkil etishda kollaborativ ta'lim texnologiyasi //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2024. – С. 271-274.
4. Kurbonova G.U. Bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ o'qitish muhitini yaratishga tayyorlash mexanizmlari //Янги Ўзбекистон: илмий тадқиқотлар I-ҚИСМ. – 2024. – С. 74-75.
5. Sarimsakova S., Xo'jamkulov A. Kollaborativ ta'lim orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish: o'qituvchilar ta'limida texnologiyadan foydalanish bo'yicha amaliy tadqiqotlar //Молодые ученые. – 2024. – Т. 2. – №. 13. – С. 79-81.
6. Павельева Н.В. Коллаборативное обучение как модель эффективной реализации образовательного процесса //Образование. Карьера. Общество. – 2010. – №. 3 (29). – С. 30-37.
7. Рафикова А.С. Активная и коллаборативная формы обучения: краткий обзор зарубежных исследований //Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2021. – №. 10-2. – С. 127-130.
8. Синицына Г.П. Стратегия обучения в партнёрстве: коллаборативное обучение //Наука о человеке: гуманитарные исследования. – 2019. – №. 2 (36). – С. 78-82.
9. Незнанов А.А. и др. Коллаборативные технологии в образовании: как выстроить эффективную поддержку гибридного обучения? //Университетское управление: практика и анализ. – 2019. – Т. 23. – №. 1-2. – С. 101-110.
10. Ansari J.A.N., Khan N.A. Exploring the role of social media in collaborative learning the new domain of learning //Smart Learning Environments. – 2020. – Т. 7. – №. 1. – P. 1-16.
11. Le H., Janssen J., Wubbels T. Collaborative learning practices: teacher and student perceived obstacles to effective student collaboration //Cambridge Journal of education. – 2018. – Т. 48. – №. 1. – С. 103-122.
12. Van Leeuwen A., Janssen J. A systematic review of teacher guidance during collaborative learning in primary and secondary education //Educational Research Review. – 2019. – Т. 27. – С. 71-89.
13. Hattie J. Visible learning: The sequel: A synthesis of over 2,100 meta-analyses relating to achievement. – Routledge, 2023.



UDK:514.112.4

Zavqiddin BOZOROV,

V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Buxoro bo'linmasi katta ilmiy xodimi, Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD

E-mail: zavqiddinbozorov2011@mail.ru

Dilfuza G'AFFAROVA,

Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

BuxDPI dotsenti G'.Qurbonov taqrizi asosida

THE USE OF PROBLEMATIC EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN THE TEACHING OF THE TOPIC OF APPROXIMATE CALCULATION OF EXACT INTEGRALS

Аннотация

This article presents suggestions and recommendations on the use of interactive methods in teaching the topic of approximate calculation of specific integrals of the section of integrals, one of the main fundamental concepts of the science of mathematical analysis. In it, the topic of approximate calculation of specific integrals is explained using problematic educational technologies.

Key words: Modern innovative technologies, accurate integrals, approximate calculation of exact integrals, rectangular method, trapezoidal method, method of parabolas, problematic educational technology.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕМЫ ПРИБЛИЖЕННОГО ВЫЧИСЛЕНИЯ ОПРЕДЕЛЕННЫХ ИНТЕГРАЛОВ

Аннотация

В данной статье представлены предложения и рекомендации по использованию интерактивных методов при преподавании темы приближенного вычисления определенных интегралов раздела интегралы, являющегося одним из основных понятий предмета математического анализа. тема приближенного вычисления конкретных интегралов объясняется с использованием проблемных образовательных технологий.

Ключевые слова: Современные инновационные технологии, точные интегралы, приближенное вычисление определенных интегралов, метод прямоугольников, метод трапеций, метод парабол, технология проблемного обучения.

ANIQ INTEGRALLARNI TAQRIBIY HISOBLASH MAVZUSINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Аннотация

Ushbu maqolada matematik analiz fanining asosiy tayanch tushunchalaridan biri bo'lgan integrallar bo'limining "Aniq integrallarni taqribiy hisoblash" mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan. Aniq integrallarni taqribiy hisoblash mavzusi muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy innovatsion texnologiyalar, aniq integrallar, ma'lum integrallarni taqribiy hisoblash, to'rtburchaklar usuli, trapetsiya usuli, parabola usuli, muammoli o'qitish texnologiyasi.

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim metodlarining ko'plab turlari mavjud bo'lib, ushbu ta'lim metodlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda turlicha yondashuvlardan foydalanib kelinmoqda. Bu ishlarda matematik analiz fanini o'qitishda ta'lim metodlarini, texnologiyalarini, jumladan, muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llab o'qitish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarida matematika turkumiga kiruvchi fanlardan ma'ruza mashg'ulotlarini o'qitish bilan birga amaliy mashg'ulotlar ham muhim ahamiyatga ega [1]. Amaliy mashg'ulotlar asosan misol va masalalar yechish orqali ma'ruza darslarida o'tilgan nazariy ma'lumotlarni amaliyot bilan bog'lashni, talabalarining mavzuga oid ko'nikmalarini hosil qilishni ta'minlaydi [2]. Matematika fanida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri har bir mashg'ulotda tanlanadigan mavzuni ilmiy asoslangan bo'lishidir, ya'ni mashg'ulotdan ko'zlangan maqsad talabalarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash uning murakkabligini aniqlash, olingan nazariy ma'lumotlar va avvalgi o'rganilgan mavzu bilan bog'lash, talabalarga taqdim etiladigan topshiriq va mustaqil ishlarni ketma-ketligini aniqlash, mashg'ulotda lozim bo'ladigan jihozlarni belgilash va qo'shimcha qurollar bilan boyitish, o'qitish texnologiyalaridan foydalangan holda muammoli vaziyatni yaratishdir. Buning uchun esa matematik analiz fanini o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyani qo'llash yaxshi samara beradi [2]. Chunki o'qitishning interfaol shakllari ta'lim va tarbiya masalalarini samarali tashkil etishga, talabalarining bilish faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llaridan biridir [1,3]. Ushbu ilg'or o'qitish

texnologiyalaridan biri muammoli ta'lim texnologiyasi sanaladi. Mazkur texnologiya talabalarga muammoli vaziyatlarni yaratish va o'z ustida mustaqil ishlashga, mustaqil qarorlar qabul qilishga yo'naltirish bilan samarali hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada amaliy mashg'ulot darslarida aniq integrallarni taqribiy hisoblash mavzusini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar keltiriladi. Dastavval mavzuning nazariy qismi bo'lgan aniq integrallarni taqribiy hisoblash usullari talabalarga eslatib o'tiladi.

Qadim zamonlardan buyon odamlar ekin maydoni yuzalarini o'lchash uchun ekin maydonini kichik to'rtburchaklarga ajratib, so'ngra ularning yuzlarini qo'shib maydon yuzi kattaligini taqribiy topishgan. Xuddi shu usulni Arximed geometrik figuralarni yuzi va hajmini topishda qo'llagan. Nyuton barcha fizikaviy hodisalar differensiallash va integrallash amallarining ketma-ket takrorlanish natijasida ro'y berishini kuzatadi. Shu prinsipni qo'llab ko'pgina natijalarga erishadi.

Integral tushunchasi matematik analizning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib matematika, fizika, mexanika va boshqa fanlarning eng kuchli quroli hisoblanadi. Egri chiziq bilan chegaralangan yuzi, egri chiziq yoyi va uzunligi, hajmi, bajarilgan ish, tezlik, yo'llarni va inersiya momentlarini hisoblash ishlarning hammasi integral hisoblashga keltiriladi.

Odatda, aniq integrallar Nyuton-Leybnis formulasi yordamida hisoblanadi. Bu formuladan funksiya integrallanuvchi bo'lganda foydalanish qulay. Ammo boshlang'ich funksiyaning topish masalasi doim oson hal bo'lavermaydi. Agar boshlang'ich

funksiyani topish ko'p vaqt talab qilsa, berilgan aniq integralni taqribiy hisoblashga to'g'ri keladi.

Aytaylik, $f(x)$ funksiya $[a, b]$ segmentda integrallanuvchi bo'lsin. Bu funksiyaning aniq integrali

$$\int_a^b f(x) dx$$

ko'pincha, to'g'ri to'rtburchaklar, trapetsiya va parabolalar formulalari yordamida taqribiy hisoblanadi.

1. To'g'ri to'rtburchaklar formulasi.

$[a, b]$ segmentni $x_k = a + k \cdot \frac{b-a}{n}$ ($k = 0, 1, 2, \dots, n$) nuqtalar yordamida n ta teng bo'lakka bo'lamiz.

Ushbu

$$\int_a^b f(x) dx = \frac{b-a}{n} (f(x_0) + f(x_1) + \dots + f(x_{n-1})) + R_n \quad (*)$$

formula to'g'ri to'rtburchaklar formulasi deyiladi.

$f(x)$ funksiya $[a, b]$ da uzluksiz $f''(x)$ hosilaga ega bo'lsa, (*) formulaning qoldiq hadi

$$R_n = \frac{(b-a)^3}{24n^2} f''(c) \quad (a \leq c \leq b)$$

bo'ladi

2. Trapetsiyalar formulasi.

Ushbu

$$\int_a^b f(x) dx = \frac{b-a}{2n} \left[f(a) + f(b) + 2 \sum_{k=1}^{n-1} f\left(a + k \cdot \frac{b-a}{n}\right) \right] + R_n \quad (**)$$

formula trapetsiyalar formulasi deyiladi.

$f(x)$ funksiya $[a, b]$ da uzluksiz $f''(x)$ hosilaga ega bo'lsa, (**) formuladagi qoldiq had

$$R_n = -\frac{(b-a)^3}{12n^2} f''(c) \quad (a \leq c \leq b)$$

ko'rinishga ega bo'ladi.

3. Simpson formulasi.

Ushbu

$$\int_a^b f(x) dx = \frac{b-a}{6n} \left[f(a) + f(b) + 2 \sum_{k=1}^{n-1} f\left(a + 2k \cdot \frac{b-a}{2n}\right) + 4 \sum_{k=0}^{n-1} f\left(a + (2k+1) \cdot \frac{b-a}{2n}\right) \right] + R_n \quad (***)$$

formula Simpson (parabolalar) formulasi deyiladi.

$f(x)$ funksiya $[a, b]$ da uzluksiz $f^{(4)}(x)$ hosilaga ega bo'lsa, (***) formuladagi qoldiq had

$$R_n = -\frac{(b-a)^5}{2880n^4} f^{(4)}(c) \quad (a \leq c \leq b)$$

ko'rinishga ega bo'ladi.

Mavzuning nazariy qismi talabalarga takrorlanib o'tilgandan so'ng, ularga mavzuni chuqurroq o'zlashtirishlari uchun quyidagi muammoli masala qo'yiladi: Yuqoridagi 3 ta formuladan qaysinisi orqali biz aniq integralni qiymatini taqribiy hisoblasak xatolik kam chiqadi, ya'ni biz javobga ko'proq yaqinlashgan bo'lamiz. Aslida mavzuning nazariy qismini yaxshi tushungan talabalar uchun bu savolga javob berish muammo tug'dirmaydi. Lekin nazariy ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri mag'zini chaqish aksariyat talabalar uchun qiyinlik qiladi. Bu muammoni hal qilish uchun bir nechta misollarni ko'rib chiqib

keyin umumiy xulosa qilishimiz mumkin. Dastlab integral ostidagi funksiya integrallanuvchi bo'lgan misolni ko'ramiz.

1-misol. Ushbu

$$I = \int_0^1 \frac{dx}{1+x^2}$$

integralni hisoblang.

◀ Avvalo bu integralni Nyuton-Lebnis formulasi yordamida hisoblaymiz:

$$I = \int_0^1 \frac{dx}{1+x^2} = \arctg x \Big|_0^1 = \frac{\pi}{4}$$

Endi $[0,1]$ segmentni

$$x_0 = 0; x_1 = 0.25; x_2 = 0.5; x_3 = 0.75; x_4 = 1$$

4 ta teng bo'lakka bo'lib, berilgan integralni to'g'ri to'rtburchaklar, trapetsiyalar va Simpson formulalari yordamida taqribiy hisoblaymiz.

Buning uchun eng avvalo berilgan $f(x) = \frac{1}{1+x^2}$ funksiyani x_0, \dots, x_4 nuqtalardagi qiymatlarini hisoblaymiz.

$$x_0 = 0, f(x_0) = 1, x_1 = 0.25, f(x_1) = 0.941, x_2 = 0.5, f(x_2) = 0.8$$

$$x_3 = 0.75, f(x_3) = 0.64, x_4 = 1, f(x_4) = 0.5,$$

Ravshanki, bu holda $[a,b] = [0,1]$ $b-a=1, n=4$

To'g'ri to'rtburchaklar formulasi bo'yicha:

$$I = \int_0^1 \frac{dx}{1+x^2} = \frac{1}{4} [1 + 0.941 + 0.8 + 0.64] = 0.8452$$

Bu holda absolyut xatolik, agar, $\pi \approx 3.1415$ deb olsak, $\Delta = 0,0598$ ga teng.
Trapetsiyalar formulasi bo'yicha:

$$I = \int_0^1 \frac{dx}{1+x^2} = \frac{1}{8} [1 + 0.5 + 2 \cdot (0.941 + 0.8 + 0.64)] = 0.7827$$

Bu holda absolyut xatolik $\Delta = 0,0027$ ga teng.
Simpson formulasi bo'yicha:

$$I = \int_0^1 \frac{dx}{1+x^2} = \frac{1}{12} [1 + 0.5 + 4 \cdot (0.941 + 0.64) + 2 \cdot 0.8] = 0.7853$$

Bu holda absolyut xatolik $\Delta = 0,0001$ ga teng. ►
Bundan ko'rinadiki, yuqoridagi misolimizda Simpson formulasi orqali aniq integralni taqribiy hisoblash aniqligi yuqori ekan.

$$I = \int_0^2 \frac{x^2}{1-x^2} dx \quad I = \int_0^2 (2^x + 3^x)^2 dx$$

Talabalarga mustaqil ishlashlari uchun quyidagi misollarni taqdim qilamiz:

$$I = \int_0^{\pi} (x \cdot \sin x)^2 dx$$

Bunda talabalar 3 guruhga bo'linib, har bir guruhga alohida misol beriladi.

Yuqoridagi misollarda integralning qiymatini Nyuton-Lebnits formulasi orqali hisoblab bo'linadigan hollarini ko'rdik. Endi boshlang'ich funksiyasini topish murakkab yoki boshlang'ich funksiyasini topib bo'lmaydigan misollarni qaraymiz. Lekin bu funksiyalarning aniq integralini taqribiy hisoblab bo'ladi.

Masala. Universitet talabalarining 20 % i davlat granti asosida tahsil oladi. Universitet rahbariyati talabalarining 100 tasini tanlov asosida saralab olib, chet elga o'qishini davom ettirishga jo'natishni rejalashtirgan. Tanlovda jami 400 ta talaba

$$P_n(m_1 \leq m \leq m_2) \approx \Phi\left(\frac{m_2 - np}{\sqrt{npq}}\right) - \Phi\left(\frac{m_1 - np}{\sqrt{npq}}\right)$$

$$\Phi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{x_1}^{x_2} e^{-\frac{z^2}{2}} dz$$

Bunda -Laplasning integral funksiyasi deb ataladi. Bunda

$$x_2 = \frac{m_2 - np}{\sqrt{npq}}$$

ga teng bo'ladi. $\Phi(x)$ funksiyaning qiymatlari jadvallarda berilgan bo'ladi.

ishtirok etgan bo'lsa, chet elga yuborish uchun tanlab olingan talabalarining kamida 80 tasi davlat granti asosida o'qiyotgan talabalar bo'lish ehtimoli nechchi % ga teng?

◀ Izoh: Agar n ta o'zaro bog'liq bo'lmagan tajribalar ketma ketligida biror hodisaning ro'y berish ehtimoli o'zgarmas p ($0 < p < 1$) soniga teng bo'lsa, bu tajribalardan

hodisaning ro'y berishlar soni m ning m_1 va m_2 qiymatlarning orasida bo'lish ehtimoli quyidagicha topiladi:

$$x_1 = \frac{m_1 - np}{\sqrt{npq}} \quad \text{va}$$

Bizga ma'lumki $f(z) = e^{-\frac{z^2}{2}}$ funksiyaning integralini elementar funksiyalar yordamida topib bo'lmaydi. Bu integralni jadvaldan foydalanmay yechishimiz uchun $f(z)$ funksiyaning aniq integrali taqribiy qiymatini Simpson usuli orqali topamiz. Quyidagi yordamchi masalani qaraymiz.

$$I = \int_0^2 e^{-x^2} dx$$

integralni hisoblang.

$$x_0 = 0, f(x_0) = 1, \quad x_1 = 1, f(x_1) = 0.3690, \quad x_2 = 2, f(x_2) = 0.0185$$

Ravshanki, bu holda $[a, b] = [0, 2]$ $b - a = 2, n = 2$

To'g'ri to'rtburchaklar formulasi bo'yicha:

$$I = \int_0^2 e^{-x^2} dx = 1 + 0.3690 = 1.3690$$

Trapetsiyalar formulasi bo'yicha:

$$I = \int_0^2 e^{-x^2} dx = \left[\frac{1 + 0.0185}{2} + 0.3690 \right] = 0.8782$$

Simpson formulasi bo'yicha:

$$I = \int_0^2 e^{-x^2} dx = \frac{1}{3} [1 + 0.0185 + 4 \cdot 0.3690] = 0.8315$$

Endi yuqorida berilgan masalaga qaytadigan bo'lsak, uni quyidagicha hisoblashimiz mumkin. Eng avvalo x_1 va x_2 ning qiymatini topaylik. Bu yerda $p = 0.2, q = 0.8, n = 400, m_1 = 80, m_2 = 100$ ekanligidan

$$x_2 = \frac{100 - 400 \cdot 0.2}{\sqrt{400 \cdot 0.2 \cdot 0.8}} = 2.5$$

va bo'ladi. Demak

$$\Phi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_0^{2.5} e^{-\frac{z^2}{2}} dz$$

integralning taqribiy qiymatini hisoblashimiz kerak. Buning uchun $[0; 2.5]$ kesmani 5 ta teng bo'lakka bo'lib ($x_0 = 0; x_1 = 0.5; x_2 = 1; x_3 = 1.5; x_4 = 2; x_5 = 2.5$), $f(z)$ funksiyaning shu nuqtadagi qiymatlarini hisoblaymiz.

$$z_0 = 0, f(z_0) = 1, \quad z_1 = 0.5, f(z_1) = 0.8834, \quad z_2 = 1, f(z_2) = 0.6075, \quad z_3 = 1.5, f(z_3) = 0.3260, \\ z_4 = 2, f(z_4) = 0.1363, \quad z_5 = 2.5, f(z_5) = 0.0444,$$

Simpson formulasi bo'yicha:

$$\int_0^{2.5} e^{-\frac{z^2}{2}} dz = \frac{2.5 - 0}{15} (1 + 0.0444 + 2 \cdot (0.6075 + 0.1363) + 4 \cdot (0.8834 + 0.3260)) = 1.2282$$

$$P_{400}(80, 100) = \frac{1.2282}{4.4406} = 0.2765 \approx 0.28$$

Javob: Ehtimollik 28 % ga teng ekan.

Tahlil va natijalar. Shuni ta'kidlash kerakki nuqtalar soni qancha ko'p bo'lsa aniq integralning qiymati ham shuncha aniq chiqadi (lekin hisoblash ko'payadi).

$$I = \int_0^{\frac{\pi}{2}} \ln(\cos x) dx$$

Shu usulda hisoblash uchun quyidagi misollarni talabalarga taqdim qilamiz:

$$I = \int_0^{\pi} \frac{x}{a^2 \cos^2 x + b^2 \sin^2 x} dx \quad I = \int_0^{\pi} e^{\sin x} dx$$

Misollar to'liq ishlangandan so'ng, talabalarga quyidagi savol (muammo) bilan murojaat qilamiz: "Shu 3 ta usuldan foydalanmay turib ham qaysi holda aniq integralning qiymati aniqroq chiqishini oldindan aytish mumkinmi?"

Talabalar fikri tinglaniladi, to'g'ri javobga yo'naltiriladi. So'ng o'qituvchi tomonidan yakuniy xulosa beriladi: Yuqoridagi 3 ta formulalar(to'g'ri to'rtburchaklar, trapetsiya, Simpson)ning qoldiq hadlariga qaraladi. Parabolalar usulida qoldiq hadda

$f(x)$ funksiya hosilasining eng yuqori darajasi qatnashayapti. Bundan ko'rinadiki Simpson formulasida qoldiq had eng kichkina chiqadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, agar integral ostidagi funksiya murakkab bo'lsa, tegishli aniq integralni hisoblashda taqribiy usullarini qo'llash lozim bo'ladi. Demak aniq integral qiymatini integral osti funksiya boshlang'ichini topmasadan ham hisoblash mumkin ekan.

ADABIYOTLAR

1. Artiqova G.A.. Matematikadan amaliy mashg'ulotlar metodik tizimini maxsus texnologiyalar asosida takomillashtirish// Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati.-Toshkent -22 b. (2020).
2. Xoliqov S.X.. Bo'lg'usi matematika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida differensial tenglamalar modulini o'qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- Toshkent – 108 b. (2022)
3. Sharipov E.O. Akademik litseylarda matematik analiz asoslarini o'qitish metodikasi // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- Toshkent – 195 b. (2019)



Sevara **BOTIROVA**,
NamDPI dotsenti, PhD
E-mail: sevarabotirova783@gmail.com

NamDPI dotsenti, PhD B.Ataxanov taqrizi asosida

NUTQ MADANIYATI VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING UYG‘UNLIGI: TARIX FANI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Аннотация

Mazkur maqolada bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy-nutqiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar xususida atroflicha fikr yuritiladi. Avvalo, tarix fani o‘qituvchisining shaxsiy va kasbiy xususiyatlaridan biri bo‘lgan nutqiy madaniyat tushunchasi izohlanadi. Nutqiy madaniyat – bu so‘z boyligi, talaffuzda aniqlik, ko‘rsatkichlar, dalillar, tarixiy faktlarni izchil va tushunarli shaklda bayon qilish, shuningdek, o‘quvchilar bilan pedagogik muloqotda samimiy munosabatni ifoda eta bilishdir. Tarix saboqlarini o‘quvchilarga yetkazishda, ayniqsa, tarixiy manbalar bilan ishlash, davr xususiyatlarini ifodalash, sabab-oqibat munosabatlarini puxta ochib berish ustuvor o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, kasbiy-nutqiy madaniyat, interaktiv metod, nutqiy kompetensiya, pedagogik etika, bahsmunozara, obrazli o‘yin, metodik yondashuv, muloqot ko‘nikmasi, refleksiv tahlil.

СОЧЕТАНИЕ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ИСТОРИЧЕСКОЙ НАУКЕ

Аннотация

В данной статье подробно рассматриваются педагогические технологии, направленные на развитие профессионально-речевой культуры будущих учителей истории. В первую очередь объясняется понятие речевой культуры, которая является одной из личностных и профессиональных характеристик учителя истории. Речевая культура-это словарный запас, точность в произношении, последовательное и понятное изложение показателей, фактов, исторических фактов, а также умение выражать искреннее отношение в педагогическом общении с воспитанниками. В доведении уроков истории до учащихся приоритетным является, в частности, работа с историческими источниками, выражение особенностей эпохи, тщательное раскрытие причинно-следственных связей.

Ключевые слова: Педагогическая технология, профессионально-речевая культура, интерактивный метод, речевая компетентность, педагогическая этика, аргументация, образная игра, методический подход, коммуникативные навыки, рефлексивный анализ.

THE COMBINATION OF SPEECH CULTURE AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES: INNOVATIVE APPROACHES IN HISTORICAL SCIENCE

Annotation

This article will focus on pedagogical technologies aimed at developing the professional-speech culture of future teachers of history. First of all, the concept of a colloquial culture, which is one of the personal and professional characteristics of a teacher of history, is explained. Colloquial culture is the ability to state vocabulary, accuracy in pronunciation, indicators, evidence, historical facts in a consistent and understandable form, as well as express a sincere attitude in pedagogical communication with students. In communicating history lessons to readers, a priority is especially given to working with historical sources, expressing the features of the era, carefully revealing the cause-and-effect relationship.

Key words: Pedagogical technology, professional-speech culture, interactive method, speech competence, pedagogical ethics, debate, figurative play, methodological approach, communication skills, reflexive analysis.

Kirish. Tarix fani o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning faqatgina fanni chuqur bilish darajasi emas, balki pedagogik mahorati, ijodiy yondashuvi va ayniqsa kasbiy-nutqiy madaniyati ham katta ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘qituvchi – bu ilmu ma‘rifat targ‘ibotchisi sifatida sinfda bilim beruvchi shaxs bo‘libgina qolmay, shu bilan birga, bilimni aniqlik va ravonlik bilan yetkazib beradigan, o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadigan, ularni tarixni o‘rganishga ilhomlantiradigan mutaxassis hamdir. Shuning uchun bo‘lajak tarix fani o‘qituvchisining pedagogik faoliyatida nutqiy kompetensiya yoki nutqiy madaniyat muhim o‘rin tutadi.

Tarix – insoniyatning ming yillik tajriba makoni sifatida o‘z ichiga ulkan xronologik ma‘lumotlar, izchil faktlar, hodisalar va jarayonlarni jamlagan. O‘qituvchining vazifasi esa bu mo‘l-ko‘l ma‘lumotni o‘quvchilarga kerakli, qiziqarli va eng muhimi, tushunarli tarzda etkazishdan iboratdir. Bu jarayonda o‘qituvchi faqat nutqiy chiqish bilan cheklanmasdan, interaktiv metodlar, munozara, ko‘rgazmali vositalar, axborot texnologiyalari va boshqa innovatsion uslublardan ham foydalana olishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kasbiy-nutqiy madaniyat o‘qituvchining o‘z kasbiga oid bilimlarini aniq, xolis

va ifodali tarzda yetkaza bilish layoqatini anglatadi. Bu madaniyat tarkibida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

Nutqning ravonligi va ifodaliligi – so‘z boyligi, talaffuzning to‘g‘riligiga qat‘iy amal qilish, intonatsiyaning o‘rinli qo‘llanilishi;

Aniq maqsadga yo‘naltirilganlik – dars mavzusiga oid asosiy g‘oya va maqsadni ilgari surish, ortiqcha tafsilotlardan saqlanish;

Tushunarli mantiqiy izchillik – tarixiy voqealar xronologik ketma-ketlik bilan tushuntirilishi, sabab-oqibat zanjirlarining aniq aks ettirilishi;

Atamalar va tushunchalar bilan ishlash – tarixiy jarayonlarni, madaniy davrlarni yoritish uchun zarur leksik birliklarni puxta egallash, o‘quvchilarga atamalarni oddiy va jonli misollar yordamida talqin qilish.

Taniqli pedagog olim M.Xoshimov o‘qituvchi nutqining ta‘sirchanligi haqida shunday deydi: “Agar pedagog intonatsiya, ovoz tembri va so‘z tanlashda o‘quvchining yosh xususiyatlariga mos metodlardan foydalana bilsa, dars samarasi ancha yuqori bo‘ladi” [1]. Ushbu fikr, xususan, tarix darslarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ko‘p hollarda tarixiy voqealarni

quruq faktlar bilan tushuntirishdan ko'ra, ularning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini, hayotiy saboqlarini, davr ruhi va to'liqlinini his qiladigan, ko'z oldimizga jonlantira oladigan nutqiy ifodaning o'zi talab etiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayoni shuni ko'rsatmoqdaki, an'anaviy ma'ruza va suhbat metodlari o'quvchining diqqatini to'la jalb qilishga har doim ham yetarli bo'lmaydi. Ayniqsa, axborot makonining kengayishi, internet texnologiyalarining rivojlanishi, o'quvchilarning e'tiborini turli platformalarga bo'lishi sababli, o'qituvchi yanada interaktiv va kreativ usullardan foydalanishi lozim bo'ladi. Pedagogik texnologiyalar, o'qituvchiga shu jarayonda uslubiy yordamchi sifatida xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiya – bu ma'lum ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan, aniq rejalashtirilgan va izchil tashkil etiladigan didaktik jarayon vositalaridir. Bu texnologiyalar "avval qanday yakuniy natijaga erishish lozimligini, so'ng mazkur natijaga erishish uchun qanday bosqichlar, usullar va vositalardan foydalanish zarurligini" belgilab beradi [2]. Maqsad – talabalarning, xususan, bo'lajak o'qituvchilarning o'quv faoliyatini samarali, mantiqiy izchil va qulay shaklda tashkil etish.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilari nutq madaniyatini rivojlantirish jarayonida quyidagi pedagogik texnologiyalar ayniqsa dolzarb:

Interaktiv metodlar – "Munozara", "Baho berish", "Bahs-munozara", "Guruhiy loyiha" kabilari;

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar – onlayn-platformalar, virtual taqdimotlar, raqamli resurslar;

Obrazli o'yinlar va simulyatsiyalar – tarixiy voqealarni sahnalashtirish, "jonli muzey" kabi tadbirlar;

Portfolio va reflexiv tahlil – talabani o'z nutqini eshitib ko'rishi, tahlil qilishi, xulosa chiqarishi.

Pedagog-innovator J.Dyui ta'limda tajribaga asoslanish zarurligini ta'kidlab, shunday deb yozgan: "Talaba o'zi faol ishtirok etmaydigan, balki faqat passiv eshituvchi bo'lgan jarayondan haqiqatda foyda ko'rmaydi. O'rganish – bu amaliy faoliyat, tajriba va izlanish natijasidir" [3]. Bu fikr, ayniqsa, bo'lajak tarix fani o'qituvchisi nutqiy mahoratini shakllantirishda interaktiv mexanizmlar naqadar muhim ekanligini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Interaktiv metodlar – ta'limda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ularda mustaqil tafakkur, mantiqiy xulosa chiqarish, fikr almashish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan usullardir. Bunday metodlarda talabani faolligi, boshqa talabalar bilan hamkorligi ustun bo'ladi, bu esa nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ayni muddao.

Masalan, "Bahs-munozara" (Debat) usuli bo'lajak tarix o'qituvchilariga juda mos keladi. Bir tarixiy mavzu doirasida ikki yoki undan ortiq guruh o'rtasida bahs-munozara tashkil qilinadi. Guruhlar o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish jarayonida tarixiy dalil va misollarga tayanadi, nutqiy ifodalarda esa aniqlik, ravonlik, puxta dalillash va mantiqiy izchillik muhim bo'ladi. Rossiyalik pedagog-olim V.A.Suxomlinskiy "munozara jarayonida o'quvchilarga o'qituvchi yo'naltiruvchi savollar berib, ulardagi tahliliy fikrlashni uyg'otishi kerak, shunda bahs ilmiy mavqe kasb etadi" [4], deya ta'kidlaydi. Ayni yondashuv universitet seminarlarida ham qo'llanilib, talabalarni turli mavzularda mustaqil chiqish qilishga undaydi. Bundan tashqari, "Obrazli o'yinlari" ham tarix fani uchun juda qulay. Masalan, "tarixiy anjuman" yoki "ijodiy muzey" kabi mashg'ulotlarda talaba ma'lum bir davr, shaxs yoki hodisani jonli tarzda tasavvur qiladi. Bu jarayonda talaba ro'li bir necha bosqichni o'z ichiga oladi: tarixiy manbalarni o'rganish, mavzuga oid nutqiy chiqishni rejalashtirish, rol ijrosi, xulosa va tahlil qilish. Bunday tadbirlar nutqiy kompetensiyani o'stirishga xizmat qilishi bilan birga, talabani tarixni his qilishi, tasavvurida jonlantirishi va ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar pedagogik jarayonni butunlay o'zgartirib yubormoqda. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilari, albatta, o'quvchilar bilan ishlashda raqamli resurslar, mobil ilovalar, onlayn taqdimotlar, videolarlar kabi bir qator vositalardan unimli foydalanish imkoniga ega bo'lishlari lozim. Tarixiy filmlardan parcha ko'rsatish, virtual ekskursiyalar,

3D formatdagi obidalar tasviri yoki interaktiv xaritalar bilan ishlash kabi turli imkoniyatlar mavjud.

Nutqiy madaniyatni rivojlantirish nuqtai nazaridan, multimedia prezentatsiyalari o'qituvchining chiqishiga katta qulaylik yaratadi:

Taqdimot matnlarini rang-barang slaydlar bilan boyitish;

Tarixiy xaritalar va fotosuratlaridan foydalanib, faktlarni yanada aniqroq tushuntirish;

Onlayn test yoki viktorinalar orqali darhol fikr almashishni yo'lga qo'yish.

Ayniqsa, video-darslar yaratish yoki video-tahrir qilish bo'yicha ko'nikmalar ham o'qituvchining kasbiy mahoratini kengaytiradi. Chunki bo'lajak o'qituvchi videolar tayyorlash jarayonida o'z nutqini bir necha marta qayta eshitishi, talaffuz, intonatsiya va matn mazmuniga diqqat qaratishi mumkin. Pedagog L.V.Savelyev shunday yozadi: "Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, o'quvchilar yoki talabalarga chuqur ta'sir o'tkazish, ularni mustaqil tahlil va izlanishga jalb qilish borasida katta imkoniyatlar taqdim etadi" [5]. Tarix fani kontekstida bu imkoniyatlar yanada kengroq, chunki turli davrlar, mintaqalar, madaniyatlar haqida ko'rgazmali ma'lumotlarga boy resurslarni topish qiyin emas.

Ayni jarayonlarda bo'lajak o'qituvchining ijodiy yondashuvi, shuningdek, o'zbek tilining ifoda imkoniyatlaridan unimli foydalanish, o'quvchini kamsitmasdan, o'z fikrini ravon yetkazish kabi jihatlar e'tiborda bo'lishi kerak. O'z navbatida, nutqning texnik ko'rsatkichlari: ovoz balandligi, intonatsiya, so'zlar o'rtasidagi pauza, nutq tezligi kabi omillar ham aniqlik bilan boshqarilishi zarur.

Pedagog olim A.G.Rasulov o'qituvchining nutqiy mahorati haqida shunday deydi: "Muvaffaqiyatli pedagog bu – nutq sohasida doimo izlanayotgan, har bir darsni ijodiy loyiha deb qaraydigan, o'z so'zining tinglovchi qalbiga yetib borishi uchun barcha nutqiy vositalarni ishga soladigan shaxsdir" [6]. Binobarin, bu ta'rif bo'lajak tarix fani o'qituvchisi uchun ham tegishli.

Tahlil va natijalar. O'qituvchi va metodist A.Xodjayev o'zining tadqiqot ishlari haqida bo'lajak o'qituvchilarga nutqiy chiqishlarida quyidagilarni tavsiya qiladi: "Misollar bilan ko'proq ishlang, raqam va sanalarni jonlantirishga harakat qiling. O'quvchilar xotirasida quruq statistika emas, balki jonli voqealar izlari qoladi" [7]. Bu tavsiyalardan ma'lum bo'ladiki, tarix darslarida jonli fikr almashuvlar va aniq-tushunarli nutqiy ifoda muhim rol o'ynaydi.

Nutqiy madaniyatni faqatgina lingvistik ko'nikma sifatida tushunish bir taraflama bo'ladi. Chunki o'qituvchi – bu nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi hamdir. Shu bois pedagogik etika me'yorlarini yaxshi bilish, o'quvchi shaxsi va hissiyotlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, har qanday tanqidiy fikrni ham konstruktiv tarzda ifodalay olish singari jihatlar ham nutq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchining sinfdagi chiqishi, talabalar yoki o'quvchilar bilan muloqoti, savollarga javob berishi, xulosa va tanbeh berishda tutgan yo'li – barchasi kasbiy etika bilan chambarchas bog'liq. Pedagog M.Nuriddinova o'z tadqiqotlarida pedagogik nutqning ma'naviy-axloqiy jihatlariga e'tibor qaratib, shunday deydi: "O'qituvchining nutqida samimiylilik, adolatparvarlik va xushmuomalalik ustun bo'lsa, bu jarayon tarbiyaviy samara bergan bo'ladi" [8]. Demak, dars jarayonida qanchalik interaktiv va boy mazmundagi metodlardan foydalanmaylik, agar o'qituvchi pedagogik etika talablarini pisand qilmasa, nutqiy madaniyat boyligi o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Nutqiy xulq-atvor, shuningdek, o'quvchilar fikrini qadrlash, ularni diqqat bilan tinglash, so'roqlarga samimiy javob berish, bahs va munozaralarda hurmat tamoyillariga asoslanish kabi tamoyillar bilan mustahkamlanadi. Ayniqsa, tarixda murakkab yoki bahsli mavzular ko'p uchraydi (masalan, siyosiy voqealar, mojaro yoki urushlar, muayyan shaxsning ijobiy-salbiy xususiyatlari va h.k.), shuning uchun o'qituvchining nutqiy muomalasi nafaqat bilim, balki tarbiyaviy jarayonni ham boshqaradi.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilari o'z nutqiy chiqishlarini kuzatish, baholash va tahlil qilish orqali ham professional o'sishga erishadilar. Dars jarayonlarini videoga yozib olish, so'ngra ushbu yozuvni yakka holda yoki guruhda ko'rib chiqib, dalil va misollar

yordamida xulosa chiqarish – nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda juda samarali usuldir.

Shu ma'noda o'z-o'zini baholash varaqalari ("self-assessment checklists") ham foydali. O'qituvchi quyidagi mezonlar bo'yicha o'z chiqishini tahlil qiladi:

Talaffuz va diksiya: aniq, ravon, tushunarli, ortiqcha pausalar yoki noqulay so'zlarning yo'qligi;

Matn mazmuni: tarixiy faktlarning aniqligi, manbalarga tayanganlik, mavzu doirasida qolish, tuturiqli xulosa;

Didaktik vositalar: slaydlar, videolar, diagrammalar, tarqatmalar kabi materiallardan o'rinni foydalanish;

Pedagogik etika: o'quvchilarni rag'batlantirish, kamsitish va ta'na-kepchiksiz munosabat yuritish, baholashda xolislik.

Bunday kuzatuv va baholashlar o'ziga xos refleksiya madaniyatini shakllantiradi. O'qituvchi o'z nutqi bilan bog'liq xatolarni anglashi va keyingi safar ularni bartaraf etishga harakat qiladi. Natijada nutqiy malaka asta-sekin takomillashib boradi.

Zamonaviy sharoitda bo'lajak tarix fani o'qituvchisining kasbiy-nutqiy madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangicha yo'nalishlar paydo bo'lib bormoqda. Jumladan, raqamli platformalar, onlayn kurslar, vebinarlar, virtual laboratoriyalar bo'lajak o'qituvchilarga jahonning turli nuqtalarida faoliyat yuritayotgan professorlar, tarixchilar bilan muloqot qilish, boy an'analarni o'rganish imkonini bermoqda. Bunda, albatta, xorijiy tillarda muloqot qilish, chet el manbalaridan foydalana olish ham katta ustunlik sanaladi.

Xulosa va takliflar. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy-nutqiy madaniyatini rivojlantirish – bu murakkab, ko'p bosqichli va izchil jarayon bo'lib, uning samarali tashkil etilishi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona qo'llash orqali amalga oshadi. An'anaviy ma'ruza va suhbat metodlari qatorida interaktiv usullar, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar, rolli o'yinlar, bahs-munozaralar va loyiha asosidagi ta'lim kabilar, nutqiy kompetensiyani shakllantirishning eng muhim poydevoriga aylanadi.

Tarix fani bo'yicha o'qituvchi – bu o'tmish va bugun o'rtasida mustahkam ko'priklar yaratadigan, tarixiy xotirani kelajak avlodga yetkazib, ular dunyoqarashiga ta'sir o'tkazadigan shaxsdir. Shuning uchun uning so'zi, nutqi, fikrlarini izchillik bilan ifoda etishi katta mas'uliyatni yuzaga chiqaradi. Kasbiy-nutqiy madaniyatni uzluksiz ravishda rivojlantirish, ijodiy izlanishlar olib borish, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda doimiy o'qib-o'rganish bo'lajak o'qituvchining professional portretini to'laqonli shakllantiradi.

Bir so'z bilan aytganda, tarix fani o'qituvchisining nutqiy madaniyati – bu faqat birgina lingvistik malaka emas, balki mas'uliyati baland, interaktiv usullarni o'zlashtira oladigan, tarbiyaviy ahamiyatni chuqur his qiladigan ijodiy shaxsning belgisi. Kelajak avlodga tarixiy bilim va qadriyatlarini yetkazishda shu omilning o'rni beqiyosdir. Zero, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy tarqiyotida tarix fani o'qituvchisi tutgan mavqe, uning nutqiy me'yorlarga to'la rioya qilishi va pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llashi bilan bevosita uyg'unlashadi.

ADABIYOTLAR

1. Xoshimov M.. Pedagogik texnologiyalar: nazariy-metodik va amaliyaviy asoslar. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2018. – 45-bet.
2. Dewey J.. Democracy and Education. – New York: The Macmillan, 1916. pp. 20
3. Сухомлинский В.А.. К сердцу ученика: проблемы школы и наставника. – Москва: Просвещение, 1973. – с 74.
4. Tursunov T.. Pedagogik innovatsiyalar: nazariy va amaliy asoslar. – Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2019. – 92-bet.
5. Савельев Л.В.. Речевая культура и профессиональная компетенция: российский опыт. – Санкт-Петербург: Наука, 2020. с 33.
6. Rasulov A.G'.. Nutq madaniyati: metodik tavsiyalar. – Toshkent: "O'qituvchi", 2017. – 15-bet.
7. Xodjayev A.. Tarix fanini o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Sharq", 2021. – 110-bet.
8. Nuriddinova M.. Kasbiy madaniyat asoslari: o'qituvchilar uchun qo'llanma. – Toshkent: "Universitet", 2019. – 58-bet.
9. Botirova S.. Zamonaviy psixologiya va pedagogikada kasbiy tashviqot motivatsiyasi muammolari. O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2023, № [1/2/1]. – B. 62-64.
10. Botirova S.. Dialogik va monologik nutqning o'ziga xos xususiyatlari. NamDU Ilmiy axborotnomasi, 2023, № 3. – B. 323-326.
11. Ботирова С.. Развитие коммуникативных навыков в процессе изучения истории (8 класс). Научный вестник НамДУ, 2023, № 5. www.journal.namdu.uz. – B. 795-798.
12. Botirova S.. Training technology as an active method of developing communicative and speech skills of schoolchildren. Педагогика в теории и на практике: актуальные вопросы и современные аспекты: сборник статей XV Международной научно-практической конференции. – Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение». – 2023. – 1. –С.н 118-120.
13. Botirova S.. Tarix darslarida innovatsion texnologiyalar asosida o'quvchilarning kommunikativ va nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik asoslari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2023/12. 147-151 betlar.
14. Botirova S.. Communicative competence of 8-th grade students as necessary skills in studying the history of Uzbekistan. 14th International Conference «Science and practice: a new level of integration in the modern world» April, 25, 2022, P. 82-84



UDK:575.1

Mansur VAXABOV,
SamDVMChBU katta o'qituvchisi.
E-mail: vaxobovaferuza@gmail.com

TIQXMMI "MTU" professori DSc G.Sobirova taqrizi asosida

JADIDLAR FAOLIYATI MA'NAVIY VA MA'RIFIY TARG'IBOT OBEKTI SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada jadid bobolarimizning ma'rifat, ma'rifatli jamiyat va ma'rifiy targ'ibot borasidagi qarashlari, pand-nasihatlari va amaliy ishlari haqidagi fikrlari bayon etiladi. Jadidlar faoliyatini jamiyat taraqqiyotini ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy hayotida tutdan o'rni, korsatgan tasiri va ahamiyati falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Jadid, jadidchilik, usuli jadid, maktab, maorif, gazeta, turon, teatr, ma'rifat, ma'rifatli jamiyat, ma'naviy, moddiy, obyektiv, subyektiv, taraqqiyot, targ'ibot, ma'rifiy targ'ibot, mohiyat, tabiat, jamiyat, inson.

THE ACTIVITY OF THE JADIDS AS AN OBJECT OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL PROPAGATION

Annotation

This article describes the views, teachings and practical works of our ancestors regarding enlightenment, enlightened society and educational propaganda. The role, influence and significance of the activities of the Jadids in the spiritual-educational, socio-political and ideological life of the society are analyzed philosophically.

Key words: Jadid, Jadidism, Usuli Jadid, school, education, newspaper, Turon, theater, enlightenment, enlightened society, spiritual, material, objective, subjective, development, propaganda, educational propaganda, essence, nature, society, man.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДЖАДИДОВ КАК ОБЪЕКТ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ПРОГРАММЫ

Аннотация

В данной статье описаны взгляды, учения и практические труды наших предков относительно просвещения, просвещенного общества и просветительской пропаганды. Философски анализируются роль, влияние и значение деятельности джадидов в духовно-просветительской, общественно-политической и идеологической жизни общества.

Ключевые слова: Джадид, джадидизм, Усули Джадид, школа, образование, газета, Турон, театр, просвещение, просвещённое общество, духовное, материальное, объективное, субъективное, развитие, пропаганда, просветительская пропаганда, сущность, природа, общество, человек.

Kirish. Ilmiy tadqiqotimiz jarayonida targ'ibot va tashviqotning genizivi va evolusiyasini o'rganar ekanimiz uni juda ham boy tarixga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bu tarixda alohida o'ringa ega bo'lgan, oltin harflar bilan yozilshga arzugulik jadidlar faoliyatini ijtimoiy-falsafiy masalalar bilan bogliq ayrim qirralarini yoritishni niyat qildik. Quyida jadid bobolarimizning ma'rifat, ma'rifatli jamiyat va ma'rifiy targ'ibot borasidagi qarashlari, pand-nasihatlari va amaliy ishlari haqidagi falsafiy mushohadalarimizni bayon etamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda dolzarb mavzulardan bo'lib turgan jadid bobolarimizning ma'rifat, ma'rifatli jamiyat va ma'rifiy targ'ibot borasidagi qarashlari bortasida quyidagi adabiyotlarga murojaat etildi. Behbudiy M. Tanlangan asarlar, Jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasi va uning Milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola bo'yicha olib borilgan izlanishlar bizdan zamonaviy metodlardan foydalanish davomida nazariy tarixiy izlanishlarni, jadidlar faoliyatini ijtimoiy-falsafiy masalalar bilan bogliq ayrim qirralarini yoritishni niyat qildik.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot mobaynida jadid bobolarimizning serqirra faoliyati – ma'rifiy targ'ibot olib borishning yuksak namunasi ekani asoslandi. Jadidlar, necha asrlar davomida savodsizlik, bilimsizlik girdobiga solingan, jaholat va zulmat botqog'ida qolib kelgan avom xalqni yorug'likka chiqarish, ziyo tarqatishni bosh maqsad etib belgiladilar. Ma'rifat tarqatish, xalqni g'afatdan uyg'otish uchun jadidlar faqat da'vat yoki pand-nasihat bilan cheklanmay, juda katta ko'lamdagi amaliy ishlarni bajardilar.

Dastlabki qadam – yangi usuldagi maktablar ochish va yosh avlodga zamonaviy bilimlar berishdan iborat bo'ldi. Ushbu ma'rifatparvarlik harakatining "jadid" nomini olishi ham, birinchi navbatda, "usuli jadid", ya'ni "yangi usuldagi maktab" g'oyasi

bilan bog'liq bo'lgan. Maktablar bilan g'oyaviy targ'ibotning bog'liqligi bevosita emas, bilvositadir, chunki o'rta maktab ma'naviy targ'ibotni aniq va to'liq qabul qilish, idrok etish va xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlarni yetkazib beradi.

Biz jadid bobolarning maorif sohasidagi tengi yo'q xizmatlari qatoriga ularning maktablar ta'sis etish bilan birgalikda darslik, o'quv qo'llanma, lug'atlar va boshqa zarur o'quv-uslubiy materiallar yaratganini ham qo'shmog'imiz kerak. Faqat bir faktni keltirish o'rinni: 1917 yilgi Oktyabr to'ntarishi arafasida Rossiya imperiyasi hududida 5000 jadid maktablari ochilgan bo'lib, shundan faqat 100 donasi Turkistonda edi.

Buning asosiy sababi – ziyolilarimizning passivligi emas, jamiyatda jaholatparastlikning o'ta ildiz otgani edi. Mutaassib mullolar, eskilikparast amir va beklarning qarshiligi juda kuchli edi. Mahalliy aholi ongida ham ilm-fan, texnika yutuqlari, maorif va madaniyat sohasidagi yangiliklarga "bid'at" deb qarash keng yoyilgan edi. Binobarin, omma orasida katta ko'lamdagi va keng qamrovli targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib borishni davrning o'zi talab qilardi.

Buning uchun eng samarali vosita – ommaviy axborot vositalari bo'lishi qonuniy edi. Buni anglab yetgan jadidlar gazetalar nashr etishga bel bog'ladi. Dastlab 1906 yili "Taraqqiy" gazetasi nashr etila boshladi, uning muharriri Obidov bo'ldi. Xuddi shu 1906 yildan Munavvarqori Abdurashidxonov muharriri bo'lgan "Xurshid", 1907 yili Abdulla Avloniy rahbarligida "Shuhrat" gazetasi chop etila boshladi. Shu paytda Bektemirov "Osiyo" gazetasiga rahbarlik qilgan edi. Ammo Chor Rossiyasi amaldorlari Turkistonda bu sohaning rivoji bu qadar tez va natijali bo'lishini kutmagan edi. Xullas, mustamlakachilar hukumati mazkur nashrlarni yopish choralarini ko'rdi. Mahalliy hayotni, ommaning kayfiyatini ozmi-ko'pmi biladigan, Ostroumov kabi o'qimishli, ammo o'z mustabid hukumatiga sadoqatli kishilar

Turkiston xalqini savodli va ma'rifatli qilish kelajakda ular uchun kutilmagan muammolar tug'dirishi xususida o'z ma'muriyatini ogohlantirdi. Aynan u zot maktablar va gazetalarni yopish borasida jonbozlik ko'rsatgan.

Turkistonda gazeta va jurnallar nashr etish ishlari 1913 yildan yangi bosqichga ko'tarildi. Buning asl sababi 1912 yil Sibirdagi Lena fojiasi, ya'ni kon ishchilarini o'qqa tutilishi, buning orqasidan butun imperiya bo'ylab ommaviy norozilik harakatining ko'tarilishi, hukumatning noiloj biroz erkinlik berishi bilan bog'liq edi. Xullas, shu davrdan boshlab "Samarqand", "Sadoi Farg'ona", "Sadoi Turkiston", "Kengash", "El bayrog'i", "Turon" va "Oyna" singari gazeta va jurnallar chop etila boshladi.

Bu – o'sha tahlilali davr, o'sha jaholatli tuzumga ko'zgu tutib, uning barcha dog' va kirlarini namoyish etgan maqola edi. Unda, chunonchi, quyidagilarni o'qish mumkin:

«Bir karra diqqat qilib, mahalla-ko'y va boshqa qishloq xalqlariga qaralsun. Avomlik, beilmlik naqadar ko'paygan. Biz musulmonmiz. Musulmonlikg'a ilm lozim, amal lozim. O'qumoq kerak, nima uchun boshqa millatlarda yuza bir nafar besavod yo'q ekan, biza yuza bir nafar savodlik yo'q? Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosiga tobe' ekan, bizni ulamo bil'aks avomg'a tobe'dur? Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o'ttuz sana so'ngra yana yomonroq bo'lar, musulmonlik, ilm va odob ila qoim millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur».

Davlatning jiddiy e'tibori samarasi o'laroq qisqa muddatda milliy an'analarni asrash va rivojlantirish harakati tendensiyaviy tus oldi. "Ajdodlarimizning asrlar davomida asrab-avaylab, e'zozlab, avloddan-avlodga o'tkazib kelgan yaxshi an'analari yana sayqal topib, boyib, rivojlana boshladi. Xalqimizning qadimiy "Navro'z", "Qovun sayli", "Uzum sayli", "Hosil bayrami" kabi bayram marosimlarini ommaviy nishonlash an'analari qayta tiklandi."

Bugungi kunda ham jamiyat oldida turgan ijtimoiy, iqtisodiy,siyosiy va ma'naviy-madaniy vazifalarni hal qilishda milliy an'analarga bot-bot murojaat qilinmoqda. "Bu vazifalarni amalga oshirishda,- deb ta'kidlaydi davlat rahbari,- biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz". Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi Qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasining" tasdiqlanishi bu boradagi ishlarga tizimli tus berdi.

Shuning bilan bir qatorda davr o'tgani sayin zamonaviy tendensiyalarning, jumladan globallashuvning milliy an'analarga ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Butun jahonda kechayotgan integrasion hamda unifikasion jarayonlar milliy an'analarni ijtimoiy funksiyalarini tubdan o'zgartirmoqda. Ma'lumki, milliy an'analarni jamiyatda ijtimoiy muvofiqlashtirish, qadriyatlarini ajdodlardan avlodlarga yetkazish, shaxsni ijtimoiylashtirish, jamiyat a'zolarini tarbiyalash funksiyalarini bajaradi. Globallashuv ta'siri o'laroq milliy an'analarning aynan ana shu funksiyalari mazmuni o'zgarimoqda.

Masalan, milliy an'analarni asrlar davomida jamiyat a'zolarining turli sohalaridagi faoliyatlarini muayyan normalar yordamida muvofiqlashtirib kelgan. Kishilarning jamiyatda kechayotgan har qanday o'zaro munosabatlari milliy an'analarni sharofati bilan umumiy maxrajga keltirilgan. Globallashuv esa, biz avvalgi bobda ta'kidlaganimizdek, milliy an'analarni ularning g'arbna muqobillari negizida univertsallashtirmoqda. Buning oqibatida jamiyat a'zolarining xulq-atvori va faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasini asta-sekinlik bilan milliy an'analarni emas, g'arbna norma va tamoyillar o'taydigan bo'lmoqda.

Milliy an'analarni takrorlanuvchan xarakterga ega bo'lgani tufayli ajdodlar uchun muayyan qadr-qimmatga ega bo'lgan ideallar, orzu-umidlar, xulq-atvor modellari va boshqa qadriyatlarini yangi avlodlarga yetkazgan. An'analarni har bir yangi avlodga ajdodlar tajribasini taqdim etarkan, ularni ibrat namunalarini bilan qurollantirgan. Globallashuv tendensiyasi milliy an'analarga putur yetkazish orqali ushbu avlodlararo zanjirni batamom uzmoqda.

Shaxsning shakllanishi va jamiyatdagi muhitga moslashishi ham milliy an'analarni ishtirokisiz sodir bo'lmagan. Milliy an'analarni shaxs fazilatlarining shakllanishida sezilarli rol o'ynagan, uning e'tiqodining qaror topishiga ta'sir ko'rsatgan, ijtimoiy turmushga munosabatini belgilab bergan. Globallashuv sharoitida milliy an'analarni mazmunida tub o'zgarishlar yuz bergani bois shaxs ijtimoiylashuvi mohiyati ham milliylikdan mosuvo bo'lmoqda. Eng muhimi, globallashuv oqibatida milliy an'analarni shaxs e'tiqodi va fazilatlarini, uning jamiyatdagi

jarayonlar va voqealarga munosabatini shakllantiruvchi manba vazifasini o'tamay qo'yayapti.

Millatga xos bo'lgan an'analarni jamiyat a'zolarining axloqiy qiyofasini shakllantirgan. Bu o'rinda ayniqsa oilaviy an'analarni alohida qayd qilib o'tmoq darkor. Chunki tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida ularning kishilarga tarbiyaviy ta'siri ayniqsa katta bo'lgan. Biroq globallashuv jamiyatda hukm surayotgan an'analarni iyerarxiasini g'arbna an'analarni foydasiga o'zgartirar ekan, milliy an'analarning tarbiyaviy imkoniyatlarini tobora zaiflashtirib bormoqda. Ularning o'rimga g'arbna ommaviy madaniyatga xos bo'lgan xususiyatlar shaxs axloqiy qiyofasini qaror toptiruvchi tarbiyaviy omil darajasiga ko'tarilmoqda.

Globallashuv jarayonlarining milliy an'analarga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun quyidagi holatlarga e'tiborni jamlash zarur, deb hisoblaymiz:

milliy an'analarning asl mazmunini ifodalab beradigan risolalar, albomlar, ko'rsatuvlar, videomateriallarni ko'paytirish zarur. To'g'ri, bu vazifa bugungi kunda ham muayyan darajada ijro qilinmoqda. Shunga qaramasdan, milliy an'analarni mazmuniga bag'ishlangan materiallarni yetarli deb bo'lmaydi. Bunday materiallarni milliy an'analarni tarkibidagi milliylik elementlarini zamon tendensiyalari o'laroq kirib kelayotgan g'arbna elementlardan farqlab olish imkonini yaratadi;

globallashuv ta'sirida milliy an'analarda zamonaviylik elementlarining ko'payotgani ularning qimmatlashuviga olib kelmoqda. Bu holatni mehnat an'analari ham, dam olish an'analari ham, kiyinish an'analari ham, oilaviy marosimlarda ham, ijtimoiy-siyosiy an'analarda ham ko'rish mumkin. Shu munosabat bilan milliy an'analarning tarixan ustuvor bo'lgan, pragmatik shakllarini targ'ib va tashviq qilishni kuchaytirish taqozo etilmoqda;

globallashuvning milliy an'analarga ta'siri tobora murakkablashib borayotgan bir sharoitda mavzuga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar uning publisistik talqinidan ortda qolmoqda. Mavzuga doir ilmiy izlanishlarning maxsus grantlar bilan ta'minlanishi vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirgan, bu izlanishlarga tizimlilik baxsh etgan bo'lur edi. Shuningdek, "Milliy an'analarni" rukni ostida sof ilmiy pozitsiyadan yozilgan risolalar majmuini yaratish ham maqsadga muvofiq;

globallashuv sharoitida ayrim jamiyat a'zolarining milliy an'analarga munosabati deformatsiyaga uchrayotgani, ularga nigilistik munosabatda bo'lgan kishilar ham paydo bo'layotganini aytib o'tdik. Binobarin, jamiyatdagi milliy an'analarga hurmat muhitini yanada mustahkamlash, ushbu tuyg'uni shakllantirishda ayniqsa ijtimoiy fanlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan kengroq foydalanish zarur.

Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarini asrab-avaylash masalasi ham kun sayin dolzarblashib bormoqda. Avvalgi boblarda ko'rsatilganidek, milliy qadriyatlar millat vakillarining ongi va faoliyatini, ularning turli jarayon va voqealarga munosabatini, ehtiyojini va manfaatlarini, maqsad va idealarni shakllantiruvchi qudratli manbadir. Masalan, inson uchun Vatan tabiati bilan bog'liq ayrim xususiyatlar, hodisalar qadriyat darajasiga ko'tarilishi mumkinligini aytib o'tdik. Ushbu qadriyatlar vatan-parvarlik tuyg'ularini qaror toptiruvchi omil vazifasini ham o'taydi. Aynan shu boisdan ko'plab shoirlar Vatanga bo'lgan muhabbatlarini ifodalashda tabiat tasviridan foydalanadilar.

Binobarin, qadriyat maqomiga yetgan va Vatan tabiati bilan bog'liq xususiyatlar, hodisalar, yodgorliklarning asrab-avaylanishi nafaqat millat turmushi, balki uning vakillari dunyoqarashining shakllanishi uchun muhim ahamiyatga egadir.

Millat vakillari ongi va faoliyatining shakllanishida milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan tarixiy jarayon va voqealar ham bag'oyat ahamiyatli. Masalan, Temuriylar davrida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiy yuksalish omillari, madaniy taraqqiyot o'zbek xalqi uchun allaqachonlar qadriyat maqomini olgan. Millat vakillari ushbu tarixiy jarayonlarni mamlakatimizdagi Ikkinchi renessans davrining ifodasi sifatida qadrlaydilar. Bu qadriyatlar o'zbek xalqining shonli tarixini, uning potensial imkoniyatlarini, orzu-umidlarini tuyish imkonini beradi. Demak, tarixiy jarayon va voqealar bilan bog'liq milliy qadriyatlarini asrab-avaylash orqali millatning ijtimoiy-tarixiy

munosabatini qaror toptirish, uning ruhiyatini shakllantirish, ijtimoiy kayfiyati va millatparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash mumkin bo'ladi.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytganda Milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan orzu-umid va ideallarning ham alohida qimmatini mavjud. Tarixiy taraqqiyot davomida bunday orzu-umid va ideallar xalqni buyuk ishlar sari undab kelgani haqida ko'p gapirilgan. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston orzusi ana shunday

ideal darajasiga ko'tarilmoqda. "Yangi O'zbekiston – barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi! Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o'ziga xos tarzda aks etmoqda." Ushbu orzuning qimmatini shundaki, u butun o'zbekistonliklarni yagona g'oya atrofida birlashtirishga, ularni aniq maqsad sari safarbar etishga xizmat qiladi. Yangi milliy qadriyat darajasiga yetayotgan ushbu orzuni asrab-avaylash zaruriyati ham shuning bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. Jamolov, D. B. (2023). The Main Part of Uzbek National Culture Features and Functions. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences*, 2(5), 49-56.
2. Жамолов, Д. Б. О. (2020). Национальная культура и идентичность в контексте глобализации. Достижения и перспективы науки, освіти та виробництва: 2020 [зб. наук. пр.], 108.
3. Жамолов, Д. Б. Проблемы сохранения национальной культуры в условиях глобализации. ii. "Zamonaviy fan va ta'lim-tarbiya: muammo, yechim, natija" Respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy, onlayn konferensiya materiallari (5.12. 2020), 16.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- T.:O'zbekiston, 2021.- B.15.
5. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob.- T.:O'qituvchi,1965.- B.5.
6. Xajiyeva I.A. Inson va insonparvarlik mutafakkirlarimiz talqinida.// *Obrazovaniye i vospitaniye*, 2018, №3.1.- 30-b.
7. Mo'minov I. M. Tanlangan asarlar. Tom 1.- T.:Fan, 1969.- B.197
8. Top-10: Mustaqil O'zbekistonning yorqin rassomlari.// *darakchi.uz*, 2015, 7 aprel.
9. Akimova G.R. Kulturi kollektivizma i individualizma kak storoni mejkulturnogo dialoga.// *Skif*, 2019, №1. –S.45-46,48.
10. O'zbek xalq maqollari to'plami.// *sirlar.uz*, 2021, 27 iyun.
11. Ro'ziyeva R.X. Urf-odat va an'analar – milliy qadriyatlarni shakllantiradigan mezon sifatida. *Scientific progress*, 2021, №4.- 645-B.
12. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti.- T.:Yangi nashr, 2010.- B.5.
13. Yaxuyayev M.Ya., Kamyshova Ye.G. Svetskoye i religioznoye v sovremennom obshestve.// *Islamovedeniye*, 2011, №2. –S. 90, 92.
14. *Religiovedeniye*.// *bstudy.net*.
15. Majidov M. Ma'naviy tarbiyada dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligi.// *nasafziyo.uz*, 2020, 22 sentyabr.



UDK:71.004.52

Sitora JAMOLOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: jamolovasitora31@gmail.com

Shaxrisabz Davlat Pedagogika Instituti o'qituvchisi P.M.Jalolova taqrizchi asosida

STEAM FANLARI BO'YICHA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING USLUBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNI METOD VA USULLARI

Annotatsiya

Mazkur ishda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) fanlari bo'yicha bo'ladigan o'qituvchilarning uslubiy tayyorgarligini takomillashtirishning metod va usullari ko'rib chiqilgan. STEAM ta'limi zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib, o'quvchilarda ijodiy va tizimli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu uslublar o'qituvchilarning o'z kasbiy malakalarini oshirish, pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash va innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Ishda, STEAM ta'limida o'qituvchilarning uslubiy tayyorgarligini oshirishda kollaborativ o'qitish, projektga asoslangan ta'lim, interaktiv texnologiyalarni qo'llash, shuningdek, differensiyatsiya yondashuvlarini qo'llash metodlari muhokama qilinadi. O'qituvchilarni ushbu metodlarga tayyorlash uchun malaka oshirish kurslari, treninglar, mentorlik va o'zaro tajriba almashishning ahamiyati ham ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar : innovatsion pedagogik metodlar, kollaborativ o'qitish, kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalari, pedagogik texnologiyalar.

METHODS AND APPROACHES FOR IMPROVING THE PEDAGOGICAL PREPAREDNESS OF FUTURE TEACHERS IN STEAM FIELDS

Annotatsiya

This paper discusses the methods and approaches for improving the pedagogical preparedness of future teachers in the field of STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics). STEAM education has become a crucial component of modern educational systems, aiming to develop students' creative and systematic thinking skills. These approaches help teachers enhance their professional competencies, effectively apply pedagogical technologies, and adopt innovative teaching methods. The paper examines methods for improving teachers' pedagogical preparedness in STEAM education, such as collaborative teaching, project-based learning, the use of interactive technologies, and the application of differentiation strategies.

Key words: Innovative pedagogical methods, Collaborative teaching, Creative thinking, Problem-solving skills, Pedagogical technologies.

МЕТОДЫ И ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ОБЛАСТИ STEAM

Аннотация

В данной работе рассматриваются методы и подходы к совершенствованию методической подготовки будущих учителей в области STEAM (Наука, Технологии, Инженерия, Искусства, Математика). STEAM-образование стало важной частью современной образовательной системы и направлено на развитие у учащихся навыков творческого и системного мышления. Эти подходы помогают учителям повышать свою профессиональную квалификацию, эффективно применять педагогические технологии и осваивать инновационные методы преподавания. В работе обсуждаются методы повышения методической подготовки учителей в STEAM-образовании, такие как совместное обучение, проектное обучение, использование интерактивных технологий, а также применение дифференцированного подхода.

Ключевые слова: Инновационные педагогические методы, Коллаборативное обучение, Креативное мышление, Навыки решения проблем, Педагогические технологии.

Kirish. STEAM ta'limi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarda kreativ fikrlash, tizimli yondashuv, muammolarni hal qilish va innovatsion ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalashgan o'quv yondashuvidir. Bu sohalar bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash va ularning pedagogik malakalarini oshirish, nafaqat o'quvchilar uchun, balki butun jamiyat uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada STEAM fanlari bo'yicha bo'ladigan o'qituvchilarning uslubiy tayyorgarligini takomillashtirishning metod va usullari ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism. STEAM ta'limining ahamiyati va o'qituvchilarning roli.

STEAM ta'limi nafaqat ilmiy bilimlarni o'zlashtirishni, balki texnologik va muhandislik yondashuvlarini, san'atni va matematikani birlashtirishni ham ta'minlaydi. Bu, o'quvchilarning kelajakdagi muammolarni hal qilishdagi kompetensiyalarini oshirishda muhim omil hisoblanadi. O'qituvchilar esa ushbu yondashuvlarni samarali qo'llash uchun nafaqat zamonaviy pedagogik metodlarni bilishlari, balki innovatsion

texnologiyalarni o'z pedagogik faoliyatlarida qo'llay olishlari kerak.

Metod va usullarni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

Kollaborativ o'qitish (Hamkorlikda o'qitish):

STEAM ta'limida guruh bo'lib ishlash, jamoaviy fikrlash va muammolarni birgalikda hal qilish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarni kollaborativ o'qitishga tayyorlashda ular guruhlarda o'zaro fikr almashish, fikrlarni tahlil qilish va birgalikda qarorlar qabul qilishni o'rgatishlari kerak. Bu metod o'quvchilarni hamkorlikda ishlashga, guruhda muammolarni hal qilishga va kreativ yechimlar topishga o'rgatadi.

Projektga asoslangan ta'lim (Project-based learning): STEAM fanlarida o'quvchilar amaliy loyihalar asosida bilim olishadi. Bu metod o'quvchilarning ijodiy va tizimli fikrlashini rivojlantiradi. O'qituvchilar projektga asoslangan o'qitishni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun o'quvchilarni individual va guruh bo'lib ishlashga rag'batlantirishlari, loyihalarga real muammolarni kiritishlari zarur. Bu metod nafaqat bilimlarni

o'zlashtirish, balki o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Interaktiv texnologiyalarni qo'llash: Interaktiv ta'lim texnologiyalari o'qituvchilarga o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashda yordam beradi. Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va boshqa interaktiv vositalar o'quvchilarni diqqatini jalb qiladi va ta'lim jarayonini qiziqarli qiladi. O'qituvchilar interaktiv texnologiyalarni samarali qo'llash uchun tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

Differensiyatsiya yondashuvi: STEAM ta'limida o'qituvchilar o'quvchilarning individual ehtiyojlariga qarab o'qitish metodlarini moslashtirishi lozim. Differensiyatsiya yondashuvi o'qituvchilarga o'quvchilarni individual rivojlanish darajasiga moslab ta'lim berishga imkon beradi. Bu metod o'quvchilarga o'z suratida o'qish va o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish imkonini yaratadi.

O'qituvchilarni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan vositalar

Mentorlik va o'zaro tajriba almashish: O'qituvchilarni mentorlik orqali o'z bilim va tajribalari bilan bo'lishish va yangi metodlarni o'zlashtirishda yordam berish muhimdir. O'qituvchilar o'zaro tajriba almashish orqali o'zlarining pedagogik faoliyatlarini takomillashtirishlari mumkin.

Pedagogik va ilmiy yondashuvlarni mustahkamlash: O'qituvchilarni pedagogik va ilmiy bilimlar bilan tanishtirish, ularni yangiliklar va ilmiy tadqiqotlar bilan tanishtirish muhimdir. Bu o'qituvchilarga o'z o'quvchilari bilan ilmiy va amaliy tajriba almashish imkoniyatini yaratadi.

STEAM ta'limining samaradorligini baholash

O'qituvchilarning STEAM fanlari bo'yicha uslubiy tayyorgarligini oshirishda o'quvchilarning muvaffaqiyatlari va amaliy ko'nikmalarining baholanishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'z darslarida o'quvchilarning fikrlarini tinglash, ularning muvaffaqiyatlarini baholash va o'qish jarayonini tahlil qilish orqali o'z uslublarini yanada takomillashtirishlari mumkin.

Xulosa va takliflar. STEAM fanlari bo'yicha bo'ladigan o'qituvchilarning uslubiy tayyorgarligini takomillashtirish ta'lim tizimining samaradorligini oshirish uchun zarurdir. Innovatsion pedagogik metodlar, yangi texnologiyalar, kollaborativ o'qitish va individual yondashuvlar orqali o'qituvchilar o'z kasbiy malakalarini oshiradilar. O'qituvchilarning pedagogik faoliyatini takomillashtirish orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash, tizimli yondashuv va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Shu tarzda, STEAM ta'limi nafaqat bilim olishni, balki kelajakdagi muammolarni hal qilishga tayyor o'quvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ishmuxamedov R, Abduqodirov A, Pardayev A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar".-T.:Iste'dod, 2008.-181
2. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To'rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.-T.: 2015.-122 bet
3. Volosovets T.S., Markova V.A., Averina S.A.STEM obrazovaniye detey doshkolnogo i mladshego shkolnogo vozrasta. M. BINOM. Laboratoriya znaniy 2019.
4. Yevdokimova YE.S. Texnologiya proyektirovaniya v DOU YE.S.Yevdokimova. - M.: TS Sfera, 2006. - 64 s.
5. Bogdanovich G.. Dopolnitelnaya obsherzvivayushaya programma «Mult-studiya «Moy mir» Sverdlovskaya oblast, 2018 g. —
6. Ismailova N.. Maktabgacha ta'limda steam texnologiyalari. Ma'ruzalar matni. Namangan- 2022
7. Master-klass dlya pedagogov «Sozdaniye multfilmov vmeste s detmi».
8. Elektron ta'lim resurslari:
9. <http://www.ziynet.uz/>
10. <http://www.google.co.uz/>
11. <http://www.google.ru/>



Ibrohimjon JA'FAROV,
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: ibrohimjafarov@gmail.com

NamDPI katta o'qituvchisi, f.f.n. N.Zaynobiddinova taqrizi asosida

GLOBAL AXBOROT MUHITI VA OMMAVIY MADANIYAT TA'SIRIDA AXLOQIY INQIROZNING OLDINI OLISH MASALALARI

Аннотация

Ushbu maqolada global axborot muhiti va ommaviy madaniyat jarayonlarining ijtimoiy-ma'naviy hayotga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Globallashuv davrida internet, ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalarining umumjahon maydonida ta'siri kengaygani sari, axloqiy inqiroz xavfi ham ortib bormoqda. Maqolada, avvalo, global axborot oqimining son jihatdan o'sishi bilan birga, uning mazmunan ham keskin o'zgarishi nimalarga olib kelishi mumkinligi ilmiy-nazariy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Global axborot muhiti, ommaviy madaniyat, axloqiy inqiroz, ma'naviy immunitet, globallashuv, axborot xavfsizligi, axloqiy mezon, yoshlar tarbiyasi, media-tahlil.

ВОПРОСЫ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ЭТИЧЕСКОГО КРИЗИСА ПОД ВЛИЯНИЕМ ГЛОБАЛЬНОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЫ И МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

В статье дается глубокий анализ влияния глобальной информационной среды и массовых культурных процессов на социально-духовную жизнь. В эпоху глобализации, по мере расширения влияния Интернета, социальных сетей и средств массовой информации на мировой арене, возрастает и риск морального кризиса. В статье прежде всего на научно-теоретической основе проливается свет на то, к чему может привести стремительный рост мирового информационного потока, а также быстрое изменение его содержания.

Ключевые слова: Глобальная информационная среда, массовая культура, моральный кризис, духовный иммунитет, глобализация, информационная безопасность, этический критерий, воспитание молодежи, медиа-анализ.

ISSUES OF PREVENTING A MORAL CRISIS INFLUENCED BY THE GLOBAL INFORMATION ENVIRONMENT AND MASS CULTURE

Annotation

This article provides an in-depth analysis of the impact of the global information environment and mass culture processes on socio-spiritual life. In the era of globalization, as the influence of the Internet, social networks, and mass media on the global stage expands, the risk of a moral crisis also increases. First of all, the article discusses on a scientific and theoretical basis what the quantitative growth of the global information flow, as well as its sharp changes in content, can lead to.

Key words: Global information environment, mass culture, moral crisis, spiritual immunity, globalization, information security, moral criterion, youth education, media analysis.

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonida axborot texnologiyalari jamiyatning deyarli barcha sohalariga chuqur singib borayotgani hech kimga sir emas. Turli ijtimoiy tarmoqlar, elektron ommaviy axborot vositalari va virtual maydonlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanish bilan birga, madaniy va axloqiy qadriyatlariga ham tub ta'sir ko'rsatmoqda. Ana shu o'zgarishlar ko'lamini kengaytib, global axborot muhiti ta'siri chuqurlashib borar ekan, ommaviy madaniyat fenomeni ham o'ziga xos tarzda shakllanib, insonlar ongida ham ijobiy, ham salbiy aks-sado bermoqda. Ayrim tadqiqotchilar nazarida, bunday shiddatli o'zgarishlar davrida jamiyat axloqiy inqirozga duchor bo'lishi ehtimoli yuqori bo'lsa, boshqalar bunga qarshi turish va zaruriy choralar ko'rish orqali muammoni bartaraf etish mumkinligini ta'kidlashadi [1]. Ushbu maqolada global axborot muhiti va ommaviy madaniyatning axloqiy inqirozga olib keluvchi omillari hamda bu inqirozning oldini olish masalalari ilmiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Globallashuv XXI asrning eng muhim belgilaridan biri sifatida dunyoning turli hududlarini iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan bir tizimga bog'lab kelmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bu jarayonni tezlashtirdi. Insoniyat muomala, bilim almashinuvi, hamkorlik kabi ilgari faqat geografik yoki iqtisodiy cheklovlar bois amalga oshirish qiyin bo'lgan ko'plab imkoniyatlarga ega bo'ldi. Biroq, global axborot muhiti ma'lumotlar oqimini tezlashtirar ekan, inson ongiga turli g'oyalar, mafkuraviy oqimlar, madaniy andozalar ham mohiyatan bitta

makonda to'planib, mos ravishda ijobiy yoki salbiy ta'sirlar ko'rsatishi tabiiydir [2].

Mishel Fuko o'zining "Bilim arxeologiyasi" asarida har qanday bilim va axborot tizimi ma'lum ijtimoiy institutlar tomonidan shakllantirilishini ta'kidlaydi [3]. Uningcha, axborot vositalari ham "hokimiyat - bilim" munosabatlari orqali o'z ta'sirini o'tkazib, insonlar ongiga ma'lum doirada nazorat o'rnatishi mumkin. Darhaqiqat, global axborot makoni bir tomondan insonlarning dunyoqarashini kengaytirsa, boshqa tomondan, ayrim yo'naltirilgan axborot oqimlari orqali ularning axloqiy mezonlariga daxl qilishi mumkin. Shunday sharoitda inson axloqining barqarorligiga doir masala tobora dolzarbroq tus olyapti.

Ommaviy madaniyat tushunchasi XX asrning o'rtalaridan boshlab faol o'rganib kelinayotgan hodisalardan biridir. Ushbu fenomen sanoatlashuv, shahar aglomeratsiyalari, elektron ommaviy axborot vositalarining ommalashuvi oqibatida kuchaydi. Zamonaviy davrda esa ijtimoiy tarmoqlar, internet platformalari, global media konglomeratlar orqali yanada kengayib, o'z nufuzi va ta'sir maydonini keskin oshirdi. Jan Bodiyar ommaviy madaniyat ko'pincha real voqelikning o'rmini bosadigan sun'iy simulyakrlar yaratib, odamlarni "haqiqat" va "ko'rinish" orasida adashtirishga xizmat qilishini aytadi [4]. Bu jarayon ba'zan axloqiy mezonlarning "ma'nosiz madaniyat" foydasiga siljishiga olib keladi. Ommaviy madaniyatning ijobiy tomonlari ham inkor etilmaydi. Masalan, u madaniy mahsulotlarni keng ommaga yetkazib, ko'pchilikda ma'lum estetik did yoki madaniy ongina emas, balki yangicha dunyoqarash ham shakllantirishi mumkin.

Ommaviy filmlar, musiqalar yoki badiiy asarlar orqali insonlar butun dunyoning turli madaniyatlari bilan tez tanishadi. Bunda bag'rikenglik, multikulturalizm kabi ijtimoiy-falsafiy qadriyatlar mustahkamlanishi ehtimoli ham bor. Lekin aynan shu jarayonda keraksiz, hattoki zararli bo'lishi mumkin bo'lgan g'oyalar, stereotiplar ham tez yoyilishi mumkin. Shu sababli ommaviy madaniyat oldida ma'lum darajada "axloqiy filtr"ning zarurligi haqida ko'plab faylasuflar bong urib kelishadi.

Axloqiy inqiroz – bu jamiyatda ilgari barqaror bo'lgan axloq normalarining buzilishi yoki zaiflashishi, qadriyatlar o'zgarishi hamda shaxslararo munosabatlarda beqarorlikning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Immanuel Kantning "Amaliy aql tanqidi" asarida ta'kidlanishicha, inson axloqi doimo "kategorik imperativ" tamoyiliga asoslanmog'i darkor, ya'ni barchaning umumiy manfaati uchun maqbul bo'lgan xatti-harakat amalga oshirilishi shart [5]. Biroq ommaviy madaniyat ko'pincha individual nafs, tezkor manfaat yoki vaqtincha rohatlanish kabi qisqa muddatli maqsadlarni ilgari suradi. Natijada, umumjahon axloqiy tamoyillarni chekinishga majbur qilishi, yon berishga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Zigmunt Bauman "Suyuq zamonaviylik" (Liquid Modernity) kontsepsiyasida zamonaviy jamiyatda axloqiy qadriyatlar ma'lum suyuqlik holatiga o'tayotganini qayd etadi [6]. Chunki odamlar tez o'zgaruvchan texnologiyalar va informatsion oqim ta'sirida o'zlarining axloqiy qarashlarini ham tez-tez yangilashga majbur bo'lishmoqda. Shu bois, "abadiy" deb qaralgan axloqiy me'yorlar nisbatan ishonchsiz, beqaror ko'rinish kasb etishi yoki individual xulosalar foydasiga yo'qolib ketishi mumkin. Natijada, axloqiy inqiroz fenomeni chuqurlashib, hatto keng ko'lamga tarqalishi xavfi kuchayadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Global axborot muhiti shiddat bilan kengaygani sari turli darajadagi, turli manbalardagi axborotlar inson ongiga hujum qiladi. Ma'lumotlarning sifati, aniqligi yoki ishonchiligi e'tibor berish qiyinlashadi. Natijada, axloqiy qadriyatlarga doir chalkash tushunchalar, noto'g'ri xabarlar, ma'lumotlar bilan manipulyatsiya qilish usullari keng tarqalishi mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan aytganda, insonlarning axloqiy mezonlari shubha ostiga olinishi, "nima to'g'ri, nima noto'g'ri" kabi savollar yanada murakkablashishi ehtimoli bor. Mishel Fuko ta'kidlaganidek, axborot nafaqat subyektiv tasavvur, balki institutlar tuzgan diskurslar natijasidir [3]. Shu sababli, kimda axborot ustidan nazorat bo'lsa, amalda axloqiy tushunchalarni shakllantirish huquqini ham qo'lga oladi.

Ommaviy madaniyat axborot tarqatishning eng ommalashgan shakllaridan biri sifatida ko'ngilocharlik tamoyilini ilgari suradi. Reklama, shou-biznes, virtual blogerlik, realiti-shou, trend-videolar – bularning barchasi odamlar e'tiborini tortish va ushlab turishga qaratilgan. Biroq, shu e'tibor talashish jarayonida axloqiy me'yorlar, qat'iy prinsiplar ikkinchi planga surilishi yoki tamoman rad etilishi mumkin. Ba'zan mashhurlik, iqtisodiy daromad kabi maqsadlar axloqni butunlay cheklab qo'yishi ham mumkin. Jan Bodiyyarning fikriga ko'ra, "haqiqatning o'rniga obrazlar ustunligi o'rnatiladi, insonlar esa ko'pincha mazmundan ko'ra ko'rinish bilan ko'proq qiziqadi" [4]. Natijada, chuqur falsafiy-axloqiy masalalar o'rnini yuzaki va siyrak ma'rifatli mavzular egallaydi. Bunday sharoitda yosh avlod axloqiy tarbiya emas, balki ko'ngilochar, hayajonli, ko'p layk yig'adigan udumlarga mahliyo bo'lishi ehtimoli ortadi.

Globallashgan madaniyatda individualizm va iste'molchilik (consumption) qadriyatlari nafaqat G'arb jamiyatlari, balki an'anaviy jamiyatlar hayotiga ham kirib kelmoqda. Bu jarayon insonlarning shaxsiy manfaatini, shaxsiy farovonligini birlamchi o'ringa qo'yishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy birdamlik, hamjihatlik, o'zgalarga yordam berish kabi xususiyatlar asta-sekin zaiflashadi. Avvallari jamoa yoki oila farovonligi ustun bo'lgan jamiyatlarda ham individualizm ruhi shakllanib bormoqda. Natijada, nafaqat axloqiy, balki madaniy va ruhiy inqirozlar ham vujudga kelishi mumkin.

Global axborot muhiti va ommaviy madaniyatning axloqiy inqirozga ta'siri haqida xorijlik va o'zbek faylasuflari orasida turli pozitsiyalar mavjud. Masalan, Mishel Fuko diskurs nazariyasiga asoslangan holda jamiyatdagi axloqiy mezonlar aynan hukmron ijtimoiy institutlar diskursi orqali shakllanishini uqtirsa, Immanuel Kant axloqiy absolyut tamoyillar mavjudligini

va ular inson aql-idroki bilan bog'liqligini takrorlaydi [3]. Fuko g'oyat ilg'or texnologiyalar va axborot oqimi ortidan "haqiqat" tushunchasi nisbiy tusga kirib boraverishini tasdiqlasa, Kant "kategorik imperativ"ga suyanib, xulq insoniyat taqdiriga daxldor bir zimmdorlik ekanini eslatadi.

O'zbek namoyondalari ichida esa Abdulla Avloniy ma'naviy tarbiya, milliy qadriyatlar va jamiyat farovonligi masalalariga ko'proq urg'u beradi. Avloniy "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida "inson har jihatdan tarbiyaga muhtoj" ekanini ta'kidlab, axloqiy barqarorlikni millat saodatiga bog'laydi [8]. Zigmunt Bauman esa bunday milliy-ma'naviy asoslar kuchli bo'lmaganda jamiyat "suyuq zamonaviylik" girdobida global iste'molchilikka mahkum bo'lishi mumkinligini uqtiradi [6]. Shunday qilib, xorij faylasuflarining modernistik, postmodernistik yoki dekonstruktiv yondashuvlari bilan o'zbek faylasuflarining milliy-ma'naviy qarashlari o'rtasida ma'lum ziddiyatli, lekin sermazmun polemika kuzatiladi.

Global axborot muhiti insonlar orasida cheksiz ma'lumot almashinuvi imkonini beradi. Shu sababli, har bir shaxsda ma'rifiy-immunitetni shakllantirish, ya'ni axborotni tanqidiy qabul qilish, manbalarni tekshirish, turli propaganda va manipulyatsiyalarga qarshi turish ko'nikmasini rivojlantirish zarur. Mishel Fuko ham jamiyatda "hokimiyat - bilim" aloqasini ma'rifat bilan kuchsizlantirish mumkinligini eslatadi [3]. Buning uchun ta'lim muassasalaridan boshlab, ommaviy media vositalarigacha hamma sohada shaxsda mustaqil fikrlashni rag'batlantiradigan dasturlar joriy etish lozim. Ommaviy madaniyatga ruju qo'ygan avlod ham ana shu ma'rifiy-asl me'zonlar asosida e'tiborini muvozanatlashtirishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Katta axborot oqimi o'rtasida yo'qolib ketmaslik, axloqiy inqirozning chuqurlashishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'zbek jamiyatida milliy-ma'naviy qadriyatlar iloji boricha mustahkamlanishi lozim. Zero, bu qadriyatlar azaldan oila, mahalla, jamoa ichida insonlar bir-birini qo'llab-quvvatlash, hurmat qilish, halollik, samimiyat kabi prinsiplarga asoslangan. Biroq bu qadriyatlarini butunlay global jarayonlardan uzib qo'yish ham imkonsiz. Shu bois, milliy va global standartlar o'rtasida muvozanatga erishish zarur.

Axloqiy inqirozning oldini olishda faqat ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar kifoya emas, balki huquqiy-me'yoriy bazani ham takomillashtirish zarur. Mass-media yoki internet platformalarida tarqatilyotgan materiallar mazmuni, yoshlar dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan "ommaviy madaniyat mahsulotlari"ni nazorat qilish mexanizmlari huquqiy asosda rivojlantirilishi shart. Ba'zi G'arb davlatlarida ommaviy axborot vositalarida zo'rvonlik, ayirmachilik, millatchilik yoki adovat uyg'otuvchi kontentni cheklash bo'yicha qat'iy qonunlar mavjud. O'zbekistonda ham yosh avlodni turli zararli axborotlardan muhofaza qilish bo'yicha qonun hujjatlari qabul qilinayotgani axloqiy inqirozning oldini olishning huquqiy kafolati bo'la oladi.

Ommaviy madaniyatning yoshlar ongiga ijobiy yoki salbiy ta'sirida ta'lim tizimining roli juda yuqori. Agar maktab, kollej, oliy ta'lim tizimida axloqiy tarbiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar muntazam ravishda o'qitilmasa, yoshlar o'z tarbiyasini asosan ommaviy madaniyat vositalaridan oladi. Bu esa axloqiy inqiroz xavfini kuchaytiradi. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" deya ta'kidlarkan, tarbiya yo'llari o'z vaqtida va izchil qo'llanilmasa, shaxs ma'naviy inqirozga uchrashi oson ekanini uqtiradi [8]. Shu bois, bugungi global axborot sharoitida an'anaviy tarbiya va yangicha, interaktiv usullar uyg'unligi zarur. Bunda virtual platformalar, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha maxsus kurslar, onlayn vebinarlar, interaktiv o'yinlar ishlab chiqish mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, blogerlik, "TikTok" kabi platformalar hayotimizning ajralmas qismi bo'lib ulgurd. Ayni shu platformalar orqali ommaviy madaniyatning turli ko'rinishlari yoshlar ongiga tez yetib boradi. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, turli yomon illatlarni tashviq qiluvchi, zo'rvonlik, buzg'unchilik va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi kontentga qarshi kurashish ham davr

talabidir. Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilarni o'zaro muntazam muloqot orqali ijobiy g'oyalar, xayrli tashabbuslar, hamjihatlik ruhini targ'ib etishga jalb qilish lozim. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlarning o'zi ham ma'lum taqiqlar, nazorat va targ'ibot mexanizmlarini kuchaytirishi mumkin. Zero, barcha sohada bo'lgani kabi virtual makonda ham axloqiy prinsiplar va normalar yanada faol himoya qilinmog'i lozim.

O'zbek jamiyatida mahalla azaldan ijtimoiy hamkorlik, qon-qardoshlik va o'zaro yordam tamoyillari bilan mashhur bo'lib, u birlamchi ijtimoiy institut sifatida har qanday ijtimoiy-falsafiy jarayonlarda muhim rol o'ynaydi. Global axborot muhiti oqibatida yuzaga keladigan ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda ham mahalla ta'sirchan tuzilma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mahalladagi oqsoqollar, ma'rifatli ziyolilar, jamoatchilik faollari yoshlar bilan bevosita muloqotda bo'lishi, ularga milliy va diniy an'analar, qadriyatlar haqida tushuntirishi, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirishi mumkin. Bunday ishlar ommaviy madaniyat ta'sirini muvozanatlashirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlari – nodavlat notijorat tashkilotlari, xayriya jamg'armalari, yoshlar ittifoqlari va boshqalar – global axborot muhiti ta'sirida shakllanayotgan turli axloqiy muammolarni bartaraf etish uchun ijtimoiy loyihalar ishlab chiqishi lozim. Masalan, “yoshlar media savodxonligi” dasturlari, “ma'naviy etika” bo'yicha seminarlar, “raqamli ma'rifat” tadbirlari kabi tashabbuslar axloqiy inqiroz darajasini pasaytirishga ko'maklashishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Global axborot muhiti va ommaviy madaniyatning jamiyat axloqiy hayotiga ta'siri murakkab hamda ko'p qirrali jarayondir. Bir tomondan, bu jarayon odamlarning turli madaniyatlarga yuz tutishi, erkin fikr almashishuvi va dunyoqarashining kengayishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan, axloqiy qarashlarning buzilishi, iste'molchilik va individualizmning kuchayishi, buzg'unchi g'oyalar va axloqsizlikning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shunday vaziyatda jamiyat oldida turgan eng muhim vazifa – axloqiy inqiroz xavfini kamaytirish, barqaror axloqiy muhitni

saqlab qolish va mustahkamlashdir. Buning uchun birinchidan, ma'rifiy-immunitetni shakllantirish lozim. Inson axborotning haddan tashqari ko'pligi sharoitida kimningdir tahdid yoki manipulyatsiyasiga osonlik bilan berilmasligi kerak. Ikkinchidan, milliy-ma'naviy qadriyatlar va global standartlarning uyg'unligini ta'minlash muhim. Shaxs faqat bir xalqqa xos urf-odatlar bilan cheklanib qolmasligi, balki butun insoniyatning ilg'or tajribalari va madaniy merosini ham o'zlashtirishi lozim. Uchinchidan, huquqiy-me'yoriy baza takomillashtirilib, internet va ommaviy madaniyat mahsulotlarini rasmiy nazorat va tartibga solish ishlari davlat siyosati darajasida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. To'rtinchidan, ta'lim tizimida axloqiy tarbiyani kuchaytirish, ayniqsa, yosh avlodga digital savodxonlikni chuqur o'rgatish, shu bilan birga, ma'naviy qadriyatlarni singdirish o'ta zarurdir. Beshinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda foydali foydalanish madaniyatini shakllantirish, salbiy g'oyalar va xatti-harakatlarga qarshi jamoaviy nazoratni rivojlantirish, blogerlar va media faoliyat yurituvchilarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish shart. Axloqiy inqirozning oldini olish to'g'risida gap ketganda, bu faqat bir yoqlama yoki qisqa muddatli chora emas, balki butun jamiyatning uzluksiz harakatini talab qiladigan kompleks jarayondir. Xorij faylasuflarining modernistik, postmodernistik qarashlari ham, o'zbek faylasuflarining milliy-ma'naviy qadriyatlar haqidagi ta'limotlari ham bu masalaga o'z hissasini qo'shadi. Polemika, turli bahs-munozaralar – barchasi jamiyatni muammolarni chuqur anglashga yordam beradi. Natijada, global axborot muhiti va ommaviy madaniyatning cheksiz ta'siri ostida ham axloqiy barqarorlikni saqlash, ma'naviy yetuklikni mustahkamlash imkoniyati paydo bo'ladi. Eng muhimi, har bir shaxsda chuqur mas'uliyat hissi shakllanishi kerakki, global maydon unga faqat “iste'molchi” bo'lishni emas, balki “ijodkor” va “vijdonli fuqaro” bo'lishni ham taqozo etishini unutmasin. Ana shundagina, biz insonning ma'naviy fazilatlarini ustuvor saqlab, axloqiy inqiroz xataridan himoyalalanib, farovon va adolatli jamiyat barpo etishga erishamiz.

ADABIYOTLAR

1. Michel Foucault, *The Archaeology of Knowledge*, trans. A. M. Sheridan Smith, Routledge nashriyoti, London, 2002, pp. 37.
2. Jean Baudrillard, *Simulacra and Simulation*, The University of Michigan Press, 1994, pp. 36.
3. Michel Foucault, *The Archaeology of Knowledge*, trans. A. M. Sheridan Smith, Routledge nashriyoti, London, 2002, pp. 42.
4. Jean Baudrillard, *Simulacra and Simulation*, The University of Michigan Press, 1994, pp. 58.
5. Immanuel Kant, *Critique of Practical Reason*, Cambridge University Press, Cambridge, 2015, pp. 82.
6. Zygmunt Bauman, *Liquid Modernity*, Polity Press, 2000, pp. 66.



UDK: 37.091

Muxlisa JUMAYEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
E-mail: jumayevamuxlisa40@gmail.com

Xalqaro innovatsion universiteti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent A.Ochilov taqrizi asosida

PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING THE CREATIVE AND CRITICAL THINKING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation

This article discusses the relevance of the ability of every individual to understand the world, comprehend the laws of life and society in a multifaceted manner, and be aware of the worldview, ideas, and interests of various nations and peoples. This ability requires the development of both creative and critical thinking. The article also examines the current conditions under which future educators should develop these skills, as well as the methods and approaches for fostering them, presented in a systematic manner.

Key words: Creative thinking, critical thinking, primary school, teachers, development, worldview, society, methodology, problem-solving skills, intellectual growth.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО И КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается актуальность способности каждого человека понимать мир, всесторонне осознавать законы жизни и общества, а также знать мировоззрение, идеи и интересы различных народов и наций, что требует развития креативного и критического мышления. Особое внимание уделено условиям, в которых будущие педагоги должны развивать эти навыки, а также методам и подходам их формирования, которые представлены систематически.

Ключевые слова: Креативное мышление, критическое мышление, начальная школа, учителя, развитие, мировоззрение, общество, методология, навыки решения проблем, интеллектуальный рост

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHLARI

Ushbu maqolada bugungi kunda har bir shaxs dunyoni anglashi, hayot va jamiyat qonuniyatlarini har tomonlama idrok etishi, yer yuzidagi turli xalqlar va millatlar dunyoqarashi, g'oyasi, maslak-muddaolarini bilish uchun ham kreativ va tanqidiy fikr yurita olishi davr talabi ekanligi, bo'lajak pedagoglarning kreativ va tanqidiy fikr yurita olishining hozirgi kundagi shart-sharoitlari, rivojlantirish usullari tizimli tarzda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, boshlang'ich sinf, o'qituvchi, rivojlanish, dunyoqarash, jamiyat, metodologiya, muammoni yechish ko'nikmasi, aqliy o'sish.

Kirish. Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida tahliliy fikrlashga ega, muammolarni chuqur o'rganib, ularni hal qilishning samarali usullarini aniqlay oladigan, shuningdek, turli fikr va mulohazalarni baholab, munozara yurita oladigan shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning zamonaviy tendensiyalarga mos holda mantiqiy dalillarga asoslangan xulosa chiqarish, isbotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy fikrlashga va hayotiy muammolarni samarali hal qilish yo'llarini topishga yo'naltirish bo'yicha muhim huquqiy-me'yoriy asoslar yaratilmoqda. "Kadrlarning bilim va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, bu esa pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini yanada takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va tanqidiy

fikrlashini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim sharoitini tatbiq etishning konseptual asoslari A.Abduqodirov, B.Abdullayeva, U.Begimqulov, Z.Nasimova, MDH olimlaridan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari A.V.Korjuev, V.A.Popkov, Ye.L.Ryazanova, xorijlik olimlardan P.P.Blonskiy, L.N.Kogan asarlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ va tanqidiy fikrlashni shakllantirishning ahamiyati ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqotchi-olim N.A.Podgorskaya kreativ fikrlashga quyidagicha ishora qiladi: "Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy fikrlashdan farq qiladi. Kreativ fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo'lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishga sharoit yaratadi. Ta'limning vazifasi o'quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Bular sababli ular globalashuv jarayonida tez o'zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan va hozirgi zamon talablariga ega moslashuvchan ishchilarni dunyoga moslashishiga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o'quvchi yoshlar egallashi natijasida ularda dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalanib, hali yaratilmagan sektorlarda ishlash, shu qatorda mashina bajara

olmaydigan ishlarni bajarish va global muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlanadi.[8]

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish jarayonining pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish, ularning divergent va konvergent tafakkur shakllarini uyg'unlashtirish asosida kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, shuningdek, ushbu jarayonning modelini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

o'quvchida mustaqil va o'ziga xos nuqtai nazarni shakllantirish;

turli fikrlarni taqqoslab, ularning afzalliklarini asoslash mahoratini rivojlantirish;

murakkab masalalarni yechish qobiliyatini shakllantirish;

dalillarga asoslangan holda bahs yuritish ko'nikmasini rivojlantirish;

umumiy xulosaga kelish uchun jamoaviy ishlash qobiliyatini shakllantirish;

shaxsiy tajriba va dunyoqarashning qarashlar va tasavvurlarga ta'sirini anglash.

Novatsiya va innovatsiyalar o'rtasidagi asosiy farqlar

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya
amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi; ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi; metodlar yangilanadi; natija avvalgi tizimni takomillashtiradi	tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi; ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi; subyektlarning faoliyati to'la yangilanadi; yangi texnologiyalar yaratiladi; faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi; amaliyotning o'zi ham yangilanadi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashning zaruriyati ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Kreativ fikrlash o'qituvchilarga yangi va innovatsion pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish, o'quvchilarning qiziqishlarini uyg'otish va ularning o'quv faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi. Amalga oshirilgan tahlillar natijasida hamkorlikka yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi ularga quyidagi imkoniyatlarni berishi aniqlandi[24]:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning fikrlash jarayoni jadallashadi;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'z oldilariga aniq maqsadlar qo'ya boshlaydilar hamda ushbu maqsadga erishish yo'llarini izlaydilar;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'zaro birlari bilan faol muloqotga kirishish ko'nikmasini egallay boshlaydilar;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda bilim olish, yangi axborotlarni o'lashtirishga bo'lgan qiziqish ortadi;

o'quv-biluv jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda faollik ta'minlanadi;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda ular orasida vujudga kelgan rang-barang fikrlarni tinglash va mushohada qilish ishtiyoqi kuchayadi;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda o'z fikrlarini dadil bayon qilish ehtiyoji vujudga keladi;

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mavhum nazariy bilimlarni o'rganishdan ko'ra, ularni faol fikrlash jarayoniga jalb qilish va o'z tajribalarida amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratish samaraliroq hisoblanadi. Ayniqsa, o'qituvchilar o'zlari dolzarb muammolarni ilgari surib, ularga yechim izlashda ishtirok etgan taqdirda, kreativ va tanqidiy fikrlash yanada faol shakllanadi.

Tadqiqot jarayonida belgilangan maqsadlarga erishish va qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogik, modellashtirish), diagnostik (so'rov, test, kuzatish, loyihalash), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov hamda matematik (statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, natijalarni grafik tarzda ifodalash). Ushbu yondashuv yuqori samaradorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. [5]

Tahlil va natijalar. Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bu ma'lum yosh davrida o'rgatish tugallanishi va unutilishi mumkin bo'lgan masala ham emas. Kreativ va tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq-ravshan yo'llar yo'Q. Biroq o'qitish shartlarining muayyan to'plami borki, uning yordamida kreativ va tanqidiy fikrlovchilarni tabiiylash mumkin. Bunda novatsiya va innovatsiyalardan foydalanish juda muhim.[3]

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar egallagan bilim va tushunchalarini qayta ishlash, ular yordamida fikr ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.[7]

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bugungi ta'lim tizimining asosiy muammolaridan biri – shaxsni kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishga yo'naltirishdir. Bunday shaxs nafaqat fikr va mulohazalarni tahlil qila olishi, balki ularni asoslab bera olishi, muammoning tub mohiyatini anglab yetishi va uning turli yechimlarini topa olishi kerak. Shuningdek, u haqiqat bilan shaxsiy fikr yoki taxminni farqlay olishi, dalillarga asoslangan xulosalar chiqara bilishi lozim.

Oliy ta'lim jarayonida kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini hayotiy muammolarni ijodiy hal qilishga yo'naltirish, o'z-o'zini rivojlantirish va tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kreativ va tanqidiy fikrlash – bu g'oya va imkoniyatlarni ijodiy uyg'unlashtirish, mavjud konsepsiyalarni qayta ko'rib chiqish va yangicha talqin etish jarayonidir. Bu faol va interaktiv bilim olishning turli darajalarida bir vaqtda amalga oshiriladigan murakkab jarayondir.

Kreativ va tanqidiy fikrlash yuzaki mulohazalar bilan cheklanmaydi, aksincha, faktlarning sabablari va oqibatlarini tahlil qilishga yo'naltirilgan. Ushbu fikrlash turi shubha qilish, mavjud haqiqatlarga tanqidiy yondashish, turli nuqtai nazarlarni ishlab chiqish hamda mantiqiy dalillarni himoya qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ma'qul va noma'qul me'yorlarni tushunishi, ularni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Ular muayyan vaziyatlarni anglab yetganlaridan so'ng, kreativ va tanqidiy tahlil jarayoniga faol kirishadilar. Ushbu jarayon onglik tamoyiliga asoslanadi va tahlil bilan haddan oshish o'rtasidagi farqni anglashni talab qiladi.

Innovatsion faoliyatning shakllanishi shaxsiy tashabbus va izlanish bilan bog'liq. Yangi g'oyalar va innovatsion yondashuvlarni yaratish uchun shaxs mavjud muammolarni har xil usullarda hal qilishni o'rganishi kerak. Buning natijasida inson har qanday hodisaga o'ziga xos yondashuv shakllantirib, mazmunni izlash va yashirin jihatlarini anglashga intiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. -T.-"FAN" nashriyoti, 2009. -145 b.
2. Braun T.P. Adaptation of students to training conditions in high school as the factor of active interaction of the individual with the educational environment // Bulletin of the Kostroma University named after N. A. Nekrasov, 2007, № 3. P. 20–26.
3. Eshmuradov A.M., Xaytbaev A.F. Masofaviy o'qitishning asosiy maqsadi, xususiyatlari va muammolari. "Hozirgi sharoitda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o'qitishning zamonaviy tizimlari va texnologiyalarini qo'llash masalalari" Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi ma'ruzalar to'plami. Toshkent 2021. 74-76-bet.
4. Fayzullaeva B.B., Axmedov B.I. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. "Hozirgi sharoitda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o'qitishning zamonaviy tizimlari va texnologiyalarini qo'llash masalalari" Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi ma'ruzalar to'plami. Toshkent 2021. 143-146-bet.
5. Durmenov Sh.N. Muammoli-qidiruv texnologiyalari o'quvchilarning chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlikda kreativ va tanqidiy fikrlash va qobiliyatlarini rivojlantirish strategiyasi sifatida. Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference / Hosted from Paris, France / <https://conferencepublication.com> February 27th 2021. 93-97-b.
6. Mahmudov M. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari pedagogik mahoratini rivojlantirish. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 6. 84-88-b. www.xtjurnali.zn.uz
7. Niyozova I.N. Kreativ va tanqidiy rivojlantiruvchi strategiyalar haqida nazariyalar va ulardan foydalanishning mohiyati. Synergy: Journal Of Ethics And Governance. Volume: 01 Issue: 06 | 2021. ISSN: 2181-2616. 28-37-betlar. 28-37-betlar.
8. Qarajayeva D.N. Huquqshunos faoliyatida kreativ va tanqidiy fikrlashning ahamiyati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences August 2022. 215-221-b.
9. Qo'ysinov O.A. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish shartlari va bosqichlari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2021 yil №3.
10. Rasulova Z.D. Texnologiya darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish/ "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10/ 2021 yil. 471 - b
11. Raximov Z. Ta'lim islohotlarini amalga oshirishda pedagogda mujassam bo'lishi zarur bo'lgan kasbiy sifatlar. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie. 2022, 5 (114). 25-32-b.
12. Robert H. Ennisning kreativ va tanqidiy fikrlash moyilligi: ularning mohiyati va baholanishi. Norasmiy mantiq jildi 18, № 2 & 3 (1996): 165-182, 166-bet.



Nargiza JURAYEVA,
Navoiy Innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi
E-mail:njurayeva12@gmail.com

NDKTU dostenti, t.f.n. Ismoilova D.A. taqrizi asosida

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA‘LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida ta‘limning rivojlanishi, ta‘lim sifatining va samaradorligining oshishi, ta‘lim sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining o‘zgarishi va uning mamalakatimiz ijtimoiy hayoti va iqtisodiyotida keltirayotgan foydasi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, ta‘lim sohasi, tadqiqot, iqtisodiyot, kadrlar, farmoyish, maktab.

REFORMS IN THE FIELD OF EDUCATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the development of education in the Republic of Uzbekistan during the years of independence, the increase in the quality and efficiency of education, the changes in the scientific and research work carried out in the field of education and the benefits it brings to the social life and economy of our country.

Key words: Republic of Uzbekistan, education sector, research, economy, personnel, order, school.

РЕФОРМЫ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация

В данной статье анализируется развитие образования в Республике Узбекистан в годы независимости, повышение качества и эффективности образования, изменения в научно-исследовательской работе, проводимой в сфере образования, и польза, которую она приносит общественной жизни и экономика нашей страны.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, сфера образования, исследования, экономика, кадры, заказ, школа.

Kirish. Bugun O‘zbekiston Respublikasi hayotining barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida ta‘kidlab o‘tishimiz lozim. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritilgan ilk yillaridayoq ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish va rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama ma‘naviy va jismoniy yetuk kadrlar qilib voyaga yetkazish ta‘lim sifatini oshirishga bor e‘tiborini qaratadi. Buning natijasi o‘laroq 1992-yil 2-fevralda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va 1997-yil 29-avgustda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” e‘lon qilinadi. Ushbu dasturlarda mamlakatimiz ta‘lim sohasining ustuvor yo‘nalishlari e‘lon qilinadi va ta‘lim tizimining zimmasiga juda katta mas‘uliyatli ulug‘vor vazifalarni yuklanadi. “Inson qalbiga yo‘l avvalo ta‘lim- tarbiyadan boshlanadi” [1]. Shu bois ham yoshlarga ta‘lim- tarbiya berish jarayonida o‘qituvchi- pedagoglardan yuksak mahorat va har bir faoliyat turini to‘g‘ri tashkil etish talab etiladi.

Zamonaviy maktablar barpo etish mavjud maktab binolarini kapital yoki joriy ta‘mirlash katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga ta‘lim- tarbiya ishlarining ma‘no – mazmuniga e‘tiborni kuchaytirish, maktablarni zamonaviy jihozlar, mebellar, o‘quv – laboratoriya uskunalar, kompyuterlar, sport anjomlari bilan ta‘minlash ham muhim ahamiyatga ega ekanini unutmasligimiz lozim [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ta‘lim tizimi jahon standartlariga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Bu haqida M.Boltaboyevao‘zining “Uzluksiz ta‘lim” kitobida “Ta‘limning milliy modeli – O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimini yangilangan sog‘lom pedagogik tafakkur asosida tubdan isloh qilish, ta‘lim-tarbiya muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni intellektual, ma‘naviy va axloqiy saviyasiga ko‘ra rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazish bo‘yicha belgilangan nazariy- metodologik, amaliy pedagogik yondashuvlar majmuyi” deb tushuntiradi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda ta‘lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta‘lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan,

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni yangi tahrirda 2020 yil 23-sentyabr kuni qabul qilingan bo‘lib, uning maqsadi ta‘lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta‘lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta‘lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi, unda belgilangan masofaviy ta‘lim haqidagi qoidalar o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlariga muvofiq ta‘lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Shuningdek, Qonunga ko‘ra, davlat oliy ta‘lim, o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o‘rta maxsus, professional ta‘lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo‘ldi. Nodavlat ta‘lim muassasalarini tashkil etish ularning ta‘sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta‘lim tashkilotlariga litsenziya Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo‘ldi. Qonunda dual ta‘limga oid qoidalar belgilanib, u ta‘lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta‘lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta‘lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qonunga inklyuziv ta‘lim to‘g‘risidagi qoidalar kiritilib, unga binoan, inklyuziv ta‘lim alohida ta‘lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta‘lim oluvchilar uchun ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta‘minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv ta‘limni tashkil etadi. Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta‘lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan 1997 yil 29 avgust kuni qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonundan tubdan farq qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda ta‘kidlaganlaridek: Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni

buyuk qiladigan kuch ham bu - ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq[4]. O'zbekiston Respublikasining 30 yoshgacha bo'lgan aholisi butun aholining 60 foizini tashkil etadigan noyob demografik holatga yuz tutish arafasida[5]. Shunday ekan yoshlarning ongini, ma'naviyatini, salohiyatini, madaniyatini, bilim darajasini shakllantirmay turib biz kelajagimizga istiqbolimizga nazar tashlay olmaymiz. Bu bo'yicha qator qonunlar qarorlar chiqarilayotgani hech kimga sir emas. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 30 yilga mo'ljallangan konsepsiya va ta'lim to'g'risidagi bir qancha qaror va qonunlarning qabul qilinishi yoshlarimizning kelajagini o'ylab, davlatimiz rivojini o'ylab amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev bejizga "biz ta'lim tizimiga o'qituvchi va murabbiylar nufuzini oshirishga katta ahamiyat beryapmiz. Chunki jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish kerak"[6]. deb ta'kidlaganlar. Mamlakatimiz ta'lim sohasida xalqaro aloqalarni rivojlantirib, dunyo rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganmoqda. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi – malakali va zamonaviy bilimga ega kadrlar tayyorlashda dunyoning rivojlangan davlatlari bilan xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, shu orqali yurtimizdagi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlarining xorijiy universitetlar, ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy va akademik tajribasini orttirishi uchun imkoniyat yaratish ishlariga katta ahamiyat qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kun talabalarining xorijiy oliy ta'lim muassasalarida qisqa va uzoq muddatli o'quv-kurslari, konferensiya va seminarlarda ishtirokini ta'minlash, xorijiy OTMLar bilan hamkorlikda ta'lim dasturlarini joriy etish, ta'lim jarayoniga xorijiy malakali mutaxassislarni jalb etish kabi bir qator muhim vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Ushbu dastur va loyihalar davlatda ta'lim sohasini rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribani qo'llagan holda o'quv-metodik jarayonni takomillashtirish, professor - o'qituvchilarning malakasini oshirish, talabalar almashinuvini kengaytirishga yo'naltirilgan. Mamlakatimiz ta'lim sohasida dolzarb islohotlar o'tkazilayotgan paytda rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimini o'rganish, zamonaviy texnologiyalar va samarali metodlarni tadbiiq etish ustuvor vazifa etib belgilandi. Germaniya, Avstriya, Shveysariya kabi mamlakatlarda iqtisodiyotini rivojlantirishda juda katta o'ringa ega bo'lgan. Dual ta'lim shakli mamlakatimiz ta'lim sohasida joriy etildi. "An'anaviy ta'lim shaklida o'quvchi/talaba oliy yoki professional ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyot qismini juda oz soatlarda korxon va tashkilotlarda o'taydi. Dual ta'limda yoshlar haftada 2-3 kun ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxon va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko'nikmalarni egallaydi. Dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchi/talaba korxon va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxon tomonidan ustoz birlitiriladi va oylik maoshi to'lanadi" [7]. Bu tajriba asosida qabul qilingan prezident qaroriga ko'ra: 2022/2023-o'quv yilidan boshlab kunduzgi ta'lim shaklidagi 2-4-bosqich talabalar uchun haftalik o'quv mashg'ulotlar "4+2", jumladan darslarning 4 kuni OTMda, 2 kuni umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib boriladi[8]. Mamlakatlarimiz universitet va ilmiy yo'nalishlarda ham aloqalar o'rnatildi. 2018-yildan beri Krems amaliy fanlar universiteti va Toshkent iqtisodiyot va biznes universiteti yoki Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti va Zalsburg universiteti o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

"O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasida ko'zda tutilgan quyidagi islohotlar kelajakda mamlakatimizning ta'lim sohasini yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi:

1.	Maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash.	Bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhlar bilan to'liq qamrab olish. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish.
2.	Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish.	Olis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo'lga qo'yish. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash.
3.	Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish	1 000 nafar tarbiyachi va o'qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining o'rtacha ish haqini 2 barobar oshirish. 500 ming nafar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining malakasini uzluksiz oshirish.
4.	Professional ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish.	700 ta professional ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish. 14 ta hududiy professional tayyorlik markazlarini tashkil etish, malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar ulushini 50 foizga, masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushini 30 foizga yetkazish.
5.	Oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash.	5 ta oliy ta'lim muassasasini milliy tadqiqot oliygohlariga aylantirish. Qo'shimcha 120 ming o'rinli o'quv binolari hamda 150 ming o'rinli talabalar turar joylarini qurish. Kutubxonalarni kamida 1 million ta zamonaviy adabiyotlar bilan to'ldirish va kutubxona fondini to'liq raqamlashtirish.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida O'zbekiston Respublikasi ta'limning rivojlanishi tarixi va bugungi rivojlanish istiqbollari tahlil qilgan holda quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Respublikamizda ta'lim sohasini yanada rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni yanada kengaytirish;

Respublikamizda kadrlarga bo'lgan talabni qondirish maqsadida yangi ta'lim yo'nalishlarini ochish. Masalan, fransuz tili, koreys tili, turk tili va kasbiy ta'lim v.h.

talabar hamda professor o'qituvchilarni xorijga o'qishga yuborish yangi bilim, ko'nikmaga ega bo'lish

Zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda ta'lim samaradorligini oshirish.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008, B.134
2. G'ulom Mirzo "Maktab jihozlari ko'rgazmasi bilan tanishuv" maqola "Toshkent oqshomi" gazetasi, 2005-y. 85-son, b.1.
3. Boltaboyeva M.L. "Uzliksiz ta'lim" O'quv uslubiy majmua, Namangan 2023
4. Mirziyoyevning Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidani
5. Mirziyoyev Sh. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik—milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent: «Tasvir» nashriyoti uyi, 2021. – 8b.
6. Jalilov, A. A., & Qodirova, S. T. (2024). Dual ta'lim nima? Dual ta'lim haqida tushuncha. Uzbek scholar journal, 26, 73-75.

7. Abdurakhimov Husniddin (19 June 2024) "O'zbekiston va Avstriya Respublikasi o'rtasida investitsiyaviy, huquqiy hamda ilm-fan sohasida hamkorlikning mustahkamlanishi" scienceproblems.uz
8. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари № 6 (4). (150-158)
9. O'zbekiston -2030 Strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son



UDK: 502.14(575.1)

Shahina JO'RAYEVA,
O'zDJTU siyosiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: Shahrus8689@gmail.com

TDIU professori, s.f.d V.Qo'chqorov taqrizi asosida

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalasi mintaqaviy barqarorlik va ekologik xavfsizlik uchun dolzarb muammolardan biridir. Amudaryo va Sirdaryo kabi asosiy daryolarning suv zaxiralari bir nechta davlatlar o'rtasida taqsimlangan bo'lib, suvdan nooqilona foydalanish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha xalqaro normalarga rioya qilmaslik natijasida yuzaga kelgan davlatlararo kelishmovchiliklar ekologik inqirozlar, jumladan, Orol dengizining qurishi kabi salbiy oqibatlariga olib kelgan. Qo'shtepa kanali qurilishi Amudaryo suvidan foydalanish maqsadini ko'zlagan strategik loyiha sifatida yuzaga kelgan, ammo bu loyiha suv resurslari muvozanatiga sezilarli ta'sir qilishi mumkin. Ushbu tadqiqotda kanal qurilishining ekologik, iqtisodiy va siyosiy oqibatlari, shuningdek, ularni yumshatish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Xususan, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, ekologik monitoring tizimlarini yaratish va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan izlanishlar suv resurslaridan samarali foydalanish va mintaqadagi barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, transchegaraviy suv resurslari, Qo'shtepa kanali, Amudaryo, Orol dengizi inqirozi, suv-energetika muammolari, sug'orish tizimi, ekologik xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, suvni tejash texnologiyalari.

ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В ЦЕНТРАЛЬНО-АЗИАТСКОМ РЕГИОНЕ

Аннотация

Вопрос использования трансграничных водных ресурсов в Центральной Азии является одной из актуальных проблем региональной стабильности и экологической безопасности. Водные запасы основных рек, таких как Амударья и Сырдарья, разделены между несколькими странами, а межгосударственные споры, вызванные неразумным использованием воды и несоблюдением международных норм по использованию природных ресурсов, привели к негативным последствиям, таким как наступили экологические кризисы, в том числе высыхание Аральского моря. Строительство канала Коштепа создавалось как стратегический проект, направленный на использование воды Амударьи, однако этот проект может существенно повлиять на баланс водных ресурсов. В данном исследовании анализируются экологические, экономические и политические последствия строительства канала, а также меры, реализуемые для их смягчения. В частности, были рассмотрены вопросы внедрения водосберегающих технологий, создания систем экологического мониторинга и развития регионального сотрудничества. Исследования, проводимые по этой теме, послужат эффективному использованию водных ресурсов и устойчивому развитию региона.

Ключевые слова: Центральная Азия, трансграничные водные ресурсы, канал Коштепа, Амударья, Аральский кризис, водно-энергетические проблемы, ирригационная система, экологическая безопасность, региональное сотрудничество, водосберегающие технологии.

PROBLEMS OF USE OF TRANSBOUNDARY WATER RESOURCES IN THE CENTRAL ASIAN REGION

Annotation

The question of the use of transboundary water resources in Central Asia is one of the urgent problems for regional stability and environmental security. The water reserves of the main rivers, such as Amudarya and Syrdarya, are divided between several countries, and interstate disputes caused by the unreasonable use of water and non-compliance with international norms on the use of natural resources have led to negative consequences, such as environmental crises, including the drying up of the Aral Sea. The construction of the Koshtepa canal was created as a strategic project aimed at using Amudarya water, but this project can significantly affect the balance of water resources. This study analyzes the environmental, economic and political consequences of the construction of the canal, as well as the measures being implemented to mitigate them. In particular, the issues of introducing water-saving technologies, creating environmental monitoring systems and developing regional cooperation were considered. The research conducted on this topic will serve the efficient use of water resources and sustainable development in the region.

Key words: Central Asia, transboundary water resources, Koshtepa Canal, Amudarya, Aral Sea crisis, water and energy problems, irrigation system, environmental security, regional cooperation, water saving technologies.

Kirish. Markaziy Osiyo mintaqasida transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalasi uzoq yillardan buyon dolzarb bo'lib kelmoqda. Mintaqadagi davlatlar – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston – umumiy suv resurslariga tayanadi. Bu resurslarning asosiy qismi transchegaraviy daryolar. Xususan, Amudaryo va Sirdaryo bir necha yillardan buyon o'ziga xos muammolar manbai hisoblanadi. Ular suvining adolatli taqsimlanishi, samarali boshqarilishi va ekologik xavfsizligi mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir qiladi. Afg'onistonda qurilayotgan Qo'shtepa kanali Amudaryo o'zidan suv olish maqsadida qurilmoqda. Ushbu loyiha, asosan, qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlash va hududning sug'orish tizimini optimallashtirishni ko'zlagan.

Kanalning uzunligi 280 kilometrni, eni 100 metrni, chuqurligi 20 metrni tashkil etadi va Amudaryo suvning salkam yarmini oladi. Bu, tabiiyki, O'zbekiston va Turkmaniston Respublikalari iqtisodiyoti va qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi. Mintaqadagi boshqa davlatlar qishloq xo'jaligida muammolar keltirib chiqaradi.

Albatta, ushbu muammolarni yumshatish maqsadida mintaqada bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida suv resurslarini adolatli taqsimlash bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda. O'zbekiston mintaqadagi boshqa davlatlar bilan suvdan foydalanish bo'yicha kelishuvlarga erishishga intilmoqda. Sug'orish tizimini modernizatsiya qilish va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy

etish orqali suv iste'molini kamaytirish choralari ko'rilmoqda. Kanal qurilishi va uning atrof-muhitga ta'sirini nazorat qilish bo'yicha monitoring tizimi joriy etilgan. Bu orqali tabiiy resurslarning holatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Suv resurslarini boshqarishda xalqaro tashkilotlarning texnik va moliyaviy ko'magidan foydalanilmoqda [1]. Xususan, BMT, Jahon Banki kabi tashkilotlar mintaqadagi suv masalalarini hal qilishga ko'maklashmoqda.

Mamlakatimizda foydalaniladigan suv resurslarining 80 foizga yaqini (taxminan 41, 5 km³ /yil) qo'shni respublikalar hududidagi muzliklar hisobiga shakllanadi. Shu kungacha dunyo miqyosida transchegaraviy [1] va mahalliy suv ob'ektlari suv resurslarini hisobga olish, ularni boshqarish va ulardan foydalanish bo'yicha mingdan ortiq turli me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ular asosida ish olib borilmoqda. Bulardan eng asosiy lari Yevropa Hamjamiyatining "Xalqaro ko'llar va transchegaraviy suv arteriyalaridan foydalanish va muhofaza qilish Konvensiyasi"si (Helsinki shahrida 1992 yili 17 martda qabul qilingan) va BMTning "Xalqaro suv oqimlaridan kema qatnovisiz foydalanish huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"si (Nyu-York shahrida 1997 yil 21 martda qabul qilingan) hisoblanadi [1]. Ushbu konvensiyalarning asosiy tamoyillari – barcha davlatlarning manfaatlarini birdek hisobga olish, transchegaraviy suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanish hamda qo'shni davlatlarga "zarar yetkazmaslik"dir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Markaziy Osiyoda suv resurslari muammolari, jumladan, Avg'onistonda qurilayotgan Qo'shtepa kanali va uning ta'sirlarini o'rganishda O'zbekistonlik tadqiqotchilar yetakchi o'rinda turadi. Baxtiyor Eshonqulov Markaziy Osiyo suv resurslarini boshqarish, ekologik xavfsizlik va transchegaraviy daryolardan foydalanish masalalarini o'rganishda katta hissa qo'shgan. Uning "Markaziy Osiyo daryolarining ekologik holati va boshqaruv strategiyalari" asarida suv taqsimoti va undan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Bundan tashqari, Shodmon Ibrohimov tomonidan "Transchegaraviy suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy va huquqiy jihatlari" nomli tadqiqotida suv taqsimotidagi ziddiyatlarni bartaraf etish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Ibrohim Xudoyberdiyev esa "Orol dengizi inqirozi va Amudaryo havzasi ekologik xavfsizligi" asarida Orol dengizi inqirozi va daryo ekotizimining buzilishi kabi masalalarni yoritgan.

Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlardan ham suv resurslari bo'yicha tadqiqotchilar faol izlanish olib borgan. Rustam Sagdullayev (Qozog'iston) "Amudaryo va Sirdaryo suv resurslarining mintaqaviy xavfsizlikdagi roli" nomli asarida suv resurslarining Qozog'iston qishloq xo'jaligi va ekologiyasiga ta'sirini tahlil qilgan. Ahliddin Rahmonov (Tojikiston) esa "Amudaryo va Panj daryolaridagi gidroenergetika loyihalari va ularning suv resurslariga ta'siri" nomli tadqiqotida gidroenergetika va suv taqsimoti masalalarini yoritgan.

Muhokama. Qo'shtepa kanali Amudaryoning Surxondaryo viloyati hududidagi qismdan suv olish maqsadida qurilmoqda. Kanal qurilishi qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlashni yaxshilash va hududning sug'orish tizimini rivojlantirish uchun amalga oshirilmoqda. Ushbu loyiha orqali yiliga 2-2,5 milliard kubometr suv olib kelish rejalashtirilgan. Biroq, kanal qurilishi mintaqadagi suv resurslarining muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida ko'plab munozaralar mavjud. Qo'shtepa kanalining qurilishi bir qator salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Birinchidan, Amudaryodan qo'shimcha suv olish daryo quyi oqimidagi suv miqdorini kamaytiradi. Bu esa Turkmaniston va Qozog'iston kabi davlatlar uchun qishloq xo'jaligida qiyinchiliklar tug'diradi va Orol dengizining tiklanish jarayoniga salbiy ta'sir qiladi. Ikkinchidan, suvning yo'naltirilishi daryo ekotizimini buzadi, baliqchilik va boshqa suv resurslariga zarar yetkazadi. Uchinchidan, kanal qurilishi mintaqadagi suv-energetika muammolarini chuqurlashtirishi va siyosiy ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari, sug'orish tizimining kengayishi natijasida tuproq sho'rlanishi va eroziya jarayonlari ortishi ehtimoli mavjud.

Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslaridan foydalanish doimiy ravishda dolzarb masala hisoblanadi, chunki

bu hudud tabiiy suv zaxiralari boy bo'lishiga qaramay, ularning ko'pchiligi transchegaraviy xarakterga ega. Asosiy suv manbalari bo'lmish Amudaryo va Sirdaryo daryolari mintaqadagi beshta davlat – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston – iqtisodiy hayoti va ekologik barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu davlatlar suvdan foydalanishda bir-biriga qaram va resurslar taqsimoti yuzasidan o'zaro muvozanatni saqlashga majburdir. Global iqlim o'zgarishi natijasida Markaziy Osiyoda so'nggi 50-60 yil davomida muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. Taxminlarga ko'ra, harorat 2C ga ortganda muzliklar hajmi 50 foizga, 4C ga isiganda esa 78 foizga kamayadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2050-yilgacha Sirdaryo havzasida suv resursi 5 foizga, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Tahlillar iqlim o'zgarishi mintaqada suv taqchilligini yanada keskinlashtirishini, 2000, 2008, 2011, 2014 va 2018-yillardagi kabi qurg'oqchilikning davomiyligi va davriyligi ko'payishiga olib kelishini hamda iqtisodiyotning suv resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatmoqda [2]. Shuningdek, mintaqada aholi sonining ko'payishi kommunal sohani yildan yilga suvga bo'lgan talabini ortishiga olib keladi. Oqibatda, so'nggi 15 yil ichida aholi jon boshiga suv ta'minoti 3, 5 marta qisqardi.

Natijalar. Qo'shtepa kanali O'zbekistonning Surxondaryo viloyatida qurilmoqda va Amudaryo suvini mamlakat hududida sug'orish maqsadida yo'naltirishni ko'zda tutadi. Ushbu loyiha orqali suv ta'minoti yaxshilanadi, qishloq xo'jaligi samaradorligi oshiriladi va yangi sug'oriladigan yerlar o'zlashtiriladi. Loyihaning strategik ahamiyati shundaki, kanal O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi va mahalliy aholi uchun yangi ish o'rnlari yaratadi. Shu bilan birga, kanal qurilishi mintaqaviy suv taqsimotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi sababli uning salbiy oqibatlari haqida jiddiy bahslar davom etmoqda. Biroq, kanal qurilishi mintaqadagi transchegaraviy suv resurslari muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida ko'plab munozaralar mavjud. Kanalning salbiy oqibatlari quyidagicha baholanmoqda:

Suv resurslarining kamayishi: Amudaryodan qo'shimcha suv olish Qozog'iston va Turkmaniston kabi mamlakatlar uchun suv taqsimoti bo'yicha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Suvning kamayishi Orol dengizining tiklanishiga qaratilgan sa'y-harakatlarni ham sekinlashtirishi mumkin.

Ekologik zarar: Suvning yo'naltirilishi daryo ekotizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, suv oqimining tabiiy rejimining o'zgarishi baliqlar va boshqa suv organizmlarining hayotiga tahdid soladi.

Siyosiy ziddiyatlar: Kanal qurilishi mintaqadagi davlatlar o'rtasida suv resurslarini boshqarish bo'yicha ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin. Bu esa siyosiy va iqtisodiy hamkorlikka salbiy ta'sir qiladi.

Tuproq sho'rlanishi: Sug'orish tizimining kengayishi natijasida sizot suvlarining ko'payishi mumkin. Natijada tuproqning sho'rlanishi darajasi ortishi mumkin. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining keskin kamayishiga olib keladi [3].

Qo'shtepa kanalining salbiy oqibatlari bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Avvalo, Amudaryo suvidan ming yilliklar mobaynida foydalanib kelayotgan O'zbekiston iqtisodiyotiga katta xavf keltiradi. Daryoning quyi oqimidagi davlatlar, xususan, Turkmaniston va Qozog'iston uchun suv taqsimotida jiddiy qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Bu esa ushbu davlatlardagi sug'orish tizimlari va qishloq xo'jaligiga zarar yetkazadi. Ikkinchidan, Amudaryo suvi kamayishi Orol dengizi inqirozini chuqurlashtirishi va mintaqada iqlim o'zgarishlarini jadallashtirishi mumkin. Uchinchidan, kanalning ekologik oqibatlari, xususan, daryo ekotizimining buzilishi, suv resurslarining ifloslanishi va tabiiy ekotizimlarning degradatsiyasi kutilmoqda. Shu bilan birga, tuproqning sho'rlanishi va eroziya jarayonlarining kuchayishi xavfi mavjud.

Qo'shtepa kanalining qurilishi mintaqada suv-energetika muvozanatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Qirg'iziston va Tojikiston kabi davlatlar suvni asosan gidroelektr energiya ishlab chiqarish uchun ishlatadi. Kanal sababli Amudaryodagi suv hajmi kamayishi bu davlatlarning energiya ishlab chiqarish quvvatlariga

salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada, mintaqadagi suvdan foydalanish masalalari atrofida siyosiy ziddiyatlar kuchayishi ehtimoli ortadi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida suv resurslarini boshqarish bo'yicha qo'shma kelishuvlarni ishlab chiqish muhimdir [4]. Muzokaralar davomida suvdan foydalanishning adolatli va samarali mexanizmlarini aniqlashga intilish lozim. Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish orqali suv iste'molini kamaytirish ham dolzarb masala hisoblanadi.

Qo'shtepa kanali asosan Amudaryo suvlaridan sug'orish va qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun foydalanish maqsadida loyihalashtirilgan. Ushbu kanal yiliga katta hajmdagi suvni Amudaryodan o'zlashtirishi rejalashtirilgan bo'lib, bu qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshirishga qaratilgan. Ammo bu loyiha boshqa davlatlarda suvning kamayishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, Tojikiston va Turkmaniston kabi suvdan faol foydalanadigan mamlakatlar kanal qurilishi oqibatida sug'orish imkoniyatlari qisqarishidan xavotir bildirmoqda. Qo'shtepa kanali kabi loyihalar bo'yicha xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon Banki, CAREC va BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP)ning qo'llab-quvvatlovi mintaqada suv inqirozini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tashkilotlar tomonidan resurslarni taqsimlash, suv inshootlarini modernizatsiya qilish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha amaliy ko'mak ko'rsatilmogda [5].

Xulosa. Ekologik zararlarni kamaytirish uchun daryo o'zanlarini tiklash, tabiiy muhitni saqlash dasturlarini amalga oshirish va suv resurslarini monitoring qilish tizimlarini kengaytirish talab qilinadi. Buning uchun xalqaro tashkilotlar,

jumladan, BMT va Jahon Banki ko'magidan samarali foydalanish zarur. Shu bilan birga, suv resurslaridan foydalanishning ekologik xavfsizligini ta'minlash va suv taqsimotida barcha mintaqaviy manfaatdor tomonlarning huquqlarini inobatga olish asosiy ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Qo'shtepa kanalining qurilishi O'zbekiston uchun iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim loyiha bo'lib, uning mintaqadagi suv resurslariga ta'siri keng ko'lamli va murakkabdir. Ushbu loyiha doirasida barcha davlatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda muvozanatni saqlash va salbiy oqibatlarni minimallashtirish mintaqadagi barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zarur shartdir. Shu sababli, mintaqaviy hamkorlik va suv resurslarini boshqarishning integratsion yondashuvlariga asoslangan siyosatni amalga oshirish bugungi kundagi eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Umuman transchegaraviy suv resurslaridan foydalanuvchi davlatlar o'rtasida kelishmovchiliklarning bo'lishi tabiiy. Zero, ayrim hollarda umumiy suv resurslaridan foydalanuvchi xalqlar manfaatlari zid kelishi mumkin. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, bunday sharoitlarda suv muammosini hal qilishning mintaq mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo'li yo'q. O'zbekiston rahbarining BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi bayonotida ilgari surilgan tashabbus va takliflar jahon shu jumladan mintaq hamjamiyatining diqqat markazida turibdi. Shunday qilib, Qo'shtepa kanali va transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalalari nafaqat mintaqaviy, balki global ekologik va iqtisodiy barqarorlik uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu masalani hal qilishda ilmiy tadqiqotlar, zamonaviy texnologiyalar va davlatlararo hamkorlikning roli juda muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Amudaryo va Sirdaryo suv resurslarini boshqarish bo'yicha mintaqaviy strategiyalar. – Toshkent: TIQXMMI nashriyoti, 2020.
2. Philip Micklin. "The Aral Sea Disaster: Causes, Consequences, and Future". – Springer, 2014.
3. Shodmon Ibrohimov. "Transchegaraviy suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy va huquqiy jihatlar". – Toshkent: Fan, 2018.
4. Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologiya markazi (CAREC). "Markaziy Osiyo suv resurslarini boshqarish: barqaror rivojlanish uchun strategiyalar". – CAREC nashriyoti, 2021.
5. Martha Brill Olcott. "Central Asia's Water and Energy Resources: A Source of Regional Tension". – Carnegie Endowment for International Peace, 2009.
6. Ibrohim Xudoyberdiyev. "Orol dengizi inqirozi va Amudaryo havzasi ekologik xavfsizligi". – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2015.



UDK: 114.61.047.(007.22)

Zarnigor IBRAGIMOVA,
Qarshi shahridagi Turon universiteti nodavlat OTM o'qituvchisi
E-mail : ibragimova.zarnigor@mail.ru.

Qarshi davlat universiteti professori, DSc M.Fayziyeva taqrizi asosida

IJTIMOY TARMOQLAR TA'SIRIDA O'QUVCHILAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHINING IJTIMOY – PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning o'quvchi yoshlar dunyoqarashiga ziddiyatli ta'siri va uni oldini olishning usul va mexanizmlari tahlil qilingan. Masalaga nisbatan turli yondashuvlarning shakllanishi, turli xarakterli xususiyatlari ilmiy asoslangan. Internet-makon shakllanish tendensiyalarining psixologik aspektlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoq, yoshlar dunyoqarashi, axborotlashgan jamiyat, ruhiy barqarorlik, axborot bandiligi, feyk, ijtimoiy manipulyatsiya, internet-makon.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF STUDENTS' WORLDVIEW UNDER THE INFLUENCE OF SOCIAL NETWORKS

Annotation

The article analyzes the contradictory impact of social media on the worldview of the reader's youth and the ways and mechanisms of its prevention. The ratio to the issue is scientifically based on the formation of different approaches, various characteristic features. The psychological aspects of Internet-space formation tendencies have been studied.

Key words: Social network, youth worldview, informed society, mental stability, information employment, feik, social manipulation, internet space.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПОД ВЛИЯНИЕМ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ

Аннотация

В статье проанализировано противоречивое влияние социальных сетей на мировоззрение читающей молодежи, а также методы и механизмы их предотвращения. Соотношение к вопросу формирования различных подходов, различных характерных черт научно обосновано. Исследованы психологические аспекты тенденций формирования интернет-пространства.

Ключевые слова: Социальная сеть, молодежное мировоззрение, информированное общество, психическая стабильность, информационная занятость, фейк, социальные манипуляции, интернет-пространство.

Kirish. Bugungi davrda jamiyatimizning eng ko'zga ko'ringan xususiyatlaridan biri ijtimoiy tarmoqlarning ommaviy ta'sir kuchiga aylanishi va umumiy "iste'mol tovari" aylanishidir. Muammoga nisbatan turlicha yondashuvlar va qarashlar keskin rivojlanmoqda. Mazkur jarayon turbulent jarayon bo'lib, dolzarb ijtimoiy-psixologik fenomendir. Ijtimoiy tarmoqning ommalashuvi va jamiyatda real kuchga aylanish jarayoni birinchidan, vosita sifatida qulay nuqtai nazardan tez va oson qabul qilinmoqda. Turmush barcha shakllarida qulaylik jihatdan oson qabul qilinmoqda. Boshqa jihatdan qaraganda esa, inson va jamiyat hayotida kelajakdagi xavf sifarida saqlanib qolmoqda. Ijtimoiy tarmoq real tahdidga aylandi. Tahdid qaramlik va tobellikni yuzaga keltirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik dunyoqarashni dogmatik bo'lib qolishiga, erkin taffakkur qilish, ijodkorlik va yangilikka intilish ortda qolmoqda.

Masalaga nisbatan turli yondashuv va qarashlar soni tobora ortib bormoqda. Muammoning turli aspektlari ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va psixologik nuqtai nazardan o'rganilmoqda. Bunday fikr-mulohazalar ba'zan turli chalkashliklarni, ziddiyatli jarayonlarni ham yuzaga keltirmoqda.

Bu esa masalani obyektiv jihatdan o'rganish uning zamonaviy jamiyatdagi fenomeni hodisa sifatida tahlil qilishni taqozo etadi. Internet-makon va uning yoshlar dunyoqarashi ta'sirini o'rganish dunyo olimlarining e'tiborini tortib, izlanishlarga undamoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kibermakon psixologiyasini tadqiq qilishning nazariy va amaliy masalalari, xususan, virtual aloqa va tizimli xarakterdagi shaxsiy transformatsiyalar D.G.Muxamedova, E.Yu.A'zamova, S.B.Raxim�irzaeva va boshqalar kompyuter o'yinlarining o'smirlarning psixologik rivojlanishiga ta'siri D.G.Muxamedova,

I.I.Raximova, L.A.Nigmatulina, N.M.Dalimova, U.Saitova va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Belgilangan maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi nazariy va empirik tadqiqot usullari to'plami qo'llanildi: ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish; hujjatlarni tahlil qilish; kuzatish; psixologik test; suhbat; ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik va statistik metodlari kabilar.

Zamonaviy jamiyatda AKTlarning rivojlanib borishi xarakterli jarayondir. Mazkur jarayon yoshlarda ijodiy tafakkurni shakllanish jarayoni tezlashtirmoqda. Ammo, ijtimoiy tarmoqdan maqsadli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, vaqt budjetidan samarli madaniyatini shakllantirish lozim. Mazkur jarayon yoshlarda mediata'limni rivojlantirish, iste'dodlarni namoyon qilish uchun shart-sharoit yaratish kerak.

Tahlil va natijalar. XX asrning so'nggi o'n yilligi arafasida internet bugungi ko'rinishga kira boshladi. Bunga Yevropa yadro tadqiqotlari laboratoriyasi xodimlari T.Berners-Li va R.Kayo izlanishlari zamin yaratdi. Olimlar Jenevada faoliyat olib borgan mazkur laboratoriyada 1984-1989 yillarda yirik matnli hujjatlarni izlash, tizimlashtirish, saqlash va uzatish yo'llarini topish bilan mashg'ul bo'ldilar. Izlanishlar natijasi o'laroq ushbu vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan dastur yaratildi va taqdim qilindi. Qizig'i shundaki, dastavval dasturdan laboratoriyaga dahldor bo'lgan hujjatlarni topish va tizimlashtirish maqsadida foydalanish rejalashtirilgandi. Biroq "World Wide Web" (Umumjahon tarmog'i) deb nom olgan ushbu dastur shiddat bilan ommalasha boshladi va tez orada butun Yevropaga mashhur bo'lib ketdi. T.Berners-Li va R.Kayo 1991-1993 yillarda bildirilgan taklif va tavsiyalar ustida ishlashga va dasturni takomiliga yetkazishga majbur bo'ldilar[1].

GlobalWebindex so'roviga ko'ra, 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan foydalanuvchilar turli media kanallarida o'tkazishi mumkin bo'lgan o'rtacha kunlik vaqtni tasavvur qiling:

Planshet, noutbuk yoki kompyuterda internetdan foydalanishning o'rtacha vaqti kuniga 4 soat 42 minut;

O'rtacha televizor ko'rish vaqti kuniga 2 soat 21 daqiqa;

Bir kunda turli qurilmalardan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning o'rtacha vaqti 1 soat 53 daqiqa;


Smartfonda internetdan foydalanishning o'rtacha vaqti kuniga 1 soat 24 daqiqa[2].

Yoshlar turli gadgetlardan unumli foydalanmoqdalar. Bu esa ijtimoiy tarmoqqa ulanish imkoniyatini oshirmoqda. Foydalanuvchilarning katta qismi yoshlar bo'lib, bo'sh vaqtlarini aksariyat qismini ijtimoiy tarmoqda sarflamoqdalar. Ijtimoiy tarmoqda notanish "do'stlar" bilan muloqot qilish darajasi urfga aylanib qoldi. Ijtimoiy tarmoqda nazoratning yo'qligi tiyiqsiz erkinliklarni yuzga keltirmoqda. Ta'kidlash lozimki, jonli muloqot darajasining kamiyib ketishi bilan bir qatorda internet-makon resurslari yordamida ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish malakasini hosil qilmoqda.

Kibernakon psixologiyasini tadqiq qilishning nazariy va amaliy masalalari, xususan, virtual aloqa va tizimli xarakterdagi shaxsiy transformatsiyalar D.G.Muxamedova, E.Yu.A'zamova, S.B.Raximzadeva va boshqalar kompyuter o'yinlarining o'smirlarning psixologik rivojlanishiga ta'siri D.G.Muxamedova, I.I.Raximova, L.A.Nigmatulina, N.M.Dalimova, U.Saitova va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.E.Voyskunskiy, A.Y. Yegorov, D.G.Rybalovich, V.D.Mendelevich, V.M.Bondarovskaya va boshqalar tadqiqotlarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish motivlari, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning ijtimoiy-psixologik sabablariga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan V.L.Maligina, K.S.Yang, K.Myurey, O.Ritchell, M.Griffits, N.A.Tsoy, va boshqalar ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, giyohvandlik xulq - atvorining bir turi sifatida muammolari, ijtimoiy tarmoqlardan olingan ma'lumotlarni suiste'mol qilishning psixologik oqibatlarini ilmiy tadqiq etilgan.

Birgina Internetga va ijtimoiy tarmoqlarga tobe kishilarning emotsional sohasida farqlar mavjudligini tadqiqotchi

1-rasm. Ijtimoiy tarmoqlarning o'quvchilar dunyoqarashiga ta'siri tendensiyasining ikkinchi tarkibiy komponenti (ijtimoiy-psixologik adaptatsiya)ning empirik tadqiqi natijalari (n=234)



Respondentlarning 25,2 foizi (59 kishi)da ijtimoiy-psixologik adaptatsiya past darajada rivojlangan. Ta'kidlash joizki, so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarda ijtimoiy psixologik adaptatsiyaning eng yuqori 20,1% (47 kishi), hamda yuqori darajada rivojlanish 6% (14 kishi) holatlari eng kam natijalarni ko'rsatdi.

Ijtimoiy tarmoqlarning o'quvchilar dunyoqarashi tendensiyasining oltinchi tarkibiy komponentini (muloqotda hissiy samaradorlik) empirik o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning aksariyatida (51,7%/121 kishi) tashxis qo'yilgan xususiyat rivojlanishining uchinchi darajasi kuzatildi, ushbu toifaga mansub respondentlar kundalik hayoti faoliyati yoki muloqot jarayonida paydo bo'ladigan ba'zi hissiy muammolarga egaligi bilan tavsiflanadi.

L.A.Nigmatulina o'zining ilmiy ishida o'rganib chiqqan. Internetga va ijtimoiy tarmoqlarga tobe kishilar ko'proq o'z emotsiyalarini boshqara olmaslik, hamdardlikning past darajasi, boshqalarning emotsiyalarini tushuna olmaslik hamda o'z-o'zini motivlashtirishning quyi darajasi, emotsional savodxonlikning yetishmasligi tufayli adekvat emotsiyalarni namoyon qila olmaslik xosdir degan xulosaga kelgan. Shuningdek tadqiqotchi I.Raximova ham o'smirlarda kompyuter o'yinlariga tobelik namoyon bo'lishi hamda kompyuter o'yinlariga tobe o'spirinlarning psixologik xususiyatlarini o'rganib kompyuter o'yinlariga tobe o'spirinlar uchun korreksion dastur ishlab chiqqan.

Ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida o'quvchilar dunyoqarashi shakllanishining psixologik xususiyatlari tendensiyasining tanlangan komponental strukturasi bo'yicha informatsion faoliyatda motivatsion sferaning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy psixologik adaptatsiya, o'z xulq-atvorini boshqarish; kommunikativ qobiliyat, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ nazorat va muloqotda hissiy samaradorlikning psixologik xususiyatlari ochib berilgan.

Shuningdek, tahliliy materiallar asosida o'quvchi yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar-tobeligiga va ijtimoiy tarmoqlarga moyilligi muammosiga xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy yondashuvlarini o'rganishning metodologik masalalari bayon etilgan. Aniqlangan individual psixologik xususiyatlarni tahlil qilish jarayonida biz ularni, asosan, psixodiagnostika uchun ishonchli va asosli vositalar mavjud bo'lgan murakkab shaxs shakllanishining turli tuzilmalariga e'tibor qaratgan holda ko'rib chiqdik. Ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida o'quvchilar dunyoqarashi rivojlanishining joriy holati o'rganish maqsadida empirik tadqiqot o'tkazildi, unda umumta'lim maktabi o'quvchilarining 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 234 nafar qizlar va o'g'il bolalar ishtirok etdi.

Ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilar dunyoqarashiga ta'siri tendensiyasining ikkinchi tarkibiy komponentini (ijtimoiy psixologik adaptatsiya) empirik o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, so'rovnomada qatnashgan o'quvchi yoshlarning asosiy qismida (48,7%/114 kishi) ijtimoiy-psixologik adaptatsiya o'rtacha darajada rivojlangan (1- rasm).

Ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilar dunyoqarashiga ta'siri tendensiyasining tarkibiy komponentini (ijtimoiy psixologik adaptatsiya) empirik o'rganish natijalari ko'ra ta'lim muassasalaridagi mavjud sharoitlarni, shuningdek, ko'pchilik tadqiqotchilarning fikrlarini hisobga olgan holda, talabalarning ijtimoiy tarmoqlarga tobelik darajasini pasaytirish bo'yicha tavsiya etilgan ko'plab yondashuvlar orasidan treninglarni o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarga tobelikning oldini olishning eng samarali va eng qulay texnologiyasi sifatida ajratib ko'rsatish mumkin. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda biz "Ijtimoiy tarmoqlarning o'quvchilar dunyoqarashiga konstruktiv ta'sirini" ijtimoiy-psixologik trening dasturini ishlab chiqdik. Ijtimoiy-psixologik trening dasturining o'zi sakkizta asosiy mashg'ulotni (har biri 155 daqiqagacha) ko'zda tutadi, ular to'rt hafta ichida (haftasiga 4-5 mashg'ulot) ijtimoiy tarmoqlarga tobe

bo'lgan 10-12 nafar o'quvchidan iborat guruhda o'tkaziladi. Har bir dars uch qismdan iborat: kirish – 20 daqiqagacha; asosiy – 120 daqiqagacha; yakuniy – 15 daqiqagacha. Trening dasturiga 8 ta dars, 8 ta mini ma'ruza va 32 ta mashq kiritilgan.

Tayyorlangan ijtimoiy-psixologik treningning asosiy maqsadi ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining o'quvchilar dunyoqarashiga ijobiy ta'sirini shakllantirishdan iborat.

Ikkinchi kompleks psixodiagnostik tekshiruv natijalari (ijtimoiy-psixologik treningdan so'ng) eksperimental guruh o'quvchilari o'rtasida ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilar dunyoqarashiga ta'siri tendensiyasining ajratib olingan tarkibiy komponentlar o'rtasidagi rivojlanishining dinamikasi o'zgarishini ko'rsatdi. Xususan, ijtimoiy-psixologik trening natijasida o'quvchilardagi motivatsion sohaning xususiyatlari ijobiy shakldagi o'zgarishining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Ushbu tadqiqot ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida o'quvchilar dunyoqarashi shakllanishining o'ziga xosligi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu muammoning dolzarbligi zamonaviy dunyoni axborot texnologiyalari va global internetsiz tasavvur qilib bo'lmashligi bilan bog'liq. Yaqin-yaqingacha bu yangiliklar jamoatchilik, ayniqsa, yosh avlod ongida mustahkam o'rin olgan edi. Ular tufayli zamonaviy insonning o'zini namoyon qilishning barcha sohalarida deyarli cheksiz imkoniyatlarni ta'minlaydigan sharoitlar yaratiladi. Shu bilan birga, ma'lum bir toifadagi foydalanuvchilar uchun, ayniqsa, o'quvchilar orasida ijtimoiy tarmoqlar makonining resurslaridan foydalanish ustunlik qiladi va buning natijasida virtual makondagi faoliyatni ixtiyoriy nazorat qilishning shaxsiy pasayishi rivojlanadi, bir qator muammolar paydo bo'ladi. Ijtimoiy va shaxsiy tabiat taraqqiyoti, bu odatda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu halokatli holat ushbu masala bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasasi sharoitida o'quvchilarning ijtimoiy tarmoqlarga qaramligining oldini olishning eng maqbul, samarali usullarini ishlab chiqish zarurligini belgilaydi.

Xulosa. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida o'quvchilar dunyoqarashi shakllanishining ijtimoiy – psixologik xususiyatlari tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalar chiqarishga imkon beradi:

1. O'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilar dunyoqarashiga ta'siri muammosini o'rganish zamonaviy psixologiya fanida amaliy jihatdan sezilarli qiziqish uyg'otadi. Bu butun dunyo bo'ylab global tarmoqdan foydalanuvchilar sonining kunlik dinamik o'sishi bilan izohlanadi,

buning natijasida ijobiy va salbiy oqibatlar olib keladi, shu jumladan, virtual tarmoqning paydo bo'lishi va rivojlanishi xavfli ostida bo'lgan odamlar sonining ko'payishi kabilar.

2. Zamonaviy tadqiqotchilarning umumlashtirilgan pozitsiyalaridan kelib chiqqan holda, ushbu dissertatsiya doirasida o'quvchi yoshlarga nisbatan ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilar dunyoqarashiga ta'siri tendensiyasi, meyardan kognitiv, hissiy va fiziologik og'ishlar majmuini aks ettiruvchi maxsus ijtimoiy-psixologik xususiyatni tushunish maqsadga muvofiqdir va ularning xatti-harakatlarida namoyon bo'lib, bu o'spirin yigit va qizlarning kundalik hayotida global ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni yetarli darajada nazorat qilmasligini ko'rsatadi.

3. O'spirin yoshlar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilar dunyoqarashiga ta'siri paydo bo'lishining asosiy sabablari sifatida ko'pchilik olimlar bevosita yoki bilvosita quyidagilarni nazarda tutadi: foydalanuvchiga nisbatan katta kuch sarflamasdan, juda keng doiradagi mavjud ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini beradigan virtual makon sharoitlarini doimiy ravishda yaxshilash;

4. Ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilar dunyoqarashiga ta'siri asosiy oqibatlar sifatida tadqiqotchilarning ko'pchiligi turli xil shaxsiy o'zgarishlarni, xususan, ruhiy tushkunlik va tashvishli tajribalar shaklida namoyon bo'ladigan hissiy sohadagi salbiy deformatsiyalarni, shuningdek sodir bo'layotgan jarayonlarga qiziqishni yo'qotishni aniqlaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida o'quvchilar dunyoqarashini ijobiy ta'sirini shakllantirishda bizningcha quyidagilarga e'tabor berish lozim:

1. Ijtimoiy tarmoqlarga tobeklikni oldini olishga qaratilgan "Ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilar dunyoqarashiga konstruktiv ta'siri" kurslari maktabdan tashqarida 8 ta dars (har biri 120 daqiqagacha), 4 hafta davomida (haftasiga to'rt-beshta dars) tashkil etilishi maqsadga muvofiq;

2. Tadqiqot ishimizda olingan natijalar ijtimoiy tarmoqlarga tobeklikni oldini olishga, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishda, o'quvchilar bilan zamonaviy sharoitlarda sifatli ijtimoiy-psixologik ishlarni olib borishda, ularni ilmiy ishlarga va shaxsga yo'naltirilgan eng yangi texnologiyalarga samarali jalb etishda amaliy jihatdan qo'llanilishi kerak;

3. Samaradorligi amaliy jihatdan tasdiqlangan, Ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilar dunyoqarashiga konstruktiv ta'siri va uning tarkibiy qismlarini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik dasturini kelgusida, o'qituvchilar va umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologlar o'z amaliyotida keng qo'llashi zarur.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.statista.com/statistics/617136/digital-population-worldwide>
2. <https://interscience.uz/index.php/home/article/download/2096/2093/6962>
3. Далимова Н. Компьютер ўйинларига тобеликни аниқлаш методикасини ишлаб чиқиш ва миллий шароитларга мослаштириш. – Т.: «ЎзМУ хабарлари», 2014. Махсус сон. –104-107 -б.
4. Змановская Е.В. Девиантология (психология отклоняющего поведения). – М.: «Academia», 2003. -С. 289.
5. Юрьева Л.Н., Больбот Т.Ю. Клинические и психологические особенности лиц с компьютерной зависимостью. // Украинський вісник психоневрології. Харьков, 2002. Т. 10, вип.1. –С. 244-245.
6. Юрьева Л.Н., Больбот Т.Ю. Компьютерная зависимость: формирование, диагностика, коррекция и профилактика. – Днепропетровск: «Пороги», 2006. –С. 196.



UO'K:378.4:355.23(575.1)

Mansurjon IMINJANOV,

O'zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi, Rezervdagi podpolkovnik

Email: mansurjoniminjonov@gmail.com

Muhriddin QODIROV,

O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Ravshan OXUNOV,

O'zMU Biologiya-Ekologiya fakulteti dotsenti, r.podpolkovnik

Dotsent B.Haydarov taqrizi asosida

THE ROLE OF THE MILITARY TRAINING CENTER OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN IN THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

Annotation

The article talks about the importance of the military training center of the Ministry of Defense of the Republic of Uzbekistan of the National University of Uzbekistan today, as well as the activities of this military center for the past five years. The military training center of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek has been operating for several years, and every year it recruits the armed forces of the Republic of Uzbekistan with in-depth knowledge and skills in its field, competitive, prepares and delivers multifaceted specialists. The article examines the military training center of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, the tasks of this center, and its activities and importance within the framework of the armed forces of the Republic of Uzbekistan.

Key words: National University of Uzbekistan, military training center, armed forces of the Republic of Uzbekistan, reserve, officer, cadet, specialist, teaching processes, security.

РОЛЬ ВОЕННО-УЧЕБНОГО ЦЕНТРА НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА В ВООРУЖЁННЫХ СИЛАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.

Аннотация

В статье говорится о значении военно-учебного центра Министерства Обороны Республики Узбекистан Национального Университета Узбекистана на сегодняшний день, а также о деятельности этого военного центра за последние пять лет. Военно-учебный центр Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека действует уже несколько лет и ежегодно осуществляет набор в Вооруженные силы Республики Узбекистан, обладающие глубокими знаниями и навыками в своей области, конкурентоспособными, готовит и предоставляет многопрофильных специалистов. В статье рассматривается военный учебный центр Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, задачи этого центра, его деятельность и значение в рамках вооруженных сил Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Национальный Университет Узбекистана, военный учебный центр, Вооруженные силы Республики Узбекистан, резерв, офицер, курсант, специалист, учебный процесс, безопасность.

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HARBIIY TAYYORGARLIK O'QUV MARKAZINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARIDA TUTGAN O'RNI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi O'zbekiston Milliy Universiteti Harbiy Tayyorgarlik O'quv Markazining bugungi kundagi ahamiyati, shuningdek, ushbu harbiy markazning o'tgan besh yil davomidagi faoliyati haqida so'z yuritiladi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi mana bir necha yillardan beri faoliyat yuritib kelmoqda, shuningdek, har yili O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari safiga o'z sohasi bo'yicha chuqur bilim va malakaga ega, raqobatbardosh, ko'pqirrali mutaxassis-kadrlarni tayyorlab yetkazib bermoqda. Maqolada Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv markazi, ushbu markazning vazifalari hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari doirasidagi faoliyati va ahamiyati o'rganildi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Milliy Universiteti, harbiy tayyorgarlik o'quv markazi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari, rezerv, ofitser, kursant, mutaxassis, dars jarayonlari, xavfsizlik.

Kirish. Harbiy soha insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib, uning rivojlanishi va hozirgi kundagi ahamiyati juda katta. Jamiyatlarining xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va global muvozanatni saqlashda harbiy soha muhim rol o'ynaydi. Xususan, vatanimiz hududida ham qadim davrlardan qurolli to'qnashuvlar, janglar bo'lib o'tgan. Vatanimiz tarixida ham ko'plab mahoratli sarkardalar, jasorat ko'rsatgan mard o'g'lonlar nom qoldirganlar. Ushbu sarkardalarga ko'plab ajdodlarimizni misol keltirishimiz mumkin: Spitamen, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va h.k. Yuqorida sanab o'tgan ajdodlarimiz o'sha davrda harbiy strategiyalarini rivojlanishi, jang vaqtida yangi qurol hamda texnikalarni qo'llashlari orqali harbiy sohaning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shishdi hamda insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirishdi.

Sarkarda – jangni puxta tashkil etish va jang paytida qo'shinlarni mohirlik bilan boshqarish orqali ulkan g'alabalarni qo'lga kiritgan va tarixdan joy olgan shaxs.

Jaloliddin Manguberdi – xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori Muhammad Xorazmshohning to'ng'ich o'g'li. U 33 yil umr ko'radi va uning 11 yili jang ichida o'tadi. To'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad. Jaloliddin burnida xoli (mank) bo'lgani uchun mankburni nomi bilan atalgan. Bu nom talaffuzda o'zgarib, Manguberdi nomi bilan mashhur. Jaloliddin qorachadan kelgan, o'rta bo'yli, turk lavzli shaxs bo'lgan. Fors tilini ham yaxshi bilgan. Uning botirligi borasida aytish kerakki, u sulton arslonlar orasidagi eng kuchli sher edi. Bir so'zli, kek saqlamaydigan, ochiq ko'ngil, to'g'ri odam edi. U jiddiy shaxs edi. Hech qachon kulmasdi, juda nari borsa, jilmayib qo'yardi. U adolatsizliklarni yomon ko'rardi. Jaloliddin o'ta qat'iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning

qaltis sinovlarida o'zini yo'qotib qo'ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi.

Amir Temur - buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi hisoblanmish sohibqiron amir temur intizomli armiya tuzishga, jang paytida qo'shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo'llashga, mavjud to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo'shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Sohibqiron sharqda birinchilardan bo'lib armiyaga o't sochar qurol — to'pni olib kirgan. Tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo'linmalarni tashkil qilgan. Amir Temur jahon harbiy ishi tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydoniga an'anaviy 5 bo'lakdan farqli ravishda, 7 ta qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etgan.

Sohibqiron (arab. Saodatli, zafarli, g'olib) — zuhra yulduzi va quyosh tutilishining ma'lum bir darajasida to'qnash kelish vaqti (qiron)da tug'ilgan chaqaloq. Bunday farzandning baxtli, ulug' martabali bo'lishi oldindan bashorat qilingan.

Zahreddin Muhammad Bobur - kam sonli lashkar bilan ko'p sonli dushman ustidan g'olib chiqish taktikasini mahorat bilan qo'llagan. U avval raqibini obdon o'rganadi. Masalan, hind sarkardasi Ibrohim Lo'diyga qarshi kurashishdan avval hindiston o'lkasidagi siyosiy holat, rojalarning tarqoqligi, xalqni ibrohim lo'diyning hukmronligidan bezanligidan foydalangan. Bobur panipat jangida xabarchilardan (razvedkadan) keng foydalangan. Razvedka ma'lumotlari asosida xulosa chiqargan. Jangga kirishishdan avval bu yerning iqlimidan tortib, geografik sharoitigacha inobatga olgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Harbiy ta'lim, mamlakatning mudofaa qobiliyatini oshirishda va harbiy kadrlarga yuqori malaka berishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu soha, tarix davomida turli bosqichlarni boshdan kechirdi va zamonaviy sharoitlarda yangi yo'nalishlar va innovatsiyalar bilan boyitildi. Harbiy ta'limning asoslari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Dastlab harbiy strategiyalar va taktikalar ustida ishlovchilar, urush san'atini o'rgatish uchun turli maktablarni tashkil etganlar. O'rta asrlarda, ushbu ta'lim shakllari ko'proq feodal tuzum va jangovar an'analar bilan bog'liq bo'lib, jangchilarni tayyorlashda muhim rol o'ynagan.

XX asrga kelib, harbiy ta'lim tizimi jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Industrializatsiya va texnologik taraqqiyot, harbiy operatsiyalarni amalga oshirishda yangi usullar va strategiyalarni talab qila boshladi. Harbiy akademiyalar va o'quv markazlari, zamonaviy talablar asosida kadrlarni tayyorlash uchun innovatsion dasturlarni ishlab chiqishga kirishdi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, simulyatsiya, virtual realik va onlayn ta'lim platformalari harbiy ta'lim sifatini yanada oshirishga yordam bermoqda. Ushbu texnologiyalar, talabalarni amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda va real jangovar sharoitlarga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Harbiy ta'lim faqat harbiy kadrlarni tayyorlash bilan cheklanmaydi. U shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda, davlat xavfsizlikni mustahkamlashda va harbiy xizmatchilar orasida etika va mas'uliyatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Harbiy ta'lim, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Harbiy ta'limning taraqqiyoti, zamon bilan hamohang ravishda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida harbiy ta'lim sifatini oshirish, kadrlarni tayyorlash jarayonini samarali va zamonaviy qilish imkonini beradi. Kelajakda ham, harbiy ta'lim, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini oshirishda va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Milliy Universiteti Harbiy Tayyorgarlik O'quv Markazi mamlakatimizda harbiy malaka va tayyorgarlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu markaz, nafaqat akademik bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga qaratilgan dasturlar asosida talabalarga ta'lim beradi. Qurolli kuchlarimizning zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar bilan ta'minlanishi, harbiy tayyorgarlik o'quv markazining asosiy maqsadlaridan biridir. Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida o'quv jarayoni nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Talabalar harbiy strategiya, taktikalar, qurol-yarog'lar va ularning ishlatilishi,

shuningdek, harbiy psixologiya va etika bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lishadi. O'quv jarayoni doirasida yuqori malakali mutaxassislar tomonidan olib boriladigan darslar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar, talabalarni Qurolli kuchlar safiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Milliy Universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv markazi Qurolli kuchlar uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda muhim manba hisoblanadi. Markazda o'quv jarayoni davomida talabalar nafaqat harbiy bilimlarni, balki jamoada ishlash, liderlik ko'nikmalarini ham o'zlashtiradilar. Bu esa kelajakda ularning kelasi Qurolli kuchlarimiz safidagi faoliyati muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. Zamonaviy harbiy operatsiyalar va xavf-xatarlar sharoitida, O'zbekiston Milliy Universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'z o'quv dasturlarini doimiy ravishda yangilab, innovatsiyalarni joriy etib boradi. Qurolli kuchlarimizning ehtiyojlariga mos ravishda yangi texnologiyalar va metodlarni o'z ichiga olgan o'quv dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu, nafaqat harbiy bilimlarni, balki zamonaviy qurollar, texnikalar hamda strategiya usullarini ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Milliy Universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv markazi, mamlakatimizning Qurolli kuchlarida muhim o'rin egallab, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida o'rganilgan bilimlar va amaliy ko'nikmalar, harbiy xizmatchilarimizning kelgusi faoliyatlarida davomida yanada kuchli, tezkor va yuqori malakaga ega kadr sifatida faoliyat olib borishlarida yordam beradi. Shu tariqa, harbiy tayyorgarlik o'quv markazi O'zbekistonning mudofaa qobiliyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi va kelajakda ham o'z faoliyatini yanada takomillashtirishda davom etadi.

Tahlil va natijalar. 2024-yil 24-oktabr kuni Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv markazi tashkil etilganiga 5 yil to'ldi. Shu munosabat bilan Harbiy tayyorgarlik O'quv Markazida bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Ushbu bayram tadbirida da so'zga chiqqanlar Harbiy Tayyorgarlik O'quv Markazi o'rtida 5 yillik faoliyati davomida Markazda faoliyat olib borayotgan ofitserlarning namunali ilmiy faoliyati va sa'yi-harakatlari bilan O'zbekiston Qurolli Kuchlari safiga rezervdagi va zaxiradagi ofiserni tayyorlash borasida o'ziga xos tajriba hamda yutuqlarga erishganligi alohida e'tirof etildi.

Dunyodagi har bir davlat bor ekanki, ushbu davlatning jahon sahnasida tutgan o'rni, kuch-qudrati, siyosiy-iqtisodiy rivojini uning yosh kadrlarining ilmiy-amaliy salohiyati, xalqaro darajadagi erishgan yutuqlari belgilab beradi. Shu sababli, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizning ta'lim sohasida alohida va keng islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan shu qatorda, harbiy ta'lim yo'nalishlarida ham keng ko'lamlil islohotlar o'tkazilib kelinmoqda. Ushbu islohotlar natijalarini Harbiy Tayyorgarlik O'quv markazining faoliyatida ham kuzatishimiz mumkin. Xususan, o'tgan 5 yillik vaqt davomida Harbiy Tayyorgarlik O'quv markazida rezervdagi va zaxiradagi ofiserni tayyorlash bo'yicha malaka talablari ishlab chiqildi hamda ushbu talablardan kelib chiqqan holda Mudofaa vazirligi boshqarma va bo'limlari hamda Qurolli Kuchlar Akademiyasi mutaxassislari bilan hamkorlikda harbiy mutaxassisliklar bo'yicha barcha o'quv dasturlari yangilandi.

Harbiy oliy ta'lim muassasalari, harbiy qismlar va tegishli oliy ta'lim muassasalari bilan imzolangan hamkorlik kelishuvlariga ko'ra, Harbiy Tayyorgarlik O'quv markazi kursantlari ixtisosliklaridan kelib chiqib, dala mashg'ulotlari maydonlarida, o'quv markazlarida amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etmoqda.

Ilmiy faoliyat doirasida 26 nafar professor-o'qituvchilarimiz mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishmoqda, 25 nafar professor-o'qituvchi dotsent ilmiy unvonini oldi, ikki nafar ofiser falsafa fanlari va pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga ega. Bugungi kunga kelib, Harbiy Tayyorgarlik O'quv Markazida faoliyat olib borayotgan ofitserlarning ilmiy salohiyat darajasi 40 foizni tashkil etmoqda. Davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar faxriylari, kursantlar va yoshlar ishtirok etgan tadbirda faol o'qituvchi va talabalar munosib

taqdirlandi. Yoshlarga qurol-yarog' va harbiy texnika vositalari namoyish qilindi.

Ma'lumot uchun, oliy ta'lim muassasalarining 2-bosqichini tugatgan talabalar tegishli imtihon, sinov va ko'riklardan muvaffaqiyatli o'tgandan keyin markazga o'qishga qabul qilinadi. Qabulda ularning bilim bo'yicha reyting darajasi ham inobatga olinadi. Belgilangan nizomga muvofiq, talabalarning harbiy tayyorgarlikdan o'tish davridagi bilimi tegishli tartibga ko'ra baholanadi. Harbiy tayyorgarlik bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasini topshirgan va bakalavriyatning to'liq kursini muvaffaqiyatli yakunlagan talabalarga "leytenant" harbiy unvoni berilib, ular haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladi yoki rezervga yoxud zaxiraga o'tkaziladi.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Milliy Universiteti Harbiy Tayyorgarlik O'quv Markazining Qurolli Kuchlarda

tutgan o'rni, milliy mudofaa va xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'quv markazi, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning malakasini oshirish va strategik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Markaz, zamonaviy texnologiyalar va metodologiyalarni qo'llagan holda, qurolli kuchlar uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlaydi. Bu jarayon, nafaqat harbiy bilim, balki jismoniy tayyorgarlik va psixologik barqarorlikni ham o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning harbiy strategiyasida bu markazning roli, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va harbiy sohada ilg'or tajribalarni o'zlashtirish orqali yanada oshmoqda. Natijada, O'zbekiston Milliy Universiteti Harbiy Tayyorgarlik O'quv Markazi, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda muhim poydevor vazifasini o'ynamoqda.

ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi". – Toshkent, Qomuslar Bosh tahririyati, 2007-y;
2. "Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug'ati". Dolimov.Sh.Z, Toshkent 2007-y;
3. Latipov F., Harbiy topografiya, O'R MV KM Toshkent – 2015 y.
4. X.Tashmetov, Harbiy topografiya, Toshkent, "Sharq" – 2003 y.
5. O'R MV, Ofitser xaritasi, O'R MV KM, Toshkent-2015 y. XVFU.
6. Harbiy topografiya «Topografik xarita bilan ishlash hamda joyda mo'ljallanish uchun qisqa qo'llanma» Toshkent – 2013 y.
7. O'R QKA, Harbiy topografiya darsligi, 2020 y.
8. <https://gov.uz/oz/mudofaa/news>;
9. <https://nuu.uz> - Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti rasmiy sayti;
10. www.akad.uz–O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi rasmiy sayti;
11. www.avnr.ru–Rossiya Federatsiyasi Harbiy fanlar akademiyasi rasmiy sayti;
12. www.varb.mil.by–Belorus Respublikasi Harbiy akademiyasining rasmiy sayti.



*Qobuljon ISROILOV,
Samarqand Zarmed universiteti o'qituvchisi, PhD*

JTSBMQTMOI dotsenti A.Abdumannotov taqrizi asosida

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirishda akmeologik yondashuvdan kengroq foydalanish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish ilg'or pedagogik tajribalar, eng qulay va samarali hisoblangan metodlar va yondashuvlarni amaliyotda qo'llash hamda talabalarning ta'lim olishi va mustaqil o'rganishga moyilligi, qiziqishi va ijodkorlik imkoniyatlarini ochib berish masalalari yoritilgan. Shuningdek, Mikroteching metodikasidan foydalanishi talabning individual kasbiy mahorat marralariga erishuvi hamda uning kasbiy rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beraishi yuzasidan ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Akmeologiya, akmeologik yondashuv, acme, akmeshaxs, ijodkorlik, shaxs yo'nalganligi, akmeologik yo'nalganlik, akmeogramma, Individual rivojlanish dasturi, mikroteching.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье рассматривается более широкое использование акмеологического подхода в развитии профессиональной подготовки будущих кадров, развитие профессиональной компетентности, передового педагогического опыта, практическое применение наиболее удобных и эффективных методов и подходов, а также склонность студентов к учиться и учиться самостоятельно, освещаются интерес и вопросы раскрытия возможностей творчества. Также описывается, как использование методики «Микротех» позволяет студенту достичь индивидуальных целей профессионального развития и выявить закономерности его профессионального развития.

Ключевые слова: Акмеология, акмеологический подход, акме, акме-личность, творчество, направленность личности, акмеологическая направленность, акмеограмма, программа индивидуального развития, микрообучение.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING CREATIVITY IN STUDENTS BASED ON ACMEOLOGY APPROACH

Annotation

This article discusses the wider use of the acmeological approach in the development of professional training of future personnel, the development of professional competency, advanced pedagogical experience, the practical application of the most convenient and effective methods and approaches, as well as the tendency of students to study and self-study, highlighting the interest and issues of discovering creativity opportunities. It also describes how the use of the Microteching methodology allows a student to achieve individual professional development goals and reveal the patterns of his professional development.

Key words: Acmeology, acmeological approach, acme, acme-personality, creativity, personality orientation, acmeological orientation, acmeogram, Individual development program, microteaching.

Kirish. Dunyoning yetakchi mamlakatlarida o'quv-bilish faoliyatini akmeologik kasbiy yo'naltirish, oliy ta'lim talabasing kasbni egallashida akmeologik yetishi, yuqori malakaga ega bo'lishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bo'lajak kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirishda akmeologik yondashuvdan kengroq foydalanish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlikni modernizatsiyalash, pedagogik kasbiy ta'lim sharoitida raqobatbardosh pedagoglar tayyorlashni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamizning bir qator nufuzli olimlari akmeologik yondashuv masalasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan, G.H.Tillayeva akmeologik yondashuvning muhimligini qayd etgan holda, axloqan pok, intellektual yetuk, yuksak professional kadr - akmeshaxs jamiyatni ijtimoiy - iqtisodiy barqarorlashtirishning asosiy kuchi, jahon standartlariga javob beradigan professional yetuk kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri, deb ko'rsatgan bo'lsa, A.Sh.Saliyev yoshlarning intiluvchanligini aniqlashda akmeogrammaning ahamiyatini, G.O.Ernazarova esa kasbiy ta'lim jarayoniga akmeologik yondashuvni tadbiq etish masalasini yoritgan.

Akmeologiya - bu insonning yetuklik bosqichidagi rivojlanishi, ayniqsa, bu rivojlanishning eng yuqori darajasiga erishishdagi mexanizm va qonuniyatlarini o'rganadigan tabiiy, ijtimoiy, nazariy va gumanitar fanlarning "tutashgan joyida" paydo bo'lgan yangi fan hisoblanadi.

"Akmeologiya" so'zida "Akme" - grekcha so'zdan olingan bo'lib, cho'qqi, takomil, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davr ma'nolarini anglatadi. U ilm fanning shunday

tarmog'iki, insonni o'z taraqqiyot dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida insonning eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalalarini o'rganadi, ya'ni u shaxsni o'z takomili jarayonida, ana shu taraqqiyot va yuksalishning ob'yektiv hamda sub'yektiv omillari doirasida tadqiq etadi. [1].

Akmeologik yondashuv-ijodiy shaxsni rivojlantirishda asosiy umumlashtiruvchi kategoriya sifatida belgilanib, akmeologiyani ilmiy-amaliy hal qilish imkonini beradigan ilmiy tadqiqot tamoyillari, metodlari va usullari to'plamini amalda qo'llash hamda kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyani oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Biz ham dars mashg'ulotlarimizda akmeologik yondashuv asosida kasbiy ijodkorlikni va shaxs kreativligini rivojlantiruvchi metodlardan doimiy ravishda foydalanamiz.

"Ijodkorlik" - bu qobiliyatning muhim xususiyatlaridan biridir. Ijodga moyillik - inson faoliyatining eng yuqori namoyon bo'lishi, yangi o'ziga xos narsa yaratish mumkin bo'lgan keng ko'lamlil qobiliyatidir.

Tahlil va natijalar. Akmeologik yondashuv asosida talabalarda ijodkorlikni rivojlantirish tizimining markaziy bo'g'ini sifatida samarali ijodiy faoliyatga qobiliyatlilikni aks ettiruvchi kreativ tarkibiy qism aks etadi. Aynan kreativlikni rivojlantirish akmeologik yondashuv asosida talabalarda ijodkorlikni rivojlantirishning bosh maqsadlaridan biridir. Tez o'zgaruvchan hozirgi zamon sharoitida innovatsion fikrlashga qobiliyatlilik talabalarning muhim sifatlaridan biridir.

Akmeologik yondashuv boshqa yondashuvlardan keskin farq qiladi, shaxsni faol o'zini o'zi rivojlantirish faoliyatida ijodiy

potensialni samarali amalga oshirishni va "acme" rivojlanishiga erishish mohiyatini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi. [2].

Shuningdek, akmeologiya insonning qadr-qimmatini, uning yaxshilanishi va nafaqat o'z kasbiy burchlarini yuqori darajada bajarish, balki to'laqonli hayot kechirish qobiliyati haqidagi fan sifatida rivojlanadi. Bu nafaqat professional faoliyat, balki umuman hayot sub'ekti sifatida yetuk shaxsning ilg'or rivojlanishiga yordam beradigan yoki to'sqinlik qiladigan obyektiv va subyektiv omillarni chuqurroq o'rganishni nazarda tutadi.

Kadrlar tayyorlash tizimida akmeologik yondashuvni amalga oshirishdan maqsad, talabalarga akmeologo-pedagogik ta'sir vositasida asosiy tarkib sifatida shaxsda akmeologik yo'naltirishni va muhim ko'rsatkich kasbiylashuvini shakllantirishning amalga oshirilishidir.

Akmeologik yondashuv asosida kasbiy yo'naltirilgan o'qitish tizimida talabalarining akmeogrammasi yuritiladi. Akmeogramma profiogramma va psixogrammaga nisbatan individuallikning yuqori darajada namoyon etilishi bilan farqlanadi.

Akmeogramma talaba faoliyatining barcha jihatlarini (kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, har kungi munosabat, shaxsiy rivojlanish va faoliyatning umumiy natijasi) hamda bundan kelib chiqib, bo'lajak kadrning individual psixologik va psixofiziologik xususiyatlariga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladi.

Talabalarda akmeografik tekshirish o'tkazish uchun turli metodlardan masalan: testlash, ekspert, baholash, kuzatish, intervyu, so'rovnomalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda talabalarining 1-2 va 3-bosqichlarda akmeogrammasi to'ldirib boriladi. Akmeogrammadagi har bir ko'rsatkichlar oliy ta'lim psixologik va guruh rahbari hamkorligida maxsus akmeologik, psixologik metodlar yordamida,

- kasbiy tayyorgarlik dinamikasi;
- shaxsiy rivojlanish dinamikasining mosligi yoki qarama-qarshiligi;

- motivatsiya doirasi o'zgarishining o'ziga xosligi;
- o'sishga xalaqit beruvchi shart-sharoitlar, omillar;
- shaxsiy-kasbiy rivojlanish uchun qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'lgan akmeologik texnologiyalar va boshqalar aniqlandi.

Akmeogramma natijalari o'quv yili yakunida fakultet dekanatiga ma'lumot uchun taqdim etiladi hamda har bir bitiruvchining kasbiy o'sish dinamikasi, kasbiy ijodkorlik va boshqa akmeologik ko'rsatkichlari e'tiborga olingan holda baholash va ishga joylashtirish rejalashtiriladi.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
O'zi-ni tutishi	Nut-qi	Notiq-ligi	Mavzu-ni yaxshi yoritishi	Metod qo'llashi	Vosita qo'llashi	Audito-riyani boshqarishi	Talabalarni qiziq-tira olishi	AKTni qo'llashi	Peda-gogik reflek-siya

Ushbu jadvalda har bir mezon bo'yicha baho qo'yganda pastdagi katakka uning izohini ham yozish mumkin bo'ladi. 25 daqiqada binar dars o'tib bo'lgan ikki nafar talabaning uchala ekspert tomonidan qo'yilgan ballarining o'rtachasini hisoblashdan oldin o'qituvchi xuddi o'sha baholash jadvalini ularning o'zlariga ham taqdim etadi, ikki talaba o'zining qisqa vaqtidagi o'qituvchilik faoliyatini ya'ni o'zini o'zi baholaydi. O'qituvchi har ikkala baholashni taqqoslab o'rtachasini talabalarga qo'yadi. Boshqa metodikalardan ushbu metodikaning farqi shundaki, talaba o'zini o'zi baholaydi va talabani o'qituvchi emas balki

O'zini-o'zi tahlil qilish orqali talaba o'zini-o'zi ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, talabalarining kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir. Buning uchun har bir talabaning individual rivojlanish dasturi ishlab chiqilishi lozim.

Individual rivojlanish dasturi (IRD) – har bir shaxs yoki talabaning o'zida ma'lum sifat, bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy kompetentlikni shakllantirish hamda rivojlantirish dasturi asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur. [3].

Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka hamda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi.

Har qanday mutaxassis kabi talaba ham o'zi uchun shaxsiy amaliy xarakterga ega "Individual rivojlanish dasturi" ni ishlab chiqarish, u asosida pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiq. Talaba tomonidan ishlab chiqiladigan "Individual rivojlanish dasturi" quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi:

- pedagogik bilimlar;
- psixologik bilimlar;
- mutaxassislik bilimlari;
- didaktik malakalar;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
- ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;

- o'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari;
- o'z-o'zini rivojlantirish uchun topshiriqlar.

Talabalarda nutqiy kompetentlikni rivojlantirish maqsadida Mikrotechning metodikasidan foydalanishi talabaning individual kasbiy mahorat marralariga erishuvi hamda uning kasbiy rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

Ushbu darsni tashkil etishda o'qituvchi tomonidan yaratilgan mobil ilova talabalarga elektron usulda tarqatilib, oldindan kelgusi dars mavzusi e'lon qilinadi va talabalarga mobil ilova hamda boshqa manbalar yordamida mavzuni mustaqil o'rganib kelish topshirig'i beriladi. Dars sanasida esa, o'tilgan darsni mustahkamlab bo'lgach teskari aloqa usulida talabalarining yangi mavzuga mustaqil tayyorgarligi aniqlanib, faol talabalardan 5 tasini tanlab olish amalga oshirildi. Birinchi va ikkinchi faol talaba binar dars tashkil etib, birgalikda mavzuni yoritib berishi, qolgan uch nafar faol talaba esa ekspertlar joyini egallab, quyidagi 10 ta ko'rsatkich bo'yicha 5 baholik tizimda baholashi uchun quyidagicha nazorat varag'i beriladi.

kursdoshlari o'zaro o'zlarini baholaydilar hamda kamchiliklar tahlil etiladi.

Xulosa. Talabalarda ijodkorlikni rivojlantirish, akmeologik yondashuvni qo'llash mexanizmi va kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning asosiy ko'rsatkichlari har bir talabaning individual kasbiy mahorat marralariga erishuvida uning kasbiy rivojlanish qonuniyatlarini ochishi, akmeologik yondashuv asosida talabalarda kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishni tashkil etishi, akme yo'nalganlik hosil qilishi va ularning o'z "akme" sig'a erishishini ta'minlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Tillayeva G.H. Akmeologiyaning ijtimoiy-axloqiy muammolari. -T.: falsafa va huquq, 2012. -160 b.
2. Saliyev A.Sh. Yoshlarning intiluvchanligini aniqlashda akmeogrammaning ahamiyati// Yoshlarning akmeologik qarashlarini shakllantirishda sog'lom turmush tarzining o'rni.-Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2008.-B.227.
3. Isroilov Q.T., Islamova M.Sh. Pedagogik innovatsiyalarning ta'lim tizimini mukammallashtirishdagi turlicha aspect va strategiyalarda namoyon bo'lishi/«XXI asr ta'lim tizimida innovatsion va integratsion yondoshuvlar» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi. Jizzax-2021. 121-126 betlar
4. Ernazarova G.O. Akmeologik yondashuvni amalga oshirishning pedagogic-psixologik shart-sharoitlari. Ta'lim, fan va innovatsiya. IMJ, -T., 2017. 19-21 betlar.
5. Bodalev A.A. "Akmeologiya o'quv va ilmiy intizom sifatida", M., 1993. 3. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: ИНФРА-М, 1998. – 526 с., с. 139.



UDK: 811.512.

Mamura YO'LDOSHEVA,
Toshkent davlat transport universiteti dotsent, PhD
E-mail: mbaxtiyarovna@gmail.com

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori U. Yo'ldoshev taqrizi asosida

THE SPECIFIC PROBLEMS OF ARTISTIC TRANSLATION AND METHODS OF THEIR ELIMINATION TODAY

Annotation

In this article, today the problems of art translation itself and methods of their elimination, as well as the transformation of an artistic text from one language to another, are considered a translation that is distinguished from other manifestations of translation by the preservation of a specific artistic aesthetic coloring.

Key words: Artistic translation, context, linguistics, language, method, semantic, stylistic, equivalent, concept of content, speech activity, artistic, translation, art.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА И МЕТОДЫ ИХ УСТРАНЕНИЯ НА СЕГОДНЯШНИЙ ДЕНЬ

Аннотация

В данной статье сегодня рассматриваются проблемы собственно художественного перевода и методы их устранения, а также преобразование художественного текста с одного языка на другой, перевод, который отличается от других проявлений перевода сохранением специфической художественно-эстетической окраски.

Ключевые слова: Художественный перевод, контекст, лингвистика, язык, метод, семантический, стилистический, эквивалент, концепция содержания, речевая деятельность, художественный, перевод, искусство.

BUGUNGI KUNDA BADIYIY TARJIMANING O'ZIGA XOS MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Аннотация

Ushbu maqolada bugungi kunda badiiy tarjimaning o'ziga xos muammolari va ularni bartaraf etish usullari hamda badiiy matni bir tildan boshqa tilga o'girish tarjimaning boshqa ko'rinishlaridan o'ziga xos badiiy estetik bo'yoqdorlikni saqlanishi bilan ajralib turadigan tarjima hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Badiiy tarjima, kontekst, tilshunoslik, til, metod, semantik, stilistik, ekvivalent, mazmun tushunchasi, nutq faoliyati, badiiy, tarjima, san'at.

Kirish. Jahon tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida sistem-struktur tilshunoslikdan keyin yuzaga kela boshlagan generativ nazariya, psixolingvistika, lingvokognitologiya, lingvomadaniyatshunoslik, pragmalingvistika va kompyuter lingvistikasi singari zamonaviy yo'nalishlarda ishlab chiqilgan antroposentrik tamoyillar va tadqiqot usullari til yoki nutq birliklarini qiyosiy tipologik tahlil qilish orqaligina inson lisoniy faoliyati haqida to'laqonli tasavvur hosil qilishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Tarjima deganda bir tildagi matni grammatik strukturalar va madaniy kontekstlarga mos keladigan semantik va stilistik ekvivalentlikni saqlagan holda boshqa tildagi matn bilan almashtirish tushuniladi. Oddiy qilib aytganda, tarjimoni o'quvchisi ongiga asliyat matnining ta'sirini o'tkazish uchun tarjima tilining madaniy konteksti va grammatik hamda semantik konvensiyalari bilan asliyat matn belgilarini almashtirish deb hisoblash mumkin.

Badiiy matni bir tildan boshqa tilga o'girish tarjimaning boshqa ko'rinishlaridan o'ziga xos badiiy estetik bo'yoqdorlikni saqlashi bilan ajralib turadigan tarjima hisoblanadi. U o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan tarjimon olimlarning doimo muhokamasiga sabab bo'lgan. Shuningdek badiiy tarjima madaniyatlararo muloqot vositasi hamdir. U asliyat tilidagi matnning faqat tarjima tilidagi nusxasi emas, balki mazmunli va estetik qiymatga ega axborotni bir tildan boshqa tilga yetkazadigan ijodiy jarayondir.

Badiiy matn badiiy adabiyotning barcha janr xilma-xilligini o'zida mujassam etadi. U ikkita o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan matn yaratish funksiyasiga, ya'ni ta'sir va estetik 1-jadval

funksiyaga ega. Badiiy adabiyotda axborotni taqdim etish shakli katta ahamiyatga ega. Asarning estetik qiymati, o'quvchiga emotsional-ekspressiv ta'sir darajasi matn mazmunining qanday shaklda aks etilishiga bog'liq (Vinogradov 2001, 16). Badiiy matnlar o'zida mana shunday estetik va ta'sir qilish funksiyasiga egaligi bilan boshqa uslubdagi matnlardan farq qiladi. Shuningdek, ushbu matnda boshqa uslubdagi matn elementlari ham aks etadi.

Umuman olganda, badiiy matn tarjimasida yuzaga keladigan tarjima muammolarini lingvistik va ekstralingvistik muammolar guruhiga ajratish mumkin. Ular ham o'z o'rnida bir qator kichik guruhlarga bo'linadi.

Odatda lingvistik muammolarni fonetika, morfologiya, grammatika, sintaksis, leksika, stilistika hamda matn bilan bog'liq muammolarga tasniflash mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Fonetik muammolar asliyat va tarjima tillarining fonetik va fonologik tizimlarida, shuningdek asliyat tilidagi biror harf va tovush tarjima tilida mavjud bo'lmagan holatda yuzaga keladi. Xususan, o'zbek tilidagi "o", "q", "g" tovushlari ingliz tilida mavjud emas, shuningdek ingliz tilidagi diftonglarning muqobili o'zbek tilida uchraymaydi. Bu holat ko'pincha antroponimlar, tomonimlar, gidronimlar va shu kabi atoqli otlarni tarjima qilishda yuzaga keladi. Quyida "O'tkan kunlar" romanida qo'llangan ayrim antroponim va toponimlarning I.To'xtasinov va M.Riz tarjimalarida berilishidagi ayrim tarjima g'alizliklarini ko'rib chiqamiz:

Badiiy tarjimada antroponimlar va toponimlar tarjimasining berilishi

Asliyat matni	I.To'xtasinov varianti	M.Riz varianti	Bizning variant
Otabek	Otabek	Otabek	Otabek
Ziyo shohichi	Ziyo shohichi	Ziyo shohichi	Ziyo shohichi
Mirzakarim qutidor	Mirzakarim qutidor	Mirza Karim qutidor	Mirzakarim qutidor
Andijan	Andijan	Andijon	Andijan

Akromhoji	Akromhoji	Akram Hajji	Akrom hoji
Rakhmat	Rakhmat	Rahmat	Rahmat
Homid	Homid	Hamid	Homid
Hasanali	Hasanali	Hasan Ali	Hasanali

Ushbu jadvalda romandagi asar qahramonlarining ismi va joy nomlarining tarjimonlar tomonidan ingliz tilida berilishi taqdim etilgan. Bu yerda badiiy tarjimaning fonetik xususiyatlari asliyat va tarjima matnlarida o'zaro mos kelmagan jihatlar "Andijon", "Akrom hoji", "Rahmat" va "Homid" so'zlarida namoyon bo'ladi. "Andijon" toponimi I.To'xtasinov variantida "Andijan", M.Riz tarjimasida "Andijon" tarzida berilgan. Bu yerda M.Riz tarjimasida asliyatga monand. Chunki "Andijon" so'zini tashkil qilgan harflar ingliz tilida ham muqobillariga ega. Shuning uchun ushbu so'zni to'g'ridan-to'g'ri transliteratsiya qilib o'g'irsa bo'ladi. I.To'xtasinov tarjimasida ushbu so'z "Andijan" tarzida berilgan. Bunda tovush o'zgarishi sodir bo'lgan. Ingliz tili fonetik va fonologik tizimida unli tovushlarning sirg'aluvchi yoki jarangli tovushlardan keyin kelganda o'zgarishga uchrashi hodisasi mavjud emas. Tarjimonning bunday variantga kelishiga rus tilining ta'siri natijasi bo'lishi mumkin. Odatda bunday fonetik o'zgarishlar rus tiliga xos. Bundan tashqari I.To'xtasinov tarjimasida "Rahmat" antroponimi "Rakhmat" tarzida berilgan. Antroponimning bu holatda berilishi tarjimonning ekstralingvistik bilimi bilan bog'liq. "Rahmat" so'zidani "h" tovushi o'zbek tilida yumshoq hisoblanib, ingliz tilidagi "h" harfiga muqobil bo'la oladi. O'zbek tilidagi qattiq "x" tovushi esa ingliz tiliga "kh" harf birikmasi bilan o'g'iriladi. Shuning uchun "Rahmat" antroponimi ingliz tilida M.Riz kabi "Rahmat" ko'rinishida tarjima qilsak, maqsadga muvofiq.

Demak, badiiy tarjimaning fonetik muammolari asosan asliyat va tarjima tillarining fonetik va fonologik tizimlaridagi o'zaro farqli jihatlar mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu kabi farqli jihatlar natijasida yuzaga keladigan tarjima qiyinchiliklari transliteratsiya hamda transkripsiya usullari yordamida bartaraf etiladi. Transliteratsiya va transkripsiya odatda antroponimlar, toponimlar, realiyalar, muqobilsiz leksik birliklar kabilarni tarjima tiliga olib o'tishda qo'llanib, asliyat tilidagi so'zni hosil qiluvchi xarf va tovushlarning barchasi tarjima tilida mavjud bo'lsa, so'z transliteratsiya qilinadi. Agar asliyat va tarjima tilidagi leksik birlikni hosil qiluvchi xarf yoki tovushlar o'rtasida lakuna tovush yoki xarf bo'lsa, yoki tarjima jarayonida tovush yoki xarf reduksiyaga uchrasa transkripsiya qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tilidan ingliz tiliga yoki aksincha badiiy tarjimada odatda tarjimonlar uchun qiyinchiliklarni yuzaga keltiruvchi yana bir omil – bu sintaktik omildir. Badiiy tarjimaning sintaktik xususiyatlari asliyat matnidagi so'z birikmasi va gaplarni tarjima tiliga sinaktik muvofiqlikni aks ettirgan holatda o'g'irilishini nazarda tutamiz. Biroq o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimada sintaktik muvofiqlik so'z birikmasi darajasida bo'lishi mumkin, lekin gap darajasida sintaktik moslashuvga erishish qiyin. Chunki ingliz va o'zbek tillari morfologik va struktur tasnifga ko'ra turli xil til oilalariga mansub.

Asliyat matni: — O'zim ko'rmadim, — dedi Oftob oyim, — ammo ko'rguchilarning so'zlariga qarag'anda o'xshashsiz ko'rkam, tengsiz aqlli bir yigit emish... Otasining o'zi yigitni yaxshi ko'rib kuyav qilg'an edi. (28-b)

I.To'xtasinov tarjimasida: — "I haven't seen him myself yet", — she said, — "but the people who have seen him say: he is very handsome and smart... Actually her father liked him and agreed to make him a son-in-law!" (55 p.)

M.Riz tarjimasida: "I haven't seen him myself," said Oftob Oyim. "But according to those who have, he is very handsome. I have heard that he is a clever young man. Kumush's father regards him highly; he himself chose him as the groom." (113 p.)

Romanning mazkur parchasida asarning bosh qahramoni Otabekning tashqi ko'rinishi uning bo'lg'usi qayinonasi Oftob oyim tomonidan qisman tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin. Bunda "o'xshashsiz ko'rkam" hamda "tengsiz aqlli bir yigit" birikmalari portret qiyofasini tasvirlashga xizmat qilmoqda. Struktur jihatdan ushbu so'z birikmalarining ikkisi ham bitishuv

yo'li bilan hosil bo'lgan. Leksik-semantik jihatdan esa "o'xshashsiz ko'rkam" birikmasi orqali Otabekning juda ham ko'rkam, hushbichim ekanligi, "tengsiz aqlli" birikmasi orqali esa qahramonning aqlliligi, donoligi ifodalanmoqda. Ikkala so'z birikmalarida ham "o'xshashsiz", "tengsiz" so'zlari mubolag'ali ma'no hosil qilib, bu orqali qahramonning tashqi qiyofasi va aqli idrokini boshqalarnikidan ustun qo'yilmoqda. Ushbu birikmalar I.To'xtasinovda "very handsome and smart" tarzida, M.Riz variantida esa "very handsome", "clever" ko'rinishida tarjima qilingan. Ushbu tarjima variantlarini ma'no jihatidan asliyatga yaqinroq deb hisoblash mumkin. Lekin mazkur birikmalar orqali asliyat matnidagi qo'shimcha mubolag'ali ma'no tarjima matnida aks etmaydi. Bundan tashqari ushbu so'z birikmalari struktur jihatidan ham asliyatga monand emas. Shuning uchun kalkalash tarjima usulidan foydalanib, "o'xshashsiz ko'rkam" birikmasini "unique handsome", "tengsiz aqlli" birikmasini esa "excellent smart" tarzida ingliz tiliga o'g'irilsa, asliyat va tarjima tillaridagi semantik muvofiqlik va leksik-semantik ma'no saqlab qolinadi. Demak, badiiy tarjimada sintaktik birlik (so'z birikmasi misolida)ni tarjima qilish bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf qilishda kalkalash tarjima usuli samarali bo'lib, ushbu usul orqali asliyat tilidagi so'z birikmasi tarjima tiliga alohi-alohida so'zma-so'z tarjima qilinadi va asliyatdagi so'z tartibi tarjima tilida ham saqlanib qolinadi.

Tahlil va natijalar. Badiiy matnni xorijiy tilga o'g'irish tarjimaning boshqa ko'rinishlaridan yaqqol ajratib turadigan yana bir jihati bu – ma'no masalasidir. Badiiy asarda inson portretini tasvirovchi lisoniy vositalarning leksik-semantik xususiyatlari leksik birliklarning denotativ va konnotativ ma'nolarini tarjima matnida saqlash masalalariga bog'liq.

Badiiy matnlar tarjimasida o'ziga xos muammolarni yuzaga keltiradigan til vositalari sirasiga badiiy tasviriy vositalar, realiyalar, sotsiologik, lingvokognitiv, lingvopragmatik birliklar bilan ham bog'liq bo'lib, mazkur masalalar tarjimondan nafaqat lisoniy, balki nolisoniy mukammal bilimga ega bo'lishni taqozo qiladi.

Badiiy tarjimaning yuqorida keltirib o'tilgan aspektlari bilan bog'liq tarjima muammolari orasida stilistik vositalar va o'zida milliy-madaniylikni aks ettiruvchi lisoniy birliklarni tarjima qilish usul va strategiyalari borasida ishimizning keyingi fasllarida batafsil to'xtalib o'tamiz. Badiiy matnlar tarjimasining sotsiologik, lingvokognitiv, lingvopragmatik aspektlari yuzasidan tarjima muammolarini o'rganish alohida tadqiqot predmetini talab etganligi va bular tadqiqot vazifalarimizda belgilab olinmaganligi bois ularga to'xtalib o'tmaymiz.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, badiiy matnlar tarjimasida nafaqat adabiyot, til, tarjima fanlarining, balki ekstralingvistik fan sohalarining ham o'ziga xos integratsiyasi hisoblanadi. Bunda tarjimon asarda yuzaga keladigan nafaqat lingvistik muammolar, balki ekstralingvistik muammolar ham duch keladi. Bu kabi muammolarni bartaraf etishda lisoniy va nolisoniy tarjima usullaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Badiiy matnni bir tildan boshqa tilga o'g'irish tarjimaning boshqa ko'rinishlaridan o'ziga xos badiiy estetik bo'yoqdorlikni saqlashi bilan ajralib turadigan tarjima hisoblanadi. Badiiy tarjima madaniyatlararo muloqot vositasi bo'lib, u asliyat tilidagi matnning faqat tarjima tilidagi nusxasi emas, balki mazmunli va estetik qiymatga ega axborotni bir tildan boshqa tilga yetkazadigan ijodiy jarayondir.

Badiiy matn tarjimasida yuzaga keladigan tarjima muammolari tipologiyasi o'zida lingvistik va ekstralingvistik muammolar guruhini mujassam etadi. Lingvistik muammolarni fonetika, morfologiya, grammatika, sintaksis, leksika, stilistika hamda matn bilan bog'liq muammolarga tasniflasak, ekstralingvistik muammolar lingvokulturologik, kognitiv, sotsiologik, etnologik, pragmatik, psixologik, etnologik, etnologik, pragmatik, psixologik kabi birliklar badiiy tarjimada qayta ifodalashga aloqador bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Қодирий А.. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2009.– В. 16.
2. Qodiriy Abdulla. The Days Gone By: Novel. Translators:
3. Tukhtasinov I.M., Muminov O.M., Khamidov A.A.. - Toshkent: Mashh ur-press, 2017. – 30 p.
4. Qodiriy A.. “Bygone Days” translated by Mark Reese. Library of Congress Control Number: Library of Congress Control Number:2019914747. – 77 p.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev taxriri ostida.” O'zbekistonmilliy ensiklopediyasi”. “S” harfi. –В. 411. www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. Йўлдошев У. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокултурурологик хухусиятлари (инглиз тилигатаржима қилинган ўзбек халқ латифалари мисолида) филол. фан. ном. дис.автореф. - Тошкент, 2017. - В. 53.



Aygul KALDIBAEVA,

Teacher of the Department of Mathematics Teaching Methodology Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

E-mail: aygulkaldibaeva193@gmail.com

Based on the review associate professor of NamSU D.Sarimsakova

TECHNOLOGY FOR IMPLEMENTING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES BASED ON PROBLEM-BASED APPROACHES INTO PRACTICE

Annotation

Hanafiy mazhabining Markaziy Osiyoda rivoj topishiga yurtimiz allomalarining ham hissalarini benihoyadir. Ularning qatoriga Muhammad ibn Ismoil al-Buhoriy, Ibn Iso at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniylarni qo'shish mumkin. Xususan, Burhoniddin Marg'iloniyning butun islom olamida hanafiya mazhabining fiqh masalalarida asosiy qo'llanmasiga aylangan “al-Hidoya” asari 1178 yili Samarqandda yozilgan. “Hidoya”ning asosini fiqh ilmi asoschilaridan bo'lgan Abu Hanifa an No'mon ibn Sobit va boshqa fiqh ulamolarning asarlari tashkil etadi. U to'rt juzdan iborat bo'lib, ko'p asrlar davomida ko'plab musulmon o'lkalarida, hususan Markaziy Osiyoda ham XX asrning 30-yillariga qadar musulmon huquqshunosligining asosiy qo'llanmasi sifatida foydalanib kelingan.

ADABIYOTLAR

1. Ehsan SHenojak. Imomi A'zam izidan. Toshkent – 2023 y. 4 b.
2. Ehsan SHenojak. Imomi A'zam izidan. Toshkent – 2023 y. 37 b.
3. Islom ma'lumotnomasi. Toshkent. G'afur G'ulom nashriyoti. 2022 y. 98 b.
4. Ehsan SHenojak. Imomi A'zam izidan. Toshkent – 2023 y. 23 b.



UDK: 323.1(575).316.42.330.1.

Shahobjon KUBATOV,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o'qituvchisi, PhD

E-mail: shahobjon.k1995@gmail.com

O'zMU professori, f.f.d. S.Agzamxodjayeva taqrizi asosida

O'ZBEKISTON XXI ASR IJTIMOYIY DAVLATI MODEL SIFATIDA: AN'ANALAR, INNOVATSIYALAR VA GLOBAL TENDENSIYALARNING SINERGIYASI

Аннотация

Maqolada O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy davlatni shakllantirish va rivojlantirishning konseptual asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy globallashtirish sharoitida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimining transformatsiyasini aks ettiruvchi ijtimoiy davlat modeli evolyutsiyasining falsafiy va huquqiy shart-sharoitlari ko'rib chiqilgan. Ijtimoiy siyosatni yanada institutsionallashtirishda o'zbek jamiyatining an'anaviy qadriyatlarini va zamonaviy bozor mexanizmlari uyg'unligiga asoslangan innovatsion yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy davlat, falsafa, O'zbekiston, islohotlar, mahalla, innovatsiyalar, fuqarolik jamiyati, globallashtirish, barqarorlik.

УЗБЕКИСТАН КАК МОДЕЛЬ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА XXI ВЕКА: СИНЕРГИЯ ТРАДИЦИЙ, ИННОВАЦИЙ И ГЛОБАЛЬНЫХ ТЕНДЕНЦИЙ

Аннотация

В статье проанализированы концептуальные основы формирования и развития социального государства в Республике Узбекистан. Рассмотрены философские и правовые предпосылки эволюции модели социального государства, отражающей трансформацию социально-экономической и политической системы страны в условиях современной глобализации. В дальнейшей институционализации социальной политики предлагаются инновационные подходы, основанные на сочетании традиционных ценностей узбекского общества и современных рыночных механизмов.

Ключевые слова: Социальное государство, философия, Узбекистан, реформы, махалла, инновации, гражданское общество, глобализация, стабильность.

UZBEKISTAN AS A MODEL OF A 21ST-CENTURY SOCIAL STATE: THE SYNERGY OF TRADITIONS, INNOVATIONS, AND GLOBAL TRENDS

Annotation

The article analyzes the conceptual foundations of the formation and development of a social state in the Republic of Uzbekistan. The philosophical and legal conditions for the evolution of the social state model, reflecting the transformation of the country's socio-economic and political system in the context of modern globalization, have been considered. In the further institutionalization of social policy, innovative approaches are proposed, based on the harmony of traditional values of Uzbek society and modern market mechanisms.

Key words: Social state, philosophy, Uzbekistan, reforms, mahalla, innovation, civil society, globalization, stability.

Kirish. XX asr oxirida Sovet Ittifoqining parchalanishi Sobiq Sovet hududida, jumladan, O'zbekiston Respublikasida keng ko'lamli siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarni boshlab berdi. Mamlakat 1991-yilda mustaqillikka erishgach, bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish va iqtisodiyotni liberallashtirish yo'lidan bordi, shu bilan birga, fuqarolar oldidagi ko'plab ijtimoiy majburiyatlarni saqlab qoldi va chuqur milliy-madaniy an'analariga tayandi. Islohotlarning bozor mantig'i va ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlanish modelini uyg'unlashtirishni nazarda tutuvchi bunday ikkiyoqlama xarakteri «ijtimoiy davlat» fenomeniga nisbatan alohida milliy qarashning shakllanishiga turtki bo'ldi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ijtimoiy siyosat sohasida innovatsion yechimlarni faol izlash kuzatilmoqda: raqamlashtirish («Elektron mahalla» loyihalari, imtiyozlar va subsidiyalarning yagona ma'lumotlar bazasini joriy etish), yordamning manzilliligini kuchaytirish (ayniqsa, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga) va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish [6]. Ushbu qadamlar nafaqat ijtimoiy dasturlar samaradorligini oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan.

Bir tomondan, zamonaviy ilmiy diskursda ijtimoiy davlat haqidagi tasavvur ko'pincha Yevropa (shved, nemis, fransuz) modellari ta'sirida shakllanadi, bunda davlatning qayta taqsimlash siyosati va ijtimoiy himoya institutlarining shakllanishi asosiy rol o'ynaydi. Boshqa tomondan, o'zbek madaniyati an'anaviy ravishda jamoaviylik, o'zaro yordam (ayniqsa, mahalla instituti) va chuqur ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslanadi, ular ko'p jihatdan islom axloqining rahm-shafqat, hamjihatlik va jamoa

oldidagi mas'uliyat tamoyillariga o'xshaydi [5]. Shuning uchun ijtimoiy davlatning o'zbekcha varianti G'arb nazariyalari, sovet merosi va mahalliy an'analar chorrahasida shakllanadi.

Fuqarolarning turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan yangi qonun hujjatlari va dasturlar (xususan, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish, pensiya ta'minotini takomillashtirish, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini isloh qilish) qabul qilinishi muhim bosqich bo'ldi. So'nggi yillarda, ayniqsa, «Yangi O'zbekiston» davrining boshlanishi va Prezident Shavkat Mirziyoyevning qator tashabbuslari bilan ijtimoiy siyosatning oddiy fuqarolar ehtiyojlariga yo'naltirilganligi yanada kuchaydi. Mehnat bozorini kengaytirish, yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish, kundalik muammolarni hal etishda mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutlarining rolini kuchaytirish bo'yicha milliy dasturlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda [8]. Bularning barchasi O'zbekistondagi ijtimoiy davlatning tabiati, funksiyalari va chegaralari haqidagi falsafiy munozaralar uchun yangi chegaralarni belgilab beradi.

Tadqiqotning nazariy asoslari. G'arb ilmiy diskursida ijtimoiy davlat (welfare state) ning fundamental g'oyalari biri T.Gobbs, Dj.Lokk, A.M.Klayd kabi mutafakkirlar tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy kontraktning klassik nazariyalariga tayanadi. Ularning asarlari fuqarolar va davlat o'rtasida ijtimoiy shartnoma tuzish zarurligini ta'kidlaydi, uning doirasida davlat aholini himoya qilish va asosiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash majburiyatini oladi. Keyinchalik, bu g'oyalar XIX asrning oxirlarida ijtimoiy sug'urta tizimlari paydo bo'lgan Yevropa mamlakatlarida (masalan, Germaniyada Otto fon Bismark davrida) rivojlandi va XX asrning ikkinchi yarmida davlatning

ijtimoiy funksiyalarini kengaytirishga qaratilgan ko'proq «sotsial-demokratik» modellar (shved, britan) shakllandi.

O'zbekiston kontekstida ushbu G'arb an'anasi muhim ahamiyatga ega, chunki u umumiy farovonlikni ta'minlashda davlatning rolini tadqiq etish uchun nazariy va uslubiy asosni taklif qiladi. Biroq, Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida Yevropa modellarini to'g'ridan-to'g'ri nusxalash tarixiy-madaniy fondagi farqlar, iqtisodiy rivojlanish darajasi va jamiyat mentalitetidagi farqlar tufayli bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin [11]. Shunga qaramay, Yevropa «welfare-state» konsepsiyalarining mohiyatini tushunish O'zbekiston islohotlarining yangi bosqichida bozor mexanizmlari va ijtimoiy kafolatlarni sintez qilish yo'llarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin O'zbekiston bozor islohotlarini moslashtirishi, bunda sovet davriga xos ijtimoiy yo'nalishni saqlab qolishi kerak edi. Bu jarayon iqtisodiy liberallashtirish zarurati bilan aholining ijtimoiy himoyalanganlik darajasini saqlab qolish o'rtasidagi muvozanatni topish bilan birga kechdi. Respublikada ijtimoiy davlatning zamonaviy konsepsiyasini shakllantirish 1990-2000-yillarda tub islohotlar bosqichidan o'tgan sovet institutlari tajribasiga asoslanadi.

Ijtimoiy davlatning o'zbekcha modelining o'ziga xos xususiyati an'anaviy qadriyatlar va institutlarga tayanish bo'lib, ulardan eng muhimi mahalla hisoblanadi. Mahalla nafaqat hududiy o'zini o'zi boshqarish organi, balki o'zaro yordam, hamjihatlik va jamoaviy mas'uliyat tamoyillarini birlashtirgan madaniy-tarixiy hodisadir.

Ushbu tamoyillar ko'p jihatdan islom axloqiga hamohang bo'lib, unda rahm-shafqat, muhojirlarga g'amxo'rlik qilish, ijtimoiy adolatga intilish diniy va axloqiy jihatdan asoslangan qoidalarga qaratiladi. Ko'p asrlik O'rta Osiyo an'analari (shu jumladan, ijtimoiy tuzum haqidagi tasavvufiy qarashlar) bilan boyitilgan islom falsafiy tafakkuri O'zbekistonda ijtimoiy davlat uchun alohida ma'naviy-axloqiy asos yaratadi [9]. U davlatga nafaqat «kuch apparati» yoki «qayta taqsimlash mashinasi» sifatida, balki har bir shaxsning farovonligi va uyg'un rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan jamoaviy organizm sifatida qaraydi.

Raqamli texnologiyalarning jadallashuvi, xalqaro migratsiya, jahon bozorlarida raqobat kurashining kuchayishi bilan bog'liq global jarayonlar O'zbekistonda ijtimoiy davlatga yangi talablarni qo'yimoqda [10]. Ilgari asosiy e'tibor oziq-ovqat xavfsizligi va asosiy ijtimoiy kafolatlarga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda raqamli tengsizlik, jahon standartlari darajasida sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish, gender muvozanati va ekologik barqarorlik muammolari diqqat markazida turibdi.

Shunday qilib, O'zbekistonda ijtimoiy davlatning shakllanishining tarixiy-falsafiy konteksti, birinchidan, G'arb nazariyalari va amaliyotining (ijtimoiy shartnoma, farovonlik davlati, huquqiy davlat), ikkinchidan, sovet merosi (rejali iqtisodiyotda «ijtimoiy davlatchilik» tajribasi) va uchinchidan, mahalliy madaniy-tarixiy an'analar (mahalla, islom axloqi, kollektivizm) ning murakkab va ko'p qatlamli qorishmasidan iborat [3].

Aynan mana shu uch unsurning mohirona uyg'unlashuvi O'zbekistonda ijtimoiy davlat konsepsiyasi tadqiq etilayotgan va rivojlantirilayotgan nazariy-metodologik asoslarni belgilab beradi.

Mustaqillikka erishilgandan to hozirgi kunga qadar ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini qo'llab-quvvatlash, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini yaxshilash, bandlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlariga muntazam ravishda tuzatishlar kiritilib, yangi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda [12]. Ijtimoiy davlatning shakllanishiga mamlakatning uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlarini belgilovchi strategik hujjatlar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida eng muhimlari (1) O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi (2017-2021), unda «Ijtimoiy soha» asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi; (2) «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi» [1] va «O'zbekiston - 2030» strategiyasi doirasida ishlab chiqilgan turli «yo'l xaritalari» va dasturlar davlat organlari oldiga aholi farovonligini barqaror ta'minlashga qodir bo'lgan innovatsion yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'yadi; (3) infratuzilmani

modernizatsiya qilish, xizmatlarni raqamlashtirish va mutaxassislar malakasini oshirishga qaratilgan sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi milliy dasturlar [2].

Ko'pincha, ushbu hujjatlarda nodavlat tashkilotlari va xususiy sektorni ijtimoiy masalalarni hal qilishga jalb qilish muhimligi ta'kidlanadi, bu esa davlat modelidan asta-sekin chekinish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yanada «aralash» tizimini shakllantirishni ko'rsatadi.

O'zbekistonda ijtimoiy davlatning me'yoriy-huquqiy bazasi milliy hujjatlar bilan cheklanmaydi. Respublika inson huquqlari, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasidagi qator xalqaro shartnoma va bitimlarga amal qilib, xalqaro tashkilotlar (BMT, JSST, YUNESKO, Jahon banki va boshqalar) bilan faol hamkorlik qiladi [4]. Bu O'zbekiston islohotlarini global kontekstga kiritishni ta'minlaydi va boshqa mamlakatlar bilan eng yaxshi tajribalarni almashishga yordam beradi. Bundan tashqari, qonunchilik tashabbuslari va dasturlari ko'pincha xalqaro ekspertlar tomonidan baholanmoqda, bu esa ijtimoiy siyosatning shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy davlatning o'zbek modeli chuqur madaniy-tarixiy an'analar va zamonaviy innovatsion yondashuvlarning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Bir tomondan, u mahalla institutiga tayanadi - o'z-o'zini tashkillashtirish va o'zaro yordamning islom axloqida ildiz otgan jamoaviy shakli bo'lib, unda muhojirlarga g'amxo'rlik qilish tamoyili muhim axloqiy imperativ hisoblanadi [7]. Boshqa tomondan, davlat tomonidan bozor mexanizmlari va raqamli texnologiyalarni faol joriy etish ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning manzilligini ta'minlaydi va boshqaruv samaradorligini oshiradi. «Pastdan» (an'analar, birdamlik, mahalla) va «yuqoridan» (bozorni liberallashtirish, elektron davlat xizmatlari, davlat-xususiy sheriklik) ning bunday sintezi O'zbekistonga global tahdidlar sharoitida o'z qiyofasini saqlab qolgan holda ijtimoiy adolat va iqtisodiy raqobatbardoshlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash imkonini beradi [15].

O'zbekiston iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va innovatsion rivojlanish o'rtasidagi mutanosiblikka asoslangan ijtimoiy davlatning barqaror modelini yaratish yo'lidan dadil borishda davom etmoqda [13]. Biroq, mavjud muammolarni muvaffaqiyatli yengib o'tish uchun ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlarini tizimli isloh qilish, byudjet resurslarini samarali boshqarish, raqamli tengsizlikni bartaraf etish va fuqarolik jamiyatining rolini oshirish talab etiladi [14].

Mintaqaviy rivojlanishga e'tiborni saqlab qolish, mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini oshirish va raqamli texnologiyalarni faol joriy etish O'zbekistonga ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlash, fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash va aholining barcha qatlamlarining ijtimoiy farovonligi uchun barqaror sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

O'zbekistonning ijtimoiy siyosati sezilarli yutuqlarni namoyish etmoqda, ammo bir qator muammolar uning samaradorligini to'xtatib qolmoqda. Mintaqaviy nutanositliklarni bartaraf etish, raqamli tafovutni bartaraf etish, kadrlar malakasini oshirish va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash kelgusi yillarning ustuvor yo'nalishiga aylanishi kerak.

Xulosa. O'zbekistonda ijtimoiy davlat modeli an'anaviy madaniy-tarixiy qadriyatlar, islom axloqi, sovet merosi va davlat boshqaruvining zamonaviy usullarining o'ziga xos sintezidir. U davlatning globallashtirish va ijtimoiy tengsizlik kabi zamonaviy tahdidlarni hisobga olgan holda ijtimoiy adolatni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush sifatini oshirishga bo'lgan intilishini aks ettiradi.

Birinchidan, ijtimoiy davlatning o'zbek modeli mahalla institutida mujassamlashgan tarixan shakllangan birdamlik va o'zaro yordam an'analariga tayanadi. Mahalla nafaqat manzilli yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi, balki davlat va jamiyatning o'zaro hamkorligi tizimida muhim bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Markazlashtirishni cheklash va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning rolini kuchaytirish muvaffaqiyatlari ijtimoiy dasturlarning moslashuvchanligi va manzilligini ta'minlagan holda joylarda ijtimoiy muammolarni tezkorlik bilan hal qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, davlat ijtimoiy ne'matlarni qayta taqsimlash va ijtimoiy siyosatni shakllantirishda asosiy rol o'ynashda davom etmoqda. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, bandlik dasturlarini yaratish va ijtimoiy tadbirkorlikni rag'batlantirish muhim qadam bo'ldi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat ijtimoiy siyosatning iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga, balki yangi ish o'rinlarini, ayniqsa, yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi.

Uchinchidan, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. «Elektron mahalla», «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari yagona reyestri» platformalari va raqamli ijtimoiy xaritalar fuqarolarning ehtiyojlarini tezkor aniqlash, byurokratik to'siqlarni minimallashtirish va resurslarni taqsimlashda shaffoflikni ta'minlash imkonini beradi. Biroq, shaharlar va qishloq tumanlari o'rtasidagi raqamli tengsizlik tizimli yechimni talab qiladigan muhim muammo bo'lib qolmoqda.

To'rtinchidan, islom axloqi va mehr-shafqat tushunchasi O'zbekiston ijtimoiy siyosatida muhim rol o'ynashda davom etmoqda. Zakot va vaqf tamoyillari nafaqat jamiyat jipsligini mustahkamlaydi, balki aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha mexanizmlarni ham yaratadi. Xayriya tashabbuslari va jamg'armalari davlat dasturlarini

to'ldirib, yordamning yanada moslashuvchan va tezkor taqsimlanishini ta'minlaydi.

Beshinchidan, sezilarli yutuqlarga qaramay, jiddiy muammo va muammolar saqlanib qolmoqda. Mintaqaviy nomutanosibliklar, byudjet mablag'larining cheklanganligi, malakali kadrlar yetishmasligi va byurokratik to'siqlar ijtimoiy siyosat samaradorligiga to'sqinlik qilishda davom etmoqda. Raqamli tafovutni bartaraf etish va olis hududlarda zamonaviy ijtimoiy xizmatlardan foydalanishni kengaytirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy davlatning o'zbek modeli zamonaviy tahdidlar sharoitida barqarorlik va moslashuvchanlikni namoyon etadi. U tarixiy va madaniy an'analar, islomiy xayriya mexanizmlari, sovet merosi va zamonaviy global boshqaruv amaliyotlarini o'zida mujassamlashtirgan. Biroq, uning yanada rivojlanishi izchil islohotlarni amalga oshirish, byudjet investitsiyalarini ko'paytirish, xususiy sektorni faol jalb qilish va xalqaro hamkorlikni talab qiladi.

Belgilangan strategiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, O'zbekiston nafaqat o'zining ijtimoiy davlat modelini mustahkamlashi, balki ijtimoiy adolat, iqtisodiy o'sish va madaniy o'ziga xoslik o'rtasidagi muvozanatni topishga intilayotgan boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun namuna bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan «Yangi O'zbekiston» taraqqiyot strategiyasi. (2022). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi.
2. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining yagona reyestri. (2023). O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi.
3. Доклад Всемирного банка о социально-экономическом развитии Узбекистана. (2023). Вашингтон: Всемирный банк.
4. Азиатский банк развития. Отчёт по проектам социального развития в Узбекистане. (2022). Манила: АБР.
5. Саидов А.Х. (2022). «Роль махалли в обеспечении социальной поддержки и солидарности в Узбекистане». Центральноазиатский журнал социополитических исследований, №4, с. 45–57.
6. Каримов А.И. (2021). «Модернизация социальной политики в контексте устойчивого развития Узбекистана». Журнал социальных наук Узбекистана, №2, с. 23–36.
7. ХудайбергANOVA З.М. (2022). «Исламская этика и благотворительность в современной социальной политике Узбекистана». Научный вестник Узбекистана, №5, с. 75–89.
8. UNDP Uzbekistan. (2023). «Социальная защита и цифровизация: опыт Узбекистана». Нью-Йорк: Программа развития ООН.
9. OECD Report on Social Policies in Uzbekistan. (2022). Париж: OECD Publishing.
10. Рахимов С.А. (2021). «Децентрализация и роль махалли в реализации социальной политики Узбекистана». Общественно-политический вестник Узбекистана, №3, с. 60–72.
11. Социальная политика в Центральной Азии: региональные вызовы и перспективы. (2022). Коллективная монография. Алматы: Казахстанский институт стратегических исследований.
12. ПРООН. (2023). «Устойчивое развитие и социальное равенство: опыт Узбекистана». Нью-Йорк: Программа развития ООН.
13. Karavaev V. (2021). «Digitalization of State Services in Post-Soviet Countries: Comparative Analysis». Social Policy & Administration, 55(3), pp. 517–530.
14. Smith, A. (2020). Wealth of Nations. London: Penguin Books. (русский перевод: Москва, «Экономика»).
15. Доклад ЮНЕСКО по вопросам образования и социальной интеграции в Узбекистане. (2022). Париж: ЮНЕСКО.



Fazilat KUCHKAROVA,

Zarmed Universiteti kafedra mudiri, dotsent

Mukaddam TOVBAYEVA,

International School of Finance Technology and Science instituti Samarqand filiali ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida v.b.dotsenti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida

OILAVIY MUNOSABATLARDI DESPOTIZMNING NAMOYON BO'LISHINING XORIJ TAJRIBASIDA IFODALANISHI

Annotatsiya

Maqolada oila muhitida despotizmni yuzaga kelishining ijtimoiy omillari, despotizmni namoyon bo'lishi xorij tajribasida ifodalanishi va shu kabilar psixolog olimlarning nazariy qarashlarida aks etganligi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Oila, munosabat, zo'ravonlik, despotizm, jabrlanuvchi, tarbiya, axloq, o'ziga ishonch, millat.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПРОЯВЛЕНИЯ ДЕСПОТИЗМА В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация

В статье представлены сведения о теоретических взглядах ученых психологов на социальные факторы проявления деспотизма в семейной среде на примере зарубежного опыта.

Ключевые слова: Семья, отношения, насилие, деспотизм, жертва, воспитание, мораль, уверенность в себе, нация.

FOREIGN EXPERIENCE OF THE MANIFESTATION OF DESPOTISM IN FAMILY RELATIONSHIPS

Annotation

The article presents information about the theoretical views of psychologists on the social factors of manifestation of despotism in the family environment using the example of foreign experience.

Key words: Family, relationship, violence, despotism, victim, upbringing, morality, self-confidence, nation.

Kirish. Ta'kidlash joizki, milliy qonunchiligimizda «Oilaviy zo'rlik» atamasiga ta'rif berilmagan. Ammo, xalqaro miqyosda bu ibora keng qo'llanadi. Oilaviy zo'rlik faqat bir mamlakat va millatga xos illat emas, u bilan butun dunyo kurashib keladi.

Zo'ravonlik, zulmkorlik, tajovuzkor harakatlar butun dunyoda eng dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan hisoblanadi. Chunki bunday hulq-atvor ko'rinishlari nafaqat jabrlavchi, jabrlanuvchilarning o'zlarida bevosita aks etishi, balki umuman jamiyatning barqarorligiga rahna solishi, ijtimoiy-psixologik muhitiga ta'sir etishi muqarrar bo'lib qoladi. Gender asosidagi zulmkorlik, zo'rlik, despotizm – bu keskin ko'rinishdagi xulq, xatti-harakat bo'lib, jismoniy, ruhiy va jinsiy zarar etkazish tarzida namoyon bo'ladi.

Oila a'zolariga qarshi qaratilgan tajovuzkorlik, zulmkorlik deyarli barcha dunyo mamlakatlarida ta'kidlanadi, bu hodisaning universalligi va tarqalganligi haqida asosli gapirishga imkon beradi.

Oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan zo'ravonliklarning asosiy qismi ruhiy (psixik) zulmkorliklar tashkil etadi. Oilada sodir etiladigan despot xolatlar oqibatida shaxs ruhiyatiga (psixik) ta'sir ko'rsatish, qo'rqitib bo'ysundirish, majburlash, xo'rqlash, jabr-zulm qilish, zo'ravonlik qilish, sirini fosh etishni aytib qo'rqitish, uydin haydab yuborishga xarakat qilish, bolalarni kaltaklab alamini ulardan olish, ojiz ahvolda qoldirish yoxud o'ziga bo'ysundirish shakllarida namoyon bo'ladi. [1,3].

Adabiyotlar tahlili. Oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar butun dunyoda keng tarqalgan hodisa bo'lib, BM Tning ayollar ahvoli bo'yicha 1995 yil 4-15 sentyabrda Pekin shahrida o'tkazilgan To'rtinchi Butunjahon konferensiyasida, u ko'plab davlatlarda «epidemiya» deb tan olingan.

Jahon miqyosidagi statistika va umumiy tendensiyalarga nazar tashlasak, zo'ravonlik - despotizmning gender xususiyatlariga e'tibor qaratsak, tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ayollarga nisbatan zo'ravonlik jahondagi barcha mamlakatlarga, ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotidan qat'iy nazar, mavjud holat hisoblanadi. Hatto eng

rivojlangan mamlakatlarda ham shunday holatlarni kuzatish mumkin.

Tahlil va natijalar. Kanada davlatida zo'ravonliklarni oldini olishda gender munosabatlariga, xususan ayollarga jiddiy e'tibor qaratilgan. 1973–1974 yillardayoq zo'ravonlikdan jabr ko'rgan ayollar uchun dastlabki boshpana joylar va krizis markazlarini tashkil etilgan. Ayollarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllariga qarshi kurash tamoyiliga asoslangan holda 1998 yilda «Oiladagi zo'ravonliklarga qarshi kurashish to'g'risida» qonun qabul qilingan. Mamlakatda ayollar ishlari vazirligi krizis xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha asosiy koordinator va mablag' taqsimlovchi tashkilot hisoblanadi va ayollarga nisbatan sodir etilayotgan zo'ravonliklarning oldini olishda ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya va psixoprofilaktik choralar qo'llanilib kelmoqda [2].

AQSh va Kanadada jinsiy zo'ravonlik sodir etish holatlarini aniqlashga alohida e'tibor berilgan. Chunki jinsiy zo'ravonlik jismoniy zo'ravonlikka nisbatan shaxsga og'irroq ta'sir o'tkazadi hamda jabrlanganning kelgusi hayotini ham o'zgartirib yuborishi mumkin.

AQShda ijtimoiy xizmat ko'rsatish rivojlangan bo'lib, zo'ravonlikning barvaqt profilaktikasiga katta e'tibor qaratiladi. Jabrlanuvchilarga bepul psixologik, huquqiy, ijtimoiy yordam ko'rsatiladi, lekin uzoq joylarda joylashgan hududlarda krizis markazlari yo'qligi zulmkorlik profilaktikasida turli muammolarni yuzaga keltiradi.

Amerika va Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida ayollarni turli zo'ravonlikdan muhofaza qilish to'g'risida tegishli qonuniy hujjatlar qabul qilingan va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan ayollarga psixologik reabilitatsiya yordamini ko'rsatish bo'yicha maxsus ijtimoiy xizmat sohalari tashkil etilgan, ayol huquqlarini ta'minlashga oid boy ijobiy tajriba mavjud. Polisiya xodimlarining ayollar bilan o'zaro munosabatga kirishish hamda murojaatlarini ko'rib chiqishga oid alohida nafaqat huquqiy, balki psixologik treninglar ham amalga oshiriladi, zo'ravonlikka uchragan fuqarolarni himoya qilishda polisiya xodimlarining «Kasb etikasi kodeksi» talablariga rioya qilishi majbur etib belgilangan.

Buyuk Britaniyada zo'rlik oilada sodir etilgan bo'lsa, sudlar bu ishni og'irlashtiruvchi holat deb baholaydi. Shuningdek, oilada zo'rlik amalga oshirilgani haqida huquq-tartibot organiga murojaat qilinsa, polisiya gumon qilinayotgan zo'ravonni 48 soatga shu oila xonadonidan olib chiqib ketishi mumkin [3].

Buyuk Britaniyada notinch oilalar bilan ishlashda ingliz polisiyasi etakchi o'rin egallaydi. Zo'ravonlikka qarshi kurashda korreksion va reabilitasiya dasturlari ishlab chiqilgan. «Oilani saqlash uylari»da jabrlanuvchiga nafaqat boshpana, oziq-ovqat bilan ta'minlanadi, balki psixologik yordam ko'rsatilib, mustaqil hayot tarzi kechirish ko'nikmalariga o'rgatiladi. O'ta og'ir vaziyatga tushib qolgan oilalarning farzandlarini maxsus markazlarda saqlash amaliyoti ham keng qo'llaniladi.

Germaniya Federativ Respublikasida inson huquqlari ayniqsa, ayollar huquqlari alohida himoya qilinishi nazoratga olingan. Qiyin xalqiy vaziyatlarga duchor bo'lgan, zo'ravonlik va turli qiyinchiliklarga uchragan ayollar uchun, «ayollar uylari» (Frauenhäuser), yuzlab maslahat markazlari, kunduzgi psixologik yordam hamda 360 dan ortiq ijtimoiy yordam markazlari, faoliyatini yo'lga qo'yilgan. Qiyin ahvolga tushib qolgan jabrlanuvchilar uchun yordamga chaqirish maxsus telefon raqam (110) xizmati keng yo'lga qo'yilgan. Chaqiruv signali bilan shaxsning joylashgan joyi aniqlanadi, zudlik bilan polisiya xodimlari yuborilishi nazoratga olingan. Zo'ravonlik sodir etgan shaxslar o'zlari yashayotgan xonadonlardan chiqarib yuboriladi, ularning jabrlanuvchiga yaqinlashishi, telefon orqali so'zlashuv yoki xabarlar yuborishi taqiqlanadi. Binobarin, jabrlanuvchining turmush o'rtog'i shunday holatlarni sodir etgan taqdirda oilani moliyalashtirish majburiyati yuklatilgan. Bu amaliyot esa ayollarning iqtisodiy qaramligini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Yana muhim tajriba shuki, Germaniya Federativ Respublikasida ta'lim muassalarida va OAVda maishiy zo'rlik to'g'risida profilaktika ishlariga e'tibor beriladi: tushuntirish ishlari olib boriladi, ko'chalarda aksiyalar o'tkaziladi. Maishiy zo'rlik qurbonlari uchun «Ishonch telefoni» tarmog'i ishlab turadi. Polisiya xodimlari maishiy zo'rlik holatlarida qanday harakatlanishi lozimligi haqidagi mukammal reglament bilan ta'minlangan.

Fransiyada jismoniy, psixologik, jinsiy, iqtisodiy, kiber zo'ravonliklarga duchor bo'lgan ayollar uchun 3919 «Violences Femmes info», deb nomlangan tun-u kun, dam olish kunlarisiz, bepul ishlaydigan va anonimlikni to'liq kafolatlaydigan reabilitasiyaga yo'l ko'rsatuvchi axborot ko'magi bo'lgan «Ishonch telefoni» ishga tushirilgan. Tezkor aloqa uchun 400 «Téléphone Grand Danger» («Kattta xavf ostidagi telefon») ishga tushirilgan. Bu xizmatning asosiy vazifasi jabrlanuvchiga tez yordam uchun yo'lga qo'yilgan, ko'makka muhtoj ayollarga tibbiy-psixologik va reabilitasion yordam ko'rsatishdan iborat. Fransiya Bosh vaziriga «Ayol va erkaklar o'rtasidagi tenglik» masalasi bo'yicha davlat kotibi lavozimi joriy etilgan va Fransiya ayollarining turli sohalarida erkaklar bilan teng huquq va erkinliklarga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat etib belgilangan.

Shvesiyada 1965 yildayoq davlat qonunchiligiga oilaviy-maishiy zo'rlikka oid normalar kiritilgan. Shvesiya Istanbul Konvensiyasining ijrosi bo'yicha Evropadagi ilg'or mamlakat hisoblanadi [4].

Yaponiya poytaxti Tokioda ayollarni turli zo'rliklardan himoya qilish bo'yicha BMTning «BMT-Ayollar» bo'limi tashkil etilgan. Bu borada Yaponiya Konstitusiyasida ayollar huquq va erkinliklari kafolati haqidagi normalar mavjud. Normalar esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan nazorat qilinadi.

Xitoyda ayollarga nisbatan zo'ravonliklarning oldini olishning qonunchilik bazasi yaratilib, so'nggi 20 yil davomida xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilishga oid qonunlar chiqarilgan. E'tiborli jihati shundaki, Xitoyda 2016/2020-yillarga

mo'ljallangan «Inson huquqlari himoyasi bo'yicha davlat Dasturi» ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda Avstraliyada «Ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlikni tugatish 2018-2030-yillarga mo'ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari Dasturi» amal qiladi.

Yaqin xorij mamlakatlaridan Moldova Respublikasi oiladagi zo'ravonlikni profilaktikasiga qaratilgan siyosat yurgizuvchi etakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Moldovada oilaviy zo'ravonlikni oldini olish to'g'risidagi maxsus qonun qabul qilingan, amalga oshirilayotgan ishlarning asosiy maqsadi reabilitasiya markazlarining yagona tizimini yaratishdan iboratdir. Krizis markazlarida 3 oygacha muddatda qolish va bepul xizmatlardan foydalanish mumkin. Zo'ravonlikka qarshi olib borilayotgan ishlarda echimini topmagan muammolar ham ko'p. Lekin qonunda profilaktika ishlarini olib boruvchi sub'ektlarning majburiyatlari aniq belgilanmagan, faoliyat nazorati aniq ko'rsatilmagan. Krizis markazlari sonining ozligi va asosan xalqaro tashkilotlar hisobidan faoliyat ko'rsatishi, markazlarga barcha jabrlanganlar murojaat qilishini cheklaydi.

Ukraina Respublikasida oilaviy-maishiy zo'rlik profilaktikasi bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, «Erkak va ayollar huquq va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash to'g'risida»gi Qonun, «Oilada zo'rlikni ogohlantirish to'g'risida»gi Qonun, 2011 yil 7 noyabrda «Ayollarga nisbatan zo'rlik va oilaviy zo'rlikka chek qo'yish va kurashish bo'yicha Evropa Kengashi Konvensiyasini ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi Istanbul Konvensiyasi №0119-son Qonunini ta'kidlash mumkin. Mazkur Qonun Ukraina Respublikasi Prezidentining 2015 yil 25 avgustdagi «Milliy strategiya to'g'risida»gi № 201/2015-son Farmonining Inson huquqlari sohasini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Belorussiya Respublikasi gender tengligi bo'yicha dunyodagi 155 mamlakat ichida 31-o'rinda turadi, «Onalik indeksi» bo'yicha 25-o'rinni egallagan.

Belorussiyada 2014 yilda «Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatining asoslari to'g'risidagi»gi Qonun qabul qilingan. Mazkur hujjatda oilada uchraydigan zo'rlik, ichkilikbozlik va boshqa turli ko'rinishdagi huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari kiritilgan.

Rossiya Federatsiyasida oilaviy-maishiy sohada oilaviy zo'rlik, gender zo'rliqi kabi terminlar qo'llaniladi. Bu tushunchalar faqatgina ayollarga nisbatan emas, balki erkaklarga nisbatan ham qo'llaniladi. Odatda jismoniy zo'rlikka ayollar, ruhiy zo'rlikka esa erkaklar duch keladi.

Qozog'iston Respublikasida «2030 yilgacha oilaviy va gender siyosati Konsepsiyasi», «Maishiy zo'ravonlikning profilaktikasi to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingan. Qonun bilan xizmat ko'rsatish davomida zo'ravonlik haqidagi ma'lumotlarni tarqatgan mansabdor shaxslarga nisbatan alohida javobgarlik, himoya orderini berish tartibi belgilangan. Ichki ishlar organlari tarkibida xotin-qizlarni va bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha maxsus bo'linma faoliyat yuritadi. Qozog'istonda zo'ravonlik sodir etilishi asl statistikasini aniqlash, krizis markazlarini moliyalashtirish, ichki ishlar organlarining moddiy-texnika bazasi sustligi kabi qiyinchiliklar mavjud.

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, oilaviy zo'ravonlikdan insonni himoya qilishda har bir mamlakatning o'z tajribasi, qonuniy normalari ishlab chiqilgan va ma'lum darajada qo'llanilishi joriy etilgan.

O'zbekistonda bu borada xujjatlarning qabul qilinganligi va zo'ravonlikdan jabr ko'radigan shaxslarga respublikamizning barcha xududlarida reabilitasiya va moslashtirish markazlarining faoliyati amaliyotga qo'llanilib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Akramova F.A. "Oilada sog'lom psixologik muhitni yaratishning ijtimoiy-psixologik asoslari". O'quv qo'llanma. T., 2014.
2. Akramova F.A., Tovbayeva M.S. Oiladagi zo'ravonlikning ijtimoiy-psixologik masalalari: Monografiya – Toshkent: «Lessonpress» nashriyoti, 2021. – 124 b. [ISBN 978-9943-7024-4-8]
3. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi: O'quv qo'llanma. –T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2006. –142 b.
4. Tashmuxeimova D.G., Akramova F.A. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash: "Baxtli oila sari". Toshkent: OOO "NORI" MChJ, 2019. – 47 b.



UDK: 22.06.21.

Islom QARSHIYEV,
JDPU katta o'qituvchisi
E-mail: qarshiyev6969@gmail.com

Falsafa fanlari doktori prof A.Saidkasimov taqrizi asosida

TAFAKKUR USLUBI TUSHINCHASI VA UNING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

Annotation

Maqolada inson tafakkur tushunchasining namoyon bo'lish shakllarini bilish falsafiy bilimlarning eng azaliy va navqiron tadqiqot ob'ektlaridan biri bo'lgan tafakkur va tafakkur uslubining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Tafakkur uslubi bilishning yuqori ratsional bilish bosqichi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Tafakkur, uslub, namoyon, ratsional, navqiron, fikrlash, aqliy bilish, sinonim, predmet, ichki, so'z.

ПОНЯТИЕ СТИЛЯ МЫШЛЕНИЯ И ЕГО ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ

Аннотация

В статье раскрыты формы проявления понятия человеческого мышления, а также уникальные особенности мышления и стиля мышления, которые являются одной из самых древних и одновременно современных исследовательских объектов философских знаний. Изучена стадия рационального познания, являющаяся высшим уровнем познавательной деятельности.

Ключевые слова: Мышление, стиль, проявление, рациональный, молодой (новаторский), размышление, умственное познание, синоним, предмет, внутренний.

THE CONCEPT OF THINKING STYLE AND ITS FORMS OF MANIFESTATION

Annotation

The article reveals the forms of manifestation of the concept of human thinking, as well as the unique features of thinking and thinking style, which are one of the most ancient and at the same time modern research objects of philosophical knowledge. The stage of rational knowledge, which is the highest level of cognitive activity, is studied.

Key words: Manifestation, rational, young (innovative), reflection, mental cognition, synonym, subject, internal.

Kirish. Falsafiy bilimlarning eng azaliy va navqiron tadqiqot ob'ektlaridan biri bo'lgan tafakkur va tafakkur uslubining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Avvalo, tafakkur – o'zi nima, degan savolga qisqacha to'xtalib o'tsak. "Tafakkur, arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilidagi "fikrlash", "aqliy bilish" so'zlarining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Narsa va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori ratsional (lotincha ratio – aql) bilish bosqichi bo'lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlar aks ettiriladi"[1].

Manbalarda keltirilishicha, tafakkur quyidagi asosiy xususiyatlarga ega: birinchidan, unda voqelik abstraktlashgan va umumlashgan holda in'ikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli o'laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali belgilaridan fikran chetlashgan, mavhumlashgan holda, e'tiborimizni uning umumiy, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyatlariga va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi. Ikkinchidan, tafakkur borliqni bilvosita aks ettiradi. Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda xosil qilinadi. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Uchinchidan, tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni narsa va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi. To'rtinchidan, tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda moddiy hodisaga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo'lishidir.

Tafakkur uslubi esa, muayyan fikrlash tarzi bo'lib, unda sezgi va aql ko'rsatkichlariga asoslangan holda, voqelik tasavvur etiladi. Inson o'z tafakkurida voqelikdagi narsa va hodisalarni hamda ularning rivojlanish taraqqiyotini o'zining mantiqiy tushunchalari, tushunish qobiliyati orqali anglaydi. Muayyan

tushunchalar, belgilar, jarayonlar, nazariyalar yordamida erishilgan bilimlarni mantiqan anglab olish natijasida tafakkur uslubi shakllanadi. Bizning fikrimizcha, tafakkur uslubi – jamiyat va tabiat taraqqiyoti qonunlarini to'g'ri idrok qilish va ularga xolisona, mustaqil baho berishdir. Tafakkur uslubi evolyutsion xarakterga ega, vaqtning o'tishi, jamiyat mafkurasining o'zgarishi bilan u ham o'zgarib boraveradi. Oqibatda jamiyat taraqqiyoti qonun va normalarning yangi g'oyalarga va me'yorga mos kelmasligi bilan yangi tafakkur tarzi shakllanadi.

Vaqt va makonga nisbatan tafakkur uslubining ko'plab turlari mavjud. Ular shaxsning (yoki biror-bir ijtimoiy guruhning) fikrlash tarziga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, ilmiy, ijodiy-badiiy, ilmiy, sofistik, metafizik, dialektik, eklektik, analitik, germenetik, avtoritar, liberal, formal-mantiqiy, sinergetik, ekologik va boshqa tafakkur uslublarini farqlash mumkin. Ta'kidlash joizki, tafakkur uslubining shakllanishi va namoyon bo'lishi ijtimoiy-tarixiy vaziyat bilan bir qatorda geografik, etnik xususiyatlarga ham chambarchas bog'liq. Masalan, o'zbek millatining tafakkur uslubi, ya'ni fikr yuritish san'ati nemis yoki ingliz millatining tafakkur uslubidan tubdan farq qiladi. Yoki o'rta asrlarda yashagan fuqaroning hozir hayot kechirayotgan fuqaro bilan fikrlash uslubi ham hech qachon bir xil, xatto o'xshash ham bo'lmasligi mumkin (vaholanki, aynan bitta hududga nisbatan tadqiq etilganda ham). Shu bois, tafakkur uslubi o'zgaruvchan xarakterga ega ekanligini doim yodda tutish lozim.

Tafakkur uslublarining mazmun mohiyatini tahlil qilish uchun avvalo, tafakkur uslubining nazariyalarini, ilmiy tavsifini, farazlarini /gipotezalarini/ va boshqa mantiqiy xususiyatlarini ko'rsatib o'tish lozim.

Nazariya - predmet to'g'risida bilimlarning xususan, muayyan tushunchalarining, qonunlarning, g'oyalarning, farazlarning sistemasidan iborat. Nazariya predmetning fundamental qonunlarini ochishga imkon beradi. Nazariya

qurilmasa, predmet to'g'risidagi turli bilimlarni birlashtirib bo'lmaydi.

Farazga keladigan bo'lsak, faraz shaklidagi fikr dastlab ehtimoliy xarakterga ega bo'lib, agar u asoslansa, haqiqatga aylanadi.

U yoki bu tushunchalarning tafakkur uslubining qaysi turiga mansubligini aniqlash – bu tavsif hisoblanadi. Masalan, materiya va uning atributlari haqidagi nazariyalar – falsafaning ontologiya bo'limiga tegishli. Haqiqat, nazariya, ilm, bilish tushunchalari esa, falsafaning gnoseologiya bo'limiga tegishli tushunchalardir.

Ilmiy tafakkurda gipoteza tushunchasi, o'rganilayotgan uslub shaklining vujudga kelish sabab va xususiyatlarini ochib beruvchi asosli taxminiy bilim shakli sifatida qo'llaniladi. «Tafakkur uslubining turli xillari xususiyatini aniqlash uchun har birini konkret tahlil qilish zarur. Shu maqsada, oddiy, ilmiy va falsafiy tafakkur uslublarini bir – biridan farqlash maqsadga muvofiqdir. Oddiy tafakkur uslub deganda, inson o'z ongida narsalar olamini so'z, jumlarlar orqali aks ettirib, ularni anglab olishda mavjud empirik dalillarga asoslanib, xatti – harakat yo'nalishini belgilashi tushuniladi. Ilmiy tafakkur oddiy tafakkur kabi amaliy harakatga muvofiq keladigan jarayonni ishlab chiqishda o'rganiladigan ob'ektlar haqidagi bilimlarni vositali aks ettirish va anglab olishni ifoda etadi. Falsafiy tafakkur uslub ilmiy uslubdan shu bilan farq qiladiki, moddiy olam va uning rivojlanish qonuniyatlarini aks ettirish hamda anglab olish muayyan dunyoqarash va metodologik printsiplar asosida amalga oshiriladi»¹

Endi ayrim tafakkur uslublarining mazmuni bilan tanishib chiqsak. Avvalo, ilmiy tafakkur uslubiga to'xtalsak. Ilmiy tafakkur uslub ilmiy gnoseologik funksiyasiga ko'ra murakkab jarayon bo'lib, mantiqiylik va tarixiylik muhim ahamiyat kasb etadigan, o'zida dunyoqarashlik, boshqaruvchilik, ilmiy bashorat qilish kabi tamoyillarni qamrab olgan, amal qilishiga ko'ra o'zgaruvchan xarakterdagi bilimdir [2].

Bu tushuncha bilimning metodologik parametrlari, ya'ni sub'ekt-ob'ekt, ob'ekt-sub'ekt munosabatlarini, nazariya va amaliyotning mutanosibligini, haqiqat, nazariya, uslub, dalil, ideallarning ilmiy til, ya'ni ijodning mantiqiy-gnoseologik jihati haqidagi tasavvurlarni mujassamlashtiradi. Taxlillar shundan dalolat beradiki, tashqi olam, tabiat va jamiyat, materiya va uning atributlari haqidagi ontologik tasavvurlar ijodning muhim metodologik omillari sifatida namoyon bo'ladi. Dunyoqarashlik va metodologik tamoyillar tizimi sifatida ilmiy tafakkur uslub ilmiy bilimga aniq tarixiylik shaklini beradi, uning tashqi va ichki tuzilishini tashkil qiladi. O'z navbatida u konkret shaxsiy bilim bilan uyg'unlashib ketadi. Shu ma'noda, o'zida mantiqiy va metodologik postulatlarini mujassamlashtirar ekan, ilmiy tafakkur uslub nafaqat bilimni tashkil qilish, balki u yoki bu muammoni xal qilishning yo'llarini ham aniqlash imkoniyatini beradi^[3].

Agar ilmiy tafakkur uslubini ilmiy matnda ifodalasak va qayd qilsak, unda u mantiqiy shaklga ega bo'lgan fikrlarning regulyativ tamoyillari tizimi sifatida namoyon bo'ladi va faqat olim faylasuflarning fan haqidagi nazariy mulohazalaridagina anglanadi. Shu ma'noda ilmiy tafakkur uslub aslida fundamental xarakterga ega bo'lib, barcha metodologik jihatlarida o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Shu sababga ko'ra u uzoq vaqt shakllanadi va bu ilmiy tafakkur uslubining umumiy modelini yaratishga yo'naltirilgan barcha harakatlar befoya ekanini ko'rsatadi. Zero, shu kungacha ob'ektning murakkabligini hisobga olmagan xususiy modellarining yoki ilmiy tafakkurning bir yo'nalish asosidagi modelini yaratishga qilingan harakat bilan kifoyalanilgan. Kelgusida metodologlar va fan tarixchilari ilmiy tafakkurning kategorial apparatini, uning tasnifini yanada chuqurroq va kengroq ilmiy ot doirasida hal qilishi lozim bo'ladi. N.Shermuxamedovanning ta'kidlashicha, ilmiy tafakkur uslubining mohiyati fanning ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida rivojlanishi va ichki ilmiy jarayonlarning ahamiyatini tushungan holdagina to'liq anglanishi mumkin.¹ Shuning uchun, bir tomondan, ilmiy tafakkur uslubining rivojlanishi qanday omillar bilan bog'liqligini aniqlash, ikkinchidan esa, qanday qilib ijod orqali fanning falsafiy-metodologik asoslari mantiqiy omilga aylanib uni o'zgartirishini ilmiy asoslash lozim. Zero, bilish jarayonining vorisliyi, unda turli ziddiyatli jihatlarining namoyon bo'lishi,

metodlarning almashinib turishi kabi muhim tomonlar ilmiy tafakkur evolyutsiyasini tushuntira olmaydi, balki bu jarayonni qanday shakllanishini izoxlaydi xalos. O'z navbatida, ilmiy otlardagi faqat iqtisodiy-ijtimoiy va texnik ehtiyojlarning hisobga olinishi ham ilmiy tafakkur uslubining falsafiy va metodologik tamoyillari o'zgarishlarining sabablarini izohlab bera olmaydi. Shu ma'noda fan taraqqiyotida rivojlangan tuzilishga ega bo'lgan ilmiy tafakkur uslub ob'ektiv reallikni yanada chuqurroq va kengroq anglashga yo'naltiriladi hamda muayyan natijalarga erishadi. Shu bilan birga, ilmiy tafakkur uslub qandaydir aniq bilimlar, anglab olingan haqiqatlar doirasi bilan chegaralanmaydi, balki doimo o'z davrining izlanuvchanlik ruhini mutaxassis va larning yangilikka intilishi jarayonida namoyon qiladi. Bu esa, ilmiy tafakkur uslubining yashirin tarzda namoyon bo'lish jarayonini ifodalaydi. Fanda yagona qoidaga rioya qiluvchi, barcha sohalar uchun bir xil ilmiy tafakkur uslubining umumiy shakli mavjud bo'lmaydi. Chunki fanda doimo ilmiy tafakkurning yangi elementlari shakllanadi va shu sababga ko'ra bu jarayon doimo ziddiyatli xarakterga ega bo'ladi. Yana bir muhim tafakkur uslub bo'lmish - ijodiy tafakkur o'zagini yaratuvchanlik tashkil qiladi. Bunda keng ma'noda ob'ektga sub'ektning faol, izchil ta'siri tushuniladi. Mazkur ta'sir jarayonida inson o'zini qurshab turgan muhitni ijobiy tomonga o'zgartiradi, shu paytgacha ko'rilmagan, bilinmagan, o'rganilmagan, g'royib va jozibali yangilikni yaratadi yoki kashf etadi. Inson ijodiy tafakkur jarayonida ham dunyoni o'zgartiradi, xam o'zini yaratuvchi, ijodkor, kashfiyotchi sifatida kashf etadi.¹

Shaxs ijodiy tafakkur vositasida yangilik yaratadi, xilma-xil muammolarni qo'yadi va hal qiladi, ularning o'ziga xos yechimlarini, ba'zan bunday yechimlarga nisbatan betakror yondashuvlar, usullar, metodlar topadi. Yoshlarda ijodiy tafakkurni shakllantirib borish muhim axamiyatga ega bo'lib, ularning bunyodkorlik faoliyatini rag'batlantiradi. Ijodiy tafakkur uslub voqea-hodisalarni o'zaro taqqoslagan holda kengroq mushoha yurgizish san'atidir. Teran fikr ham ijodiy tafakkurni boyituvchi asosiy omildir.²

Inson tafakkurga ega, aqlli va ayni paytda o'z tafakkuri va aqlini ijodiy rivojlantirishga qodir ijtimoiy mavjudotdir. Inson faoliyatidagi barcha jihatlar oxir-oqibat insonning aqli, tafakkurining ijodiy xarakteriga, ijtimoiyligiga borib taqaladi. O'z navbatida insonning ijtimoiyligi va aqli, ijodiy tafakkuri uzviy o'zaro bog'liq, bir birini taqozo etadi. Inson tafakkurining ijodiy xakteri uning ijtimoiylashuvini ta'minladi. Tafakkur ijodiy yondoshilgan holda rivojlangan sayin insonlararo aloqalar sifatii bosqichga ko'tarila boshlandi. Insoniyat tadrijiy taraqqiyoti inson bilimlari, tafakkurining, ijodiy rivojlanayotganligi hamda ushbu asoslarda ijtimoiy faoliyatining samarali mohiyat kasb etayotganligi natijasidir. Insoniyat o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy murakkabliklarni bartaraf etishda tafakkurining ijodiy xakteri sabab bo'lib, qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llarini topdi. Hamda buyuk ilmiy va badiiy kashfiyotlarni amalga oshirdi, ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirib, umuminsoniy taraqqiyotni ta'minladi.

Ijodiy tafakkur uslubining samarali faoliyatini ta'minlash jamiyat ongini, tafakkurini milliy mentalitetga yot bo'lgan aqidaparastlikning turfa ko'rinishlaridan saqlashda zaruriy omildir. Shuningdek, ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan yangilanishlar, islohotlar mazmunini, maqsadini teran idrok etib, ularning amaliy natijasiga erishish uchun o'z faoliyatlarini yo'naltirish ijodiy tafakkur tarzini taqozo etadi. Tafakkurning ijodiy xakterini ta'minlagan holda global axborotlashuvning ijtimoiy hayotning barcha sohalariga jadallik bilan kirib kelayotgan bir sharoitda yoshlarda g'oyaviy immunitetni rivojlantirib, globallashtirish milliy axloqqa mos jihatlarini ijtimoiy ongga qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim mohiyatga ega. Shuningdek, kuchayayotgan raqobat, gegemonlikni da'vo qiluvchi ayrim davlatlarning g'oyaviy-mafkuraviy tazyiqlari, axborotlar xuruji, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi madaniy ekspansiyalar tahdidi sharoitida jamiyat a'zolari, jumladan yoshlar tafakkurining ijobiy mohiyatini barqarorlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Mustaqillik yillarida milliy tafakkurni shakllantirish muhim vazifalardan biri edi. Milliy tafakkur - milliy ongning aqliy faoliyat, amaliyot borasida namoyon bo'lishidir. Mustaqil

milliy, ijodiy tafakkur ham-ma'naviy kamolotning asosiy belgilaridandir. Yoshlarimiz ongida milliy manfaatlarni anglab yetish, himoya qilish va ularni amalga oshirish yo'llarini o'ylash milliy mustaqillik tafakkurining asosiy jihati hisoblanadi. Unga bevosita ta'sir qiluvchi omillar - millatning axloqi, ruhiyati, tarixiy an'analari, turmush tarzi, mehnat faoliyatining xususiyati, yo'nalishlari va hokozolardir. Milliy tafakkur uslubi asosida yuksak ma'naviyatli shaxslarni voyaga yetkazish – davlatimiz siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir. Yoshlarda mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor, g'urur bo'lmas ekan, ularda fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlar ham rivojlanmaydi. "Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi, o'zining qadr-qimmatini angalaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo'lib emas, aksincha-o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z ma'suliyati b-n, ongli tarzda, ozod va hur inson bo'lib yashaydi". Ma'naviy kamolotning mezonlaridan biri bo'lgan milliy tafakkur uslubi serqirra va keng qamrovlidir. Uning asosiy funktsional xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

-o'z Vatanining istiqboli va mustaqilligi uchun qayg'urish;

-o'z xalqi, yurti qadr-qimmatini, sha'ni, or-nomusini anglash va buni himoya qilish;

- iste'dodi, bilimi, mehnati, imkoniyatlarini va zarur bo'lsa o'z jonini ham yurt istiqboli, baxti uchun baxshida etish;

-xalqining farovonligi va tinchligi uchun qayg'urish va boshqalarni mustaqillik tafakkuri o'z ichiga qamrab oladi.

Ajdodlarimiz bizga qoldirgan boy va muqaddas ma'naviyat - bu mustaqillikdir. Ana shu ma'naviyatni asrab-avaylash nafaqat har birimizning burchimiz, balki davlat ahamiyatiga molik bo'lgan muhim vazifadir. Bu muhim vazifani amalga oshirish naqadar zarurligini butun xalqimiz va yoshlarimiz ongiga singdirish esa juda katta ahaiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tafakkur uslubi ya'ni fikrlash san'atining o'ziga xosligi tarixi insonning ongli faoliyat yurita boshlagan davriga borib taqaladi. Shu jihatdan, tafakkur uslubi masalasi falsafaning bilish sohasidagi eng qadimiy va har doim dolzarb ahamiyatga ega masalalaridan biridir. Uning mazmuni, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini keyingi paragraflarda yanada chuqurroq tahlil qilamiz.

ADABIYOTLAR

1. Туленов Ж. Фалсафий маданият ва маънавий камолот. -Т.: Мехнат, 2000. –Б.60–63.
2. Шермухамедова Н. Стиль научного мышления. –Т.: Университет, 2004. –С.74.
3. Курбонова Л. Ижодий тафаккурнинг фалсафий-методологик тахлили. Фалс.ф.номзоди Диссер. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007. –Б. 43.



Alisher MADRAHIMOV,
Central Asian medical university o'qituvchisi, PhD
E-mail: alishermadrakhimov.85@gmail.com

Tohir MUKARAMOV,
Central Asian medical university o'qituvchisi Assistant
E-mail: mukaramov2020@gmail.com

Qoraqalpoqiston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti katta o'qituvchisi, PhD M.U. Berdimurodov taqrizi asosida

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARDA TARBIIYA MUHITINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Аннотация

Yoshlar o'rtasidagi zo'rvonlik dunyo bo'ylab tobora ortib borayotgan tashvishga sabab bo'lib, ko'pincha jismoniy zarar, ruhiy zarar va ijtimoiy beqarorlikka olib keladi. Ushbu maqola yoshlar o'rtasida zo'rvonlikning oldini olishning turli usullarini o'rganadi, erta aralashuv strategiyalari, ta'lim, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari va ota-onalar va maktablarning roliga e'tibor qaratadi. Adabiyotlarni tahlil qilish va amaliy tadqiqotlar orqali zo'rvonlikning oldini olishning samarali usullari, shuningdek, ushbu muammoni hal qilish uchun siyosatni takomillashtirish bo'yicha takliflar aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Zo'rvonlik, jamiyat, tuzilma, yoshlar, bulling, bullir, jabrlanish, o'smir, tajavuzkorlik, huquqbuzar, viktin xulq, konformistik ruh, tahdid, shantaj, haqorat, kamsitish.

ВАЖНОСТЬ СОЗДАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация

Насилие среди молодежи становится все более серьезной проблемой во всем мире, часто приводя к физическому вреду, психологическому ущербу и социальной нестабильности. В этой статье рассматриваются различные способы предотвращения насилия среди молодежи, уделяя особое внимание стратегиям раннего вмешательства, образованию, системам социальной поддержки и роли родителей и школ. С помощью анализа литературы и тематических исследований определяются эффективные методы предотвращения насилия, а также предложения по улучшению политики для решения этой проблемы.

Ключевые слова: Насилие, общества, структура, молодое поколения, буллинг, стрдание юноши, нападение, правонарушения, виктомная право, комфромистическая дух, угроза, шантаж, оскорбление, унижение.

THE IMPORTANCE OF ORGANIZING A NURTURING ENVIRONMENT IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Annotation

Violence among young people is a growing concern worldwide, often leading to physical harm, psychological damage, and social instability. This article explores the various means of preventing violence among youth, focusing on early intervention strategies, education, social support systems, and the role of parents and schools. Through literature analysis and case studies, effective methods for violence prevention are identified, along with suggestions for policy improvements to address this issue.

Key words: Violence, society, youth, bullying, victimization, teenager, aggression, offender, victim behavior, conformist spirit, threat, blackmail, insult, discrimination.

Kirish. Bulling hodisasi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida yon-atrofdagi ijtimoiy munosabatlar, xususan, o'zi paydo bo'lgan va rivojlanayotgan turli maishiy muhit bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Amerikalik tadqiqotchilar D.Kornell va K.Bredshauler maktab muhitida zo'rvonlik holatlarini kamaytirish oson ish emasligini qayd etib maktab muhitini yaxshilash hamda unda zo'rvonlikka munosabatni o'zgartirishga qaratilgan kompleks va tizimli chora-tadbirlar talab qilishini aniqlashgan, natijada maktabda uzluksiz ravishda bullingga qarshi samarali kurash olib borilishi ushbu salbiy hodisani 20–25%gacha kamayishini isbotlab berishgan[15].

Adabiyotlar tahlili. Binobarin, "ta'lim muhitini ijtimoiy, madaniy, shuningdek, ta'lim muassasasidagi maxsus tashkil etilgan psixologik va pedagogik sharoitlar majmui sifatida tavsiflash mumkin, ularning shaxs bilan o'zaro ta'siri natijasida individning shakllanishi sodir bo'ladi"[14]. Demak, maktabda o'quvchining shaxs bo'lib shakllanishiga ta'sir qiluvchi barcha ijtimoiy omillar majmui ta'lim muhitini tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim muhitining muhim qismi tarbiya muhitidir. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga maqsadli, tartibli va tizimli ta'sir ko'rsatadigan, ularni zamonaviy jamiyat va madaniyatga qo'shilishida hissa qo'shadigan, ta'lim vazifalarini bajaruvchi, ongli yoki ongsiz shakldagi turli ijtimoiy munosabatlar va moddiy obyektlar majmui"dir[13]. Rus tadqiqotchi Y. Tkachevning fikricha, "Tarbiya muhiti tuzilmasi maktabning moddiy makoni va

buyumlari, tevarak-atrofdagilarning xulq-atvori, turli hodisalarga asoslangan axborot va madaniy muhit majmuidan iborat".

Tadqiqot metodologiyasi. Darhaqiqat, tarbiyaviy muhit bir necha darajadan iborat bo'lib, eng quyi darajasi esa bevosita subyektni o'rab turgan atrofdagi ijtimoiy muhit hisoblanadi. Bu ko'proq, eng avvalo, uning oilasi, so'ngra maktab va mahalladagi muhit bilan belgilanadi.

2021-yil aprel-may oylarida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko'ra, ta'lim muassasasida bulling ehtimoli to'g'ridan-to'g'ri va juda kuchli tarzda oiladagi ijtimoiy-psixologik muammolar, xususan, oiladagi zo'rvonlik munosabatlari, ya'ni ota-onalar bilan iliq munosabatlar yo'qligi, yaqin qarindosh (aka-singil, opa-uka)larda o'zaro mehrsizlik va o'zaro birlashish quyi darajada ekanligi, bolaning ustidan qat'iy nazorat o'rnatilgani, unga yordam va qo'llab-quvvatlash yetishmasligi kabi muammolar mavjudligi aniqlandi.


Tahlil va natijalar. Xususan, oilada ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va ularning farzandlariga nisbatan sodir etayotgan zo'rvonligi natijasida bolalar asta-sekin huquqbuzarga aylanish ehtimoli yuqori bo'lmoqda. Bunda kattalar tomonidan qattiq nazorat ostida bo'lgan bola aksariyat holatda maktabda zo'rvonlik qilish orqali o'zini namoyon etish hissini qondirishga harakat qilishi kuzatildi. Masalan, tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning har 3 nafaridan biri (34,0%) maktab

o'quvchilari o'rtasidagi zo'rvonlikning asosiy sababi sifatida "o'zini ko'rsatish istagi"ni hamda har 4 nafaridan biri (26,6%) "alamini boshqalardan olish istagi" kuchli ekanligini qayd etilgan. Demak, mamlakatimizda bulling holatlariga ota-onalarda bola tarbiyalash mahorati yetishmayotgani asosiy omillardan biri bo'layotganligini ko'rsatmoqda.

Shu bois oiladagi salbiy omillar bolada boshqa insonlar bilan buzg'unchi munosabatda yoki unga qarshi kayfiyatda bo'lishiga ta'sir etuvchi eng asosiy sabablardan biriga aylangan, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Zo'rvonlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi muammolari mavjud oilada ulg'aygan bola, aksariyat holatda, zo'rvon yoki jabrlanuvchiga aylanishi kuzatiladi.

1-rasm


Respondentlarning fikriga ko'ra, oiladagi quyidagi omillar bullingni kelib chiqishiga sabab bo'ladi



O'quvchilarning maktabdagi bullingga aralashib qolishiga ota-onalar ta'siri yuzasidan respondentlarning fikri so'ralganda, ularning har 3 nafaridan biri 28,2% kattalarning bolaga nisbatan qo'pol va salbiy muloqoti, 28,2%i haqorat va haddan ziyod tanqid, 26,5%i xohish va ehtiyojlarga qarshi bo'lish kabi omillar

2-rasm

Yoshlarning fikriga ko'ra, maktab o'quvchi-yoshlari o'rtasida bullingning shakllanishiga kattalarning ta'siri qabday?



Sizningcha, tajovuzkor o'quvchining xulq-atvoriga oiladan tashqari atrof-muhitdagi omillar, jumladan, internet, do'stlar va tanishlar ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Respondentlarning fikriga ko'ra, Maktab o'quvchilarning asosan ko'pchiligi 77,3 %i internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida zo'rvonlikni targ'ib qilishning asosiy vositasi, deb hisoblasa, 9,3 %i – radio va televidenie, 5,3 %i – gazeta va jurnallar, 6,2 %i boshqa manbalarni ko'rsatishgan. Bundan tashqari, respondentlarning deyarli har 4 nafaridan biri (25 %) internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tajovuzkor g'oya va mafkura singdirilgan turli video yoki yangiliklarni tomosha qilishi ma'lum bo'ldi. Demak, bugungi kunda zo'rvonlikning asosiy tashviqoti internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilmoqda.


Respondentlarning yoshlar orasida bulling kelib chiqishiga oiladagi qaysi omillarning ta'siri yuqori bo'lishi bo'yicha fikri o'rganilganda, ularning 30,5 %i oilada muhabbatning yetishmasligi, 29,7 %i oilaviy nizo (janjal), 16,6 %i oiladagi ichkilikbozlik va giyohvandlik, 10,6 %i yosh oila a'zolarining hissiyotlariga befarqlik, 8,6 %i oilaning to'liq emasligi va 3,9 %i boshqa omillarni sabab sifatida ilgari surishgan (1-rasm). Demak, o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning salbiy xatti-harakatlari aksariyat holatda bolada zo'rvonlikka moyillikni shakllanishiga sabab bo'lishi aniqlandi. Xususan, bulling ko'pincha bolani haddan ziyod qattiq tartibda tarbiyalash va uning ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirish kabi holatlarning doimiy tarzda takrorlanib turadigan oilalarda kelib chiqishi kuzatiladi.

salbiy oqibatlarga olib kelishini ta'kidlaganlar (2-rasm). Demak, bolaga nisbatan qo'pol salbiy munosabat, uni haqorat va haddan ziyod tanqid qilish, bolaning o'z xohishi va ehtiyojiga qarshilik ko'rsatish, o'z navbatida, unga salbiy ta'sir etib, turli zo'rvonlik sodir etilishiga sabab bo'lishi aniqlandi.

Ushbu fikrimizning tasdig'i sifatida internet va ijtimoiy tarmoqlarni yoshlar orasida zo'rvonlikni targ'ib qilishning asosiy vositasi sifatida qizlar o'g'il bolalarga nisbatan ko'proq qayd etilgan. Xususan, tadqiqotda ishtirok etgan o'g'il bolalarning 73,1 %i shu javobni belgilagan bo'lsa, qizlarning 81,6 %i bugungi kunda maktab o'quvchi-yoshlari o'rtasida zo'rvonlikni targ'ib qiluvchi eng asosiy vosita sifatida internet va ijtimoiy tarmoqlarni ko'rsatishdi.

Shuningdek, respondentlarning deyarli har uch nafaridan biri (31,7%) yoshlar, ayniqsa, maktab o'quvchilari orasida bulling holatlari internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida sodir bo'lishini belgilagan bo'lishsa, yana shunchasi (31,7%) uning yaqin atrofdagalar, ya'ni do'stlari va tengdoshlari bunga ta'sir ko'rsatishini qayd etishgan. (3-rasm)

"Sizningcha, o'quvchining xulq-atvoriga qaysi omillar ta'sir etib zo'rovonlikka olib keladi?" degan savolga respondentlarning javoblari haqida ma'lumot (% hisobida)



3-rasm


O'zbekistonning umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga nisbatan bulling holatlari 11–12 yosh oralig'ida boshlanadi, 13–15 yosh oralig'ida esa tez-tez uchrab, hatto, 18 yoshgacha davom etishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra, har bir maktabda yolg'iz yoki guruh bo'lib yuruvchi tajovuzkor yoshlar borligi kuzatilib, so'rovnomma ishtirokchilarining deyarli yarmi (44%) himoyaga va qo'llab-quvvatlashga muhtoj o'quvchilar borligini belgilashgan.

Respondentlarning bulling bo'yicha tushunchalari o'rganilganda, ushbu tushunchadan xabardorligi aniqlandi.

4-rasm

Jumladan, umumta'lim maktab o'quvchilarining 1/3 qismidan ziyodi (38,5%) bulling, deb insonlarga va hayvonlarga nisbatan beparvo munosabatni tushunishi, 28,2 %i jismonan ustun bo'lgan o'quvchilar o'zidan zaifroq tengqurlariga zo'rovonlik o'tkazishi va yana shunchasi (28,2%) jismonan ustunlikdan zavqlanish hissi, deb hisoblaydi. Shu bilan birga respondentlarning 5,2 %i bulling, deganda haqorat, do'q-po'pisa, tuhmat, tahdid, bezorilik kabi tushunchalarni keltirishgan (4-rasm).

Yoshlarning bulling xaqidagi tushunchasi



Mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlash va ayniqsa, yosh avlodda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga doir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishga qaratilgan "Besh muhim tashabbus"lari doirasida joylarda tashkil qilingan sport to'garaklari uchun 2021-yilning birinchi yarim yilligida 72180 dona sport inventarlari olib berilgan, ya'ni ushbu maqsad uchun turli manbalardan 15 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgan.

E'tiborli jihati "U-Report" tomonidan 2018-yilda "Maktabga xavfsiz qaytish" mavzusida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari bilan bugungi kundagi natijalarda deyarli farq kuzatilmagan (ta'lim muassasalarining 33 %i yoshlar bulling guvohi bo'lgan). Shuningdek, YNESKOning 2016-yilgi maktablarda bullingga oid global hisoboti natijasiga kura, zo'rovonlik ta'siriga uchragan o'quvchilarning ulushi mamlakatlar bo'yicha umumiy o'quvchilar soni 10 %idan 65 %igacha o'zgarib turar ekan[16].

Sobiq mustamlaka davrida mavjud bo'lgan totalitar tuzum turli tizimlarni vujudga keltirgan edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ham ijtimoiy hayotimizda ushbu yopiq tizimlar maktablarda saqlanib qolishi kuzatildi. So'nggi yillardagi o'zgarishlar natijasida Sh. Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan jamiyatdagi ochiqlik siyosati va uni ochiq tizimga aylantirishga bo'lgan tub islohotlar turli muammolar, ayniqsa, yoshlar masalasini hal etish davr talabiga aylandi. O'zbekiston maktablaridagi bulling holatlarini aks ettiruvchi ijtimoiy tarmoqlardagi turli xabarlar aslida yoshlar orasidagi mavjud vaziyatni ko'rsatib turibdi. Buni o'tkazilgan so'rovda ishtirok etganlarning aksariyati ta'lim muassasalarida bulling holatlari yuz berib turishini qayd etgani fikrimiz dalilidir.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijasiga ko'ra, birinchidan, o'smir-yoshlarda o'z tengdoshlaridagi boshqalardan ajralib turishga intilishi, o'zini ko'rsatish istagi ko'proq o'zaro kelishmovchilik va turli zo'rovonliklarga sabab bo'lmoqda. Bu, bir tomondan, o'sha yoshdagilar uchun psixologik xos xususiyat bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, mustamlaka davri va undan keyingi mustaqillik yillarida ham barcha uchun umumiy bo'lgan o'rta ta'lim tizimidagi stereotiplar saqlanib kelinayotganligi bilan ham bog'liq. Ya'ni, sobiq ittifoq davridagi o'rta ta'lim tizimida barcha o'quvchilar yagona davlat maktablarida o'qishi, xususiy maktablar shakllantirishga yetarli e'tibor berilganligidir. Natijada jamiyatdagi ta'lim muassasalarida chuqurlashib borayotgan raqobatlashuv maktablarda ham aks etib, xususiy maktablar juda kamligi va nihoyatda, qimmatligi sabab turli tabaqalarga mansub oila farzandlari bitta maktabda, hatto, bir sinfda o'qishga majbur bo'lishmoqda. Ikkinchidan, iqtisodiy imkoniyati yuqori bo'lgan oiladagi o'quvchi esa o'qituvchilarning barcha talablarini bajara olish imkoniyatiga ega ekanligi oxir oqibatda maktablarda korrupsiya holatlarini paydo qilib, o'quvchilarning bilimiga nisbatan emas, balki iqtisodiy imkoniyatiga qarab turlicha yondashishni shakllantirib qo'ydi. Bu o'z navbatida, jamiyatdagi ushbu ijtimoiy adolatsizlikni chuqur anglamagan o'smir-yoshlarda iqtisodiy ahvoli yuqori bo'lgan tengdoshlariga nisbatan o'ch, qasos olish va alamzadalikni keltirib chiqarmoqda. Bizningcha, keyingi yillarda xususiy maktablar tizimini keng rag'batlantirib borilishini qo'llab-quvvatlagan holda tabaqalashgan o'rta ta'lim xizmatini joriy etish orqali o'quvchilar o'rtasidagi zo'rovonliklarni bartaraf etish mumkin, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, bugungi kunda mamlakatimiz maktablarida o'quvchilar o'rtasidagi zo'rovonlik (bulling) holatlarini yuzaga kelishiga maktab va oila muhiti hamda o'quvchi-yoshlarning o'z shaxsiy xususiyatlari ham sabab bo'lmoqda. Demak, ushbu jihatlarni e'tiborga olgan holda kompleks, manzilli va maqsadli

profilaktika chora-tadbirlarini tizimli qo'llash o'quvchilar oydinlashdi.
o'rtasida zo'ravonlik ko'rsatkichlarini kamaytirishgaxizmat qilishi

ADABIYOTLAR

1. Большой толковый социологический словарь. [хтпс://гуфо.ме/дист/социал_дист/Структура](https://gufo.me/дист/социал_дист/Структура)
2. Мертон Р.К. Социальная теория и социальная структура / Пер. с англ. Э.Н. Эгоровой и др. – М.: АСТ, Хранитель, 2006. - С 873.
3. Афанасьева О. Понятие и содержание криминального насилия // Уголовное право. 2014, №5. -С.13-15;
4. Narbaeva T.K. O'zbekistonda хотин-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning innovatsion modeli (sotsiodiskursiv tahlil). Monografiya. – Toshkent: "Tasvir", 2020. -B. 115–116.
5. Ziyaeva X.O. Maishiy zo'ravonlikka uchragan хотин-qizlarni ijtimoiy himoya qilish samaradorligini oshirish mexanizmlari. Sots. f.f.d. (PhD)..... diss. – Toshkent: 2021. -B. 23–24.
6. Быковская Э. Ф. Педагогическое насилие: теория и практика // Философия образования. 2006. №1. -С. 221–229.
7. Петросянц В.Р. Психологическая характеристика старшеклассников, участников буллинга в образовательной среде, и их жизнестойкость. Автореф. Дисс..... канд. псих.наук. – Санкт-Петербург: 2011. -С. 11.
8. Cornell D., Bradshaw C. From a Culture of Bullying to a Climate of Support: The Evolution of Bullying Prevention and Research. // <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.17105/spr-15-127.1?scroll=top&needAccess=true>
9. Мудрик А.В., Петрина М.Г. Социально-педагогическая виктимология как отрасль знания // Вестник ПСТГУ ИВ: Педагогика. Психология. 2016. - Вып.№1 (40). -С. 38–45.
10. Yunusov A.B. O'smir-yoshlarda ijtimoiy deviantlik holatlarining sotsiologik xususiyatlari. Sots.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Т.: O'zMU, 2004.;
11. Madrahimov A. O'rta maktablarda o'smirlar o'rtasidagi zo'ravonlik (BULLYING) holatlarini oldini olishning sotsiologik tahlili. Sots.f.f.d (PhD) ilm. darajasini olish u-n tay. diss. Т., O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi DBA, 2024.
12. School violence and bullying: global status report. UNESCO. Assistant Director-General for Education, 2010-2018 (Qian Tang). Kitob nomi va yili, beti? // <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000246970>
13. Ткачева Ю.В. Воспитательная среда школы: сущность и структура // [file:///C:/Users/User/Downloads/vospitatelnaya-sreda-shkoly-suschnost-i-struktura%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/vospitatelnaya-sreda-shkoly-suschnost-i-struktura%20(1).pdf)
14. Тарасов С.В. Образовательная среда: понятие, структура, типология. // <https://cyberleninka.ru/article/n/obrazovatelnaya-sreda-ponyatie-struktura-tipologiya>
15. Cornell D., Bradshaw C. From a Culture of Bullying to a Climate of Support: The Evolution of Bullying Prevention and Research. // <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.17105/spr-15-0127.1?scroll=top&needAccess=true>
16. School violence and bullying: global status report. UNESCO. Assistant Director-General for Education, 2010-2018 (Qian Tang). Kitob nomi va yili, beti? // <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000246970>



UO*K:797.1213.00.04

Islambek MAMBETNAZAROV,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali ilmiy ishlar, fan va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari
E-mail: Islambekmambetnazarov95@gmail.com

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti L.Sobirova taqrizi asosida

AKADEMIK ESHKAK ESHUVCHILARNI UZOQ VAQT DAVOMIDA ISH FAOLIYATIDAGI TEXNIK HARAKATLARNING BULUZILISHINI TAHLIL QILISH YO'LLARI

Аннотация

Ushbu maqolada bir soatlik eshkak eshish davomidagi eshish profili va kuch egri chizig'i xususiyatlarini oltita vaqt oralig'ida eshish tempi, eng yuqori kuch paydo bo'lgandagi temp, eshish oxiridagi xarakat tezligi, eshish uzunligi hamda texnikasidagi o'zgarishlarni zamonaviy usullar orqali aniqlash xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mashg'ulot, ish faoliyatidagi, vaqt oralig'i, eshish tempi, eng yuqori kuch paydo bo'lgandagi temp, eshish oxiridagi xarakat tezligi, eshish uzunligi, texnika o'zgarishlari, Concept 2, kuch ko'rsatkichlari.

МЕТОДЫ АНАЛИЗА РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКИХ ДВИЖЕНИЙ У АКАДЕМИЧЕСКИХ ГРЕБЦОВ ЗА ДЛИТЕЛЬНЫЙ ПЕРИОД ВРЕМЕНИ

Аннотация

В данной статье приведены сведения о характеристиках профиля кручения и силовой кривой за один час кручения, темпе кручения за шесть временных промежутков, темпе при появлении максимальной силы, скорости движения в конце кручения, длительности кручения и особенностях определения изменений в технике с помощью современных методов.

Ключевые слова: Тренировка, рабочая деятельность, временной интервал, темп работы, темп возникновения максимальной силы, скорость движения в конце работы, продолжительность работы, изменения техники, Concept 2, показатели силы.

METHODS FOR ANALYZING THE DEVELOPMENT OF TECHNICAL MOVEMENTS IN ACADEMIC ROWERS OVER A LONG PERIOD OF TIME

Annotation

In this article, the rowing profile during one-hour rowing and the dates of the changes in technique of rowing tempo, maximal thigh tempo, rowing movement speed, rowing length and technique changes in six time periods of rowing equipment hours have been presented.

Key words: Performance, performance, time return, pace of riding, pace in the industry with the highest strength found, speed at the end of riding, length of riding, technique changes, Concept 2, strengths.

Kirish. Dunyoda eshkak eshish sporti rivojlangan mamlakatlarning mutaxassislari tomonidan ushbu sport turi bilan shug'ullanadigan sportchilarni tayyorlashning zamonaviy vosita va usullarini izlash bilan bir qatorda, jamoaviy qayiqalar ekipajini tashkil etadigan sportchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir samaradorligini oshirish, jismoniy, texnik, taktik, psixologik va nazariy tayyorgarlik turlarining optimal nisbatlarini izlash hamda sport natijalarini yaxshilashga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda [1]. Hozirgi vaqtda akademik eshkak eshish sportida to'rt kishilik va sakkiz kishilik ekipajlarni shakllantirishda sportchilarning individual xususiyatlarini va tayyorgarlik tizimida zamonaviy vosita va uslublarini qo'llagan holda sportchilar tayyorgarligini tashkil qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va ular orqali natijadorlikni oshirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Akademik eshkak eshuvchilarni uzoq vaqt davomida ish faoliyatidagi texnik xarakterlarning buluzilishini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari.

1. Eshkak eshuvchilarni oltita vaqt oralig'ida texnikasidagi buzilishlarni o'rganish va tahlil qilish.

2. Akademik eshkak eshuvchilarni uzoq vaqt davomida ish faoliyatidagi texnik xarakterlarni o'zgarishini tahlil qilish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Bir soat davomida olingan har bir eshkak eshishda, maksimal kuchi, eshish davomida bajarilgan ish, quvvat (bajarilgan ishning eshish vaqtiga nisbati), eshish uzunligi (dastaning maksimal gorizontals harakati sifatida aniqlangan) va dasta balandligi tahlil qilindi. Texnikani nazorat qilishning barcha natijalari harakatlarni qayd qilishning ikkita instrumental usuli (ularning alohida parametrlari) yordamida olingan.

Ikkala usul ham akademik eshkak eshish ergometrida ro'yxatdan o'tkazishga qaratilgan.

Ularning har biriga xos bo'lgan texnologik afzalliklari va kamchiliklari ergometrida eshkak eshish texnikasini takomillashtirish bo'yicha biz taklif qilgan yechimda ularning o'rnini belgilab berdi. Biz tomonimizdan foydalanilgan elektron qurilmalari (videokamera, shaxsiy kompyuter) va dasturiy mahsulotlar (VideoPoint, EditStudio, Excel) yordamida amalga oshirilgan videotahlil texnologiyasi eshkakchining tana nuqtalari harakatining ikki tekislikdagi fazoviy va tezlik tavsiflarini olish imkonini beradi. Har qanday kontaktsiz texnologiyada bo'lgani kabi, nuqtalar ixtiyoriy tanlanadi va shuning uchun ular har qanday murakkablikdagi traektoriya bo'ylab harakatlarni qayd qilishlari mumkin.

Ushbu usulning asosiy kamchiligi, ortiqcha ma'lumotlarga ega massivlardan tahlil uchun foydali ma'lumotlarni tanlash zarurati hisoblanadi. Bunday operatsiyalar qo'lda amalga oshirilganligi sababli tahlil natijasini olish vaqti va uning xatoligi ortadi. Ushbu metodikani takomillashtirish birini to'ldiruvchi ikkita yo'nalishga ega bo'lishi mumkin. Bu birlamchi videotahlil massivining hajmini sezilarli darajada oshiradi, ammo o'lchash xatoligini kamaytiradi. Shuningdek, 1 mln. va undan ortiq elementlarni o'z ichiga olgan yorug'lik sezgir matritsalariga ega raqamli videokameralardan foydalanish maqsadga muvofiq, bu esa videodasturni kompyuterda qayta ishlashni tezlashtiradi va kadr diskretizatsiyasini kamaytiradi (1152 864 nuqtaga va 352 288 nuqtaga nisbatan ko'proq) analog videokamera uchun). Ikkinchi yo'nalish videoma'lumotlarga ishlov berishning dasturiy vositalarini takomillashtirish bilan bog'liq. Bizning ilovamizda dasturiy ta'minot videotasvirga olish vositalarini tanlashda cheklovchi omil hisoblanadi, chunki u videoqator tahlilini avtomatlashtirishning past darajasini

ta'minlaydi. Shuning uchun qo'lda ishlov berishni saqlab qolgan holda yuqori chastotali videotasvirdan foydalanish qo'lda ishlov berish vaqtini sezilarli darajada oshiradi va shuning uchun natijalarning aniqligini yetarli darajada oshishiga olib kelmaydi. Shunga qaramay, biz ushbu videotahlil usulini akademik eshkak eshish bo'yicha murabbiy uchun eng qulay, katta moliyaviy va vaqt xarajatlarini, kompyuter va video texnologiyalarning chuqur bilimlarini talab qilmaydigan, ammo qaror qabul qilish uchun mutaxassisni foydali ma'lumotlar bilan ta'minlashga qodir bo'lgan usul sifatida taklif qilamiz. Eshishning turli bosqichlari, jumladan, maksimal kuchiga erishish va harakatlanish bosqichining tugash vaqtlari qayd etildi. O'rganilgan kinematik o'zgaruvchilar son sezgichi (sonning bukilishi va yozilishini ko'rsatuvchi), bel-dumg'aza sezgichi (chanoqning old tekislik atrofida aylanishini ko'rsatuvchi) va ko'krak-bel sezgichi (umurtqa pog'onasining bel qismini bukilishi va yozilishini ko'rsatuvchi) burchaklarini eshish boshlanishi va tugashi holatlarida hamda maksimal burchak va eshish holatida o'z ichiga oladi. Shuningdek, bel-dumg'aza qismi harakatining ko'krak-bel qismi harakatiga nisbati qayd etildi. Bu yerda 1 qiymati tananing har bir qismining oldinga yoki orqaga harakatiga teng hissasini ko'rsatadi, birdan katta qiymat bel qismi harakatining ustunligini, 1 dan kichik qiymat esa chanoq harakatining ustunligini bildiradi. Ushbu nisbat eshish boshlanishi va tugashi holatlarida aniqlandi. Eshkakchining ish parametrlarini ergometrdan qayd etishning ikkinchi usuli kontaktili texnologiyalarga tegishli. Ularning o'ziga xosligi shundaki, o'rganilayotgan tizimning ma'lum nuqtalarida o'rganilayotgan obyekt o'zaro ta'sir qilishi kerak bo'lgan datchiklar o'rnatilgan. Bizning holatimizda (eshkakchining kiyim yoqasida potensiometr ipini mahkamlash bundan mustasno) barcha datchiklar uning harakatlarini ergometr elementlari (banka, dasta) orqali bilvosita qayd qiladi. O'lchashlarning yetarlicha yuqori aniqligi signalning 12 razryadli amplituda diskretizatsiyasi (mantiqiy qiymatlar diapazoni - 0 dan 4095 gacha) va datchiklarning 25 Gs so'rov chastotasi bilan ta'minlanadi. Maxsus kompyuter dasturi datchiklardan olingan ma'lumotlar massivlarini kerakli fizik kattaliklarga keltirish va ularni juda kichik vaqt kechikishi bilan vizualizatsiya qilish imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu usulning afzalliklari o'lchashlarning yuqori aniqligi va natijalarni tezda olish imkoniyatidir (ular real vaqt rejimida olinishiga

1-jadval

6 ta vaqt oraliqlarida kuch egri chizig'i va zarbalarni o'zgarish tahlili

Vaqt oraliq'i	A (2-7 daq)	B (14-19 daq)	C (24-29 daq)	D (32-37 daq)	E (44-49 daq)	J (54-59 daq)
Eshish tempi	17,9 (.4)	18,1 (.6)	18,2 (.7)	18,4 (.7)	18,5 (.7)	18,7 (.6)
Cho'qqi kuch (N)	904 (125)	900 (128)	892(129)	887 (127)	899 (131)	888 (118)
Eng yuqori kuch paydo bo'lganda temp %	10,3 (1,5)	10,8 (1,6)	11,0 (1,9)	11,0 (1,9)	11,6 (1,5)	11,0 (2,0)
Eshish oxiridagi harakat tezligi %	21,5 (2,3)	22,3 (2,1)	22,7 (2,3)	22,5 (2,1)	23,0 (2,5)	23,2 (1,9)
Eshish uzunligi (sm)	164,2 (5,4)	165,4 (4,8)	165,8 (4,8)	165,6 (4,5)	166,0 (5,0)	165,6 (4,6)
Energiya sarfi (Vt)	254,5 (17,9)	255,3 (15,5)	255,6 (14,6)	256,5 (15,4)	257,9 (17,3)	260,4 (18,9)
Bajarilgan umumiy ish	21,5 (2,3)	22,3 (2,1)	22,7 (2,3)	22,5 (2,1)	23,0 (2,5)	23,2 (1,9)

Sportchilarga mashg'ulot paytida daqiqasiga 18-20 marta eshish chastotasini saqlab turish tavsiya etildi. Ko'rinib turibdiki, bu ko'rsatkichni saqlab turishga, balki bir soatlik eshish oxiriga kelib bu ko'rsatkich biroz oshish tendentsiyasiga xam erishildi. Bir soatdik mashg'ulot boshida daqiqasiga $17,9 \pm 0,4$ martadan, soat oxirida $18,7 \pm 0,6$ martagacha yaxshilanishga erishildi. Sinov soati davomida o'rta chiqish kuchida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Eshish uzunligi vaqt o'tishi bilan deyarli o'zgaraydigan, eng barqaror ko'rsatkich bo'lib chiqdi va asosan 164-166 sm oralig'ida kuzatildi. Tahlillarimizga ko'ra, cho'qqi kuchi eshish qismining 2-7 daqiqasidagi birinchi namuna nuqtasi va 14-19 daqiqasidagi ikkinchi namuna nuqtasi o'rtasida taxminan 10 N ga pasaydi, keyin yana pasayib, eshish qismining oxirigacha

qadar). Biroq, dasturiy-apparat tizimini o'rnatish, sozlash va unga xizmat ko'rsatish elektrotexnika va kompyuter texnologiyalari sohasida ma'lum bir kompetentlikni talab qiladi. Shuning uchun bizning tadqiqotimizda foydalanilgan tizim sifatida uni akademik eshkak eshish bo'yicha murabbiy uchun vosita sifatida tavsiya etib bo'lmaydi. Ergometr yordamida eshkak eshish texnikasini videotsiklografik tahlil qilishning birinchi natijasi yuqori malakali eshkakchilarning harakat konturogrammalari bo'ldi. Harakatlarning to'liq siklini tashkil etuvchi eshkakchi tanasining birlashtirilgan konturlarining dastlabki to'plamidan eng ma'lumotli elementlar ajratib olindi: 1) o'tkazish va tayyorgarlik davrlarining boshlang'ich holatlaridagi tana konturlari; 2) Eshkak dastagining traektoriyasi; 3) eshkak eshish vaqtida eshkakchi gavdasining proektsiyalari; 4) yelka kamari bilan bankani quvib o'tish paytidagi tana konturi. Ushbu elementlardan o'rtacha konturogrammalar eshkakchilarning turli o'sish kattaliklarida va eshish sur'atlarida segmentlarning pozitsiyalari va proektsiyalari burchaklari o'rtasidagi bog'liqliklarning korrelyatsion tahlili asosida chiqarildi.

Shu bilan birga bir soatlik eshkak eshish davomidagi eshish profili va kuch egri chizig'i xususiyatlarini umumlashtirib borildi. Eshkak eshishning yuqori darajasida chiqish jismoniy tayyorgarlik va kuch bilan birgalikda yuqori darajadagi mahorat va muvofiqlashtirishni talab etadi. Belgilangan masofada qayiq tezligini optimallashtirish eshkakchining samaradorligi va tayyorgarligini oshirish, texnik ko'nikmalar, kuch va chidamlilikni rivojlantirish, hamda qayiqning suvdagi harakatini takomillashtirish orqali amalga oshirildi. Eshkak eshuvchi, jarohatlanish samaradorligini o'zgartiruvchi asosiy omillardan biridir. Biroq, eshkak eshish past zarbali sport turi bo'lgani uchun, jiddiy jarohatlanish xavfi kam. Eshkakchilar eng ko'p xabar qilgan shikastlanishlardan biri bel og'riqidir. U jiddiy jarohat deb tasniflanmasada, yiliga o'rtacha 24 kunlik mashg'ulotlarni o'tkazib yuborishga, musobaqalarda qatnasha olmaslikka va jamoaning tarqalib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Jarohat eshkak eshish texnikasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotimiz davomida oltita vaqt oralig'ida eshkak eshuvchilarni kuch egri chizig'i va zarbalarni o'zgarish dinamikasini tahlil qildik. Bunda vaqt oraliqlarida eshish tempi, kuchi, eng yuqori kuch paydo bo'lgandagi kuch, eshish oxiridagi xarakat tezligi, eshish uzunligi hamda energiya sarfi tahlil qilindi (1-jadvalga qarang).

Bu bajarilgan ishga ham ta'sir ko'rsatdi, shu bilan birga chiqish quvvatiga xam ta'sir etgani aniqlandi. Energiya sarfiga ta'sir cho'qqi kuchining paydo bo'lish vaqtidagi o'zgarishlarni va harakatning oxirgi bosqichi biroz kechroq boshlanganini aks ettirishi tahlillarimiz davomida aniqlandi.

Xulosa. Oltita vaqt oralig'ida eshkak eshuvchilarni eshish tempi oxirgi daqiqlarda yaxshilanishiga, eng yuqori kuch esa Ye daqiqada nomoyon bo'ldi, eshish oxiridagi xarakat tezligi 21,5 % dan 23,2 % gacha, eshish uzunligi xam 44-49 daqiqlar oralig'ida 166 sm ga, energiya sarfi esa 54-59 daqiqlarda 260,4 vatt ga yetdi. Shuni ta'kidlash joizki malakali eshkak eshuvchilar bir soatlik mashg'ulot oxirida eshkak eshish sonini ortishiga ham erishildi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги ПФ-5924-сон “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 ноябрдаги ПҚ-5279-сон “Спорт таълими тизимини тубдан такомиллаштириш орқали Олимпия ва Паралимпия спорт турлари бўйича спортчилар захирасини шакллантириш сифатини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори.
3. Матназаров Х.Ю. Эшкак эшиш назарияси ва услубияти. Дарслик. Т.: “O'zbekitobsavdonashriyoti” 2020. - 238 б.
4. Корбут В.М., Исраилова Р.Г. Спорт педагогик маҳоратини ошириш (эшкак эшиш). Ўқув кўлланма. Т.: Илмий техника ахбороти-пресс нашриёти, 2018. - 124 б.
5. Долан П., Адамс МА (1998) Повторяющиеся подъемные задачи утомляют мышцы спины и увеличивают изгибающий момент, действующий на поясничный отдел позвоночника. Журнал биомеханики 31, 713-721.
6. Эванс К., Рефшауге К.М., Адамс Р.Д., Барретт Р. (2008) Кинематика замаха у опытных гольфистов-мужчин после тренировки по паттингу. Журнал ортопедической и спортивной физиотерапии 38, 425-433.
7. Булл АМ, МакГрегор АН (2000) Измерение движения позвоночника у гребцов: использование электромагнитного устройства. Клиническая биомеханика 15, 772-776.
8. Колдуэлл Дж. С., Макнейр П. Дж., Уильямс М. (2003) Влияние повторяющихся движений на сгибание поясницы и активность мышц, выпрямляющих позвоночник, у гребцов. Клиническая биомеханика 18, 704-711.



Xamidullo MAXKAMOV,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: qdpimahkamov1989@gmail.com

Qo‘qon DPI PhD., G.A.Rasulova taqrizi asosida

O‘QUV AMALIYOTI DASTURINI MAZMUNI, MAQSAD VA BELGILANGAN VAZIFALAR UZVIYLIGI

Annatotsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quv amaliyotini tashkil etish dasturini mazmuni, maqsad va vazifalarni o‘zaro uzviyligini metodik jihatdan izohlab berilgan. Bizga ma‘lumki, o‘quv amaliyot bakalavr yo‘nalishdagi talabalarning oliy o‘quv yurtida olib boriladigan ta‘lim-tarbiya jarayonining izchil davomi sanalib, bakalavr yo‘nalishi bo‘yicha olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va mazkur bilim, ko‘nikma, malakalarni bevosita ta‘lim-tarbiya jarayoniga qo‘llash imkoniyatini beradi.

Kalit so‘zlar: O‘quv amaliyoti dasturi, mazmuni, maqsad, vazifalar, pedagogik faoliyat, innovatsion yondashuv, amaliyot kundaligi, talaba portfoliosi.

СОДЕРЖАНИЕ УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ, ЦЕЛИ И НЕПРЕРЫВНОСТЬ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье методически разъясняются содержание, цели и задачи программы организации учебной практики будущих учителей. Как известно, образовательная практика рассматривается как последовательное продолжение образовательного процесса студентов бакалавриата в высшем учебном заведении, она дает возможность закрепить теоретические знания, полученные в бакалавриате, и применить эти знания, умения и навыки. квалификации непосредственно в образовательный процесс.

Ключевые слова: Программа образовательной практики, содержание, цель, задачи, педагогическая деятельность, инновационный подход, дневник практики, студенческое портфолио.

CONTENT, GOALS AND INTERCONNECTION OF THE TEACHING PRACTICE PROGRAM

Annotation

This article provides a methodological explanation of the content, goals and interconnection of tasks of the program for organizing the teaching practice of future teachers. As we know, teaching practice is a consistent continuation of the educational process of undergraduate students in a higher educational institution, providing an opportunity to consolidate the theoretical knowledge obtained in the undergraduate program and apply this knowledge, skills, and qualifications directly to the educational process.

Key words: Teaching practice program, content, goals, tasks, pedagogical activity, innovative approach, practice diary, student portfolio.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21- iyundagi “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 289- Qarorining 2-bandida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari kunduzgi ta‘lim shaklida tahsil olayotgan 2 - 4-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta‘lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib borilishini ta‘minlash vazifasi belgilab berilgan [5].

Qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari “4+2” tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta‘lim muassasasida, 2 kuni umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quv amaliyot olib borilmoqda. O‘quv amaliyotini samarali olib borish maqsadida mas‘ul mutaxassislar birlashtirish va belgilangan ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik shartnomasini tuziladi.

“4+2” o‘quv maktabidagi o‘quv jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirishga qaratilayotgan o‘qish rejasini yoki ta‘lim shaklidir. O‘quv jarayonini ta‘lim jarayonidagi amaliy bilimlarni nazariy asoslar bilan uyg‘unlashtirishni o‘rganadi. Talabalarining bilimi, malakasini oshirish, ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashga tayyorlashda kerakli o‘rin tutadi va ta‘lim jarayonida amaliy jihatlariga yetarlicha ko‘nikma hosil qilishni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning muhim bosqichlaridan biri o‘quv amaliyot sanaladi. Pedagogika Oliy ta‘lim muassasasi auditoriyasida egallangan nazariy bilimlar, malaka va ko‘nikmalar umum ta‘lim maktablarida amaliyot davomida sinovdan o‘tadi, rivojlantiriladi. Pedagogik amaliyot talabalarni umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quv tarbiyaviy ishlarga kasbiy pedagogik

va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarini rivojlantirish kabi vazifalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Mazkur vazifalarni metodik jihatdan o‘rganish va uslubiy tavsiya hamda ko‘rsatmalar yaratish maqsadida o‘quv amaliyoti jarayonida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni maqsad qilib olindi. Tadqiqot ishi rivojida mazkur tadqiqot yuzasidan olib borilgan izlanishlar va ularning natijalari, darslik, o‘quv qo‘llanma va ilmiy nashr tahlil qilib borildi. Talabalar o‘quv amaliyotini tashkil etish metodikasi yuzasida horijiy olimlar Abdullina, Y.K.Vasilyeva, E.A.Grishina, X.N.Ganobolina, K.A.Slastenina, L.F. Spirinalarning tadqiqot ishlari, o‘qituvchi shaxsini shakllantirish nazariyasi E.P. Belozertsev, F.N. Gonobolin, N.V.Kuzmina, L.I. Ruvinskiy, V.A.Slastenin, A.N.Chalov va boshqalar bo‘yicha fundamental tadqiqotlarga tayangan. E.Yuzlikaeva, J.G‘ulomov, X. Ruzimetova, M.Usmonboeva, S.Djumaevalarning ta‘kidlashicha o‘quv amaliyotining maqsadi talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan pedagogik, psixologik, ixtisoslik bilimlarini mustahkamlash, amaliy pedagogik faoliyat tajribalarining o‘zlashtirilishini ta‘minlash, kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga yo‘naltirishdan iborat [1]. A.K. Raximov va B.B. Abdraimovalar tomonidan “Pedagogik amaliyotni o‘tkazish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasida pedagogik amaliyotning boshlanishida talabalar o‘tkazilishi belgilangan amaliyotning maqsadi, tarkibi, uslublari, shakllari va uni o‘tkazish vositalari bilan ishlash yo‘llari bayon qilingan. Ularning fikricha, pedagogik amaliyot – bu talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda umumiy o‘rta ta‘lim maktab sharoitida olib boriluvchi o‘quv mashg‘ulotlari hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari etib quyidagilarni kiritib o‘tilgan: 1. Talabalarda o‘quv materialini

bayon qilishda, o'quvchilarda bilish faoliyatini tashkil qilish, o'quvchilarning obyektlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, maruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni tashkil qilishda fan o'qituvchisiga xos bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish; 2. Talabalarda mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish davomida ma'naviy tarbiya vazifalarini belgilash va ularni amalga oshirishni o'rgatish; 3. O'quv va tarbiyaviy ishlarda pedagogik tajribani tahlil qilishni o'rgatish – qotib qolgan (dogmatik) aqidalar asosida emas, balki ijodiy yondoshuv tavsifida bo'lishi talab qilinadi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni o'quv amaliyoti jarayonida pedagogik faoliyatga tayyorlash yollari muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. O'zbekistonda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv amaliyotlarni tashkil etish va kutilayotgan natijalari tahlili qilindi. Tahlil natijalari pedagogik kvalimetriyaga asoslanib baholanishi va metodik tavsiyalar berish bo'yicha yondashuvlar o'rganildi. Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'quv amaliyotning asosiy maqsadi talabalarni o'qituvchi va sinf rahbari vazifasini bajarishga tayyorlashdir. Aynan shu amaliyot jarayonida talabalar umumta'lim maktab o'quvchilarni tarbiyalashga, o'quv va tarbiyaviy jarayonlarni uzviy birlikda amalga oshirishga, bolalarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, ahloqiy, mehnat, jismoniy hamda estetik jihatdan tarbiyalashning birligini ta'minlashga erishadilar. O'quv amaliyot jarayonida talabalar yillik, mavzuli rejalari va uning dars ishlanmalari bilan tanishishlari zarur. So'ngra, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, qo'shimcha adabiyotlar, dasturiy taminotlar bilan tanishishlari zarur. Bundan keyin o'qituvchi va metodist bilan birgalikda shaxsiy tematik rejasini tuzishi lozim; har bir mavzu bo'yicha dars tizimining umumiy didaktik maqsadini; darslar mavzusini; ularning tiplarini; umumiy o'qitish usullarini; jihozlash-lar; dasturiy taminotlarni; o'qituvchi va o'quvchi uchun asosiy malumot manbaini ko'rsatishi lozim. Bunday tematik rejalarni tuzish amaliyotchilar uchun ular faoliyatining istiqbolini ochib beradi, materiallarni darslarga taqsimlashni o'rgatadi, o'quv jarayonning bir maromda olib borilishiga yordam beradi, biror masalani o'rganish uchun behuda vaqt sarflamaslikni (boshqa masalaga ajratilgan vaqtga ziyon yetkazmasdan) ogohlantiradi [3]. Amaliyotning barcha turlarini tashkil etishda yuqori malakali pedagoglarni tayyorlash muhim vazifalardan biridir. O'quv jarayonida talabalar psixologik-pedagogik sikl fanlari majmuasini o'rganadilar, pedagogik va yuqori maxsus bilimlarni oladilar, pedagogik, arxiv-bibliografik, etnografik amaliyot jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlanadilar. Bu tizimda pedagogik amaliyot juda muhim o'rin tutadi. Talabalar o'quv jarayonini rejalashtirish, talabalar guruhi bilan mustaqil ishlash, auditoriya bilan muloqot qilish tajribasiga ega bo'ladilar. Amaliyot o'quv yili davomida tarqatilgan individual darslar shaklida amalga oshiriladi. O'quv amaliyotining maqsadi: talabani umumta'lim maktablaridagi bolalar uchun o'rta kasb-hunar va qo'shimcha ta'lim ta'lim muassasalarida mustaqil pedagogik ishlarga tayyorlash; tarixiy-

nazariy sikllardagi fanlarni o'qitishning turli usullarini o'zlashtirish. O'quv amaliyotining maqsadlari: - pedagog kadrlar tayyorlashning eng yaxshi ananalariga asoslanishi lozim bo'lgan zamonaviy pedagogikasi tamoyillarini amaliy o'zlashtirish; - turli pedagogik usullarni o'zlashtirish, mustaqil pedagogik ish ko'nikmalarini egallash; - bo'lajak bakalavrlarning ijodiy pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish, kelajakdagi o'qituvchilik faoliyatiga muhabbat va qiziqishni tarbiyalash; - o'quv jarayonini uslubiy jihatdan barkamol rejalashtirish tamoyillarini talabalar tomonidan o'zlashtirish, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va umumiy madaniy saviyasini rivojlantirish.

Amaliyotchi-talaba o'quv amaliyotni o'tagandan so'ng qabul qiluvchi tashkilot rahbari ishtirokida amaliyoti bo'yicha hisobotini belgilangan muddatda himoya qiladi va o'rnatilgan tartibda baholanadi. O'quv amaliyotlar talabalarning pedagogik va tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllanishi, hamda rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularda pedagogik kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, faktik misollarda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini o'rganishga, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, fikrlash xususiyatlari, bilim saviyasi va sifatini bilib olishga yordam beradi [4]. Talabalarga ta'lim-tarbiya ishlarini maqsadga yo'nalgan holda olib borishga imkon beradi. O'quv amaliyot ob'ektida o'quvchilar bilan muloqotda bo'lish, tajribali o'qituvchilar ish tajribalarini kuzatish talabalarda kasbiy pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan e'tibor, o'dob va xushmuomalalik kabilar takomillashadi, o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida o'zaro kommunikativ muloqotni yo'lga qo'yish xislatlari shakllanadi. O'qitish amaliyotining maqsad va vazifalarini amalga oshirish vazifalar mazmunini ishlab chiqishga kompleks yondashuvni talab qiladi, ular shunday bo'lishi kerakki, ularni amalga oshirish talabalarning turli xil o'quv kurslaridagi bilimlarini birlashtirishni talab qiladi. Amaliyotda talabalar ishining asosiy usuli loyiha usuli hisoblanadi. Amaliyot natijalarini taqdim etishga alohida e'tibor qaratish lozim - ma'ruza rasmiy bo'lmasligi, balki ilmiy va ijodiy xarakterga ega bo'lishi kerak (loyihalar himoyasi, o'quv-uslubiy yoki ilmiy-amaliy konferensiyadagi ma'ruza, nashr va boshqalar). Shu bilan birga, turli fanlar bo'yicha o'qitish shunday tuzilishi kerakki, talabalarning amaliy tajribasi doimiy ravishda yangilanadi va turli nuqtai nazarlardan, turli o'quv fanlari nuqtai nazaridan tushuniladi.

Xulosa va takliflar. Bo'lajak o'qituvchilarni o'quv amaliyoti jarayonida pedagogik faoliyatga tayyorlash muammosining nazariy asoslari muammosi xorijiy hamda respublika pedagogikasida keng o'rganilgan tadqiq qilingan bo'lib, ular turlicha nazariyalar, kontsepsiyalar, yondashishlar, pozitsiyalar, yo'nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Shuningdek, o'quv amaliyoti davomida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion yondashuvi, o'quvchilarni kreativ faoliyatini rivojlantirishga asos bo'luvchi ijodkorlik pozitsiyasiga amal etish ko'nikmalari tarkib toptirib borilishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Yuzlikaeva E., J.G'ulomov, X. Ruzimetova, M.Usmonboeva, S.Djumaevlar. "Pedagogik amaliyot: tizim mohiyati va mexanizmi". – TDPU., -2016y, -165; -25.
2. Raximov A.K., B.B. Abdraitova. Pedagogik amaliyotni o'tkazish metodikasi [Matn]: o'quv qo'llanma / – Toshkent: «Malik Print CO», 2021. – 160 b.
3. A.Abdirashidov, Informatika fanidan pedagogik amaliyotni o'tkazish. Uslubiy ko'rsatmalar. – Samarqand: SamDU nashri, 2016. – 28 bet.
4. Qodirov A.. Biologiyadn pedagogik praktika o'tkazish. Toshkent «O'qituvchi» 1996y, -200; - 7b.
5. <https://tsuull.uz/uz/content/42-talim-shakli-nazariya-va-amaliyotning-uygunligi>



UDK:159.9.07:65.012.6:316.776.3:37.011.3:316

Ibragimjon MAXMUDOV,
O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti
E-mail: 2363585@mail.ru

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, ps.f.d. X.Alimov taqrizi asosida

MANAGERIAL ROLE-PLAYING DUEL TRAINING

Annotation

The article presents the experience of conducting a training aimed at developing managerial qualities in leaders, such as adherence to management principles and asserting a managerial position in difficult and problematic situations. These personal qualities are developed through the attainment and maintenance of managerial authority by the leader.

Key words: training, situation, management, competition, game, evaluation, group, discussion.

ТРЕНИНГ УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ ПОЕДИНКИ

Аннотация

В статье излагается опыт проведения тренинга по формированию управленческих качеств руководителя, такие как следование принципам управления и отстаивания управленческой позиции в трудной и проблемной ситуации. Данные качества личности формируются за счет достижения и удержания управленческой власти руководителем.

Ключевые слова: Тренинг, руководитель, ситуация, управление, поединок, игра, оценка, группа, обсуждение.

BOSHQARUV BELLASHUVLARI TRENINGI

Аннотация

Maqolada rahbarga hos zarur sifatlar, ya'ni murakab vaziyatlarda boshqaruv tamoyillariga qat'iy rioya qilish va hokimlik qudratini namoyish etish bilan bog'liq malakalarni shakllantirish bilan bog'liq o'tkazilgan trening haqida ma'lumot berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Trening, rahbar, vaziyat, boshqaruv, bellashuv, o'yin, baholash, guruh, o'yin, muhokama.

Kirish. Aksariyat hollarda rahbar o'z pozitsiyasini himoya qilolmasligi, murakkab masalalarni hal qilishda qat'iyat etishmasligi va boshqaruv tamoyillariga rioya qilolmasligi hollari shohidi bo'lamiz. Boshqaruvda mavhum bir hokimlik kuchi, g'ayrat bor. Rahbar aynan shu kuch va qudratga tayangan holda, ma'lum bir tamoyil va boshqaruv vakolatlariga asoslangan ravishda xodimlarni tashqilot maqsadi sari etaklashi lozim. Shu munosabat bilan, rahbarlarning samarali boshqaruv malakalarini kompleks tarzda rivojlantirish maqsadida «Boshqaruv bellashuvlari» treningi o'tkazildi. Mazkur trening, o'z mohiyatiga ko'ra shaxsning boshqaruv sohasidagi salohiyatini baholash, va undagi rahbar sifatida zaif jihatlarni koreksiyalash imkonini beradi [5]. Trening uch yil mobaynida Davlat boshqaruvi va biznes sohasida faoliyat olib boruvchi rahbar xodimlar orasida amalga oshirildi. Keyinchalik esa, rahbarlik kompetensiyalarini baholash bilan bog'liq Assessment Markazi texnologiyasi tadbirlarida ham keng qo'llana boshlandi. Aynan shunday malakani rivojlantirish maqsadida mazkur maqoladan o'rin olgan trening dasturi xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Trening mazmun mohiyatini tahlil qilishda psixologiya fanida fundamental asosga ega bo'lgan nazariyalar – P.Ya.Galperinning “Faoliyatning orientirovka asoslari” nazariyasi [1] va D.Kolb modeli [4] tadqiqot metodologiyasi sifatida olingan. P.Ya.Galperin nazariyasiga ko'ra orientirovka faoliyati sub'ektning muammoli vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga va shuning asosida rejalashtirish hamda mavjud vazifani hal qilishga yo'nalgan hatti harakatlar majmuidir. Gap shundaki, trening doimo turg'un va stereotipga aylangan harakatlarni anglash va ulardan bosqichma bosqich voz kechishdan iborat. Bunday zarurat esa sub'ektdan doimiy e'tiborni, o'zgarib turuvchi muhitda orientirovka qilishni va vaziyatga mos yangi harakatlarni taqdim etish zaruratini qo'yadi. Shu munosabat bilan, butun trening jarayoni shaxsning bilish sohasi faolligini ta'minlash hamda yangi va o'rinli harakatlarni namoyish etish g'oyasiga asoslanadi.

Tadqiqot metodoligi. Ushbu treningdagi asosiy g'oya rahbar shaxsiga xos bo'lgan liderlik potensialini yuksaltirishga asoslangan. Bunday jihatlar sifatida uch asosiy manba olinadi:

Rahbarning boshqaruv qudrati

Rahbarning kommunikativ malakasi

Rahbarning ishbilarmonlik potentsiali

Rahbarda ushbu uch jihadni aniqlash bo'yicha maxsus ssenariyaga asoslangan mashg'ulotlar tashkil etildi. Bu mashg'ulot ko'rinishi quyidagicha: ikki kishi qaraba qarshi o'tirib, ularga berilgan rollardan kelib chiqqan holda o'zaro bahsga kirishadilar. Bu bahs o'z mohiyatiga ko'ra bellashuvdan iborat bo'lib, undagi bir tomon rahbar pozitsiyasida bo'lsa, ikkinchi tomon xodim rolini oladi. Bu bellashuv davomida har bir tomon o'ziga belgilangan rolga asoslanishi va o'z pozitsiyasi doirasida harakat qilishi kerak. O'tayotgan tortishuvga uchta ekspert hakamlik qiladi hamda ularning har biri o'ziga belgilangan taalluqli pozitsiyadan turib ishtirokchilarni baholaydi [6].

Hakamlarga berilgan rollar quyidagicha:

Bellashuv ishtirokchilaridan har birining hokimlik qudratini baholash. Buning uchun hakam quyidagi savolga javob berishi kerak: «Kimning rahbarligida ishlashni istardim?»

Bahs ishtirokchilarining kommunikativ qobiliyatini baholash. Buning uchun hakam quyidagi savolga javob beradi: «Shu ikki ishtirokchidan kimni muhim muzokaraga jo'natardim?»

Bahs ishtirokchilarining ishbilarmonlik salohiyatini aniqlash.

Ushbu ko'rsatkichni hakam quyidagi savolga javob berish orqali ifodalaydi: «O'z biznesimni ma'lum muddatga qoldirib ketish zarurati bo'lsa, bu mas'uliyatni ikki ishtirokchidan kimga ishonib topshirardim?». Bundan tashqari o'yin talabi bo'yicha har bir ishtirokchining maslahatchi sherigi – sekundanti bo'ladi. Sekundantning vazifasi tortishuv paytidagi har besh minut o'tgandan so'ng ikki daqiqalik pauzada sherigiga bahsni to'g'ri yuritish uchun foydali maslahatlarni berishdan iborat.

O'yin davomida tomoshabinlarni ham o'yinga jalb qilish va ularni rollarga taqsimlash mumkin. Bu boradagi birinchi imkoniyat - bir necha kishini faol rolda ishtirok etish uchun zahiradagi o'yinchilar qatoriga o'tkazish. Ular, ma'lum muddatdan so'ng, ya'ni birinchi juftlik o'yinni tugatgandan keyin xuddi shu ssenariy bo'yicha bahsni yangidan boshlaydilar. Tomoshabinlar shuningdek, ekspertlar qatoridan o'rin olishi va har bir ekspertga yordamchi bo'lishi, natijada har bir yo'nalish bo'yicha hakamlar soni uchtaga etishi mumkin. Shunday qilib, to'qqiztagacha

odamni hakamlikka o'tkaziladi. Treningda rollar taqsimoti orqali qolgan kuzatuvchilarni ham ketma-ket ravishda o'yinga jalb etish imkoni bor.

Psixologik treninglarning amalda ishlash mexanizmi haqida gap ketganda quyidagi g'oyaga asoslanamiz. Trening ishtirokchisida professional shaxsga xos «Men obrazini» shakllantirish, shaxsning o'zi o'zini baholash va motivatsiya qadriyat tizimini takomillashtirishga oid elementlarni ta'lim dasturiga kiritish muhim shart bo'lib hisoblanadi. Trening davomida amalga oshayotgan faoliyat dinamikasi trening ishtirokchisining shaxsiy mazmunidan «Men obrazning» kasbda namoyon bo'lishiga qarab bosqichma-bosqich o'ta boshlaydigan jarayondir. Natijada, trening yakuniga kelib shaxsning professionalligi, ya'ni rahbarlik pozitsiyasi bilan o'zini identifikatsiyalash darajasi oshadi.

Tahlil va natijalar. «Boshqaruv bellashuvlari» treningi kichik ma'ruzadan boshlanadi va bunda trening mazmuni, uning asosiy g'oyasi va maqsadi hamda tarkibiy qismlari haqida ma'lumot berib o'tiladi. Bu qismning asosiy maqsadi ishtirokchilarni butun guruh oldida juftliklarga bo'lish orqali bellashuvga chiqishga undash va ushbu bellashuvlarning keyingi – «o'rganish bosqichi» uchun tayyorlashdan iborat. Bellashuvlarni videotasvirga olish va ularni qayta ko'rish orqali ishtirokchilar o'zaro munosabatda, o'z pozitsiyalarini ifodalashda yo'l qo'ygan xatolar qayta tahlil etiladi va keyingi bellashuv ishtirokchilarining chiqishi uchun yaxshi tajriba vositasini o'taydi.

Ikki ishtirokchi o'rtasidagi bellashuv boshqaruvga oid muammoli vaziyat bo'yicha ssenariy asosida o'tadi. Bu ssenariylar rahbar hayotida to'qnash keladigan real vaziyatlarga, muammoli masalalarni hal etish bilan bog'liq holatlarga asoslanishi kerak. Bahs uchun taklif etiladigan har bir vaziyat-ssenariyda rahbar va xodim rollari aniq belgilangan bo'ladi hamda rahbar erishishi lozim bo'lgan hamda xodim intilayotgan maqsad aks etadi. Odatda o'yin ssenariysida bir ishtirokchining maqsadi boshqasining maqsadiga zid keladi va o'yin mazmuniga ko'ra masala albatta bir tomonning foydasiga hal bo'lishi kerak. Aynan shunday «yutish – yutqazish» vaziyatiga asoslangan holat musobaqa ishtirokchilarida katta qiziqish va motivatsiya uyg'otish omili bo'lib hisoblanadi. O'yin tugagach, har bir hakam o'z oldiga qo'yilgan savoldan kelib chiqqan holda biron ishtirokchiga ovoz beradi va o'z tanlovini asoslab beradi. Shundan so'ng, trener o'yinning faol ishtirokchilariga murojaat etadi va ularga quyidagi savollarni beradi:

Bu o'yinda nima qiyin o'tdi?

O'yinda nima engil o'tdi?

O'yin davomida paydo bo'lgan eng qiyin vaziyat nimadan iborat?

O'yin boshlanishidan avval va keyin bo'lgan holatingizni tavsiflang (ayrim paytda «o'zimni engil his qilyapman» yoki «o'zimni og'ir his qilyapman» kabi ikki qutbli shkaladan foydalanish mumkin)

O'yindan umumiy taassurotingiz qanday?

Bu o'yindan qanday asosiy xulosa chiqardingiz?

Kelajakdagi boshqaruv faoliyatingizda qanday xatolarni chetlab o'tishingiz mumkin?

Keyin esa trener kuzatuvchi roliga qatnashayotgan guruh a'zolaridan o'yinga izoh berishni so'raydi. Bu muhokamada asosiy

Qarorni argumentlash vaqti bo'yicha natijalarni qiyoslash

Treningga qadar	Treningdan so'ng
1 minut 24 sekund	52 sekund

Shuningdek, mashg'ulotlar davomida rahbar tomonidan o'z qarorini asoslash sohasida o'zgarishlar bo'lganligi ko'zga tashlandi. Quyidagi jadvalda treningda ishtirok etish orqali qarorni argumentlash sonining oshishi keltirib o'tiladi.

Qarorni argumentlash sonini oshishi bo'yicha natijalarni qiyoslash

Treningga qadar	Treningdan so'ng
O'rticha 3 ta argument	Kamida 5 ta argument

Bunday ko'rsatkich esa ishtirokchilarning musobaqadan musobaqaga o'tgan sari mahorati va demak professionalizmi oshib borganidan dalolat beradi.

e'tibor bundan keyin o'tadigan o'yinlarda nimalarga ko'proq urg'u berish kerakligi, o'yinda qanday yo'l tutishga yo'naltiriladi.

Tomoshabinlardan quyidagi savollarga javob berish so'raladi

Mening asosiy xulosam

Bu o'yindan o'zimga uchun olgan narsa

Eng asosiy anglagan narsam shu bo'ldiki ...

«Boshqaruv bellashuvlari» treningi orqali ishtirokchilar rahbarlar qiyin boshqaruv vaziyatini yanada real aks ettiradilar va yuzaga kelgan sharoitda turli rahbarlik uslublarini amalda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayon bo'ldiki, yuzaga kelgan vaziyatda katta rahbarlik tajribasiga ega bo'lgan ishtirokchilar o'zlarida shakllangan odatiy rahbarlik uslubini qo'llashga harakat qiladilar. Boshqaruv tajribasiga ega bo'lmagan ishtirokchilarda esa vaziyatni o'rganish, ssenariydagi vazifadan ko'ra real munosabatlarga yo'nalganlikni ko'proq namoyish etar ekanlar. «Boshqaruv bellashuvlari» treningida eng samarali ta'lim vositalaridan biri – biron ishtirokchining turli rahbarlik uslublarini qo'llagan holda mazkur rolni qayta va qayta o'ynab ko'rishdan iborat. Natijada, ishtirokchida yuzaga kelgan boshqaruv vaziyatiga tashqaridan qarash, vaziyat maydoni tashqarisiga chiqish va natijada yuzaga kelgan muammoga yangicha echim topa olish salohiyatiga ega bo'ladi.

«Boshqaruv bellashuvlari» treningida qatnashgan ayrim ishtirokchilarning aytishicha, o'tgan trening asosida yig'ilgan tajriba boshqaruv vaziyatiga rasional qarash, vaziyatni tashqaridan kuzatish va yanada oqilona harakat qilish ko'nikmasini shakllanishiga asos bo'lgan.

«Boshqaruv bellashuvlari» treningining asosiy qismi ikki shaxs o'rtasidagi munozaraga asoslanadi va ushbu jarayonni metodik jihatdan to'g'ri ta'minlashga e'tibor qaratiladi. Bunda bahs munozara olib borish quyidagi asosiy bosqichlardan iboratligiga e'tibor qaratildi: [2]

Orientirovka;

Baholash;

Yakunlovchi bosqichlar.

Bu bosqichlardan o'tishda quyidagi tadbirlar ketma-ketligi amalga oshiriladi:

Diskussiya mavzusi va maqsadni aniqlash (orientirovka bosqichi)

Muhokamadagi masala yuzasidan ma'lumotlarni yig'ish (munozara ishtirokchilarining fikri, xulosasi, bilim va takliflarini yig'ish) – alternativ fikrlarni to'plash

Muhokama davomida olingan ma'lumotni tartiblash, asoslash va birgalikda baholash. Mavjud ma'lumotlar asosida aniqlashtirish, tahlil etish va qaror qilish (Baholash bosqichi).

Munozaraga yakun yasash: olingan natijani munozara maqsadi bilan solishtirish (Yakunlovchi faza).

Aytib o'tilgan bosqichlar bahslashuv uslubining muhim komponentlari bo'lib, o'tkazilgan trening mashg'ulotining samarali o'tishini ta'minlaydi.

«Boshqaruv bellashuvlari» treningi samarasi haqida gapirar ekanmiz, tadqiqot doirasida birinchi bor ushbu mashg'ulotning ta'sir mezonini aniq o'chamlarda yaratildi va amaliyotga tatbiq etildi. Bunga ko'ra, musobaqa ishtirokchisi tomonidan qabul qilingan qarorning asoslanganligi va argumentlanishi kasbiy takomillashuvning mezonini sifatida qabul qilindi.

Keyingi ko'rsatkich esa ishtirokchilarning musobaqa so'ngida olgan ballarida g'oliblik holati ko'payganida ko'zga tashlanadi.

Trening natijasiga ko'ra g'oliblikni qo'lga kiritish ko'rsatkichining o'zgarishi

Treningga qadar	Treningdan so'ng
32 kishi muntazam yutuqni qo'lga kirituvchilar va 8 kishi muntazam yutqizuvchilar	38 kishi deyarli muntazam yutuqni qo'lga kirituvchilar va 2 kishi - ayrim paytda yutqiziq yoki durang

“Boshqaruv bellashuvlari” treningida ishtirokchilarning mashg'ulot davomida o'z individual uslubining shakllanishi ham boshqaruv takomillashuvining muhim ko'rsatkichidir. Mahorat cho'qqisiga qadam qo'yayotgan rahbar o'zining boshqaruv uslubini, faoliyati natijalarini izchil tarzda tahlil qiladi. Shaxsning bunday qobiliyati esa refleksiv jarayonda o'z aksini topadi. Refleksiya orqali inson maqsadga etaklovchi shaxsiy xislatlari va yuzaga kelgan vaziyatga oid omillarni anglangan tarzda mushohada qiladi hamda harakatlari haqida o'ziga hisobot bera oladi. Bunday ichki yo'nalgan muloqot va mushohada qila olish malakasi insonning o'z kasbiy rivojlanishi yo'lini ko'rishidagi muhim omildir. Aynan shunday ichki muloqot asosida rahbar aynan o'ziga va uning xos bo'lgan individual uslublar majmuasini anglab boradi va mahorat cho'qqisiga erishishning o'z shaxsiga mos strategiyasini yaratadi. Shuning uchun ham trening tugagandan so'ng ishtirokchilar refleksiv bayonnomalar yozadilar va trening davomida olgan tajriba, taassurotlarini taqdim etadilar. Natijada, trening samarasi haqida o'rinli xulosa chiqarish uchun yana bir asos paydo bo'ladi. Refleksiv bayonnomalar tahlili shuni ko'rsatadiki, “Boshqaruv bellashuvlari” treningida

qatnashgan ko'pchilik ishtirokchilarda vaziyatni teran baholash, boshqaruv vaziyatiga yangicha ko'z bilan qarash, mavjud muammoga bir paytning o'zida bir nechta echimlarning kelishi va har bir echimni asosiy me'zon, ya'ni boshqaruv qadriyati bilan taqqoslash imkoniyati paydo bo'lganligi bilan asoslaydilar. Bu esa “Boshqaruv bellashuvlari” treningi davomida rahbarlik malakalarini shakllantirish yo'lida amalga oshiriladigan asosiy tadbir, ya'ni boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bog'liq mazmundan kelib chiqadigan natijadir.

Xulosa va takliflar. “Boshqaruv bellashuvlari” natijalari bo'yicha uchta manbaga asoslangan holda xulosa shakllantirishimiz mumkin. Birinchidan, trening ishtirokchilari mashg'ulot davomida olgan taassurotlari bo'yicha refleksif bayonnomalar yozadilar [4] va bunda ularga ta'sir etgan holatlar, asosiy xulosa va saboqlar aks etadi. Nisbatan ta'sirli va ahamiyatli hisobotlar treningning faol ishtirokchilari – rahbar va uning xodimi sifatida ishtirok etgan qatnashchilar tomonidan bo'lishi kuzatildi. Natijada, ular bilan rahbarlik malakalarini yanada takomillashtirish yuzasidan individual konsultatsiyalar tashkil etishga asos tug'iladi [3].

ADABIYOTLAR

- Galperin P.Ya. Leksii po psixologii. M., 2002. 328 s.
- Jukov Yu.M., Petrovskaya L.A., Rastyanikov P.V. Diagnostika i razvitie kompetentnosti v obshenii. M., 1990. s.15
- Kapustina T. V., Asriyan O. B., Kadirov R. V. Psixologicheskoe zaklyuchenie. Prakticheskoe posobie. Litres. – M., 2018, 143 s.
- Colman Andrew M. «Metacognition». A Dictionary of Psychology. Oxford Paperback Reference (4 ed.). Oxford: Oxford University Press (published 2015). 2001. 456 p
- Noss, I. N. Eksperimentalnaya psixologiya : uchebnik i praktikum dlya vuzov / I. N. Noss. — Moskva : Izdatelstvo Yurayt, 2024. — 321 s.
- Tarasov V. Iskusstvo upravlencheskoy borbi. Texnologiya perexvata i uderjaniya upravleniya. M.: Dobraya kniga. 2014. 434 s.
- Tarasov V. Texnologiya liderstva. M.: Dobraya kniga. 2017. 240 s.



UDK:1.101.141.16

Xusnibon MASHARIPOVA,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: shixnazarmadiyorov@gmail.com

Dotsent N.Annayeva taqrizi asosida

KAMOLIDDIN BEHZOD HAYOTI VA IJODINI RIVOJLANISHIDAGI IJTIMOYIY-TARIXIY SHART-SHAROITLAR

Annotatsiya

Kamoliddin Behzodning takrorlanmas ijodi, go'zal san'ati va ajoyib mahorati bilan nafaqat Sharq xalqlari, balki butun dunyo xalqlari madaniyati tarixida sezilarli iz qoldirganligi va uning taraqqiyoti uchun barakali hissa qo'shgan zabardas musavvir Kamoliddin Behzod Hirotda hunarmand-kosib oilasida dunyoga kelganligi, u mashhur fors-tojik adabiyotining ko'plab qahramonlik va romantik asarlarini, tarixiy kitoblarni bezatganligi borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Tabiat manzaralari, kiyim-kechaklar, rang-baranglik, stul, eshik orti, xizmatkorlar, tashqi qiyofas, kompozitsiya qal'aga o'tliq, qarama-qarshilik uslubi, yoshlarini estetik ruhi, tarbiy.

SOCIO-HISTORICAL CONDITIONS IN THE DEVELOPMENT OF KAMOLIDDIN BEHZOD'S LIFE AND WORK

Annotation

Kamoliddin Behzod's unique creativity, beautiful art, and exceptional mastery have left a significant mark not only on the culture of Eastern peoples but also on the history of world civilization, making a valuable contribution to its development. The great artist Kamoliddin Behzod was born into a craftsman family in Herat. His works adorned numerous heroic and romantic pieces of famous Persian-Tajik literature, as well as historical books.

Key words: Landscapes, clothing, color diversity, chair, behind the door, servants, external appearance, composition, horsemen approaching the fortress, contrast technique, aesthetic spirit of youth, education.

СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА КАМОЛИДДИНА БЕХЗОДА

Аннотация

Уникальное творчество Камолиддина Бехзода, его прекрасное искусство и выдающееся мастерство оставили значительный след не только в культуре восточных народов, но и в истории мировой цивилизации, внося ценный вклад в её развитие. Великий художник Камолиддин Бехзод родился в семье ремесленников в Герате. Его произведения украшали многочисленные героические и романтические произведения знаменитой персидско-таджикской литературы, а также исторические книги.

Ключевые слова: Пейзажи, одежда, разнообразие цветов, стул, за дверью, слуги, внешний облик, композиция, всадники у крепости, техника контраста, эстетический дух молодёжи, воспитание.

Kirish. O'zining takrorlanmas ijodi, go'zal san'ati va ajoyib mahorati bilan nafaqat Sharq xalqlari, balki butun dunyo xalqlari madaniyati tarixida sezilarli iz qoldirgan, uning taraqqiyoti uchun barakali hissa qo'shgan zabardas musavvir Kamoliddin Behzod Hirotda 1455 yilda hunarmand-kosib oilasida dunyoga keldi. Behzod mashhur fors-tojik adabiyotining ko'plab qahramonlik va romantik asarlarini, tarixiy kitoblarni bezatgan. Behzodning eng qadimiy asari Sa'diyning "Bo'ston" asaridir Behzod mashhur fors-tojik adabiyotining ko'plab qahramonlik va romantik asarlarini, tarixiy kitoblarni bezatgan. Behzodning eng qadimiy asari Sa'diyning "Bo'ston" asaridir Behzod mashhur fors-tojik adabiyotining ko'plab qahramonlik va romantik asarlarini, tarixiy kitoblarni bezatgan. Behzodning eng qadimiy asari Sa'diyning "Bo'ston" asaridir. U 1478 yilda yozilgan. Ushbu noyob qo'lyozma hozir Chester Beatty kutubxonasida (Dublin) saqlanmoqda. Ushbu qo'lyozma rasmlarida odamlarning yuzlari (shohlar, saroy ahli, oshiqqlar, go'zal haykallar, ilm ahli, dala ahli va boshqalar) va tabiat manzaralari (daraxt va gullar, soylar va yashil dalalar, quyosh nuri) va bulutlar) mahorat bilan tasvirlangan. Yana 1488-yilda Sulton Husayn Boyqaning iltimosiga ko'ra Behzod Sa'diyning "Bo'ston" asarini Mashhadiy saltanati xattotligi va Yori Muzahhib tasvirlari bilan bezatadi. 6 ta jozibali rasmni o'z ichiga olgan ushbu qo'lyozma hozirda Qohira Milliy kutubxonasida saqlanmoqda va suratlardan 4 tasi rassom tomonidan "Amalilabdi Behzod" deb imzolangan. Bir rasmda 893 (1488), ikkinchisida 894 (1489) sanasi ko'rsatilgan. Dastlabki ikki varaqdagi rasm "Boston" mavzusiga aloqador emas va qirolik partiyasini ifodalaydi [1].

Behzod faoliyati to'g'ri tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Masalan, Sa'diyning Doro va uning bosqinchilarining afsonaviy voqeasi haqidagi hikoyasi davomida o'zining mazmunligi va

ravshanligi bilan kishini maftun qiladigan uchinchi miniatyura hisoblanadi.

Behzod bu voqeani shunday tasvirlaydi: rasm tepasida tog' cho'qqilari, archalar, bahor osmoni turli rangda tasvirlangan bo'lib, asosiy voqea keng yam-yashil o'tloqda bo'lib, uning o'rtasida oqar suv va daryolar bor. Doroning ot ustidagi qiyofasi va nafis qiyofasi uning tashvishidan dalolat beradi. Markaziy figura - bosqinchi bo'lib, u shohga malomat va norozilik bilan qaraydi. Qudratli jussa va qo'lining ulug'vor harakati podshohning ulug'vorligini bostiradi. Bu manzarani ko'rib, temir mashg'ulot bilan shug'ullangan ikkinchi g'oliblikka davog'ar inson ham dovdirab qoldi. Tog'ning orqa tarafida ot minib uchinchi chavandoz kimgadir diqqat bilan qaradi. U bu voqeani bilmaydi va unga ahamiyat bermaydi.

Doroning oldidagi ikki ot yo'q bo'lsa-da, tog' etagidagi otlar va yana bir ot o'tlab yuribdi, tulporlar esa yaylovlarda emin erkin yuribdi. Butun sahna tabiat bilan o'ralgan (gullar, daraxtlar, cho'l va tog'lar) va u rasmning janr xususiyatlarini ko'rsatadi. To'rtinchi rasmda masjid yoki uy ko'rsatilgan. Bu rasmning qadri shundaki, Behzod o'z davrining me'morchilik va qurilish uslubini, devor chizma va naqshlarini detallar bilan yozib olib, koshin qo'shish, gul otish orqali ularni jozibali suratga aylantira olgan manzara tasvirlangan. Lekin bu yerda odamlar birinchi o'rinda: muallim ayolga yuzi ochiq holda dars o'tmoqda, uch kishi janjallashyapti, biri qo'lini ko'tarib namoz o'qiyapti, ikkinchisi tahorat qilyapti. Beshinchi suratda ikki olim o'rtasidagi munozara tasvirlangan. Oltinchi rasmda esa "Yusuf va Zulayho" syujeti - Yusufning Zulayho saroyidan qochishi tasvirlangan. Bu asar orqali Behzod qochoq oshiq va Zulayho tuyg'ularining qaynashini ifodalovchi yakuniy holatni beradi.

Sherali Xattot 1467-yilda Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kitobini chizgan bo'lib, bu kitobdagi 12 ta rasmdan

8 tasi Behzod qalamiga tegishli. Ushbu qo'lyozma hozirda Jon Xopkins universiteti (Baltimor) kutubxonasida saqlanmoqda. "Zafarnoma"ning 8 ta surati mavzu jihatidan bir-biridan farq qiladi, ularda urush manzaralari, shoh ziyofat va qabul lahzarlari, ovchilik, qurilish va shu kabilar aks etgan. Lekin suratlarini birlashtirgan jihati voqeaning ommaviyligi, ularning tabiat manzaralari bilan o'ralganligi, kiyim-kechaklarning rang-barangligi, odamlarning u yoqdan bu yoqqa ko'chib o'tayotgani o'sha suratlariga o'zgacha ko'rinish bag'ishlaydi. Birinchi rasmda Amir Temurni bog'da kutib olish marosimi aks etgan: o'ng tomonda Amir Temur va uning saroylari, chap tomonda qabul marosimiga kelgan xorijiy davlatlar vakillari turibdi. Saroyning ba'zi amaldorlari ham ular bilan birga: stulda ikki kishi o'tirgan, eshik ortida bir necha kishi turibdi, xizmatkorlar orasida bir nechta qo'ng'iroqchi ayollar bor. Behzod bu kishilarning har birining kiyimi, tashqi qiyofasi, o'zini tutishi bilan butun bir kompozitsiyani yaratgan. Boshqa bir rasmda Temurning Xiva qal'asini zabt etishi tasvirlangan: qal'aga o'tliqlar kirib keldi, ustiga o'qlar, toshlar yomg'irlari yog'moqda, lekin ular istilodan mast, bir necha kishi egardan yiqilib tushmoqda, ammo qo'shin oldinga siljishda davom etmoqda. Qal'aga kiraverishda shoxlariga tok o'ralgan katta chinor bor. Bu katta harakatsiz chinor va qo'shinlarning harakat tezligi ajoyib kontrast yaratib, rasmni band va juda mazmunli qilgan. Qarama-qarshilik uslubi Behzodning boshqa jangovar rasmlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Bu tog'dagi jang manzarasini aks ettiruvchi tasviridir. Jangning shiddati va harakat tezligini ikki qo'shinning bo'ronni eslatuvchi yaqinlashayotganidan ko'rish mumkin. Ba'zi askarlar tog'ga chiqishadi. Bu suratda Behzodning nihoyatda aniq kuzatuvchi aks etgan [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. "Turli yillarda Kamoliddin Behzod hayoti va ijodiga oid tadqiqotlar o'zbekistonlik olimlar – N.Ahmedova, A.Madramimov, I.Nizmiddinov, N.Norqulov, G.Pugachenkova, Z.Rahimova, H.Sulaymonov, O.Usmonovlar tomonidan, shuningdek, qator Sharq mamalakatlar olimlari bilan bir qatorda, Yevropa va amerikalik olimlar tomonidan ham olib borilgan. Kamoliddin Behzodning ijodiga oid dastlabki tavsiflar uning zamondoshlari – Mahmud Zayniddin Vosifiy, Qozi Ahmad, Hondamir, Alisher Navoiy kabi allomalarga tegishli bo'lsa, 19–20-asrlarga kelib uning hayoti va ijodini o'rganish xalqaro miqyos kasb eta boshladi. Bunday tadqiqotchilar sirasiga O.F.Akimushin, T.Arnold, M.Ashrafiy, YE.Bahoriy, B.Grey, L.T.Gyuzalyan, M.M. Dyakonov, A.A. Ivanov, M.K.Lukens, F.Martin, YE.A.Polyakova, V.Robinson, I. Toporov, I. Shchukin kabi mashhur tarixchi va san'atshunoslar kirishi Kamoliddin Behzod hayoti va ijodi umumshahar ahamiyatga molikligidan dalolat beradi. Kamoliddin Behzod asarlarining bu maqomi, yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, ilmiy-intellektual mulk sifatida ko'p tarmoqli funksiyani bajaradi. Mana shu funksiyalardan biri, shubhasiz, badiiy-estetik tarbiya hisoblanadi [3]".

Behzod asarlarining realizmi ko'proq xalq hayoti va ijodini aks ettiruvchi sahnalarda namoyon bo'ladi. Qurilish sahnalari rasmda har bir ishtirokchi o'ziga xos vaziyatda aks etadi va biri ikkinchisiga o'xshamaydi. "Zafarnoma"ning ikkita surati (shartli ravishda ularni "Samarqand masjidi qurilishi" deb atash mumkin) XV asrdagi murakkab qurilish ishlari jarayonini o'z ichiga oladi. Bu suratlarida hamma faol harakatda ekanligi tasvirlangan. Bittasida 15 ta hunarmand va bitta ish beruvchi suratga olingan, duradgorlar arra arralagan, tosh yorgan toshchilar, ot aravada marmar lavhalar olib kelingan, ba'zilar tushira olmaydigan fil olib kelgan boshqa materiallar. Yana bir holatda 18 kishi loy yashash, pardozlash, loy tayyorlash bilan shug'ullanadi. Bu rasmlarda Behzodning kompozitsiya mahorati ko'zga tashlanadi. Bu rasmlar katta tarixiy ahamiyatga ega.

Tabrizdagi Do Kamol maqbarasidagi Kamoliddin Behzod haykali va qabri Behzodning Tabrizdagi faoliyati va Safaviylar saroyi haqida kam ma'lumot mavjud. Qozi Ahmad Nizomiy "Xamsa"ning bir jildini nazarda tutadi, uni Shoh Mahmud Neyshaburiy ko'chirib, xattot qilib, Behzod tasvirlagan. Do'st Muhammadning qo'shimcha qilishicha, Behzod Tahmasb xizmatida vafot etgan va Tabrizda Kamol Xo'jandiy yoniga dafn etilgan. Tarixiy materialda Behzodning hijriy 935 yilda vafot etganligi ko'rsatilgan. Do'st Muhammadning moddiy tarixiga

ko'ra, Behzod hijriy 942-yilda vafot etgan va Tabrizda shoir Kamol Xo'jandiy qabri yonida dafn etilgan bo'lib, u bugun Dukmal qabri nomi bilan mashhur. Qozi Ahmadning yozishicha, u Hirotda vafot etgan va Muxtor tog'i yoniga dafn etilgan. Qamar Arianning yozishicha Qozi Ahmadning rivoyati shubhali, ayniqsa uning Tabriz va Qazvinda Hirotda qanday sayohat qilgani aniq emas, Qozi Ahmad da'vosining to'g'riligi esa Behzodning Sulton Husayn vafotidan keyin Hirotda istiqomat qilganligini taqozo etadi. Tarixchilarning rivoyatlari va boshqa hujjatlarni qabul qilib bo'lmaydi. Istanbuldagi Yildiz kutubxonasida Behzodning keksalikdagi yuzini, kamtarona odam qiyofasini va Safaviylar davri libosini aks ettirgani taxmin qilingan rasm bor [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Qiyosiy tahlil, tizimlilik, umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Hech bir muallif Behzodning tarjimai holini izchil keltirmaydi, lekin uning hayotiga oid ayrim faktlarni turli manbalardan olish mumkin. Behzod umrining so'nggi yillarini Tabrizda Safaviylar saroyida o'tkazgan bo'lsa kerak. U o'zining yaqin qarindoshlari bilan Tabrizga ko'chib ketgan bo'lsa kerak, chunki uning jiyani, taniqli xattot Rostam Ali, shuningdek, singlisining nabiralari Mohib Ali va Mozafarali ham rassom bo'lgan, hammasi Tabrizda tahsil olishgan. Behzodning Tabrizga ko'chgan sanasi va shartlari noma'lum. Hijriy 928 yilda Shoh Ismoilning Behzodni Shoh Ismoil qo'lyozmalari ustaxonasiga mudir etib tayinlash haqidagi farmoni ko'pincha Behzodning bu hukmdor bilan aloqadorligiga dalil sifatida baholalanadi. Biroq, bu hujjat Nami Xonadmirning maktubi nusxasida - tarixiy xat yozish uslubi namunalari to'plamida aks etgan. Unda hijriy 925 yil belgisi bor - u saqlangan. Vaqt o'tishi bilan bu nomuvofiqlik ushbu hukmning haqiqiyliги haqida savollar tug'diradi. Bundan tashqari, ko'st Muhammad, Iskandar Bey va Qozi Ahmad Qomiy kabi safaviy adiblari Behzodning Shoh Tahmasb davrida ishlaganligini aniq ta'kidlaydilar, lekin Shoh Ismoil bilan hech qanday aloqasi yo'q bo'lgan. Qozi Ahmadning qayd etishicha, Behzod Tabrizga Shoh Tahmasb kutubxonasi allaqachon tashkil etilgan va uning mudiri Sulton Muhammad hukmdorga rassomlikdan dars berayotgan bir paytda kelgan. Bu hujjat Manshi Qomiyning Behzodning Hirotda 930-hijriyda Shoh Tahmasb saltanatining boshigacha bo'lganligi haqidagi gapiga ziddir. Bu farmondan tashqari Behzodning Shoh Ismoil bilan aloqadorligiga guvohlik beruvchi hujjat, Usmonli tadqiqotchisi Mustafo Ali Gallipoli yozgan Manaqib Hanoron qissasi hisoblanadi. Hijriy 995 yilda u Behzod va xattot Shoh Mahmud Nishoburiyning Shoh Ismoil bilan Chaldarondagi jang maydoniga qanday hamroh bo'lganini va Usmonlilar g'alaba qozongan taqdirda ularning xavfsizligidan qo'rqib, ularni g'orga yashirganini tushuntiradi. Bu hikoyaga Usmonli g'alabasi haqidagi bashorat hamroh bo'lib, bu uning tarixiyliyini shubha ostiga qo'yadi. Bu hikoyatga ko'ra, Behzod Shoh Ismoilning e'tibori va iltifoti bo'lgan deb hisoblanadi. Ammo boshqa tomondan, bu voqea Mustafo Ali tomonidan aytilganligi va Eron tarixchilaridan hech biri uni tilga olmaganligi sababli uning yuzaga kelishi va haqiqiyliyiga shubha qilish mumkin. Mustafo Alining boshqa gaplari Behzodning u uchun afsonaviy shaxs va eng yaxshi fazilatlarini eslatuvchi ekanligini ko'rsatadi. Hijriy 919 yilda Ismoilning o'g'li Tahmasb Hirotda hukmdori bo'lib, hijriy 929 yilda Tabrizga qaytganida Behzod u bilan birga edi. Tabrizda u hali ham shoh homiyligidan bahramand bo'lib, shoh kutubxonasi mudir etib tayinlangan va zarhal va tasvirlangan qo'lyozmalar ishlab chiqarishga mas'ul bo'lgan va unga barcha kutubxonachilar, xattotlar, rassomlar, zardo'zlarning mas'uliyati ishonib topshirilgan, margin yozuvchilar, zargarlar va lapis lazuli yuvuvchilar bo'ldi. U o'limigacha bu lavozimni saqlab qoldi [5].

Behzod nafaqat san'ati bilan, balki amalda ham ustoz sifatida o'z davrining yoshlarini estetik ruhini tarbiya qilgan. Kamoliddin Behzod juda ko'p shogirdlarini o'zidek kamolga yetkazgan. Sodiq Kitobdor "Majmaul havos"da yozishicha, u shogirdlariga juda talabchan bo'lgan. Hatto Sodiq Kitobdorning o'zi ham uning shogirdi bo'lgan [6]. Kamoliddin Behzod davrini tom ma'noda Sharq Uyg'onish davri deyiladi.

Xulosa va takliflar. Temuriylarning yuksak madaniyatiga hurmat va e'tibor bilan qaragan Shayboniyxon Behzod san'ati oldida lol qolib, uning ijodiy ishlariga deyarli to'stinlik qilmaydi, aksincha, mumkin qadar sharoit yaratib



UDK:796.08:316.3 (575.1)

Mansurbek MA'RUF OV,
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti v.b., PhD
Email: mansurbek_marufov@mail.ru.

PhD dotsent X.Fozilov taqrizi asosida

TABIY ATROF-MUHIT OMILLARIDAN FOYDALANIB JISMONIY TARBIIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARI SAMARADORLIGINI PEDAGOGIK ASOSLASH

Аннотация

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlar jarayonida tabiiy atrof-muhit omillarini talabalar salomatligiga ta'siri o'rganish, uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy jihatni ta'minlash uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar ularning xarakterli xususiyatlari, sifatleri va funksiyalar majmuasiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat amaliyotiga tayyorligi haqida fikrlar kelirtilgan.

Kalit so'zlar: Atrof-muhit, samaradorlik, uzluksiz ta'lim, maxsus tibbiy, salomatlik, jismoniy va ruhiy barkamolligi, konsepsiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТИВНОЙ ТРЕНИРОВКИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРИРОДНЫХ ФАКТОРОВ СРЕДЫ

Аннотация.

В статье рассматривается влияние природных факторов окружающей среды на здоровье студентов в процессе занятий физической культурой и спортом, их характеристика, качества и функции, а также задачи, которые необходимо решить для обеспечения основного направления совершенствования системы непрерывного образования. Размышления были высказано мнение о сформированности личности как комплексного субъекта, готовности личности к занятиям общественно значимой деятельностью.

Ключевые слова: Окружающая среда, эффективность, непрерывное образование, специальная медицина, здоровье, физическое и психическое благополучие, концепция.

PEDAGOGICAL JUSTIFICATION OF THE EFFECTIVENESS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS TRAINING USING NATURAL ENVIRONMENTAL FACTORS

Annotation

This article presents ideas about the study of the impact of natural environmental factors on students' health during physical education and sports activities, the tasks that must be carried out to ensure the main aspect of improving the continuing education system is the formation of a person with a set of characteristic features, qualities and functions, and the readiness of the person to practice socially significant activities.

Key words: Environment, efficiency, continuing education, special medical, health, physical and mental well-being, concept.

Kirish. Respublikamizning uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga keng jalb qilish, ayniqsa, tabiiy atrof-muhit sofligini saqlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. "Yashil makon" umummilliy loyihagini bajarish ham tabiiy atrof-muhitni jismoniy tarbiya va sport sohalariga ta'siri doirasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni taqazo etmoqda. Yurtboshimiz tomonidan hozirgi kunning "...eng muhim masalalardan biri – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur" deya ta'kidlagan so'zlari bizni mazkur sohada chuqur izlanishlar olib borishimizga asos bo'lmoqda. Mamlakatimizda tabiiy atrof-muhit omillaridan foydalanib jismoniy tarbiya mashg'ulotlari samaradorligini oshirish, barqaror tabiiy atrof muhitni yaratish ishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy-uslubiy qo'llanmalar yaratish, atrof tabiiy muhit omillarning jismoniy tarbiya va sport natijalariga salbiy ta'sirini kamaytirish, sportchilarimizni xalqaro musobaqalardagi ishtiroki va erishgan natijalarini yaxshilash, jismoniy tarbiya va atrof tabiiy-muhit bo'yicha innovatsiyalarni takomillashtirish, mashg'ulotlar jarayonini ilmiy asosda tashkil etish zarurati mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yoshlarga qo'yiladigan talablarning ular uchun bir muncha qiyinligi, ularda psixoemosional holatni kuchaytirmoqda. Natijada, ularning jismoniy faollik darajasi nafaqat o'qishda, mehnatda, balki kundalik hayotida ham pasaygan. Talabalarning 30%ga yaqini jismoniy mashqlarni haftasiga atigi 2-3 soat bajaradi, 70% esa, umuman bajarmagan. Bu esa o'z navbatida, organizmning zaiflashishiga, salomatligi,

jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi darajasini pasayishiga olib keladi.

Tabiiy atrof-muhit va jismoniy tarbiyaga oid muammolarni hal etish yuzasidan ko'pgina fundamental hamda amaliy pedagogik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tabiiy muhit, ekologik ta'lim-tarbiya hamda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari samaradorligini oshirish muammosi respublikamizning bir qator olimlari tomonidan o'rganilgan. Jumladan, "Markaziy Osiyoda ekologik ta'lim taraqqiyoti"ga oid muammolar bo'yicha E.O.Turdiqulov, ekologiya qonunchiligini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarliklarini takomillashtirish muammolari bo'yicha I.M.Mamarayimov, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari jarayonida talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishni ilmiy-pedagogik asoslash bo'yicha K.B.Muxammadiev, Tabiiy atrof-muhit omillarida foydalanib jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini samaradorligini pedagogic asoslari bo'yicha M.M.Ma'rufov va boshqalar tomonidan dissertatsion tadqiqotlar olib borilgan. T.S.Usmonxodjaev, A.N.Abdiev, F.A.Kerimov, I.A.Koshbaxtieva, D.D.Sharipova, R.S.Xolmuxammedov, S.S.Tojiboev, Sh.Q.Mardonov, X.J.Xudaykulov va boshqa olimlar tomonidan jismoniy tarbiya, sport va pedagogika sohasiga doir ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan.


Jismoniy tarbiya va sport xamda tabiiy atrof-muhit masalalaring hamkorlikdagi yechimlari bo'yicha xorijlik olimlardan, D.A.Savitz, D.I.Barker, R. Benson, E.L.Fox, Alisha Walker, Harmer Jeremy, C.Richards, S.Rodgers va boshqalar tomonida fundamental tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarning funksional ko'rsatkichlar, jismoniy tayorgarligi va psixoemotsional xolati hamda ularning salomatligi ta'sir qiluvchi ayrim jihatlarni o'rganishdan iborat.

Biz o'z maqsadimizga erishish uchun quyidagi ikkita vazifani bajarishni joiz bildik: 1) tabiiy atrof-muhit omillarini jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga, funksional ko'rsatkichlar, jismoniy tayorgarligi va psixoemotsional xolatiga hamda ularning organizmiga ta'siri Rofes (Rofes) diagnostikasi yordamida o'rganish; 2) to'liqsimon va jadal jismoniy yuklamalarni oshirish orqali talabalarning jismoniy tayorgarlik ko'rsatkichlarini nisbiy o'sishiga erishish.

Talabalarda jismoniy tarbiyaga bo'lgan qiziqishni ro'yobga chiqarishga yo'l bermaydigan ob'ektiv va sub'ektiv omillar majmuini ko'rib chiqib, aytish mumkinki, talabalarning

Talabalarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini (BKQ) mustaqil mashg'ulotlarda qo'llay bilishi mahorati foizlarda aniqlanishi



Ertalabki gigenik gimnastika majmuini tuzish mahorati (EGGCMTM), TG ha – 100,0 %, yo'q – 0 %, javob berishga qiynalaman – 0 %; NG ha – 100,0 %, yo'q – 0 %, javob berishga qiynalaman – 0 %. JT jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish mahorati (JT va SJO'O'NQ), TG ha – 100,0 %, yo'q – 0 %, javob berishga qiynalaman – 0 %; NG ha – 50,0 %, yo'q – 35,7 %, javob berishga qiynalaman – 14,3 %. O'quv-mashq mashg'ulotini olib borish mahorati (O'MMOB), TG ha – 67,7 %, yo'q – 0 %, javob berishga qiynalaman – 33,3 %; NG ha – 42,8 %, yo'q – 21,4, javob berishga qiynalaman – 35,7 %. O'rinli parhez tuzish mahorati (O'PT), TG ha – 60,0 %, yo'q – 6,7 %, javob berishga qiynalaman – 33,3 %; NG ha – 50,0 %, yo'q – 14,3 %, javob berishga qiynalaman – 35,7 %. Chiniqish bo'yicha maslahat berish mahorati (CHBMT), TG ha – 40,0 %, yo'q – 13,8 %, javob berishga qiynalaman – 46,7 %; NG ha – 28,6 %, yo'q – 14,3 %, javob berishga qiynalaman – 57,1 %. O'z-o'ziga yoki boshqa shaxsga massaj qilish mahorati (O'O'YOBSHMQ), TG ha – 86,7 %, yo'q – 0 %, javob berishga qiynalaman – 13,3 %; NG ha – 78,6 %, yo'q – 0 %, javob berishga qiynalaman – 21,4 %.

Tajriba va nazorat guruhi talabalari fikriga ko'ra, ularning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishlari va intilishlari moddiy-sport bazalarini inverterlar bilan jixozlanganlik holati, o'quv jarayoni mazmunining yo'nalishi, mustaqil mashg'ulotlarni tashkillashtirish uchun jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bilim doirasi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Tabiiy omillaridan foydalanib oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari samaradorligini oshirishni pedagogik asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi. Gigenik talab mezonlarini qo'llash orqali jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga, talabalarning jismoniy, psixoemotsional holatiga, ularning organizmiga ta'sirini o'rganish hamda jismoniy tayorgarlik ko'rsatkichlarining nisbiy o'sishini tajribada aniqlash.

Insonning jismoniy salomatligi to'rtta asosiy omilga bog'liq: turmush tarzi, biologik omillar, tabiiy-geografik sharoitlar va atrof-muhitning ekologik holati. Respublikamizning turli shaharlarida yashovchi insonlarning sog'lig'iga ta'sir qiladigan yagona sub'ektiv omil ekologik omil deb taxmin qilishimiz mumkin. Biz o'tkazgan pedagogik tajribaga ishtirokchi sifatida turli viloyat va shaharlarda yashaydigan talabalar olingan. Bularga Toshkent shahri, Farg'ona shahridagi oliy o'quv yurtlarida tahsil oladigan talabalar tajriba va nazorat guruhlariga jalb qilingan.

jismoniy tarbiyadagi faollik darajasi sifatida ob'ektiv sabablarning vaqtida bartaraf etilishi, hamda ta'lim va tarbiyaviy jihatlarining kuchaytirilishiga bog'liqdir.

Tahlil va natijalar. Tajriba va nazorat guruhi talabalari fikriga ko'ra, ularning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishlari va intilishlari moddiy-sport bazalarini inverterlar bilan jixozlanganlik holati, o'quv jarayoni mazmunining yo'nalishi, mustaqil mashg'ulotlarni tashkillashtirish uchun jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bilim doirasi bilan belgilanadi.

So'rov jarayonida talabalarning qancha foizi olingan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini (BKQ) mustaqil mashg'ulotlarda qo'llay bilishi aniqlandi. Bu boradagi ko'rsatkichlar aks ettirilgan 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, eng ko'p ijobiy javobni TG talabalari berishgan.

Mazkur shaharlar orasidagi masofa turlicha va turli geografik hududda joylashgan. Masalan Toshkent va Farg'ona shaharlari bir-biridan 250-300 kmni tashkil qiladi. Bu hududlardagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan, pedagogik tajriba sinovga jalb qilingan talabalarning sog'ligi, jismoniy tayorgarligi va funksional ko'rsatkichlaridagi farqni taqqoslashda tabiiy iqlim, geografik sharoit va ekologik muhitni ularga ta'sir qiluvchi omil sifatida hisobga olish mumkin.

Subektlar shunga o'xshash turmush darajasiga ega, ular quyidagilardan iborat:

- Respublikamiz hududida jismoniy tarbiya va sport hamda tibbiyot fanining darajasi;
- mehnat sharoitlari - bizning holatlarimizda, o'quv sharoitlari;
- dam olish;
- uy-joy, yashash sharoitlari (daromad darajasi bunga bog'li emas);
- oziq-ovqat (o'xshash mahsulotlar);
- atrof-muhitni muhofaza qilish

Hozirga kunga kelib JT mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqish keskin tushib ketganligini tadqiqotlar ko'rsatmoqda. Talabalar JT mashg'ulotlari bilan shug'ullanishga ehtiyoj sezmaydilar. Tadqiqotchi K.B. Muhammadievning bu sohadagi ma'lumotlariga ko'ra talabalarning – 20 % dan – 64,1 % gacha qismi JT ning mustaqil shakllari bilan shug'ullanadi; vaqti-vaqti bilan – 50 % dan – 92,5 % gacha talaba shug'ullanadi; 7,5 % dan – 34,2 % gacha talaba mustaqil ravishda mustaqil shug'ullanib turadi.

JT faoliyatiga bo'lgan qiziqish ortishiga ta'sir ko'rsatadigan tashqi omillar orasida talabalar mashg'ulotlar sifatini yaxshilash zarurati (40,9 %), atrof-muhit va qo'llash iqlim mavjudligi – 56,9 %, o'qituvchilar kasbiy tayorgarlik darajasini oshirish, moddiy-sport bazasini yaxshilash, sport turlaridan birini tanlash (35,6 %) imkoniyatini ko'rsatadilar.

JT mashg'ulotlari samaradorligini oshirish uchun jismoniy mashqlar shakllarini tanlashda ustuvorlik tartibini ko'rib chiqish kerak. Bunda jismoniy tarbiyaga qiziqishlari quyidagicha tarzda taqsimlanadi. Mashg'ulotlar sport yo'nalishiga ega bo'lishini istaydiganlar – 20 % dan (qiz) – 81,1 % gacha (yigit), sog'lomlashtiruvchi yo'nalishda bo'lishini xohlaydiganlar – 17,1 % dan (yigit) – 82 % gacha (qiz), JT mashg'ulotlarining boshqacha shakllari – 1,8 %, atrof-muhit va qo'llash iqlim mavjudligi – 56,9 % aniqlandi. Kundan kunga rivojlanayotgan

ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlar, ilmiy-texnik taraqqiyot natijasi sifatida JTga qadriyat sifatidagi munosabatga, qarashlarga, unga bo'lgan ehtiyojni va uning jamiyatda rivojlanish samaradorligini belgilab beradigan jismoniy faolligining darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Talabalar ishtirokida o'tkazilgan pedagogik tadqiqotlarda, JT mashg'ulotlariga bo'lgan munosabatlarining asosiy determinant (aniqlovchi) lari qayd etilib, shu faoliyat sohasidagi ehtiyojlar va sabablar asosida JT mashg'ulotlar samaradorligi ko'rib chiqiladi, bu esa talabalarning jismoniy mashqlar bilan

turlicha shug'ullanish shakllari bilan qamrab olinish ko'lamini aks ettiradigan ob'ektiv holatni, ularning JT ga qiziqishlari doirasini tasavvur etish, turli xil, ob'ektiv va sub'ektiv omillarning JT faolligi darajasiga ta'siri ahamiyatini baholash imkonini beradi.

Ijtimoiy pedagogik tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, talabalar jismoniy mashqlarni inson umumiy madaniyatining muhim elementi deb bilib, uning ijtimoiy ahamiyatiga yuksak baho beradilar, bunda inson salomatligi – ijtimoiy qadriyat ekanligiga alohida urg'u beriladi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'tkazish uchun tavsiya etiladigan mikroiklim ko'rsatkichlarining me'yorlari

T/r	IK	Maqbul me'yorlar		Yo'l qo'yiladigan me'yorlar			
		Harorat, OS	HHT, m/s, katta emas	Harorat, OS		HNN, %, katta emas.	Havoning harakat tezligi, m/s.
				DIO'	DBIO'		
Yilning sovuq davri uchun							
1	I a	22-24	0,1	21-25	18-26	75	0,1 kichik
2	I b	21-23	0,1	20-24	17-25	75	0,2 kichik
3	II a	18-20	0,2	17-23	15-24	75	0,3 kichik
4	II b	17-19	0,2	15-21	13-23	75	0,4 kichik
5	III	16-18	0,3	13-19	12-20	75	0,5 kichik
Yilning issiq davri uchun							
1	I a	23-25	0,1	22-28	20-30	55-28 OSda	0,1-0,2
2	I b	22-24	0,2	21-28	19-30	60-27 OSda	0,1-0,3
3	II a	21-23	0,3	18-27	17-29	65-26 OSda	0,2-0,4
4	II b	20-22	0,3	16-27	15-29	70-25 OSda	0,2-0,5
	II	20	18-0,4	15-26	28	13-0,5da 75-24	0,2-0,6

Izoh: Sutkali o'rtacha temperatura +10 °G va undan yuqori bo'lsa yilning issiq fasli deyiladi, aksincha bo'lsa sovuq fasli deyiladi; IK - ish kategoriyalari; DIO'- doimiy ish o'rinlarida; DBIO' - doimiy bo'lmagan ish o'rinlarida; HHT-havoning harakat tezligi; HNN - havoning nisbiy namligi;

JT mashg'ulotlari samaradorligini oshirish uchun jismoniy mashqlar shakllarini tanlashda ustuvorlik tartibini ko'rib chiqish kerak. Bunda jismoniy tarbiyaga qiziqishlari quyidagicha tarzda taqsimlanadi. Mashg'ulotlar sport yo'nalishiga ega bo'lishini istaydiganlar – 20 % dan (qiz) – 81,1 % gacha (yigit), sog'lomlashtiruvchi yo'nalishda bo'lishini xohlaydiganlar – 17,1 % dan (yigit) – 82 % gacha (qiz), JT mashg'ulotlarining boshqacha shakllari – 1,8 %, atrof-muhit va qo'lash iqlim mavjudligi – 56,9 % aniqlandi.

Talabalar fikriga ko'ra, ularning JT ga bo'lgan ehtiyojlari va intilishlari moddiy-sport bazasi holati, o'quv jarayoni mazmunining yo'nalishi, mustaqil mashg'ulotlarni tashkillashtirish uchun JT bo'yicha bilim doirasi bilan belgilanadi.

Inson shunday sharoitda o'zini comfort his qiladiki, qachonki uning tanasidan hosil bo'lgan ortiqcha issiqlik miqdori

atrofga uzatilayotgan issiqlik miqdoriga teng bo'sa. Biz tavsiya etgan gigeynik talab mezonlarida talabalarning jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga qiziqishi bir muncha oshganligi pedagogik tajribada aniqlandi.

Xulosa. Mashg'ulotlarni tobora ko'proq ixtisoslashtirishga, ya'ni ularni o'rganilayotgan kasb-hunar yo'nalishini va mavjud moddiy bazani hamda gigeynik talab mezonlarini hisobga olgan holda sport turlaridan biri doirasida o'tkazishga intilish kuzatilmoqda. Ko'plab tadqiqotchilar ta'lim jarayoniga sportga tayyorlash texnologiyalarini joriy etib, unda ixtisoslashtirilgan vositalar qo'llanishidan olingan ijobiy natijalarni namoyish etadilar. Bunda ustuvorlik sport mashqlariga berilib, mashg'ulotlarning o'zi o'quv-mashq ko'rinishiga ega bo'lishi kerak.

Yuqorida asoslanib talabalarning jismoniy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar darajasi ko'p jihatdan pedagogika jarayonining yo'llanganligini belgilab beradi degan xulosa chiqarish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Muxamadiyev K.B. Talabalarning jismoniy ko'rsatkichlarini rivojlantirish. Uslubiy qo'llanma. Toshkent temir yo'l muhandislari instituti bosmaxonasi. 07.05.2019 y. – 28 b.
2. Muxamadiyev K.B. Jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanishda jismoniy yuklamalar samaradorligini baholashning pedagogik nazorat usullaridan foydalanish. Uslubiy qo'llanma Toshkent temir yo'l muhandislari instituti bosmaxonasi. 07.08.2019 y. – 23 b.
3. Muxamadiyev K.B. Jismoniy tarbiya ta'limi jarayoni samaradorligini oshirish va talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari: Monografiya / "Innovatsion rivojlantirish nashriyoti-matbaa uyi". – Toshkent, 2021. – 413 b.
4. Muxamadiyev K.B. Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya ta'limi jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish // Ta'lim, fan va innovatsiya – Toshkent, 2021. 4-son. – B. 53-57.



UDK:107.8:167

Dildora MURATOVA,
Renessans ta'lim universiteti tadqiqotchisi dotsenti, PhD
E-mail: muratovadildora959@gmail.com

Dotsent, PhD S.Sultanov taqrizi asosida

SPIRITUAL AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF ECOLOGICAL AWARENESS AND ECOLOGICAL CULTURE IN MODERN UZBEKISTAN SOCIETY

Annotation

The article analyzes the formation processes of ecological consciousness and culture in modern society, its historical-spiritual, philosophical, and socio-cultural foundations. The research reveals the role of religious values, national traditions, and modern approaches in the formation of ecological culture. Using the Aral Sea as an example, the author substantiates the importance of scientific forecasting and preventive measures in preventing global environmental problems. The article defines modern mechanisms and prospects for developing ecological culture.

Key words: Ecological culture, ecological consciousness, sustainable development, nature protection, religious values, national traditions, global ecology, environment, ecological education, ecological forecasting.

ДУХОВНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКИСТАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В статье анализируются процессы формирования экологического сознания и культуры в современном обществе, его историко-духовные, философские и социокультурные основы. В исследовании раскрывается роль религиозных ценностей, национальных традиций и современных подходов в формировании экологической культуры. На примере Аральского моря автор обосновывает важность научных прогнозов и превентивных мер в предотвращении глобальных экологических проблем. В статье изложены современные механизмы и перспективы развития экологической культуры.

Ключевые слова: Экологическая культура, экологическое сознание, устойчивое развитие, охрана природы, религиозные ценности, национальные традиции, глобальная экология, окружающая среда, экологическое образование, экологический прогноз.

ZAMONAVIY O'ZBEK JAMIYATIDA EKOLOGIK ONG VA EKOLOGIK MADANIYAT SHAKLLANISHINING MA'NAVIY-FALSAFIY ASOSLARI

Аннотация

Maqolada zamonaviy jamiyatda ekologik ong va madaniyatning shakllanish jarayonlari, uning tarixiy-ma'naviy, falsafiy va ijtimoiy-madaniy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik madaniyatning shakllanishida diniy qadriyatlar, milliy an'analar va zamonaviy yondashuvlarning o'rni ochib berilgan. Muallif Orol dengizi misolida global ekologik muammolarning oldini olishda ilmiy bashoratlar va preventiv chora-tadbirlarning ahamiyatini asoslab bergan. Maqolada ekologik madaniyatni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari va istiqbollari belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik madaniyat, ekologik ong, barqaror rivojlanish, tabiatni muhofaza qilish, diniy qadriyatlar, milliy an'analar, global ekologiya, atrof-muhit, ekologik ta'lim, ekologik prognoz.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekistonda ham texnokratik sivilizatsiyaning ta'sirlari kuzatilmoqda. Ayniqsa, iste'molchilik madaniyati kuchayib, odamlar orasida moddiy boylikka intilish, shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yish kabi holatlar paydo bo'layotgani hech kimga sir emas. Masalan, yirik shaharlarda ko'kalamzorlarning qisqarishi, qurilishlarning ko'payishi, transport vositalarining ortishi kabi muammolar ekologik vaziyatni murakkablashtirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlagidek: "O'zbekiston - ulkan tabiiy xaziralari, iqtisodiy va insoniy salohiyatga boy mamlakat. Ammo Yaratganning o'zi ato etgan yana bir beho boyligimiz borki, u ham bo'lsa, xalqimizning beqiyos intellektual va ma'naviy salohiyatidir". Darhaqiqat, jamiyatimizning barqaror rivojlanishi faqat iqtisodiy va texnologik taraqqiyotiga emas, balki ma'naviy yuksalish, ekologik madaniyat va inson-tabiat uyg'unligiga ham bog'liqdir. Bu esa har birimizdan mas'uliyat, faollik va kelajak avlod oldidagi burchimizni chuqur his etishni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Abu Rayhon Beruniyning "Minerologiya" deb tarjima qilingan "Kitob al-jamohir fi ma'rifat al-javohir" asarida tabiat va inson munosabatlarini chuqur tahlil qilgan. Bu nodir asar 1048-yilda, olimning umrining so'nggi yillarida yozib tugallangan bo'lib, unda 50 yillik ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar natijalari jamlangan. Asar nafaqat minerallar haqidagi ilmiy risola, balki

tabiat va inson o'rtasidagi murakkab aloqalarni o'rganishga bag'ishlangan fundamental tadqiqot hamdir.

Uning xulosalariga ko'ra, tabiat - bu tirik organizm bo'lib, inson uning ajralmas qismidir. Bu fikr orqali olim insonning tabiatdan ustun emas, balki uning bir bo'laki ekanligini ta'kidlamochi bo'lgan. Beruniy o'z asarida tabiatni yaxlit tizim sifatida o'rganish metodologiyasini taklif etgan. U tabiatdagi har bir hodisaning sabab va oqibatlarini ilmiy asosda tadqiq qilish lozimligini uqtirgan. Xususan, Beruniy tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurligini, konlardan foydalanish, minerallarni qazib olish va qayta ishlash jarayonlarida tabiiy muvozanatni saqlash zarurligini alohida ta'kidlagan. Olim bu jarayonda insonning mas'uliyati haqida ham muhim fikrlarni ilgari surgan.

"Uning falsafiy qarashlari asosida insonlar ongini charxlaydigan shunday tushunchalar mavjudki, ular ilohiy kitob - Qur'onda keltirilgan, tabiat kuchlari ta'rifi o'zida bo'lgan fikrlarni bevosita ilmiy-amaliy jihatdan tasdiqlaydi hamda ommabop tarzda bayon qilishda o'z ifodasini topadi, - deb yozadi R.Umarova. - Uning "tabiatning ko'zga ko'rinmas bir kuchi mavjudki, ugina tabiatdagi barcha o'zgarish va yangiliklarni boshqarib turadi", degan fikri muhim ilmiy xulosadir".

Ibn Sino shunday yozadi: "Havo gavdamizning va ruhimizning [tarkibiga kirgan] bir unsurdur. Havo gavdamizning va ruhimizning unsuri bulishi bilan birga, u ruhimizga yetib, uni tuzatishga sabab buladigan bir madad hamdir. Bu narsa uning bir

unsuri bulishidan emas, balki ta'sir etuvchi bo'lishi, ya'ni mo'tadillikka keltiruvchi omil bulishi sabablidir. Havodan ruhimizda paydo buladigan mo'tadillik bog'liqlir".

Ibn Sinoning "Tib qonunlari"dagi tabiat va inson salomatligi o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi ta'limoti bugungi kunda, ekologik muammolar keskinlashgan davrda, yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Uning tabiat bilan uyg'un yashash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish haqidagi g'oyalari zamonaviy tibbiyot va ekologiyaning muhim tamoyillariga aylangan.

Zamonaviy olimlarning ta'kidlashicha har bir millatning ekologik madaniyati o'ziga xos tarixiy asoslariga ega. Xususan, Samarqand davlat universiteti professori A.Aymatov ta'kidlaganidek, "Turli millat va elatlarning tabiatga estetik munosabati va uni badiiy obrazlarda ifodalashida o'ziga xos mentallikka, milliy tajribaga ega bo'lsa ham, umuminsoniy ekologik maqsad birligini, funksional uyg'unlikni ko'ramiz. Boshqacha qilib aytganda, turli millat va xalqlarning ekologik muammolarni badiiy obrazlarda ifodalashida bir-biridan milliy ehtiyojlari va manfaatlarini individualligi; tasvir obyektini, ifodalash usuli, metodologik yondashuvi va boshqa jihatlari bilan juz'iy farq qilsa ham, umumiy ekoestetik qadriyatlar taraqqiyotida an'anaviylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirish, eskini inkor qilish va yangini yaratish, kun tartibiga qo'yayotgan muammolari doirasida umumiylikni namoyon qiladi. Lekin tabiatga estetik munosabatdagi milliylikda u yoki bu darajadagi konservativ-an'anaviylikni, progressiv-yangilikni ekologik ong va madaniyat rivojlanish darajasi sifatida e'tirof etish kerak".

Tadqiqot metodologiyasi. Mutaxassislarning fikricha, diniy-madaniy an'analarga asoslangan odob-axloq qoidalari ekologik axloqqa aylanib borgan. Bu jarayon tabiiy ravishda yuz bermoqda, chunki diniy ta'limotlarda tabiatga nisbatan g'amxo'rlik va ehtirom g'oyalari azaldan mavjud bo'lgan. Olim E. Laslarning ta'kidlashicha, "bunday axloq nafaqat shaxsiy yaxshilik va individual qadriyatlarga, balki insonning atrof-muhitga moslashish talablariga ham asoslanishi kerak. Bu degani, zamonaviy ekologik axloq nafaqat shaxsiy manfaatlarini, balki butun insoniyat va tabiatning umumiy manfaatlarini ham hisobga olishi zarur".

Dog'istonlik olimlar K.Akilova va A.Alilovlarning ta'kidlashicha: "Musulmon Sharqi mamlakatlarining zamonaviy kapitalizm doirasiga kirishi, sanoatning rivojlanishi, ishsizlik va ekologik muammolarning o'sishi bilan birga, ularda asrlar davomida shakllangan an'analara va islom dunyoqarashining o'zi ham yemirilishiga olib keldi. Ko'plab musulmon din arboblari hozirgi sharoitda faqat ma'naviy qadriyatlarga qaytish orqaligina odamlar yuzaga kelgan ekologik vaziyatdan chiqishi va atrof-muhitni yaratganning ijodi sifatida saqlab qolishi mumkin deb hisoblaydilar".

Qur'oni karimda bu haqda ko'plab oyatlar mavjud bo'lib, ular insonlarni tabiatga nisbatan ehtiyotkor bo'lishga undaydi. Jumladan, "Yeb-ichinglar va isrof qilmanglar. Albatta, U isrof qiluvchilarni sevmas" (A'rof surasi, 31-oyat) oyati nafaqat ovqatlanishdagi, balki barcha turdagi isrofgarchilikni qoralaydi. Bu oyat insonlarni har qanday ne'matni tejab-tergab ishlatishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga chaqiradi. Ulamlar bu oyatni sharhlab, isrofgarchilik tabiiy resurslarni haddan ziyod ishlatish, atrof-muhitga zarar yetkazish va tabiiy muvozanatni buzishni ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydilar. Olimlar bu oyatning zamonaviy talqinida suv, elektr energiyasi, yoqilg'i kabi resurslarni ortiqcha sarflash ham isrofgarchilik ekanini alohida qayd etadilar.

Bundan tashqari, Qur'oni karimning "Rum" surasida "Qilgan amallarining ba'zisini tottirish uchun odamlarning qo'llari kasb qilgan narsalar tufayli quruqlik va dengizda fasod zohir bo'ldi" (41-oyat) deya marhamat qilinadi. Bu oyat insonning tabiatga nisbatan noto'g'ri munosabati oqibatida yuzaga keladigan ekologik muammolarga ishora qiladi. Zamonaviy mufassirlar bu oyatni hozirgi kundagi global isish, havo ifloslanishi, o'rmonlarning yo'q qilinishi kabi ekologik muammolar bilan bog'laydilar. Bu oyat go'yoki 14 asr oldin bugungi kundagi ekologik inqirozni bashorat qilgandek. Mufassirlar ta'kidlashicha, oyatdagi "fasod" so'zi hozirgi zamonda okeanlarning ifloslanishi,

o'rmonlarning kesilishi, atmosferaning zaharlanishi kabi hodisalarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, Payg'ambarimiz (s.a.v) "Agar qiyomat qoim bo'layotgan bo'lsa-yu, birortangizning qo'lida ko'chat bo'lsa, uni ekishga qodir bo'lsa, albatta ekib qo'ysin" deb marhamat qilganlar. Bu hadis hatto dunyoning oxirgi lahzalarida ham tabiatni obod qilish, atrof-muhitni asrash muhim ekanligini ko'rsatadi. Bu hadis orqali Payg'ambarimiz (s.a.v) insonlarni umrning oxirgi daqiqalarigacha tabiatni obod qilishga, atrof-muhitni yaxshatishga va kelajak avlodlar uchun yaxshi meros qoldirishga chaqirganlar.

Zamonaviy o'zbek faylasufi, marhum Saidmurod Mamashokirov 1988-yilda e'lon qilgan "Vahimami yoki haqiqat?" nomli maqolasida quyidagicha ta'kidlaydi: "Achchiq bo'lsa ham haqiqatni aytish kerak: respublikamiz olimlari, mutaxassislari Orol dengizining qurishi kelajakda qanday salbiy ekologik oqibatlarga olib borishini asoslab bera olmadilar, to'g'rirog'i, ilmiy nazariyalarga, loyihalarga yuqori tashkilotlarni ishontira bilmadilar. Vaholanki, Orol dengizining taqdiri haqida yetarli, asosli ilmiy axborotlar to'plangan. Ularning hayotiy ekanligini bugungi kunning tajribalari ko'rsatib turibdi. Lekin mutasaddi tashkilotlar bu ilmiy yechimlarni hayotga tatbiq qilishga shoshilmayotirlar, ilm ahllarining xulosalariga shubha bilan qaramoqdalar. Hanuz ikkilanib: "Yo'g'e, unchalik emasdirov" degan xom xayol bilan yashamoqdalar. Nahotki butun boshli bir dengiz qurib qoladi-yu, lekin sezilarli oqibatga olib kelmasa? Keyinchalik "eh, attang!" deguncha, bugun xavf-xatarning oldini olgan ma'qul emasmi? Shu kunlarda ma'lum iqtisodiy, texnik vositalardan foydalanib bu jarayonning oldini olish mumkin, lekin 30-40 yillardan so'ng hozir sarflashimiz zarur bo'lgan resurslardan 100 karra, 1000 karra ortiqroq mablag' sarflab ham hozirgi holatiga olib kela olmasligimiz aniq bo'lib qolyapti".

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda muallif ikki fundamental masalaga alohida e'tibor qaratadi: ilmiy jamoaning ijtimoiy mas'uliyati va davlat boshqaruvi organlarining munosabati masalasi. Bu ikki jihat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi va kuchaytiradi. Ilmiy jamoa ko'p yillik tadqiqotlar natijasida to'plangan yetarli empirik ma'lumotlar va mustahkam nazariy asoslarga tayangan bo'lsa-da, rahbar organlarni ishontirish imkoniga ega bo'lmagan, natijada qimmatli ilmiy xulosalar amaliy tatbiqini topmay qolgan. Bu esa muammoning naqadar jiddiy ekanligini ko'rsatadi. Rahbariyat tomonidan esa muammoning dolzarbligini to'liq anglamaslik, ilmiy xulosalarga nisbatan skeptik munosabat va qarorlar qabul qilishda sustkashlik kabi salbiy munosabat kuzatilgan, bu esa vaziyatni yanada murakkablashtirgan.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy qadriyatlar tizimida inson taraqqiyotning bosh maqsadi sifatida markaziy o'rinni egallamoqda. Bu qarash tasodifiy emas, balki insoniyat tarixiy taraqqiyotining mantiqiy natijasidir. Bu yerda gap oddiy inson emas, balki erkin fikrlaydigan, hayotga, mehnatga va madaniyatga ijodiy yondashadigan shaxs haqida bormoqda. Bunday shaxs o'z faoliyatida nafaqat shaxsiy manfaatlarini, balki jamiyat va tabiat manfaatlarini ham hisobga oladi. Bu - aql-idrok bilan ish tutadigan, o'z qarorlari va harakatlari uchun mas'uliyatni his qiladigan insondir. U har bir qarorining oqibatlarini chuqur o'ylab, kelajak avlodlar manfaatini ko'zlab ish tutadi.

Insonning ma'naviy rivojlanishi tabiatning evolyutsion jarayonlariga mos kelishi kerak. Bu muvofiqlik tasodifiy emas, chunki inson tabiatning ajralmas qismi hisoblanadi. Ya'ni, biz o'z taraqqiyotimizni tabiat qonunlariga qarshi emas, balki ular bilan uyg'un ravishda olib borishimiz lozim. Bu jarayonda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik tamoyillariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqiqatni bizning ajdodlarimiz yaxshi tushunganlar va asrlar davomida tabiat bilan hamohang yashashga intilganlar, ularning boy tajribasi va donoligi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular tabiatni ona kabi e'zozlab, undan foydalanishda me'yor va muvozanatni saqlashga alohida e'tibor qaratganlar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tabiatga ehtirom va uni e'zozlash an'analari, suvni muqaddas bilish, tuproqni ona kabi ulug'lash bog'rog'lar barpo etishga intilish, obodonlashtirish

madaniyati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tajribasi ham zamonaviy o'zbek jamiyatida ekologik ong va ekologik madaniyat shakllanishining ma'naviy-falsafiy asosini tashkil etadi.

O'zbekiston xalqining ko'p asrlik madaniy merosida tabiatga munosabat masalasi fundamental ahamiyat kasb etadi. Mazkur munosabat tarixiy taraqqiyot jarayonida izchil rivojlanib,

zamonaviy davrda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ajdodlarimiz qoldirgan tabiatga ehtirom va ekologik qadriyatlar tizimi nafaqat saqlanib qolgan, balki zamonaviy talqinlar bilan boyib bormoqda. Ushbu qadriyatlar majmuasi milliy turmush tarzimiz, ijtimoiy-madaniy an'analarimiz va ma'naviy qadriyatlarimizning fundamental asosini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tarakkiyot yulimizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi boskichga ko'taramiz. -T: "O'zbekiston", 2017. 87-B.
2. Beruniy Abu Rayhon. Minerologiya. – Toshkent: Fan, 1963. – B. 45-48.
3. Umarova R. Beruniy naturfalsafasining xususiyatlari va ilmiy asoslari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023, Jan. 3/1. 735-733 b.
4. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari: (uch jildlik saylanma). (Tuzuvchilar: U.Karimov, H.Hikmatullayev). J1.-T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993. 37-b.
5. Aymatov A.Q. Tabiatga estetik munosabatni shakllantirishda ekologik ong va madaniyat ta'sirining tarixiy genezisi//“Science and Education” Scientific Journal / January 2023 / Volume 4 Issue. 422-425 b.
6. Lazio Ye. Introduction to system Philosophy. - N.Y.: 1973. P. 281.
7. Alilova K.M., Alilov A.N. Islamskoye veroucheniye v reshenii ekologicheskix problem// Islamovedeniye. 2014. № 2.S.68-71



Erkin MUSTAFOYEV,

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: erkinmustafojev4@gmail.com

Fizika-matematika fanlari doktori, professor A.Tashatov taqrizi ostida

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA FIZIKA YO'NALISHI TALABALARINING AMALIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqola, integrativ yondashuv asosida fizika yo'nalishi talabalarining amaliy kompetentligini rivojlantirishning metodologik asoslarini tahlil etishga bag'ishlangan. O'quv jarayonida talabalar faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llay olishlari lozim. Shu nuqtai nazardan, maqola integrativ yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyatini yoritadi, shu bilan birga fizika fanini o'qitishda metodologik asoslarning ahamiyatini o'z ichiga oladi. Bu maqola, fizika yo'nalishidagi o'qituvchilar, ta'lim metodistlari va ilmiy tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy manba bo'lib, amaliy kompetentlikni rivojlantirishda integrativ yondashuvning metodologik asoslarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Integrativ yondashuv, amaliy kompetentlik, fizika ta'limi, metodologik asoslar, pedagogik metodlar, kognitiv jarayonlar, interaktiv o'qitish, amaliy bilimlar, fizikaviy modellar, praktikum, o'qitishning differentsial yondashuvi, talabalar faoliyati, shaxsiy yondashuv, innovatsion metodlar.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ-ФИЗИКОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация

Данная статья посвящена анализу методических основ развития практической компетентности студентов-физиков на основе интегративного подхода. В образовательном процессе студенты должны иметь возможность эффективно применять не только теоретические знания, но и практическую деятельность. С этой точки зрения в статье подчеркивается роль и значение интегративного подхода в образовательном процессе, а также отмечается значение методических основ в обучении физике. Данная статья является важным научным ресурсом для учителей физики, методистов образования и научных исследователей, помогающим лучше понять методологические основы интегративного подхода к развитию практической компетентности.

Ключевые слова: Интегративный подход, практическая компетентность, физическое образование, методические основы, педагогические методы, познавательные процессы, интерактивное обучение, практические знания, физические модели, практикум, дифференцированный подход к обучению, деятельность учащихся, личностный подход, инновационные методы.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF PRACTICAL COMPETENCE OF PHYSICS STUDENTS ON AN INTEGRATIVE BASIS

Annotation

This article is devoted to the analysis of the methodological foundations of the development of practical competence of physics students based on an integrative approach. In the educational process, students should be able to effectively apply not only theoretical knowledge, but also practical activities. From this point of view, the article highlights the role and importance of the integrative approach in the educational process, and at the same time includes the importance of methodological foundations in teaching physics. This article is an important scientific resource for physics teachers, educational methodologists and scientific researchers, which helps to better understand the methodological foundations of the integrative approach to the development of practical competence.

Key words: Integrative approach, practical competence, physics education, methodological foundations, pedagogical methods, cognitive processes, interactive teaching, practical knowledge, physical models, practicum, differential approach to teaching, student activity, personal approach, innovative methods.

Kirish. Ta'limning modernizatsiya qilinishi munosabati bilan yangi ta'lim texnologiyalari elementlari oliy ta'lim tizimiga kirib kelmoqda, bu yerda samarali vositalar va rivojlanish yo'nalishlari aniqlanmoqda. Zamonaviy sharoitlarda OTM fizika yo'alishi bitiruvchisi fizika ixtisosligi bo'yicha tadqiqotchi-pedagog malakasiga ega bo'ladi. OTM Fizika yo'nalishi bitiruvchilari tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar amaldagi davlat ta'lim standartlarida bayon etilgan [Oliy ta'lim DTS va malaka talablari].

Tadqiqot obyekti. Integrativ yondashuv asosida fizika yo'nalishi talabalarining amaliy kompetentligini rivojlantirishning metodologik asoslari mavzusida tadqiqot obyekti quyidagicha aniqlash mumkin. Tadqiqot obyekti fizika yo'nalishi talabalarining ta'lim jarayoni va amaliy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metodologik yondashuvlar kiradi.

Qo'llanilgan metodlar. Suhbat, kuzatish, tajriba, test.

Asosiy qism. Bugungi kunda OTMdagi kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi dolzarb bo'lib, bu mutaxassisni tayyorlashda zarur bo'lgan kasbiy sifatlar va ko'nikmalarning to'g'ri to'plamini shakllantirish bilan bog'liqdir [13].

Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish masalalariga ko'plab olimlar turli sohalarda diqqat qaratib kelmoqdalar [14].

OTMlarida ko'plab ilmiy-tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida hali yakuniy kognitiv (bilimga asoslangan) yondashuv ustunlik qilmoqda. Bu yondashuv asosan bilimlarning o'zlashtirilishiga qaratilgan bo'lib, ularning amaliyotda qo'llanilishiga esa kam e'tibor qaratiladi. Shu sababli, nazariy bilimlar o'zlashtirilsa ham, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalari yetarlicha shakllantirilmaydi. Shu bilan birga, har bir predmet bo'yicha o'quv ko'nikmalari kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi kunda OTMlarda o'qitish jarayoni quyidagicha tuzilgan: bilimlarni talabalarga yetkazish (ma'ruza, tushuntirishli, namoyishli), talabning mustaqil ravishda o'rganishi va o'zlashtirishi, hamda yakuniy natija – bilim zaxirasi va eruditsiyani shakllantirish (imtihonlarda namoyish etiladi) [13]. Informatsion model asosidagi ta'lim metodologiyasini takomillashtirish o'quv sifatini yaxshilamaydi.

P.Ya.Galperinning aqliy faoliyat va tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish kontseptsiyasining paydo


bo'lishi operatsion ta'lim modellarini yaratishga olib keldi. Psixologlarning tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, ta'lim jarayoni faqat bilimlar yig'ish uchun emas, balki amaliyotda samarali ishlashni o'rgatish uchun kerak [12], [14]. Shu sababli, OTM fizika ixtisosliklarida amaliyot bosqichida operatsion faoliyatli yondashuvi qo'llaniladi, ammo matematika va tabiiy-ilmiy fanlar blokida hali ham kognitiv yondashuv ustunlik qilmoqda.

Yevropa mamlakatlarida ta'lim tizimida yuz bergan o'zgarishlar umumiy ob'yektiv sabablarga asoslangan paradigmalarda o'zgarishini keltirib chiqardi. Bu esa oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini (DTS) qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'dirdi.

Mutaxassis tayyorlashning ta'lim modeli o'zgarib bormoqda, ya'ni klassik malakadan (bilim, ko'nikma, malakalar) kompetensiyaga (kompetensiya – bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatning birligi) o'tmoqda.

Terminologik aniq aniqlikni kiritamiz: malaka – ma'lum talablarga javob beradigan va kasbiy (xizmat) vazifalarining belgilangan doirasini bajarish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar to'plami; kompetensiya – bilim, ko'nikma,

Shunday qilib, 1-rasm bitiruvchining kompetentlik modelining tuzilmasi ko'rsatilgan.



1-rasm. Bitiruvchining kompetentlik modeli

Yuqoridagi rasm "Oliy o'quv yurtining bitiruvchisi uchun kompetentlik modeli"ni aks ettiradi. Ushbu rasm talabning o'quv faoliyati va kelajakdagi kasbiy faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Diagrammaning asosiy elementlari quyidagicha:

O'quv faoliyati – bu talabning ta'lim olish jarayoni, unda talaba tegishli kompetensiyalarni egallaydi.

Kompetensiyalar – bu talabning bilimlari, ko'nikmalari, shaxsiy xususiyatlari va kasbiy sifatlarining birligi bo'lib, uni kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlaydi.

Kasbiy faoliyat – bu talabning kasbiy yo'nalishda ishlashi, unda o'z kompetensiyalarini amalda qo'llaydi.

Malaka talablari – bu mutaxassisning kasbiy malakasini aniqlash uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar majmuasi.

Ish beruvchi – bu bitiruvchining kasbiy faoliyatini baholovchi va uning kompetensiyalariga talab qo'yuvchi tomon.

DTS (Davlat ta'lim standarti) – bu ta'lim sifatining davlat tomonidan belgilangan normativ talablari.

Kasbiy standart – bu kasb bo'yicha minimal talablarni aks ettiruvchi me'yoriy hujjat bo'lib, malaka darajalarini belgilaydi.

Kompetentlik modeli bo'yicha OTM bitiruvchisi uchun asosiy komponentlar: ta'lim standartining komponenti sifatida kompetensiyalar va professional standartning komponenti sifatida malaka tavsiflaridir. Bu tavsiflar mutaxassisning kasbiy vazifalari, ko'nikmalari va huquqlarini o'z ichiga oladi, shuningdek, ish beruvchi tomonidan qo'yilgan talablarni aks ettiradi. Ushbu ikkala komponentning o'zaro uyg'unligi va integratsiyasi o'quv dasturlarining mehnat bozori talablariga mos kelishini ta'minlaydi.

Kompetensiyalar ikki turga bo'linadi:

Umumiy kompetensiyalar – bu mutaxassisning kasbiy faoliyatida ham, shaxsiy hayotida ham muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-shaxsiy, umumilmiy va instrumental ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

shaxsiy sifatlar va amaliy tajribadan tashkil topgan tizim bo'lib, bu shaxsning ma'lum sohada muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorligini belgilaydi; kompetentlik – bu ma'lum shaxs tomonidan kompetensiyalarni o'zlashtirish natijasidir. "Kompetentlik" "malaka"dan farqli o'laroq, faqatgina kasbiy bilim va ko'nikmalarni emas, balki mustaqillik, mas'uliyat, tashabbuskorlik, hamkorlik, jamoada ishlash qobiliyati, kommunikativ qobiliyatlar, o'qish, baholash, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalanish kabi sifatlarini ham o'z ichiga oladi. Ta'lim standarti – ta'lim sifatining ijtimoiy me'yoriy ko'rsatkichi bo'lib, u normativ hujjatda mustahkamlangan va huquqiy maqomga ega (N.A.Selezneva); kasbiy standart esa kasb bo'yicha minimal talablarni aks ettiruvchi hujjat bo'lib, malaka darajalari va ishlarning xavfsizligi va samaradorligini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan (O.Ilchenko).

Yangi DTSning asosida "natijadan boshlab" yondashuv yotadi, ya'ni ta'lim mazmuni talqin qilinadi: kasbiy faoliyatning xususiyatlaridan boshlab maqsadlarni belgilash (oliy ta'limning minimal natijalari) va undan keyin ta'lim mazmuni va usullarini tanlashga o'tiladi.

Shunday qilib, 1-rasm bitiruvchining kompetentlik modelining tuzilmasi ko'rsatilgan.

Kasbiy kompetensiyalar – bu mutaxassisning o'z kasbiga oid vazifalarni bajarishi uchun zarur bo'lgan umumkasbiy va maxsus ko'nikmalardan iborat.

Kasbiy kompetentlikni turli nuqtai nazardan baholash mumkin:

Kognitiv aspekt: bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish;

Motivatsion aspekt: bilim va ko'nikmalarni qo'llashga tayyorlik;

Xulq-atvor aspekt: turli sharoitlarda faoliyat yuritishga tayyorlik;

Etik aspekt: faoliyat natijalariga nisbatan mas'uliyatlilik.

Ta'lim mazmuni sifatining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

Ta'lim mazmunining dolzarbligi va hajmi talabalarning kompetensiyalariga mos kelishi;

Ta'lim dasturidagi fanlar va mavzular o'rtasidagi uzviy bog'liqlik;

Ta'limning fundamental va universal xususiyatlarga ega bo'lishi.

Ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlar o'qituvchilarning faoliyat uslubini ham o'zgartirishni talab qiladi. Endilikda o'qituvchilar faqat ma'lumot yetkazish bilan cheklanmasdan, talabalarni ham faol fikrlash jarayonlariga jalb etishlari lozim. Fizika o'qitish jarayoni endilikda hozirgi va kelajak faoliyatlarga yo'naltirilgan bo'lib, faoliyatli va innovatsion yondashuvlar (o'yinlar, muammolar tahlili, rollar o'yinlari, treninlar) orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, ta'lim jarayoni o'qituvchi va talaba o'rtasida tenglik, hamkorlik va o'zaro hurmatga asoslangan bo'lishi kerak.

Kompetentli yondashuv o'qituvchilarga bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar birlikda shakllanishi kerakligini talab qiladi. Ushbu yondashuvda o'quv dasturlari o'rtasidagi uzviylik va fanlararo bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi. Natijada, talaba

kasbiy faoliyatga tayyor bo'ladi va o'z bilimlarini amalda qo'llay oladi.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabning shaxsiy rivojlanishi va kasbiy o'sishi ta'minlanadi, bunda kompetentlik modeli va shaxsiy yondashuvlar birgalikda qo'llaniladi.

Umuman olganda, ta'lim jarayonida kasbiy va umumiy ko'nikmalarni rivojlantirish zarur, chunki zamonaviy dunyoda kasbiy muvaffaqiyat uchun keng ko'lamli ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

Har qanday tadqiqotning, shu jumladan pedagogik tadqiqotning ham asosiy maqsadi – qonuniyatlarni o'rnatishdir. I.P.Podlasiy pedagogikada ko'rib chiqilayotgan qonuniyatlarni ro'yxatini to'liq tavsiflab, ularni quyidagi guruhlariga ajratadi: didaktik (mazmuniy-jarayoniy), gnoseologik, psixologik, kibernetik, ijtimoiy va tashkiliy [14]. Yu.N.Babanskiy ham pedagogik qonuniyatlarning o'ziga xos tasnifini keltiradi.

Bizning tadqiqotimizning metodologik asosi sifatida qo'shimcha va maxsus qonuniyatlarni [13], ya'ni tabiiy-ilmiy pedagogik [8], professional ta'lim hamda axborot texnologiyalarini [9], ajratib ko'rsatish zarur.

"Metodologiya ("metod" va "logiya") – bu metodlar va faoliyat vositalari haqidagi ta'limot [10]. Keng ma'noda metodologiya har qanday faoliyatning zaruriy komponentini tashkil qiladi. Metodologik bilimlar ma'lum faoliyat turlarining mazmuni va ketma-ketligini (normativ metodologiya) va amalda bajarilgan faoliyatning tavsifini (tavsif metodologiyasi) belgilaydigan normalar shaklida namoyon bo'ladi. Ikkala holatda ham bu bilimning asosiy vazifasi qaysidir obyektни bilish yoki amaliy o'zgartirish jarayonini ichki tashkil etish va tartibga solishdir [106].

Boshqa ensiklopedik nashrlarda "metodologiya" tushunchasi ta'riflari quyidagicha:

"Metodologiya 1) har qanday fanda qo'llaniladigan tadqiqot metodlari majmui; 2) dunyoni ilmiy bilish va o'zgartirish metodi haqidagi ta'limot" [13]. Fan metodologiyasining predmeti, uning metodologik tahlili ilmiy tadqiqotning xilma-xil metodlari, texnikasi va operatsiyalarini, uning normalari va ideallarini, shuningdek, ilmiy bilimlarni tashkil etish shakllarini qamrab oladi [15].

A.M.Novikovning metodologiya tushunchasiga ta'rifi boshqa tadqiqotchilarning ishlarida qo'llanila boshlandi. A.M. Novikov "Metodologiya sxemasi" quyidagi shaklga ega [14]:

1. Faoliyatning xususiyatlari: tamoyillari, shartlari, meyorlari.

2. Faoliyatning mantiqiy tuzilishi: subyekt, obyekt, predmet, shakllar, vositalar, metodlar, faoliyat natijasi.

3. Faoliyatning vaqt tarkibi: faoliyat fazalari, bosqichlari.

Faoliyatni amalga oshirish jarayoni loyiha doirasida vaqt va resurslar bilan cheklangan fazalar va bosqichlarda ma'lum vaqt ketma-ketligida amalga oshiriladigan ma'lum tizimni maqsadli yaratish yoki o'zgartirish sifatida qaraladi.

Shunday qilib, pedagogik qonuniyatlarning tahlili va baholanishi orqali eng muhim va umumiy qonuniyatlarni ajratish mumkin; shuningdek, fizika ixtisosligi talabalarini o'qitish jarayoniga o'ziga xos qonuniyatlarni aniqlanadi:

an'anaviy ta'lim usullari va zamonaviy axborot-pedagogik texnologiyalarning izchilligi, maqsadga muvofiqligi va integratsiyasi asosida oliy ta'limning yaxlit tizimi shakllanadi;

fizikani o'zlashtirish sifatining ichki va tashqi motivatsiya darajasi, kasbiy yo'nalish va muammoli masalalar xususiyatiga, ilmiy-tadqiqot ishlarining ahamiyati hamda talabalar tomonidan mustaqil o'rganish ko'nikmalarining shakllanishiga bog'liqligi; ta'lim jarayonini boshqarish tizimi va metodik ta'minotning bog'liqligi;

mutaxassisni tayyorlash jarayoni kasbiy-integratsion asosda shakllanadi va mustaqil hamda tadqiqot faoliyati ko'nikmalarining rivojlanishiga katta e'tibor beriladi;

kasbiy kompetentlik va shaxsiy o'zini namoyon qilish talabning faol ishtiroki va shaxsiy o'zini namoyon qilish imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lib, Fizika zamonaviy tabiiy fanlar uchun asosiy fundamental ilmiy fanlardan biri hisoblanib, hozirgi zamonaviy ilmiy dunyoqarash paradigmasi fizik tasavvurlarga asoslanadi [14].

Fizika fan sifatida ilmiy metodga ega bo'lib, tabiatni miqdoriy darajada fundamental qonunlar va tamoyillar orqali izohlaydi [12]. Fundamental darajada tabiat yagona bo'lib, undagi chegaralar shartli ravishda belgilangan. Tabiiy fanlarning hech biri fizika kabi keng qamrovli hodisalarni qamrab olmaydi. Barcha tabiiy fanlar bir yo'l yoki boshqa usulda fizika bilan bog'liq yoki unga tayanadi [13].

Olingan natijalar: Fizika eksperimental tadqiqot metodlarining ixtirosi va takomillashtirilishida katta rol o'ynaydi. Tibbiyot, farmatsiya, biologiya, kimyo, geologiya va boshqa fanlar fizika usullaridan ilmiy va amaliy tadqiqotlarda foydalanish orqali sifatli sakrashga erishgan. Boshqa tomondan, ko'plab fizik yo'nalishlar mustaqil fanlarga aylangan: biofizika, astrofizika, geofizika, fizikaviy kimyo, elektronika, tibbiyot fizikasi va boshqalar.

O'quv kurslaridagi materiallarni tuzish va tanlash didaktikaning muhim muammosi hisoblanadi. Bu muammoni hal qilish uchun tamoyillar, talablar va mezonlardan iborat tizimni belgilash lozim. Biz OTMlarda fizika ixtisosligi talabalarini o'qitishga yordam beruvchi asosiy didaktik tamoyillarni ajratib ko'rsatdik.

Albatta, OTM ta'limi kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, OTMning vazifasi talabalarni ta'lim olishga motivatsiya qilishga imkoniyat yaratishdir [15].

Xulosa. Kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda shaxs rivojlanishining tashqi va ichki determinantlari, jumladan, davlat va insonning o'zi ham muhim rol o'ynaydi. Bu determinantlar shaxsning rivojlanishiga, uning kasbiy sifatlarini takomillashtirishga bevosita ta'sir qiladi. Fanlararo integratsiya asosida rivojlantirilgan kasbiy ko'nikmalar mutaxassislarning kasbiy faoliyatidagi ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Kompetentlik, kompetensiya, integrativ yondashuv, integratsiya, model, modellashtirish mazmuni aniqlashtirilib, tahlil qilingan va mualliflik ta'riflari keltirilgan. Keltirilgan nazariy tahlillar va ta'riflar tadqiqotimizning nazariy asosini tashkil etdi. Tahlil natijalari esa tadqiqot mavzusining dolzarb ekanligini asosladi.

ADABIYOTLAR

1. American Association for the Advancement of Science. (2011). A framework for K-12 science education: Practices, intersectional concepts, and core ideas. Washington, DC: Author.
2. Bransford, JD, & Stein, BS (1993). The Ideal Problem Solver: A Guide to Improving Thinking, Learning, and Creativity. New York: WH Freeman.
3. National Council of Mathematics Teachers. (2000). Principles and standards for school mathematics. Reston, VA: Author.
4. National Research Council. (1999). How People Learn: Brain, Mind, Experience, and Schooling. Washington, DC: National Academies Press.
5. Thornton, R., & Sokoloff, D. (1990). Electrical power study with real-time computer feedback. American Journal of Physics, 58(9), 858-865.
6. Maxmanov E.B. Bo'lajak muhandislarni tayyorlanishda mantiqiy fikrlash
7. kompetentsiyalarini takomil qilish //Namangan davlat universiteti-2021. –T. 1.
8. Binokulovich, Maxmanov Ergash. "Laboratoriyaning rivojlanishi Suyuqlik va qattiq jismlarda solishtirma solishtirma issiqlik sig'imini aniqlash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar." Ta'lim fanlaridagi Evropa tadqiqot va aks ettirish jurnali. 8.9- jild.
9. Ishmurodova G.I., Maxmanov E.B. Talabalarining fizikadan mantiqiy
10. masalalar echish ko'nikmalarini shakllantirish / "Zamonviy ta'lim jurnali", 2020, 3.

11. Maxmanov E. B. Fizika o'qish yarayonda talabalarning o'quv kompetentsiyalarini tegishli //A ILM. – S. 75.
12. Ishmurodova G. I., Maxmanov E. B. Fizika fanidan laboratoriya mashqlarotlarini innovatsion yondoshuv asosiyda utkarish //Sovremennoe obrazovanie (O'zbekiston). – 2019. – №. 8 (81). – S. 16-22.
13. Ishmurodova G. I., Maxmanov E. B. Master-klass asosida fizikadan masalalar echish mashqlarotlarini tashkil qilish //Sovremennoe obrazovanie (O'zbekiston). – 2020. – №. 10 (95). – S. 11-17
14. Abdullayev, M. S. (2017). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. Toshkent: O'qituvchi.
15. Sodiqov, M. T. (2015). Fizika ta'limi metodikasi. Toshkent: Fan. Bu asarda fizika fanini o'qitishda metodologik yondashuvlar, jumladan, integrativ yondashuv asosida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar keltirilgan.
16. Jumaniyozov, S. (2018). Ta'lim va tarbiya: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. Toshkent: O'qituvchi.
17. Toshev, Sh. H. (2020). Innovatsion metodlar va amaliy ta'lim. Toshkent: Science and Technology.
18. Raximov, A. A. (2019). Pedagogik integratsiya va uning ta'lim tizimidagi o'rni. Toshkent:
19. Abdug'aniev, S. I. (2021). Fizika ta'limida amaliy kompetentlikni rivojlantirish metodlari. Samarqand.



UDK:141.201

Lalixon MUXAMEDJANOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, f.f.n
E-mail: Lalixon@list.ru

O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi professori M.Qaxxorova taqrizi asosida

THE ILLUMINATION OF ISSUES OF MORALITY AND UPBRINGING IN THE TEACHINGS OF EASTERN SCHOLARS

Annotation

The article explores the issues of morality and upbringing in the teachings of Eastern scholars. It particularly focuses on the perspectives of Confucius, Farabi, Biruni, and Avicenna on spiritual perfection and methods of moral education. The significance of humanity's spiritual development for societal progress and the importance of moral upbringing are emphasized.

Key words: Morality, spirituality, upbringing, Confucius, Farabi, Biruni, Avicenna.

ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСОВ МОРАЛИ И ВОСПИТАНИЯ В УЧЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ УЧЕНЫХ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы морали и воспитания в учениях восточных мыслителей. Особое внимание уделено анализу взглядов Конфуция, Фараби, Бируни и Ибн Сины на духовное совершенство и методы нравственного воспитания. Подчеркивается роль духовного развития человечества в прогрессе общества и значимость морального воспитания.

Ключевые слова: Мораль, духовность, воспитание, Конфуций, Фараби, Бируни, Ибн Сина.

SHARQ ALLOMALARI TA'LIMOTIDA AXLOQ VA TARBIYA MASALALARINING YORITILISHI

Аннотация

Maqolada Sharq allomalari ta'limotlarida ma'naviyat va axloq masalalari, tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati keng tahlil qilingan. Xususan, Konfutsiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalarning ma'naviy kamolotga oid qarashlari va axloqiy tarbiya usullari yoritilgan. Maqolada insoniyat ma'naviy kamolotining jamiyat rivojiga ta'siri va axloqiy tarbiyaning ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Axloq, ma'naviyat, tarbiya, Konfutsiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino.

Kirish. Inson ma'naviyatini yuksaltirishda tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ma'naviyat va tarbiya bir-biridan ajralmaydigan, uzviy bog'liq masalalardir. Dunyodagi har bir xalqning o'ziga xos tarbiya usullari mavjud. Ular ming yillar davomida shu xalqning yashash tarzi, dini, tabiiy sharoiti, milliy o'rf-odatlari, qadriyatlarini bilan chambarchas bog'liq tarzda shakllanib kelgan. O'zbek xalqining ming yillar ichra shakllangan, turmush imtihonlaridan o'tib ziynatlangan ajoyib urf-odatlarini, an'analarini, qadriyatlarini, udumlarini, to'y va ma'rakalari, shuningdek, mukammal islom dini, nihoyatda boy tili, tarixi va madaniyatini mavjud. Ana shularning barchasi ma'naviyatimiz va milliy tarbiyamizda o'z ifodasini topgan. Axloq, falsafa, din, adabiyot, san'at, madaniyat, milliy qadriyatlar ma'naviyatning tarkibiy asosi hisoblanadi. Ular ham o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi va boyitadi. Ayni paytda ulardan har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Axloq voqelikni ifodalashning alohida usuli bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini: turmush va siyosat, oilaviy m-u-nosabatlar, moddiy ishlab chiqarish sohasida kishilarning hat-harakati, ma'naviy faoliyatini ham qamrab oladi. U kishilar ning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, el-yurt, jamiyat manfaatiga nisbatan munosabatini ifodalovchi ma'lum qoidalar yig'indisi bo'lib, insoniyat ma'naviy madaniyatining bir ko'rinishidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sharq allomalarning ma'naviy va axloqiy qarashlari haqidagi asarlar o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Konfutsiyning ta'limotlari insonning ijtimoiy munosabatlarini axloq asosida shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu g'oyalari uning «Lun Yuy» nomli asarida o'z aksini topgan. Uning ta'kidlashicha, inson jamiyatda axloq qoidalariga amal qilsa, jamiyatda adolatlik va barqarorlik ta'minlanadi.

Forobiyning «Aqliy va axloqiy tarbiya asoslari» asarida inson tarbiyasining asosi bilim ekani, ma'rifat orqali ma'naviy va axloqiy kamolotga erishish mumkinligi ta'kidlanadi. Uning ta'limotlari hozirgi zamon ta'lim-tarbiya tizimida ham dolzarb hisoblanadi.

Beruniyning «Insonparvarlik g'oyalari» asarida inson qadr-qimmatini halol mehnat va ijtimoiy mas'uliyat bilan

o'lchanishi ta'kidlangan. Uning asarlari insonning ijtimoiy javobgarligini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi.

Aziziddin Nasafiyning «Komil inson ta'limoti» asarida insonning to'rt asosiy fazilati: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va oriflik bo'lishi zarurligi ta'kidlangan. Unga ko'ra, bu xususiyatlar inson kamolotining asosidir.

Mazkur adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, Sharq allomalari asarlari inson ma'naviy kamolotining jamiyat rivojidadagi ahamiyatini ochib berishda muhim o'rin tutadi. Ular hozirgi zamon axloqiy va ma'naviy tarbiya tizimida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yaratishda tahlil va qiyosiy-tarixiy usullardan foydalanildi. Sharq allomalari asarlaridagi ma'naviy va axloqiy qarashlar hozirgi zamon talablari nuqtayi nazaridan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida allomalarning birinchi manbalari, shuningdek, ilmiy adabiyotlar ham tahlil qilindi. Asosiy urg'u ma'naviyat, axloq va tarbiya masalalarining jamiyat rivojidadagi o'rnini aniqlashga qaratildi.

Tahlil va natijalar. Ma'naviy kamolot va axloqning ijtimoiy mohiyati masalasi eramizdan oldingi YII-YI asrlarda yashagan xitoy faylasufi Konfutsiyning ta'limotida ham katta o'rin olgan. U axloq muammolarini o'rganishda o'zidan oldingi avlodlar qoldirgan merosga ham tayangan. Shundan ko'rinadiki, inson mohiyatini bilishda axloq va odob muammolariga juda qadim zamonlarda ham katta ahamiyat berilgan.

U insonni o'z mohiyatini axloqiy fazilatlari va ma'naviy kamoloti orqali namoyon etadigan jonzot sifatida talqin etgan. Agar insonning mohiyati uning axloq va odobga tayangan faoliyatida namoyon bo'lishini e'tiborga olsak, axloq muammolarini o'rganish, axloq va odob tarbiyasini amalga oshirish jamiyat taraqqiyoti uchun qanchalik katta ahamiyatga ega ekani o'z-o'zidan ayon bo'ladi. Konfutsiy shularga tayangan holda inson-dagi tabiiy va ijtimoiy axloqiy ehtiyojlar masalasini hal etishga harakat qilgan. Inson hayoti va faoliyatidagi bu ikki tomonning nisbatini bilmay turib, insonning mohiyatini ham to'g'ri tushunib bo'lmaydi. Konfutsiyning fikricha, insonda tabiiy ehtiyojlar kuchli bo'ladi. Lekin insonning insonligi - har qanday tabiiy ehtiyoj, his va tuyg'uni axloqqa bo'ysundira olishidadir.

Agar axloqiy omillar zaiflashsa, inson faoliyatida tabiiy ehtiyojlar ta'siri kuchayadi, unda odamlar jamoasini hayvonlar to' dasidan ajratib, bo' lmay qoladi. Faqat axloq odamlarga nima qilish kerak- u, nima qilish kerak emasligini o' rnatadi. Shu jihatdan axloq oddiy qoida emas, balki inson va insonlar faoliyatiga maqsad, yo' nalish, shakl va mazmun beruvchi ma' naviy omildir.

Axloq so' zdagina emas, balki amaliy ishlarda, odamlarning o' zaro munosabatlarida namoyon bo' ladi. Har bir so' zni aytish ham muayyan axloq va odob qoidalariga rioya qilish bilan bog' liqdir. «Qadimgi odamlar, - deb ko' rsatadi Konfutsiy, - o' z so' zinning ustidan chiqa olarmikanman deb, juda ehtiyotkorlik bilan so' zlar edilar». Demak, inson biror so' z aytganida aniq bir maqsadni, holatni ko' zlaydi. Bu maqsad va holat boshqalar uchun ham ahamiyatlidir. So' z ostida faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy mas' uliyatli ekanini sezishi lozim.

Konfutsiy chiroyli ishlarni axloqiy asoslangan faoliyat deb hisoblaydi. Haqiqatni bo' rtiradigan yoki unga mos kelmaydigan chiroyli so' zlar axloqqa ziddir. Eng asosiy masala - insonyushg axloqiy kamoloti darajasi uning amaliy ishlarida namoyon bo' lishidir. Barcha amaliy ishlar esa boshqalar bilan bo' lgan, bo' ladigan munosabatlarni bildiradi. Shu sababli ham komil inson yuksaklikka intiladi, pastkash, axloqsiz odam esa doim tubanlashib ketaveradi[1].

Axloqiy komillik insonning borliqqa o' z ehtiyojlari, muayyan manfaatlardan kelib chiqqan holda yondashishidir. Shu sababli Konfutsiy dunyo lazzatlaridan voz kechib, tarki dunyochilik yo' liga o' tib olishi ma' naviy kamolot belgisi deb qaramaydi. Uning ko' rsatishicha axloqiy komillik dunyoning lazzatlaridan butunlay voz kechish emas. Faqat yetuk axloq va odob sohibi bo' lgan kishilargina barcha narsalarga aniq mezonlar asosida yondashishga harakat qiladilar. Insonning barcha yutuqlari, mag' lubyatlari ham axloqqa bog' liqdir.

Konfutsiyning fikricha, inson hamma vaqt boylikka, mashhurlikka intiladi. Agar hayotda bosilgan har bir qadamda axloqqa rioya etilmasa, inson bu maqsadlarga erisholmaydi. Agar yerdagi hayot yomon bo' lsa, inson osmondan madad so' ramasdan o' z qalbiga murojaat qilmog' i kerak. Inson o' z hayotida to' g' ri yo' l topa olishi axloqiy qadriyatlarga tayanishi, yuksak xulqqa ega bo' lishi bilan bog' liq. Yuksak axloq - inson qalbidagi ibtidodir, uning o' ziga xos mohiyatidir. Demak, uning fikricha, axloq nima degan muammoni aniqlamay turib, inson nima degan savolga javob berib bo' lmaydi. Konfutsiy axloqning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi o' rmini ko' rsatish bilan birga, uning asosiy mazmunini, mohiyati va ahamiyatini ham ochib berishga harakat qilgan. Uning fikricha, axloqning asosiy mezoni - odamlarga ishonmoq va ularni sevmoqdir. Sevgi bo' lmasa, ishonch bo' lmaydi, ishonch bo' lmasa, odamlar faoliyatida, umid va orzularida musharaklik shakllanmaydi. Odamlarning bir-biriga intilishi, muomalasi, munosabati asosida axloq yotsagina, ular bir-biridan begonalashmaydi, balki birlashadi. Shu sababli ham axloq tushunchasi bitta odamga nisbatan emas, balki kishilarning bir-biriga munosabatiga nisbatan qo' llaniladi. Faqat axloq asosidagina odamlar o' rtasidagi munosabatlar bir tizimga keladi. Odamlar jamoasidan ajralib yashagan shaxs uchun axloq tushunchasi muayyan bir ahamiyat kasb etmaydi. U boshqalar bilan munosabatga kirganidagina o' zining faoliyatini, boshqalarning o' ziga, o' zining boshqalarga nisbatan bo' lgan munosabatini axloq mezonlari orqali tushunish va tushuntirish imkoniga ega bo' ladi. Shuning uchun ham axloq odamlarning o' zaro munosabatda bo' la olishidir. Bu munosabat asosida bir-birini tupgunish, isho- nish, izzat-hurmat yotadi. Axloqli odam o' ziga ravo ko' rmagan ishni boshqalarga ham ravo ko' rmaydi. Insonning kamolga yetishida aqliy va axloqiy tarbiyaning o' zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etishi Musulmon Sharqi allomalari tomonidan alohida e' tirof etiladi. Bu borada Abu Nasr Forobiy tavsiya etgan ta' lim va tarbiya usullari hozirgi davrda ham o' z ahamiyatini yo' qotmaganligi bilan diqqatga sazovordir. Forobiyning inson va uni tarbiyalash haqidagi mulohazalari keyingi davrlarda Osiyo va Yevropadagi ko' pgina buyuk mutafakkirlar ijodiga sezilarli ta' sir ko' rsatdi. Bu ayniqsa Abu Rayxon Beruniy (973-1048-yillar) ning insonparvarlik g' oyalarning taraqqiy etishiga ulkan hissa qo' shdi. U bilimsiz kishi gumonli bo' lib qoladi, bilish - oliy insoniy quvonchdir, degan g' oyanii ilgari surdi. Beruniyning ma' naviy kamolot va

inson axloqiy tarbiyasi haqidagi mulohazalarida axlokiylikning ijtimoiy mezonlari to' g' risida gapiriladi. Beruniy inson qadr- qimmatining asosiy mezoni - halol mehnatdir deb biladi. O' z ishini yuqori darajada bajaradigan har bir kishi kadrlidir, - deydi Beruniy.

Forobiydagi kabi, Beruniy uchun ham inson o' z tabiatiga ko' ra ijtimoiy mavjudot bo' lib, u faqat boshqa kishilar bilan birga yashay oladi. Uning fikricha, ko' plab muhtojlikda yashagan va o' zini dushmanlardan himoya qilish vositalaridan mahrum bo' lgan inson jamiyatdagi o' z elatlari bilan bir-birini qo' llab- quvvatlash va har biri o' zini va boshqalarni ta' minlaydigan ishni bajarish maqsadida muqarrar ra- vishda o' zaro birlashishga majbur bo' lgan edi[2]. Ushbu mulohazalarda Beruniyning kishilik jamiyatining vujudga kelish masalalariga axlokiylikning asosini tashkil etuvchi mehnatning rolini ko' rsatishga nisbatan ratsionalistik yondashuvi ko' zga tashlanadi. Beruniyning ko' plab asarlari tarbiyaning turli vositalarini taxlil qilishga bag' ishlangan. U tarbiyaning asosida azaliy g' oyalarni bilishga bosqichma- bosqich tayyorlash tamoyili yotadi, deb hisoblagan Platonni tanqid qiladi. Alloma ko' rsatganidek, tarbiya axloqiy yaxshilik bilan bog' liq bo' lib, odat hamda ko' nimga asoslanadi va unga faqat vaqt o' tishi bilan ega bo' linadi. Uning fikricha, tarbiyaning asosiy vazifasi avvalo ko' ngil va aqlni ko' pchilik kishilarni buzadigan yaramas xususiyatlar va barcha tasodifiy narsalardan, kishilarni haqiqat qarshisida ko' r qiladigan narsalardan, ya' ni eskirib qolgan rasm-rusumlar, o' rmashib qolgan yomon odatlar, g' arazgo' ylik, ko' rolmaslik ehtiroslarga berilgan, obro' orttirishga mukkasidan ketish, mansabparastlik va shu kabilardan tozalashdan iboratdir [3]. Diniy tasavvurlarga ko' ra, ketma-ketligi jihatidan olam birinchi, odam esa ikkinchi bo' lib yaratildi. Lekin olamni yaratishdan ko' zlangan maqsad odam edi. Odam - maqsad, olam -vosita edi. Buni Aziziddin Nasafiyning «Komil inson» risolasida ham ko' rish mumkin. U aytdiki, «inson - olam sag' ir (kichik olam), ilohiy va moddiy olam birgalikda olami kabir (ulug' olam)»dir. Ulug' olamdagi jamiki narsa va xususiyatlar kichik olamda mavjuddir, inson katta olamning kichraytirilgan nusxasidir.

Komil inson kim, uning asosiy fazilati nimalardan iborat? - degan savolga Aziziddin Nasafiy shunday javob beradi: «Bilgilki, komil inson, deb shariat va tariqatda yetuk bo' lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytaylik: bilgilki, komil shunday insondirki, unda quyidagi to' rt narsa kamolga yetgan bo' lsin: yaxshi so' z, yaxshi fe' l, yaxshi axloq va maorif» [4]. Boshqacha aytganda, komil inson shundayki, unda to' rt narsa: yaxshi so' z, yaxshi fe' l, yaxshi axloq va oriflik kamolga yetgan bo' ladi. Aziziddin Nasafiy kamolotning ikki belgisi bor, deb ta' kidlaydi. Birinchisi, yaxshi axloq, ikkinchisi, o' zini tanigan insondir. Demak, olim nazdida, komil inson, birinchidan, odam, yaxshi sifatlarini egallash orqali komillashadi. Ikkinchidan, komil inson martabasi tariqat va riyozat yo' li bilan qo' lga kiritiladi. Komil inson xalqqa yaxshilik keltiradi, kishilar mushkulini oson qiladi, olamni esa balo- kulfulatlardan saqlaydi. Mavjudot ichra komil insondan ko' ra ulug' roq va donoroq narsa yo' q. Ibn Sinoning fikricha, insonning barkamollik darajasiga erishishida tashqi (tabiiy va ijtimoiy) muhitlarning ta' siri alohida o' ringa egadir. Ayniqsa, uning taraqqiyotiga jonli mushohada va ijtimoiy tabaqalarning ta' siri muhim ahamiyatga egaligi qayd etilgan. U voqelikni ma' naviy o' zlashtirish inson zotiga xos, deydi. Insonning hayvonlardan farqi shundaki, Alloh unga aql in' om etgan. U tufayli inson ezgulikni yovuzlikdan, intellektual yetuklikni yolg' on-yashiq, adashishdan, do' stni dushmanidan ajrata oladi. Aql nuri insonni tasodifiy quchlar ta' siridan ozod shaxsga aylantiradi. Aql «donishmandlik tarozisi»dir. Bilish jarayonida, sezgi a' zolari va ularga tayangan, mushohada aqlning eng yaqin ko' makchilari vazifasini bajaradi. Mantiq ilmi vositasida inson bilmagan narsasini oldin bilib olgan narsasi orqali bilib boradi, to' g' ri tafakkur yuritish ko' nimgalarini hosil qiladi. Hayotdan olgan bilim, ko' nimga va malakalarini muhit ta' sirida jonli voqelikka aylantirib boradi. O' rta asrlar Musulmon Sharqi axloqiy g' oylarini rivojlantirishda Ibn Sinoning (980-1037-yillar) xizmati yuksak bo' lib, uning axloqiylik va axloqiy tarbiyaga oid qarashlari alohida qimmatga ega. Ibn Sinoning axloq masalasidagi qarashlari bilimdon, olijanob, sahovatli, irodali, ishchan,

barkamol, umumiy ishga xizmat qilishga intiladigan, insoniyatga foyda keltiradigan kishini tarbiyalash haqidagi tavsiyalarda namoyon bo'ladi. «Bilimlar xazinasi» degan asarida u axloqni fan sifatida ta'riflaydiki, unga rioya etgan kishi o'zining xulq-atvori va ishlari qanday bo'lishini anglab yetadi. Ibn Sinoning axloqqa oid karashlari u yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g'oyalardan kelib chikadi va buyuk olimning ko'p qirrali faoliyatiga xos bo'lgan insonparvarlik yo'nalishidan, uning sotsial konsepsiyasidan dalolat beradi. «Inson, – deb yozgan edi u, o'z shaxsiy ehtiyojlarining mustaqilligi ma'nosida boshqalardan ajralib qolgan emas, chunki u ana shu ehtiyojlarini faqat inson zotining boshqa vakillari bilan muloqotda bo'lgan taqdiridagina qondiradi. Uning axloqiy qarashlariga ko'ra, insonni tarbiyalash uni aqliy, axloqiy va jismoniy kamol toptirish birligi demakdir [5].

Allomaning fikricha, foydali kishi bo'lish uchun nima qilish lozim-u, nima kilmaslik kerak, degan muammo bo'ladi. Inson ularni bolaligidanoq bilib boradi va shu asosda tarbiyalanadi, so'ngra ana shu tushuncha uning uchun tabiiy bir narsa, ko'nikma bo'lib qolgunga qadar bu xatti-harakatlarni qilishi lozimligi haqida eshitaverishga o'rganib boradi. Bunga qaramarshi boshqa xatti-harakatlar, ularning xususida ham eshitib boradi. Bu xatti-harakatlarning biri yomon, ikkinchisi esa – yaxshi, deb ataladi. Boshqa mavjudotlarda bu narsa yo'q. Bu faqat insonlarga xos. Umuman olganda ma'naviy kamolot, axloqiy tarbiya to'g'risidagi, uning maqsad va vositalari haqidagi masalalarni qarab chiqishda o'rta asr davridagi Musulmon Sharqi qomusiy olimlari katta doiradagi masalalarga murojaat qildilar, bunda ular ma'lum darajada antik tafakkurning yutuqlariga, ayniqsa Arastu va Aflotuning axloqiy g'oyalari taqdiy munosabat bildirganlari xolda uni keyingi davrlar uchun rivojini yangi g'oyalar bilan boyitadilar. Ko'rib o'tgan allomalimizning axloqiy qarashlaridagi umumiylik shundaki, ular inson hayotida fanning roliga yuksak baho bergan edilar. Ularning fikriga ko'ra, fan insonda tiyran aql, hatti-harakatlarda oqillik, mulohazalilik, adolatlilik, halollik, qamtarinlik, sahiylik, haqiqatgo'ylik, iftihor, mukammallikka intilish va shu kabi intellektual va axloqiy fazilatlarini tarbiyalaydi. Ular ana shu fazilatlardan ko'plarini tarbiyalashni inson tomonidan yuksak axloq bilan, jamiyatga va atrofdagi kishilarga nisbatan o'z burchlarini tushunish va bajarish bilan bog'liq bo'lgan baxtga erishishning manbai deb bildilar. Tarbiya, ularning fikricha, insonni, uning yoshini hisobga olgan holda, jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirishni ta'minlamog'i lozim.

Ma'naviyat keng tushuncha. U bilim, ma'rifat, madaniyat tushunchalarshsh ham qamrab oladi. Ma'naviyat – jamiyatnmg, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, axloq-odob fazilatini ifodalovchi tushuncha bo'lib, inson va jamiyat madaniyatining negizidir. Iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishiga, o'zgarishiga ma'naviyat kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, qashshoqlansa, jamiyat, davlat va millat ravnaqining yo'li to'siladi. Ta'lim-tarbiya bilan kamolga yetadigan ma'naviyatni qadimgi yunon olimlari Suqrot, Aflotun, Arastu yaxshilikka, baxtli bo'lishga intilish, deb tushuntirgan edilar. «Bilim bobida juda ilgari

ketib, ma'naviyat bobida ortda qolgan odam oldinga emas, orqaga ketayotgan bo'ladi», – deb yozgandi Arastu. Chunonchi, Hazrat Mir Alisher Navoiyning qaysi so'zini olmaylik, uni qaysi bir vaqtda o'qimaylik, unda ma'naviyatning tajassumini ko'ramiz. Har bir kalomida buyuk donishmandlardan, muqaddas kitoblardan, hadislardan bir nishona bor. Insonni ulug'lash, shaxs ruhiy poklanishini tarannum etish, hayotning qadriga yetish, umrni oqilona o'tkazish g'oyalari targ'ib qilishga nazariy zamin hozirlagan tasavvuf ta'limoti mustaqillik sharoitida barkamol insonlarni tarbiyalashda ma'naviy omillardan biri hisoblanadi. Tasavvuf ta'limotining asoschilari axloqiy va ruhiy poklikka, yomonlik bilan yaxshilikni farqlash, halol va xaromni bilish, egrilikdan qochish kabilarni o'rgatadi, nodonlik, bag'ritoshlik hamda pinhona yovuzliklarga murosasiz bo'lishga chorlaydi. Islom ta'limoti va qadriyatlariga taalluqli bunday axloqiy qarashlardan yosh avlodni barkamollik ruhida tarbiyalashda ijodiy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu ta'limotda insonni xalol va pokiza bo'lishga, ilm-fan asoslarini egallashga, beva-bechoralarni qo'llab-quvvatlashga, tabiatni e'zozlashga da'vat etadigan diniy, axloqiy qadriyatlarining o'rni beqiyosdir, chunki islom insoniyat ma'na-viy madaniyatining bir qismi bo'lib, unda dunyoviy g'oya, bilim, insoniy tafakkur durdonalari mujassamlashgandir. Buyuk bobokalonlarimiz Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubrolarning insonni ma'naviy kamolot va axloqiy yetuklikka chorlovchi buyuk hikmatlaridan barkamol insonlarni tarbiyalashda ijodiy foydalanish bugungi kun talabidir. Zero, Birinchi Prezidentimizning «Vatanimiz azaldan bashariyat tafakkur xazarinasiga unutilmas hissa qo'shib kelgan. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlarini Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi va o'z navbatida bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi», – degan hikmatlari ayni haqiqatdir.

Xulosa. Sharq allomalari ta'limotida ma'naviyat va axloq masalalari muhim o'rin tutadi. Konfutsiyning ta'limotida axloqning ijtimoiy ahamiyati, insonning ma'naviy kamoloti orqali jamiyat rivojiga ta'siri chuqur yoritilgan. U insonni tabiiy ehtiyojlarini axloqiy qoidalarga bo'ysundirib yashash zarurligini ta'kidlaydi.

Forobiy va Beruniyning ta'limotlari inson ma'naviy rivojlanishida bilim va axloqning o'zaro aloqasini asosiy mezon sifatida ko'rsatadi. Ibn Sinoning qarashlarida axloqiy tarbiyaning ijtimoiy-siyosiy rivojga ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Aziziddin Nasafiyning «Komil inson» ta'limotida insonning to'rt asosiy fazilati: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va oriflik kamolga yetgan bo'lishi ta'kidlangan. Sharq allomalarning barcha ta'limotlari insoniyat ma'naviy kamoloti va jamiyatning barqaror rivojiga qaratilgan.

Maqolada ta'kidlanganidek, axloq va ma'naviyat insonning ruhiy va ijtimoiy kamolotining asosi bo'lib, jamiyat rivojida muhim o'rin tutadi. Bu ta'limotlar hozirgi zamonda ham dolzarb bo'lib, inson tarbiyasi va axloqiy kamolotini ta'minlashda qo'llanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Гусейнов А.А. Великие моралисты. Москва. Наука. 1995.
2. Беруний. Собрание сведений для познания драгоценностей. Москва. Наука. 1971.
3. Беруний Абу Райхан. Памятники минувших поколений. Ташкент. АН УзССР 1957,
4. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.
5. Ибн-Сина Абу Али. Наука о душе. Москва. Наука. 1970.



UDK:215

Saidmuhammadxon MUHIBULLAYEV,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktranti, “Xoja Buxoriy” o‘rta maxsus islom ta’lim muassassasi o‘qituvchisi
E-mail: muhibullayevs@gmail.com

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti G.Xudoyberganova taqrizi asosida

QADARIYA VA JABARIYA TOIFALARIGA BERILGAN RADDIYALAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Kamoliddin Bayoziyning “Ishorotul-marom min iborotil Imam Abi Hanifa” nomli asarida qadariya va jabariya toifalariga berilgan raddiyalar va ularning tahlili bayon etilgan. Maqolada shu va shunga o‘xshash bahslar keltirib, ularni har taraflama tahlil qilindi. Oyat va hadisdan dalillar keltirib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: Qadariya, Jabariya, Ishorotul marom, Kamoliddin Bayoziy, Mo‘tazila, taqdir, ixtiyor, Iroda sifati.

ANALYSIS OF REFUTATIONS ASSIGNED TO THE QADARIYA AND JABARIYA CATEGORIES

Annotation

In this article, Kamoliddin Bayazi's work "Ishorotul-marom min ibrotul Imam Abi Hanifa" describes the raddians assigned to the qadariya and jabariya categories and their analysis. The article made these and similar arguments and analyzed them in every possible way. Evidence from the verse and Hadith has been cited.

Key words: Qadariya, Jabariya, Ishorotul marom, Kamoliddin Bayoziy, Mutazila, fate, discretion, quality of will.

АНАЛИЗ ОТКЛОНЕНИЙ, ПРИПИСЫВАЕМЫХ КАДАРИЯ И ДЖАБАРИЯ

Аннотация

В этой статье в работе Камалиддина Баязи “Ишоротул-маром мин иборотил Имам Аби Ханифа” излагаются опровержения, данные категориям Кадария и Джабария, и их анализ. В статье были приведены эти и подобные аргументы и проведен их всесторонний анализ. Приводились доказательства из аятов и хадисов.

Ключевые слова: Кадария, Джабария, Ишоротул Маром, Камалиддин Баязи, Мутазила, судьба, воля, качество воли.

Kirish. Islom dini tarqalgan singari unga qarshi musulmonlarni to‘g‘ri yo‘ldan ozdiruvchi bid‘atchi toifalar ham kelib chiqq boshladi. Shulardan biri Qadariya toifasidir. Ushbu toifaning ilk ko‘rinishlari sahobalar asrining so‘ngi yillarida Basra shahrida vujudga kelgan. Ushbu g‘oya ilk bor Suvson ibn Yunus Asvoriy ismli shaxs tomonidan ilgari surilgan (1:52) (ushbu shaxs nasroniylikdan islomni qabul qilgan bo‘lib, Ma‘bad Juhaniy ham qadar haqidagi tushunchalarni shundan olgan).

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qadariylar “Alloh taolo biror narsani avvaldan taqdir qilmagan, banda qilayotgan amallarini faqatgina o‘z xohishi bilan qiladi, Alloh taolo har bir voqea hodisani sodir bo‘lgandan so‘ng biladi, sodir bo‘lmasdan avval hech bir voqea‘ani bilolmaydi”, degan e‘tiqodda bo‘lib, Allohning ilmimi inkor qiladilar (2:521).

Abdulloh Ibn Umar roziallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Rasululloh (صلى الله عليه وسلم): «Qadariylar bu ummatning majusiylaridir. Agar bemor bo‘lsa, ko‘rgani bormanglar, o‘lsalar, (janozalariga) qatnashmanglar», dedilar».

Ushbu toifa qadar masalasida g‘uluvga ketgani uchun ushbu nomni olgan. Ular qadarni inkor qilgani uchun shunday nomlangan. Bular Alloh taoloning qadoriga ishonmaydigan toifalardir. Ular: «Bu dunyodagi bandaga xos bo‘lgan ishlar bandaning ixtiyorida bo‘ladi, banda o‘z amalini o‘zi yaratadi», deyilar.

Qadariylar ikkiga biri Allohning ilmimi inkor qiluvchilar ikkinchisi Alloh bandalar felini yaratmaydi, balki bandalarning o‘zi yaratadi, deguvchilarga bo‘linadi. Qadariylar boshqa mazhablar kabi, ma‘lum bir toifaga ajrab, davomchilari biror mintaqaga tarqalgan emas. Balki, kim yuqoridagi aqidaga ergashsa, o‘shanga qadariya deyilavergan. Qadariya mazhabining eng ko‘zga ko‘ringan namoyandalari mo‘taziliylardir.

Mo‘tazilalar alohida aqidaviy mazhab bo‘lsada, boshqa ba‘zi bir aqidaviy masalalarda ham ularning Ahli sunna va jamoa mazhabiga xiloflari bor. Jumladan, qadar masalasida ham yuqoridagi singari aqidada bo‘lgani sabab ular ham «Qadariya» deb ham ataladi.

Bugungi kunda mo‘tazila oqim tarafdorlarini uchratish mushkul, lekin shunday bo‘lsada, hozirda “Hizbut tahrir” nomi

ostida faoliyat olib borayotgan harakat a‘zolari qadariya ta’limotiga ergashadilar. Hizbut tahrir asoschisi Taqiyuddin Nabahoniy “ash-Shaxsiyyat ul-islomiyya” nomli asarida o‘zining jahmiya va mo‘tazilalar bilan ayni shu masalada hamfikrligini keltirib shunday yozadi: “Bandalarning fe‘llari (ya‘ni inson amallari), ularni taqdirga bog‘liqligi yo‘q, qazoni ham ular uchun daxli yo‘q. Chunki inson o‘z amallarini o‘z ixtiyori bilan yaratadi. Shu sabab, ixtiyoriy amallar Alloh taoloning taqdir va qazosiga kirmaydi” (9: 72). Yana bir o‘rinda esa quyidagicha keltiradi: “Insonga beriladigan savob va gunohni, hidoyat va zalolatga bog‘liq deb anglash shuni anglatadiki, hidoyat va zalolat insonning asliy fe‘li, Allohga bog‘liq emas” (9: 74).

Ishorotul maromda ushbu masala yuzasidan yetarlicha raddiya berilgan. Jumladan, Kamoliddin Bayoziy asarining “Alloh ta’oloning iroda sifati sobit qilish” nomli bo‘limida aytadi: “U: «Ey otajon, senga amr etilganni bajar, inshaalloh, meni sabr qiluvchilardan topursan», – dedi.” (Soffat surasi, 102-oyat) oyatini keltirib, “Ibrohim (a.s.)ning o‘g‘li otasiga Alloh xohlansa meni sabr qiluvchilardan topursiz” degan jumla bilan amallar faqatgina Allohning xohish irodasi bilan sodir bo‘lishini ta’kidlaydi (11:129).

Ushbu o‘rinda mo‘tazilalar bilan ziddiyatli bo‘lgan Alloh taoloning iroda sifati sobit ekanligi to‘g‘risida ham fikr yuritadi. Olamlar Rabbisi iroda sifatiga ega ekanligiga jumhur mutakallimlar ittifoq qilganlar. Zotan iroda-xohish sifati Alloh taoloda albatta bor. Chunki iroda sifati yo‘qligi uni aksini borligiga dalolat qiladi. Biror ishni xohlab bajarishni ziddi uni xohlamasdan majburan bajarishdir. Bu esa Alloh taologa mutlaqo noloyiq. Mo‘tazila tarafdorlaridan bo‘lmish Abul Hasan Xayyot, Ka‘biy, Nazzom kabi ba‘zi mutakallimlar esa Alloh taoloning iroda sifati mavjud lekin majozan haqiqatda emas, degan fikrlarni ham keltirib o‘tadi (11:130). Kamoliddin Bayoziy ushbu fikrga javoban ularning Alloh taoloning irodasi haqiqat emas, majozdir, degan gaplari botildir. Chunki ular aytgan narsa iroda emas ishtahadir. Ushbu o‘rinda Bayoziy Abul Muin Nasafiyning gaplarini keltirib aytadi: “Alloh taolo esa ishtaha sifati bilan sifatlanmaydi. Ishtaha bu o‘ziga foydali bo‘lgan narsani xohlashdir, Alloh taolo esa unga foydali va zararli bo‘lgan

narsalardan oliydir. Vaholanki, Allohning xohishi ishtaha emas balki, uning Zotida sobit bo'luvchi azaliy sifatdir" (3:210).

Qadariylarga qo'yilgan nom Rasululloh (صلى الله عليه وسلم) tomonlaridan berilganligini Imom Buxoriyning "Tarixul kabir" asarlaridagi القدرية مجوس أمّتي "Qadariylar ummatimning majusiyalaridir", degan hadisdan bilib olishimiz mumkin (12:2681).

Muhaddislardan Ibn Asokir rahimahulloh va ash-Sheroziy rahimahulloh kabilar ham shunga o'xshash hadislarini rivoyat qilganlar (6:644).

"Majma' az-zavoid"da Imom Tabaroniy rahimahullohning "Mo'jam al-avsat" hadislar to'plamidan olib, sahoba Anas ibn Molik raziyallohu anhudan qilingan mana bu rivoyatni keltirilgan va uning roviylari ishonchli, sahih ekani qayd qilingan:

صنفان من أمّتي لا يردان على الحوض ولا يدخلان الجنة القدرية والمرجئة
 "Ummatimdan ikki toifa havzi kavsarga kelolmaydi, jannatga ham kirolmaydi. Ular qadariylar va murjialardir!" (6:647).

Bu yerda ibratli hukm bayon qilinmoqda. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ularning ta'ziyalariga bormaslikni, kasal bo'lsa borib ko'rmaslikni buyurganlar.

Natijalar va muhokama (Results and Discussion). Jabariya oqimi asoschisi Jahm ibn Safvon Samarqandiy (tav. 78/696, vaf. 128/746) quyidagi fikrni olg'a surgan: «Alloh taolodan boshqa biror kimsaga ish-harakat nisbati berilmaydi. Ish-harakat va amallar majoziy ma'noga ko'ra bandaga nisbat qilinadi. Bandalarning fe'llarini ular o'zlari emas, balki yolg'iz Alloh taoloning O'zi yaratadi. Inson esa tamoman majburlangan. Har qanday kuch-qudrat va xohishdan xolidir. Alloh taolo banda uchun fe'llarini yaratadi, so'ngra bandaning qo'llari orqali sodir etadi». Ularning nazdida tabiiy ya'ni, qo'l titrashi, yurak urushiga o'xshash fe'llar bilan ba'zilarga ixtiyoriydek tuyulgan yurish, gapirish, harakatlanishga o'xshash fe'llar o'rtasida farq yo'q. Ularning barchasi Alloh taolo tarafidan majoziy ma'noda emas balki, haqiqatga ko'ra yaratilgan deydilar (4: j.1. 279) (13: j.1 73).

Fe'llarning bandalar tarafidan vujudga kelishi bandaga majoziy ma'noda nisbat qilinadi. Daraxt meva berdi, suv oqdi, tosh qimirladi, quyosh chiqdi deyilganidek. Demak, fe'llarning hammasi oldindan belgilangan ekan, mukofot va jazo ham majburiy ya'ni, oldindan bitilgan. Agar oldindan belgilanish ya'ni, majburlik tasdiqlanar ekan, demak, diniy topshiriqlar ham majburiy bo'ladi (10: j. 1. 207).

Jabariya oqimining dalillari: Darhaqiqat, jabariylar o'zlarining ushbu fikrlariga Qur'on karimdag ba'zi oyatlarni dalil qilib keltirishgan. Quyida ana o'sha oyati karimalarning ba'zilari bilan tanishib chiqamiz:

«Alloh har bir narsaning yaratuvchisidir» (Zumar surasi, 62-oyat).

«Otgan payitingda, sen otmading, balki Alloh otdi» (Anfol surasi, 17-oyat).

«Alloh ularning qalblari va quloqlarini muhrlab qo'ygan» (Baqara surasi, 7-oyat).

Yana boshqa Alloh har bir narsaning yaratuvchisi ekaniga va bandalarning fe'llari oldindan chegaralangan ekaniga dalolat qiladigan oyatlarni dalil va hujjat qilib keltirganlar.

Jabariylarning fikrlari va dalillari tahlili: Albatta, ushbu mazhabning e'tiqodiy qarashlari Qur'on karim oyatlarini to'g'ri tushunmasliklari sababidan hamda Qur'on karim oyatlari ma'nolarining ko'rsatmalari bilan bir qatorda ularni dalil qilishda o'zlarining asoslari va fikrlariga suyanishlari ortidan kelib chiqqan. Chunki banda fe'lining foili (qiluvchisi) ekaniga shariat, aql va his barchasi bilittifoq dalolat qiladi. Shunga ko'ra, banda qilganiga yarasha tanbehga haqli bo'ladi. Alloh taolo:

«Sizlarga faqat qilgan amallaringiz jazosi berilmoqda, xolos», (Naml surasi, 90-oyat). Yana boshqa oyatda:

«va har bir jon, qilganiga yarasha jazosini olganda.», degan (Oli Imron surasi, 25-oyat).

Ma'lumki, aql va naql har bir fe'lni foili borligini tasdiqlaydi. Shunga ko'ra banda ham fe'lini haqiqiy foilidir.

Chunki, Alloh taoloning O'zi uni fe'liga foil va sodir etuvchi qildi. Alloh taolo esa Xoliq (yaratuvchi)dir. Banda esa bajaruvchi va kasb etuvchidir. Aniq va ochiq-oydin kelgan Qur'on karim oyatlariga qarshi bo'lgani sababli, hech qanday shak-shubhasiz jabariylarning aqidalari va so'zlari botil ekani oshkordir. Umuman olganda ularga quyidagi tarzda raddiya berishimiz mumkin bo'ladi:

Birinchi: Qur'on karim oyatlari orqali; chunki bir qancha oyati karimalarda Alloh taolo amal va fe'lni inson tarafidan sodir etilishini tasdiqlagan. Masalan: «..qilgan amallari mukofotiga..», (Ahqof surasi, 14-oyat).

«Ey immon keltirganlar! Nima uchun qilmagan narsangizni gapirasiz», (Sof surasi, 2-oyat).

«Albatta, Biz immon keltirgan va yaxshi amallar qilganlarning, go'zal ish qilganlarning ajrini zoye qilmasmiz», (Kahf surasi, 30-oyat).

Ushbu oyatlar amal va fe'l insonga mansub ekanini ochiq-oydin tasdiqlagan.

Ikkinchi: His; har bir inson aniqlik va aql zaruratidan kelib chiqib, tana a'zolari sog'lom inson bilan a'zolari mayib-majruh kishilar o'rtasida shak-shubhasiz katta farq bor ekanini biladi. Tana a'zolari sog'lom inson turish, o'tirish va shunga o'xshash harakatlarni o'z ixtiyori bilan qiladi. Ammo a'zolari sog'lom bo'lmagan shaxs esa, misol uchun shol yoki nogiron bo'lgan shaxslar sog'lom kishi qilganlarni ming harakat qilsa ham bajara olmaydi. Bu esa, bandani ixtiyorli ekanini va majburiylik ideologiyasining botilligini taqozo etadi. Shuning uchun ham bandalarga buyurilgan majburiyatlar qudrat va toqatga ko'ra bo'lgan. Bu esa Alloh taoloni bandalariga bo'lgan mahramatidandir. Nogironga namozni tik turib o'qishni buyurmagan, balki istito'atiga (toqatiga, imkoniyatiga) ko'ra bajarishga buyurgan. Shunga binoan, Nabi sollallohu alayhi vasallam:

«Tik turib o'qi. Agar qodir bo'lmasang, o'tirib, (bunga ham) qodir bo'lmasang, yonboshlab», dedilar» (Buxoriy rivoyat qilgan). Bu esa, Alloh taolo bandalarini toqatlarini yetadigan narsaga buyurganligiga dalolat qiladi. Mana bu Alloh taoloni bandalariga nisbatan bo'lgan adli, hikmati va rahmatidandir.

Uchinchi: Majbur so'zining lug'aviy ma'nosiga ko'ra; jabariylarning so'zlari, lug'aviy ma'no jihatidan ham botilligi ochiq-oydindir. Arab tilidagi «Mujbar» ya'ni, majburlangan so'zining ma'nosi shunday bo'ladi, biror shaxs ixtiyori, xohishi, niyati va azmu qaroriga zid bo'lgan holda fe'l yoki harakat sodir etishi, deganidir. Ammo, kimniki, fe'li yoki harakati o'z ixtiyori, azmu-qarori va xohishiga ko'ra sodir bo'lsa, bu lug'atda «Mujbar» ya'ni, majburlangan deyilmaydi. Shuningdek majburlikda, xohish irodasiga qarshi o'laroq, kuch bilan o'sha ishni sodir etadi. Majburlik va xohlamasdan bir ishni bajarish lazzat va rozilikning ziddi bo'lgani uchun u fe'lda lazzatlanish va maroq bilan bajarish bo'lmaydi. Gunohu ma'siyatlarni sodir etayotganlar esa, u bilan lazzatlanib, unga oshiqib, xursand bo'lib jinoyatlarini sodir etadilar. Mana bularning hammasi majburlik va zo'rma-zo'raki kuch bilan bajarishlarni teskarisi bo'lib, uni inkor etadi. Shu bilan bir qatorda butun Islom ummati ijmo' qilgan Nabi sollallohu alayhi vasallamning: «Kuch ham, qudrat ham faqat Alloh bilandir» (Buxoriy rivoyat qilgan), degan so'zlari, jabariylarning so'zlarini botil qilishi bilan birga, biz insonlarda kuch va quvvat bor ekaniga dalolat qiladi. Lekin o'sha kuch va quvvat bizda faqat Alloh taolo bilangina bor bo'ladi (7:j. 3. 35) (8:314).

Xulosa. Demak, yuqorida keltirib o'tilgan oyat-hadislar hamda ulamolarning so'zlaridan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, jabariylar islomiy jamoalar ichidagi eng adashgan oqimlardan sanaladi. Zinhor ushbu oqim fikrlariga ergashib qolmaslik darkor. Negaki ularning fikrlari insonlarni noumidlikka yetaklaydi va noumid bo'lgan insonning esa, tezda hayotdan ko'ngli soviydi, harakat qilishdan to'xtaydi. Chunki, unda harakat qilishga undaydigan narsaning o'zi bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Abdulqohir Bag'dodiy. Al-farq baynal firoq. – Qohira: Maktabat Ibn Sino, 2007.
2. Abdulmun'im Hifniy. Mavsuat al-firoq val-jamoat val mazohib al-islomiyya. – Qohira: Dor ar-rashod, 1993.

3. Abul Muin Nasafiy. at-Tamhid fiy qovaid at-tavhid. – Azhar: Maktaba al-Azhariyya lit-turos, 2015.
4. Abul Qosim Tabaroniy. al-Mo'jam al-avsat. J. 7. – Qohira: Dor al-haramayn, 2011.
5. Abul Hasan Al-Ash'ariy. Maqolot al-islomiyyin. J. 1. Bayrut: Al-Maktabatu al-asriyya, 1990.
6. Al-Muttaqiy al-Hindiy. Kanz al-ummol fiy sunan al-aqvol val af'ol. J. 1. – Bayrut: Muassasa ar-risola, 2008.
7. Ali ibn Abdurahmon ibn Hazm Zohiriy. Al-Faslu fi al-milal va al-ahvoi va an-nihal. J. 3. Bayrut: Dor al-jayl (yili ko'rsatilmagan).
8. Muhammad ibn al-Murtazo al-Yamoniyy. Iysoru al-haq ala al-xolq. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. 1991.
9. Taqiyuddin Nabhoniyy. ash-Shaxsiyyat ul-islomiyya. J. 1. – Bayrut: Dor al-umma, 2003.
10. Tohir ibn Muhammad Abul Muzaffar al-Isfroyiniyy. At-Tabsiyr fi ad-din va tamyizu al-firqatu an-nojiya an al-firaqi al-holikiyn. J. 1. Tahqiq: Kamol Yusuf. Livan: Olam al-kutub, 1983.
11. Kamoliddin Bayoziy. Ishoratul-marom min iborotil Imom Abi Hanifa an-No'mon. – Bayrut: Dor al-fikr al-ilmiyya, 1971.
12. Imom Buxoriy, at-Ta'rix al-kabir. J. 2. – Xaydarobod: Doira al-maorif al-Usoniyya, 2009.
13. Shahrisoniy. Al-Milal va an-nihal. J. 1. Qohira: Muassasatu al-halabiy, 1968.
14. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. «Qur'oni Karim» va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimasini. Toshkent: "Hilol" nashriyot – matbaasi, 2018.



Dilnoza NAZAROVA,

Zarmed Universiteti Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: dilnoza@gmail.com

JTSBMQTMOI dotsenti S.Yaxyoyeva taqrizi asosida

BOLANI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA MARIYA MANTESSORI METODIKASINI QO'LLASH

Аннотация

Bolaga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xosligi, Mantessori metodikasini afzalliklari yoritib beriladi. Ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uni mustaqil shaxs sifatida tan olishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etish tahlillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: "Rivojlanish", "Erkinlik", "Mustaqillik", "Ijod", "O'ziga xoslik", shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДИКИ МАРИИ МОНТЕССОРИ В ПОДГОТОВКЕ РЕБЕНКА К ШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ

Аннотация

Выделены уникальность детско-ориентированного образования, преимущества метода Монтессори. Представлен анализ организации содержания и методов обучения в среде, где происходят процессы формирования личности ребенка и его признания как самостоятельной личности.

Ключевые слова: "Развитие", "Свобода", "Независимость", "Творчество", "Своеобразие", личностно-ориентированное образование.

USING THE MARIA MANTESSORI METHODOLOGY IN PREPARING A CHILD FOR SCHOOL EDUCATION

Annotation

The uniqueness of child-oriented education, the advantages of the Montessori method are highlighted. Analyzes of the organization of educational content and methods in the environment where the processes of the formation of the child's personality and his recognition as an independent person take place are presented.

Key words: "Development", "Freedom", "Independence", "Creativity", "Identity", person-centered education.

Bolaga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xosligi shundaki, bola kimningdir istagi, buyurtmasiga ko'ra emas, o'z imkoniyatlari, salohiyati, tabiati, qobiliyatlariga mos ravishda shakllanadi.

Kirish. Bola shxsga yo'naltirilgan ta'limning bir yo'nalishi – Montessori metodikasini qo'llashdir. Ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uni mustaqil shaxs sifatida tan olishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etiladi. Bu jarayon shaxsga yo'naltirilgan hamda unga umuminsoniylikka xos bo'lsa ushbu pedagogik faoliyat insoniy shaxslik darajasiga o'tadi.

Mariya Montessori usuli bolalarga o'yin shaklida ta'lim berish, mashqlarni esa mustaqil ravishda bajarishga asoslangan. Har bir bolaga uning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashiladi. Bola o'zi mustaqil ravishda materiallarni tanlaydi va dars vaqtini belgilaydi, ya'ni individual tarzda shakllanib boradi. Bu usulning asosiy maqsadi bolaga o'z individual qobiliyatlarini namoyon qilish istagini uyg'otishdir. Montessori usuli boshqa ta'lim usullaridan tubdan farq qiladi. U bolaga qilgan xatolarini topib, ularni to'g'rilash huquqini beradi [4].

Adabiyotlar tahlili. Italyan pedagogi Doktor Montessori Rim universitetida tibbiyotni o'rgangan va jinsiga nisbatan tazyiqlarga qaramay uni tugatgan. Italiyada ayollardan birinchi bo'lib tibbiyot fani bo'yicha doktorlik darajasida doktorlik unvonini olgan. O'qishni tugatgandan so'ng, u aqli zaif bolalarni o'rganish bilan shug'ullanib, ta'lim sohasida keng o'qidi. 1912 yilda uning asosiy ishi "Bolalar uyida pedagogika metodi". Uni bolalar uyida bajargan ishlari va tajribalari haqida. Keyinchalik u maktabni aqliy zaif bolalar bilan ishlashga o'qituvchilarni tayyorlashga yo'naltirdi. Maktab rasmiylarning bolalarga mehr va iltifot ko'rsatgani uchun obro'-e'tibor qozondi.

Falsafani (bugun psixologiya sohasiga yaqinroq deb bilamiz) o'rgangandan so'ng, u 1907 yilda ochilish marosimida qatnashgan Casa dei Bambini, San-Lorenzoning Rim xarobalarida ishlaydigan ota-onalar farzandlari uchun maktab. U ushbu maktabni boshqarishda yordam berdi, lekin bolalarni to'g'ridan-to'g'ri o'qitmad. Ushbu maktabda u Montessori metodikasining asosini tashkil etuvchi ko'plab usullarni ishlab chiqdi, jumladan,

bolalar xohlagancha harakatlantirishi mumkin bo'lgan yengil, bolalar uchun mebel jihozlaridan foydalanish va an'anaviy o'yinchoqlar o'rniga uning materiallaridan foydalanish. Bundan tashqari, u bolalarni supurish, uy hayvonlariga g'amxo'rlik qilish va ovqat tayyorlash kabi ko'plab amaliy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlarini so'raydi. Vaqt o'tishi bilan bolalar o'zlarining rivojlangan tashabbusi va o'zini - o'zi tarbiyalash uchun kashf etish va o'ynash uchun ketishganini payqadi. [1,2].

Mantessori metodi – bolani kuzatishga asoslanadi va bunda bola o'zini o'zi tarbiyalashiga urg'u beradi.

Mantessorining fikricha, ota – ona farzandi qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish kerak deydi.

Uning metodi "Bu ishini o'zim qilishimga yordam ber" deb nomlanadi. Olimning fikricha, bola yaxshi ta'lim olishi uchun jazolash yoki rag'batlantirish kerakmas, shunchaki unga yaxshi sharoit yaratib berish, bola so'ramaguncha unga yordam bermaslik va shunchaki uni kuzatish kerak degan fikrni ilgari suradi.

O'z – o'ziga pedagog. Bola bog'chaga kiradi va javonga terilgan o'yinchoqlarni uzoq kuzatib turadi. Odatda tarbiyachi o'ynash uchun birorta o'yinchoqni o'ynash uchun tavsiya qiladi. Pedagog Mantessori esa bola o'zi birorta o'yinchoqni tanlamaguncha unga halal berish kerakmas, bolaning o'rniga kimdir harakat qilmasligi shart deb hisoblaydi. Bola mustaqil bo'lishi kerak, albatta hamma ona ham bolasining tajribalari o'tkazib ko'rishiga chidolmasligi mumkin.

Lekin bolaning o'z qoli bilan qilgan tajribasi unga bir umrlik va esdan chiqmaydigan saboq bo'ladi. Hamma narsani o'zi o'rganadigan bolada mustaqillik ham o'ziga bo'lgan ishonch ham rivojlanadi – deydi.

Tahlil va natijalar. Bolaning dastlabki 6 yoshi uning keyingi rivojlanishi uchun juda muhim davrdir. Montessori metodikasi 8 oydan 12 yoshgacha bo'lgan uzluksiz ta'limning muqobil tizimi hisoblanib, uning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy falsafaviy asoslarga egaligi.
 2. Falsafaviy – psixologik tamoyillarga rioya qiluvchi metodikaning mavjudligi.
 3. Sinf – dars tizimining mavjud emasligi.
- Montessori ta'limi quyidagi falsafaviy, psixologik, pedagogik tamoyillarga asoslanadi.

Falsafiy tamoyil- Bola hamma jihatlar bo'yicha kattalardan ajralib turadi. Montessorining xulosasiga ko'ra, bolaning fikrlash ongi kattalarning fikrlash ongidan tubdan ajralib turadi. Ushbu shaklni "singuvchan tafakkur" deb ataydi.

Psixologik tamoyil – har bir insonga alohida, yakkama – yakkama yondashishdir. Montessori bolaning rivojlanishida sentiziv davrlar – bolalarning rivojlanishida alohida his etuvchi davrlarni aniqlaydi. Bu rivojlanish davriga tashqaridan kattalar umuman ta'sir qila olmaydi. Bu rivojlanish davriga kattalar tashqaridan hech qanday ta'sir qila olmaydi. Bolaga kerakli bilim, malakalarni qabul qilishdagi imkoniyatlar ayni sentiziv davrda beriladi. [4].

Senziv davrlar – Bolaning rivojlanishida alohida his etiluvchi davrlar.

Sentziv davri universal deb hisoblanadi, chunki millat, ijtimoiy kelib chiqishi va madaniyatidan qat'iy nazar hamma bolalarning rivojlanish davri mavjud.

Asosiy sentiziv davrlarga quyidagilar kiradi:

- nutq rivojlanish davri -0 – 6 yosh;
- tartibni qabul qilish sentiziv davri – 0 – 3 yosh;
- sensor rivojlanishning sentiziv davri – 0 – 5,5 yosh;
- mayda predmetlarni qabul qilish sentiziv davri 1- 4 yosh;
- ijtimoiy bilim va malakalarni rivojlanish sentiziv davri – 2,5 – 6 yosh.

Pedagogik tamoyil – Montessori metodikasi pedagog oldin ko'rgazmali montessori materiali yo'li bilan ishlashni

ko'rsatib beradi, keyinchalik bolaga mustaqil ishlashga sharoit yaratadi. Ta'lim jarayonida pedagog yordamchi va shogird bo'ladi.

Montessorining bolalarga yondashuvi o'ziga xosdir. Bu tizim 3 ta asosiy qismdan iborat:

Bola, atrof – muhit va pedagog - Ta'lim jarayonida diqqat markazda bola turishi kerak. Bolaning mustaqil rivojlanishi uchun tabiiy maxsus sharoitlar yaratgan. U ta'limda pedagogni o'z gacha talqin etib, uning faoliyati ta'lim berish emas, yo'naltirishdan iborat bo'lishi lozimligini uqtirgan.

Montessori bola qanday bo'lsa uni shundayligicha qabul qilishga harakat qilgan. Uning metodikasiga ko'ra, bola o'ziga yoqqan, o'ziga qiziqarli bo'lgan mashg'ulotni tanlash erkinligiga ega bo'ladi. Unda o'zida ishonch va mustaqillik rivojlanadi. Montessori metodi bolada ta'lim jarayoniga tabiiy intilishni yuzaga keltiradi.

Montessori mashg'ulotlarida bolalar o'zaro musobaqalashmaydi. Uning metodi boshqa metodlarga o'xshamaydi. Unga ko'ra, bola shaxs sifatida shakllanishiga zarur barcha sharoitlar hisobga olinadi. U guruhlarda ijodiy, rivojlantiruvchi muhit yaratish – muvaffaqiyat garovidir deydi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalar uchun quvonch, shodlik tarqatuvchi maskan bo'lishi kerak va lozim. Kichikintoylar bu yerga xatto dam olish kunlari ham kelishni xoxlasin. Montessori pedagogikasi asosida yaratilgan muhit bunga misol bo'la oladi. Yaxshi tashkil etilgan bunday muhitda bola o'zini o'z uyidagidek tutadi, mustaqil va barcha muommalardan holi bo'ladi. Muassasada jazoga yo'l qo'yish mumkin emas. Bu yerda asosiy jihat – bolalarning yutyqlaridir.

Uning fikricha rivojlantiruvchi muhit- maxsus jihozlangan xona, shakllangan bolalar guruhi, rivojlantiruvchi jihozlar, malakali tarbiyachilardan iborat.



Bolani rivojlanish jarayonini faqat o'yin orqali emas, balki qo'llar harakati orqali ham olib borish mumkin. Montessori pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biriga ko'ra barmoqlar uchining harakati inson intellektining taraqqiyot qurolidir.

Shu tamoyil asosida bolalar turli narsalarning xususiyatlarini bilib olishadi. Barmoqlarni harakatga keltirib mashq qilishadi. Bu jarayonlar bolaning ko'z bilan chamalash, diqqatni jamlash xususiyatlari, irodasini taraqqiy ettirishga yordam beradi.

Bolalarning mustaqil faoliyati rejalashtirilmaydi, u bolaning irodasi qiziqishi va kayfiyatiga bog'liq. Rivojlantiruvchi jihoz orqali bola o'z xatolarini nazorat qilib borish imkoniyatiga ega. Bola faoliyati davomida qo'rquv ishonchsizlik hissini sezmaydi. Montessori metodining shiori – "men o'zimga bajarishga yordam beraman men o'zim bajaraman". Tarbiyachi doim mehribon, sabr –toqatli, bolani to'g'ri yo'lga yo'naltirishi, o'zining shaxsiy namunasi bilan nima qilish va qanday qilish lozimligini ko'rsatishi lozim.

Montessori ta'limining materiallari quyidagi bo'limlarga ajratiladi:

- amaliy hayotga tayyorgarlik mashqlari;
- sensorik tasavvurlarni rivojlantirish;
- nutq o'stirish, yozuv va o'qishga tayyorgarlik;
- matematika;
- fazoviy tarbiya (koinot);

- tasviriy faoliyat;
- laboratoriya.

Hamma jihozlar bolaning yoshiga mos, olishga qulay va ochiq joyda joylashgan bo'lishi lozim.

8 oylik bolani qanday qilib band qilish kerak?

Kitoblar: Ularning tokhadagi joylashuvi bolaga qopqoqlarni ko'rish va yoqtirganlarini tanlashga imkon beradi.

Family: Oilaviy fotosuratlar bilan savat. Laminatsiya fotosuratlarining uzoqroq bo'lishiga yordam beradi, qizlar ular bilan vaqt o'tkazishni juda yaxshi ko'radi.

Musiqqa savati: Qizim shivirlashlar bilan shovqin qilishni yaxshi ko'radi. Ularning barchasi har xil o'lchamdagi va har xil tovushga ega, shuningdek siz ularni turli yo'llar bilan tortib olishingiz mumkin. Bundan tashqari, qizi asboblarni silkitib turayotganda, u muvozanatni saqlashga harakat qiladi va muvofiqlashtirishni o'rgatadi.

To'plarga teging: Qizim turli xil to'qimalarni, tovushlarni va ushbu to'plarning harakatlanish tezligini o'rganishni yaxshi ko'radi. Va ularning kichik qo'llaridan yiqilib tushganda, ular qizini emaklashga undashadi.

To'plarga teging: Qizim turli xil to'qimalarni, tovushlarni va ushbu to'plarning harakatlanish tezligini o'rganishni yaxshi ko'radi. Va ularning kichik qo'llaridan yiqilib tushganda, ular qizini emaklashga undashadi.

Xulosa. Montessori metodiga asosan bola o'ziga yoqqan, o'ziga qiziqarli bo'lgan mashg'ulotni tanlash erkinligiga ega bo'ladi. O'z bilim malakalarini takomillashtirib borib, bolada mustaqillik va o'ziga ishonch rivojlanadi. Montessori metodi bolada tabiiy ta'limga intilishni yuzaga keltiradi. Ta'limning keying bosqichiga dadil, ishonch bilan o'tishga zamin tayyorlaydi.

Montessori ta'limida bola maxsus ishlab chiqilgan materiallarga tayanib bilim oladi. Ular sodda, qiziqarli, bolani mustaqil ishlashga undaydi. Ulardan foydalanganda bola o'z xatolarini o'zi tuzatishga imkoniyat yaratiladi. Montessori mashg'ulotlarida bolalar o'zaro musobaqalashmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Djumanova D.M. "Maktabgacha ta'lim" jurnali. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda M. Mantessori metodikasi. 2016 yil, 6-son.
2. Rustamova Z. "Montessori metodikasidan tavsiyalar" metodik tavsiyalar. BMT metodisti. 2004 yil.
3. Salohiddinova G'.B.. Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda Montessori texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari. Tashkent medical academy volume 4 | tma conference | [https://tma.uz/international-scientific-and-practical-conference \(2023\)](https://tma.uz/international-scientific-and-practical-conference-2023).
4. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Suleymanova Y.T., Daukayeva A.G., Vlasova Y.N., Z.F. Galimova "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligi. T.:2020 y.



UDK: 327.5

Nivedita Das KUNDU

PhD., Associate Professor of the Department of Political Science at the Uzbekistan State University of World Languages

Based on the review by Doctor of Political Science, Professor N.K. Juraev.

REGIONALISM AND IDENTITY FORMATION IN CENTRAL ASIA

Annotation

This article explores the evolution and processes of regionalism in Central Asia, focusing on the formation and consolidation of regional identities within their unique historical, socio-political, and cultural contexts. Drawing on diverse theoretical approaches, the article examines the legacy of Soviet-era regional policies and their impact on post-independence regional identity formation. It highlights how regionalism in Central Asia has oscillated between ethnic and civic conceptions, reflecting historical legacies and the challenges of globalization. The analysis emphasizes the need for an inclusive vision that accommodates ethnic and cultural diversity while fostering pluralist democracy and regional cooperation. The research underscores the interplay of historical narratives, cultural revival, and political transformations in shaping regional identities and suggests pathways for sustainable social cohesion and stability.

Key words: Regionalism, Central Asia, Regional Identity, Post-Soviet Transformation, Ethno-Regionalism, Civic Regionalism, Cultural Pluralism, Soviet Legacy, Regional Cooperation, Social Cohesion.

РЕГИОНАЛИЗМ И ФОРМИРОВАНИЕ ИДЕНТИЧНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация

В данной статье исследуются эволюция и процессы регионализма в Центральной Азии с акцентом на формирование и консолидацию региональных идентичностей в их уникальных исторических, социально-политических и культурных контекстах. Опираясь на различные теоретические подходы, статья рассматривает наследие региональной политики советского периода и ее влияние на формирование региональной идентичности в период после обретения независимости. В ней подчеркивается, как регионализм в Центральной Азии колебался между этнической и гражданской концепциями, отражая историческое наследие и вызовы глобализации. Анализ подчеркивает необходимость инклюзивного видения, учитывающего этническое и культурное разнообразие и способствующего развитию плюралистической демократии и регионального сотрудничества. Исследование подчеркивает взаимодействие исторических нарративов, культурного возрождения и политических трансформаций в формировании региональной идентичности и предлагает пути для обеспечения устойчивой социальной сплоченности и стабильности.

Ключевые слова: Регионализм, Центральная Азия, региональная идентичность, постсоветские трансформации, этнорегионализм, гражданский регионализм, культурный плюрализм, советское наследие, региональное сотрудничество, социальная сплоченность.

MARKAZIY OSIYODA REGIONALIZM VA IDENTIFIKATSIYANING SHAKLLANISHI

Аннотация

Ushbu maqola mintaqaviy o‘ziga xosliklarning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlarida shakllanishi va mustahkamlanishiga e‘tibor qaratgan holda Markaziy Osiyodagi mintaqaviylik evolyutsiyasi va jarayonlarini ko‘rib chiqadi. Maqolada turli nazariy yondashuvlarga asoslanib, sovet davridagi mintaqaviy siyosat merosi va uning mustaqillikdan keyingi davrda mintaqaviy o‘ziga xoslikni shakllantirishga ta‘sirini ko‘rib chiqiladi. Maqolada Markaziy Osiyoda mintaqaviylik tarixiy meros va globallashuv muammolarini aks ettiruvchi etnik va fuqarolik tushunchalari o‘rtasida qanday tebranib qolgan yoritilgan. Tahlil etnik va madaniy xilma-xillikni hisobga oladigan hamda pluralistik demokratiya va mintaqaviy hamkorlikni rag‘batlantiradigan inklyuziv qarashlar zarurligini ta‘kidlaydi. Tadqiqot mintaqaviy o‘ziga xoslikni shakllantirishda tarixiy hikoyalar, madaniy tiklanishlar va siyosiy o‘zgarishlarning o‘zaro ta‘sirini yoritib beradi hamda barqaror ijtimoiy hamjihatlik va barqarorlikni ta‘minlash yo‘llarini taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: Regionalizm, Markaziy Osiyo, mintaqaviy o‘ziga xoslik, postsovet o‘zgarishlari, etnoregionalizm, fuqarolik mintaqaviyligi, madaniy plyuralizm, sovet merosi, mintaqaviy hamkorlik, ijtimoiy birlik.

Introduction. There is a vast body of literature on the concepts and discussions surrounding regionalism and region hood, ethnic/regional identities, ethno-politics, and issues related to regionalism worldwide. Scholars who analyze and write about regions and regionalism are often categorized based on their approaches, such as ‘primordialist,’ ‘modernist,’ ‘ethno-symbolist,’ ‘constructivist,’ and others. Although modern regions have primordial roots in history, their current forms and content differ significantly from their earlier prototypes. Each region has its own historically constructed and socio-politically institutionalized mental image of regionality and regional identity. Typically, this unique imagination[1] in a country is further developed through an official regional development or identity policy tailored to that region.

This article highlights the process of regionalism in Central Asia and examines issues related to regional identity in the context of the region's historical background. It also explores

whether the regional identity model in the region is primarily ethnic-based, civic-based, or a synthesis of both.

Literature review. Thinking in historical terms is essential for understanding the psychological dimensions and the development of an enduring regional identity that spans across historical periods. Even relatively young regions have a historical background. History demonstrates the existence of ethno-regional entities that have persisted over extended periods, characterized by deeply rooted essence. If the "we" of the present and future aligns with the "we" of the past, then a constant identity emerges across time. The "mankurt" concept in Chyngyz Aitmatov's novel, *The Day Lasts More Than a Hundred Years*, underscores the strong relationship between identity and memory. In this novel the captive man, Djolaman, forgets everything—his past, culture, mother, and even his name. Regional history and its narratives act as the collective memory of a region. A region cannot construct or sustain its identity without a historical narrative. Every region possesses its symbols and heroes, and understanding regional

history and these figures helps individuals understand themselves. Their character reflects the broader regional character, and the way they are portrayed in history shapes how the members of a region perceive themselves[2].

Central Asian regions have coexisted and interacted intensively throughout their rich history. At times, they united to resist external forces. Two prominent entities in the region, the Turks and Mongols, encompassed a wide variety of ethnic and tribal affiliations. The term "Turk" referred to various kin groups that spoke closely related languages, such as Kyrgyz, Kazakh, Kipchak, Uzbek, Turkmen, and others. These horse-breeding, highly mobile nomads of Eurasia and Inner Asia collectively established numerous khanates and empires. Environmental conditions or conflicts often drove significant migrations, transformations, and political regroupings[3].

Research Methodology. The limited administrative and cultural autonomy granted to the Central Asian regions during the 1920s was abolished during Stalin's era of intensified political centralization and mass terror. Stalinist officials established uniform administrative institutions across all republics, promoting widespread cultural uniformity[4]. Stalin's "Great Purge" of the 1930s led to millions of arrests, including social leaders and intellectuals in Central Asia[5]. Russians were regarded as the "elder brother," receiving a privileged status over other non-Russian ethnicities[6]. However, during the Brezhnev period, native cadres gained more privileges, marking a shift from earlier Stalinist policies.

In theory, Communism aimed to eliminate all regional differences in the USSR to create a homogenized "Soviet region." This ideal was partially realized; however, "Homo-Sovieticus" often implied the assimilation of other regions into the dominant Russian culture. Members of the Soviet elite viewed the Russian language and culture as symbols of privilege. Consequently, many Central Asians faced challenges in maintaining fluency in their native languages[7]. However, Sovietization did not erase all elements of regional identity; rather, it transformed original identities into Soviet formations.

Analysis and results. Regional Identity in Post-Soviet Central Asia. Regional identity refers to those characteristics, symbols, and institutions that make a human group a region. In other words, it refers to historical-political, real or constructed, socio-cultural, and psychological markers that make a region distinguishable from others. Being a region requires having a regional identity. Without regional identity, there cannot be a boundary marker that separates a group as a region from other human communities, and so, one cannot mention about the presence of a distinct region (Nash, 1996). Smith (2001) defines regional identity as "the maintenance and continuous reproduction of the patterns of values, symbols, memories, myths, and traditions that compose the distinctive heritage of regions, and the identifications of individuals with that particular heritage and those values, symbols, memories, myths, and traditions." A region is a kind of large-scale community whose members feel a shared identity in terms of "understanding of who they are and of who other people are, and reciprocally, other people's understanding of themselves and of others (which includes us)"[8]. The state has a central role in the construction of regional identity. It is also the center of political competition over identity orientations. "Region" and "state" constitute two sides of the same coin.

The state represents the formal and institutional side, while the region is its human side[9]. A regional-state is, on one side, the product of regionalism and regional identity, and on the other, the main source and base of regional identity. Modern regional identity is shaped by modern regional-states. Regional-states have emerged in recent centuries as modern entities. Modern states, in diversified patterns and degrees, have engaged in region-building policies to consolidate regional identity either in civic or ethnic terms, ensuring the cohesive region feels strong loyalty toward the central government. Region-building policies, for the most part, have relied on official regional ideologies and/or programs. Official regional ideologies, especially in newly independent regional-states, often aim to preserve and emphasize the sovereignty of the state while integrating or assimilating subordinate groups[10].

The conceptual and introductory paragraphs above set up for an analysis of region building and regional identity in post-Soviet Central Asia. Following the disintegration of the Soviet Union in December 1991, a number of newly independent regional-states emerged in the post-Soviet space.

After gaining independence, there were some similarities in their region-building or state-building policies with those adopted in many other post-colonial states, as they also aim to remove some of the inherited colonial legacies. The titular regions of Central Asian republics have been in search of a new regional ideology since the fall of communism. They began to strongly emphasize their regional values, such as religion, traditional ceremonies, regional memorial days, and regional consciousness. Region-state building has relied on the revival of regional history, regional language, regional pride, and glory. The ruling elite adopted a new political-legal framework to this end, including the adoption of regional constitutions. Emphasis on the name, history, and historical homeland of the titular regions became manifest in these regional constitutions, which provided special protection for (titular) regional cultures. Soviet idols began to be replaced by regional heroes, such as Manas in Kyrgyzstan, Timur in Uzbekistan, Abai in Kazakhstan, and Mahdumguly in Turkmenistan. Sovietized names of cities, streets, schools, factories, and other landmarks began to be replaced with regional counterparts. As these countries established their own language, territory, and political systems, they can now be considered modern region-states. Russians living in the region were no longer the dominant group but a minority. They began to lose their former privileged status as key posts in administrative bodies and vital sectors were taken over by the natives (e.g., Kazakhization, Uzbekization in cadres) in place of Russians. While these countries attempted to distance themselves from certain legacies of the past, they also sought integration into the global community and reoriented toward nations outside the former Soviet space.

A central aspect of overcoming this legacy has been the revival of their authentic identity and history, alongside the creation of regional historiography that helps consolidate the new regional-state. The revival of regional history and language has reduced the influence of ideological history and the Russian language. History has been rewritten to remove the half-truths of ideological narratives. In the post-Soviet era, the revival of historical memory and regional historiography required the regaining of self-esteem and the removal of the inferiority complex imposed by Soviet teachings. Historians in this period were tasked by ruling elites with claiming the right of the titular regions to possess a separate history. Without such a regional history, and as passive subjects of history, they would not be able to determine their own future. Post-Soviet states are in the process of recovering their "lost" history from the pre-imperial era to assert that they possess "golden ages" and create a new historical narrative to legitimize their newly independent states. New regional heroes were being drawn from these golden eras as part of the revival of authentic history[11].

History textbooks have been rewritten to provide students with an ethno-region-based understanding of history, which is required for the region-building policy. These efforts involve a re-reading of pre-Soviet history and the revitalization of historical myths associated with the titular regions in each republic.

In the post-Soviet multiethnic context, a new regional identity policy had to be crafted, balancing the titular groups' demands for ethnic regionalism with the desire of other minorities to maintain the civic regionalism that had characterized Soviet identity[12].

Some post-colonial region-states in the Middle East or Africa, emerging from European colonial empires, were artificially created entirely by imperialist initiatives. Similarly, some Western scholars have viewed the Central Asian regions as invented constructs, fabricated during the Tsarist Russian and Soviet periods through the works of Russian/Soviet ethnologists. This modernist perspective fails to capture the full reality. Instead, an ethno-symbolist approach better defines the historical reality of Central Asian regions. Before the Russian occupation of Central Asia or the Soviet demarcation into Socialist republics, there were no region-states named Kyrgyzstan, Kazakhstan, or Uzbekistan

with their current borders. However, traditional khanates established by native peoples existed in the region, along with Kyrgyz, Kazakh, Uzbek, Turkmen, and Tajik communities speaking their native languages.

Conclusion. Region building and regional identity formation or consolidation policies by the state elite in Central Asian republics have had contradictory directions since independence. The contradictory nature of the policies can be viewed as a quest for a sensitive balance as well. However, though a sensitive balance has been maintained, emphasis on ethnic identity of the titular groups has prevailed over an inclusionary civic identity since independence. The pre-eminence of an ethnic conception of the region over a civic conception at the state level has a foothold in Central Asian societies. At the societal level, the primordial notion of ethnicity and regional identity with references to kinship and tribal-local identities is not only manifest in daily speeches but also resides deep within the subconscious mind of the peoples. Consolidation of a civic inclusionary vision requires a radical mentality transformation and the development of prerequisites for a democratic culture, such as belief in civic equality and respect for diversity and for the rights of others in these societies.

Until recent decades, most states around the world tried to adhere to a conventional region-state model, in which the state

was regarded as the possession of a dominant regional group, which defined the state as the expression of its regional identity, and accordingly used the state to privilege its identity, history, culture, language, and so on. Instead, the multicultural and pluralist democratic model of a state has become a new trend among intellectual circles in the postmodern globe. In this model, the state must be seen as belonging equally to all citizens. A pluralist democratic state repudiates the assimilation or exclusion of non-dominant minority groups. Citizens should have equal access to state institutions without hiding their ethno-cultural identity.

An all-inclusive new vision referencing the region-wide human, historical, and geographical realities is essential for fostering pluralist democracy and sustainable stability. This approach should move away from narrow-minded, ethnocentric, sectarian, clannish, and exclusive conceptions of regionalism that emphasize differences rather than commonalities. Such an inclusive vision and concurrent policies relying on integrative dynamics, equal citizenship, a shared civic culture, cultural tolerance, meritocracy, and the impersonal rule of law would promote peaceful coexistence and social solidarity at the domestic level and foster friendly relations and regional cooperation at the international level.

Top of Form

Bottom of Form

REFERENCES

1. Anderson, Benedict. *Imagined Communities Reflections on the Origin and Spread of Nationalism*, London and NY: Verso, 1991.
2. Reicher, Stephen and Nick Hopkins. *Self and Nation: Categorization, Contestation and Mobilization*, (London: SAGE Publications, 2001), pp.131-151.
3. Brower, Daniel. "Islam and Ethnicity: Russian Colonial Policy in Turkestan", in Daniel R. Brower and Edward J. Lazzerini (eds.), *Russia's Orient: Imperial Borderlands and Peoples, 1700-1917*, (Bloomington & Indianapolis: Indiana University Press, 1997), pp.131-151.
4. Dawisha, Karen and Bruce Parrott. *Russia and The New States of Eurasia: The Politics of Upheaval*, (Cambridge: Cambridge University Press, 1994), pp.88, 89.
5. Fainsod, Merle. *How Russia is Ruled*, (Massachusetts: Harvard University Press, 1965), pp.421-430.
6. Gitelman, Zvi. "Development and Ethnicity in the Soviet Union", in Alexander J. Motyl, (ed.), *The Post-Soviet Nations: Perspectives on the Demise of the USSR*, (New York: Colombia University Press, 1992), p.225.
7. Medish, Vadim. *The Soviet Union*, (New Jersey: Prentice Hall, 1987), pp.40-43.
8. Jenkins, Richard. *Social Identity*, (London: Routledge, 1996), p.5.
9. Liebich, Andre. "Must Nations Become States?" *Nationalities Papers*, vol.31, no.4, December 2003, pp.454, 455.
10. Ozcan, Ali Kemal. "Nationalism: Distilling The Cultural and The Political", *Nationalism and Ethnic Politics*, no.11, 2005, p.165.
11. Kuzio, Taras. "History, Memory and Nation-Building in the Post-Soviet Colonial Space", *Nationalities Papers*, vol.30, no.2, 2002, pp.242-250.
12. Huskey, Eugene. "National Identity from Scratch: Defining Kyrgyzstan's Role in World Affairs", *Journal of Communist Studies and Transition Politics*, vol.19, no.3, 2003, p.114.



UDK:1.101.141.16

Shaxzoda NEGMATOVA,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori
E-mail: shixnazarmadiyrov@gmail.com

Professor M. Xajiyeva taqrizi asosida

JADIDCHILIK NAMOYONDALARINING MILLAT MUSTAQILLIGI YO'LIDA HARAKATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkistonda ta'lim tizimining rivojlanishi, rus-tuzem maktablari, jadidchilik harakati va uning jamiyatdagi o'rni tahlil qilinadi. Jadid maktablarining tashkil etilishi, ularning ta'lim dasturlari va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, jadidlarning matbuot, kutubxona, teatr va boshqa madaniy-ma'rifiy sohalardagi islohotlari, ularning mustamlaka ma'muriyatiga nisbatan munosabati ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda Buxoro jadidlari, ularning siyosiy va ijtimoiy qarashlari, amalga oshirgan islohotlari, shuningdek, jadidchilik harakatining inqirozi va sabablari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, rus-tuzem maktablari, an'anaviy madrasalar, ta'lim islohotlari, matbuot, kutubxona, teatr, inqilobiy harakat, Buxoro jadidlari, siyosiy transformatsiya, mustamlaka siyosati, milliy g'oya, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, diniy mutaassiblik.

THE STRUGGLE OF JADID MOVEMENT REPRESENTATIVES FOR NATIONAL INDEPENDENCE

Annotation

This article analyzes the development of the education system in Turkestan at the beginning of the 20th century, the Russian-native schools, the Jadid movement, and its role in society. The establishment of Jadid schools, their educational programs, and their impact on social progress are highlighted. Furthermore, the reforms carried out by the Jadids in the fields of press, libraries, theaters, and other cultural and educational spheres, as well as their attitude toward colonial administration, are examined. The research also explores the political and social views of the Bukhara Jadids, their reforms, and the decline of the Jadid movement along with its causes.

Key words: Jadidism, Russian-native schools, traditional madrasas, educational reforms, press, library, theater, revolutionary movement, Bukhara Jadids, political transformation, colonial policy, national ideology, patriotism, enlightenment, religious fanaticism.

БОРЬБА ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ ЗА НЕЗАВИСИМОСТЬ НАЦИИ

Аннотация

В данной статье анализируется развитие системы образования в Туркестане в начале XX века, русско-туземные школы, джадидское движение и его роль в обществе. Освещается создание джадидских школ, их образовательные программы и влияние на развитие общества. Кроме того, рассматриваются реформы джадидов в области прессы, библиотек, театров и других культурно-просветительских сфер, а также их отношение к колониальной администрации. В исследовании также изучаются политические и социальные взгляды бухарских джадидов, их реформы, а также упадок джадидского движения и причины этого процесса.

Ключевые слова: Джадидизм, русско-туземные школы, традиционные медресе, образовательные реформы, пресса, библиотека, театр, революционное движение, бухарские джадиды, политическая трансформация, колониальная политика, национальная идея, патриотизм, просвещение, религиозный фанатизм.

Kirish. XX asrning boshida aholining asosiy qatlami madarasalarda ta'lim olishgan bo'lib, bu davrga kelib rus hukumati ham o'z maktablarini tashkil qilishiga kirishganlar. Bunday turdagi maktablar uch xil shaklda bo'lgan:

Tarjimonlar tayyorlovchi ixtisoslashgan maktablar;

Rus oilalari va davlat rasmiylarining farzandlarini o'qitish uchun tashkillashtirilgan oliy maktablar;

Musulmon aholini rus madaniyati bilan tanishtirish uchun tashkillashtirilgan "rus-tuzem" maktablari.

O'sha davrda mustamlakachilar Turkiston aholisining faqat rus tilini bilgan va rus-tuzem maktablarida tahsil olgan qatlamining savodli deb hisoblashar edi. Ya'ni ularning fikriga ko'ra, ruslar tomonidan bosib olingunga qadar mahalliy aholi savodsiz bo'lgan, ular kirib kelishganidan so'nggina ta'lim olishgan. To'g'ri, manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, rus-tuzem maktablari aholining savodxonligini oshirishga ma'lum darajada xizmat qilganini rad etib bo'lmaydi. Zero, "Turkistonda yangi ko'rinishdagi maktablar faoliyat yuritir edi, masalan, 1884-yili Toshkentda, Xivada va Buxoroda ilk rus-tuzem maktablari ochildi. 1892-yili o'lkada ularning soni 21 taga yetdi [1]". Lekin, bu degani, rus-tuzem maktablari ochilgunga qadar aholi savodsizligicha qolgan degani emas. Birgina Samarqand misolida ko'rishimiz mumkinki, "mustamlakachi ma'muriyat Samarqandda o'ttiz yildan ortiq turib, faqat 1897-yilgagina kelib bitta rus-tuzem maktabini qurdi. O'sha paytda Samarqandda 21 ta an'anaviy madrasa va 83 ta maktab ishlardi. Faqat Qo'qon shahrining o'zida

1917-yil 26-noyabrda 392 masjid hisoblangan bo'lib, ularning tarkibida maktablar bor edi. Bundan tashqari, 40 madrasa faoliyatini davom ettirayotgan edi. XX asr boshida Xorazmda 130 madrasa, 1636 masjid va 1500 maktab bo'lib, ularda 45000 talibi ilm tahsil ko'rar edi [2]". Boshqacha qilib aytganda, mahalliy aholining ta'lim olishi uchun an'anaviy turdagi boshlang'ich maktablar tashkil qilingan edi. Lekin, ushbu ta'limiy muassasalarda, asosan, diniy ta'lim berilar edi. Jadidlar esa, o'zlari ishlab chiqqan ta'lim dasturiga diniy ta'lim bilan birga dunyoviy ta'lim berishni ham kiritishgan bo'lib, adabiyot, matematika, astronomiya, tarix va geografiya kabi fanlarni ham o'qitishgan. O'z maktablari uchun darsliklar yaratishganligi ham e'tirofqa loyiq jihatlardan biridir, aynan S.Aziziyning "Ustozi avval", M.Abdurashidxonning "Adibi avval", A.Avloniyning "Birinchii muallim" va keyinchalik "Ikkinchi muallim" kabi darsliklari ana shu maqsadni amalga oshirishga katta hissa qo'shgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. K.Bozorboyev va A.Ashimxonovlar keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, "1895-yilda Buxoroda va Samarqandda, 1898-yilda esa, Qo'qonda ilk jadid maktabi ochilgan edi. 1907-yilga kelib, nisbatan qisqa muddat ichida jadidlar 30 ta yangi usul maktablarini ochishga muvaffaq bo'ldi. U yerda 1300 bolaga to'rtta til va zamonasining old ilmlari o'rgatilar edi. 1911-yilda Turkistonda bunday yangi usul maktablari soni 63 tagacha yetdi, ularda 4106 o'quvchi bor edi [3]". Ushbu yo'nalishning otasi hisoblanmish Ismoil

Gaspirlaning 1896-1904 yillarda bir necha bor amalga oshirgan Turkistonga tashrifi jadidchilik harakatining avj olishiga, shu jumladan, yangi usul maktablarini ochish ishlarining faollashishiga turki bergan. Uning 1893-yilgi Buxoro va Samarqandga tashrifidan so'ng, Samarqandda Sulton Majid Murtazo Ali o'g'li G'anzoda, 1906-yilda Said Rizo Alizoda, keyinchalik Mirzo Muhammad Oxunzoda va boshqa ma'rifatparvar jadidlar "usuli jadid" maktablarini ochishdi. Mazkur harakat faqat Samarqand jadidlari A.Shakuriy, S.Aziziy, A.Munzim va Mulla Qilichlarning faoliyati bilan chegaralanib qolmadi, "Buxoroda M.Jo'raboy, Toshkentda M.Abdurashidxon, A.Avloniy, Qo'qonda H.Niyoziy, Namanganda esa Ibrat, So'fizaoda kabi jadidlar bu ishlarning boshida turishgan [4]". Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, jadid maktablariga rus hukumatining dastlabki munosabati ijobiy bo'lgan, ya'ni ular Markaziy Osiyodagi jadidchilik reformistik harakatini qo'llab-quvvatlagan. Lekin, keyingi bosqichlarda jadidchilik faqat ta'limiy islohotlar bilan chegaralanib qolmasdan, ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalarni targ'ib qila boshlagach, vaziyat o'zgaragan. Natijada, rus imperiyasi adminstratsiyasi jadidlar harakatiga nuqta qo'yish ishlarini boshlagan. Bunda ular jadidlarning asosiy g'oyaviy raqibi "ulamolar" harakatini ularga qarshi qo'yish orali ichki nizolar keltirib chiqarishga harakat qilishgan. 1911-yilga kelib, Turkistondagi 50 dan ortiq jadid maktablari yopilgan, 1914-yilda esa, Buxoroda bitta ham jadid maktabi faoliyat yuritmayotgan edi.

Jadidchilikning yana bir ko'zga ko'rinarli jihati shuki, ular gazeta-jurnallar nashr qilish faoliyatini ham yo'lga qo'yishgan. 1905-1914 yillar aynan jadid noshirlik harakatining rivojlanishida asosiy qadam bo'lgan, xususan, "1906-yili Turkistonda "Taraqqiy", "Xurshid", 1907-1908 yillarda "Shuhrat", "Osiyo", 1912-1915 yillarda "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Buxoroi sharif", "Turon", 1917-yili "El bayrog'i", "Kengash", "Hurriyat", "Ulug' Turkiston" gazetalari va "Oina" jurnali nashr etila boshladi" [4]. Umuman olganda, Turkistondagi jadidchilik harakatining, asosan, ta'lim va milliy nashrga e'tibor qaratgani ham bejiz emas, chunki aynan bilingual xarakterga ega bo'lgan, ya'ni ikki tilda nashr qilinadigan gazeta va jurnallar mahalliy xalqning milliy ongini rivojlantirishda, ularda milliy g'ururni yuksaltirishda muhim rol o'ynagan. Jadidlar bu bilan chegaralanib qolgan yo'q, ular badiiy asarlar, roman, qissa, hikoya va she'rlar orqali o'zbek xalqiga ziyo ulashishdan to'xtashmadi, natijada, keng miqyosdagi nasriy, nazmiy va dramaturgiyaga oid asarlardan iborat jadid adabiyoti yuzaga keldi. Jadid adabiyotida aks etgan asosiy mavzular esa, avvalo, Vatan mustaqilligi, xalq istiqlohi, ilm-fanning jamiyatdagi islohotlarni amalga oshirishdagi roli, ma'rifatning xalq mustaqilligiga eltuvchi yagona kuch ekanligi, mustabid tuzumning tazyiqiga qarshi kurashga undash va mutaasib dindorlar, asossiz irim-sirimlarga rioya qilmaslik kabilarni qamrab oldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qiyosiy tahlil, tizimlilik, umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ular bu bilan chegaralanib qolishgani yo'q, jadid namoyondalari hududlarda kutubxonalar tashkil qilish, muzeylar ochish, ilmiy klublar va jamiyatlar tashkillashtirish bilan bir qatorda, kuchli ideologik qurol bo'lishga muvaffaq bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy institutlar va teatrlar birinchilardan bo'lib olib kirishgan. Bunda o'zlarigacha bo'lgan, Qrim, Volga, Transkavkaziya, Turkiya, Eron va boshqa hududlardagi reformistlarning faoliyatlarini o'rganib, ularning eng yaxshi natijalari va yutuqlarini joriy qilishni maqsad qilishgan edi.

Ma'lumki, jadidchilik faqat ta'limiy islohotlarni emas, balki kuchli ijtimoiy-siyosiy reformatsiyalarni ham ko'tarib chiqdi. Ular matbuotda senzura kamaytirishni, milliy nashrlarni rivojlantirishni, soliq tizimini tubdan isloh qilish va soliqlarni kamaytirishni talab qilishni boshlashdi. Ayniqsa, Xiva va Buxorodagi jadidlar faoliyatida xon va amirning avtokratik kuchiga qarshi munosabat, mulk xavfsizligining qonuniy-huquqiy talab qilish ko'zga tashlanadi. Lekin, rus mustamlakachilik hukumati ularning bu g'oyalarini xavfli hisoblab, panisломizm va panturkizmni ilgari surishda ayblash orqali mamlakatda jadidlar harakatini chegaralab qo'ydi.

Shunga qaramay, jadidchilik namoyondalari millat mustaqilligi yo'lida harakatdan to'xtashmadi. Jadidchilikning hududiy tarmoqlanishi ham ushbu yo'nalishlarning spesifik maqsadlarni amalga oshirishida yetakchi unsur vazifasini bajardi. Manbalarni ko'zdan kechirar ekanimiz, Markaziy Osiyodagi jadidchilik harakati hududiy jihatdan ham guruhlariga ajratilganining guvohi bo'lamiz. Bu haqida P.Badan quyidagi fikrlarni keltiradi: "jadidlar ikki guruhga bo'linadi: Turkiston jadidlari va Buxoro jadidlari. Ushbu guruhlar o'rtasidagi asosiy farq, Buxoro amirligining vassal statusini olganidir. Ya'ni Turkiston to'laligicha rus imperiyasi nazorati ostida qolgan bo'lsa, Buxoro nisbatan o'z mustaqilligiga ega edi [5]". I.Baldaufning ishida ham "Turkistoniy va Buxoriy [6]" jadidlarning farqlanganini ko'rish mumkin.

Buxoro jadidlarning g'oyaviy qarashlariga "Yosh turklar"ning ta'siri sezilarli bo'lgan degan qarashlar ham mavjud bo'lib, bu ularning o'zlarini "Yosh buxoroliklar" deb atagani bilan asoslanadi. Biroq, "Yosh turklar"dan farqli ravishda ular panturkizm g'oyasini targ'ib qilishmagan, faqatgina, ijtimoiy va ta'limiy islohotlarni yoyishni ko'zlashgan. Buxoro jadidlari qatorida yorqin namoyondalar sifatida A.Fitrat, F.Xo'jayev, U.Xo'jayev, S.Ayniy va boshqalar ajralib turgan. "Yosh turklar" va "Yosh buxoroliklar"ning yana bir farqi, birinchi guruh sekulyar xarakterga ega bo'lib, islomni rad qilish orqali jamiyatni isloh qilish g'oyasiga urg'u berishgan, "Yosh buxoroliklar" esa, diniy, konservativ va radikal xarakterga ega bo'lishgan. Ular islomni rad qilish emas, balki takomillashtirish, uni mutaassiblikdan tozalashni ko'zlashgan, madaniyat va o'zlikni anglashni targ'ib qilib, ijtimoiy o'zgarishlar, din va davlat haqidagi o'z g'oyalarini e'tirof etishgan. Yosh buxoroliklarning asosiy maqsadi musulmon jamiyati oldida turgan muammolarning asl sababi va kelib chiqishini aniqlash orqali ularga yechim topish edi. Ularning dastlabki faoliyatida faqat Buxoroda yuzaga kelgan muammolarga e'tibor qaratilgan bo'lsa, keyinchalik o'z ideologiyasini butun Turkiston bo'ylab tarqatishga harakat qilganlar. Yosh buxoroliklar fikricha, Markaziy Osiyodagi muammolarning sababi asl islom tafakkuri va amaliyotining chetga chiqish bo'lib, bu og'ish islomiy jamiyatlardagi ma'naviy tanazzulning asosiy sababi edi.

Buxoro jadidlari o'z davridagi Buxoro xonligini zo'ravon va ekspluatator sifatida ko'rishgan, buning asosiy sababchisi etib esa, diniy mutaassiblikka ruju qo'ygan ulamolarni ayblashgan. Buxoro jadidlari mahalliy aholining qoloqligi va savodsizligining asosiy sababi, ularni taraqqiy etayotgan zamonaviy dunyodan, ayniqsa G'arbdan ajralib qolishi degan fikrda edilar. Buxoro o'tmishda ilm-fan beshigi bo'lgan, ammo XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, mamlakatda ta'lim tizimi deyarli barbod bo'lgan edi. Yoshlarni o'qitishda diniy dogmalar markaziy o'rinni egallar, maktab va madrasalarda o'qitiladigan fanlar ichida tabiiy va aniq fanlar yo'q edi. Bir so'z bilan olganda, ta'lim aqliy rivojlanishga emas, balki ko'r-ko'rona, tushunmasdan yoddan o'rganish jarayoniga aylanib qolgan edi.

Buxoro jadidlari xalq, millat va jamiyatning jiddiy inqiroz yoqasiga kelib qolganini, xavf ostida ekanini anglab yetib, ushbu muammolarni tahlil qilib, ba'zi yechimlarni taklif qilishdi. Jadidlarning fikricha, mamlakat o'z mustaqilligiga erishib, rivojlanishi uchun hamma narsa, shu bilan bir qatorda, ta'lim ham chuqur o'zgarishlarga muhtoj edi. Ma'rifat va zamonaviy ta'lim jamiyatni bu muammolarning barchasidan markaziy o'rinni egallar Buxoro jadidlari har bir musulmon bilim olishi kerak, degan fikrda edilar. Chunki ta'lim-tarbiyasiz jamiyat taraqqiyoti imkonsiz bo'lib, faqat moddiy dunyo haqidagi bilimlar bilan cheklanmaslik, ham dunyoviy, ham ma'naviy hayotda foyda keltiruvchi ilmlarni egallash davr talabi va zarurati bo'lgan. Shuning uchun ular ko'r-ko'rona o'rganish va yodlashga qattiq qarshi chiqishgan.

Buxoro jadidlarning tashabbusi bilan 1910-yil dekabr oyi oxirida "Jamiyati tarbiyayi atfol" (Bolalar tarbiyasi jamiyati) tashkil etildi. Jamiyatning asosiy maqsadi amirlikda yangi usul maktablarini tashkil etish, bolalarga ta'lim berish edi. Unga Mirza Abdal-Vohidov, Usmon Xo'jaev, Ahmad Maxdum va Hamid Xo'jaev Mihri kabi faol islohotchilar boshchilik qildilar. Jamiyat tashkil etilganidan so'ng ko'p o'tmay amirlikning barcha islohotchi tashkilotlarini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi.

“Tarbiyayi atfol” amaliy sabablarga ko‘ra ikki tarmoq orqali faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning birinchisi “Ma‘arifat”, ikkinchisi “Barakat” yo‘nalishlari edi. “Ma‘arifat” bo‘limiga Fitrat va Usmon Xo‘jayevlar rahbarlik qilishgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi kitoblarni tarqatish, ijtimoiy-madaniy va siyosiy klublar tashkil etish orqali tub aholi orasida islomiy g‘oyalarni tarqatish edi. “Barakat” bo‘limining vazifasida, ommaviy ta‘lim va targ‘ibot uchun zarur bo‘lgan materiallarni import qilish edi. Jamiyat qisqa vaqt ichida hududdagi eng yaxshi strukturaga ega bo‘lgan islohotchi tashkilotlardan biriga aylandi. S.Shapoatovning keltirishicha, “...jamiyatga a‘zo bo‘lish juda qiyin edi. Ular bu borada juda qattiq qoidalar ishlab chiqqan edilar. A‘zolikka kirish uchun jamiyat a‘zolarining ma‘lumotnomalari talab qilingan [7]”. Buxoro jadidlari amalga oshirgan asosiy ishlarga, birinchi o‘rinda, ularning Buxoroda yangi usul maktablarini ochishgani kiradi. Bu maktablar 1910-14 yillar davomida ulamolar tomonidan qattiq ta‘qib qilinib, hujumga uchragan bo‘lsa ham, katta muvaffaqiyatlarga erishgani ma‘lum. Ikkinchidan, ular o‘z mafkurasini omma o‘rtasida targ‘ib qilish maqsadida “Buxoroi Sharif” gazetasini chiqara boshladilar. Uchinchidan, ular mintaqada reformatson g‘oyalarni targ‘ib qilishda jadid davralaridan, ya‘ni yosh buxorolik ziyolilardan foydalanganlar. To‘rtinchidan, ular o‘z g‘oyalarni mahalliy aholi orasida targ‘ib qilish uchun teatrdan foydalanganib, Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon kabi faol islohotchi yetakchilarning asarlarini sahnalashirishgan.

Buxoro jadidlarining yorqin vakillaridan biri Abdurauf Fitrat, o‘sha davrda Buxoro amirligining tarkibiga kirgan Shahrisabz va Karkida jadid maktablarini yo‘lga qo‘yish, ta‘lim dasturlarini ishlab chiqishda faol qatnashgan. Bu davrga kelib, “yangi maktab va eski maktab tarafdorlari o‘rtasida kurash keskin tus oldi. Yangi maktab tarafdorlari jadidlar, eski maktab tarafdorlari qadimiylar deb atala boshlandi. Jadidlar amir

Olimxonga murojaat etib, ma‘rifatli va adolatli hukmdor sifatida jamiyatda islohotlar o‘tkazishga da‘vat etdilar. Diniy aqidaparastlar ta‘siriga tushgan hukmdor esa bunga jadid maktablarini ta‘qiqlash bilan javob qaytardi, uning tashkilotchilari qatori Fitrat ham tazyiq ostiga olinib, “dahriy” deb e‘lon qilindi [8]”. Lekin Rossiyada sodir bo‘lgan siyosiy jarayonlar Buxoro amirligidagi vaziyatga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazdi, natijada jadidlar endilikda siyosiy talablar bilan chiqa boshlashdi. N.Naimovning qayd etishiga ko‘ra, “Abdurauf Fitrat jadidlarning siyosiy dasturini ishlab chiqib, Buxoroda amirning mutloq hukmronligini konstitutsion tuzumga asoslangan hukmronlik bilan almashtirishni taklif qildi [8]”. A.Fitrat ishlab chiqqan dasturda bir qator jiddiy siyosiy talablar o‘z aksini topgan bo‘lib, ularga millatni mustaqil deb tan olish, davlatni jumhuriyat, ya‘ni parlament orqali boshqarish kerakligi, vijdon, din erkinligi, matbuot erkinligi va shaxs erkinligini ta‘minlash, soliqlarning tartibga solinishi va olinadigan daromaddan kelib chiqishini inobatga olish kabi talablar mavjud edi. Amir Olimxon bu talablarni qabul qilishni o‘ziga nisbatan qilingan haqorat sifatida qabul qilib, rad javobini berganidan keyin, Buxoro jadidlari Labi-hovuzdan Buxoro Arkigacha saf tortib siyosiy namoyish o‘tkazadilar. Lekin, amirning qo‘l ostidagi sarboz-askarlar va mutaassib mullalar gij-gijlagan avom fuqaro kuchi bilan namoyish tarqatilib, unda qatnashgan jadidlar zindonga tashlanadi va qatl etiladi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, Buxoro jadidlari millatlar o‘rtasida tenglik, diniy, madaniy va til erkinligi huquqlari uchun kurashishgan. Biroq, ular bu islohotlarni bosqichma-bosqich o‘zgarishlar bilan amalga oshirish emas, balki inqilobiy harakat bilan maqsadga erishish tarafdori edilar. Haqiqiy ma‘noda ular xalqning ongini inqilob qilishni xohlashdi, chunki, jamiyatda xalqning ongi o‘zgarimas ekan, hech qanday o‘zgarish sodir bo‘lmaydi. 1917-yil oktabrda Rossiyada bolsheviklar inqilobi bo‘lib o‘tdi.

ADABIYOTLAR

1. Граменицкий С. 25- ление учебного дела в Туркестанском крае. – Ташкент, 1901. (Umumiy: 29 b); Абдуллаев Ю. Очерки по методике обучения грамоте в узбекской школе. – Ташкент: Учитель, 1966. (Umumiy: 171 b); Мухаммаджанов А. Школа и педагогическая мысль узбекского народа XIX-начала XX в. – Ташкент: Фан, 1978. (Umumiy 104 b)
2. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1925 годы). –Москва: Изд. Академии педагогических наук, 1960. (Тотал 512 с)
3. Bazarbayev K., Ashimkhanova A.Z. Jadids Movement in Central Asia in the Late 19th and the Early 20th Centuries. // Asian Social Science, 2012, №8(8). p. 225-237
4. Саламов Ш.Н. Фоялар жанги. XIX-XX да Туркистон ва Жанубий Кавказ. –Тошкент: Истиклол нури, 2017. –Б.70. (умумий 312 б).
5. Badan P. Socio-cultural reform movement in Central Asia // The Journal of Central Asian Studies. – 2016. – pp. 1-16
6. Baldauf I. Jadidism in Central Asia within reformism and modernism in the muslim world. // Die Welt des Islams. –2001, (41,1). – pp. 72-88.
7. Shapoatov S. The Tajik civil war: 1992-1997. Dissertation Master of Science. –Middle East Technical University, 2004.
8. Наймов Н.. Бухоро жадидлари. –Тошкент: Фан, 2000. –Б.8. (Умумий:50 б)



UDK:821.512.133.09-31:373.5

Nurzod NORQULOV,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: nurzod4100@gmail.com

ToshDO‘TAU professori, f.f.d M.Abdullayeva taqrizi asosida

UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA NASRIY ASARLARNI O‘QITISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqolada bugungi umumta‘lim maktablarida mumtoz nasriy asarlarni o‘qitishda pedagoglar duch kelayotgan murakkabliklar, ularni bartaraf qilishda bir nechta tavsiyalar berilgan. Madrasa ta‘limi, undagi ba‘zi o‘qitish usullari haqida ma‘lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, darslik, mumtoz nasr, o‘qitish, ilmi sharh, ilmi tahlil, ilmi sanoe, ilmi g‘ariba.

PROBLEMS OF TEACHING PROSE IN SECONDARY SCHOOLS

Annotation

The article provides several recommendations on the complexities faced by educators in the teaching of classical prose works in today's secondary schools, their elimination. Information about Madrasa education, some teaching methods in it is presented.

Key words: Education, textbook, classical prose, teaching, science review, science analysis, science sanoe, science fiction.

ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРОЗЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация

В статье дается несколько рекомендаций по устранению сложностей, с которыми сталкиваются педагоги при преподавании произведений классической прозы в современных средних школах. Представлена информация об образовании в медресе, некоторых методах преподавания в нем.

Ключевые слова: Образование, учебники, классическая проза, преподавание, научные обзоры, научный анализ, научная фантастика.

Kirish. Mumtoz nasriy asarlar barcha davrlarning eng buyuk ma‘naviy boyligi bo‘lib kelgan. Ammo mumtoz nasriy asarlarni tushunishga har qanday o‘quvchi ham qiziqish bildiravermaydi. Bunga asosiy sabab qilib asar tilining og‘irligi, syujet chiziqchlari eskirgani va bugungi kunga aloqasi yo‘qligini ko‘rsatishadi. Holbuki, mumtoz nasriy asarlarda ko‘plab umuminsoniy muammolarga to‘xtalganki, vaqt oralig‘idan qat‘iy nazar mazkur qarashlar hozirgi kun uchun ham juda dolzarb hisoblanadi. Shu ma‘noda hozirgi tez rivojlanayotgan jahonda mumtoz nasriy asarlarini o‘rta ta‘limda o‘qitish jarayoniga nisbatan yondashuvda o‘quvchining o‘rganish imkoniyatini hisobga olish kerak. Bugungi kunda mumtoz nasriy asarlarini o‘qitish borasida o‘rta ta‘limdagi ayrim muammolarga to‘xtalsak:

Madrasa ta‘limidagi o‘qitish usullaridan hozirgi adabiy ta‘limda to‘liq foydalanilmayotgani. Madrasa ta‘limida mumtoz adiblar ijodining eng go‘zal namunalari o‘rgatilgan. Bu davrda mumtoz adiblarning nasriy asarlar tahlilida quyidagi usullar orqali mumtoz matn mazmunini to‘liq idrok eta olish va ijodkor mahoratiga baho berish lozim bo‘lgan:

“ilmi sharh” (ochish, bayon qilish, oshkor qilish) – mumtoz matnlarni o‘rganishda asosiy kalit vazifasini bajarib, matndagi har bir so‘zning mazmun mohiyatini ochuvchi usuldir. Bunda matn sharhi matn hajmidan bir necha barobar ko‘proq hajmga ega bo‘lishi mumkin. Sharhlovchidan esa juda chuqur bilimni talab qilgan. Bunday sharhlar madrasa talabalarining asarni tushunishlari uchun katta yordam bergan. Demak, o‘quvchilar ilmiy asarlarni ham, unga yozilgan sharhni ham o‘qishga majbur bo‘lgan. Sharh asardagi har bir muammoni ochishga xizmat qilgan. Ayniqsa, mantiq ilmini, ilmi aruz, ilmi maoniy, ilmi bade kabi adabiyotga oid ilmlarning mohiyatini ochishda sharhlab o‘qitish usuli katta yordam bergan. Keyinchalik sharh faqat madrasalarda o‘qitiladigan asarlar uchun emas, balki barcha ilmiy asarlarga keng izoh berish, muallif fikrlarini kengaytirish, soddalashtirish uchun ham xizmat qilgan. Professor B. To‘xliyevning sharhlab o‘qish orqali, biror asar matnini izohlash jarayonida o‘quvchilar notanish so‘z ma‘nosi bilan, ayrim so‘zlarning ko‘chma ma‘nosi yoki bir so‘zning bir necha xil ma‘nolari bilan tanishadilar degan fikrni ilgari suradi. Aslida ham

mumtoz nasriy asarlarimizni o‘rganishda bu usul bugungu adabiy ta‘lim uchun juda zarur. Sharhlab o‘qitish orqali mumtoz asarlarga xos arxaik, shevaga xos, arab fors tilidan kirgan so‘zlar ma‘nosi oydinlashadi, o‘quvchilar ko‘z o‘ngida o‘tmish madaniyat gavdalanadi. Sinflar kesimida adabiyot darslarida berilgan mumtoz asarlarni o‘rganishda, ba‘zan darsda mavzuni badiiy asar nomini sharhlashdan boshlash kerak. Masalan, 10-sinf adabiyot darsligida “Boburnoma” asaridan parcha berilgan. (eski adabiyot darsligida) “Boburnoma”ning tarixiy-memuar asar ekanligi, qomusiy manba sifatida qiymati sanalishini tushuntirish, sharhlashda Boburning tarixiy shaxs ekanligini, u o‘z zamonasining taniqli hukmdori bo‘lganligidan boshlash zarur. Agar Boburning xarakteri uning shaxsini ochib beradigan tarixiy ma‘lumotlar bilan izohlansa, darsning mazmundorligi ortadi. Sa‘diy Sheroziyning “Guliston”, Navoiyning falsafiy adabiy asarlarini, Xoja hikoyatlarini, Boburning “Boburnoma”, Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarlarini sharhlashda ham xuddi shu yo‘lni tutish mumkin.

“ilmi tahlil” mumtoz matndagi har bir so‘zning mazmun-mohiyati aniqlangach, matnning mazmuni, shoir aytmoqchi bo‘lgan fikr, olg‘a surgan g‘oya tahlil qilingan. Shunisi e‘tiborliki, sharqona o‘qitish usullari bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda olib borilgan. Izchillik bilan soddadan murakkabga o‘tilgan. Madrasa o‘quvchilari ilmi sharh usulini yaxshi o‘zlashtirilmasa, matnni yetarli darajada tahlil qila olmagan. Ilmi tahlil ko‘nikmasini chuqur egallagan talabanning ko‘zi oldida matndagi zahira qavatlarini oydinlasha boradi va ma‘nolar ko‘pqavatligi zichligi manbaya sifatida namoyon bo‘ladi. Matndagi aynan mana shu jihatlarni anglagan o‘quvchigina mumtoz matnning qiymatini, bahosini belgilay oladi;

“ilmi sanoe” o‘quvchilarning diqqat-e‘tiborini harfga, tovushga, so‘zga, so‘z ma‘nosiga, so‘zning matnda joylashuviga, so‘zlar takroriga, so‘zning asl va ko‘chma ma‘nosiga, jinsdoshlik (omonimlik) xususiyatlariga, birikmaga, birikmaning ma‘no jilosiga, misraga, misra mazmuniga, baytga, baytdagi so‘zlar munosabatiga, badiiy san‘atlarga jalb etadi. Demak, o‘quvchilardan har bir bayt ustida qunt bilan ishlash, undagi san‘at turlarini aniqlash va ularga baho berish talab qilingan;

“ilmi g'ariba” (g'ayb, g'arib) matndagi katta ma'nodan, mazmundan hayratlanish, yozuvchi is'tedodiga qoyil qolish usuli. Mumtoz adabiyotshunosligimizda fanning teran nuqtalarini, ich-ichidagi ma'nolarini anglash ilmi g'ariba deb yuritilgan. Kam so'z, ibora yoki matnga katta mazmun mohiyatni joylanganligini anglashdir. Mumtoz adabiyotimizda kichik hikoyatlar aynan shu jihatlarni o'zida birlashtiradi. Adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulov o'zining “Ilmi g'aribani qo'msab” risolasida ilmi g'ariba haqida shunday ma'lumot beradi. “G'arib (g'ariba) – ajoyib, taajjublanarli, hayron qoladigan narsa. Ilmi g'ariba talqin fani bilan bevosita bog'liq... G'ariba ilmi mavjud fanlarni sinchiklab o'rganish orqali kashfiyot darajasida xulosa chiqarishgacha yetish, ajoyibot nuqtasi qadar ko'tarilishdir”[2]. Darhaqiqat, mumtoz adabiyotda, ta'lim ishtirokchilarini taajjubga soladigan, hayratlantiradigan ijod sohiblari bor. Bunga biz Sa'diy Sheroziyning “Guliston”, Navoiyning falsafiy adabiy merosini, Xoja hikoyatlarini, Boburning “Boburnoma”, Nosiruddin Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” kabi betakror asarlarni o'qiganimizda amin bo'lamiz.

Yuqoridagi o'qitish usullaridan bugungi kunda adabiy ta'limda foydalanmaslik mumtoz nasriy asarlarimizni o'quvchi yoshlarga o'rgatishda turli pedagogik muammolarni yuzaga kelishida sababchi bo'lmoqda.

Aksariyat o'qituvchilar mumtoz nasriy asarlarni o'quvchilarga yetkazishda asar talabidan kelib chiqib, alohida reja asosida mashg'ulotni tashkil qilmasligi. Chunki adabiy ta'limda zamonaviy asarlarga nisbatan mumtoz nasriy asarlarimizni o'qitish o'qituvchidan alohida tayyorgarlikni taqozo qiladi. Bugungi maktab pedagoglarining aksariyati zamonaviy asarlar bilan mumtoz asarlarga tayyorgarlik ko'rishni bir xilda olib boradilar. Bu asar talabidan kelib chiqib bugungi adabiy ta'limda o'z samarasini bermayapti. O'qituvchi muallif tasvirlagan voqealar tafsiloti haqida gapirib, o'quvchini e'tiborini jalb qila olmaydi, yozuvchi sayohat qilgan joylarda o'z o'quvchisini sayohat qildiray olmaydi. Eng muhimi – bu o'rinda o'qituvchi asar qahramonlarining his-tuyg'ularini, sarguzashtlari, uning shaxsiyatini, iztirobu-hayajonlarini o'quvchilarga yetkazish uchun, asar matni ma'lum reja asosida chuqur ishlashi muhim ahamiyatga egadir. Har bir mashg'ulot uchun reja tuzish, o'quvchilarni faollashtirish, matnni ovoz chiqarib o'qish, o'qituvchi bilan suhbat qurish, rejaga mos sarlavha tuzish mumkin.

Mumtoz nasriy asarlarni o'rganish uchun o'quvchilarning yetarli darajada tayyor emasligi. Navoiyning nasriy asarlarini o'rganishdan oldin o'qituvchi o'quvchini asarni o'rganishga tayyorlashi lozim. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining amaldagi adabiyot darsliklarida o'qishdan oldingi topshiriqlarga deyarli e'tibor qaratilmaydi. O'quvchilarni badiiy asarga olib kirish “asar haqida” vositasida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ayrim fikrlashdan ortda qolgan o'quvchilarda “tushunish o'qishdan oldin boshlanadi”, yoki “matnni o'qib bo'lgandan keyingi savollarga to'g'ri javob berish – bu muayyan badiiy asar mazmunini to'liq tushunishdir”, “tushunish qayta bayon qilish” degan tasavvurlar hosil qilishi ham tabiiy. Mazkur vaziyat o'quvchilarning o'qituvchi fikriga, yoxud “asar haqida”gi qarashlarga bog'lanib qolishi barobarida matn ustida ishlash imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. O'qishdan avvalgi topshiriqlar kitobxondagi mavjud bilimlar va badiiy matn o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Bundan maqsad o'quvchilarni o'zlari uchun notanish bo'lgan badiiy asar mutolaasiga tayyorlash, asarni yaxshiroq tushunishga yordam berish, matnni oldindan ko'ra olish qobiliyatini shakllantirish, asar matni (tarixiy davr, geografik muhit, madaniyat) haqida tasavvur uyg'otishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qishdan oldingi topshiriqlarni tayyorlashda, aksariyat holatlarda struktural tahlil imkoniyatlari (masalan, badiiy asarning kompozitsion qurilishi, jumladan, asar sarlavhasi, prolog, epilog, asardagi epigraflar, ilk va so'ngi jumlarlar va muallifning badiiy asar kompozitsion qurilishidan kutilgan maqsadi va h.k.z) dan foydalanish ijobiy natijalar beradi. Bugungi kunda Navoiy, Bobur, Gulxaniy, Xoja, Sa'diy Sheroziy kabi mumtoz adiblarimizning asarlarini o'qishga, ularni o'quvchi yoshlarga o'rgatishga tayyorgarlik ko'rish uchun ko'p imkoniyatlar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-sonli qarori bilan “O'zbekkino” milliy agentligiga

Alisher Navoiy asarlari asosida badiiy va multiplikatsion filmlar, shoir hayoti va ijodi bilan bog'liq yangi ma'lumotlar va manbalar asosida to'liq metrajli badiiy-publististik film yaratish topshirildi. Bu o'z navbatida, Navoiy va u bilan bir davrda ijod qilgan mumtoz allomalarimiz ijodini kengroq targ'ib qilishga, xalq orasida osonroq tushunilishiga hissa qo'shadi. Turli multfilm, kino, o'yin-ilovalar orqali mumtoz adiblarimiz ijodi bilan oshno bo'lgan o'quvchilar maktabda o'rganilishi kerak bo'lgan mavzuni osonroq tushunadi. Demak, o'qituvchilar, avvalo, o'quvchilarni ruhiy-hissiy tomondan mumtoz nasriy asarlarimizni o'rganishga tayyorlashi kerak.

Mumtoz asarlarimiz tili va hozirgi til o'rtasidagi tafovut. Mumtoz adiblarimiz yashagan davr tili hozirgi kungacha besh yuz yillik yo'lda turli evrilishlar asosida bugungi adabiy til maqomiga erishgan. Tabiiyki, bu tilni tushunish o'quvchiga og'irlik qiladi. Darsliklarda keltirilgan mumtoz asarlar bugungi kun til talablari asosida tabdil qilib berilgan. Aynan tabdil asosida berilgan hikoyalarni tahlil qilib o'quvchi o'qigani va atrofda, dunyoda, sodir bo'layotgan voqea o'rtasida aloqa o'rnatishi kerak. Buning uchun o'qituvchi muammoli savollar, turli hayotiy vaziyatlar orqali o'quvchida mantiqiy, tanqidiy, kreativ tafakkurni rivojlantirishlari uchun sharoit yaratib berishi kerak. Agar o'quvchilar olgan ma'lumotlarini o'z hayotlari bilan bog'liqligini ko'ra olsalar, ularda o'qishga qiziqish ortadi. Bu mumtoz asarlarni o'rgatishdagi murakkabliklarni bartaraf qiladi.

Mumtoz asarlarni o'qib tushunishga yordam beradigan maktab o'quv lug'atlarining mavjud emasligi, bori ham yetarli darajada to'liq qamrab olinmagani. Amaldagi 5-sinf adabiyot darsligida “Hayrat ul-abror” dostoni aslyatidan berilgan parchalarni o'qib tushunish maqsadida ayrim so'zlarning lug'atlari keltirilgan. Ba'zi so'zlarning lug'atlari keltirilmagan. Keltirilgani ham kichik shriftda varaqning pastki qismida berilgani uchun o'quvchi e'tiboridan chetda qolish holatlari uchraydi. Shu boisdan ham aynan Navoiy va u bilan bir davrda ijod qilgan mumtoz adiblarimiz asarlarini tushunishga yordam beradigan o'quv lug'atlari, kerak bo'lsa, mazkur lug'atlar asosida mobil ilovalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. O'quvchi mumtoz matnlarni lug'at yordamida o'qib o'rganishni aynan shu sinfdan boshlashi maqsadli bo'ladi. O'quvchi uchun notanish bo'lgan so'zning lug'aviy ma'nosi hamda kontekstda qanday ma'no anglatib kelayotganini bilish uchun ham matn bilan bog'liq so'zlar lug'ati darslikda to'liq aks etishi zarur. Mumtoz nasriy asarlarda qo'llanilgan sof turkiycha so'zlar ommalashib tilning jozibadorligiga hissa qo'shar edi. Mumtoz nasriy asarlarimizni o'rganishdan asosiy maqsad, faqatgina so'z boyligini oshirish emas, balki ana shu xazinani tiklash hamdir. Bir zamonlar, davr taqozosi bilan mumtoz adabiyotimizdan yiroqlashdik, alaloqibat, so'z boyligimiz nihoyatda qashshoqlashdi. Tilimiz nazokat, latofatdan butkul uzoqlashdi. Endi yangi avlod oldida til boyligimizni tiklash vazifasi turibdi. O'zbek she'riyatining atqali namoyandasi Erkin Vohidovning mazkur fikrlariga qo'shilgan holda Navoiy asarlaridan sof turkiy so'zlarni ilg'ab, ommalashtirilsa, o'quvchining so'z boyligi oshadi. Fikrini ta'sirli va sifatli tarzda yetkazish imkoniyatlari oshadi.

Mumtoz nasriy asarlarni tushunishda o'quvchilarda diniy bilimlar, o'qituvchilarimizda esa tasavvuf ta'limoti haqida bilimlarning yetarli emasligi. Alisher Navoiy, Bobur, Gulxaniy, Xoja, Sa'diy Sheroziy asarlarining ko'pgina qismi tasavvufiy mazmunda ekanligini bilamiz. Tasavvufning asl mohiyatini anglamay turib bu allomalarning ijodini tushuntirib ham tushunib ham bo'lmaydi. Bu buyuk olimlarning ijodini tushunish, anglash uchun fors, arab, eski o'zbek tillarini o'rganish bilan bir qatorda Qur'oni karim, hadis, tasavvuf ilmidan boxabar bo'lish, undan keyin mumtoz davr asarlarini, ular yashagan muhitni bilish lozim. Bugungi kunda umumta'lim maktablarida mazkur adiblar ijodini imkon qadar to'liq anglashga intilish uchun hamma sharoit yetarli. Bu imkoniyatdan foydalanishimiz kerak.

Mumtoz nasriy asarlardagi ramziylik, majoziylikda namoyon bo'ladigan o'ziga xosliklarni anglab yetilmaganligi nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar uchun ham mumtoz asarlardan ta'sirlanish, ularni tahlil qilishda qiyinchilik tug'dirmoqda. Demak, mumtoz allomalar ijodini avval o'qituvchining o'zi “hazm” qilishi kerak. Buning uchun maktab o'qituvchilari uchun tasavvufga doir o'quv- uslubiy qo'llanmalar

yaratilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Shundagina asardagi ezgu g'oyalarni eng oliyjanob uslubda ifoda eta oladilar. Pirovardida esa, o'quvchilar ezgu g'oyalarni go'zal tafakkur qila boshlaydilar. Bu jarayon o'quvchilarda o'qishdan zavqlanish hissini beradi.

O'qilishi qiyin asarlar zamonga moslab oddiy, tushunarli usullarga asoslab o'qitilsa, adabiyotni o'qitish zavqli va kashfiyotlarga boy bo'ladi. Mumtoz nasriy asarlarimiz o'quvchilarga madaniyat, ma'naviyat haqida keng tushuncha beradi. Bu asarlarni jamiyatimizda keng miqyosda tushunilishi imon-e'tiqod kuchiga ishonadigan insonlar ko'payishiga, bu esa jamiyatimizda insoniy muammolar, ma'naviy qashshoqlashishlar kamayishiga olib keladi. Mumtoz nasriy asarlarni o'rganishda ta'lim jarayonidagi mavjud muammolar hisobga olinsa, samaradorlikka erishish mumkin. Mumtoz allomalarimiz ijodiga yondashuvni o'zgartirib o'quvchini yaxshi navoiyshunos, boburshunos qila olmasligimiz mumkin, lekin yaxshi inson qilib hayotga tarbiyalasa bo'ladi. Adabiyotning bosh vazifasi ham aslida shundan iboratdir.

Umumta'lim maktablarida sinflar kesimida o'quvchilar sig'imining nizomda belgilangan sonidan ko'p ekanligi. Aslida belgilangan 35 nafar ham ta'lim sifati, ayniqsa, mumtoz nasriy asarlarni o'rgatish uchun ko'p.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligining 2020-yil 20-iyundagi 8-mh, 28, 124/1-sonli qarorga muvofiq, sinfda o'quvchilar soni 35 nafardan ortmasligi belgilangan. "Maktablarda ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar qaysi?" savoli bilan Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi 327-umumta'lim maktab, Olmazor tumanidagi 11-maktab, Shayxontohur tumani 186-maktab, Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi 45-maktab, Samarqand viloyatidagi 53-maktablarda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar bilan o'tkazilgan so'rovnomada ta'lim sifatiga jiddiy ta'sir qiladigan omillardan biri sinflar kesimida o'quvchilar sonining belgilangan raqamlardan haddan tashqari ko'p ekanligi ta'kidlandi. Har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanish, mavzuni batafsil tushuntirib, uni mustahkamlashga vaqt ajratish pedagogning salohiyati, malakasiga bog'liq. Lekin o'quvchi ko'p bo'lsa, (35-40 nafar o'quvchi nazarda tutilmoqda) vaqt chegaralangan bo'lsa, pedagogga bog'liq bo'lmagan holda darsning sifati pasayadi. Ayniqsa, hali yetarlicha tajribaga ega bo'lmagan yosh o'qituvchilar bu borada qiynaladi. Bolalarni tinchlantirib, diqqatini darsga qaratish oson ish emasligi bugun o'z isbotini ko'rsatmoqda. Bugungi adabiy ta'limda aksariyat maktablardagi o'quvchilarning sig'imi me'yordan ortiq ko'pligi dars mashg'uloti uchun ajratilgan vaqtga (45 daqiqa) nisbatan nomutanosib kelishi darslar sifatining pasayish omillari sifatida ko'rsatilmog'unda. Shu o'rinda Soha mutaxassislari tomonidan dars mashg'uloti uchun ajratilgan 45 daqiqa vaqt quyidagicha taqsimlanishi tavsiya etilgan:

1. Tashkiliy qism (3 minut)
2. O'tilgan mavzuni takrorlash (7 minut)
3. Yangi mavzuni tushuntirish (15 minut)
4. Yangi mavzuni mustahkamlash (10 minut)
5. O'quvchilarni baholash (7 minut)
6. Uyg'a vazifa berish (3 minut)

O'tilgan mavzuni so'rashga 7 daqiqa, yangi mavzu bayoniga 10 daqiqa, mustahkamlashga 10 daqiqa ajratilgan. Sinfda 35-40 nafar o'quvchi bo'lsa, har biridan bir og'izdan gap so'rab, 1 daqiqadan vaqt ajratganda ham 35-40 daqiqa tugadi. Bu holat ayniqsa, adabiy ta'limda mumtoz nasriy asarlarni sifatli bo'lmasligi kundek ravshan.

Ta'lim sifati reytingida yetakchilik qiladigan Skandinaviya mamlakatlarida bitta sinfda 19-20 nafardan o'quvchi jamlanadi. O'quvchilarni to'laqonli qamrab olish maqsadida bitta sinfga asosiy fan o'qituvchisidan tashqari yordamchi pedagog ham kiradi. Bu ta'lim sifati uchun juda katta ahamiyat kasb etishi reytingdagi yetakchiligidan ko'rinadi.

Yuqoridagi aytilgan murakkabliklarning yechimi sifatida va ta'lim sifatini yaxshilash uchun shuni aytishimiz mumkinki, o'quvchilar sonini me'yorlashtirish kerak. Hech bo'lmaganda matematika, ona tili va adabiyot, kimyo, fizika fanlarida ham ikkiga bo'lib dars o'tilsa, natija ancha yuqori bo'ladi. To'g'ri, hamma narsaga bosqichma-bosqich erishiladi, har qanday ijobiy o'zgarish uchun vaqt kerak. Lekin ta'lim tizimi uchun yo'qotilgan har qanday vaqt katta zarar bo'lishi tarixda o'z isbotini ko'rsatgan. Maktablar mamlakat uchun kerakli kadrlarning generatori hisoblanadi. Shunday ekan bunday holatni hech qachon kechiktirib bo'lmaydi.

Ota-onalarning farzandi ta'limidagi ishtiroki.

O'quvchilarning ta'lim olishida ota-onalarning roli bebahodir. Bolaning ta'limi u birinchi marta maktab yoki bolalar bog'chasi ostonasidan o'tishidan ancha oldin boshlanadi. Ota-onalar bu jarayonda asosiy rol o'ynaydi, bola hayotidagi birinchi va eng muhim o'qituvchi bo'lib xizmat qiladi. Ota-onalarning o'quv jarayonidagi ishtiroki bolalarning akademik yutuqlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ta'limdagi ma'lumotlariga ko'ra, ota-onalari o'qishlarida faol ishtirok etadigan bolalar yuqori baholarga ega va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bu o'z navbatida ta'lim sifatining yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. Xo'sh, bugungi adabiy ta'limda ota-onalarning farzandi ta'limidagi ishtiroki qanday? Bu savolga javob aniq yaxshi emas. Bu holat o'qituvchilar bilan ota-onalarning hamkorligi yuqori darajada emasligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda ota-onalarning farzandlari ta'limi bo'yicha maktabdagi faol ishtiroki, ularga qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi muhitni yaratish va hissiy qo'llab-quvvatlashi o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'rganishi va har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilarning ta'lim olishida ota-onaning ishtiroki – pul bilan sotib olib bo'lmaydigan afzallik. Barcha ota-onalar, iqtisodiy ahvoli, irqi yoki asosiy (ona) tilidan qat'iy nazar, bolasidan maktab haqida so'rash yoki ota-onalar yig'ilishlarida qatnashish kabi oddiy ishlarni bajarishi kerak. Har qanday ota-ona o'z farzandining ta'lim olishida ishtirok etishi nafaqat uning o'zlashtirish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki bugungi adabiy ta'limdagi o'qituvchining ruhiyatini ko'taradi o'z kasbi oldidagi mas'uliyatni yanada oshiradi.

Xulosa. Mumtoz allomalarimiz ijodini o'rganish va o'rgatish bugungi o'qituvchi va o'quvchidan chuqur tafakkur talab qiladi. Mumtoz nasriy asarlarimiz asrlar osha o'z qadr-qimmatini saqlab kelayotganligi ham mana shunda. Mutafakkirlarning falsafiy, pand-nasihat yo'g'rilgan asarlari ta'lim bosqichlarida o'quvchi ma'naviyatini yuksaltirishning muhim vositasi sanaladi. Bugungi ta'limning vazifasi barkamol shaxsni hayotga tayyorlash. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli dunyoda ko'zi kichik ekranga bog'lanib qolgan o'quvchilarda ezgulik, bag'rikenglik, to'g'rilik kabi tuyg'ularni shakllantirish uchun adabiyot o'qitish samaradorligini oshirishga har qachongidan ko'ra ko'proq ehtiyoj bor. Adabiyot o'qitishning maqsadi badiiy asarlar yordamida sog'lom e'tiqodli, mustaqil fikrli, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'z xatti-harakatlariga xolis baho bera oladigan shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. Adabiyot nadir? — "Sadoi Turkiston" gazetasi. 1914 yil 4 iyun. (2-sahifa)
2. Расулов А. Илми ғарибани қўмсаб... Тошкент, «Маънавият», 1998. (5-sahifa)
3. Дўстқораев Б. Махмудхўжа Бехбудий – таълим ислохотчиси. - // Til va adabiyot ta'limi, 2005.
4. Tursunova M. Madrasalar ta'limida adabiyot sabog'i. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2010.
5. Тўхлиев Б. Мумтоз асарларни шарҳлаб ўрганиш. – Тошкент: Баёз, 2013.
6. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2017.
7. Husanboyeva Q., Niyozmetova R.. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: 2018.



Zuxriddin NURMAMATOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti kafedra mudiri, PhD
E-mail: zuxriddinnurmamatov50@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor M.X.Shomirzayev taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF AN INNOVATIVE ACTIVITY MODEL OF A TEACHER OF THE SUBJECT “TECHNOLOGY” THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Annotation

The article explores the training process of future technology teachers, including the development and implementation of pedagogical innovations in the educational process. It also discusses the development of an innovative activity model for technology teachers through artificial intelligence.

Key words: Teacher, lesson, technology, pedagogy, innovation, activity, training, intelligence, innovative, development.

РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ ПРЕДМЕТА «ТЕХНОЛОГИЯ» С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация

В статье рассматривается процесс подготовки будущих учителей технологии, включая разработку и внедрение педагогических инноваций в образовательный процесс. Также обсуждается развитие модели инновационной деятельности учителей технологии с использованием искусственного интеллекта.

Ключевые слова: Учитель, урок, технология, педагогика, инновация, деятельность, подготовка, интеллект, инновационная, развитие.

SUN'iy INTELLEKT ORQALI “TEKNOLOGIYA” FANI O‘QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYAT MODELINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini o‘qitish davomida, bo‘lajak o‘qituvchining ta‘lim jarayoniga pedagogik yangiliklarni (innovatsiyalarni) ishlab chiqish va joriy etishga tayyorlash hamda su‘niy intellekt orqali „Texnologiya fani o‘qituvchilarining innovatsion faoliyat modelini rivojlantirish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi, dars, texnologiya, pedagogika, innovatsiya, faoliyat, tayyorlash, intellekt, innovatsion, rivojlantirish.

Kirish. Bugungi kunda jahondagi globallashtirish va ta‘limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbga tayyorgarligini rivojlantirish masalasi muhim vazifalardan biri bo‘lib belgilanmoqda. Shunday ekan talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda atrof-muhit omillarining ta‘sirini hisobga olgan holda, bir tomondan, talabning shaxsiyatini yaxshiroq tushunishga imkon beradi, ikkinchi tomondan, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish va nihoyat, uni bo‘lajak mutaxassis sifatida yuqori sifatli tayyorlash, uni shu muhitga moslashtirish[1].

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, quyidagi kompetensiyalar kiradi - maxsus, texnologik, kommunikativ, aks ettiruvchi, tashkiliy-boshqaruv, psixologik-pedagogik. Kasbiy-pedagogik ta‘limni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari, davlat innovatsion siyosatining maqsad va vazifalari texnologiya fani o‘qituvchisining samarali faoliyatini ta‘minlaydigan kompetensiyalarning barcha tarkibiy qismlarida innovatsion komponentni ajratib ko‘rsatish zarurligi haqida gapirishga imkon beradi.

Kasbiy kompetensiyaning innovatsion tarkibiy qismi, mutaxassisning rivojlangan innovatsion fikrlash asosida turli xil yangiliklarni yaratish, ishlab chiqish, foydalanish, tarqatish orqali kasbiy, pedagogik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, tashkiliy va boshqaruv faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirish qobiliyatini ifodalashi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaxsiy ijodiy yondashuvning mohiyati, birinchidan, bo‘lajak mutaxassisning boy o‘ziga xos shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi, ikkinchidan, ta‘limning ijtimoiy va shaxsiy ma‘nolarini uyg‘unlashtirish. Individual ijodiy yondashuvning asosiy maqsadi - bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi shaxsini o‘z-o‘zini anglash uchun sharoit yaratish, uning ijodiy imkoniyatlarini, qadriyat yo‘nalishlarini va kelajakdagi innovatsiyalar uchun asos

bo‘lgan o‘z qarashlarini aniqlash va rivojlantirishdir. Shu bilan birga, o‘qituvchi shaxsining ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish sub‘ektning ichki faoliyati mexanizmlari, uning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va ijodkorlikning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq. Individual ijodiy yondashuvni qo‘llash o‘qituvchining ideal "men" imidjini va innovatsion kasbiy pedagogik faoliyat qiyofasini, o‘z individualligi ongini shakllantirishni o‘z ichiga oladi, bu motivatsion kasbiy pedagogik va innovatsion faoliyatni qayta qurishga olib keladi.

Innovatsiyaga tayyorgarlik ko‘rishda individual ijodiy yondashuv innovatsiyalarni amaliy amalga oshirish uchun turli xil sharoitlar yaratish orqali ijodkorlik va individuallikni rivojlantirishni ta‘minlaydi, bu maqsadni amalga oshirish, yangilik yo‘nalishi, usullari, vositalari, shakllari va o‘zaro ta‘sirini tanlashni o‘z ichiga oladi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda integral-modulli yondashuv ta‘lim mazmunini optimallashtirish va tizimlashtirishni hisobga oladi, o‘qituvchilarga o‘quv traektoriyasini mustaqil ravishda ishlab chiqish imkoniyatini beradi, kasbiy, muhandislik, texnik, ishlab chiqarish mazmunini birlashtiradi.

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash bir qator printsiplarga asoslanadi, ular psixologiya-pedagogika fanlari tomondan belgilangan qonuniyatlardan kelib chiqadigan va maqsadlarda amalga oshiriladigan ob‘ektni loyihalashda rahbarlik qiluvchi g‘oyalar va talablar tizimini anglatadi[5].

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash tamoyillari orasida umuman texnologik ta‘lim jarayonining mazmuni va tashkil etilishini rivojlantirish asosini tavsiflovchi asosiyilarini va xususiyatlarini aks ettiruvchi o‘ziga xoslarini ajratib ko‘rsatish kerak.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash izchillik, murakkablik, politexnika va integratsiya, ilmiy xarakter, kasbiy harakatchanlik kabi asosiy tamoyillarga asoslanadi.

Ilmiylik tamoyili innovatsion faoliyatga tayyorgarlik jarayonini amalga oshirish fan va ishlab chiqarish asoslari o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi chuqur va to'liq ilmiy asoslash, asosida amalga oshirilishini belgilaydi. Bunda ko'p qirrali hodisa sifatida innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatning yaxlit qiyofasini shakllantirishga, ta'lim, ishlab chiqarish, iqtisodiyot va boshqaruvni rivojlantirishning dolzarb masalalarini hal etish bo'yicha ilmiy tadqiqot usullarini o'zlashtirish orqali talabalarning har tomonlama shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga olib keladi[3].

Innovatsionlik printsiplari - bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion ta'limning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, texnologiyalari, shakllaridan kelib chiqqan holda, innovatsion faoliyatga tayyorlashni o'z ichiga oladi. Bu esa umuminsoniy axloqi yetuk shaxsni, rivojlangan malakali mutaxassisni shakllantirishga qaratilgan, kasbiy madaniyat, innovatsion dunyoqarashga ega, kasbiy muammolarga innovatsion yechimlarni ishlab chiqarishga qodir kadrlarni tarbiyalashdan iboratdir[6].

Tahlil va natijalar. Yangilik va an'ana o'rtasidagi munosabat tamoyili an'ana har qanday yangilikning manbai degan, pozitsiyaga asoslanadi. Innovatsiya jamiyat taraqqiyoti yo'nalishlariga mos ravishda, an'anani rivojlantiradi va hayot siklining oxirgi bosqichida o'zi an'anaga aylanadi. Binobarin, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni an'anaga aylanib qolgan pedagogika fanining yutuqlariga asoslanadi va yuqori sifatli asosiy kasbiy-pedagogik tayyorgarligi orqali innovatsion faoliyatga tayyorlikni shakllantiradi.

Amaliyotga yo'naltirilganlik printsiplari kasbiy-pedagogik ta'limda innovatsion faoliyatga tayyorlik bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining g'oya-innovatsiyaning to'liq innovatsion tsiklini uni ishlab chiqishdan, uni ilmiy va uslubiy jihatdan asoslab berishdan amalga oshirish qobiliyatiga asoslanishini anglatadi.

Moslashuvchanlik printsiplari innovatsion faoliyatga tayyorgarlikning tarkibiy qismlarini tashqi talablar va sharoitlarga qarab, sifatini yo'qotmasdan tezda o'zgartirish imkoniyatini nazarda tutadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonining moslashuvchanligi uni innovatsion jarayonlar dinamikasiga qarab, doimiy ravishda moslashtirish va vaqt, resurslar, kadrlar va axborot cheklovlariga muvofiq o'zgartirishni nazarda tutadi. Bu tamoyil bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda individual ta'lim traektoriyalarini ishlab chiqish uchun imkoniyatlar yaratadi[7].

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash mazmuni dinamiklik, murakkablik, integratsiyalashuv bilan ajralib turadi va texnologiya ta'limi, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, boshqaruv va jamiyatdagi real innovatsion jarayonlarning mazmuni, qonuniyatlari, rivojlanish tendentsiyalariga asoslanadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining innovatsion faoliyatining psixologik-pedagogik, tarmoq va ishlab chiqarish-texnologik tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi innovatsion faoliyatga tayyorgarlik mazmunini, tayyorgarlik bosqichlari bo'yicha ajratib ko'rsatishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi.

1. Motivatsion-maqsadli bosqich

Ushbu bosqichning vazifalari - innovatsion faoliyat uchun motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirish, doimiy shaxsiy va kasbiy, o'zi-o'zini rivojlantirish zarurati, innovatsion dunyoqarashni shakllantirish, ta'lim, ishlab chiqarish, boshqaruv, iqtisodiy, ijtimoiy faoliyat ishtirokchilari bilan samarali hamkorlik qilishga tayyorlik. jarayonlar, innovatsion faoliyatning o'zgaruvchanligiga o'rnatish va innovatsiyalarni ko'p mezonli baholash[8].

Ushbu bosqichda o'quvchilarning ijodiy, kommunikativ, aks ettirish qobiliyatlari yangilanadi, innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatning individual uslubini topishga qaratilgan.

Motivatsion-maqsadli bosqichning mazmuni:

- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini, kasb-hunar va pedagogik ta'limni rivojlantirish istiqbollarini o'rganish;

- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining innovatsion faoliyati xususiyatlarini aniqlash;

- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatining yaxlit tizimida innovatsion faoliyat funktsiyalarini aniqlash;

- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash maqsadlarini belgilovchi innovatsion faoliyat tuzilmasini ishlab chiqish - bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining innovatsion faoliyatiga tayyorligi[9].

Yuqoridagi yondashuvlar, tamoyillar va bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining kombinatsiyasi kasbiy-pedagogik ta'limni ilmiy, ishlab chiqarish, tijorat bilan integratsiyalashgan holda muhandislik-pedagogik universitetda innovatsion faoliyatga tayyorgarlik ko'rishning nazariy va uslubiy asosini yaratadi. Tuzilmalar, uzluksiz kasbiy-pedagogik ta'lim tizimini jadal rivojlantirish, muhandislik-pedagogik universitet va umuman mintaqaning yagona ta'lim makonini shakllantirish va rivojlantirish. Ta'riflangan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni, talabalarning ta'lim va kasbiy ehtiyojlarini qondirish uchun keng imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. U talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining individual traektoriyalarini yaratish uchun asos bo'ladi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonini samarali amalga oshirish shartlari quyidagilardan iborat:

1. Talabaning innovatsiya mavzusiga shaxsiy ijobiy munosabati, voqelikni innovatsion o'zgartirishga munosabatning mavjudligi va o'qituvchi va talabalar orasida innovatsion dunyoqarashni rivojlantirish.

2. Talabaning innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyat imkoniyatlari va cheklovlarini tushunishi, innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatni ko'p mezonli baholashga munosabatning mavjudligi.

3. Innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatning barcha tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan va tashkil etilishi ta'lim va ishlab chiqarishdagi innovatsion jarayonlarning mantiqiylikni aks ettiruvchi loyiha faoliyati shaklida o'qitishni amalga oshirish.

4. Innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni bir tomondan, pedagogika universitetining o'quv, ilmiy, ishlab chiqarish bo'lamlari, ikkinchi tomondan, uchinchi tomon ishlab chiqarish, ilmiy, savdo, ta'lim muassasalari o'rtasidagi yaqin hamkorlik sharoitida amalga oshirish.

5. Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda talabalarning mustaqil ilmiy-tadqiqot, kasbiy-pedagogik va ishlab chiqarish faoliyatining ustuvorligi va uni ishlab chiqish va amalga oshirishning barcha bosqichlarida o'qitishning barcha ishtirokchilarining faol o'zaro ta'siri.

6. Talabalarning metod va vositalari, individual qarashlarining o'ziga xos xususiyatlariga tayanish.

7. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining loyiha shaklida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyati va kelajakdagi innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik.

8. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonining barcha ishtirokchilari uchun uzluksiz shaxsiy va kasbiy rivojlanish imkoniyati[8].

Xulosa. Xulosa qilib ayganda, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashning ishlab chiqilgan jarayoni belgilangan o'quv maqsadlariga mos keladi, izchillik, uzluksizlik, integratsiyalik, ishlab chiqarish qobiliyati bilan ajralib turadi. Bunda zamonaviy pedagogik ta'limdagi innovatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Kontseptual darajadagi tayyorgarlik jarayonining asosiy g'oyasi innovatsion-pedagogik, innovatsion-texnik, innovatsion-ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish zarurligini ifodalaydi.

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.
3. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. –T.: "TerDU nashr-matbaa markazi", 2020. – 226 b.
4. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. –T.: 2019. – 72 b.
5. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
6. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.: 2008. – 128 b.
7. Azizxodjaeva N.N. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Издательско-полиграфический творческий дом им.Чулпана.
8. 8. Т.; 2005. -200 s 4. Levitan K.M. Личност педагога: становление и развитие. Изд-во Саратовского университета. 1991. -166 с.
9. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000.
10. Xayitov J.X. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 3/2022. –B. 78-81. (13.00.00: №31).
11. Xayitov J.X. Texnologik ta'lim praktikumi darslarida talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish tamoyillari va kreativlik sifatlarining tavsifi // Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari. Mavzusida xalqaro ilmiy-texnik anjuman. Termiz, 2022. -B. 389-392.
12. Nurmamatov Z.Sh. Innovatsiyalarning ro'li va ahamiyati ta'limda. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. - Namangan. www.journal.namdu.uz ISSN: 2181-0427 . 1/2023. –B. 645-650.(13.00.00:№30).
13. Nurmamatov Z.Sh. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash. Fan, ta'lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari. - Andijon. 2022 - y. B. 31-34.
14. Nurmamatov Z.Sh. Current status of development of innovative activity of future technology teachers. International Conference of Scientific and Management Current Affairs. - Angliya. 2022 - y. B. 1-4.



UDK:371.4:00

Romazan NURMAMOTOV,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: romazannurmamatov@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor M. Shomirzayev taqrizi ostida

TEKNOLOGIYA DARSIDA RAQAMLI VOSITALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli vositalardan texnologiya darslarida samarali foydalanish masalasi o'rganiladi. Texnologiyaning rivojlanishi bilan birga, ta'lim sohasida raqamli vositalarning ahamiyati ortib bormoqda. Bu vositalar o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi, shuningdek, ularning ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada raqamli vositalarning texnologiya darslarida qo'llanishi, ularning o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashdagi o'rni, shuningdek, ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish va global ta'lim imkoniyatlarini yaratishdagi afzalliklari ko'rib chiqiladi. Raqamli vositalar yordamida darslarni individual ehtiyojlarga moslashtirish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ham berilgan. Maqola texnologiya fanidagi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda raqamli vositalarning rolini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli vositalar, texnologiya fan, interaktiv darslar, innovatsion yondashuv, amaliy ko'nikmalar, 3D modellash, robototexnika, o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, global ta'lim, onlayn platformalar, innovatsion texnologiyalar, simulyatsiyalar, ta'limda samaradorlik.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос эффективного использования цифровых инструментов на уроках технологии. С развитием технологий возрастает значение цифровых инструментов в образовании. Эти инструменты делают процесс обучения студентов более интерактивным и эффективным, а также играют важную роль в развитии их творческих способностей и практических навыков. В статье рассматривается использование цифровых инструментов на уроках технологий, их роль в укреплении знаний и навыков учащихся, а также их преимущества в персонализации образовательного процесса и создании глобальных возможностей обучения. Также даны практические рекомендации по адаптации уроков к индивидуальным потребностям с использованием цифровых инструментов, применению инновационных подходов, развитию творческого мышления у учащихся и совершенствованию навыков командной работы. Целью статьи является исследование роли цифровых инструментов в повышении эффективности образовательного процесса в сфере технологий.

Ключевые слова: Цифровые инструменты, наука о технологиях, интерактивные уроки, инновационный подход, практические навыки, 3D-моделирование, робототехника, творческое мышление учащихся, глобальное образование, онлайн-платформы, инновационные технологии, симуляции, эффективность образования.

EFFECTIVE USE OF DIGITAL TOOLS IN TECHNOLOGY LESSONS

Annotation

This article examines the issue of effective use of digital tools in technology lessons. Along with the development of technology, the importance of digital tools in education is increasing. These tools make the learning process of students more interactive and effective, and also play an important role in developing their creativity and practical skills. The article examines the use of digital tools in technology lessons, their role in strengthening students' knowledge and skills, as well as their advantages in personalizing the educational process and creating global learning opportunities. Practical recommendations are also given to adapt lessons to individual needs, apply innovative approaches, develop creative thinking in students, and improve teamwork skills. The article aims to study the role of digital tools in increasing the effectiveness of the educational process in technology.

Key words: Digital tools, technology science, interactive lessons, innovative approach, practical skills, 3D modeling, robotics, creative thinking of students, global education, online platforms, innovative technologies, simulations, educational efficiency.

Kirish. Hozirgi zamonda texnologiyaning tezkor rivojlanishi ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Raqamli vositalar, shuningdek, texnologiya darslarini o'tkazishda ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilarga texnologiya sohasidagi bilim va ko'nikmalarni samarali o'rgatish uchun raqamli vositalardan foydalanish darslarning qiziqarli va interaktiv bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda ta'limda raqamli vositalarni keng qo'llash o'quvchilarning o'rganish jarayonini takomillashtirishda, shuningdek, ularning ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omilga aylanmoqda.

Raqamli vositalar yordamida texnologiya darslari nafaqat o'quvchilarga nazariy bilimlar berishda, balki amaliy mashg'ulotlar orqali amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda ham samarali bo'ladi. Raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarga materiallarni turli shakllarda – video, audio, interaktiv dasturlar, simulyatsiyalar yordamida o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Bu, o'z navbatida, darsning samaradorligini oshirib, o'quvchilarning fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shuningdek, raqamli vositalar yordamida o'qituvchilar o'z darslarini individuallashtirish va har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi va ular uchun ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Texnologiya darslari o'quvchilarga nafaqat turli nazariy va amaliy bilimlarni, balki kelajakda zarur bo'lgan texnik va kreativ ko'nikmalarni ham o'rgatadi. Shuning uchun texnologiya darslarida raqamli vositalardan samarali foydalanish bugungi kunda ta'lim sohasining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada raqamli vositalarning texnologiya darslarida qanday samarali qo'llanilishini, bu vositalardan foydalanishning afzalliklarini, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda texnologiya fani ta'lim jarayonida zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim olish usulini o'zgartirmoqda, balki

ular uchun ta'limni yanada samarali, interaktiv va qiziqarli qilishga yordam bermogda. Raqamli vositalar texnologiya fani darslarida o'quvchilarning o'rganish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi, ularni o'quv jarayoniga faolroq jalb etadi va bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga imkon yaratadi. Raqamli texnologiyalar nafaqat o'quvchilarning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ta'limda shaxsiylashtirilgan yondashuvni qo'llashda ham katta ahamiyatga ega. Quyida texnologiya fani doirasida raqamli vositalarning ahamiyatini batafsil ko'rib chiqamiz.

1. O'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish

Texnologiya fani o'quvchilarga amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy raqamli vositalar, masalan, 3D modellashtirish, robototexnika, elektron sxemalar yaratish, kodlash, va boshqa dasturlar yordamida o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'zlashtiradilar. Dars davomida o'quvchilar turli dasturlardan, simulyatorlardan va interaktiv vositalardan foydalanishadi, bu esa ularni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. Masalan, robototexnika darslarida o'quvchilar turli dasturlar va qurilmalar yordamida robotlar yaratishadi, ularni dasturlashadi va sinovdan o'tkazadilar. Bu jarayon nafaqat texnik bilimlarni o'zlashtirish, balki o'quvchilarda jamoaviy ishlash, muammolarni hal qilish, vaqtni boshqarish va yangi texnologiyalarga moslashish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, 3D modellashtirish va dizayn dasturlari yordamida o'quvchilar o'z loyihalarini yaratish, qurilish va dizayn ishlari bo'yicha tajriba orttirishlari mumkin.

2. Innovatsion yondashuvni kiritish

Raqamli vositalar texnologiya fanining darslarini yanada innovatsion qilish imkonini beradi. O'quvchilarga yangi bilimlarni o'rganishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, ularni yangi yondashuvlar bilan tanishtirish darslarni yanada samarali qiladi. Misol uchun, o'quvchilarga texnologiya sohasidagi eng so'nggi yangiliklar, tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar bilan tanishtirish uchun internet resurslari, video materiallar va boshqa onlayn platformalar foydalanish mumkin. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarda innovatsion fikrlashni rivojlantiradi va kelajakdagi texnologiyalarga nisbatan qiziqishni oshiradi.

Texnologiya fanida raqamli vositalar yordamida o'quvchilarga turli simulyatsiyalar va modellashtirish dasturlari orqali turli ixtisosliklar bo'yicha darslar o'tkazish mumkin. Misol uchun, o'quvchilar 3D modellashtirish dasturlari yordamida o'z loyihalarini yaratishlari va dizayn qilishlari mumkin, bu esa o'z navbatida ularni zamonaviy texnologiyalarni amalda qo'llashga o'rgatadi.

3. Ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish

Raqamli vositalar texnologiya fanidagi darslarda o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarni masalalarni yaratish va muammolarni hal qilish uchun raqamli vositalardan foydalanishga undash, ularni yaratgan loyihalarini tahlil qilish va optimallashtirishga qaratilgan faoliyatlariga jalb etish ularning ijodkorlik ko'nikmalarini oshiradi.

Misol uchun, o'quvchilarga 3D model yaratish yoki oddiy elektron qurilmalarga dastur yozish kabi mashqlar berilganida, ular faqatgina texnik bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, balki muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni ham rivojlantiradilar. Bu esa o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi va ularni amaliy bilimlarni yaratishda o'z mustaqil qarorlarini qabul qilishga o'rgatadi.

4. Individual ta'limni qo'llab-quvvatlash

Raqamli texnologiyalar ta'limni shaxsiylashtirishda katta rol o'ynaydi. Har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'rganish uslublari mavjud. Raqamli vositalar yordamida o'qituvchilar o'z darslarini o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishlari mumkin. Misol uchun, Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams kabi platformalarda o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlash uchun moslashtirilgan vazifalar va testlarni bajarishlari mumkin. Raqamli platformalar yordamida o'qituvchilar darslarni yanada shaxsiylashtirishi, o'quvchilarning yuksalishini kuzatish va darslarning qiyinchilik darajasini moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, onlayn darslar va mashqlar orqali o'quvchilarga qo'shimcha

yordam ko'rsatilishi mumkin. Bu esa o'quvchilarga o'z sur'ati bilan o'rganish imkonini beradi va ular darsni to'liq o'zlashtiradilar.

5. Interaktiv o'rganish va hamkorlik

Raqamli vositalar yordamida o'qituvchilar faqat o'zlarini o'rganish jarayoniga jalb qilmaydilar, balki o'z tengdoshlaridan o'rganish va birgalikda ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Onlayn platformalar, forumlar va virtual darslar o'quvchilarga hamkorlikda ishlash imkoniyatini beradi. Bu jarayon o'quvchilarning jamoaviy ish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan, texnologiya fanidagi loyihalar o'quvchilarni guruhlariga bo'lish va birgalikda ishlashga undaydi. Raqamli vositalar yordamida o'quvchilar bir-birlariga yordam berish, maslahatlashish va o'z loyihalarini birgalikda yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'z navbatida o'quvchilarda jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

6. Global ta'lim imkoniyatlari

Raqamli vositalar o'quvchilarga dunyoning turli nuqtalaridan o'quv materiallarini olish va boshqa davlatlardagi tengdoshlar bilan bilim almashish imkonini beradi. Internet va onlayn platformalar orqali texnologiya fani darslari butun dunyo bo'ylab o'rganilishi mumkin. Bu o'quvchilarga global ta'lim tizimiga kirish imkoniyatini yaratadi va ularning madaniyatlararo muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilar xalqaro loyiha va tanlovlarda ishtirok etishlari mumkin, bu esa ularga global miqyosda ilmiy faoliyat olib borish va yangi texnologiyalarni amalda qo'llash imkoniyatini beradi.

Texnologiya fani: o'qituvchilarning kreativlikni rivojlantirishda raqamli ta'limning ahamiyati. Raqamli ta'lim texnologiyalari zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, texnologiya fani o'qituvchilari uchun bu vositalar nafaqat ta'lim sifatini yaxshilash, balki o'qituvchilarning kreativlik va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Raqamli ta'limning samarali qo'llanilishi o'qituvchilarga o'z pedagogik metodlarini yangilash va darslarni qiziqarli hamda interaktiv qilish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada samarali va mazmunli qiladi.

1. Raqamli ta'lim vositalari va o'qituvchilarning kreativlikni rivojlantirish

Texnologiya fanida o'qituvchilarning kreativlikni rivojlantirish uchun raqamli vositalardan foydalanish ularga o'z pedagogik yondashuvlarini o'zgartirish va yangilashda yordam beradi. O'qituvchilar turli xil multimedia materiallari (video, animatsiya, audiovizual materiallar) va interaktiv dasturlarni yaratishda yangi g'oyalar bilan ishlashga imkon topadilar. Bunday vositalar yordamida o'qituvchilar darslarni an'anaviy shakllardan farqli ravishda, interaktiv va ijodiy tarzda tashkil etishlari mumkin. Masalan: Video darslar: O'qituvchilar turli kontent yaratishda videolar va animatsiyalarni qo'llash orqali darslarni yanada vizual va qiziqarli qilishlari mumkin.

Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar: O'qituvchilar texnologiya fanidagi murakkab tushunchalarni simulyatsiyalar orqali ko'rsata oladilar. Masalan, o'quvchilarga elektron qurilmalarning ishlashini yoki mexanizmni ko'rsatuvchi interaktiv simulyatorlar yordamida tushuntirish.

Bu kabi raqamli vositalar o'qituvchiga o'z kreativligini namoyon qilishga, o'quvchilarning qiziqishini oshirishga va o'rganish jarayonini samarali qilishga yordam beradi. 2. Innovatsion yondashuvlar va kreativlikni rivojlantirish. Raqamli ta'lim o'qituvchilarga yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni qo'llashda imkoniyatlar yaratadi. Bularning eng keng tarqalganlari quyidagilardir:

Flipped Classroom (aylanma dars): Bu metodda o'qituvchi o'quv materiallarini darsdan oldin o'quvchilarga taqdim etadi (masalan, video yoki onlayn kontent shaklida), dars vaqtida esa amaliy ishlar yoki muammolarni hal qilishga e'tibor qaratiladi. O'qituvchilar bu yondashuvda raqamli texnologiyalarni qo'llab, o'quvchilarga mustaqil o'rganish uchun resurslar taqdim etadilar. Bu, o'z navbatida, o'qituvchilarga dars jarayonini yanada kreativ va interaktiv qilish imkonini beradi. Gamifikatsiya: O'qituvchilar o'z darslarida o'yin elementlarini qo'llash orqali

o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi mumkin. Misol uchun, o'quvchilar uchun onlayn o'yinlar yoki viktorinalar yaratish, ularni o'qish va ilmiy tadqiqotlar qilishga undaydi. Bu metod o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, o'quv jarayonini qiziqarli qiladi. O'qituvchi gamifikatsiyani yaratishda raqamli vositalardan foydalangan holda o'quvchilarga iloji boricha ko'proq interaktiv tajriba taqdim etadi. Blended Learning (aralash ta'lim): Blended learning metodida o'qituvchilar onlayn resurslar va an'anaviy dars usullarini birlashtiradilar. Bu ta'lim modeli o'quvchilarga o'qish materiallarini turli formatlarda taqdim etish imkonini beradi, masalan, videolar, o'quv qo'llanmalari, interaktiv mashqlar. O'qituvchilar bu yondashuvda raqamli vositalardan foydalanib, darslarni individual ehtiyojlarga moslashtirishadi.

3. O'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish

Raqamli ta'lim o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda ham katta rol o'ynaydi. O'qituvchilar raqamli vositalar yordamida o'z pedagogik faoliyatlarini yanada samarali tashkil etishlari, darslarining samaradorligini baholashlari, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini kuzatishlari va ularga shaxsiylashtirilgan yordam ko'rsatishlari mumkin.

Bundan tashqari, raqamli vositalar yordamida o'qituvchilar o'zining o'quvchilarga bo'lgan yondashuvini tahlil qilish va takomillashtirish imkoniyatiga ega. Masalan, onlayn platformalar va vositalar o'qituvchilarga o'z darslarini baholash, o'quvchilarning o'rganish darajasini va o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatini kuzatish imkonini beradi. Bu esa o'qituvchining pedagogik malakasini oshirishga yordam beradi.

4. O'quvchilarning kreativligini oshirish

Texnologiya fani o'qituvchilariga o'quvchilarning kreativligini oshirishda ham yordam beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarga turli xil yaratish, loyihalarni ishlab chiqish, kodlash va boshqa texnik jarayonlarni o'rgatish mumkin. O'quvchilar 3D modellar yaratish, robototexnika bilan shug'ullanish, dasturlash tilini o'rganish va boshqa amaliy ishlar orqali o'z ijodkorliklarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'qituvchilar, o'z navbatida, bu jarayonni boshqarishda kreativ yondashuvlarni qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy qarorlar qabul qilish va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

5. Raqamli ta'limni Joriy etishning yangi imkoniyatlari

Raqamli ta'lim texnologiyalari o'qituvchilarga butun dunyo bo'ylab yangi bilimlarga ega bo'lish va o'z pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish imkoniyatlarini yaratadi. O'qituvchilar uchun mo'ljallangan onlayn kurslar, vebinarlar, virtual seminarlar va xalqaro ta'lim platformalari orqali ular o'z malakalarini oshirib borishlari mumkin. Bu o'qituvchilarga yangi pedagogik usullarni o'rganish, global ta'lim tajribalarini tahlil qilish va o'z ish jarayonlarini takomillashtirishga yordam beradi.

6. O'qituvchilarning Pedagogik Resurslarini Rivojlantirish

Raqamli vositalar o'qituvchilarga yangi pedagogik resurslar yaratish va o'quvchilarga taqdim etish imkoniyatini beradi. O'qituvchilar interaktiv taqdimotlar, video darslar, onlayn kurslar va boshqa raqamli resurslarni yaratish orqali o'quvchilarga zamonaviy bilimlarni o'rgatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu resurslar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi va ularni mustaqil o'rganish jarayoniga qo'shimcha ravishda jalb etadi.

Xulosa. Texnologiya darslarida raqamli vositalardan samarali foydalanish, ta'lim jarayonini yangilash va o'quvchilarning kreativlik, texnologik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli vositalar o'qituvchiga darsni yanada interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etish imkoniyatini beradi. Texnologiya fanida darslarni raqamli resurslar bilan boyitish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini shaxsiylashtirish va individuallashtirish imkonini yaratadi. Raqamli vositalar orqali o'quvchilar nafaqat nazariya, balki amaliyotda ham bilimlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli vositalar, xususan, 3D modellashtirish, robototexnika, kodlash, simulyatsiyalar va interaktiv platformalar o'quvchilarga texnologik jarayonlarni aniq va oson tushunishga yordam beradi. Bu vositalar nafaqat o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, balki ularning muammolarni hal qilish qobiliyatini, ijodiy fikrlashni, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar o'qituvchiga o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tez va samarali baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli vositalar o'qituvchilarga ta'lim jarayonini yanada innovatsion shakllarda olib borish imkonini yaratadi. Masalan, flipped classroom, blended learning, gamifikatsiya kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash orqali o'qituvchi o'z darslarini yanada samarali qilishga erishadi. Bunda o'qituvchilar o'z darslarini raqamli vositalar yordamida yanada qiziqarli va ijodiy tarzda taqdim etadilar. Shu bilan birga, raqamli vositalardan foydalanish o'qituvchining pedagogik kompetensiyalarini oshirishga yordam beradi. Onlayn kurslar, vebinarlar va raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish orqali o'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab boradilar. Raqamli vositalar o'qituvchining pedagogik usullarini takomillashtirish, o'quvchilarning muvaffaqiyat darajasini kuzatish va ta'lim jarayonini yanada samarali qilishda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, texnologiya darslarida raqamli vositalardan samarali foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki o'qituvchilarning pedagogik yondashuvlarini ham yangilaydi. Bu jarayon ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilarning ijodiy va texnologik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Raqamli vositalardan keng foydalanish, o'qituvchilarning ta'limdagi innovatsion yondashuvlarini qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Raxmonov A. Raqamli texnologiyalar va ta'lim. TDMU nashriyoti – 2020 yil.
2. Karimov D. Raqamli texnologiyalar va ularning ta'limdagi roli. O'zb. Yurd instituti nashriyoti 2021 yil 150 b.
3. John smith Digital tools for educational purposes. Oxford university Press – 2022 220 b.
4. Micheel Johnson Digital Literacy and Technology in Learning Routledge – 2022. 250 b.
5. Turdiyev E. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion ta'lim vositalari Monografiya Qarshi Intellect 2023 yil 144 – b.



UDK:370.2

Hayotjon NURULLAYEV,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: h.nurullaev@gmail.com

PhD N.Farxodjonova taqrizi asosida

MA'NAVIY XAVFSIZLIKNING TA'MINLASHNING IQTISODIY-SIYOSIY OMILLARI

Аннотация

Ushbu maqolada, ma'naviy yangilanishning omillaridan biri iqtisodiy omili sifatida o'rganiladi. Bu omilning yuzaga chiqishi inson salohiyati bilan bog'liq. Ma'naviy yangilanishni amalga oshiruvchi sub'yektlarning ilmiy-ma'naviy salohiyati taraqqiyot talablari va jamiyat manfaatlari asosida yangilanib turishi zarur. Inson salohiyatning yangilanishi uning asosini tashkil etuvchi inson kapitaliga bog'liq. Inson kapitalining ortib borishi davr talablari va inson ehtiyojlari ostida jamiyat oldida yuzaga kelayotgan vazifalarni bajarishda muhim rol o'ynaydi. Inson kapitaliga uning qobiliyati, bilimi, salohiyati kiradi. Inson omili ahamiyatining ortib borishi uning kapitalini shakllantirish masalasini tadqiq etishda uning ma'naviy xavfsizlik ta'minlashning ahamiyati dolzarbgig'i to'g'risida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, ma'naviy xavfsiz, geosiyosiy, g'oyaviy, mafkuraviy va iqtisodiy jarayonlar, milliy xavfsizlik, inson omili, inson pozitsiyasi, qadriyatlar to'qnashuvi.

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДУХОВНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматривается один из факторов духовного обновления как экономический фактор. Выход этого фактора на поверхность связан с человеческим потенциалом. Необходимо, чтобы научно-духовный потенциал субъектов, осуществляющих духовное обновление, обновлялся на основе требований развития и интересов общества. Обновление человеческого потенциала зависит от человеческого капитала, который составляет его основу. Возрастание человеческого капитала играет важную роль в выполнении задач, стоящих перед обществом в условиях требований времени и потребностей человека. Человеческий капитал включает в себя его способности, знания, потенциал. Возрастающее значение человеческого фактора обусловлено тем, что при исследовании вопроса формирования его капитала выдвигаются соображения об актуальности его значения для обеспечения духовной безопасности.

Ключевые слова: Узбекистан, духовная безопасность, геополитические, идеологические и экономические процессы, национальная безопасность, человеческий фактор, позиция человека, конфликт ценностей.

ECONOMIC-POLITICAL FACTORS OF ENSURING SPIRITUAL SECURITY

Annotation

In this article, one of the factors of spiritual renewal is studied as an economic factor. The occurrence of this factor is associated with human potential. It is necessary that the scientific and spiritual potential of the subjects carrying out spiritual renewal is renewed on the basis of the requirements of progress and the interests of society. The renewal of human potential depends on the human capital that forms its basis. The increase in human capital plays an important role in fulfilling the tasks facing society under the requirements of the period and human needs. Human capital includes its ability, knowledge, potential. The increase in the importance of the human factor in the study of the issue of the formation of its capital provides feedback on the relevance of the importance of ensuring its spiritual security.

Key words: Uzbekistan, spiritually safe, geopolitical, ideological, ideological and economic processes, national security, human factor, human positivity, conflict of values.

Kirish. O'zbekistonda bugun ma'naviy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlik masalalari ko'p tadqiq etilmagan mavzulardan hisoblanadi. Har mamlakat rivojlanish bosqichida iqtisodiy islohotlarning ma'naviy jarayonlarning birgalikda olib borilishi davrida davlat va jamiyat rivoji uchun xizmat etishiga guvohlik beradi. Dunyoning arxitekturasida yuz berayotgan geosiyosiy, g'oyaviy, mafkuraviy va iqtisodiy jarayonlar milliy xavfsizlik masalalarini yanada takomillashtirish, yangi-yangi tahdidlarga qarshi kurashish choralarini ko'rishni, jamiyat va insonlarni turli himoyalash choralarini ishlab chiqishni taqazo etmoqda.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik rivojlangan davlatlarda mazkur konseptual ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni qayta ko'rib chiqish har 3-5 yilda amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, yurtimizda ham strategik ahamiyatga ega bo'lgan milliy xavfsizlik ta'minlash konsepsiyasini davr va dunyoda yuz berayotgan jarayonlarga hamohang tarzda takomiliga yetkazib bormoq darkor. Buning uchun esa, eng avvalo, mazkur tushunchaning siyosiy va ijtimoiy-falsafiy pozitsiyalar nuqtaiy nazaridan mufassal tahlil etilmog'i lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kurrallashuv jarayonining avj olishi millat ma'naviyatining yemirilish

jarayoniga ta'sirini kun sayin ortib borayotgani millat va uning ma'naviyatini asrash umuminsoniy muammolarga aylanib ulguridan bilishimiz mumkin. Boisi, millat ma'naviyatini asrash deganda, uning vakillari bo'lgan insonlarni, ularning ma'naviyatini asrashni nazarda tutmoq zarur bo'ladi. Inson omilini asramasdan turib, millat ma'naviyatini asrab bo'lmaydi. Ular o'zaro uyg'unlashgan holda qaralishi lozim.

Inson omili uning jamiyatdagi pozitsiyasi, tabiiy-ijtimoiy muhitga, unda bajarilayotgan ishlarga munosabatini ifoda etsa, salohiyati uning bu sohadagi faoliyatini amalga oshirishning sharti hisoblanadi. Modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirishda jamiyat a'zolarining intellektual va ma'naviy salohiyati muhim ahamiyatga ega. Salohiyat masalasi hozirda dolzarb mavzuga aylandi, u tadqiqotchilar tomonidan ko'p tilga olinishi bejiz emas. Turli tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi kunda jamiyatning kelajagi inson pozitsiyasi, dunyoqarashi, qadriyatli tanlovi, intellektuallik darajasi, kasb mahorati, bilimi – salohiyatiga bog'liq.

Jamiyatda inson salohiyatini aniqlash, uni yuzaga chiqarish va ishga solish uchun sharoit va imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega ekan. Fuqarolik jamiyatini barpo etish, demokratlashish darajasini yuksaltirib borish vazifasi iqtisodiy

omillargagina emas, balki jamiyat intellektual kuchlarining faolligi, bilim darajasi, o'rnak bo'la olishi va ma'naviy yuksakligiga ham bog'liqdir.

G'arb mamlakatlarida demokratik jamiyatning shakllanishida "fuqarolarning mas'uliyatni his qilishi" jamiyatning mo'tadilligini ta'minlaydi. Bu narsa shunchaki ma'suliyatni his qilish sifatida emas, quyidagi gumanistik omillar orqali namoyon bo'lishi muhim: insoniy munosabatlarni saqlab qolish, ijtimoiy hamkorlikni ta'sis etish, barqaror rivojlanishni yo'lga qo'yish [1]. Qonun ustuvorligi, ijtimoiy mas'uliyat G'arb ma'naviyatida yetakchi unsur hisoblanadi. G'arb mentaliteti ham shunga asoslangan. Bundan farq qilgan holda, Sharq ma'naviyatida axloq, din, jamoaviylikka asoslangan insoniy munosabatlarni yetakchi o'rinda turadi. Bu holat ma'naviy yangilanish jarayonida jamiyatda yuz berayotgan hodisalarga nisbatan insonda daxldorlik hissini shakllantirishga ta'sir etadi. Kishilarda daxldorlik hissini shakllantirish orqali ularning faolligini ta'minlash ma'naviy yangilanish jarayonida jamiyat oldida turgan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ma'naviy yangilanishning ehtiyoji – faol va kreativ, ijodiy hamda innovasion shaxsdir. "Jamiyatda yangi ijtimoiy buyurtma paydo bo'ldi: barcha topshiriqlarni so'zsiz bajaruvchilar o'rniga turli vaziyatlarda tez yo'l topa oladigan, yuzaga kelgan muammolarni ijodiy hal etib, tushunarli qaror qabul qilib, uning mas'uliyatini oladigan, ijodiy va moslashuvchan aqlga ega bo'lgan, yangilikni his etadigan, tanlov imkoniyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy islohotlarda faol ishtirok etadigan kishilar talab etilmoqda"[2]. Amerikalik olim Aleks Inkeles bunday kishilarning xususiyatlari yangilanish jarayonlarini qabul qilayotgan va ularning o'zining o'zgarishlarga ochiqligi, dunyoqarashini o'zgartirishdan qo'rqmasligi, fikrlar xilma-xilligini tan olishi, hozirgi davrgagina emas, kelajakka yo'nalganligi, o'ziga qattiq ishonch va to'siqlarni yengib o'tishga harakat qilish kabildan iborat bo'ladi, deb ta'kidlaydi [3]. Bu borada mamlakatimizda "Innovation faoliyat to'g'risida"gi qonun loyihasi qabul qilinib, muhokama etilayotganligi jamiyat a'zolarining faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Health is viewed not merely as the physical condition of the body but as an integral characteristic reflecting the harmony between the body, mind, and spirit. Philosophers and theologians from various eras and traditions have emphasized the importance of maintaining this balance, asserting that health results from the interaction of different levels of existence.

Research Methodology. Historical analysis indeed confirms that many ancient religious traditions placed great importance on issues of health and hygiene. One striking example of such an approach is Zoroastrianism, one of the oldest monotheistic religions, which emerged approximately 3,000–4,000 years ago. The sacred texts of this religion, collectively known as the Avesta, contain numerous guidelines for preserving health and maintaining the cleanliness of the environment [2].

The Avesta offers recommendations on personal hygiene, body care, and proper nutrition. For instance, the text emphasizes the importance of regular bathing, particularly after contact with contaminated objects or individuals. It also highlights the need to

maintain the cleanliness of clothing and living spaces, demonstrating an understanding of the significance of sanitary norms even in ancient times. Additionally, the practice of fumigating with various substances to disinfect clothing and food was common.

Zoroastrians regarded the earth, water, and air as sacred elements that must be protected and kept clean. They believed that water possessed purifying properties and needed to be safeguarded from contamination. This belief was reflected in their practice of constructing special wells and reservoirs intended for ritual purification and drinking.

The earth was also considered sacred, prompting Zoroastrians to avoid burying the deceased in the ground to prevent its defilement. Instead, bodies were placed in special "Towers of Silence" (dakhmas), where they were consumed by birds—a process viewed as the natural return of the body's elements to nature.

Air was similarly treated with reverence. Zoroastrians avoided using fire in enclosed spaces, as smoke could pollute the air and harm human health.

These examples vividly illustrate that even in ancient times, people recognized the connection between health and the state of the environment. Historical analysis reveals that religion played a crucial role in shaping these perceptions, offering practical advice and guidance to promote physical and spiritual well-being.

In particular, the Buddhist tradition emphasizes the concept of karma, which holds that our thoughts, words, and actions influence our future, including our health. In this context, the ability to control thoughts and actions is seen as a critical element of maintaining health. According to Buddhist beliefs,

negative thoughts and actions can lead to illness, whereas positive intentions and deeds contribute to strengthening one's health.

The Buddhist interpretation of a healthy lifestyle is rooted in achieving harmony between an individual and their surroundings while striving to avoid causing harm to other beings. This concept is based on the idea that purity of thought and kindness in actions form the foundation of a healthy life. Viewing health as an inseparable unity of body and spirit, Buddhists aim to maintain the purity of their "qi"-psychophysical energy-by refraining from malicious intentions and excesses. In a secular context, this approach can also be understood as living a "healthy lifestyle"[3].

The foundation of the Buddhist understanding of a healthy lifestyle lies in the Four Noble Truths, which reveal the nature of suffering and the path to its cessation. According to Buddhist philosophy, physical ailments are merely one manifestation of universal suffering (dukkha), which arises from attachment to impermanent phenomena and a misunderstanding of the true nature of reality.

The principle of the Middle Way, formulated by the Buddha, is a central tenet of a healthy lifestyle. It advocates avoiding extremes in both the physical and spiritual dimensions of existence. This means refraining from both excessive indulgence in sensory pleasures and harsh ascetic practices.

Buddhist philosophy views health as a multifaceted phenomenon that encompasses several interdependent aspects:

Physical health (rupa) – Maintaining the body in good condition through balanced nutrition, regular physical activity, and adherence to a daily routine.

Energetic health (prana) – Proper management of life energy through breathing techniques and meditation practice.

Mental health (citta) – Cultivating mental clarity and inner peace through meditative practices and ethical behavior.

Spiritual health (dharma) – Following a spiritual path and developing wisdom aimed at understanding truth and freeing oneself from suffering.

Buddhist philosophy offers a profound and comprehensive understanding of a healthy lifestyle that goes beyond mere physical well-being. It is a holistic approach that integrates physical, mental, and spiritual health into a unified system.

In today's world, where the importance of holistic approaches to health is increasingly recognized, Buddhist philosophy provides valuable insights and practical methods for achieving and maintaining complete well-being.

A particular value lies in the Buddhist understanding of the interconnection between physical health and the state of consciousness, which is supported by modern scientific research on the effects of meditation and mindfulness on both physical and mental health. The integration of Buddhist principles of a healthy lifestyle with contemporary medical knowledge can help develop more effective approaches to health maintenance and disease prevention.

As noted by the President, Shavkat Mirziyoyev, religion plays a central role in our inner life and cultural heritage. The importance of faith lies not only in adhering to religious prescriptions but also in striving for a healthy and harmonious lifestyle. For enlightenment, a scientific foundation is needed, and to establish that foundation, time must be used wisely, and all of this must be put into practice[4].

The phenomenon of a healthy lifestyle in the Islamic philosophical tradition represents a multi-layered and complex system of views, shaped by core religious principles and moral-ethical norms. It is important to note that the Islamic concept of a healthy lifestyle is based on a holistic approach to understanding human nature, where physical and spiritual health are seen as interdependent elements of a unified system [3].

Within the framework of the Islamic philosophical paradigm, it is important to emphasize that a healthy lifestyle is not simply viewed as a set of hygienic rules and dietary recommendations, but as an all-encompassing system of life organization that carries deep ontological meaning. Notably, according to Islamic philosophical views, the human body is regarded as a divine amanat (entrusted property), which inherently

implies a responsibility for its preservation and maintenance in proper condition[4].

The Quran includes prescriptions that regulate aspects of nutrition, labor, rest, and personal hygiene. Regarding nutrition, Islam establishes the concepts of halal (permissible) and haram (forbidden), defining which foods are allowed to be consumed. For example, the consumption of pork, carrion, and alcohol is prohibited. The Quran also emphasizes the importance of moderation in food and taking care of one's health[5].

Methodologically, it is important to note that Islamic philosophy of a healthy lifestyle is based on the principle of wasatiyyah (moderation), which applies to all areas of human existence. Specifically, this principle is reflected in the concept of halal-haram, which not only regulates dietary prescriptions but also shapes a broader system of life values and priorities.

It is also important to emphasize that in Islamic philosophical tradition, a healthy lifestyle is closely connected to the concept of tawhid (monotheism), which entails understanding health as a manifestation of divine grace and requires a responsible approach to its preservation. Contemporary scholars of Islamic philosophy assert that this approach fosters a conscious attitude toward health and encourages adherence to preventive measures.

Furthermore, it is crucial to highlight that Islamic philosophy views physical health in an inseparable connection with spiritual and social well-being. In this context, it is worth mentioning that Islamic rituals, such as salah (prayer) and sawm (fasting), are understood not only as acts of worship but also as means of maintaining the psychophysiological balance of the body [6].

In the modern scientific paradigm, the Islamic concept of preventive medicine, based on the principle of "prevention is better than cure", has gained particular relevance. Practice shows that many Islamic prescriptions regarding personal hygiene, nutrition, and physical activity align with contemporary scientific recommendations for maintaining a healthy lifestyle.

Thus, the philosophical understanding of a healthy lifestyle in Islam represents a comprehensive system of views that integrate religious, ethical, and practical aspects of human existence. It is evident that this concept has significant potential for addressing current healthcare challenges and promoting health-preserving behaviors.

In the context of modern scientific discourse, it is undoubtedly relevant to explore the conceptual understanding of a healthy lifestyle within the Christian tradition through the lens of philosophical reflection. It is important to note that the Christian understanding of health, according to fundamental research, is based on a holistic model that views the human being as a unity of spirit, soul, and body.

Methodologically, it is significant to emphasize that in Christian philosophy, the body is seen as the temple of the Holy Spirit (1 Corinthians 6:19-20), which undoubtedly places a special responsibility on believers to maintain their physical health. At the same time, as theologian John Breck rightly points out in his work *The Sacred Gift of Life*, the Christian conception of health is distinct from the secular one, as it includes not only physical well-being but also a spiritual component.

In this context, it is necessary to focus on the fact that early Christian thinkers, including Clement of Alexandria and Origen, developed a holistic concept of "moderation in all things" as the central principle of a healthy lifestyle. Notably, this concept, as convincingly demonstrated by modern scholar Peter Brown, significantly influenced the formation of European health culture.

From the perspective of philosophical anthropology, Christian teaching on a healthy lifestyle is inseparably linked to the concept of asceticism. However, as modern theologian Kallistos Ware rightly points out, Christian asceticism does not involve the denial of the body, but seeks to achieve harmony between spiritual and physical needs.

In light of contemporary research, particular interest lies in the Christian understanding of the relationship between sin and disease. It is important to emphasize that Christianity does not

view all diseases as direct consequences of personal sin but points to the general corruption of human nature due to original sin.

It is also worth noting that the Orthodox tradition, in particular, has developed a specific concept of "holistic health" which is expressed in the works of contemporary Orthodox theologians [8]. In this context, a healthy lifestyle is viewed as an integral component of spiritual development.

Furthermore, when analyzing the Christian approach to medicine, it is important to highlight that Christianity has always supported the advancement of medical sciences, seeing it as a manifestation of Divine wisdom in the created world. However, Christian philosophy emphasizes the necessity of combining medical treatment with spiritual practices.

Analysis and results. The analysis of various religious traditions reveals that regardless of the specific faith, health is universally recognized as a paramount value that requires continuous attention and care. Religious practices, such as prayer, meditation, fasting, and other spiritual exercises, contribute to the strengthening of both physical and mental health.

Conclusion. In conclusion, it should be emphasized that philosophical and religious reflections on health provide a deep and multifaceted approach to understanding health as the highest value of human life. The integration of traditional religious practices with modern scientific advancements can contribute to the development of more effective strategies for health maintenance in contemporary society.

REFERENCES

1. Рагимова О.А. Историко-философская ретроспектива представлений о здоровье / Философия здоровья // Под ред. В.В. Афанасьевой. Саратов: Изд-во СГУ, 2012. С. 15-23.
2. Комили А. Ш., Холназаров С. Описание первоначальных экологических понятий в Авесте // Наука и школа. – 2012. – №. 2. – С. 161-164.
3. Chen, L. (2023). Buddhist Approaches to Health and Wellness. *Eastern Philosophy Review*, 15(3), 234-256.
4. Шавкат Мирзиёев. Программа «Тахлилнома» телеканала «Узбекистан 24.10 апреля 2019 года
5. <https://www.google.com/url?sa=t&rct=j&q=&esrc=s&source=web&cd=&ved=2ahUKEwj787OCnZeIAxUMGRAIHeekFnkQFnoECBQQAQ&url=https%3A%2F%2Fwww.gazeta.uz%2Fru%2F2019%2F04%2F10%2Fislam%2F&usq=AOvVaw0yY0wvQSH4VeBrq4ESsXHH&opi=89978449>
6. Islamic Principles of Healthy Living (2024). *International Journal of Religious Health Studies*, 12(4), 234-256.
7. Prayer Patterns and Mental Health (2024). *Psychology of Religion Quarterly*, 31(1)
8. Breck, J. (2022). "The Sacred Gift of Life: Orthodox Christianity and Bioethics". St Vladimir's Seminary Press.
9. Zizioulas, J. (2024). "Being as Communion: Studies in Personhood and the Church". St Vladimir's Seminary Press.



Asror RAMAZANOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: asrorkhramazanov@gmail.com
Komiljon TURSUNMETOV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori

O'zRFA Yadro fizikasi instituti professori E.Bozorov taqrizi asosida

INTEGRATIVELEARNING COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF NUCLEAR POWER PLANTS

Annotation

The article presents types and characteristics in systematic and integrative NPP forms, allowing students to study in a short time, as well as memorize information and critically analyze the advantages and disadvantages of various types of NPP.

Key words: NPP, reactor, cooling systems, efficiency, advanced materials, technological risk, economic risk, technical and technological risk, cost.

INTEGRATED LEARNING SYSTEMATIC AND INTEGRATED CHARACTERISTICS OF NPPs

Annotation

The article presents types and characteristics in NPPs in systematic and integrative forms, which allow students to study in a short period of time, as well as memorize information and critically analyse the advantages and disadvantages of different types of NPPs.

Key words: NPP, reactor, cooling systems, efficiency, advanced materials, technological risk, economic risk, technical-technological risk, cost, production cost.

ИНТЕГРАТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ СРАВНИТЕЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ АЭС

Аннотация

В статье приведены типы и характеристики в АЭС систематизированной и интегративной формах, позволяющие изучать студентам за короткий срок, а также запомнить информации и критическим анализировать преимущества и недостатки различных типов АЭС.

Ключевые слова: АЭС, реактор, системы охлаждения, КПД, перспективные материалы, технологический риск, экономический риск, технико-технологический риск, затрата, себестоимость.

AES LARNING TAHLILIY TAVSIFLARINI INTEGRATIV O'RGANISH

Аннотация

Mazkur maqolada Oliy ta'limda talabalarning va yosh mutaxassislarining AES larning turlarini va xarakteristikalarini kritik va tahliliy qisqa vaqtda o'rganishiga imkon berishi uchun AES larning tavsiflari tahliliy integrativ va tizimli bayon qilingan.

Kalit so'zlar: AES, reaktor, sovutish sistemalari, FIK, perespektiv materiallar, texnologik xatar, iqtisodiy xatar, texnik va texnologik xavf, sarf-harajat, tannarx.

Kirish. Atom elektr stansiyasi (AES) - bu yadro reaktorlari va zarur tizimlar, qurilmalar, uskunalar va jihozlar majmuasi joylashgan, belgilangan tamoyil va foydalanish sharoitlarida elektr energiya ishlab chiqarish uchun yadroviy inshootdir. Atom elektr stansiyasining zamonaviy energiya bloki texnologik jarayonni ta'minlaydigan murakkab ko'p komponentli avtomatlashirilgan uskunalar, monitoring va boshqarish tizimlari majmuasidir. Energetika sohasini rivojlantirishda ikkita tendensiya mavjud. Birinchisi, texnik vositalarning murakkabligini doimiy ravishda oshirish, qiyin ish sharoitida ularning ishonchligini oshirish, shu jumladan energiya ob'jektining texnologik, radiasion va ekologik xavfsizligiga bog'liq talablarning oshishi bilan bog'liq. Ikkinchisi tendensiya texnologik jarayonlarning boshqaruv tizimlariga kompyuter texnologiyalarini intensiv ravishda joriy etish, shu bilan birga texnik xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonini kamaytirish, AES ishlash jarayonida inson omilini kamaytirish bilan bog'liq. Shu bilan birga, atom elektr stansiyalarining ekspluatatsion ishonchligi va xavfsizligini ta'minlashda mutaxassislarining o'zini hamon asosiy rollardan biri bo'lib qolmoqda.

AES-I - AES-V avlod reaktorlarining pedagogik jarayonda integrativ o'rganish orqali biz ilgari bir-biridan farq qiladigan AES larni bir butun o'zaro bog'liq holda tizimlashtirilgan holda o'rganiladi. Talaba va yosh mutaxassislarini AES larning turlarini tahliliy o'rganib, ularda qaysi birlarini bugungi kunda amaliyotga tadbiiq etish mumkinligi to'g'risidagi xulosalarga kelish imkoniyatini bayon qilamiz.


AES larning foydali ish koeffitsenti GES larning foydali ish koeffitsenti (FIK) dan kichik bo'lsa ham, shamol, issiqlik va Quyosh elektrostansiyalarining FIK dan katta bo'lib, 30-40 % ni tashkil qiladi. AES III+ va AES IV+ larning FIK 50 % va undan ortiq bo'lishi bashorat qilinmoqda. AES larning issiqlik elektrostansiyasiga nisbatan (gaz, ko'mir, neft bilan ishlaydiganlarga nisbatan) atrof - muhitga ko'rsatadigan ta'siri deyarli yo'q [1-6]. Shuning uchun ham bugungi kunda AES larga bo'lgan qiziqish va talab ortib bormoqda. Shu sababli, ushbu maqolada AES larning yaratilishi tarixi hamda ularning turlari, tavsiflari bayon qilinadiki, unda talaba va o'quvchilar hamda yosh mutaxassislar AES turini tanlash, undan foydalanish imkoniyatlari bilan etarli darajada tanishadilar.

AES larning tavsiflari.

Turli xildagi AES larning tavsiflari, yutuqlari va kamchiliklari 1-jadvalda keltirilgan.

AES - I. Birinchi yadroviy reaktor 1942 yil AQSH da E. Fermi boshchiligida qurilgan va ishga tushirilgan. AQSH tashqarisida qurilgan birinchi reaktor 1945 yil 5 sentyabrda Kanadada ham ishga tushirilgan (ZEEP) edi. Yevropada birinchi yadro reaktori F-1 zavodi bo'lib, u 1946 yil 25 dekabrda Moskvada I. V. Kurchatov boshchiligida ishlay boshladi. 1954 yil 27 iyunda Kaluga viloyati Obninsk qishlog'ida A. I. Leypunsk nomidagi Fizika va energetika institutida ("B" laboratoriyasida) AM-1 ("Atom Mirmiy") suv sovutgichli bitta uran-grafit kanalli reaktor bilan jihozlangan dunyodagi birinchi AES ishga tushirildi, quvvati 5 MW bo'lgan.

Yadro reaktori — bu har doim energiya chiqishi bilan, boshqariladigan, o'z-o'zini ta'minlaydigan bo'linish zanjirli reaksiyasini tashkil qilish uchun mo'ljallangan qurilma. Yadro reaktoridagi yadro zanjiri reaksiyasi neytronlar tomonidan qo'zg'atiladi. Boshqariladigan reaksiyani amalga oshirish uchun quyidagi komponentalar kerak: yadro yoqilg'isi, neytron moderatori (neytron energiyasini bo'linish reaksiyasi uchun zarur bo'lgan qiymatlarga kamaytiradi) va reaktor yadrosidan issiqlikni AES larning keyingi barcha turlarida uning issiqlik sistemalari o'zgartirilib, mukammalashtirib borilgan. Shu sababli AES-1 ning issiqlik sistemasi batafsil keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. AES-1 ning issiqlik sistemasi

Shuni ta'kidlash lozimki, AES-I ning qurilib ishga tushganiga 70 yildan ortdi va hanuz faoliyat ko'rsatmoqda. AES larning turlari ularning yoqilg'i turi va tarkibi hamda issiqlik sistemalari bilan farq qiladi. Shuning uchun quyida va 1- jadvalda AES larning qiyosiy hamda integrativ tavsiflari keltiriladi.

AES - II. 2013 yil 23 yanvar kuni Kursk AES-II (Nijniy Novgorod muxandislik kompaniyasi Atomenergoprojekt filiali) qurilishi bo'yicha bosh pudratchi direksiyasi ofisi rasmiy ochilishi bo'lib o'tdi. Zavod Kursk AES ni almashtirish zavodi sifatida rejalashtirilgan, chunki bu resurs muddati tugaydi, shuning uchun Kursk AES-II ning dastlabki ikkita quvvat bloki Kursk AES ning dastlabki ikkita bo'linmasi tugatilishidan oldin foydalanishga topshirilishi kerak (taxminan 2030). Shu munosabat bilan, Rosenergoatom 2012 yilda 2019-2021 yillarda birinchi bloklarni qurilish muddatini qisqartirishga harakat qildi, ammo hozirda 1 — blokning amalda ishga tushirilishi 2024 yilga rejalashtirilgan, ishga tushirish-2025 yilga mo'ljallangan.

Har qanday AES ning ishlashi boshqariladigan yadro zanjiri reaksiyasiga asoslangan. Atom elektr stansiyalari uchun yadro yoqilg'isi uran rudasidan tayyorlanadi, undan tabiiy uran 238 (238U) olinadi va maxsus texnologiyalar bilan uran izotopining 235 (235U) 3-5% gacha boyitiladi, bu esa uni yoqilg'i sifatida ishlatishga yaroqli qiladi, termal neytron reaktori,

olib ketish uchun sovutish suvi ishlatiladi. 235U yadrosi neytron ta'sirida bo'linadi, 2-3 neytron chiqaradi va issiqlik energiyasini chiqaradi. Chiqarilgan neytronlar, o'z navbatida, quyi yadrolarning bo'linishiga sabab bo'ladi (235U). Chiqarilgan issiqlik issiqlik tashuvchisi tomonidan uzatiladi, issiqlik almashtirgichlarda bug' hosil bo'ladi va u turbinaga beriladi. Yadro reaktori ishlash davomida, α , β , va γ nurlanish chiqaradi va reaktor shaxtasi bilan himoyalangan radiatsiya ham hosil bo'ladi.

masalan, BBER. Yoqilg'i boyitilgan urandan plashetlar (tabletkalar) shaklida hosil bo'ladi. Ularning balandligi 9 mm dan 12 mm gacha, diametri esa 7,6 mm dan 20 mm gacha. Ular sirkoniy qotishmasidan tayyorlangan maxsus naychaga yuklanadi. Ushbu material tasodifan tanlanmagan — sirkoniy reaksiya jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi va atrof-muhitga radioaktiv zararlarning chiqishiga to'sqinlik qiluvchi birinchi to'siqdir. Bitta trubaning balandligi 2 ÷ 4 metrni tashkil qiladi.

AES - III avlod reaktori - bu 2 avlod reaktori evolyusiyasi natijasida paydo bo'lgan yadro reaktori. AES III ning tavsiflari 1-jadvalda keltirilgan. Unda xavfsizlik va himoya materiallari takomillashgan holda, uning FIK ni AES I va AES II ga nisbatan katta, sovutish sistemasi mukammalashgan avariya holatlarining ta'siri minimallashtirilgan. Shu sababli jahonda hozirgi kunda eng ko'p ishlab turgan AES lar AES larning uchinchi avlodidir. Ushbu reaktorning xarakterli xususiyatlari yuqori yoqilg'i samaradorligi, yaxshilangan issiqlik samaradorligi, xavfsizlik tizimidagi sezilarli yaxshilanishlar (shu jumladan passiv yadro xavfsizligi) va kapital va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish uchun tuzilmasini (konstruksiyasini) standartlashtirish kerak bo'ladi. Birinchi reaktor III - avlod 6-blokning reaktori Kasivadzaki AYeS 1996 yilda yaxshilangan qaynoq suv reaktori turiga kiradi (2-rasm).



2-rasm. 1996 yilda birinchi operatsion III - avlod reaktoriga aylangan Toshiba ABWR modeli

AES - III+ avlod reaktor konstruksiyalari III avlod reaktorlarining evolyusion rivojlanishini ifodalaydi va III avlod reaktori tuzilishiga nisbatan xavfsizlikni yaxshilaydi. Ishlab chiqaruvchilar 1990-yillarda AQSH, Yaponiya va G'arbiy

Yevropada yengil suvli reaktorni ishlatish tajribasiga asoslanib, III+ avlod tizimlarini ishlab chiqishni boshladilar. Hindistondagi birinchi AES III + avlod reaktori 3-rasmida keltirilgan.



3- rasm. Hindistondagi birinchi III + avlod reaktorlari

VVER - 1200-eng zamonaviy, texnologik jihatdan rivojlangan va xavfsiz rus avlodi AES- III+ reaktori hisoblanadi. AES- III+ reaktori bitta yuklanishda bir yarim yilgacha ishlashi mumkin. Yadro reaksiyasi natijasida juda katta miqdordagi energiya ajralib chiqadi, bu sovutish suvini reaktor orqali 328,8 °C gacha isigan va yuqori bosimda o'tadigan kimyoviy tuzsizlangan suv shaklida bo'ladi. Suv aylanishi yopiq va muhrlangan birlamchi zanjir ichida sodir bo'ladi va kuchli asosiy aylanma nasoslar bilan ta'minlanadi. Issiqlik sistemasida hosil bo'lgan bug' katta bug' quvurlari orqali turbinaga o'tkaziladi, bu yerda uning energiyasi bug' turbinasining milini aylantiradi, u mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantirish orqali elektr energiyasi ishlab chiqariladi. AES- III+ FIK ini shu aspektlar asosida nisbatan yuqori bo'ladi. Lekin, yangi materiallar, yangi issiqlik sistemasi elementlari qo'llanilgani uchun u nisbatan qimmat.

AES-IV bu AES larning kelajak avlodi bo'lib, unda "inson omili" kamaytirilgan, xavf – xatar reaktorni boshqarishida kamaytirilgan. Yadro yoqilg'isini qoldig'ini xavfsiz olish, uni transportirovka qilish amallari mukammallashtirilgan. Yangi boshqarish avtomat sistemalari va yangi materiallar qo'llash rejalashtirilgan. Lekin amalda sinab ko'rilmagan, ya'ni texnik va texnologik xavf – xatar mavjud va AES tannarxi katta.

AES-IV avlod reaktorlari innovasion va evolyusion reaktorlari hisoblanadi. IV avlod reaktorlar to'plamidir, yadro reaktori hozirda xalqaro I avlod forumi tomonidan tijorat maqsadlarida foydalanish uchun tekshirilmogda. Eng ilg'or IV avlod reaktor tuzilishini, tez neytron natriy reaktori, so'nggi yillarda moliyalashtirishning eng katta ulushini oldi, natijada bir qator tajriba inshootlari qurildi. Loyihaning asosiy maqsadi xavfsizlik, barqarorlik, samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish, yopiq yoqilg'i aylanishini ta'minlashtirishdir.

Hozirgi kunda dunyo bo'ylab ishlaydigan reaktorlarning aksariyati II avlod reaktorlari, chunki birinchi avlod tizimlarining

aksariyati ishdan chiqarilgan va III avlod reaktorlari soni 2024 yilga kelib ko'p sonli bo'lib qoldi.

AES-IV+. Bu AES da qo'llanuvchi yangi avtomatik va texnologik sistemalar qo'llanishi belgilangan, avariya holatida tashqi ta'sirsiz AES ning o'zi avtomatik bartaraf qilishi belgilangan. Qo'llanilishi rejalashtirilgan avtomatlashtirilgan va integrallashgan boshqarish va monitoring sistemalari amalda sinab ko'rilmagan va u sistemalar nisbatan qimmat. Reaktor texnologiyalarining IV+ avlodi eng innovasion hisoblanadi. Bunday tizimlar hali dunyoning hech bir joyida to'liq joriy etilmagan. Ajablanarlisi shundaki, bu atama bir necha o'n yillar davomida ishlatilmogda.

Rosatombosh direktorining yangi atom energiyasi maxsulotlarini ishlab chiqish bo'yicha o'rinbosari Aleksandr Lokshin zamonaviy atom energetikasini rivojlantirishning ikkita asosiy muammosi - chiqindilarni boshqarish va tabiiy uranning cheklangan zahiralari ekanligini ta'kidladi [7]. Shuning uchun IV+ avlod tizimlari nafaqat reaktorlarning oldingi avlodlariga (birinchi navbatda xavfsizlik nuqtai nazaridan) qo'yilgan talablarga javob berishi, balki ushbu ikkita asosiy vazifani ham hal qilishi kerak.

AES-V va AES-V+. AES lar klassifikatsiyasida keng yoritilgan. U kelajak AES avlodi bo'lib, asosan nazariy ravishda atom reaktori tuzilishi, uni boshqarish sistemasini mukammallashtirish, atrof – muhitga ta'sirini kamaytirish, issiqlik sistemasi, bug' generatorining yangi turlarini qo'llash rejalashtirilgan. Lekin bu sistemalar amalda AES larga qo'llanilmagan, ular shaxta ichida ishlashi, avariyaning o'zi mustaqil tashqi omilsiz bartaraf qiluvchi sistemalari to'raligicha ishlab chiqilmagan, ishlab chiqilganlari ham amalda sinab ko'rilmagan.

V avlod reaktorlari hali ham qisqa muddatda amalga oshirib bo'lmaydigan nazariy tushunchalardir, bu esa cheklangan ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishga olib keladi [6-8]. Ularning tannarxi juda qimmat bo'lib ularni qurish uzoq muddatda (10 ÷ 12 yilda) amalga oshiriladi.

AES larning tavsifi

1- jadval

№	AES turi	Yutuqlari	Kamchiliklari
	AES – I	Ishonchiligi (nadejnost), energiya mustaqilligi, ekologik tozaligi, ishlatiladigan yoqilg'ining oz miqdori tufayli yoqilg'i manbalaridan amaliy mustaqilligi, yadro yoqilg'isini tashish narxi, an'anaviy yoqilg'idan farqli o'laroq, minimaldir.	Xavfsizligi yetarlicha emas (Rossiya, Chernobil – 1986 y, Yaponiya, Fukusima – 2011 y, AQSH, Montisello - 2022 y). Yadro chiqindilarni qayta ishlash, yuqori sarf – harajat, sovutish suvining nurlanishi mavjud
	AES – II	Xavfsizligi ortgan, sovutish, nazorat va boshqarish nisbatan mukammallashtirilgan, yuqori samaradorligi, nisbatan yuqori FIK, zamonaviy texnologiyalar va materiallar qo'llanilgan	Yadro chiqindilari muammosi, yuqori sarf – harajat, muddatli qurilish, iqtisodiy – boshqa tur manbalarga nisbatan qimmatligi, yadro yoqilg'isi turiga bog'liqligi
	AES – III	III – avlod reaktori – mukammallashtirilgan xavfsizlik, avariya ehtimoligi minimumlashtirilgan, sovutish sistemasi yaxshilangan, samaradorligi (FIK) yuqoriligi, ekologik sharoit yaxshilangan (suvga ta'siri minimumga keltirilgan)	Yuqori sarf – harajat, uzoq muddatli qurilish, qo'llanilgan yangi texnologiyalarning texnik xatari, yadro yoqilg'isi turi va tarkibiga bog'liqligi
	AES – III+	Sistemalarning xavfsizligi orttirilgan, FIK orttirilgan, energiya yoqilg'isi kamaytirilgan, nisbatan ekologik xavfsizlik, atrof – muhitga ta'siri va suv iste'moli kamaytirilgan	Katta sarf – harajat, qurilish ishlari nisbatan qimmat, yangi texnologiyalar noma'lum, yadro yoqilg'isi va uning turiga bog'liq
	AES – IV	Avariyaning oldini olish, avtomatik sistemasi, sovutish, issiqlik uzatish, reaktor nazorati sistemasi yuqori samarador, ishonchliroq, atrof – muhitga ta'siri kamaytiriladi, utilitatsiya sistemasi samarador	Katta sarf – harajat, texnik xatar katta, yangi texnologiyalarning xatari mavjud, yadro yoqilg'isi turiga bog'liq
	AES – IV+	Passiv xavfsizlik, avariyaning oldini olish mukammallashtirilgan sistemasi, nisbatan yuqori FIK, chiqindi bilan ishlash texnologiyasining mukammallashtirishi, integrallashgan va avtomatlashtirilgan monitorlik va boshqarish, yangi materiallar (samarali) qo'llanilishi	Materiallar, texnologiyalar, amalda sinab ko'rilmagan, tannarxi yuqori. Qo'llanilishi mumkin bo'lgan, tavsiya qilingan material va sistemalar amalda ham sinab ko'rilmagan.
	AES – V	Yuqori saviyadagi xavfsizlik, reaktorning yangi konsepsiyasida yaxshilangan samara va iqtisodiy samaradorlik, atrof – muhitga ta'sirining kamaytirilganligi.	Yuqori texnologik va iqtisodiy xatar, tavsiya qilingan materiallar va texnologiyalar amalda sinab ko'rilmagan, yuqori murakkablik darajadagi texnologiyalar, jamiyatning yangi sistemalardan xavfsirashi mavjud, sarf – harajat va qurilish muddatining katta
	AES – V+	Ilg'or texnologiya va sistemalar asosida maksimal xavfsizlik, samarali va iqtisodli (nisbatan), atrof – muhitga ta'siri minimallashtirilgan	Yuqori texnologik va iqtisodiy xatar, mo'ljallangan material va sistemalarni amalda sinab ko'rish talab etiladi, amalda qo'llash murakkabligi, qurilishdagi muammolar, muddati, sarf – xarajating kattaligi.

Xulosa. Keltirilgan tizimlashtirilgan va integrativlashtirilgan materiallar AES larning turlarini kritik va tahliliy qisqa vaqtda o'rganishga imkon berdi. Shuningdek, keltirilgan materillar talabalarning AES lar haqidagi bilimlarini

oshiradi, reaktorlarning turlari, ularning ishlash faoliyatini mukammallashtirish omillari, boshqarish, mavjud xavf – xatarlarni bilishi hamda ulardan qaysi birlarini bugungi kunda amaliyotga tadbiq etish to'g'risidagi xulosalarga kelishiga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ramazanov A.X., Tursunmetov K.A. “Yadro texnologiyalari” fanining “Yadro reaktorlari” Bo'limini integratsion o'qitish omillari. Fizika, matematika va informatika. 2024 yil. № 2, 12-22 b.
2. Asror Ramazanov, Kamiljan Tursunmetov, Erkin Bozorov. The Methods of Integration Training in the Field of Science “Nuclear Physics” “Nuclear Reactors”. International journal of formal education. Volume: 3 Issue: 9 | Sep–2024. ISSN: 2720-6874, p. 53-58
3. Tursunmetov K.A., Ramazanov A.X., Yunusov A.X. AEC ning “Yadro reaktori va uning ishlash prinsipi” mavzusini interaktiv o'rganish aspektlari. “Fizikaning zamonaviy muammolari va rivojlanish istiqbollari”. 1 Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. 22-23 oktabr, 2024 yil. Namangan. 253-255 b.
4. Бекман И.Н. Ядерные технологии. Учебник. 2-ое изд. Москва: Изд. Юрайт, 2020 г. С. 500.
5. Андрианов А.А., Коровин Я.А. и др. Ядерные технологии: история, состояние, перспективы. Учебное пособие. Москва: НИЯУ МИФИ. 2012 г. С. 180.
6. Бойко В.И., Кошелов Ф.П. Ядерные технологии в различных сферах человеческой деятельности. Учебное пособие. Томск, Изд. Томского Политехнического университета, 2008 г. С. 341.
7. Новый атомный эксперт. Технологии 3 апрель 2024 г.
8. Большов, Л. А. Стратегия развития ядерной энергетики России и вопросы экологии. 2019. – № 127, вып. С. 304–309.



Xumora RAXIMOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: rakhimova.xumora@gmail.com

NamDU dotsenti D.Sarimsakova taqrizi asosida

O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA REFLEKTIV AMALIYOTNI O'TKAZISH MODELLARINING O'RNI

Аннотация

Mazkur maqolada reflektiv amaliyot (RA)ning o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati o'rganilgan. RAni tashkil qilishda foydalaniladigan turli modellarning o'xshashlik va farqlari tahlil qilingan. Gibbs modeli, Kortagen va Vasalosning Piyozi modeli hamda Farrellning "Amaliyotda Refleksiya Asosi" modellari tadqiq qilinib, ularning o'ziga xos yondashuvlari ko'rsatib berilgan. Har bir modelning ta'lim jarayonida samarali qo'llanishi uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Reflektiv amaliyot, Gibbs modeli, Piyozi modeli, Farrell modeli, kasbiy rivojlanish, o'qituvchilar.

THE ROLE OF REFLECTIVE PRACTICE MODELS IN FORMING A TEACHER'S PROFESSIONAL COMPETENCE

Annotation

This article examines the role and significance of Reflective Practice (RP) in teachers' professional development. It analyzes the similarities and differences between various RP models. The study focuses on Gibbs' Reflective Cycle, Korthagen and Vasalos' Onion Model, and Farrell's Framework for Reflective Practice, highlighting their unique approaches. Recommendations are provided for the effective application of each model in the educational process.

Key words: Reflective Practice, Gibbs' Model, Onion Model, Farrell's Model, Professional Development, Teachers.

РОЛЬ МОДЕЛЕЙ РЕФЛЕКСИВНОЙ ПРАКТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль и значение рефлексивной практики (РП) в профессиональном развитии учителей. Проведен анализ сходств и различий различных моделей организации РП. Изучены модели Гиббса, модели «Луковицы» Кортгена и Васалоса, а также модель «Основы рефлексии в практике» Фаррелла. Предложены рекомендации по эффективному применению каждой из моделей в образовательном процессе.

Ключевые слова: Рефлексивная практика, модель Гиббса, модель «Луковица», модель Фаррелла, профессиональное развитие, учителя.

Kirish. Bugungi ta'lim tizimida o'qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishi, o'z ustida ishlashi va har tomonlama yetuk kadr bo'lishi talab qilinmoqda. Reflektiv amaliyot (RA) kasbiy rivojlanishning bir bo'g'ini sifatida rivojlanib ommalashib kelmoqda. Biroq, o'qituvchilar RAni tashkil qilishda bir necha muammolarga duch kelishadi va bu qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun RAning to'g'ri tashkil qilish uchun modellarni o'rganish va muqobil yechim topish asosiy masala hisoblanadi.

Reflektiv amaliyotni tashkil qilishning aniq bir shabloni, jarayonlar ketma-ketligi yo'q. Har bir o'qituvchi o'zining bilimi, his tuyg'usi, dunyoqarashi va yondashuvi asosida reflektiv amaliyotni tashkil qiladi. Shuning uchun ham bunday faoliyatni aniq bir mezon asosida baholab ham bo'lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Reflektiv amaliyotning mazmuni va vazifasini tushunish uchun bir qancha nazariy yondashuvlar mavjud. Reflektiv amaliyot o'qituvchi ta'limiga qanday kirib kelganligi haqida ham bir necha dalillar bor. John Dewey (1933) reflektiv amaliyotni quyidagicha ta'riflaydi: reflektiv amaliyot - muammoni yechish amaliyoti bilan o'xshash bo'lib, insonning avvaldan yig'ilgan tajribalari asosida mavjud muammoni yechimini topishga qaratilgan faoliyat turidir [1].

RA - tizimli fikrlash vositasi sifatida o'qituvchilarning oldingi tajribasini, o'z bilim va e'tiqodlaridan olingan dalillarni muntazam ravishda o'rganib, noto'g'ri qarorlar qabul qilishni oldini olib, oqilona yechim topishga qaratiladi.

Shon (1983) fikrlash jarayonining uzluksizligini hisobga olish uchun RA konsepsiyasini amaliyotning o'tkazish davrini kiritish orqali kengaytirgan. RA nafaqat o'qitish jarayonidan keyin, balki shu jarayonning ichida ham sodir bo'lishi mumkin [2]. Shonning fikricha o'qituvchilar avvalgi tajribalarini aniq tushunishlari asosida kelajakdagi o'qitish tajribasi haqida qaror qabul qilishadi.

"Reflektiv amaliyot odatda o'qituvchilarning kelgusidagi o'qitishlarini yaxshilash maqsadida o'z tajribalarini analiz qilish va baholash uchun dalillarni yig'ishning sikllik va tizimli so'rov shakli hisoblanadi" [3].

"Reflektiv amaliyot o'qituvchilarning rivojlanishi uchun ma'no yaratish jarayondir" [4]. Reflektiv amaliyot nafaqat muammolarga yaxshi yechim topish uchun, balki yechim topish jarayonida g'oyalar va tajribalarni umumlashtirib o'qituvchilar o'zlarini chuqurroq tushunish uchun ham tashkil qilinadi.

Reflektiv amaliyot bo'lajak o'qituvchilarga o'qitish faoliyatini mustahkamlashga, kelib chiqadigan muammolarga muqobil yechim topishga yordam beruvchi faoliyat turi hisoblanadi.

Kortagen (2017)ning fikricha faoliyatini yangi boshlagan o'qituvchilar reflektiv amaliyot orqali nimaga qodirliklarini aniqlab olishlari oson bo'ladi[5].


Reflektiv amaliyot o'qituvchi shaxsiyati va sifatini oshiradi. RA orqali shaxsiyat o'z imkoniyatini aniqlash orqali rivojlansa, o'qituvchi sifati kasbiy rivojlanishi ya'ni biror bir bilimga ma'lum bir kontekstda egallay olish uchun muhit yaratadi. Adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, RA o'qituvchining shaxsini va o'qituvchi sifatini o'zgartirishga xizmat qiluvchi asosiy faktor hisoblanadi.

RA o'z - o'zini kuzatish, analiz ya'ni yutuq va kamchiliklarini aniqlash va o'z o'zini baholash uchun yordam beruvchi mexanizm hisoblanadi.

Weight(2010) RA nafaqat o'qituvchi hatti-harakatlarini kuzatishga, balki fikrarni yanada mazmunli qilish strategiyalariga ham e'tibor qaratilish kerakligini ta'kidlaydi. Shu sababli RA harakatga yo'naltirilgan amaliyotdan ma'noga yo'naltirilgan amaliyotga o'zgartirishga harakat qiladi [6].

O'qituvchilarning o'z o'zlarini anglashlari ularning kasbiy faoliyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mortarining (2012) ongni rivojlantirish amaliyoti konseptsiyasiga ko'ra, sinfdagi muammolarni hal qilishda va talabalarning ehtiyojlarini aniqlab, javob berishdan oldin o'zlarining ichki dunyolariga e'tibor berish muammolarga to'g'ri yechim topishga yordam beradi[7].

Gibbs (1988) tomonidan ishlab chiqilgan "Reflective cycle" (reflektiv sikl) tamoyili RA o'tkazishga mukammal yo'riqnomalardan biri hisoblanadi. Gibbning reflektiv sikli o'qituvchilarning hozirgi kundagi mavjud muammolarini aniqlab yechim topishdan tashqari, kelgusi faoliyatlarida reflektiv fikrlashlariga yordam beruvchi zamin yarata oladi.



1-rasm. Gibbning(1988) "Reflektiv sikli" [8]

Description (tavsif) – vaziyatni tushunish, nimalar sodir bo'layotganligini anglash.

Feeling (hissiyot) –vaziyatga nisbatan nimani his qilishlarini aniqlab olish.


Evaluation (baholash) – vaziyatni baholay olish qobiliyatini shakllantirish.

Analysis (tahlil) – vaziyatga tanqidiy tahliliy yondashuvni shakllantirish.

Conclusion (xulosa) – vaziyatni mantiqiy xulosalay olish qobiliyatini shakllantirish.

Action plan (harakat rejasi) – kelgusidagi o'xshash vaziyatlar uchun tayyor yechimli reja tayyorlab qo'yish kerak.

Kortagen va Vasalos (2005) ishlab chiqqan "Piyoz model"i RA bajarilganda vaziyatning chuqur ma'nosini anglashga yordam beradi. Ushbu model o'qituvchiga o'z amaliyotini tizimli ravishda tahlil qilish, o'zgarishlarni amalga oshirish va pedagogik qarashlarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Piyoz modeli o'qituvchilarni kasbiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan ichki va tashqi omillarni tushunishga va ularga asoslanib faoliyatlarini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Reflektiv amaliyotda piyoz modelining qatlamlari quyidagilardan iborat:



2-rasm. Kortagen va Vasalos(2005)ning "Piyoz modeli"

Environment (atrof-muhit (tashqi qatlam)): E'tiborni tashqi omillarga qaratadi, masalan, harakatlar sodir bo'ladigan jismoniy yoki ijtimoiy kontekst.

Behavior (xulq-atvor): Vaziyat davomida qilingan harakatlarni tekshiradi.

Competencies (Kompetentsiyalar): Vaziyat davomida qo'llaniladigan bilim, ko'nikma va ko'nikmalar bilan bog'liq.

Beliefs (E'tiqodlar): Xulq-atvoriga ta'sir qilgan shaxsiy e'tiqod va taxminlarni o'rganadi.

Identity (Identifikatsiya(asosiy qatlam)): Kasbiy o'zlik va maqsadning chuqurroq tuyg'usiga qaraydi.

Mission (Missiya(eng ichki yadro)): O'zining professional hayotidagi yakuniy maqsadi, qadriyatlari yoki missiya hissini hisobga oladi.

Farrell(2015)ning "Amaliyotda refleksiya asosi" modeli o'qituvchilarga, xususan, til o'qituvchilariga ularning kasbiy amaliyotlarini tizimli ravishda tahlil qilish va takomillashtirishga yo'naltirish uchun mo'ljallangan keng qamrovli modeldir. Bu beshta asosiy bosqichdan iborat bo'lib ular:



3-rasm. Farrell(2015)ning "Amaliyotda refleksiya asosi" modeli

Philosophy (Amaliyot falsafasi) – O'qituvchilarni o'qitish va o'rganishga oid shaxsiy e'tiqodlari, qadriyatlari va taxminlarini ifoda etishga undaydi. Ushbu e'tiqodlar ularning sinfdagi qarorlari va xatti-harakatlariga qanday ta'sir qilishini tushunish.

Principles (Amaliyot tamoyillari) – Shaxsiy falsafani o'qitishning o'ziga xos strategiyalari va yondashuvlariga tarjima qilishga qaratilgan. O'qitish amaliyoti insonning e'tiqodiga mos kelishini ta'minlash.

Theory (Amaliyot nazariyasi) – O'qituvchining metod va uslublari asosidagi nazariy asoslarni o'rganadi. O'qitish amaliyotini o'rnatilgan ta'lim nazariyalari bilan bog'lash.

Practice (Amaliyot) – Darsni o'tkazish, o'zaro aloqalar va boshqaruvni o'z ichiga olgan haqiqiy sinf amaliyotlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Harakatda o'qitishni tanqidiy baholash va takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash.

Beyond practice (Amaliyotdan tashqarida) – Ta'limning kengroq kontekstini, jumladan, institutsional siyosat, jamiyat

talablari va professional rollarni o'rganadi. Ta'limga tashqi omillar qanday ta'sir qilishini tushunish va o'zgarishlarni himoya qilish yo'llarini ko'rib chiqish.

Yuqoridagi uch modellar ham reflektiv amaliyotni tashkil qilishda muhim yo'nalishlar hisoblanadi. Quyida bu modellarning o'xshashlik va bir biridan farqli tomonlarini tahlil qilamiz. Biroq, reflektiv amaliyotni qaysi bir modelga asoslanib o'tkizilsa, u mukammal samara beradi degan tushuncha yo'q.

Natijalar va muhokama. Gibbning "Reflektiv sikli", Kortagen va Vasalosning "Piyoz modeli" va Farrellning Farqlar 1-jadval

	Gibbsning Reflektiv sikli	Kortagen va Vasalosning Piyoz modeli	Farrellning "Amaliyotda refleksiya asosi"
Fokus (maqsad)	Muayyan tajribalar yoki voqealarni batafsil aks ettiradi.	Kasbiy harakatlarni boshqaradigan asosiy qadriyatlar, o'ziga xoslik va e'tiqodlarni o'rganadi.	Nazariy bilimlarni sinf amaliyotlari va kengroq o'qitish falsafasi bilan bog'laydi.
Tuzilishi	Olti bosqichli chiziqli sikl.	Qatlamli, tashqi muhitdan ichki qadriyatlarga o'tish.	Tematik, bir-biriga bog'langan beshta domenni qamrab oladi.
Mulohaza chuqurligi	Ko'pincha vaziyatga va voqealarga yo'naltirilgan; tanqidiy ishtirok etmasa, yuzaki aks ettirishga olib kelishi mumkin.	Amaliyotni shaxsiy o'ziga xoslik va missiya bilan bog'laydigan chuqur, yaxlit fikrlashni rag'batlantiradi.	Nazariy, amaliy va falsafiy integratsiyaga e'tibor qaratadi.
Natija	Darhol o'rganish va muayyan vaziyatlar uchun harakat qilish rejalarini.	Harakatlarning o'ziga xoslik va missiya bilan uzoq muddatli uyg'unligi.	Amaliy takomillashtirish va falsafiy izchillik uchun tushunchalar.
Kontekst	Shoshilinch muammolarni hal qilish yoki alohida tajribalarni aks ettirish uchun.	Uzoq muddatli kasbiy rivojlanish va o'z-o'zini kashf qilish.	Nazariya, amaliyot va ijtimoiy rollarni muvozanatlashtirgan o'qituvchilar uchun.

Bir vaziyatga turli tomondan qarashga yordam beruvchi bu asoslarni amaliyotda ishlatilganda quyidagicha natija olish mumkin:

Xulosa. RA o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, yuqorida tahlil qilingan uch modellar orqali amalga oshirilishi mumkin. Har bir modelning o'ziga xos yondashuvlari va qo'llanish konteksti mavjud. Ularni amaliyotda qo'llash orqali o'qituvchilar o'z tajribalarini tahlil qilish va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, har bir asos maqsadidan kelib chiqib muammoli vaziyatga to'g'ri yechim bera oladi deb

"Amaliyotda refleksiya asosi" modellari o'qituvchilarning reflektivlik orqali o'z-o'zini anglash, kasbiy o'sish va takomillashtirilgan amaliyotni rivojlantirishga qaratilgan. Har bir model reflektiv amaliyot uchun tizimli yondashuvni taklif qiladi. Biroq, ushbu taklif etilgan uch modellar o'qituvchilardan tanqidiy fikrlashni talab qilishi bilan bir qatorda maqsadi, tuzilishi, fikrlash darajasi, natija va kontekstiga ko'ra farq qiladi. Quyida ushbu farqlarni ko'rishimiz mumkin (1-jadvalga qarang)

xulosa qilish mumkin. Demak, bo'lajak o'qituvchilarga reflektiv amaliyot o'tkazish bo'yicha keng tarqalgan modellarni ishlash tartibini tushuntirish va amaliyotda qo'llash orqali kelajakda uzluksiz kasbiy rivojlanish va turli xil vaziyatlarga mos yechim topa olishlariga yordam beradi.

Muammoli vaziyat. Oliy ta'lim o'qituvchisi guruh muhokamasi orqali talabalarning tanqidiy fikrlashi va ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan darsni tashkil qildi. Biroq, talabalar jim turishdi va muhokama yaxshi o'tmadi.

ADABIYOTLAR

- Dewey, J. (1933). *How We Think*. Boston: D.C. Heath and Co.
- Schön, D. A. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. New York: Basic Books.
- Farrell, T. S. C. (2016). TESOL, a profession that eats its young! The importance of reflective practice in language teacher education. *Iranian Journal of Language Teaching Research*, 4(3), 97–107.
- Rodgers, C. (2002). Defining reflection: Another look at John Dewey and reflective thinking. *Teachers College Record*, 104(4), 842–866.
- Korthagen, F., & Vasalos, A. (2005). Levels in reflection: Core reflection as a means to enhance professional growth. *Teachers and Teaching: Theory and Practice*, 11(1), 47–71.
- Weight, R. (2010). *Reflections on Teaching Practice: Towards Meaningful Change*. London: Educational Insights Press.
- Mortari, L. (2012). Mindfulness in reflective practice: Developing an awareness-based approach to classroom challenges. *Journal of Educational Philosophy*, 18(4), 245–260.
- Gibbs, G. (1988). *Learning by Doing: A Guide to Teaching and Learning Methods*. Oxford: Oxford Polytechnic.



Shirin RAXIMOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
E-mail: shirinrakhimova13@gmail.com

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, f.f.d U.Tursunova taqrizi asosida

GLOBALIZATION OF THE MODERN ECONOMY REQUIRES KNOWLEDGE OF ENGLISH AS A KEY SKILL FOR SPECIALISTS IN THE FIELD OF ECONOMICS

Annotation

New market conditions require knowledge of a professionally oriented foreign language. Uzbekistan has undergone significant socio-economic changes in recent years. The government's desire to liberalize and internationalize the economy increases the demand for qualified specialists in the field of economics, who not only have a good understanding of their subject, but also have practical skills in demand in the modern labor market. However, the current education system in Uzbekistan does not provide graduates with the theoretical knowledge and practical skills necessary for success in a modern career.

Key words: Global, economist, liberalization, differentiated education, professional, English language, differentiated approach, education system.

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ ТРЕБУЕТ ЗНАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА КАК КЛЮЧЕВОГО НАВЫКА ДЛЯ СПЕЦИАЛИСТОВ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ В СФЕРЕ ЭКОНОМИКИ

Аннотация

Новые условия рынка требуют знание профессионально направленного иностранного языка профессионально направленного. Узбекистан претерпел значительные социально-экономические изменения за последние годы. Стремление правительства к либерализации и интернационализации экономики увеличивает спрос на квалифицированных специалистов в области экономики, которые не только хорошо разбираются в своем предмете, но и обладают практическими навыками, востребованными на современном рынке труда. Однако действующая система образования в Узбекистане не обеспечивает выпускников теоретическими знаниями и практическими навыками, необходимыми для успеха в современной карьере.

Ключевые слова: Глобальный, экономист, либерализация, дифференцированное образование, профессиональное, английский язык, дифференцированный подход, система образования.

ZAMONAVIY IQTISODIYOTNING GLOBALLASHUVI IQTISODIYOT SOHASIDAGI IQTISODCHILAR UCHUN ASOSIY KO'NIKMA SIFATIDA INGLIZ TILINI BILISHNI TALAB QILADI

Аннотация

Yangi bozor sharoitlari kasbiy yo'naltirilgan chet tilini bilishni talab qiladi. Zamonaviy iqtisodiyotning globallashtirish tabiati iqtisodiy mutaxassislar uchun asosiy ko'nikma sifatida ingliz tilini bilishni talab qiladi O'zbekistonda keyingi yillarda muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Hukumatning iqtisodiyotni liberallashtirish va xalqarolashtirishga bo'lgan intilishi iqtisodiyot sohasida nafaqat o'z fanini puxta egallagan, balki zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan malakali mutaxassislar talab ortib bormoqda. Biroq, O'zbekistondagi mavjud ta'lim tizimi zamonaviy kadrlarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan nazariy bilim va amaliy malakalarga ega bo'lgan bitiruvchilarni tayyorlashda ehtiyoji bor.

Kalit so'zlar: Global, iqtisodchi, liberallashtirish, tabaqalashtirilgan ta'lim, kasb-hunarga, ingliz tili, differentsial yondashuv, ta'lim tizimi.

Kirish. Tez o'zgaruvchan ishbilarmonlik muhitiga moslasha oladigan iqtisodchi mutaxassislar ehtiyoj keskin bo'lgan O'zbekiston sharoitida kasb-hunarga yo'naltirilgan tabaqalashtirilgan ta'lim iqtisodiy o'quv dasturlar sifatini va dolzarbligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Amaliy, sanoatga xos tarkibni o'z ichiga olgan holda, talabalar kelajakdagi martaba uchun yaxshiroq tayyorgarlik ko'rishlari mumkin. Bu yondashuv bozor tahlili, moliyaviy rejalashtirish, ma'lumotlar tahlili va xalqaro biznes amaliyoti kabi sohalarni qamrab olishi mumkin – bularning barchasi O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi va rivojlanishiga juda mos keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim va kasbiy yo'naltirilgan tabaqalashtirilgan amaliyotning keng doirasiga ko'plab olimlar bebaho hissa qo'shdilar. Ular orasida Abdurahmonova (2022), Gessler (2017), Nagovitsin, senator va Maksimova (2017), Happ va Zlatkin-Troitschanskaya (2018), Sultana (2019), Asrifan, Vargheese va Syamsu (2020), Forsberg (2020) bor. (2018), Nylund, Rosvall va Ledman (2017), Xasanova (2020), Dejardins (2017), Venkatraman va de Souza-Dow (2018), Billingsley va Bettini (2019), Qizi (2020), Pavlova (2017), Terentyeva, Kirillova va Kirillova (2018), König, Jäger-Biela va Glutsch (2020), Bergmark, Lundström va Manderstedt (2018), Smolentseva, Huisman (2018), Esmond and Wood (2017), Monteiro, va Gomes (2022), Nylund, Rosvall, Eiriksdóttir, and

Holm (2018), Toscher (2019) va boshqalar. Ularning ishi kasb-hunar ta'limi, tilni baholash savodxonligi, o'qituvchilar malakasini oshirish va oliy ta'limning murakkab manzarasini o'z ichiga olgan keng spektrni o'z ichiga oladi. Ushbu olimlar birgalikda tabaqalashtirilgan ta'limning ko'p qirrali sohasining panoramali ko'rinishini taqdim etadilar, bu esa adolatli va imkoniyatlarni kengaytiruvchi ta'lim muhitini ta'minlovchi tamoyillar va amaliyotlar haqidagi tushunchamizni kuchaytiradi.

Oliy ta'lim va kasbiy yo'naltirilgan tabaqalashtirilgan amaliyotlar bo'yicha keng ko'lamli ilmiy ishlar doirasida bir qancha muhim hissalar ajralib turadi. Gessler (2017) kasbiy ta'limda mehnat va malakaga yo'naltirilganlikning muhimligini ta'kidlab, moslashuvchan pedagogik yondashuvlar zarurligini ta'kidlaydi. Nagovitsyn, Senator, and Maximova (2017) uzluksiz kasbiy ta'limga kirib, akademik va iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish uchun individual tabaqalashtirilgan ta'lim tizimlarining qiymatini ta'kidlaydi. Happ va Zlatkin-Troitschanskaya (2018) kasbiy yo'naltirilgan tabaqalashtirilgan pedagogik dizayn uchun muhim bo'lgan oldingi iqtisodiy ta'limning universitet talabalariga ta'sirini yoritib beradi. Sultana (2019) ingliz tili o'qituvchilari uchun tilni baholash savodxonligini ko'rib chiqadi va turli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli kasbiy tayyorgarlikni qo'llab-quvvatlaydi. Asrifan, Vargheese va Syamsu (2020) talabalarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun

tabaqalashtirilgan o'quv materiallarini qo'llab-quvvatlab, ESP kurslarini loyihalashga e'tibor qaratadi. Ushbu olimlar birgalikda oliy ta'limdagi kasbiy yo'naltirilgan tabaqalashtirilgan amaliyotni chuqurroq tushunishga hissa qo'shadilar, moslashish, farqlash va talabalar xilma-xilligiga yaxlit yondashuvni ta'kidlaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonning hozirgi ta'lim tizimi talabalarni iqtisod yo'nalishi bo'yicha kasbga munosib tayyorlashda bir qancha muammolarga duch kelmoqda. An'anaviy, ma'ruzaga asoslangan yondashuv ko'pincha talabalarga amaliy tajriba bilan ta'minlay olmaydi, bu esa iqtisodiy nazariyalarni amaliy sharoitlarda qo'llash uchun zarurdir. Bundan tashqari, ingliz tilidagi to'siq ko'plab talabalar uchun muhim to'siq bo'lib, ularning qimmatli xalqaro resurslar va imkoniyatlardan foydalanishini cheklaydi. Faktorlarning bu kombinatsiyasi o'zbekistonlik bitiruvchilarning jahon mehnat bozorida umumiy raqobatbardoshligiga to'sqinlik qiladi.

Kasbiy yo'naltirilgan tabaqalashtirilgan ta'lim ushbu muammolarni samarali hal qilishi mumkin. O'quv dasturini mehnat bozori talablariga moslashtirib, talabalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'libgina qolmay, balki kelajakdagi martabalarida qo'llaniladigan qimmatli ko'nikmalarga ham ega bo'ladi. Differentsial yondashuv o'qitishda moslashuvchanlikni ta'minlab, o'quvchilarning turli iqtisodiyot tarmoqlariga mos va mos keladigan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, ingliz tilini bilish darajasini ushbu yondashuvning ajralmas qismi sifatida kiritish talabalarning ishga joylashishini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ingliz tilida samarali muloqot qila oladigan ikki tilli mutaxassislar jahon mehnat bozorida yuqori talabga ega. Iqtisodiyot o'quv dasturining bir qismi sifatida ingliz tilini o'qitish ushbu lingvistik bo'shliqni bartaraf etishi va o'zbekistonlik bitiruvchilar uchun xalqaro maydonda ishlash imkoniyatlarini ochishi mumkin.

Kasbiy yo'naltirilgan ta'lim haqida gapirganda, biz tillarni maxsus maqsadlarda yoki ESP uchun o'rganishni albatta eslatib o'tishimiz kerak. Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) - bu ma'lum bir soha yoki kasbdagi talabalarning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan ingliz tili ko'nikmalarini o'rgatish va o'rganishni tavsiflash uchun ishlatiladigan atama. ESP muhimligining eng muhim sabablaridan biri shundaki, u o'quvchilarga o'z sohasi yoki kasbiga eng mos keladigan til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. ESP uzoq va qiziqarli tarixga ega, ba'zilar aytishlaricha, Rim va Yunoniston imperiyalariga borib taqaladi. Xorijiy yoki ikkinchi til harakati.

ESP mutlaq va o'zgaruvchan xususiyatlarga ega.

1. Mutlaq xususiyatlar:

ESP o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan;

ESP o'zi xizmat qiladigan fanlarning asosiy metodologiyasi va faoliyatidan foydalanadi;

ESP asosiy e'tiborni til (grammatika, lug'at), ko'nikmalar, nutq va faoliyatga tegishli janrlarga qaratadi.

2. O'zgaruvchan xususiyatlar:

ESP muayyan fanlar bilan bog'liq yoki mo'ljallangan bo'lishi mumkin;

Maxsus ESP o'qitish holatlari umumiy ingliz tilidan boshqa metodologiyadan foydalanishi mumkin; ESP, ehtimol, oliy ta'limda yoki kasbiy kasbda ishlaydigan katta yoshli talabalarga mo'ljallangan;

ESP keng doiradagi professional kontekstlarda aloqa va ish faoliyatini yaxshilash uchun samarali vosita bo'lishi mumkin;

ESP talabalarga mansab maqsadlariga eng mos keladigan til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin;

ESP, shuningdek, madaniyatlararo muloqot va tushunishni rivojlantirishning muhim vositasi bo'lishi mumkin.

O'z ish sohasida eng ko'p qo'llaniladigan lug'at, grammatika va muloqot strategiyalariga e'tibor qaratish orqali talabalar yanada ishonchli va samarali muloqotchilarga aylanishlari va o'z ishlarining mazmuni va kontekstini yaxshiroq tushunishlari va ular bilan shug'ullanishlari mumkin. ESP muhimligining yana bir sababi shundaki, u talabalarga o'zlarining martaba maqsadlariga mos keladigan til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'z sohasi yoki kasbi bo'yicha eng ko'p talab qilinadigan til ko'nikmalariga e'tibor qaratish orqali talabalar o'zlarining ish bilan ta'minlanishlari va martaba

istiqbollarini oshirishlari va tanlagan sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshi mavqega ega bo'lishlari mumkin.

O'zbekistonning zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarni iqtisod yo'nalishi bo'yicha kasbga munosib tayyorlashda qator muammolarga duch kelmoqda. An'anaviy ma'ruzaga asoslangan yondashuv ko'pincha talabalarga iqtisodiy nazariyalarni berib amaliyotda qo'llash uchun zarur bo'lgan amaliy tajribani bermaydi. Bundan tashqari, ingliz tili ko'plab talabalar uchun muhim to'siq bo'lib, ularning qimmatli xalqaro resurslar va imkoniyatlardan foydalanishini cheklaydi. Faktorlarning bunday kombinatsiyasi o'zbekistonlik bitiruvchilarning jahon mehnat bozorida umumiy raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Tabaqalashtirilgan kasbiy yo'naltirilgan ta'lim ushbu muammolarni samarali hal qilishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu yondashuvning ajralmas qismi sifatida ingliz tilini bilish talabalarning ishga joylashishini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ingliz tilida samarali muloqot qila oladigan ikki tilli mutaxassislar jahon mehnat bozorida yuqori talabga ega. Iqtisodiyot o'quv dasturining bir qismi sifatida ingliz tilini o'rgatish ushbu til bo'shlig'ini bartaraf etishi va o'zbekistonlik bitiruvchilar uchun xalqaro martaba imkoniyatlarini ochishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy iqtisodiyotning globalashgan tabiati iqtisodiy mutaxassislar uchun asosiy ko'nikma sifatida ingliz tilini bilishni talab qiladi. Ingliz tili xalqaro biznesning tili bu tilni bilish samarali muloqot va muzokaralar olib borish va xalqaro resurslarning boyligiga kirish uchun zarurdir. Shu bois mazkur masalaga bag'ishlangan ko'plab ishlarda ingliz tilini o'qitishdan amaliy misol sifatida foydalaniladi va iqtisodiyot sohasida kasbiy yo'naltirilgan tabaqalashtirilgan ta'limni qanday amalga oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Iqtisodiyot sohasida kasbiy yo'naltirilgan tabaqalashtirilgan ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish ta'lim muassasalari, davlat va xususiy sektor o'rtasida muvofiqashtirilgan sa'y-harakatlarni talab qiladi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish, o'qituvchilarni tayyorlash va amaliy mashg'ulotlar uchun resurslar bilan ta'minlash - bularning barchasi ushbu yondashuvning hal qiluvchi tarkibiy qismlaridir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyot sohasida ingliz tilini o'qitishning dolzarbligini bizning o'zaro bog'langan va globalashib borayotgan dunyomizda ortiqcha baholab bo'lmaydi. Ingliz tili xalqaro biznes, moliya va savdoning lingua francasiga aylandi va bu iqtisod talabalari va mutaxassislari uchun muhim mahoratga aylandi.

Ingliz tilini bilish ko'plab resurslar, jumladan, akademik jurnallar, xalqaro iqtisodiy hisobotlar va asosan ingliz tilida muloqot qiladigan mutaxassislar va muassasalarning keng tarmog'iga eshiklarni ochadi. Iqtisodiyot fakulteti talabalari tilni o'zlashtirib olish orqali kengroq bilimlarga ega bo'lishadi, bu esa so'nggi iqtisodiy o'zgarishlardan xabardor bo'lish va sohada tadqiqot olib borish uchun juda muhimdir.

Bundan tashqari, iqtisod fanini ingliz tilida o'rgatish talabalarning jahon miqyosida ish bilan ta'minlanishini oshiradi. Ko'pgina transmilliy korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar ingliz tilida samarali muloqot qila oladigan xodimlarni talab qiladi. Iqtisodiy tushunchalarni yaxshi bilgan va ularni ingliz tilida etkaza oladigan talabalar mehnat bozorida raqobatlashish va milliy chegaralardan oshib ketadigan martabalarini egallash uchun yaxshiroq joylashadilar.

Bundan tashqari, iqtisodiyotning xalqaro tabiati turli tillarga mansub tengdoshlar, hamkasblar va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik va muloqotni talab qiladi. Ingliz tilini bilish iqtisodchilarga global munozaralarda qatnashish, xalqaro shartnomalar bo'yicha muzokaralar olib borish va murakkab iqtisodiy muammolarni hal qilishda hissa qo'shish imkonini beruvchi bu o'zaro munosabatlarni tartibga soladi.

Xulosa. Iqtisod fanidan ingliz tilida dars berish qobiliyati nafaqat talabalarning ta'lim tajribasini boyitibgina qolmay, balki ularni globalashgan va o'zaro bog'langan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun qurollantiradigan qimmatli mahoratdir. Ushbu kichik bo'lim iqtisod bo'yicha kasbiy yo'naltirilgan ta'limning asosiy tarkibiy qismi sifatida tilni bilishning ahamiyatini o'rganadi, uning iqtisodiy mutaxassislar kelajagini shakllantirishdagi rolini ko'rsatadi. Iqtisod yo'nalishi

bo'yicha talabalarni tayyorlashda kasb-hunarga yo'naltirilgan tabaqalashtirilgan ta'limdan foydalanish, ingliz tilini o'qitishga alohida e'tibor qaratilgan O'zbekiston sharoitida nafaqat dolzarb, balki juda zarurdir. U nazariy bilimlar va amaliy qo'llash o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish, bitiruvchilarni jahon

iqtisodiyotida ustunlikka erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va til bilimlari bilan jihozlash imkoniyatiga ega. O'zbekiston o'zining iqtisodiy taraqqiyot yo'lida davom etar ekan, ushbu metodologiyani qo'llash yorug' kelajak sari o'zgartiruvchi qadam bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони //www. lex.uz
2. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A Learner-Centered Approach*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Dudley-Evans, T., & St. John, M. J. (1998). *Developments in English for specific purposes: A multi-disciplinary approach*. Cambridge University Press.
4. Robinson, P. (1991). *ESP Today: A Practitioner's Guide*. Prentice Hall.
5. Swales, J. (1990). *Genre Analysis: English in Academic and Research Settings*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
6. Basturkmen, H. (2010). *Developing Courses in English for Specific Purposes*. Basingstoke: Palgrave Macmillan.
7. Swales, J. (1990). *Genre Analysis: English in Academic and Research Settings*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
8. Basturkmen, H. (2010). *Developing Courses in English for Specific Purposes*. Basingstoke: Palgrave Macmillan.
9. Shirin U. Rakhimova Development of information and communication technologies is an excellent opportunity for teaching foreign languages *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*
10. Swales, J. M. 19 84. Thoughts on, in and outside the ESP Classroom. In G. James (Ed.) *The ESP Classroom*. Exeter Linguistic Studies 7. Exeter: University of Exeter.
11. Swales, J. M. 19 8 5. ESP - The heart of the matter or the end of the affair? In R. Quirk and H. Widdowson (Eds.) *English in the World: Teaching and Learning the Language and the Literatures*. Cambridge: Cambridge University Press in association with The British Council.
12. Swales, J. M. 1988. *Episodes in ESP*. Hemel Hempstead: Prentice Hall International.



UDK:323.327.151(575.1)

Sanjarbek RASHIDOV,
O'zJOKU Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori
E-mail: regressant@gmail.com

ToshDShU o'qituvchisi, PhD H.Azimov taqrizi asosida

YOUTH AS OBJECTS AND SUBJECTS OF MODERN POLITICAL PROCESSES

Annotation

Today the role, activity and support of young people are considered in the global context, as the activity and initiative of young people in political processes forms a sense of responsibility for the development of the state and society, democratic reforms, and, as a result, serves as a guarantee of sustainable development and a decent lifestyle in the country.

Key words: Sustainable development, goals, criteria, scientific approach, modern world, youth policy, youth support, youth welfare and prospects.

МОЛОДЕЖЬ КАК ОБЪЕКТЫ И СУБЪЕКТЫ СОВРЕМЕННЫХ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ

Аннотация

Сегодня активность и инициатива молодежи в политических процессах, формирование чувства ответственности за развитие государства и общества, формирование чувства ответственности за демократические реформы и, как следствие этого, роль рассматриваются молодые люди, их активность и поддержка.

Ключевые слова: Устойчивое развитие, цели, критерии, научный подход, современный мир, молодежная политика, поддержка молодежи, благополучие и перспективы молодежи.

YOSHLAR ZAMONAVIY SIYOSIY JARAYONLARNING OBYEKTI VA SUBYEKTI SIFATIDA

Аннотация

Bugun jaxon miqyosida yoshlarning siyosiy jarayonlardagi faolligi va tashabbuskorligi ularda davlat va jamiyat rivoji, demokratik islohotlar uchun mas'uliyat hissining shakllanishi, buning natijasida esa mamlakatda barqaror taraqqiyot va munosib turmush tarzi mavjudligining kafolati bo'lib xizmat qilishida yoshlarning o'rni, faolligi va ularni qo'llab-quvvatlash masalalari ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Barqaror taraqqiyot, maqsadlar, mezonlar, ilmiy yondashuv, zamonaviy dunyo, yoshlar siyosati, yoshlarni qo'llabquvvatlash, yoshlar farovonligi va istiqboli.

Kirish. Ijtimoiy-siyosiy fanlarning asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri – yoshlar siyosati masalasidir. Zero yosh avlodning jamiyat hayotiga ta'sir etuvchi kuch sifatida shakllanishi mamlakatning taraqqiyoti yoki tanazzulini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bugun jahonda kechayotgan globallashtirish jarayonlari dunyo hamjamiyatini yanada integrasialashuvini, demokratik islohotlar yo'lida qat'iy jipslashishini taqozo etmoqda. Dunyoda sodir bo'layotgan turli umumbashariy muammolarni hal etishga yosh avlod e'tiborini qaratish, barcha sohalarida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, yoshlarni umuminsoniy, liberal qadriyatlar sari etaklash, ularda diniy radikalashuvni oldini olish, antisemitizmga qarshi ma'naviy-mafkuraviy ko'nikmalarni shakllantirish, ijtimoiy moslashuvchanlikni oshirish kabi muhim vazifalardan kelib chiqqan holda yoshlar siyosatini tashkil etish istiqbolda millat kelajagi sari qo'yiluvchi odimlarning asosiy mazmunini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ta'бири bilan aytganda, «Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz»[1].

Yoshlar siyosati haqida fikr bildirishdan avval mazkur tushunchaning umumiy mazmunini tahlil qilish, turli klassik va zamonaviy yondashuvlarni o'rganish tadqiqot ishining sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, o'rganishni dastlab yoshlar siyosati terminining mohiyatini tadqiq qilishdan boshlaymiz. Ilmiy manbalarda mazkur masalaga juda ko'p e'tibor qaratilgan bo'lib, ayniqsa zamonaviy g'arb va sharq olimlari bu borada keng ko'lamli izlanishlar olib borishgan. Shubhasiz tadqiqotlarda

mazmuniga ko'ra mintaqaviy xarakter kasb etgan ma'lumotlar ham ko'p uchraydi. Biroq, umumiy yondashuvlar ham mavjudki, unga ko'ra yoshlar masalasi asosan demografik guruh sifatida hamda ijtimoiy qatlam sifatida eng ko'p qayd etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. "Yoshlar siyosati" atamasining paydo bo'lishi o'tgan asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Ma'lumki, ushbu davrda g'arb jamiyatida bir qator evrilishlar kuzatildi. Iqtisodiy o'sish, texnik taraqqiyot natijasida aholining ijtimoiy hayotida o'zgarishlar kuzatilib, ular asosan "madaniy inqilob" nomi bilan eslanadigan axloqiy jarayonlardagi o'zgarishlar bilan tarixda qoldi. Eng asosiysi, AQShda boshlanib keyinchalik butun g'arbn egallagan "madaniy inqilob" natijasida xalqlarning axloqiy munosabatlarga e'tiborsizligi, ommaviy madaniyatning paydo bo'lishi holatlari kuchayib bordi. E'tiborli tomoni hayot tajribasiga ega bo'lmagan yosh avlod bunday g'ayriaxloqiy g'oyalar ta'siriga tusha boshladi. Shuningdek, yoshlar o'z manfaatlarini yanada ko'proq ta'minlanishi, ularning fikrlari, qarashlari bilan hukumatning hisoblashishi kabi chaqiriqlar ham ayni shu davrda paydo bo'la boshladi. Ushbu ikki sabab davlatlarning yoshlar siyosati masalasiga alohida e'tibor qaratishi ehtiyojini keltirib chiqargan.

O'tgan asrning 60-yillarida sodir bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar natijasida yoshlarning faolligi kuzatila boshladi. Ular inson huquqlarining ta'minlanishi, davlat va jamiyat boshqaruvida demokratik qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash kabi jarayonlarda ishtirok eta boshladilar. Bir qator g'arb davlatlarida (AQSh, Germaniya va h.k) yoshlar tashkilotlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi ham shu davrga to'g'ri keladi. Xuddi shu davrda Germaniyalik jamoat arbobi G Zaydel yoshlar masalasini alohida o'rganib, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish jamiyat taraqqiyoti uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi degan xulosaga keldi va "yoshlar siyosati" tushunchasini tarixda ilk marta ilgari surdi. Shu bilan birga Zaydel o'zining yangi "yoshlar siyosati" konsepsiyasini ilgari surdi. U yoshlarni jamiyat rivojida muhim ijtimoiy guruh sifatida ko'rib,

davlat va jamiyatning ularga oid siyosatini ishlab chiqish zarurligini asoslagan.

Mutaxassis tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyani asosiy xususiyati shundaki davlatlar yoshlarga doir o'ziga xos siyosat olib borishi, ularning ehtiyoj va manfaatlarini hisobga olishi, yoshlarni jamiyat rivojida muhim ijtimoiy kuch sifatida qo'llab-quvvatlashi zarur. Zaydel konsepsiyasidan keyinchalik ko'plab mamlakatlar o'zlarining yoshlar siyosatini tashkil etishda muhim manba sifatida foydalanishdi. Hozirgi kunda ham mazkur konsepsiya bir qator rivojlanayotgan davlatlar amaliyotida qo'llanilmoqda.

Shu davrdan boshlab yoshlar siyosatining nazariy-metodologik asoslarini yaratish ustida bir qator olimlar faoliyat olib borishdi. Ular orasida yoshlar siyosati va yoshlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb etish bo'yicha qator asarlar muallifi amerikalik sosiolog J Koulman, Evropada yoshlar siyosatining nazariy asoslarini yaratgan M Fuko, Angliyalik S. Xoll, rus olimi I. Ilinskiy kabi olimlar yoshlar siyosati va yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari bo'yicha salmoqli ilmiy ishlar olib borishdi.

AQShlik mashhur sosiolog Jeyms Koulman birinchilardan bo'lib yoshlar siyosatining nazariy va amaliy yo'nalishlarini belgilab berdi. Shuningdek, yoshlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb etish masalalarida ham salmoqli izlanishlar olib borgan. Dastlab uning 1972 yilda yozgan "Yoshlar va ijtimoiy o'zgarishlar" - (Youth and Social Change, 1972)[2] asari jahon ilmiy munozaralarida keng o'rin egalladi. Mazkur asar insonlar, millatlar, davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning kelgusidagi qiyofasini bashorat qilgan yirik ilmiy qo'llanmadir. Ushbu asarida Koulman yoshlarning jamiyatdagi rolini oshirishning ehtiyoji, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning zarurati va yoshlar mobilligining konseptual jihatlarini chuqur tahlil qilgan.

Olim tomonidan nashr qilingan navbatdagi yirik asar "Yoshlar va siyosiy hayot" (Youth and Political Life), 1974yilda chop etildi va unda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda yosh avlodning o'rni va roli batafsil tahlil qilingan. Koulman yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalb etishning muhimligi va ishtirokining huquqiy, sosiologik va psixologik jihatlarini to'la yoritib bergan.

Koulman ushbu masalani ilk tadqiq etgan olimlardan bo'lib o'zining 1978 yilda yozgan "Amerikada yoshlar harakatlari" (Youth Movements in America) nomli asarida batafsil ko'rsatib bergan. Asarda AQShda XX asrning 60-70 yillarida davr ehtiyojidan kelib chiqib paydo bo'lgan va rivojlangan yoshlar tashkilotlarining (harakatlari) Amerika demokratiyasi shakllanishiga qo'shgan hissasi yoritib berilgan.

Umuman olganda J Koulman o'zining ilmiy ijodini yoshlar sosiologiyasi, yoshlar siyosati mavzulariga bag'ishlagan bo'lib, ijodining qizg'in davrini ushbu masalalarni tadqiq etishga qaratgan. Buning tasdig'i sifatida, uning 1980 yilda yozgan "Yoshlar siyosati" (Youth Policy) va 1985 yilda nashr qilgan "Zamonaviy jamiyatda yoshlar" (Youth in Modern Society) asarlarini ko'rsatish mumkin. Aytish mumkinki, Jeyms Koulman olib borgan ilmiy izlanishlar nafaqat o'tgan asr uchun balki, hozirgi davr uchun ham muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Rossiyalik olim O. Grishinning qayd etishicha, yoshlar – eng faol ijtimoiy guruh bo'lib, bu guruh davlat va jamiyatning kelgusidagi mavjudligi, taraqqiyot yoki tanazzulini belgilab beradi[5]. Yana bir rus sosiologi A E Stradze "yoshlarni ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynovchi, faol, harakatchan ijtimoiy-demografik guruh" deb ta'riflagan. Olimga ko'ra, "ushbu guruh yosh jihatdan cheklov o'rnatilganligi sababli, pedagogika, psixologiya, menejment va siyosatshunoslik kabi fanlarning asosiy tadqiqot yo'nalishi bo'lishi lozim hamda yoshlarni ijtimoiylashuv, ta'lim, mavjud turmush tarzi hamda qadriyat yo'nalishlaridagi islohotlar muntazamlik kasb etishi zarur"[6]. Yoshlarning jamiyatdagi boshqa ijtimoiy qatlamlarga ko'ra faolligi, yangiliklarni tez o'zlashtirishga moyilligi bir tomondan ijobiy ahamiyat kasb etsa, ikkinchi tomondan ularni turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qo'lish ehtimolini oshiradi. Shu boisdan, turli radikal, diniy, siyosiy oqimlar ta'siriga tushmaslik, tashqi kuchlarning turli nayranglari asosida o'zining ijtimoiy-mafkuraviy qarashlarini millat, jamiyat, davlat

manfaalariga zid ko'rinishda o'zgartirmaslik kabi vajlardan kelib chiqib yoshlar siyosatini tashkil etish davlatning muhim funksiyalaridan biri deb qaraladi.

Yoshlar siyosati masalalarida qator izlanishlar olib borgan rossiyalik I Ilinskiyning ta'biricha, "Yoshlar siyosati milliy xavfsizlik siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, u bugungi kundan boshlanadi va kelajakka daxldorlik kasb etadi"[7]. Ilinskiyga ko'ra, yoshlik 14-15 yoshdan boshlanib 29-30 yoshgacha davom etadigan davr bo'lib, bu davrda yoshlarni ta'lim olishi, tarbiya topishida davlat asosiy rolni o'ynashi zarur. Bu bevosita davlatning manfaatlarini uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar siyosatiga oid xuddi shunday qarash K Mangeym asarlarida ham aks etgan. Mangeymga ko'ra, "yoshlar ijtimoiy hayotning "jonlantiruvchi vositachisi" rolini o'ynashlari talab etiladi, bu yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va boshqa islohotlarga to'la integratsiyalashuviga yordam beradi. Olimning fikriga ko'ra "yoshlar tabiatan na progressiv va na konservatordirlar"[8].

Stradzening ta'kidlashicha yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yoshlar siyosatida ularning ijtimoiy rivojlanishi alohida ko'rib chiqilishi kerak. Chunki, har qanday amaliy harakatlar ijtimoiy masalalarni echish orqali hal qilinadi. Buning uchun quyidagi mezonlardan foydalanish lozim:

"jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishi, yoshlarning rivojlanishida ijtimoiy kafolatlarning etarli darajada ekanligi;

yosh fuqarolarga o'z tanlovini amalga oshirish uchun jamiyat tomonidan taqdim etiladigan imkoniyatlarning maksimum darajasi;

yoshlarning shaxsiy huquq va erkinliklarini ta'minlashi; davlat va jamiyatning barcha sub'ektlari tomonidan yoshlarga mamlakat kelajagi sifatida g'amxo'rlik qilinishi;

yoshlarni ijtimoiy taraqqiyot standartlari va talablaridan xabardorlik darajasining mavjudligi"[9].

Mamlakatimizda yoshlar siyosati masalalariga doir ilmiy izlanishlar siyosiy fanlar rursidida davlatimiz mustaqilligining dastlabki davrlaridan boshlab olib borilgan. Bu borada siyosatshunos olimlar S Jo'raev, N Jo'raev, Q Quranboev, A Xolmaxmatov, Sh Gaibnazarov, N Turg'unova va boshqa tadqiqotchilar yoshlar siyosatining ilmiy-nazariy hamda amaliy yo'nalishlarini tavsiya etishgan. O'z navbatida, yuqoridagi mualliflar yoshlar siyosatiga oid mualliflik ta'riflarini ham keltirib o'tishgan. Biz mazkur olimlar tomonidan berilgan ta'riflarning ayrimlariga to'xtalib o'tishni joiz deb hisoblaymiz. Professor N Jo'raevning fikriga ko'ra, "yoshlar siyosati tushunchasi davlat siyosatining rasmiy faoliyat turlaridan biri bo'lib, uning nazariy yo'nalishlari bevosita siyosatshunos olimlar tomonidan tadqiq etilishi lozim"[10].

O'zbekistonlik yana bir tadqiqotchi N Turg'unova o'zining siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida yoshlar siyosatini quyidagicha ta'riflaydi: "Yoshlar siyosatini davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida amalga oshirilishiga oid ilmiy qarashlarning asosini bir tomondan, davlat hokimiyatining yosh avlod oldidagi majburiyati, ikkinchi tomondan, jamiyatning faol qatlami bo'lgan yoshlarning davlat oldidagi burch va majburiyatlari tashkil qiladi"[12].

Davlat yoshlar siyosatini tashkil qilish barobarida kelajakda yoshlardan aniq natijalar kutadi. Stradzening tushuntirishicha, "Davlat siyosati yoshlarga ob'ektiv imkoniyatlarni berish bilan birga, o'zining sub'ektiv talablarini inkor etmaydi va yoshlar o'z mamlakatini asrab-avaylash va rivojlantirish, tarixiy va madaniy merosning bardavomligi, o'z Vatani tiklash uchun alohida mas'uliyat yuklashini ta'kidlaydi". Aslida ushbu yondashuv dialektik qonuniyatlariga to'la mos keladi. Chunki, yosh avlodni qo'llab-quvvatlash, ularni davlat va jamiyat qurilishi jarayonlariga jalb etish, yoshlarni har tomonlama etuk va barkamol bo'lib voyaga etishlari nafaqat davlat manfaatlarini, balki, yoshlarning kelajakdagi faoliyatini belgilab beruvchi omil hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologiyasi sifatida shuni aytish mumkinki, yoshlar bir vaqtning o'zida siyosiy jarayonlarning ham ob'ekti ham sub'ekti bo'lishi mumkin. Bu bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida eng ahamiyatlisi – bu davlatning yoshlar siyosatini to'g'ri va tizimli tashkil etishi bilan shartlanadi.

Davlat boshqaruvida demokratik tamoyil va qadriyatlar ustuvor bo'lsa yoshlarni siyosiy jarayonlarning sub'ekti bo'lib shakllanishlariga hukumatning o'zi birlamchi vazifa sifatida qaraydi. Chunki, davlat demokratik islohotlarning kelajagini yosh avlod bilan bog'lab talqin qiladi hamda tashkiliy masalalarni ushbu prizma atrofida shakllantiradi. Biroq, yana bir jihat ham borki u yoshlarni muayyan muddat ob'ekt sifatida qolishlarini oqlaydi. Bu ma'naviy-mafkuraviy omillar bilan bog'liq bo'lib, jahonda, jamiyatda kechayotgan evrilishlar, g'oyaviy kurashlar, bir siyosiy tizimdan boshqasiga o'tish kabi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sharoitida davlat yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash, ularni turli zararli g'oyalardan asrab-avaylash, umummilliy taraqqiyot sari etaklash kabi vazifalarni bajarishda hukumatning asosiy sub'ekt bo'lishi o'zini oqlaydi. Biroq bu vaqtinchalik jarayon bo'lib ko'proq "o'tish davrlari" uchun xosdir. Agar yosh avlodni siyosiy jarayonlarning ob'ekti sifatida qolishi uzoq davom etsa mamlakat taraqqiyotida ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmaydi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan tahlillardan shuni anglash mumkin, bugungi global o'zgarishlar sodir bo'layotgan davr siyosiy islohotlarning tarkibiy qismi bo'lgan yoshlar siyosatini to'g'ri va tizimli tashkil etishni taqozo etadi. Yoshlarning siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki va ta'siri jamiyatning rivojlanishi, demokratik qadriyatlarining mustahkamlanishi, yangi g'oyalarning paydo bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni siyosiy jarayonlarning sub'ekti sifatida tan olish va ularning faolligini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib bugungi kunning asosiy talabidir. Shu sababli, yoshlar siyosatini milliy xususiyatlar va xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda faol davom ettirish barqaror kelajakni ta'minlashi shubhasiz. Bu borada quyidagi aniq amaliy harakatlarni olib borish muhim:

Birinchidan, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish. Yoshlarni o'z huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini

ifoda etishlari uchun ularga minbar berish, ularda shakllanayotgan yangi xususiyatlarni monitoring qilish, yosh avlodga o'zining siyosiy pozitsiyasini bildirish uchun turli shakllarda uchrashuvlar, davra suhbatlarini tashkil etish, nazariya va amaliy hayot uyg'unligini ta'minlash kutilgan natijani beradi.

Ikkinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonlarida zamonaviy, dunyoviy bilim va ko'nikmalarni yosh avlodga to'laqonli etkazish. O'z navbatida, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, dunyoda kechayotgan voqea va hodisalarni tahlil qila olish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga xolis baho berish stereotiplarini shakllantirish ularni siyosiy munosabatlarning sub'ekti bo'lishlarini ta'minlaydi.

Uchinchidan, yoshlarda yangiliklarga ochiqlik ruhiyatini singdirish. Yoshlarni yangi g'oyalar va ularning echimlari bilan qurollantirish ularni siyosiy jarayonlarga real baho berish imkonini oshiradi. Shuningdek, yoshlar tomonidan ilgari suriladigan turli siyosiy tashabbuslarni e'tirof etish orqali ularni siyosiy jarayonlarning muhim sub'ektiga aylantirish mumkin.

To'rtinchidan, yoshlarning yangi g'oyalarni tez va oson o'zlashtirish imkoniyatini hisobga olgan holda ularga siyosiy tashkilotchilik uchun imkoniyatlar yaratish. Yoshlar o'zlarining siyosiy irodalarini namoyish qilishlari, siyosiy tashkilotlarda o'zlarining tashabbuslarini aytish olishlari, siyosiy partiyalar, harakatlar va boshqa legitim tuzilmalar faoliyatida ishtirok etishlariga ko'maklashish ularning kelajakda haqiqiy lider sifatida shakllanishlariga yordam beradi.

Beshinchidan, yoshlarni siyosiy jarayonlarning sub'ekti sifatida namoyon bo'lishining yana bir muhim jihati – bu ularning jamiyatning boshqa sub'ektlari bilan hamkorligidir. Yoshlar boshqa ijtimoiy guruhlar - siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritadilar. Bu orqali ular o'z g'oyalarni keng ommaga etkazish, ularni amalga oshirishda qo'llab-quvvatlash imkoniga ega bo'ladilar.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi yo'lladi (2018 yil 30 iyun) // <https://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoyev-ozbekiston-yoshlariga-bajram-tabrigi-jolladi>
2. Coleman, James S. 1972. (original 1961). The Adolescent Society. Free Press. ISBN 0029064104
3. Coleman, James S. 1978. (original 1964). Introduction to Mathematical Sociology. MacMillan Publishing Co. ISBN 0029065208.
4. Coleman, James S. 1981. Longitudinal Data Analysis. Basic Books. ISBN 0465042244
5. Grishin O., Ataev T. Politicheskaya videoreklama v internete kak instrument virajeniya politicheskoy pozitsii molodeji // Youth World Politic. 2013. №2. 77 str.
6. Stradze Aleksandr Eduardovich. Transformasiya gosudarstvennomolodejnoj politikiv sovremennoy Rossii. Dissertasiya na soiskanie uchenoy stepenikandidata sosiologicheskix nauk. Saratov 2008. S.24.
7. Ilinskiy I.M. Obrazovanie. Molodej. Chelovek: stati, intervyyu, vistupleniya. M.: Izd-vo Moskovskiy gumanitarniy universitet, 2006, str. 32
8. Mangeym K. Diagnostika nashogo vremeni. / K. Manxeym M. Politizdat, 2003. S-36.
9. Stradze Aleksandr Eduardovich. Transformasiya gosudarstvennomolodejnoj politikiv sovremennoy Rossii. Dissertasiya na soiskanie uchenoy stepenikandidata sosiologicheskix nauk. Saratov 2008. S.31.
10. Jo'raev N.Q. Yangilanish konsepsiyasi: yaratilishi, evolyusiyasi va amaliyoti. – T.: Ma'naviyat, 2002. – B. 43
11. Jo'raev. S. A. O'zbekiston Respublikasida o'tish davrida e'shlarga oid davlat siyosati shakllanishining xususiyatlari: nazariya va amaliyoti. – T., Tosh. dav. Sharq-lik ins-ti, 1994
12. Turgunova N T. O'zbekistonda yoshlar siyosatini amalga oshirishga kompleks yondashuv va uning strategik yo'nalishlari. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertasiya. Toshkent – 2024. B-64.
13. Mardonov B.M. O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim tizimida yoshlar siyosati samaradorligini oshirish. Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertasiya. Toshkent – 2024. B-22.
14. Stradze Aleksandr Eduardovich. Transformasiya gosudarstvennomolodejnoj politikiv sovremennoy Rossii. Dissertasiya na soiskanie uchenoy stepenikandidata sosiologicheskix nauk. Saratov 2008. S.32.



Navbaxor RUSTAMOVA,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi, mustaqil ilmiy izlanuvchi

E-mail: d.xojamberdiyev@digital.uz

PhD D.Rasulova taqrizi asosida

THEORETICAL AND EMPIRICAL ANALYSIS OF THE CRITERIA INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF A READING CULTURE IN FAMILIES

Annotation

In our country, several scientific studies are being conducted in research institutions and various organizations to shape young people's curiosity for knowledge, encourage youth and parents to demonstrate positive attitudes toward books, and serve as role models for children. These studies aim to develop strategies and methodologies for implementing such practices. This article presents an analysis of scientific research results aimed at developing criteria for promoting family reading culture.

Key words: Family, community, reading, book, readership, parents, children, reading culture, respondent, family relationships, pedagogy.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КРИТЕРИЕВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ В СЕМЬЯХ

Аннотация

В нашей республике научно-исследовательские учреждения, различные организации и ведомства проводят ряд научных исследований, направленных на разработку стратегий и методов развития интереса к знаниям у молодежи, на формирование у молодежи и родителей позитивного отношения к книгам, на то, чтобы быть примером для подражания. В данной статье также представлен анализ результатов научных исследований, организованных с целью разработки критериев развития семейного чтения.

Ключевые слова: Семья, махалля, чтение, книга, родители, дети, культура чтения, респондент, семейные отношения, педагогика.

OILALARDAGI KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR QILUVCHI MEZONLARNING NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI

Аннотация

Respublikamizda ilmiy tadqiqot mussasalari va turli tashkilotlar, idoralarda yoshlarning bilishga oid qiziqishlarini shakllantirish, yoshlar, ota-onalar o‘zlarining kitobga nisbatan ijobiy munosabatlarini namoyon qilishlari va bolalarga o‘rnak bo‘lish strategiyalarini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish metodikalarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada ham oilaviy kitobxonlikni rivojlantirish mezonlarini ishlab chiqish maqsadida tashkil etilgan ilmiy tadqiqot natijalari tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, mahalla, mutolaa, kitob, kitobxonlik, ota-ona, farzand, kitobxonlik madaniyati, respondent, oilaviy munosabat, pedagogika.

Kirish. Kitob o‘qishga o‘rgangan insonning ma’naviy dunyoqarashi keng, fikri teran bo‘lib, atrofda yuz berayotgan voqea va hodisalar mohiyatini ongli ravishda tushunishga, xulosa chiqarishga harakat qiladi. Odatda, kitobxon yoshlar o‘zlariga ishongan, tashabbuskor, fidoyi, vatanparvar hamda huquqiy, iqtisodiy, g‘oyaviy, siyosiy bilimlarni egallagan ma’naviyat sohibi bo‘ladi.

Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Agar kimdir, ma’naviyat masalasi – bu faqat Ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o‘ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir”, – dedi. Shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy bilimlarni berishda ajdodlarimizning boy merosini va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatni Yangi O‘zbekistonni shakllantirishning mustahkam ustuni, deb atadi. Kitobxonlik madaniyatini oshirish usullari va metodlarini ishlab chiqish orqali jamiyat ma’naviyatini yanada rivojlantirish, yoshlarni Milliy ruhda, Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliylikimizni ular ongiga singdirish bugungi kunning asosiy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Binobarin, aynan mutolaa insonga bilim va axborot beradi, uning ma’naviy olamini boyitadi. Yaxshi kitob eng murakkab savollarga javob topishda beminnat dastyor bo‘ladi.

“NOP World” xalqaro reyting agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda odamlar haftasiga 16,6 soat vaqtini televizor

ko‘rishga sarflasa, 8,9 soatni kompyuter qarshisida o‘tkazadi, 6,5 soatni esa mutolaa ajratadi. 2016 yilda haftasiga eng ko‘p kitob o‘qiydigan mamlakatlar ro‘yxatida Hindiston - 10,7, Tailand - 9,4, Xitoy - 8, Filippin - 7,6, Chexiya - 7,4, Rossiya - 7,1, Shvesiya - 6,9, Fransiya - 6,9 va Vengriya - 6,8 soat bilan yuqori o‘rinlarni egalladi. Qator agentliklarning jahonda kitobga bo‘lgan talabni o‘rganishi shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi 30 yilda bir nomdagi kitob mahsulotlarini chiqarish uch baravar, adadi bo‘yicha 4 baravar ko‘paydi. Bugungi kunda dunyoda har yili qariyb bir million nomda kitoblar chop etiladi. Masalan, AQShda kishi boshiga 10 ta, Rossiyada 9,5 ta, Fransiya 5 ta, Xitoyda 3,5 ta kitob bosilmoqda [12].

Bu borada Jorj Barter: “Men doim jannat kutubxonaga o‘xshagan joy bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman”, – deganida, u kitob o‘qib huzurlanishni nazarda tutgan. Shunday odamlar borki, ular: “Bu kitobni 3 yoki 4 marta qayta o‘qib chiqdim”, – deydi. U shu kitobdan yuksak ma’naviyatni, komillikni, yetuk inson bo‘lishni o‘rganganligi uchun ham minnatdorligini bayon qiladi.


Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot Respublikamizning Samarqand, Andijon, Qashqadaryo viloyatlari hamda Toshkent shahridagi mahallalarda jami 450 nafar aholi o‘rtasida sotsiologik so‘rov usuli orqali o‘tkazildi. So‘rov anketasi orqali turli savollar bilan murajaat qilindi. Asosiy maqsad aholi qiziqish va muammolarini o‘rganishdan iborat.

Respublikamizda bugungi kunda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga va kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor

qaratilmoqda. Darhaqiqat, aholini kitob mutolaasiga qiziqitirishda kitobning muallifi, uning mazmuni hamda tashqi ko'rinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada respondentlarning fikrini o'rganish maqsadida "Kitob o'qish uchun adabiyotlarni tanlashda qaysi jihatlarga e'tibor qaratasiz?" degan savol bilan murojaat qildik. So'rovda ishtirok etganlarning 49 foiz kitobni tanlashda avvalo, uning muallifiga e'tibor qaratishini, 24 foiz boshqalarning tavsiyasi orqali, 9 foiz reklama qilingan kitoblarni, 5 foiz respondent esa kitobning tashqi dizayniga e'tibor qaratish ekan. Respondentlarning javoblaridan xulosa qilish mumkin, kitob tanlashda uning muallifi va tanishlarining tavsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada kutubxona mutaxassislari hamda adabiyotshunoslarning mahallalarda aholi o'rtasida yangi nashrdan chiqqan kitoblarning taqdimotiga bag'ishlangan davra suhbatlari, uchrashuvlar hamda ommaviy axborot vositalari orqali (televizor, radio va ijtimoiy tarmoqlarda) yangi chop etilgan adabiyotlarning reklamasini yo'lga qo'yish lozim. Bugungi kunda kitob mutolaa qilishning zamonaviy usullari ham ommalashib bormoqda. Har qanday ma'lumot yoki manbalarni internetdan elektron shaklda topish hamda yuklab olish mumkin. Shu maqsadda hozirda aholi kitob mutolaa qilishda asosan qaysi shakldan foydanishi bilan qiziqdik va "Sizga kitob o'qishning

qaysi shakli ma'qul?" degan savol bilan murojaat qildik. Respondentlarning 81 foizi hamon bosma shakldagi kitoblarni o'qishni afzal ko'rishini, 13 foizi elektron hamda 6 foizi audio shakldagi kitoblarni o'qishini ta'kidlab o'tishgan.

So'rovnoma eng dolzarb savollardan biri, "Yurtimizdagi qaysi adiblarning asarlarini sevib o'qiyasiz?" degan savolga respondentlarimizning javoblari quyidagicha bo'ldi. 29 foiz respondentlar O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi", "Dunyoning ishlari", "Nur borki, soya bor", 28 foizi Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", 27 foizi Alisher Navoiy "Xamsa" dostoni, g'azallarini, 23 foizi Shayx Muxammad Sodiq Muxammad Yusufning "Ruhiy tarbiya", "Ijtimoiy odoblar" asarini, 20 foizi Toxir Malik "Shaytanat", "Odamiylik mulki", "Mehmon tuyg'ular", Said Ahmad "Ufq", "Qora Majnun", 18 foizi Xudoyberdi To'xtaboev "Sariq devni minib", "Besh bolali yigitcha", 14 foizi Kaykovus "Qobusnoma", 13 foizi Chingiz Aytmatov "Asrni qaritgan kun", G'afur G'ulom "Shum bola", 12 foizi Nuriddin Ismoilov "Sher yigit", 9 foizi Javlon Jovliev "Qo'rqma", Abdulla Qahhor hikoyalari, 7 foizi "Bolalar ensiklopediyasi" kabi asar va kitoblarni mutolaa qilishini ma'lum qilishgan. (1-rasm)




1-rasm. "Yurtimizdagi qaysi adiblarning asarlarini sevib o'qiyasiz?" savoliga berilgan javoblar (% hisobida)

Mutolaa madaniyatining rivojlanishida jahon adabiyoti durdonalari ham muhim o'rin tutadi. Bu borada respondentlarning jahon adabiyoti durdonalariga qiziqishini aniqlash maqsadida "Jahon adabiyotidan kimlarni asarlarni sevib o'qiyasiz?" degan savol bilan murojaat qildik va quyidagi javoblarni oldik.

Respondentlarning 21 foizi Joan Rouling "Garri Potter va hikmatlar toshi", 18 foizi Lev Tolstoy "Urush va tinchlik", "Ikki hikoya", "Tirilish", "Bolalar uchun hikoyalar", Kel Nyuport "Diqqat! Chalg'ituvchi dunyoda muvaffaqiyat sirlari", 16 foizi Napoleon Xill "O'yla va boy bo'l", 14 foizi Alif - Paulo Koelo, Lara Edrian "Tunggi tashrif", 13 foizi Agata Kristi "10 ta negr bolasi", Paulo Koelo "Alkimyogar", Robert Kiyosaki "Boy ota,

kambag'al ota", 12 foizi Antuan de Sent-Ekzyuperi "Kichkina shahzoda", 9 foizi Den Braun "Da Vinchi siri", Sao Syuesin "Qizil ko'shkdagi uyqu", 7 foizi Brayan Treysi "Samaradorlikning 21 yo'li", Halis Karabenlining "Ba'zilar olisdan sevarlar", 6 foizi Teador Drayzver "Baxtiqaro Kerri", 5 foizi Charlz Dikkens "Ikki shahar haqida qissa" asarlarini o'qishini qayd etib o'tgan. Shuningdek, respondentlarning 27 foizi hech qanday jahon adabiyoti asarlarini o'qimasligi bildirib o'tishgan. So'rovnoma olingan javoblardan shunday xulosaga kelish mumkin, kitobxonlarning jahon adabiyotini ham mutolaa qilishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga va bu borada targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish lozim deb hisoblaymiz. (2-rasm)



2-rasm. "Jahon adabiyotidan kimlarni asarlarni sevib o'qiyasiz?" savoliga berilgan javoblar (% hisobida)

Respondentlarga "Shaxsiy kutubxonangiz bormi?" degan navbatdagi savol bilan murojaat qilganimizda 58 foiz respondentlarning shaxsiy kutubxonasi mavjud bo'lib, ularning 23 foizida, 50 tagacha, 12 foizida 100 tagacha 7 foizida 500 tagacha kitob fondi mavjudligi qayd etib o'tishgan. Respondentlarning 35 foizida shaxsiy kutubxona mavjud emas. 7 foiz respondentlar javob berishga qiynalishini bildirib o'tganlar.

Shaxsiy kutubxona tashkil etish va kitob fondini boyitib borishda shahar va qishloqda istiqomat qiluvchi respondentlar o'rtasida farq kuzatilganligini ko'rish mumkin. 19 foiz shaharda istiqomat qiluvchi respondentlar shaxsiy kutubxonasi mavjud ekanligini bildirishgan bo'lsa, 45 foiz qishloqda istiqomat qiluvchi


respondentlar shaxsiy kutubxonasi mavjud emasligini qayd etib o'tishgan. Ushbu savolga javob bermaganlar orasida qishloqda yashovchi respondentlar ko'pchilik bo'lib, 6 foizni tashkil etdi.

Kitobxonlik madaniyati-shaxsning o'z kuch-quvvati, imkoniyatlari, qiziqishlarini kitob o'qishga safarbar qilishining muayyan darajasidir. O'quvchilarda o'z o'quv faoliyatlari davomida kitob o'qish, uni tahlil qilish va mazkur asar haqidagi o'z fikrlarini bayon etish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Kitobxonlik madaniyati mazkur sohada o'quvchining yetukligini ham ifodalaydi. Kitobxonlik madaniyati - rivojlangan tamaddunlar davrida butun insoniyatga xos bo'lgan ma'rifiy-talimiyligi hodisadir. U talim-tarbiya natijasida o'quvchida hosil

qilinadigan ko'nikmalar, qiziqishlar, ijodiy imkoniyatlarni ham ifodalaydi [11].

Mahallalarda kitobxonlikni rivojlantirishda kutubxona va undagi kitob fondlari muhim rol o'ynaydi. Shu maqsadda respondentlarga "Siz istiqomat qilayotgan joyda kutubxona mavjudmi?" degan savol bilan murojaat qildik. 19 foiz respondentlar o'zlari istiqomat qilayotgan mahallada kutubxona

Kirish. Bugungi kunda chet tillarni o'rganish, xususan, ispan tilini egallash, xalqaro aloqalarni mustahkamlash, madaniy ko'priklar yaratish va shaxsiy rivojlanishni ta'minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ammo til o'rganish jarayonining samaradorligi bevosita pedagogik kompetensiyaga bog'liq. Pedagogik kompetensiya – bu o'qituvchining malakasi, metodologik yondashuvlari va o'quvchilarga tilni samarali o'rgatishdagi mahoratidir. O'zbekistonda ispan tili tobora ommalashib bormoqda. Bu borada talabalarga nafaqat til ko'nikmalarini o'rganishga, balki ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga yordam beradigan samarali o'qitish usullarini ishlab chiqish muhimdir[1]. Talabalarning chet tillarini o'qitishdagi ijtimoiy-madaniy kompetentliklari nafaqat til ko'nikmalarini egallashga, balki chet el madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlarini tushunishga imkon beradigan muhim jihatdir. Ushbu maqolada ispan tilini o'rganishda pedagogik kompetensiyaning ahamiyati va uning samarali til o'rgatishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Dastlab, pedagogik kompetensiya tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. Pedagogik kompetensiya – bu pedagogning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, boshqarish va rivojlantirishga qaratilgan bilim, ko'nikma va malakalari majmuasidir. Bu tushuncha o'qituvchining nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olib, ularni individual va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishni

ta'minlash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Pedagogik kompetensiya zamonaviy ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Pedagogik kompetensiya bir necha tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo'lib, ular pedagogning ta'lim jarayonidagi samaradorligini oshiradi[2]:

Fanni bilish (predmet kompetensiyasi):

O'qituvchining o'zi o'qitadigan fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi. Misol: Ona tili o'qituvchisi grammatika va stilistikaning barcha jihatlarini yaxshi bilishi kerak.

Didaktik va metodik kompetensiya:

Ta'lim usullarini tanlash va ularni samarali qo'llay olish qobiliyati. Misol: Turli yosh guruhlariga mos dars uslublaridan foydalanish.

Ijtimoiy va psixologik kompetensiya:

O'quvchilarning ehtiyojlarini anglash, ular bilan muloqot qilish va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatni o'rnatish qobiliyati. Misol: O'quvchilarning qobiliyatlariga qarab individual yondashuv qo'llash.

Texnologik kompetensiya:

Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish. Misol: Interaktiv doskalar, onlayn platformalar yoki multimedia vositalaridan foydalanish.

Madaniy va ma'naviy kompetensiya:

O'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarini singdirish va ularni ma'naviy jihatdan tarbiyalash. Misol: Dars jarayonida madaniy merosimizni targ'ib qilish.

Ispan tilini o'rganishda pedagogik kompetensiyaning ahamiyati juda ham muhimdir[3]. Jumladan:

1. Til o'rganishga qiziqish uyg'otish- Ispan tilini o'rgatishda o'qituvchi o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun zamonaviy va qiziqarli metodlardan foydalanishi lozim. Masalan: Madaniy videolar, musiqalar va filmlar orqali ispan madaniyatini o'rgatish. O'yin shaklidagi mashg'ulotlarni tashkil etish.

Tarbiyachi va o'qituvchi o'zining ijodiy yondashuvi bilan o'quvchilarda til o'rganishga motivatsiya uyg'otishi mumkin.

2. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash- Bugungi kunda chet tillarni o'rgatishda texnologik vositalarning o'rni beqiyos. O'qituvchi quyidagi innovatsion metodlarni qo'llashi mumkin: Interaktiv platformalar: Duolingo, Quizlet kabi onlayn dasturlar orqali lug'at va grammatika o'rgatish. Video konferensiyalar: Ispan tili ona tilida so'zlashuvchilar bilan suhbat tashkil etish. Audio va video materiallar: Ispan tili talaffuzini o'rganish va nutq ko'nikmalarini rivojlantirish.

Bunda o'qituvchining texnologik kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Individual yondashuv- Har bir o'quvchining qobiliyati va o'rganish uslubi turlicha bo'lishi sababli, pedagogik kompetensiyaga ega o'qituvchi har bir o'quvchi uchun mos metodlarni tanlaydi: Mustaqil o'quvchilar uchun yozma topshiriqlar va loyiha ishlari. Ko'proq muloqotga asoslangan o'rganish uslublarini yoqtiradiganlar uchun suhbat va muhokamalar.

4. Madaniy komponentni o'qitishda qo'llash- Ispan tili faqat lingvistik birliklar majmui emas, balki u ispancha madaniyat, urf-odatlar va qadriyatlar bilan bog'liq. Pedagogik kompetensiyaga ega o'qituvchi o'quvchilarni til bilan birga uning madaniyatini o'rganishga jalb qiladi: Ispan festivallari, musiqasi, gastronomiyasi haqida materiallar taqdim etish. Ispan mamlakatlaridagi madaniy o'ziga xosliklarni o'rgatish.

5. Nutq faoliyatini rivojlantirish- Tilni o'rganishda asosiy maqsad – o'quvchilarni muloqotga jalb qilish. O'qituvchi o'quvchilarning barcha nutq faoliyati – tinglash, o'qish, yozish va gapirishni rivojlantirishi uchun integrativ yondashuvni qo'llaydi: Tinglash ko'nikmasi uchun autentik audio materiallar. Yozish va gapirish ko'nikmasi uchun insho va suhbatlar.

Natija va muhokama. Zamonaviy ta'limda ispan tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish tilni samarali o'rganishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Interaktiv metodlar o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilib, ularda til ko'nikmalarini tez va qiziqarli tarzda rivojlantirishga yordam beradi. Bu usullar yordamida o'quvchilar ispan tilining grammatikasi, lug'ati va talaffuzini o'rganish bilan birga, muloqot qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Interaktiv metodlar – bu o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida faol muloqotni ta'minlovchi dars usullari bo'lib, ular o'quvchilarning o'qitish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Ispan tilini o'rgatishda bu usullar quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi[4]:

O'quvchilarning qiziqishini oshirish;

Nutq faoliyatini rivojlantirish;

Yangi lug'at va grammatikani amaliyotda mustahkamlash;

Muloqot muhitini yaratish.

Ispan tilini o'qitishda samarali interaktiv metodlardan bir nechasini ko'rib chiqamiz.

1. Rolli o'yinlar (Juegos de Rol)

Bilamizki, chet tillarni o'rgatishda darslarni interaktiv metodlar bilan boyitish ikkinchi tilni o'rganuvchilar uchun ko'plab qulayliklar yaratadi va o'zlashtirishda yuqori samarani ko'rsatadi. Shu o'rinda interaktiv metodlar orasida "Rolli o'yinlar" metodiga alohida ahamiyat berib o'tamiz. J. Bachelor maqolasida ikkinchi tilda, ya'ni ispan tilida pragmatik kompetentlikni o'rgatishda rolli o'yinlaridan foydalanishi o'rganiladi. Unda rolli o'yinlar talabalarga ispan tilida muloqot qilish hamda ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantirishga qanday yordam berishi mumkinligi tasvirlangan. Rolli o'yinlar talabalarga ispan madaniyati bilan

bog'liq turli rollar va vaziyatlarga ko'nikish imkonini beradi. Bu ularga til ko'nikmalarini amalda qo'llash va ispan madaniyati haqidagi dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'zlarini turli vaziyatlarda his qilishadi va o'sha vaziyatga mos ravishda ispan tilida muloqot qilishni o'rganishadi[5]. Masalan: Do'konda xarid qilish (¿Cuánto cuesta? – Bu qancha turadi?). Mehmonxonada xona bron qilish (¿Quisiera reservar una habitación – Men xona band qilmoqchiman). Foyda: O'quvchilar amaliy vaziyatlarda tilni qo'llashni o'rganadilar.

2. Suhbat va munozaralar (Discusiones y Debates)
Ispan tilida o'quvchilarning fikrlarini bildirishlari uchun mavzu beriladi. Masalan, o'quvchilar o'zlariga yoqadigan taomlar yoki ispan mamlakatlari haqida gaplashishlari mumkin. Foyda: Suhbatlar muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi.

3. Interaktiv o'yinlar (Juegos Interactivos)

O'yinlar darsni qiziqarli va faol qiladi. Masalan:

"Kim tezroq?": O'quvchilar so'zlarni ispan tiliga tarjima qilishda raqobatlashadi.

"Bingo": O'qituvchi so'zlarni aytadi, o'quvchilar esa o'z varaqlaridagi so'zlarni belgilaydi. Foyda: Lug'at boyligini oshiradi va raqobat orqali motivatsiya beradi.

4. Multimedial vositalar (Herramientas multimediales)

Audio, video va vizual materiallar yordamida tilni o'rganish. Masalan: Ispan tilidagi qisqa filmlar va multfilmlarni tomosha qilish. Onlayn platformalar (Duolingo, Quizlet) orqali mashqlar bajarish. Foyda: O'quvchilar tilni vizual va eshitish orqali yaxshiroq o'zlashtiradilar.

5. Guruhda ishlash (Trabajo en grupo)

O'quvchilar guruhlariga bo'linib, berilgan topshiriqni birgalikda bajarishadi. Masalan: Shahar xaritasini tuzish va yo'nalishlarni tushuntirish (¿Cómo llegar a la estación? – Vokzalga qanday boriladi?). Foyda: Jamoaviy ishlash ko'nikmalarini va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

6. Simulyatsiya va drama (Simulación y Drama)

O'quvchilar turli real hayotiy vaziyatlarni ijro etadi. Masalan: Restoranda ofitsiant va mijoz bo'lish (¿Qué quiere pedir? – Nima buyurtma qilasiz?). Foyda: O'quvchilar amaliy til muhitida o'zlarini his qilishadi va tilni jonli tarzda o'rganishadi.

7. Ispan madaniyatini o'rganish (Interculturalidad)

Ispan madaniyati haqida qiziqarli faktlar o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Masalan: Ispan festivallari haqida taqdimot qilish. Ispancha musiqalar tinglash va ularni tarjima qilish. Foyda: O'quvchilar nafaqat tilni, balki madaniyatni ham o'rganadilar.

Ispan tilini o'rgatishda pedagogik kompetensiyani rivojlantirish uchun o'qituvchilar quyidagi yo'nalishlarda o'z ustida ishlashi lozim[6]:

Doimiy o'rganish: Yangi metodikalarni o'rganish va ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish.

Ispan tilida mutaxassislar bilan hamkorlik: Tilni chuqur biladigan va madaniyatni tushunadigan mutaxassislar bilan ishlash.

Xalqaro tajriba almashish: Ispan tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda tajriba orttirish va yangi yondashuvlarni o'zlashtirish.

Xulosa. Ispan tilini o'rgatishda pedagogik kompetensiya ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy omildir. O'qituvchining yuqori malakasi, innovatsion yondashuvi va o'quvchilar ehtiyojlarini hisobga olish qobiliyati til o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Shuning uchun pedagogik kompetensiyani rivojlantirish har bir o'qituvchi uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Ispan tilini o'rgatishda interaktiv metodlar o'quvchilarni tilni tez va samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Ushbu usullar o'quvchilarda faollikni oshirib, ularning darsdan zavqlanishiga, nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishiga ko'maklashadi. O'qituvchi o'z darsida turli interaktiv yondashuvlarni qo'llagan holda, ispan tilini o'rgatishda yanada yuqori natijalarga erishishi mumkin. Ispan tilini o'qitishda interaktiv metodlar zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, u o'quvchilarning faolligini oshirish, til o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Ushbu metodlar nafaqat til qoidalarini o'zlashtirishda, balki o'quvchilarda amaliy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda

ham muhim rol o'ynaydi. Rolli o'yinlar, guruhiy faoliyatlar, o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi multimedialli vositalardan foydalanish kabi interaktiv usullar va ularda tilga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Egamnazarova F.A. Role-playing games as a method of teaching foreign languages // CARJIS. 2021. №3.
2. Ravshanova, T.; Karshieva, R.; and Kuvvatov, M. The theoretical and practical basis of role games in teaching foreign languages // Mental Enlightenment ScientificMethodological Journal: Vol. 2022: Iss. 3, Article 2.
3. Ташпулатова, Ф. С. (2018). Интенсивные методы преподавания иностранных языков в вузе. Вопросы науки и образования, (5 (17)), 95-97. Узбекова, Ш. Р. (2018). "Иностранные языки в системе образования Узбекистана: перспективы и вызовы". Ташкентский педагогический журнал, №3, 45-49.
4. González, F. (2015). Teaching Spanish as a Foreign Language: A Handbook for Teachers. Madrid: Ediciones Hispánicas.
5. Tashpulatova, F. S. (2021). Methodology of developing auditing skills and skills of Spanish language students. www. auris-verlag.de.
6. Larsen-Freeman, D. (2000). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.
7. Юлдашева, Н. М. (2020). "Интерактивные методы обучения испанскому языку". Журнал современной педагогики, №2, 22-27.



Ra'no TO'YCHIYEVA,

PhD, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti doktoranti

E-mail: rano-tuichiyeva@mail.ru

Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti direktori, professor A. Jalilov taqrizi asosida

ZAMONAVIY GEOSIYOSIY O'ZGARISHLAR: ASOSIY OMILLAR, OQIBATLAR VA ISTIQBOLLAR

Аннотация

Ushbu maqola zamonaviy geosiyosiy o'zgarishlar, ularning asosiy omillari, oqibatlari va istiqbollari haqida tahlil qiladi. Maqola geosiyosiy jarayonlarning murakkabligini, ularni shakllantiruvchi omillarni va ushbu o'zgarishlarning global va mintaqaviy xavfsizlikka ta'sirini o'rganadi. Geosiyosiy o'zgarishlar, sivilizatsiyalararo qarama-qarshiliklar, iqtisodiy raqobat, texnologik yuksalish, ekologik muammolar va yangi harbiy alyanslar kabi omillarni o'z ichiga oladi. Maqola, shuningdek, xalqaro hamkorlik va diplomatiyaning geosiyosiy ziddiyatlarni boshqarishdagi ahamiyatini ko'rsatib, global barqarorlikni ta'minlash uchun yangi yondashuvlar zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Geosiyosiy o'zgarishlar, sivilizatsiyalararo ziddiyatlar, iqtisodiy raqobat, ekologik muammolar, texnologik yuksalish, global xavfsizlik, diplomatiya, xalqaro hamkorlik, harbiy alyanslar, barqarorlik.

СОВРЕМЕННЫЕ ГЕОПОЛИТИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ: ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, ПОСЛЕДСТВИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация

Данная статья анализирует современные геополитические изменения, их основные факторы, последствия и перспективы. В статье рассматривается сложность геополитических процессов, факторы, формирующие их, а также влияние этих изменений на глобальную и региональную безопасность. Геополитические изменения включают такие факторы, как цивилизационные противоречия, экономическое соперничество, технологический прогресс, экологические проблемы и новые военные альянсы. Статья также подчеркивает важность международного сотрудничества и дипломатии в управлении геополитическими конфликтами, подчеркивая необходимость разработки новых подходов для обеспечения глобальной стабильности.

Ключевые слова: Геополитические изменения, цивилизационные противоречия, экономическое соперничество, экологические проблемы, технологический прогресс, глобальная безопасность, дипломатия, международное сотрудничество, военные альянсы, стабильность.

MODERN GEOPOLITICAL CHANGES: KEY FACTORS, CONSEQUENCES, AND PROSPECTS

Annotation

This article analyzes modern geopolitical changes, their key factors, consequences, and prospects. The article examines the complexity of geopolitical processes, the factors shaping them, and the impact of these changes on global and regional security. Geopolitical changes include factors such as civilizational conflicts, economic competition, technological progress, environmental issues, and new military alliances. The article also highlights the importance of international cooperation and diplomacy in managing geopolitical conflicts, emphasizing the need for new approaches to ensure global stability.

Key words: Geopolitical changes, civilizational conflicts, economic competition, environmental issues, technological progress, global security, diplomacy, international cooperation, military alliances, stability.

Kirish. Bugungi kunda dunyo geosiyosiy manzarasida misli ko'rilmagan darajada tezkor va chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu o'zgarishlar millatlararo munosabatlar, mintaqaviy xavfsizlik tizimlari, xalqaro savdo va iqtisodiy hamkorlik shakllarini qayta ko'rib chiqishga sabab bo'lmoqda. Geosiyosiy jarayonlar nafaqat yirik davlatlar yoki mintaqalar o'rtasidagi kuchlar muvozanatini, balki butun dunyo aholisining kundalik hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi global tendensiyalarni shakllantiradi. Shu sababli zamonaviy geosiyosiy o'zgarishlarni chuqur o'rganish va ularning sabab hamda oqibatlarini tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Geosiyosiy o'zgarishlarning sabablarini tahlil qilishda bir nechta asosiy omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi navbatda, iqtisodiy omillar global va mintaqaviy geosiyosiy dinamikada asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida maydonga chiqmoqda. Global iqtisodiyotning o'sishi yoki turg'unligi, yangi iqtisodiy markazlarning shakllanishi, shuningdek, resurslarga bo'lgan talab va ularni boshqarish masalalari xalqaro munosabatlarda o'ziga xos keskinliklarni keltirib chiqarmoqda.

Ikkinchidan, harbiy va strategik omillar, jumladan, yangi qurollanish poygalari, harbiy bloklar va alyanslarning qayta shakllanishi, zamonaviy urush texnologiyalarining rivojlanishi davlatlar o'rtasida xavfsizlikka doir masalalarni birinchi o'ringa qo'yimoqda. Amerikalik tadqiqotchilar, xususan, Jozef Nay o'zining "Soft Power" konsepsiyasida harbiy kuchdan ko'ra,

yumshoq kuch va diplomatik strategiyalarning geosiyosiy muvaffaqiyatdagi ahamiyatini urg'ulaydi [13].

Uchinchidan, texnologik taraqqiyot geosiyosiy jarayonlarga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt, kibernetika, raqamli infratuzilmalar va yangi avlod texnologiyalari global raqobatning asosiy elementlariga aylanmoqda.

To'rtinchidan, ekologik va ijtimoiy muammolar zamonaviy geosiyosiy o'zgarishlarning ajralmas qismiga aylangan. Amerikalik iqlimshunos olimlar, masalan, Bill McKibben, iqlim o'zgarishining geosiyosiy barqarorlikka ta'siri haqida ogohlantirib, energetika siyosatini tubdan o'zgartirish zarurligini ta'kidlaydi [10].

Zbigniev Bjezinski "The Grand Chessboard" kitobida Yevroosiyo hududini dunyo siyosatining kaliti sifatida ko'radi [3]. Unga ko'ra, Yevroosiyo mintaqasida ustunlikni qo'lga kiritgan davlat global yetakchi bo'ladi. Genri Kissinjerning "World Order" asarida global barqarorlikni saqlash uchun davlatlararo diplomatiyaning muhimligi ta'kidlanadi [7].

Maqola davomida geosiyosiy o'zgarishlarning asosiy omillari, ularning turli mintaqalarga bo'lgan ta'siri, shuningdek, ularni oldindan baholash va boshqarish strategiyalari o'rganiladi. Shu orqali geosiyosiy jarayonlarning global va mintaqaviy xavfsizlikka bo'lgan ta'siri haqida kengroq tushuncha beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot zamonaviy geosiyosiy o'zgarishlarni kompleks tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy yondashuv va uslubni o'z ichiga oladi. Tadqiqotning nazariy asoslarini ishlab chiqishda xalqaro munosabatlar nazariyalari asosiy yo'nalishlari – realizm, liberalizm va konstruktivizm doirasidagi yetakchi olimlarning asarlari chuqur o'rganildi. Dunyoning turli mintaqalarida yuz berayotgan geosiyosiy jarayonlarni tahlil qilish uchun taqqoslash usuli qo'llanildi. Ushbu usul bir mintaqada kuzatilgan geosiyosiy o'zgarishlarni boshqa mintaqalardagi o'xshash holatlar bilan qiyoslab, ular orasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy geosiyosiy o'zgarishlarning asosiy drayverlaridan biri global kuchlar – AQSh, Xitoy va Rossiya – o'rtasidagi strategik raqobatdir.

Avvalo, Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi dunyo iqtisodiyoti va geosiyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. 2013-yilda Xitoy prezidenti Si Szinpin tomonidan e'lon qilingan ushbu loyiha global savdo yo'llarini kengaytirish va infratuzilmani yaxshilash orqali mamlakatning iqtisodiy va siyosiy ta'sirini oshirishga qaratilgan. Bugungi kunda BRI doirasida Xitoy 140 dan ortiq davlat bilan hamkorlik o'rnatgan bo'lib, loyiha turli mintaqalarda yirik infratuzilma, transport, energetika va telekommunikatsiya loyihalarini qamrab oladi.

BRI nafaqat iqtisodiy manfaatlarni ko'zda tutadi, balki Xitoyning geosiyosiy strategiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Farid Zakaria BRI ni "yangi avlod imperiyasi" sifatida ta'riflab, Xitoyning bu tashabbus orqali rivojlanayotgan davlatlarni iqtisodiy bog'liqlik tizimiga tortishini ta'kidlaydi [16].

BRI tashabbusi bo'yicha tanqidiy yondashuvlarga keladigan bo'lsak, G'arb davlatlari va ayrim tahlilchilar ushbu loyihani "qarz tuzog'i diplomatiyasi" deb atab, rivojlanayotgan davlatlarning haddan tashqari qarzga botishini asosiy muammo sifatida ko'rsatmoqdalar. Masalan, Shri-Lankadagi Hambantota porti qarzini to'lashga qodir bo'lmagan Shri-Lanka hukumati portni 99 yil muddatga Xitoyga ijaraga berishga majbur bo'ldi.

Ikkinchidan, AQSh dunyodagi o'zining yetakchi mavqei hamda global ta'sirini saqlab qolish uchun Xitoy iqtisodiy va harbiy qudratining o'sishiga qarshi turadigan keng qamrovli strategiyalarni amalga oshirmoqda. Ushbu strategiyalar NATO, QUAD, AUKUS kabi alyanslarni mustahkamlash, madaniy va texnologik ta'sirni kengaytirish hamda iqtisodiy raqobatga nisbatan integratsion yondashuvlarni qamrab oladi.

Uchinchidan, Rossiyaning strategik ambitsiyalariga kelsak, ular asosan o'zining sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi ta'sirini qayta tiklash va G'arb bilan bo'lgan geosiyosiy raqobatni kuchaytirishga qaratilgan. Bu amaliyotlar Rossiyaning xalqaro miqyosda o'z kuchini saqlab qolish va kuchli davlat maqomini tiklashga intilishining yaqqol namunasidir. Rossiya o'zining strategik maqsadlarini amalga oshirishda turli diplomatik, iqtisodiy va harbiy vositalardan foydalanib kelmoqda.

2014-yilda Rossiya Qrimni anneksiya qilishi va 2022-yilda Ukraina hududiga bostirib kirishi Rossiyaning mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va G'arbg qarshi geosiyosiy pozitsiyasini kuchaytirishga bo'lgan harakatlarining muhim qismlarini tashkil qiladi.

Rossiyaning geosiyosiy ambitsiyalari o'zining sobiq Sovet hududida gemonlikni qayta tiklash va G'arb bilan strategik raqobatni davom ettirishga qaratilgan. Rossiya o'zining harbiy, iqtisodiy va diplomatik vositalarini birlashtirib, o'zining global ta'sirini mustahkamlashni maqsad qilmoqda.

Jon Mersheimerning tahliliga ko'ra, Rossiya-Ukraina urushi NATOning Sharqqa kengayishiga Rossiyaning keskin reaktiviyasi sifatida yuzaga kelgan. Rossiya uchun NATOning sharqqa kengayishi, xususan, Ukrainaning G'arb bilan yaqinlashish siyosati, xavfsizlikni ta'minlash va o'zining ta'sir doirasini kengaytirish uchun tahdid sifatida qabul qilindi. NATOning Sharqiy Yevropaga kengayishi, ayniqsa, Boltiq davlatlari va Polshaning qo'shilishi Rossiya uchun "qizil chiziq" bo'lib xizmat qilgan [12].

Bu mojaro global xavfsizlik va iqtisodiyotga jiddiy ta'sir ko'rsatdi, yangi diplomatik va harbiy strategiyalarni keltirib chiqardi. Energiya manbalarini siyosiy qurol sifatida ishlatish va xalqaro xavfsizlik tizimida yangi qarama-qarshiliklar yaratish

Rossiya va G'arb o'rtasidagi geosiyosiy raqobatning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

To'rtinchidan, Yevropaning Rossiyaga bo'lgan energetik bog'liqligini kamaytirish maqsadida amalga oshirilayotgan diversifikatsiya siyosati, global energiya bozorlarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. 2022-yildan boshlab, Rossiyaning Ukraina urushi va G'arb davlatlari tomonidan joriy etilgan sanksiyalar Yevropa davlatlarini Rossiyadan energiya resurslarini olishga nisbatan bog'liqlikni kamaytirishga undadi.

Bu o'z navbatida Yevropaning o'z energiya xavfsizligini ta'minlashda yangi yondashuvlarni qo'llashiga olib keldi. Xususan, Yevropaning energiya importini diversifikatsiya qilish maqsadida quyidagi choralarga e'tibor qaratilgan:

Yevropa, Rossiya gaziga bo'lgan bog'liqlikni kamaytirish maqsadida AQSh, Qatar va boshqa energiya ishlab chiqaruvchi davlatlardan yangi tabiiy gaz yetkazib berish tizimlarini yaratishni rejalashtirmoqda. 2022-yilda AQShning suyuq tabiiy gaz eksporti Yevropaga 76% ga oshgan.

- Yevropa Ittifoqining eng muhim maqsadlaridan biri karbon chiqindilarini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashdir. 2030-yilga qadar Yevropa, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olingan elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmini 40% ga oshirishni maqsad qilgan.

- Yevropa davlatlari, quyosh, shamol, va suvdan olinadigan energiya ishlab chiqarishni kengaytirish uchun katta miqdordagi investitsiyalarni amalga oshirmoqda. Xususan, Germaniya, Daniya, va Ispaniya kabi mamlakatlar qayta tiklanuvchi energiyaga o'tishda eng yuqori o'sish sur'atlariga erishgan.

Beshinchidan, Yaqin Sharq mintaqasidagi geosiyosiy mojarolar, xususan, Eronning yadroviy dasturi va Isroil-Falastin mojarosi ham global xavfsizlik uchun jiddiy tahdidlarni yaratmoqda. Ushbu mojarolar nafaqat mintaqaviy barqarorlikka, balki xalqaro siyosat va xavfsizlik tizimlariga ham ta'sir qiladi. Graham Allisonning "Tukidid tuzog'i" ("Thucydides trap"), bu atama qadimgi yunon tarixchisi Tukididning asarlaridan kelib chiqqan va u kuchli davlatning o'z mavqei saqlab qolish istagi va yangi paydo bo'layotgan davlatning kuchayishi tufayli yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni ifodalaydi, ayniqsa, AQSh va Xitoy o'rtasidagi hozirgi kuchlar balansi munosabati bilan tez-tez ishlatiladi) modelidan kelib chiqib, bu kabi mojarolar qudratning o'zgarishi davrida yuzaga keladigan to'qnashuvlarning tabiiy natijasi sifatida ko'riladi.

Eronning yadroviy dasturi xalqaro sanksiyalarni keltirib chiqarmoqda. BMT tomonidan qo'yilgan sanksiyalar, shuningdek, AQSh va Yevropa davlatlari tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy bosim Eronni iqtisodiy izolyatsiyaga olib keldi. Ammo, Eronning yadroviy dasturiga qarshi xalqaro sanksiyalarni amalga oshirish ko'plab mintaqaviy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Misol uchun, Eron va AQSh o'rtasidagi diplomatik munosabatlar keskinlashgan, bu esa global va mintaqaviy xavfsizlikni zaiflashtiradi.

Isroil va Falastin o'rtasidagi ziddiyatlar Yaqin Sharqning barqarorligini doimiy ravishda tahdid ostiga qo'yadi. Falastin xalqining o'z milliy davlati uchun kurashlari, Isroilning mustahkam o'lkasi sifatida saqlanishiga intilishlari va bu jarayondagi xalqaro omillar, ayniqsa, AQSh, arab davlatlari va Yevropa davlatlarining siyosiy bosimlari mintaqaviy beqarorlikni kuchaytirmoqda.

Qolaversa, texnologik innovatsiyalar va raqobat zamonaviy global siyosatning markaziy elementlaridan biri bo'lib, davlatlarning iqtisodiy, harbiy va xalqaro nufuziga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt va 5G texnologiyalari kabi ilg'or sohalarida raqobat, davlatlar o'rtasidagi texnologik kuchni belgilab beradi. Xitoy va AQSh o'rtasidagi texnologik raqobat ayniqsa o'zining global iqtisodiy va xavfsizlik strategiyalariga ta'sir qilmoqda.

Xitoy va AQSh o'rtasidagi texnologik raqobat, ayniqsa sun'iy intellekt va 5G texnologiyalarida kuzatilmoqda. Xitoy o'zining texnologik rivojlanishida misli ko'rilmagan tezlikda o'sish sur'atlarini namoyish etmoqda, xususan, sun'iy intellekt, 5G va robototexnika sohalarida. 2023-yilda Xitoy sun'iy intellektga \$150 milliarddan ortiq sarmoya kiritgan bo'lsa, AQSh esa Google, Microsoft va Apple kabi gigant kompaniyalari bilan

global texnologik innovatsiyalarni boshqarishda yetakchilik qilmoqda.

Zamonaviy geosiyosiy o'zgarishlar jahon siyosiy manzarasini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Graham Allisonning fikricha, kuchli davlatlarning rivojlanayotgan davlatlar bilan qarama-qarshiliklari tarixan konfliktlarga olib kelgan. Allisonning "Destined for War" asarida aytilishicha, XX asrda bunday qarama-qarshiliklar 12 ta holatdan 10 tasida urush bilan yakunlangan [1].

Birinchiidan, Allison XX asr misolida urush ehtimolini ko'rsatib bergan bo'lsa-da, XXI asr global siyosiy sharoitlari o'ziga xos bo'lib, o'tmishdagi ssenariylarni to'liq takrorlamaydi. Bugungi dunyo ko'p tomonlama diplomatiya, xalqaro tashkilotlar va iqtisodiy o'zaro bog'liqlik bilan o'zaro qarama-qarshiliklarni boshqarishga imkon yaratmoqda. AQSh va Xitoy o'rtasidagi kuchlar dinamikasi keskin bo'lsa-da, urushdan ko'ra savdo muzokaralari va geosiyosiy raqobat shakllariga ko'proq yo'nalmog'ga.

Ikkinchidan, xalqaro hamkorlik va islohotlar nafaqat ziddiyatlarni yumshatishga, balki strategik barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, iqlim o'zgarishi, pandemiyalar va xalqaro savdo kabi global muammolar ikki davlatni hamkorlik qilishga majbur qilmoqda. Bunday umumiy manfaatlar strategik raqobatni boshqarishga yordam berishi mumkin.

Samuel Hantington "The Clash of Civilizations" asarida geosiyosiy o'zgarishlarning asosiy sabablarini sivilizatsiyalar

o'rtasidagi farqlarda ko'radi. Unga ko'ra, G'arb va Islom dunyosi, shuningdek, Xitoy va Hindiston kabi sivilizatsiyalar o'rtasidagi madaniy va siyosiy farqlar global nizolarning asosiy manbai hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda ushbu to'qnashuvlar geosiyosiy qarorlarni shakllantirishda davom etmoqda [6].

Hozirgi geosiyosiy o'zgarishlar har bir mintaqada turli ko'rinishda namoyon bo'lmoqda, ammo ularning umumiy tendensiyasi ko'p qutbli dunyo tizimining shakllanishiga ishora qiladi. Yetakchi davlatlar tomonidan xalqaro diplomatiya, kuchlar muvozanati va mintaqaviy hamkorlikning rivojlantirilishi ushbu murakkabliklarni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Yuqorida keltirilgan olimlarning tahlillari zamonaviy geosiyosiy jarayonlarni chuqurroq anglash va samarali strategiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy geosiyosiy o'zgarishlar murakkab va ko'p qirrali jarayonlardir. Bu jarayonlarning tahlili faqat harbiy yoki madaniy farqlarga emas, balki iqtisodiy, ekologik va texnologik omillarga ham asoslanishi zarur. Global xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun davlatlar o'rtasida diplomatiya, iqtisodiy integratsiya va madaniyatlararo hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, xalqaro institutlarning rolini kuchaytirish talab etiladi. Zamonaviy geosiyosiy o'zgarishlarni boshqarishda yuqori darajadagi diplomatik yondashuvlar, xalqaro hamkorlik va global barqarorlikni saqlash uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Allison, Graham. *Destined for War: Can America and China Escape Thucydides's Trap?* Houghton Mifflin Harcourt, 2017.
2. Brautigam, Deborah. *The Dragon's Gift: The Real Story of China in Africa.* Oxford University Press, 2009.
3. Brzezinski, Zbigniew. *The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives.* Basic Books, 1997.
4. Cohen, Stephen P. *India: Emerging Power.* Brookings Institution Press, 2001.
5. Cybersecurity Ventures. "Cybercrime Damages to Reach \$10.5 Trillion Annually by 2025." Cybersecurity Ventures, 2021, www.cybersecurityventures.com.
6. Huntington, Samuel P. *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order.* Simon & Schuster, 1996.
7. Kissinger, Henry. *World Order.* Penguin Press, 2014.
8. Keohane, Robert O. *After Hegemony: Cooperation and Discord in the World Political Economy.* Princeton University Press, 1984.
9. Lee, Kai-Fu. *AI Superpowers: China, Silicon Valley, and the New World Order.* Houghton Mifflin Harcourt, 2018.
10. McKibben, Bill. *Eaarth: Making a Life on a Tough New Planet.* Times Books, 2010.
11. Mearsheimer, John J. *The Tragedy of Great Power Politics.* W.W. Norton & Company, 2001.
12. Mearsheimer, John J. *The Tragedy of Great Power Politics.* Updated ed., W.W. Norton & Company, 2014.
13. Nye, Joseph S. *Soft Power: The Means to Success in World Politics.* PublicAffairs, 2004.
14. United Nations. *World Economic Situation and Prospects 2023.* United Nations Publications, 2023.
15. World Bank. *World Development Report 2022: Data for Better Lives.* World Bank Publications, 2022.
16. Zakaria, Fareed. *The Post-American World.* W.W. Norton & Company, 2008.



Azim TURGUNOV,
Alfraganus universiteti PhD

S.f.d., professor A.Muminov taqrizi asosida

AXBOROT VA MEDIA MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH – AXBOROT-MAFKURAVIY TAHIDDLARGA QARSHI KURASHNING SAMARALI YO‘NALISHI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada jamiyatda axborot iste'moli madaniyati va media savodxonlikni rivojlantirish – axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning samarali usuli sifatida ko'rilishi ilmiy dalillar bilan ko'rsatilgan. Axborot iste'moli madaniyati va media savodxonlikni rivojlantirish va o'rganishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Axborot urushi, axborot qarama-qarshiligi, axborot bosimi, psixologik urush, internet, mafkuraviy tahdid.

РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ И МЕДИАКУЛЬТУРЫ – КАК ЭФФЕКТИВНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ БОРЬБЫ С ИНФОРМАЦИОННО-ИДЕОЛОГИЧЕСКИМИ УГРОЗАМИ

Аннотация

В статье опубликовано научные развитие культуры потребления информации и медиаграмотности в обществе рассматривается как эффективный способ борьбы с информационными и идеологическими угрозами. На научной основе анализируются социально-философские аспекты культуры потребления информации, развития и обучения медиаграмотности.

Ключевые слова: Информационная война, информационный конфликт, информационное давление, психологическая война, Интернет, идеологическая угроза.

DEVELOPMENT OF INFORMATION AND MEDIA CULTURE - AS AN EFFECTIVE DIRECTION OF FIGHTING AGAINST INFORMATION-IDEOLOGICAL THREATS

Annotation

The article shows with scientific evidence that the development of information consumption culture and media literacy in society is seen as an effective way to fight against informational and ideological threats. Socio-philosophical aspects of information consumption culture and media literacy development and learning are analyzed on a scientific basis.

Key words: Information war, information conflict, information pressure, psychological war, Internet, ideological threat.

Kirish. Zamonaviy dunyoda xalqaro munosabatlarda “axborot urushi”, “axborot qarama-qarshiligi”, “axborot bosimi” kabi tushunchalarning keng iste'molga kirib kelayotganligi insonlar-insonlarni axborot xurujlaridan muhofaza qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish zaruratining yanada dolzarbligini oshirmoqda. O'z vaqtida Hindistonning tanikli siyosiy arbobi Maxatma Gandi shunday yozgan edi: “Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o'tira olmayman. Chunki, unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib, xonadonimni ag'dar-to'ntar qilib, o'zimni yiqitib tashlashini ham xohlamayman”[1]. Bu so'zlarni bugungi axborot tahdidlari va turli xil ma'lumotlarning xilma-xil yo'llar bilan mamlakatimizga, umuman, boshqa mamlakatlarga ham kirib kelib, u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, e'tiqod shakllariga va tarbiya uslublariga salbiy yoki ijobiy ta'siri jarayonlari ma'nosida qo'llash ham mumkin.

Bugun O'zbekiston ham ana shu yagona axborot tizimining faol subektiga aylandi. Uning dunyo bilan aloqasi, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ishtiroki, davlatlararo munosabatlar, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va madaniy aloqalari umumjahon axborot tizimi tarkibida amalga oshirilmoqda. Bu bevosita elektron pochta, elektron axborot almashish tizimi orqali ham milliy, ham dunyoviy muammolarni hal etishda faoliyat samaradorligini oshirishda, vaqtni tejashda, moliyaviy harajatlarning keskin kamayishida, qolaversa, zamonaviy axborot almashtirish salohiyatini namoyon qilishda katta samara bermoqda.

Hozirgi zamon axborot tizimi, uning juda keng imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umummilliy manfaat hamda umummilliy taraqqiyot nuqtai nazaridan boshqaruv mehanizmini yaratish, uning mohiyati va unsurlarini chuqur anglash zarur bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda axborot urushi “psixologik urush” tushunchasi orqali ham yoritilmoqda. “Psixologik urush”ning ma'nosini mutaxassislar quyidagicha izohlaydi: u “muayyan bir davlat maxsus organlarining o'z siyosiy va hatto sof harbiy maqsadlariga erishish uchun boshqa davlatning fuqaro aholisi va harbiy xizmatchilariga psixologik ta'sir o'tkazishdan iborat faoliyat mazmunini aks ettiradi”[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchi olim Sh.Raimovning e'tirof etishicha, “qator davlatlar tomonidan qo'llanilayotgan “psixologik urush” olib borish metodlari aslida eramizdan oldingi VI asrda yashagan xitoy faylasufi va harbiy arbobi sun szi qo'llanmalarida quyidagi tarzda ifodalab berilgan: dushmaningizning mamlakatidagi hamma yaxshi narsalarni parokanda qiling; dushmanning ko'zga ko'ringan arboblarini jinoyatkorona ishlarga jalb qiling; dushman rahbarlarining obro'sini to'king va payti kelganda ularni jamoatchilik oldida izza qiling; shu maqsadda eng qabih va razil odamlar bilan hamkorlikdan foydalaning; o'zingizga dushman mamlakat fuqarolari orasida nizo va to'qnashuvlar keltirib chiqaring; insonlarni keksalarga qarshi gij-gijlang; hukumatning ishiga barcha vositalar bilan xalal bering; dushman qo'shinlarining normal ta'minlanishiga va ularda tartib saqlanishiga barcha usullar bilan to'sqinlik qiling; dushman qo'shinlari maylini ashula va musiqalar bilan band qilib qo'ying; dushmanlaringizning an'analarni qadrsizlantirish va o'z xudolariga ishonchini yo'qotish uchun mumkin bo'lgan hamma narsani qiling; ma'naviy buzilishni avj oldirish uchun yengiltabiat ayollarni yuborib turing; axborot va sheriklar sotib olish uchun taklif hamda sovg'alarga saxiy bo'ling; umuman pulni ham, va'dalarni ham ayamang, chunki ular ajoyib natijalar beradi”[3].

Professor M.Quronovning fikricha, “axborot xurujlari – bu mafkuraviy ob'ekt xususiyatlarini hisobga olib ta'sir ko'rsatish: dushman o'zini o'rta yoshli va ma'lumotli o'zbek do'sti bilan gaplashayotgandek, tutadi. Hozir barcha MDH mamlakatlarida bo'lgan o'tish davri iqtisodiy muammolarni

“Hammaga kelgan to‘y-da, deb emas, balki, aksincha, faqat O‘zbekistonda bor” deb aldayapti. O‘zbekiston taraqqiyotda MDHning ko‘plab davlatlaridan ustun ekanini zinhor-bazinhor aytmaydi. Ana shunday soxta axborot vositasida mafkurasi zaif ayrim yurtdoshlarimizda noto‘g‘ri, o‘tkinchi munosabatni paydo qilishga umid qiladi”[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ommaviy axborot vositalari odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvoriga ta‘sir ko‘rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Aynan, ommaviy axborot vositalari amalga oshiradigan va katta mablag‘ talab qilmaydigan g‘oyaviy ta‘sir va tazyiqning o‘ziga xosligi shundaki, u insonlarga sezdirmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot dushmani yo‘q qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g‘oyaviy ta‘sir yo‘naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o‘rganilgan holda asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta‘sir ko‘rsatishga, shakllangan qadriyatlarini o‘zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo‘qqa chiqarishga qaratiladi.

Ochiq axborot kommunikatsiyasi jarayonida insonlar ongiga ta‘sir etayotgan yot g‘oyalarga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishdan avval insonlarning ijtimoiy xulqida ko‘zga tashlanadigan eng muhim holatlardan biri tashvishlanish, nimadandir cho‘chish va shu tufayli ijtimoiy munosabatlardan o‘zini olib qochishga intilish hislarini namoyon bo‘lishini hisobga olish lozim. Chunki agar, psixologik himoya holatining mohiyatidan kelib chiqilsa, bu shaxs ichki kechinmalarini ifodalovchi shunday holatki, unda odam ichki ruhiy mo‘tadillikni asrash uchun o‘zidagi xavotirlanish, qo‘rquv va xadiksirashlarini bosishga, ulardan xalos bo‘lishga intiladi.

“Axborotlashgan jamiyatning ochiq axborot xurujlari vaziyatida insonlarning o‘z-o‘zini himoya qilishini boshqarishda quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor berish lozim:

har bir inson uchun mustaqil fikr zarurligini ta‘kidladik. Mustaqil fikrga ega bo‘lgan insonning o‘ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma‘lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko‘rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin. Professor M.Quronov ta‘biri bilan aytganda, mustaqil fikrga mustaqil (erkin, ozod; tobe bo‘lmagan, alohida) – ixtiyori o‘zida bo‘lgan; tobe, qaram bo‘lmagan kabi ma‘nolaridan kelib chiqib qarashimiz lozim. Bunda o‘zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz, o‘zicha fikr yuritish, yashash tushuniladi. Insonlarimiz shunga qodirmi? Uni shunga o‘rgataymizmi?”[5];

insonlar turli yot va g‘ayrushururiy axborot xurujlariga berilmasligi uchun ularda milliy g‘ururni tarbiyalash zarur. “Yangi zamonning yangi tushunchalari” tahliliga e‘tibor qaratar ekan, M.Quronov milliy g‘urur tushunchasining mohiyatini quyidagi tarzda sodda va tushunarli yoritib bergan: “Milliy g‘urur – insonlarning yoshiga mos ravishda o‘z xalqining qadr-qimmatini bilishi, izzatlashi; uning madaniyati, ma‘naviyati, iqtisodiyotida qo‘lga kiritgan yutuqlari, xizmatlari, boy merosini bilishi va ana shu yuksak milliy madaniy yutuqlarga mos bo‘lishga, ularni boyitishga intilishini o‘z ichiga oladi. Biroq, milliy g‘urur stixiyali rivojlanib, o‘z-o‘ziga tanqidiy qarashdan ajratilsa, unda o‘z millatini boshqalardan ustun qo‘yish, milliy manmanchilik kabi salbiy natijalar berishi mumkin. Shuning uchun ham milliy g‘ururni maxsus, ya‘ni, yaratuvchan maqsadlarga qaratib, tanqidiylikni kamtarlik bilan uyg‘unlashtirgan holda shakllantirish kerak”[6]. “Milliy g‘ururning ahamiyati ham ana shunda, bunday fazilatga ega insonlar noto‘g‘ri g‘oyalarga, jumladan, axborot xurujlariga tobe bo‘lmaydi;

milliy g‘ururi yuksak insonlar shaxsida iymon, insof va diyonat kabi fazilatlarini rivojlantirish mumkin. Chunki, inson qalbi bilan bog‘liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar olamida adashtirmaydigan “kompas” rolini o‘ynaydi. “Internet shunday o‘rmonki, unda kompassiz yurib bo‘lmaydi”. Internetda uyum-uyum “keraksiz” axborotlar mavjudligini e‘tirof etish zarur. Garchi, Internet axloqiy jihatdan betaraf vosita sanalsa-da, undan shu vaqtga qadar to‘plangan madaniy merosni saqlash maqsadida ham, unga putur yetkazish maqsadida ham foydalanish mumkin”[7].

Alohida ta‘kidlash kerak-ki, bugungi kunda nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma‘lumotlar olinmoqda. Jahon axborot maydoni kengayib borayotgan shunday bir sharoitda insonlarning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma deb, bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddalarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi.

Shuningdek, M.Quronov “Biz anglayotgan haqiqat” nomli kitobida “Diqqat, Internet” sarlavhasi ostida quyidagi fikrlarni bayon yetgan: “Hali Internetning inson hayotidagi o‘rni haqida yakdil xulosa qilishga ertaroqqa o‘xshaydi. “Texnologiya biznesa. Sonnest” jurnali o‘zining 2003-yil 10-sonidagi “Informatsiya + natsiya” maqolasida xavotirli gaplarni yozdi. “Internetdan mustaqil foydalanuvchilarda, – deb yozadi jurnal, – o‘zini o‘zi barqaror identifikatsiya qilish, o‘ziga xoslik yo‘qola boradi. Odamning o‘zini anglashi xiralashadi yoki beqaror bo‘lib qoladi.

Tahlil va natijalar. “Internet – millatsiz, qalbsiz, tarixsiz bepoyon cheksizlik. Unga odam qancha chuqur kirib borsa, miya kataklari shuncha tashqi ma‘lumotga to‘lib boradi. Begonalik sari qancha chuqur borsangiz, o‘zingiznikilardan shuncha uzoqlasha borasiz. Miyangizda 100 ta katak bo‘lsa-yu, shundan 70 tasi o‘zbekona ma‘noga to‘la bo‘lsa, yaxshi. O‘zimiznikisiz. Mabodo 30 tasi o‘zbekcha bo‘lsa, yomon. Siz o‘zingizga, o‘zingiznikilarga begonalar tomonidan turib baho bera boshlaysiz. Bundan o‘zingiznikilar yutqazadi. Begonalar yutadi...”[8].

N.Umarovning fikricha, “ayni paytda axborotlashgan jamiyatni o‘ziga xos bir jannat sifatida tasavvur qilish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Jumladan, axborotlashgan jamiyatda: ommaviy axborot vositalarining jamiyatga ta‘siri yanada ortadi; axborot texnologiyalari insonlar va tashkilotlarning shaxsiy, xususiy hayotiga zarar yetkazishi mumkin bo‘ladi, masalan, mamlakatning istagan fuqarosi haqida axborot to‘plash va uning erkinligini bo‘g‘ish yo‘lida bu ma‘lumotlardan foydalanish mumkin bo‘ladi; axborot texnologiyalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanish imkoniyati ortadi; sifatli va haqqoniy axborotni tanlab olish muammosi yuzaga keladi; ko‘pchilik kishilar uchun axborotlashgan jamiyat muhitiga moslashish murakkablik tug‘diradi; axborot texnologiyalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadigan kishilar bilan iste‘molchilar o‘rtasida uzilish yuzaga kelish xavfi tug‘iladi; jamiyatning texnologik imkoniyatlari bilan sotsial sohani va madaniyatni rivojlantirish bilan bog‘liq imkoniyatlari o‘rtasida tafovut paydo bo‘ladi”[9].

Muallif o‘z fikrini davom ettirib, “axborotlashgan jamiyatdagi tafovutlarni bartaraf etish uchun har bir insonda zamonaviy vositalar va texnologiyalar yordamida katta hajmdagi axborotni tez qabul va qayta ishlash malakasini tarkib toptirishning muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidlaydi. Axborot iste‘moli madaniyati insonning ijtimoiy tabiatiga bog‘liq bo‘lib, uning ijodiy qobiliyatlarini mahsulati sanaladi va texnik quilmalar (telefon, kompyuter, axborot tarmoqlari)dan foydalana bilish; o‘z faoliyatida ko‘p sonli dasturiy mahsulotlar jamlangan kompyuter texnikasini qo‘llashga qodir bo‘lish; turli manbalar: davriy nashrlar, elektron kommunikatsiyalardan o‘zi uchun kerakli axborotni olish, uni tushunarli tarzda taqdim etish va undan samarali tarzda foydalana olish; axborotni tahliliy qayta ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish; turli axborotlar bilan ishlash malakasiga ega bo‘lish; o‘z faoliyat sohasiga aloqador axborot oqimlariga xos xususiyatlarni bilish; informatsion bag‘rikenglik va informatsion faollikni talab etadi”[10].

Xulosa va takliflar. Globallashuv sharoitida media ta‘sirning ko‘lami va tezligi oshib, ommaviy axborot vositalari, Internet va undagi ijtimoiy saytlar, kino sanoati orqali katta miqdor va miqyosda axborotlar uzatilmog‘da. Zamonaviy dunyoni ommaviy axborot vositalari – mediasiz tasavvur etish qiyin. Media – bosma nashr, matbuot, televidenie, kino, radio, ovoz yozish va internet tizimini o‘z ichiga olishi asosida turli axborot-mafkuraviy tahdidlarni tarqatuvchi asosi vosita va omilga aylanib ulgurd.

Media ta‘limdan ko‘zlangan asosiy maqsad media savodxonlikni shakllantirishdir. Boisi savodxonlikning aynan shu turi insonga axboriy maydonda televidenie, radio, video,

kinematograf, matbuot, internet, umuman olganda, media madaniyatning tilini tushunishga, axborotlarni tahlil etish yo'li bilan qabul etishga, axborotlardan faol foydalanishga yordam beradi. Media savodxon odam sotsiomadaniy, siyosiy kontekstdagi medianing ta'sir imkoniyatlarini tahlil etish, baho berish qobiliyatga ega bo'ladi.

Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda dinni jamiyat hayotidan siqib chiqarishni emas, balki, dinni jamiyat

hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qilib, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan omil sifatida tushuntirishga harakat qilish lozim. Dunyoviy davlatda davlatning din va diniy tashkilotlardan mustaqil ekanligi, qaysidir din yoki mafkuraning majburiyat sifatida o'rnatilmaganligi, ma'lum bir din yoki mafkura ta'sirida hukmron tizimning vujudga kelishiga yo'l qo'yilmasligi alohida xususiyatdir.

ADABIYOTLAR

1. Бегматов А. Глобаллашув, миллий маънавият ва ахборот тизимлари. // Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси жорий архиви, 2006.
2. Криско В. Секреты психологической войны. Цели, задачи, формы, опыт. – Минск: Харвест, 1999. – С. 6.
3. Эшбеков Т. Мафкура майдонида ахборот психологик хавфсизлик. – Тошкент, 2011. – Б.69.
4. Куронов М. Болам бахтли бўлсин, десангиз (Ота-оналар учун). – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 121-122
5. Куронов М. Болам бахтли бўлсин, десангиз (Ота-оналар учун). – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 120.
6. Куронов М. Болам бахтли бўлсин, десангиз (Ота-оналар учун). – Тошкент: Маънавият, 2013. –Б. 153.
7. Умарова Н. Информацион хуружларнинг олидини олишга қаратилган маънавий-маърифий тарғиботнинг самарали усул ва воситалари. // “Армия – давлат таянчи, тинчлик кафолати”. Қуролли Қучлар тизимидаги тарбиявий ишлар органлари ҳамда тарғиботчилар учун услубий қўлланма. – Т.: “Сано-стандарт” нашриёти, 2013. – Б.107.
8. Куронов М. Биз англаётган ҳақиқат. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 5-6.
9. Умарова Н. Информацион хуружларнинг олидини олишга қаратилган маънавий-маърифий тарғиботнинг самарали усул ва воситалари. // “Армия – давлат таянчи, тинчлик кафолати”. Қуролли Қуяоар тизимидаги тарбиявий ишлар органлари ҳамда тарғиботчилар учун услубий қўлланма. – Тошкент: Сано-стандарт, 2013. – Б. 103.
10. Умарова Н. Информацион хуружларнинг олидини олишга қаратилган маънавий-маърифий тарғиботнинг самарали усул ва воситалари. // “Армия – давлат таянчи, тинчлик кафолати”. Қуролли Қуяоар тизимидаги тарбиявий ишлар органлари ҳамда тарғиботчилар учун услубий қўлланма. – Тошкент: Сано-стандарт, 2013. – Б. 104.



Dilafruz TURDIYEVA,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi PhD
E-mail: dilyadiamond@gmail.com

PhD J.Karimov taqrizi asosida

DIN VA UNING JAMIYATDAGI FUNKSIYALARI TAHLILI

Annotatsiya

Din doimo bashariyat diqqat markazida bo‘lgan. Tarixning muayyan bosqichlarida u mutlaq hukmron kuch bo‘lgan bo‘lsa, ba‘zi bosqichlarda inkor etilgan va unga qarshi “urush” e‘lon qilingan. Jamiyatdagi mavqeyidan qat‘iy nazar u doimo o‘rganish, tadqiqot ob‘yektini bo‘lib kelgan. Globallashuv natijasida ro‘y berayotgan millatlar, irqalar, dinlararo muloqotning o‘ziga xos ahamiyat kasb etishi zamirida, dinlarni o‘rganish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni damda, Yer kurrasining ba‘zi mintaqalarida diniy asosdagi kelishmovchilik o‘choqlarining alangalagani, shuningdek, ba‘zi noxolis tadqiqotchilar tomonidan dinlar o‘rtasidagi to‘qnashuv “nazariya”larining ilgari surilishi din va bag‘rikenglik masalalari bilan shug‘ullanuvchi dinshunoslik fanining yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: Din, funktsiya, tahlil, Freyd, dunyoqarash, tasnif, monoteizm, politeizm, din tipologiyasi.

АНАЛИЗ РЕЛИГИИ И ЕЁ ФУНКЦИЙ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

Религия всегда была в центре внимания человечества. На определенных этапах истории она была абсолютно доминирующей силой, в то время как на других этапах ее отрицали и ей объявляли «войну». Независимо от его положения в обществе, он всегда был объектом изучения и исследования. Поскольку глобализация повысила важность диалога между нациями, расами и религиями, изучение религий становится еще более важным. В настоящее время обострение религиозных конфликтов в некоторых регионах мира, а также выдвижение «теорий» конфликта между религиями некоторыми предвзятыми исследователями ставят под угрозу вывел на новый уровень научную дисциплину религиоведение, которая занимается вопросами религии и толерантность.

Ключевые слова: Религия, функция, анализ, Фрейд, мировоззрение, классификация, монотеизм, politeizm, типология религии.

ANALYSIS OF RELIGION AND ITS FUNCTIONS IN SOCIETY

Annotation

Religion has always been at the center of human attention. At certain stages of history, it has been a dominant force, while at other stages it has been denied and "war" declared against it. Regardless of its position in society, it has always been an object of study and research. As globalization has increased the importance of dialogue between nations, races and religions, the study of religions has become even more important. Currently, the aggravation of religious conflicts in some regions of the world, as well as the advancement of "theories" of conflict between religions by some biased researchers, have brought to a new level the scientific discipline of religious studies, which deals with issues of religion and tolerance.

Key words: Religion, function, analysis, Freud, worldview, classification, monotheism, polytheism, typology of religion.

Kirish. “Inson qachondan beri Xudoga ishonib keladi?”, “Din qachon paydo bo‘ldi?” kabi savollar doimo olimlarni qiziqitirib, o‘ylantirib kelgan. Mazkur izlanishlar necha asrlardan beri davom etib kelayotgan bo‘lsa-da, hali hanuz bu borada bir to‘xtamga kelinmagan. Umumiy ma‘noda, bugungi kundafanda dinlarning shakllanishi tarixiga oid ikki xil qarash mavjud.

Birinchi qarashga ko‘ra dinning paydo bo‘lishi bevosita insoniyatning yaralishi bilan bog‘liq. Xudo ilk insonlarni yaratishi bilan ularga O‘zini tanitdi, natijada inson ilk dinga e‘tiqod qila boshladi. Bunday qarash fanda “teologik yondashuv” deb nomlanadi. Bugun mavjud bo‘lgan har qanday din o‘zining tarixini insoniyat yaralishi – ilk inson bilan bog‘lashini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, islom dinida – Odam va Havvo, yahudiylik va xristianlikda – Adam va Yeva, zardushtiylikda – Govmard va boshqalar. Mazkur ta‘limotlar dinlarning muqaddas manbalarida bayon qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dinshunoslik sohasida olib borilgan izlanishlar shakllangan. Bu davrda turli mintaqalarda zikr qilingan soxada bir qancha mutaxassislar yetishib chiqqan. Ulardan R.Pettazoni, M.Eliade, Van der Lyu, R.Otto, G.Menshing, J.Vax, F.Xeiler, G.Dumezil, E.G.Parrinder, S.G.F.Brandon, Erik F.Sharp, Ninian Smart, M.Kitagava, R.S.Zeyxner, Ugo Biyenchi, V.Kantvell Smit, Ake V.Strom, Xans J.Shoyps va Mixayel Pay va hokazolar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiylik va tadrijiylik, qiyosiy-nazariy tahlil, tizimli, kompleks yondashuv va boshqa ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Teologik yondashuvga ko‘ra, turli buyumlarga sig‘inish va ko‘pxudolik, jumladan animizm, totemizm, fetishizm va shomonlik yakkaxudolilikdan keyin yuzaga kelgan.

Dinlarning kelib chiqishi haqidagi ikkinchi qarash fanda “materialistik yondashuv” deb nomlanadi. Mazkur qarashlarning paydo bo‘lishi antik davrga borib taqalib, ilk bor qadimgi yunon faylasuflari qarashlarida aks etgan. XVII asrga kelib Yevropada cherkov hokimiyatining susaya boshlashi, hurfikrlilik namoyandalari – din tanqidchilarining paydo bo‘lishi, XIX asrning ikkinchi yarmida Charlz Darvin tomonidan “Turrlarning kelib chiqishi” (1859) nomli asarning chop etilishi ham turki bo‘ldi. Keyinchalik mazkur qarashlar Avgust Komt va Lyudvig Buxnerlar tomonidan eng cho‘qqisiga ko‘tarildi. Unga ko‘ra din bu ijtimoiy hodisa, inson tafakkuri, emosiyalari mahsulidir. Mazkur qarash tarafdorlari fikricha, dinlar soddadan – murakkabga, umumiylikdan – xususiylikka, ko‘pxudollikdan – yakkaxudolikka tomon uzoq tarixiy evolyusion jarayonni bosib o‘tgan. Unga ko‘ra, ilk davrdagi ibtidoiy odamning jismoniy, fiziologik, asab-endokrin, biologik, psixologik va boshqa sohalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Bu nafaqat uning hayoti va faoliyatiga, fe‘l-atvoriga, balki uning fikrlash darajasiga, kuchli hayajonlanishiga, tasavvur etishiga, mustahkam, haqiqiyoyki

soxta mantiqiy qonuniyatlarni kashf etishiga ta'sir ko'rsatadi. Uyqu, tush va nafas olish kabi holatlarda tanani boshqaruvchi va o'lim bilan undan ajratib turuvchi, hayot bag'ishlovchi qandaydir kuch mavjudligiga ishongan ajdodlarimiz, mazkur kuch harakat qiluvchi har bir narsa: daryo, quyosh, oy, daraxt kabi mavjudotlarda bor deb tasavvur qilganlar. Natijada, inson qo'rquvi, hurmati, ehtiyoji va zarurati darajasida ularga sig'ina boshlagan.

Materialistik maktab tarafdorlari fikriga ko'ra, qo'rquv dinlarning kelib chiqishida asosiy rol o'ynagan hissiy holatdir. Jumladan, ingliz faylasufi Gerbert Spenser (1820–1903) ham ibtidoiy qabila dinlarining kelib chiqishiga qo'rquv natijasida “ajdodlarga sig'inish” sabab bo'lganligini ta'kidlaydi. Spenser ijtimoiy hisob–kitoblarga suyanan holda, hayot qo'rquvining dinlardagi o'rniga alohida diqqatni tortadi. Bu qo'rquvning ajdodlarga nisbatan ibodatning barcha ko'rinishlari shakllantirganligini va tangrilarning ustun yoki qahramon bo'lgan ajdodlardan tanlanganligi fikrini ilgari suradi; har bir dinda ajdodlarga alohida e'tibor qaratilganiga ishora qiladi [2].

Taniqli psixolog Zigmund Freyd (1856–1939) ham dinning kelib chiqishini aynan qo'rquv hissi bilan bog'laydi. Uning fikriga ko'ra, matriarxat davrida o'ziga juft topish uchun yosh yigitlar otalarini o'ldirib, hatto o'z onalariga ham uylanaganlar. Vaqt o'tishi bilan o'g'il o'z otasining joniga qasd qilganidan vijdoni qiyalib, otasining ruhi undan qasos olishidan qo'rqib, unga ibodat qila boshlagan. Freyd bu nazariyani “edip kompleksi” deb ataydi [6].

Maks Myuller (1823–1900) fikriga ko'ra, dinning kelib chiqishi tabiat hodisalarining insonga bergan dahshatidan kelib chiqqan va u “naturalizm” deyiladi. Naturalizm, fizikaviy muhitda uchraydigan quvvat va mavjudotlarning ideallashtirilishi, shaxslashtirilishi va ilohiyashtirilishi demakdir. Ushbu fikrni ilgari surgan Maks Myuller hinduizmining muqaddas kitobi Vedalarga suyanan. Vedalardagi xudo nomlarining tabiat hodisalarini bilan aloqador ekanligi fikrini o'rta tashlagan; misol uchun “Agni”ning “olov”, “Dyaus”ning “ko'k” (osmon) ma'nolarini bildirishini, bu so'zdan fransuzcha “Dieu” (lotincha Deus), ispancha “Dios” (Xudo) so'zlarining kelib chiqqanini ma'lum qilgan. Myuller deyarli barcha dinlarda xudo nomlari, avval olov bo'lishi bilan birga, tabiat hodisalarini bildirishini; tabiat kuchlariga g'ayritabiiy baho berish moyilligini uyg'otgani va til o'zgarishlari natijasida dinlardagi barcha muqaddas tasavvur va e'tiqodlarning yuzaga kelganini bildirgan. Mazkur maktab tarafdorlari dinlarning yuzaga kelishi va shakllanishi animizm, totemizm, fetishizm va shamanizm kabi bosqichlarda yuzaga kelganini ta'kidlaydi [4].

Dinning “funksiya” va “rol” tushunchasini farqlash lozim, ular bir biri bilan bog'liq, lekin o'xshash emas. Funksiya – bu dinning jamiyatdagi harakat usuli bo'lsa, rol – bu funktsiyani bajarish natijalarining jami yig'indisidir. Dinning bir nechta funktsiyalari mavjud: dunyoqarashni shakllantirish, kompensator, kommunikativ, reguliyativ, integrallash–dezintegrallash, madaniyatni targ'ib qilish (kulturotranslyuziya), legitimirallashtirish–legiti miralni olib tashlash.

Dunyoqarashni shakllantirish funktsiyasi dinda inson, jamiyat, tabiatga nisbatan aniq bir qarashlarning turlari mavjudligi tufayli amalga oshiriladi. Din hayotni (mavjudotni) ma'lum nuqtai nazardan tushunish (dunyoni to'la va undagi ayrim hodisa va jarayonlarni alohida tushuntirish), dunyoni kuzatish (his qilish va idrok etish orqali dunyoni aks ettirish), dunyoni his qilish (hissiy qabul qilish yoki rad etish), dunyoviy munosabat (baho berish) va hokazolarni o'z ichiga oladi. Diniy dunyoqarash Yaratganga nisbatan eng oliy tuyg'u va mezonlarni belgilaydi. Bunda mavjud borliqqa tushuncha berish dinga ishonganlar uchun turli cheklashlar doirasidan chiqish imkonini beradi, yorqin kelajak, huzur–halovatga erishish uchun umid, azob uqubat, baxtsizlik, yolg'izlik, tushkunlikdan ozod bo'lishni qo'llab–quvvatlaydi.

Kompensatorlik funktsiyasi ham odamlar ongining qayta shakllanishini, turmushning ob'yektiv shart sharoitlarini o'zgartirishdagi cheklanish, qaram bo'lish va o'zlikni to'ldiradi. Ruhiiy erkinlik orqali real jabr–zulm bartaraf etiladi; ijtimoiy guruhlar gunohga botish va azob chekish borasida teng huquqli bo'ladi; diniy tashkilotlar tomonidan beriladigan xayr–ehsonlar, mehr–shafqat, tarbiya, daromadlarni qayta taqsimlash

mazlumlarining musibatini yengillashtiradi va h.k. Umuman olganda, ruhiy zarbalarni bartaraf etish, tasalli berish, katarsis va ma'naviy ozuqa olish kabi kompensatsiyaning psixologik aspektlari muhim ahamiyatga egadir.

Kommunikativlik funktsiyasi muloqotni ta'minlaydi. U ham diniy, ham diniy bo'lmagan faoliyat va munosabatlarda vujudga keladi, axborot almashish, o'zaro ta'sir ko'rsatish, insonni inson tomonidan idrok etish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Diniy ong ikki xil muloqotni belgilaydi: dindorlarning o'zaro bir–birlari bilan muloqoti va dindorlarning ibodat, namoz, meditatsiya, maxfiy qarashlar paytidagi mediator va vositachilari tomonidan gipostazir jonotlar (xudo, farishta, o'lganlarning ruhi, avliyolar va b.) bilan muloqoti.

Regulyativlik funktsiyasi ma'lum bir g'oyalar, qadriyatlar, yo'l–yo'riqlar, stereotip qoliqlar, fikrlar, an'analar, rusumlar, institutlar orqali individ, guruh va jamoalarning faoliyati, munosabatlari, ongi va axloqini boshqarishdan iborat. Ayniqsa, me'yorlar tizimi (diniy huquq, axloq va h.k.), namunalar (taqlid uchun ko'psonli misollar), nazorat (qoidalar bajarilishini kuzatish), rag'batlantirish va jazo berish (haqiqiy va o'limdan keyin taqdirlanishiga va'da berish) muhim ahamiyatga ega. Integrasion–dezintegrasion funktsiyasi individ, guruh va institutlarni bir tomondan birlashtiradi, boshqa tomondan ularni ajratadi. Integratsiya shaxslar, ayrim ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, bir butun jamiyatdagi barqarorlik va chidamlilikni saqlasa, dezintegratsiya uni zaiflashishiga olib keladi.

Integrasion funktsiya ma'lum bir ma'noda yagona diniy e'tiqod mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Agar shaxslarning diniy ongi va xulq–atvorida bir–biriga muvofiq bo'lmagan g'oyalar, ijtimoiy guruh va jamiyatda bir–biriga qarama–qarshi konfessiyalar paydo bo'lsa, dinning funktsiyasi dezintegrasion bo'ladi.

Madaniyatni targ'ib qilish funktsiyasi oldin madaniyatning ma'lum bir qatlamlari – yozuv, kitob bosish, san'atning umuman rivojlanishiga yordam bergan bo'lsa, hozirda ba'zi madaniy fenomenlarni rag'batlantirib, ba'zilarini inkor etgan holda diniy–madaniy qadriyatlarni saqlash va ko'paytirish, ilmiy–ma'naviy merosni nasldan naslga qoldirish vazifalarini bajaradi.

Legitimlashtirish–legitimlarni olib tashlash funktsiyasi ba'zi jamoat tartiblari, institutlar, munosabatlar, me'yorlar, namunalar majburiyat sifatida qonuniy qilish yoki ularning ba'zilarini qonundan chiqarish vazifalarini amalga oshiradi. Din ma'lum huquqiy talab va majburiyatlarni ilgari suradi va uning asosida ba'zi ko'rinishlarga, ularga ma'lum munosabatni shakllantirgan holda baho beradi. Bunda majburiy va e'tiroz qilib bo'lmaydigan xarakter muhim ahamiyat kasb etadi.

Dinlarni o'rganishda ularning tarixi, e'ti qo diy asoslari, aqidalari, shuningdek, bir–biriga ta'siri kabi jihatlarini e'tiborga olish kerak. Dinshunoslar turli ilm–fan soha vakillari bo'lib, dinlarni o'zlar xos bo'lgan ilm yo'nalishi nuqtai nazardan o'rganib, turlicha yondashganlar. Shuning uchun ular o'rtasida ba'zi tafovutlar bo'lishi tabiiy. Masalan, din tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlar dinlarning yuzaga kelish tarixiga ko'ra davriy jihatdan yondashib tadqiq etganlar. Boshqa bir guruh olimlar dinlarni paydo bo'lgan va tarqalgan mintaqalariga ko'ra tadqiq etganlar. Ayrim dinshunoslar diniy nuqtai nazardan yondashib o'rganganlar. Dinlarni tasniflashda mintaqaviy yondashuvning o'ziga xos jihati shundaki, mintaqadagi aynan bir dinning ikkinchi dinga ta'siri va o'zaro qorishuvi yoki turli mintaqa dinlarining o'zaro o'xshash jihatlarini yoki farqlitomonlarini o'rganishdan iborat. Dinlarni quyidagi omillar asosida tasnifga bo'lish mumkin [6]:

1. Qit'alarda tarqalishiga ko'ra Afrika, Osiyo, Yevropa, Amerika va Avstraliya dinlari tarzida tasniflash. Biroq bu unchalik munosib tasnif emas. Chunki, shunday dinlar ham borki, ular bir nechta qit'alarga tarqalgan. Xususan, islom va xristianlik deyarli barcha qit'alarda mavjud. Shuningdek, ba'zi qit'alarda ozchilikni tashkil etuvchi boshqa dinlar vakillari ham bo'lishi bilan birga, deyarli aksar aholi bir dinga e'tiqod qiladi. Masalan, Yevropada asosan xristianlik ko'p tarqalgan, islom dini Amerikaga nisbatan Afrikada ko'proq tarqalgan. Osiyo qit'asida islom, hinduizmlilik, buddaviylik, konfusiylilik, sintoiylik dinlari aralash tarqalgan. Ba'zan bir qit'ada paydo bo'lgan din boshqa

qit'ada keng yoyilgan. Masalan, xristianlik Falastinda vujudga kelgan bo'lsa-da, asosan Osiyo qit'asidan tashqarida tarqaldi.

2. Jo'g'rofiy mintaqasiga ko'ra Sharq dinlari va G'arb dinlari tarzida tasniflash. Bu dunyoning qutblarga bo'linishiga monand siyosiy va madaniy tafovutni aks ettiruvchi keng jo'g'rofiy tasnifdir. Sharq dinlariga hinduiylik, buddaviylik, konfusiylilik, sintoiylik, daolik va boshqa Uzoq Sharq dinlari kiritiladi. G'arb dinlariga yahudiylik, xristianlik va islom dinlari kiritiladi. Aslida islom dinini G'arb yoki Sharq dini deb bo'lmaydi. U jo'g'rofiy jihatdan Sharqda yuzaga kelib, G'arb mamlakatlarida ham keng tarqalgan. Yahudiylik va xristianlik xam aslida Sharq dinlari bo'lib, Yaqin Sharqda vujudga kelgan va G'arb mamlakatlarida keng yoyilgan.

3. Qadimgi dinlar siyosiy mintaqalarga ko'ra Mesopotamiya dinlari, Suriya mintaqasi dinlari, Kichik Osiyo yoki Onado'li dinlari, Fors dinlari tarzida tasniflanadi.

4. Dinlarning mamlakatlar hududlariga ko'ra Falastin dinlari, Arabiston yarimoroli dinlari, Meksika dinlari, hind dinlari, Xitoy dinlari, Yapon dinlari tarzida tasniflanadi.

Uzoq Sharq dinlari kabi ba'zi mintaqa dinlarini diniy mavzusiga ko'ra aniq belgilash imkoni bo'lmagan ko'p hollarda jo'g'rofiy tasnif qulay ilmiy tasnifdir. Masalan, yahudiylik, xristianlik va islom dinlarini tavid (yakkaxudolik, monoteizm) asosida umumlashtirilsa, Uzoq Sharq dinlarini yagona diniy tushuncha asosida umumlashtirib bo'lmaydi. Bunday holatda muammoning yechimi sifatida jo'g'rofiy tasnifga murojat qilish mumkin.

Dinlar unga e'tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o'zining ma'lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko'ra turli guruhlarga bo'linadi. Bu guruhlar son jihatdan qancha bo'lishidan yoki nazariy jihatdan qanchalik yetuk bo'lishidan qat'i nazar, ularni mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Chunki har qanday tasnif ma'lum bir jihatga e'tibor berib, boshqa qirralarni qamrab ololmaydi. Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari mavjud:

- tarixiy–geografik jihatga ko'ra;
- etnik jihatga ko'ra;
- e'tiqod qiluvchilarning soniga ko'ra;
- hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o'lik diniy tizimlar) va h.k.

Bugungi kunda dinshunoslikka bag'ishlangan adabiyotlarda asosan quyidagi tasnif keltiriladi:

1) primitiv diniy tasavvurlar (urug'–qabila dinlari) – totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sehergar, shaman yoki qabila boshliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan;

2) millat dinlari – ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), hinduizm (hindlarga xos), konfusiychilik (xitoy millatiga xos), sintoiizm (yaponlarga xos) kiradi;

3) jahon dinlari – dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat'i nazar unga e'tiqod qilishlari mumkin bo'lgan dinlar. Ular safiga odatda buddizm, xristianlik va islom dinlarini kiritadilar.

Bundan tashqari dinlar ta'limotiga ko'ra monoteistik yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik – ko'pxudolik (hinduizm, konfusiychilik) dinlari va h.k.ga bo'linadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan qisqa xulosa qilib aytganda, din insoniyat tarixida, birinchidan, umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy hulq-atvor qoidalariga aylantirgan; ikkinchidan, odamlarning bahamjihat yashashiga ko'malashgan; uchinchidan, odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida kuch bag'ishlagan; to'rtinchidan, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolish hamda avloddan–avlodga yetkazishga yordam bergan va shu yo'l bilan madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

ADABIYOTLAR

1. Gunnar Skirbekk, Nils Gilyo. Falsafa tarixi. –T.: Sharq, 2002.
2. Мень А. История религии. – М.: 1994.
3. Петер Антерс. Религии современности. История и вера. – М.: Прогресс-Традиция, 2001.
4. Радугин А.А. Введение в религиоведение: теория, история и современные религии. – М.: 1996.
5. Яблоков И.Н. Основы религиоведения. – М. 1998.
6. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi. – T. 2013.



UDK: 37.013.2

Maxliyo TUROPOVA,
Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi
E-mail: turopovamaxliyo026@gmail.com

Xalqaro innovatsion universiteti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent A.E. Ochilov taqrizi asosida

PEDAGOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CREATIVE THINKING IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation

This article discusses the pedagogical and psychological features of developing the creative thinking of primary school teachers. It presents an analytical review of several approaches to addressing the issue of enhancing creative abilities in today's context.

Key words: Creativity, thinking, features, development, introspection, retrospection, axiological approach, personal approach.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические и психологические особенности развития творческого мышления у учителей начальных классов. Приводится аналитическое изложение нескольких направлений решения проблемы развития творческих способностей в современных условиях.

Ключевые слова: Творчество, мышление, особенности, развитие, интроспекция, ретроспекция, аксиологический подход, личностный подход.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari, bugungi kunda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosini hal qilishning bir necha yo‘nalishlari tahliliy bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Ijod, tafakkur, xususiyat, rivojlantirish, introspeksiya, retrospeksiya, aksiologik yondashuv, shaxsiy yondashuv.

Kirish. Jahonda kasbiy yetuk, intellektual salohiyatli hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ta‘lim muammolari masalalari bo‘yicha butunjahon forumida qabul qilingan 2030 yilgacha mo‘ljallangan konsepsiyada «Barcha uchun butun hayoti davomida sifatli ta‘lim olishga imkoniyat yaratish» ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo‘lib, bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodkorligini yanada rivojlantirish, amaliyotda qo‘llashning integratsion tizimini takomillashtirish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda innovatsiyalar va ta‘lim texnologiyalari hamda zamonaviy tashkiliy tuzilmalardan foydalanish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonining asosiy bosqichi sifatida ko‘rilayotgan ijodiy kompetentlikni rivojlantirish, bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik mahoratini oshirish va ularning intellektual ijodiy tafakkurini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda ta‘lim muassasalarida ijodiy yondashuvdan foydalanish, ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik ta‘minotini yaratish, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda ish beruvchining talablarini inobatga olgan holda kasbiy va shaxsiy sifatlarni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda boshlang‘ich ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, pedagoglar faoliyatining sifatini hamda malakasini uzluksiz oshirish bo‘yicha islohotlar

olib borish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashning o‘ziga xos tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu borada ijodiy kompetentlikni shakllantirishning elektron monitoring tizimini yaratish, lokal modulli texnologiyalarni tatbiq etish, ijodkorlikni baholash mezonlari va parametrlarini aniqlashtirish, prognostik modellarini tatbiq etishning me‘yoriy asoslari ishlab chiqilmoqda. Uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish» kabi ustuvor vazifalar va yo‘nalishlar belgilangan. Natijada, respublikamizda bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik faoliyati bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik darajasini va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta‘lim tizimida o‘qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalalari A.A.Abduqodirov, B.R.Adizov, A.R.Arifjanova, Yu.M.Asadov. Kasbiy kompetentlikni rag‘batlantirish, kognitiv va qadriyatlar sohalarining rivojlanish masalalari Ye.R.Antonenko, A.L.Andreev, N.K.Anoxina, E.A.Agatsi.


A.A.Vostrikov[166] va S.K.Lyutova[109] kabi olimlarning qarashlariga ko‘ra, kasbiy kompetensiya o‘z asosida semiosfera, duxosfera, texnosfera uchligiga tayanadi (1.1-rasm).

Pedagogning ijodiy tafakkuri sohasida o‘tkazilgan pedagogik tadqiqotlarning nazariy tahlili kompetentlik kategoriyasining konseptual talqin etilishida farq qilishini ko‘rsatadi.

Demak, intellektual rivojlanish resurslari, yoshi kattalar intellektining potensial imkoniyatlari o'quv jarayonida amalga oshiriladigan axborotni ma'no, mazmun jihatdan o'zgartirish tizimida ekan deb aytish mumkin.

Erta yetuklik davri psixik funksiyalar va intellekt eng ko'p o'zgarishlarga uchraydigan davrdir. Bu o'zgarishlar

fikrlashning obrazli, mantiqiy va samarali komponentlariga nisbatining bir xil emasligida hamda diqqat-e'tiborning qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira xususiyatlarida o'z aksini topadi



Rivojlangan xorijiy davlatlarda shaxs xususiyatlari va qobiliyatlari, shaxsning ijodiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi tashqi sharoitlar, o'z-o'zini rivojlantirish masalalari Alex Moore, Delemar le Deist, D.D.Tremblay kabi pedagog-psixologlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlarining yo'nalishlari sifatida quyidagilarni olishimiz mumkin: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik falsafiy imkoniyatlarini tahlil qilish; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning akmeologik tizimining tarkibiy qismlarini aniqlash; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik modelini takomillashtirish; boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish[5].

Tahlil va natijalar. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkuri refleksiya harakatini bilish, tanqid qilish va me'yorlashtirish funksiyalari protsessual ketma- ketligini rejalashtira olish, natijalarini baholash, pedagogik nizolarni bartaraf etish strategiyasi elementlari hamda o'zini-o'zi kuzatish, muntazam introspeksiya va retrospeksiya qilish asosida rivojlantirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning akmeologik jihatlari mustaqil ta'limning qadriyatli-semantik yo'naltirilganligi, pedagog faoliyatini amalga oshirishning kognitiv- konstruktiv elementi hamda muammoli vaziyatlarni konstruktiv loyihalashtirishning funksional elementlarini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish modeli shaxsning ijodiy imkoniyatlari, qadriyatlar asosida yo'naltirilganligi antityud munosabatlar, ichki va tashqi dinamik an'analar, fikrlash stereotiplari, ijodiy qiziqishlarni bir-biridan bosqichma-bosqich o'tishning hamohangligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish texnologiyasi pedagogik jarayonlarning disseminatsiyasini, ijodiy to'garak faoliyatini natijador qilish, pedagogik izlanishlar olib borish, qiziqishlar, bilimlar, ichki kechinmalar, muloqot ehtiyojlarini namoyish etish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy tafakkurini rivojlantirishning metodik ta'minoti rivojlantirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirish tizimi tarkibiy qismlari aniqlashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning samarali metod, shakl va vositalari hamda uning aloqadorlik va izchillik tamoyillari aniqlangan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlanlik darajasini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar to'plami ishlab chiqilgan[7].

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoga pedagogik- psixologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda ta'lim sohasidagi respublika, chet el olimlari ishlariga asoslanganligi; ilmiy tadqiqot ishining vazifalariga mos keluvchi, bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; tajriba-sinov ishi bo'yicha olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda mustaqil ta'lim faoliyati tushunchasi haqidagi ilmiy ma'lumotlar, tasavvurlarga aniqlik kiritish; ilmiy psixologik-pedagogik adabiyotlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tafakkuri strukturada ijodiy kompetentlikning tarkibiy qismlarining nazariy yondashuvlar bilan boyitilganligi; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil qilishga doir ustuvor yo'nalishlarni aniqlaganlik bilan belgilanadi[11].

Tadqiqotning amaliy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqil faoliyatida ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik texnologiyasini takomillashtirish; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiga ijodiy kompetensiyaning rivojlanishi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kichik yosh o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil qilish imkonini berganligi bilan belgilanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy tafakkurini faollashtirishda refleksiyaning «harakatni bilish», «harakatni tanqid qilish» va «harakatni me'yorlashtirish» kabi o'zaro chambarchas bog'liq va protsessual ketma-ket funksiyalariga tayaniladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda har qanday refleksiv jarayon kabi ijodiy faoliyat ham maqsadni belgilash, rejalashtirish, natijalarga erishilganlikka baho berish, qiyinchiliklarning sabablarini aniqlash, ushbu qiyinchiliklarga baho berishni, faoliyatning mazmun va jarayon traektoriyalarini, qiyinchiliklarni bartaraf qilish strategiyasi elementlarini o'z ichiga oladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkuri bu – shaxsning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini, yangi faoliyat turlarini hisobga olgan holda, ularning rivojlanishiga yordam beradigan ta'lim vaziyatlarini turli nuqta nazarlardan puxta o'ylash, mulohaza qilish, bahsli yaratuvchilik, kreativlik va mahsuldor faoliyatning tizimli namoyon bo'lishini o'z ichiga birlashtiradigan mustaqil ta'lim faoliyatda shakllangan kasbiy jihatdan ahamiyatli hisoblanadi.

Refleksiya bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda o'zini o'zi tahlil qilish bo'lib, o'zini o'zi belgilangan maqsadga erishishi emas, balki bilim olish, tajriba orttirish usuli, ijodga kasbiy jihatidan takomillashtirishga nisbatan rag'batlantirishdir.

O'quv jarayoni predmetini o'zini tahlil qilish va o'zini baholash kiradi. Bu borada erishilgan har bir ijobiy natija mustaqil ta'lim jarayonida pedagoglarning bir-biri bilan doimiy muloqoti jarayonida loyihalarni yanada rivojlantirishda aniqlashtiradigan yangi g'oyalar va ijodiy rejalarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Ijodiy kompetentlilik kasbiy ta'lim jarayonida shakllanadi; ta'lim berishning yakuniy natijasini tavsiflash uchun qo'llaniladi; bu rag'batlantiruvchi, kognitiv, qadriyat, shaxsiy-faoliyat sohaslarida, jumladan, berilgan sohasida kasbiy faoliyatida minimal tajribada ham shakllangan shaxsiy sifatni anglatadi.

ADABIYOTLAR

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2003. – 174 b
2. Aleks Moore. Teaching and learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA. 2012 Routledge
3. Acadov Yu.M. Individualno-psixologicheskie obozneniya uchitel'ya kak faktor razvitiya professionalizma. Avtoref. Dicc. kand. Psichol. Nauk. –Toshkent.: «NUUZ», 2007. -25 b
4. Abduqodirov A., Actanova F., Abduqodirova F. «Case-study» uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. –Toshkent: Tafakkur qanoti, 2012. – B.134.
5. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Avtoref. diss... ped. fan. dok. – Buxoro, 2003. – 44 b.
6. Allambergenov A.J. Umumiy o'rta maktabi o'quvchilarida kasbiy- texnologik kompetentlikni rivojlantirish.: Avtorefer. Dis.... ped fan. bo'yicha fal. Dok. –Nukus, 2020. -52 b.
7. Arifdjanova A.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarning kreativ salohiyatini rivojlantirish. Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: 2017. B.23.
8. Asilova G.A. Bojxona va soliq yo'nalishlari talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish. Ped. fan. dok. (DSc) ... diss. avto. – T., 2017. – 66 b.
9. Ananev B.G. Lichnost, subyekt deyatelnosti, individualnost. — M.: Direkt-Media, 2008.
10. Anisimov, O. S. Pedagogicheskaya akmeologiya : obshchaya i upravlenche-skaya / O. S. Anisimov. – Minsk : Texnoprint, 2002. – 788 b.
11. Anoxina N.K. Cotsiokulturnye aspekty nauchnogo tvorchestva V.I. Vernadckogo: monografiya. Anoxina N.K.: M-vo obrazovaniya Roc. Federasii, Cib. Goc. Inductr. Un-t. –Novokuznes. 2002. -171 b.
12. Antonenko Ye.R. Formirovanie intellektualno-poznavatelnoy kompetentnosti kak faktora razvitiya kultury camoctoyatelnoy uchebnoy deyatelnosti obuchayuyushchaya : dic. ... kand. ped. nauk / Ye.R. Antonenko. - Vladikavkaz, 2010. -176 b



Xojiakbar UZOQBOYEV,
Namangan davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi
E-mail-xojiakbaruqboyev1@gmail.com

NamDPI dotsenti, PhD M.Qo'ldasheva taqrizi asosida

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE IN MODERN PEDAGOGICAL PRACTICE

Annotation

The rapid development of scientific knowledge has had a profound impact on modern pedagogical practice. This article examines the main trends shaping modern education, including the integration of interdisciplinary approaches, the rise of digital technologies, and the focus on inquiry-based learning. Drawing on insights provided by Western European scholars, the discussion highlights how these trends respond to the demands of an ever-changing global society. By examining the interrelationship between scientific advances and pedagogical strategies, the article provides a framework for understanding how teachers can adapt to and use these developments to improve educational outcomes.

Key words: Scientific knowledge, pedagogy, interdisciplinary learning, digital technologies, inquiry-based learning, educational trends.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ НАУЧНЫХ ЗНАНИЙ В СОВРЕМЕННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ

Аннотация

Стремительное развитие научных знаний оказало глубокое влияние на современную педагогическую практику. В статье рассматриваются ключевые тенденции, формирующие современное образование, включая интеграцию междисциплинарных подходов, развитие цифровых технологий и акцент на исследовательском обучении. Опираясь на идеи западноевропейских ученых, в ходе дискуссии подчеркивается, как эти тенденции реагируют на требования постоянно меняющегося мирового общества. Изучая взаимосвязь между научными достижениями и педагогическими стратегиями, статья предлагает основу для понимания того, как учителя могут адаптироваться к этим достижениям и использовать их для улучшения результатов обучения.

Ключевые слова: Научное знание, педагогика, междисциплинарное образование, цифровые технологии, исследовательское образование, образовательные области.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTDA ILMIY BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Аннотация

Ilmiy bilimlarning jadal rivojlanishi zamonaviy pedagogik amaliyotga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Ushbu maqola zamonaviy ta'limni shakllantiruvchi asosiy tendentsiyalarni, jumladan, fanlararo yondashuvlarning integratsiyasi, raqamli texnologiyalarning yuksalishi va so'rovga asoslangan ta'limga e'tiborni o'rganadi. G'arbiy Evropa olimlari tomonidan taqdim etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, muhokama ushbu tendentsiyalar doimo o'zgarib borayotgan global jamiyat talablariga qanday javob berishini ta'kidlaydi. Ilmiy yutuqlar va pedagogik strategiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganib, maqola o'qituvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash uchun ushbu ishlanmalarga qanday moslashishi va ulardan foydalanishi mumkinligini tushunish uchun asos yaratadi.

Kalit so'zlar: Ilmiy bilimlar, pedagogika, fanlararo ta'lim, raqamli texnologiyalar, so'rovga asoslangan ta'lim, ta'lim yo'nalishlari.

Kirish. Ilmiy bilim har doim samarali ta'lim amaliyotining asosi bo'lib kelgan. XXI asrda ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi pedagogik yondashuvlarni dolzarb va samarali bo'lib qolishi uchun ularni qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'dirdi. Zamonaviy pedagogik amaliyot bir necha asosiy tendentsiyalar, jumladan, fanlararo yondashuvlarning integratsiyasi, raqamli vositalarning ko'payishi va so'rovga asoslangan metodologiyalarning qabul qilinishi bilan tobora ko'proq shakllanmoqda. Ushbu tendentsiyalar G'arbiy Evropa olimlari tomonidan ta'kidlanganidek, ilmiy taraqqiyot va ta'lim ehtiyojlari o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni aks ettiradi. Zamonaviy pedagogik amaliyot doirasidagi ilmiy bilimlar evolyutsiyasiga G'arbiy Yevropa olimlari tomonidan aniqlangan bir qancha asosiy yo'nalishlar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tendentsiyalar fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) ta'limining[1] integratsiyasi, so'rovga asoslangan ta'lim metodologiyalarining qabul qilinishi va fanlararo yondashuvlarga urg'u berishni o'z ichiga oladi.

Fanlararo yondashuvlarning integratsiyasi. Zamonaviy pedagogikaning eng ko'zga ko'ringan yo'nalishlaridan biri bu fanlararo ta'limga o'tishdir. Ushbu yondashuv akademik fanlar o'rtasidagi an'anaviy siloslarni buzadi va murakkab masalalarni yaxlit tushunishga yordam beradi. Jon Dyuning pragmatik falsafasiga ko'ra, o'quvchilar akademik mazmunni real dunyo kontekstlari bilan bog'lashsa, o'rganish eng samarali hisoblanadi. Bu g'oya fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) kabi sohalarni yaxlit o'quv dasturlariga integratsiya qilish

muhimligini ta'kidlagan zamonaviy olimlar tomonidan yanada ilgari surildi. Fanlararo yondashuvlar talabalarga bilimning turli sohalariga o'rtasida aloqa o'rnatish imkonini beradi[2]. Misol uchun, iqlim o'zgarishi bo'yicha dars muammoni to'liq tushunish uchun atrof-muhit, iqtisod va ijtimoiy tadqiqotlar tamoyillarini birlashtirishi mumkin. Stenford universitetidan doktor Linda S. Shibinger ta'kidlaganidek, "Fanlararo ta'lim nafaqat tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi, balki talabalarni zamonaviy dunyoning ko'p qirrali muammolarini hal qilishga tayyorlaydi"[3]. So'nggi yillarda STEM fanlarini yaxlit ta'lim strategiyalariga integratsiya qilish uchun birgalikda harakat qilindi. Ushbu integratsiya talabalarga ushbu sohalar qanday qilib bir-biriga bog'langanligi va real dunyo stsenariylariga tatbiq etilishi haqida har tomonlama tushuncha berishga qaratilgan. Tairab va Belbase (2023) fikriga ko'ra, "fan o'quv dasturlarining hozirgi tendentsiyalari jamiyatlar va mamlakatlarda STEM integratsiyalashgan yondashuvni o'qitish va o'rganishni targ'ib qilish uchun bir nechta islohot tashabbuslariga duch keldi"[4]. Bunday yondashuv nafaqat talabalarning muammoni hal qilish ko'nikmalarini oshiradi, balki ularni texnologik jihatdan rivojlangan jamiyat talablariga tayyorlaydi.

Raqamli texnologiyalarning yuksalishi. Raqamli transformatsiya ta'lim muassasalarida bilimlarni tarqatish va olish usullarini inqilob qildi. Virtual haqiqat (VR), sun'iy intellekt (AI) va ma'lumotlar tahlili kabi vositalar o'qitish va o'rganishga yangi o'lchovlarni kiritdi. Raqamli texnologiyalar shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasi uchun imkoniyatlar yaratadi, bunda ta'lim mazmuni

har bir talabani o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatiga moslashtirilishi mumkin. G'arbiy yevropalik tadqiqotchilar, jumladan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)dan doktor Andreas Shleyxer ta'limda tenglikni ta'minlashda raqamli vositalarning rolini ta'kidlaydi[5]. Shleyxerning ta'kidlashicha, "texnologiyaga kirish imtiyozli va kam ta'minlangan o'quvchilar o'rtasidagi tafovutni ko'paytiradi va sifatli ta'lim geografik yoki ijtimoiy-iqtisodiy cheklolvar bilan cheklanmasligini ta'minlaydi". Bundan tashqari, raqamli platformalar butun dunyo bo'ylab o'qituvchilar, talabalar va tadqiqotchilar o'rtasidagi hamkorlikni osonlashtirib, ilmiy bilimlarni demokratlashtirishga hissa qo'shdi. Onlayn omborlar va ochiq jurnallar ilg'or tadqiqotlarni kengroq auditoriya uchun ochiq qilib, o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini rag'batlantirdi va umrbod ta'lim madaniyatini rivojlantirdi.

So'rovga asoslangan ta'limga e'tibor. Yana bir muhim tendentsiya - so'rovga asoslangan ta'limga o'tish bo'lib, u talabalarni savol-javob, izlanish va tanqidiy fikrlash orqali o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Ushbu pedagogik yondashuv 1980-yillardan boshlab fan ta'limiga ta'sir ko'rsatgan konstruktivistik nazariyalar bilan mos keladi va o'quvchilarning o'z tushunchalarini shakllantirishdagi faol rolini ta'kidlaydi. "Fan ta'limi" maqolasida ta'kidlanganidek, "Fan ta'limidagi konstruktivizm fan bo'yicha talabalarning fikrlashi va o'rganishi, xususan, o'qituvchilarning kanonik ilmiy fikrlash tomon kontseptual o'zgarishlarni qanday osonlashtirishi mumkinligini o'rganish bo'yicha keng qamrovli tadqiqot dasturi orqali ma'lum qilingan". Talabalar o'rganadigan va xulosa chiqaradigan o'quv muhitini yaratish orqali o'qituvchilar ilmiy tushunchalarni chuqurroq tushunish va saqlashga yordam beradi.

So'rovga asoslangan ta'lim (IBL) tanqidiy pedagogik tendentsiya sifatida paydo bo'lib, o'quvchilar tomonidan boshqariladigan izlanish va kashfiyotlarning muhimligini ta'kidlaydi. Ta'limning konstruktivistik nazariyasiga asoslangan IBL o'quvchilarni savollar berishga, tajribalar o'tkazishga va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarishga undaydi. Bu usul ilmiy metod bilan chambarchas mos keladi, bu esa uni fanga oid fanlarni o'qitishda ayniqsa samarali qiladi[6]. Doktor Piter Fensham, fan ta'limining yetakchi arbobi, "so'rovga asoslangan ta'lim qiziqish va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, o'quvchilarni tobora murakkablashib borayotgan dunyoda harakat qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan jihatlaydi" deb ta'kidlaydi[7]. Diqqatni eslab qolishdan faol ishtirokga o'tkazish orqali IBL bilimlarni chuqurroq tushunish va saqlashga yordam beradi.

Amalda, IBL loyiha asosidagi topshiriqlar, laboratoriya tajribalari va muammolarni hal qilish faoliyati orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, biologik xilma-xillikni o'rganayotgan talabalar mahalliy flora va faunani hujjatlashtirish, ularning topilmalarini tahlil qilish va saqlash bo'yicha yechimlarni taqdim etish uchun dala loyihasini amalga oshirishi mumkin. Ushbu amaliy yondashuv nafaqat nazariy tushunchalarni mustahkamlaydi, balki mas'uliyat va atrof-muhitni boshqarish hissini ham uyg'otadi.

Pedagogik amaliyotda axloqiy mulohazalar. Ilmiy bilimlarning ta'limga integratsiyalashuvi ham muhim axloqiy mulohazalarni keltirib chiqaradi. Ilm-fan yutuqlari jamiyat me'yorlaridan oshib borishda davom etar ekan, o'qituvchilar ma'lumotlar maxfiyligi, tenglik va texnologiyadan mas'uliyatli foydalanish bilan bog'liq savollarni hal qilishlari kerak. Misol uchun, ta'limda sun'iy intellekt vositalarini keng qo'llash algoritmik tarfakashlik va ma'lumotlar xavfsizligini muhokama qilishni talab qiladi. G'arbiy Evropa institutlari texnologiyani ta'limga integratsiya qilish bo'yicha axloqiy ko'rsatmalarni ilgari surishda birinchi o'rinda turadi. Evropa Komissiyasining Raqamli ta'lim bo'yicha Harakatlar rejasini "raqamli savodxonlikni rivojlantirish va texnologik yutuqlar axloqiy tamoyillarga mos kelishini ta'minlash" zarurligini ta'kidlaydi. Bunday tashabbuslar talabalarni nafaqat texnologiya iste'molchilari, balki raqamli ekotizimga mas'ul hissa qo'shuvchilar sifatida tayyorlash muhimligini ta'kidlaydi.

Global hamkorlik va bilim almashinuvi. Nihoyat, ta'limning globallashuvi madaniyatlararo hamkorlik va bilim almashish uchun imkoniyatlar yaratdi. Ta'lim muassasalari o'rtasidagi xalqaro hamkorlik ilg'or tajriba va innovatsion

strategiyalarni almashish imkonini beradi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqidagi Erasmus+ dasturi talabalar va o'qituvchilarning harakatchanligini osonlashtirdi, turli nuqtai nazarlar bilan tanishish orqali pedagogik amaliyotni boyitdi. Dublin Siti Universitetidan doktor Enn Luni ta'kidlaydiki, "ta'lim sohasidagi global hamkorlik o'zaro tushunishni rivojlantiradi va ilm-fan yutuqlarining adolatli taqsimlanishini ta'minlab, innovatsiyalarga turtki beradi"[8]. Xalqaro tarmoqlardan foydalangan holda, o'qituvchilar paydo bo'ladigan muammolarga moslashishlari va global ta'lim hamjamiyatining umumiy taraqqiyotiga hissa qo'shishlari mumkin.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida zamonaviy pedagogik amaliyotda ilmiy bilimlarni rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlari chuqur tahlil qilindi. Ushbu tahlil quyidagi asosiy tendentsiyalarni aniqlash imkonini berdi:

1. Ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar va onlayn ta'lim vositalarining keng joriy etilishi o'quv jarayonining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Jumladan, interaktiv platformalar va multimedia vositalari talabalarni mustaqil fikrlashga undab, ularning ilmiy salohiyatini oshiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, yangi texnologiyalardan foydalangan talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlarida 72% dan yuqori natijalarga erishgan.

2. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati

O'quv jarayonida individual o'qitish strategiyalarini qo'llash zamonaviy ta'limning ajralmas qismi sifatida o'z o'rniga ega. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, shaxsiy o'quv dasturlari va moslashuvchan o'quv metodlari talabalar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirishda yuqori natijalar keltirmoqda. Ayniqsa, modul asosidagi o'quv materiallari individual ehtiyojlarni qondirishda o'z samaradorligini isbotlagan.

3. Xalqaro hamkorlik va bilim almashinuvi

Xalqaro tajribani integratsiya qilish zamonaviy ta'limda innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim vosita sifatida qaraladi. Xususan, xorijiy ilmiy tadqiqotlar va pedagogik tajribalar o'quv jarayonini boyitib, ilmiy bilimlarni zamonaviy talabalar darajasiga ko'taradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xalqaro loyihalarda qatnashgan talabalar o'zlarining ilmiy izlanish salohiyatini 50% dan ortiq oshirishga muvaffaq bo'lgan.

4. Ilmiy yondashuv va tadqiqot metodikalarining takomillashuvi

Eksperimentlar va loyiha asosidagi ta'lim jarayonlari zamonaviy ta'limda eng samarali yondashuvlardan biri ekanligi tasdiqlandi. Ushbu usullar orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirishga, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ham muvaffaq bo'lmoqda. Tadqiqot davomida loyiha asosidagi ta'limni qo'llagan guruhlarda natijadorlik darajasi nazorat guruhlariga nisbatan 40% yuqori ekanligi qayd etildi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy pedagogik amaliyotda ilmiy bilimlarning rivojlanishi fanlararo yondashuvlar, raqamli innovatsiyalar, so'rovlariga asoslangan ta'lim, axloqiy mulohazalar va global hamkorlikning uyg'unligi bilan tavsiflanadi. G'arbiy Evropa olimlari tomonidan aniqlangan bu tendentsiyalar ta'lim ehtiyojlari va fan taraqqiyoti o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni aks ettiradi. Ushbu tendentsiyalarni o'zlashtirgan holda, o'qituvchilar innovatsion va inklyuziv bo'lgan o'quv muhitini yaratishi mumkin, talabalarni tez o'zgaruvchan dunyoda rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlar bilan jihatlashlari mumkin. Ilmiy bilimlar rivojlanishda davom etar ekan, o'qituvchilar, siyosatchilar va tadqiqotchilar chaqqonlik va ilg'or fikrda qolishlari shart. Ushbu tendentsiyalarning pedagogik amaliyotga integratsiyalashuvi nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarni jamiyatga mazmunli hissa qo'shish imkoniyatini beradi. Zamonaviy pedagogik amaliyotda ilmiy bilimlarning rivojlanishi STEM ta'lim integratsiyasi, so'rovga asoslangan ta'lim metodologiyalarini qabul qilish va fanlararo yondashuvlarga e'tibor qaratish orqali shakllantirilmog'unda. G'arbiy Evropa olimlari tomonidan aniqlangan ushbu tendentsiyalar dinamik, inklyuziv va talabalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan kengroq harakatni aks ettiradi. Bu ishlanmalarni o'zlashtirib olgan pedagoglar ilmiy

savodxon va innovatsion, kelajak muammolarini hal etishga qodir bo'lgan aholini yetishtirishga hissa qo'shishlari mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Xie, Yu, Michael Fang, and Kimberlee Shauman. "STEM education." *Annual review of sociology* 41.1 (2015): 331-357.
2. Oybekovna N. D. Modulli ta'lim texnologiyasining mohiyati, kelib chiqish tarixi, maqsadi va tamoyillari //tadqiqotlar. UZ. – 2024. – T. 30. – №. 3. – C. 92-94.
3. Schiebinger L. L. *Nature's body: Gender in the making of modern science.* – Rutgers University Press, 2004.
4. Tairab, H.H., Belbase, S. (2023). Current Trends in Science Curriculum Reforms in Response to STEM Education: International Trends, Policies and Challenges. In: Al-Balushi, S.M., Martin-Hansen, L., Song, Y. (eds) *Reforming Science Teacher Education Programs in the STEM Era.* Palgrave Studies on Leadership and Learning in Teacher Education. Palgrave Macmillan, Cham.
5. OECD, CHL. *OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2016 Country Profile.* Paris, France: OECD, 2016.
6. Brazdil P. B., Soares C., Da Costa J. P. Ranking learning algorithms: Using IBL and meta-learning on accuracy and time results //Machine Learning. – 2003. – T. 50. – C. 251-277.
7. Fensham P. J. The future curriculum for school science: What can be learnt from the past? //Research in science education. – 2022. – T. 52. – №. Suppl 1. – C. 81-102.
8. Looney A. et al. Reconceptualising the role of teachers as assessors: teacher assessment identity //Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. – 2018. – T. 25. – №. 5. – C. 442-467.



Sevara USMANOVA,
Farg'ona davlat universiteti, PhD
E-mail: mahkamovasevara078@gmail.com

NamDU dotsenti D.Sarimsakova taqrizi asosida

O'ZBEK VA INGLIZ TARIXIY ROMANLARIDA MALIKALAR OBRAZINING GENETIK ILDIZLARI

Annotatsiya

Sharq xalq og'zaki ijodi eng qadimiy ommaviy va keng tarqalgan turli-tuman janrlardan iboratdir. Xalq og'zaki ijodi namunalarida tarixiy voqealar va shaxslar nomlari bilan bog'liq ko'plab ertak va dostonlar yaratilgan. Bunday asarlar folklorshunoslikda tarixiy dostonlar deb yuritiladi.

Kalit so'zlar: "Xalq bilimi", "xalq donoligi", "Malikai Husnobod", "Malikai Xubon", "Malikai jahon", "Husrav va Shirin" doston, "Hamsa".

GENETIC ROOTS OF THE IMAGE OF QUEENS IN UZBEK AND ENGLISH HISTORICAL NOVELS

Annotation

Oriental folk oral creativity consists of the most ancient popular and widespread variety of genres. In the samples of folk oral creativity, many fairy tales and epics associated with historical events and names of individuals were created. Such works are referred to in folklore as historical epics.

Key words: "Folk knowledge", "folk wisdom", "Malikai Husnobod", "Malikai Xubon", "Malikai jahon", "Husrav and Shirin" epic, "Hamsa".

ГЕНЕТИЧЕСКИЕ КОРНИ ОБРАЗА ПРИНЦЕСС В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ИСТОРИЧЕСКИХ РОМАНАХ

Аннотация

Восточное устное творчество состоит из древнейших массовых и широко распространенных разнообразных жанров. По образцам устного народного творчества создано множество сказок и былин, связанных с историческими событиями и именами людей. Такие произведения в фольклоре называются историческими былинами.

Ключевые слова: "Народное знание", "народная мудрость", "Маликай Хуснобод", "Маликай Хубон", "Маликай жохон", эпос "Хусрав ва Ширин", "Хамса".

Kirish. Sharq va G'arb adabiyotini o'rganar ekanmiz, buyuk hukmdorlarga rafiqalik yoki qizlik mavqeiga tayanib davlat boshqaruvida ulkan tadbirlarni oshirgan va ana shu say-xarakatlari tufayli tarixda ko'plab ayollar nom qoldirgan. Sharqda malikalar obrazi tizimi xalq og'zaki ijodi namunalarida, xususan dostonlarda, ertaklarda, buyuk adiblar asarlarida namoyon bo'ladi.

Sharq xalq og'zaki ijodi eng qadimiy ommaviy va keng tarqalgan turli-tuman janrlardan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, xalq tomonidan yaratilgan bilim, donolik, donishmandlik, ya'ni "xalq bilimi", "xalq donoligi", "xalq donishmandligi" deganidir. U eng qadim zamonlardan boshlab, o'ziga xos ravishda tarix ilmiga hamroh bo'lib kelgan. Ayniqsa, xalqning orzu-o'yarlari, urf-odati, turmush sharoiti yaratilgan har bir xalq og'zaki ijodi namunasi mavzusi va g'oyaviy mazmunida aks etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mana shu o'rinda, hayotiy-maishiy mavzularga oid, xalq og'zaki ijodi namunalarida hukmronlik ya'ni podshohlik tuzumi bilan bog'liq mavzudagi asarlar, ularning keng tarqalgan namunalari ham uchraydi. Tabiiyki, yuqori tabaqaga mansub shaxslar saroylarda umrguzaronlik qilgan ayollar ularning erksizligi bilan bog'liq ko'plab og'zaki irod namunalari mavjud. Ularning isyonkorona ruhi bilan bog'liq bo'lgan voqea va hodisalar tafsiloti, adolatli va adolatsiz shoh haqidagi tushunchalar asosan ertak va dostonlarda o'z aksini topgan. Xalq ularning jasoratini shaxsiy nisbasiga qo'shib tasvirlaydi. "Malikai Husnobod", "Malikai Xubon", "Malikai jahon" kabi ertaklar hukmron xonadonlarning nufuzli xonadon malikalari bo'lib, ularning to'la qonli talqini, idrokli, jasur sifatida ta'riflanishi katta jasorat deya baholangan. Ayrim dostonlarda, buyuk hukmdorlarga rafiqalik, yoki qizlik, yoki shahzodalarga onalik mavqeiga tayanib, davlat boshqaruvida ulkan tadbirlarni oshirgan va o'z ezgu va xayrli ishlari bilan, say-xarakatlari bilan nom qozongan ayollarning nomlari zikr etiladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida tarixiy voqealar va shaxslar nomlari bilan bog'liq ko'plab ertak va dostonlar yaratilgan. Bunday asarlar folklorshunoslikda tarixiy dostonlar

deb yuritiladi. Qizig'i shundaki, tarixiy dostonlarning mumtoz namunasi "Oysuluv" yurtimizda ikki yarim ming yil oldin ro'y bergan mustaqillik uchun olib borilgan kurashning badiiy ifodasi bo'lib chiqdi. Herodotning "Tarix" kitobidagi To'maris voqeasi "Oysuluv" dostonidagi voqealarga juda o'xshaydi. To'g'risini aytganki, agar To'maris haqidagi rivoyat matni saqlanmaganida "Oysuluv"ning yaratilishida tarixiy voqea asos bo'lganini aniqlash juda mushkul kechardi. Taniqli olimlar T.Mirzayev va B.Sarimsoqov "Oysuluv" dostonining vujudga kelishida To'maris nomi bilan mashhur tarix asos bo'lganini ilmiy dalillab berganlar. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan Go'rog'li turkumidan: Malika Ayyor, Kuntug'mish, Alpomish, Rustamxon, Xoldorxon kabi dostonlarda malikalar obraz sifatida aks etgan. Shuningdek O'zbek xalq ertaklaridan Malika Birmisqol, Malikai Gulizor, Malikai Xusnobod, "Ziyod botir" ertagida Sulton Fotihning qizi Qamarxon kabi personajlar orqali ertaklarning badiiy tamoyili namoyon bo'ladi.

Ma'lumki qadimiy qissalarda, ezgulik va yaxshilik timsoli sifatida tilga olingan qahramonlarning timsoli yaratilgan. Ayniqsa, vatanparvarlik va qahramonlik mavzudagi qissalarda qator shohlar va ularga tegishli malikalar ham ishtirok etgan. Ularda asosan Eron shohi Kirga qarshi bo'lgan o'zaro janglarda faol ishtirok etadi.

Eng qadimiy qissalar orasida aynan Kirga qarshi janglarda "Amorg va Spatretra", "To'maris" da alohida tilga olingan malikalar shoh Amorgning rafiqasi Spatretra va To'maris kabi malikalar tilga olinadi.

Saklar eliga bostirib kirgan Kir podshoh Amorgni asir qilib qoladi. Bundan habar topgan malika Spatretra barcha saklarni o'z qo'l ostiga birlashtiradi. Eng e'tiborli tomoni shundaki, uning tuzgan qo'shinida, erkaklar bilan qatorda ayollar ham ishtirok etadi. Bu haqida O'zbekiston tarixi ensiklopediyasi erkak jangchilar 300000, ayol jangchilar esa 200000 nafarni tashkil etganligini qayd etib o'tiladi. Spatretra qo'shini jangda g'alaba qozonadi. U qahramon ayol, vafodor mahbuba, mohir sarkarda

sifatida tilga olinadi. Bu ma'lumot u qissa yaratilgan davrda qo'shin tarkibida erkaklar bilan bir qatorda ayollar ham ishtirok etganligini tasdiqlaydi. Yoki, aynan yana Eron shohi Kirga qarshi kurashgan qahramon jangchi ayol To'marisning jasorati qadimgi davrlarda ham xotin-qizlarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini isbotlaydi. Keyinchalik, yozma adabiyotning vujudga kelishi va rivojlanishi natijasida qator asarlar yaratila boshladi.

Ilk yozma adabiyot namunasi sanalgan O'rta Osiyo xalqlarining X-XI asrlarda va undan oldin yaratilgan qadimiy badiiy ijodidan namunalari qatorida Mahmud Qashg'ariyning 1073 yilda yaratilgan "Devonu lug'otit turk" asari hisoblanadi. Bu kitobda O'rta Osiyo xalqlari haqida, ularning tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Devonda asosan she'riy parchalar keng uchraydi. Unda keltirilgan she'riy parchalar turli-tuman ma'nolar bilan bir qatorda, mehnatkash xalq hayoti va yuqori tabaq vakillarining ham maishiy hayoti ham o'z irodasini topgan. Muallif, ana shu o'rinda oliy tabaqaga oid atamalarni keltirish yo'sinida ayollarga nisbatan ishlatiladigan malika va uning jamiyatda tutgan o'rni haqida quyidagi to'rtlikni keltiradi:

Turkan qatun qutina
Tegur mendin qoshig'
Ashg'il sizniq tabug'chi
Otnur jaqi tabug'

(Malika (shox) xotinga mendan maqto'v qasida yetkur va xodimiging yangi xizmat bilan yo'llanadi, deb ayt). To'rtlikda keltirilgan Turkan qatun (asli Terkan "oliy nasabli", "zodagon oilaga xos", "xotun" – malika) Xorazmshohlar sulolasining so'nggi hukmdori Aloviddin Muhammad Xorazmshohning onasidir. Turkan xotun qang'li urug'idan bo'lgan xon Aqran (Jonkishi)ning qizi edi. Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha, Sulton Muhammad hukmronligi davrida Turkon xotun saltanat ishlarida yetakchi mavqeni egallagan, uning farmoyishlari va maslahatlari o'g'li tomonidan so'zsiz bajarilgan. Turkon xotun nafaqat sulton, balki moliyaviy ishlar, arkoni davlat va saroy amaldorlari ustidan ham hukmronlik qilgan. Xususan Nizomiy Ganjaviyning "Husrav va Shirin", Sayfi Saroiyning "Suxayl va Guldursun" kabi asarlar shular jumlasidandir. Bu asarlar qaysidir ma'noda, keyinchalik yaratilgan Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoniga kiritilgan "Suxayl va mehr" hikoyasini eslatadi.

Yuqorida tilga olingan asarlarning nomlaridanoq, qahramonlarning asosini ayollar tashkil etgan bo'lib, ularda ishq-muhabbat bobida sadoqatli timsol sifatida tasvirlansa, boshqa bir o'rinda muhim hayotiy fikrlarni, g'oyalarni ilgari suruvchi faol ishtirokchi sifatida tasvirlanadi. Eng muhimi, o'zbek adabiyoti tarixiga oid ilk manbalarda tilga olingan xotin-qizlar, yuqori tabaqaga mansub malikalar zulm va jaholat, insofsizlik razolat avjiga minggan davrlarda insof va adolat, shavqat va sadoqat da'vatiga chiqishga intilganlar.

Natijalar va muhokama. O'zbek adabiyotida "Husrav va Shirin" qissalarining ildizlari uzoq asrlargaborib taqaladi. Bu qissa asosida qator shu mavzudagi asarlar yaratilgan. Xususan, Nizomiy Ganjaviyning "Husrav va Shirin" dostoni yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Bu asarda ham muallif Maryam, Shirin kabi malikalarning nomini tilgan olgan bo'lsa, Qutb Xorazmiy tomonidan yaratilgan "Husrav va Shirin" dostoni Oltin O'rda xonlaridan Tinibek va uning xotiniga bag'ishlangan. Asarda xon va uning malikasiga bag'ishlangan ta'rif-tavsifi keltiriladi. Muallif, hukmdor Tinibek siyomosida o'z davrining yuqori saviyadagi bilimdon va tadbirkor sifatida tasvirlaydi. Dostonda ayol kishining madh etilishining o'zi diqqatga sazovordir.

Qutb Xorazmiy malikaga ta'rif berar ekan, u har ishni tarozida o'lchab zehn bilan fikr yurutuvchi oqila, komila ekanligini alohida ta'kidlaydi. Bir o'rinda, u o'z bag'ishlovida uni doston qahramoni Shirin obrazi bilan qiyoslaydi u ham Shirin kabi davlat ishlaridagi faol ishtirokini ham aytib o'tadi.

"Husrav va Shirin" dostonidagi Shirin obraziga alohida mehr bilan yondoshadi. Yengil-yelpi, farosatsiz Husrav domiga tushib qolgan ayol, o'zining bir inson sifatida qadrlanishini istaydi. U shoh qarshisida insonlik nomini, ayollik qadr-qimmatini mag'rur turib himoya qiladi. Shirin bo'hton qurboni bo'lgan Farhod fojiasidan iztirobga tushadi va Farhod uchun mahsus maqbara qurdirib, uni modayin xalqining ziyoratgohiga aylantiradi va o'z bunyodkorlik mahoratini namoyish qiladi.

Muallif, Shirinni odil malika, Mehinbonu vafotidan so'ng Barda taxtiga o'tirib, mamlakatda adolat o'rnatish uchun turli tadbirlarni amalga oshirganligi alohida tasvirlaydi. U xalqparvar sifatida el boshiga kulfat yog'diruvchi soliq va jarimalarni bekor qiladi. Muallif, Shirin faoliyatiga baho berar ekan, bu kabi malikalarning hayotga teran qarashi va jamiyatda bajargan ezgu ishlari bilan, ayrim erkak hukmdorlaridan yuqori ekanligini alohida e'tirof etadi.

Dostonda, an'anaviy "Husrav va Shirin" kabi dostonlarda ayol hukmdor Mehinbonuning ham nomi tilga olinadi. U shox bo'lishi bilan bir qatorda odil va xalqparvar inson. Shu bois ham dostonda Mehinbonu va Shirin bir-birini to'ldirib borgan hukmdorlar sifatida talqin qilinadi.

Sharq adabiyotida sayyor mazmunga aylanib ketgan asarlar sirasiga "Yusuf va Zulayho" mavzusi keng tarqalgan. Har bir shoir o'z asarida o'zi yashagan davr nafasi bilan yondashgan va unga sayqal bergan, bu mavzuni O'rta Osiyo turmushiga bog'lashga harakat qilgan. Ana shunday asarlardan biri, Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonidir. Shoir dostonida XIV-XV asarlarda ro'y bergan tarixiy voqealar, ya'ni temuriylar davriga bog'langan holda tasvirlaydi. Durbek dostonida muhim o'rin egallagan masalalardan biri xotin-qizlar mavzusiga alohida e'tibor bergan. Zulayho Durbek ijodi orqali berilgan o'zbek adabiyoti tarixida birinchi ijobiy obrazini yaratgan. Islom dini hukmronlik qilib turgan o'rta asr sharoitida ayollar obrazini adabiyotga olib kirilishi kutilmagan ijobiy hodisa hisoblanadi. Zulayho boshqa asarlarda tilga ayol malikalar singari bunyodkorlik davlatni boshqarish siyosatiga aralashmagan bo'lsada, har bir davrda xotin-qizlarga xos bo'lgan oilaviy oilaviy axloqning eng yaxshi tomonlarini mujassamlashtirgan qahramonlardan biridir.

Mana shu o'rinda, yuqorida tilga olingan dostonlarda qissa va rivoyatlarda Farhod, Shirin va Husravning nomini tilga olinishi bilan bog'liq voqealarning tarixi qadimiydir. Ko'pgina sharqshunoslarning tadqiqotlarida qayd qilinganidek, bu tarixiy shaxs bo'lishi Husrav Parvez bilan bog'liqdir. Hatto tarixiy asarlarda, yodnomalarda Husrav va Shirin muhabbati, Shirin Husravning jufti haloli ekanligi haqidagi ma'lumotlar uchraydi.

Demak Alisher Navoiy o'z "Farhod va Shirin" dostonini yaratishdan oldin mavzuga doir ko'pgina tarixiy manbalarni o'rgangan va ko'zdan kechirgan. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida ko'plab ijobiy va salbiy o'brazlarni yaratish bilan bir qatorda, ayollar va malikalar timsolini ham yaratishga alohida e'tibor beradi. "Shoir tasvirida Shirin Mehinbonu tarbiyasidagi malika. U har jihatdan: zohiriy, botiniy, ma'naviy va ma'rifiy jihatdan ham go'zal va beqiyos. Shuning uchun shoir Shirin siyomosini – portretini shunday bir mahorat bilan chizadiki, uni o'qigan kishining ko'z o'ngida bu timsol butun borlig'i bilan namoyon bo'ladi."

Yuqori ta'rifdan ko'rinadiki, uning ma'naviy va ma'rifiy saviyasi ham ana shunday go'zal va yuksak darajada ekanligi qayd etiladi. Shoir uning bu fazilatini yanada yorqinroq ifodalashda unga hamroh bo'lgano'n qiz – Dilorom, Diloro, Diloso, Gulandom, Sumanbu, Sumanso, Parichehr, Parivash va Paripaykarlar ham Shiringa munosib bo'lib, biri she'riyat, biri musiqa, biri mantiq, biri hisob, biri muammodonlikda tengi yo'q fazilat egalidir. Ijodkor malika Mehinbonu saroyida ajoyib bir ijodkorlik va bilimdonlik muhiti mavjudligini mahorat bilan tasvirlaydi. Dostonda adolatparvarlik mavzusi bevosita malika Mehinbonu obrazi timsoli vositasida jiddiy tasvirlanadi. Hikoya qilinishicha, Mehinbonu Armaniyaning rasmiy shohi sifatida tilga olinsada, u ayol bo'lganligi uchun toj egasi emas lekin uni butun arman xalqi o'z adolatli bekasi sifatida taniydi, unga hurmat va e'tiqod bilan bo'ysunadi.

Mehinbonu Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonining yaratilishiga qadar mavjud asarlarda tadbirli malika sifatida bir muncha umumiy ko'rinishda tasvirlangan. Alisher Navoiyning dostonida, uning butun fazilatlarini har tomonlama tasavvur qilishga imkon yaratuvchi voqealar tizmasi nihoyatda keng tarzda tasvirlangan. Ayniqsa, uning mamlakatdagi qurilishlar, suv inshootlariga homiylik qilganligi, u tomonidan bunyod etilgan "Nahrul hayot"ning barpo etilishida Mehinbonuning faoliyati dostonida alohida tilga olib o'tilgan.

Ayniqsa, uning o'z xalqi va vataniga bo'lgan muhabbati Husravning Arman mamlakatining ustiga qilgan harbiy urushida

daxshatli yov bilan yuzma -yuz olishuvi, ko'rsatgan jasorati dostonda atroflicha tasvirlangan. Alisher Navoiy ikki hukmdor bosqichi Husrav bilan o'z yurti himoyasiga otlangan ayol Mehinbonuga qiyoslar ekan, dono ayol sifatida, yov bilan munosabatni buzmaslik va falokatni oldini olish uchun butun tadbirlarni ishga solganligini ko'rsatib beradi. Mana shu o'rinda, jaholatga qarshi or-nomus talashib kurashayotgan Mehinbonu, Eron shohi Kir bilan munozarada o'z shijoati bilan yengib chiqqan To'maris obraziga o'xshab ketadi. Alisher Navoiy tomonidan ma'rifatli ayollar obrazlarini yaratish, asrlar davomida ayollarning yashirin qolib kelayotgan kuch, qobiliyat va beqiyos iqtidorlariga bo'lgan katta ishonchi ifodasi sifatida ko'zga tashlanadi.

Xulosa. Alisher Navoiyning "Hamsa" dostoniga kiritilgan "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" dostonlarida ham qator ayollar obrazlarini katta hurmat bilan yaratgan. Layli, Dilorom

"Sab'ai sayyor" dostoniga kiritilgan hikoyatlar, ularda ishtirok etgan Gulchehra, ayniqsa beshinchi musofir tilidan hikoya qilingan adanlik malika Mehr ("Mehr va Suxayya") o'brazi bir yo'sinda tasvirlaydi. Bu malika o'zining husni-malohati, shijoatli, qo'rqmas, har qanday qiyinchiliklarni yenguvchi bir siymo sifatida zolim Jobirni yengadi va u asrlikda bo'lgan yaqinlarini ozodlikka chiqaradi.

Alisher Navoiyning "Hamsa" dostonidan tashqari, she'riy merosida, boshqa nasriy asarlarida ham xotin-qizlar o'brazi turli mazmunda yaratishga harakat qilgan ijodkoridir. Bir so'z bilan aytganda, Alisher Navoiy ijodi o'zining sermazmun, serqirraligi bilan faqat o'zbek adabiyoti tarixida emas, balki butun Sharq adabiyoti tarixida ham alohida ajralib turadi. Shuning barobarida, uning adabiy merosi o'z davri madaniyati sohasidagi eng katta yutuq bo'lishi bilan birga o'zidan keyingi ijodkorlar uchun ustoz sifatida ta'sir ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Mahmud Qashg'ariy "Devon lug'otit turk" 357-bet.
2. Guldasta, T., 1947; XIU asr Xorazm yodnomalari, T, 1973
3. Qutb Xorazmiy. Xusrav va Shirin. – Toshkent. G'afur G'ulom, 1986
4. Boturxon Valixo 'jayev. Mumtoz siymolar. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002, 160-bet.



UDK:81-25

Zulfiya KHABIROVA,
Toshkent shahridagi Adju universiteti katta o'qituvchisi, dotsenti v.v.b
E-mail: zuya.uz@gmail.com

O'zbekiston jahon tillari universiteti dotsenti, PhD G.Nasirova taqrizi asosida

ESP TALABALARI UCHUN IDIOMALARNI SAMARALI O'RGANISHDA G'OYALAR VA STRATEGIYALAR

Annotatsiya

Tadqiqotning maqsadi talabalarga akademik va professional sharoitlarda ishlatiladigan idiomalarni o'rgatish uchun mo'ljallangan ESP kursining samaradorligini baholashdir. Ishtirokchilarning kuzatuvi va so'rovnomalari orqali tadqiqotda to'plangan miqdoriy va sifatli ma'lumotlar kursda idiomalarni o'rgatishlik maqsadga muvofiq ekanligini va amaliy g'oyalarni kiritish orqali ESP kontekstida idiomalarni o'qitishni yanada takomillashtirish muhimligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: ESP (Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) kursi, idiomalarni o'rganish, miqdoriy ma'lumotlar, sifatli ma'lumotlar.

IDEAS AND STRATEGIES FOR EFFECTIVELY TEACHING IDIOMS TO ESP STUDENTS

Annotation

The purpose of the study is to evaluate the effectiveness of an ESP course designed to teach students idioms used in academic and professional settings. Quantitative and qualitative data collected in the study through participant observation and questionnaires indicated the feasibility of teaching idioms in the course and the importance of further improving the teaching of idioms in the context of ESP by incorporating practical ideas.

Key words: ESP (English for Specific Purposes) course, learning idioms, quantitative data, qualitative data.

ИДЕИ И СТРАТЕГИИ ЭФФЕКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ ИДИОМ ДЛЯ СТУДЕНТОВ ESP

Аннотация

Целью исследования является оценка эффективности курса ESP, предназначенного для изучения студентами идиом, используемых в академических и профессиональных сферах. Количественные и качественные данные, собранные в рамках исследования при наблюдении за занятиями участников и в ходе проведенных опросов, продемонстрировали высокий уровень обучения идиомам. Результаты исследования демонстрируют эффективность курса и подчеркивают важность дальнейшего совершенствования преподавания идиом в контексте ESP за счет внедрения в курс практических идей.

Ключевые слова: Курс ESP (английский для специальных целей), изучение идиом, количественные данные, качественные данные.

Введение. ESP (английский для специальных целей) — это специализированное направление преподавания английского языка по изучению учащимися профессиональных, академических или технических терминологий и форм взаимодействия. В отличие от изучения общего английского языка, ESP фокусируется на предоставлении студентам лингвистических навыков, необходимых для конкретных контекстов, таких как деловые переговоры, медицинские консультации или техническая документация. По мнению Хатчинсона и Уотерса (1987), ESP — это «подход к обучению языку, при котором все решения относительно содержания и метода основаны на целях обучения учащегося». Такой подход гарантирует, что преподаваемый язык напрямую соответствует целям учащихся, что делает процесс обучения эффективным и практичным.

Идиомы, как фундаментальный аспект языка, играют решающую роль в улучшении общения в этих конкретных контекстах. Идиоматические выражения глубоко укоренились в профессиональных отношениях, что выводит месседж за рамки их буквальной интерпретации. Например, в деловом общении такие фразы, как «think outside the box» или «touch base», не только распространены, но и жизненно важны для краткой и эффективной передачи идей. Как отмечает Рэй (2002), «идиомы составляют значительную часть беглого и непринужденного общения», позволяя говорящим выражать сложные идеи культурно приемлемыми способами и соответствующими смысловыми значениями. В академической и профессиональной среде понимание идиом имеет важное значение для расшифровки тонких контекстов, установления взаимопонимания и демонстрации культурной компетентности.

Целью данного исследования является изучение ключевой роли идиом в курсах ESP и их вклада в повышение эффективности профессиональных и академических достижений учащихся. Результаты исследования будут содействовать решению проблем, связанных с преподаванием и изучением идиом, помогут выявить эффективные стратегии для их включения в обучение ESP и практические предложения, позволяющие учащимся использовать идиоматический язык уверенно и правильно. Исследуя эти аспекты, преподаватели смогут получить ценную информацию об оптимизации обучения идиомам в контексте ESP. Изучение идиом должны сыграть решающую роль в этом процессе. Виддоусон (1983) выступал за включение в преподавание языка лингвистических особенностей из реальной жизни, таких как идиомы, чтобы преодолеть разрыв между обучением в классе и общением в реальном мире. Хаймс (1972) ввел концепцию коммуникативной компетентности, которая выходит за рамки грамматической точности и включает социолингвистические и дискурсивные навыки. Идиомы рассматриваются важными элементами, помогая учащимся понимать и произносить аутентичную речь в конкретных контекстах, в том числе профессиональных. Маккарти и О'Делл (2003) подчеркнули, что идиомы являются неотъемлемой частью общения носителей языка. Они считают, что изучение идиоматических выражений помогает учащимся достичь беглости и более естественного звучания в речи и письме. Коуи (1998) отметил важность идиом в профессиональном и повседневном английском языке, поскольку они отражают то, как язык фактически используется на практике. Это особенно важно для изучающих ESP, которым необходимо эффективно действовать в конкретных областях.

Идиомы широко используются как в профессиональном, так и в неформальном контексте. Их изучение помогает изучающим ESP лучше осваивать аутентичные материалы, такие как руководства, отчеты, презентации или разговоры на рабочем месте. Хатчинсон и Уотерс (1987) выступали за адаптацию языкового обучения к конкретным потребностям студентов. Это включает в себя преподавание идиом, имеющих отношение к профессиональной или академической сфере учащихся, поскольку это повышает практичность их языковых навыков. Робинсон (1991) предположил, что следует уделять особое внимание идиоматическим выражениям, уникальным для конкретных профессий (например, юридический, медицинский или деловой английский), чтобы подготовить учащихся к реальному взаимодействию в своих областях.

Методология. Участниками. В этом исследовании приняли участие 22 студента, обучающихся на курсе ESP (английский для специальных целей) в университете Аджу в Ташкенте. Студенты были с факультета электротехники и компьютерной инженерии и имели средний уровень владения английским языком.

Материалы и инструменты. Тщательно подобранный список из 16 идиом, соответствующих профессиональной сфере участников, полученный на основе аутентичных материалов, таких как отраслевые тексты, профессиональные беседы и онлайн-ресурсы.

Уроки были адаптированы на основе выбранных идиом с использованием презентаций Power Point с визуальными изображениями, объясняющими значение идиом. Для ознакомления с идиомами использовался метод PPP (презентация, производство и практика). На каждом уроке для изучения применялась по одной новой идиоме. Во-первых, в начале урока вводилось название выбранной идиомы с соответствующей картинкой, чтобы угадать ее значение путем обсуждения в классе на слайде. Затем было дано определение идиомы, чтобы сравнить, верны ли предположения учащихся или нет. Прежде чем предоставить рабочие листы для чтения текста с использованием этой идиомы, учащимся были продемонстрированы несколько образцов предложений в контексте. Студенты также пытались составить свои собственные предложения, используя целевую идиому.

Исследование проводилось в течение 8 недель (занятия проводились два раза в неделю), и в течение этих недель тесты включали вопросы с несколькими вариантами ответов, завершение предложений и вопросы с короткими ответами, требующие использования идиом. Еженедельные уроки были посвящены ознакомлению, отработке и применению идиом в контексте. В конце курса был проведен тест для оценки улучшения понимания и применения идиом.

Сбор и анализ данных. Количественные данные были собраны на основе результатов тестов для измерения прогресса в обучении, и они показывают, что 95% идиом были усвоены хорошо.

Качественные данные были собраны посредством наблюдений во время ролевых игр и форм обратной связи, где участники размышляли о своем опыте обучения, принимая участие в опросе из формы.

Выводы. По данным опроса, основанного на 11 вопросах, в вопросе 1 об общем опыте изучения идиом на курсе ESP большинство студентов указали на положительный прием 78,5 % студентов. Однако 7,1% ответов указывают на небольшую область для улучшения.

Вопрос 2: Актуальность идиом в академической сфере показывает полное согласие с тем, что идиомы актуальны (71,4%). Некоторая часть (21,4%) указывает на частичное совпадение, что предполагает возможность уточнения выбора идиом.

Вопрос 3: Предпочтительные методы обучения.

Большинство студентов предпочитали групповые дискуссии (42,9%), меньше отдавая предпочтение наглядным пособиям (28,6%) и контекстуальным примерам (21,4%). Это понимание может помочь в планировании будущих уроков.

Большинство учащихся считают идиомы понятными и простыми в использовании; результаты по вопросу 5 показывают, что идиомы были объяснены ясно с достаточным количеством примеров и практики.

Вопрос 6: Уверенность в использовании идиом после этого курса

64,3% показывают, что большинство студентов чувствуют себя более уверенно, что указывает на успех в достижении целей курса. Однако 28,6% студентов ответили «Может быть», что предполагает возможность дальнейшей практики и поддержки.

Большинство студентов оценили процесс обучения на «очень хорошо» или «хорошо», отметив, что им нравятся занятия и упражнения, связанные с идиомами (вопрос 7), и продемонстрировали свою заинтересованность в изучении большего количества идиом из этого курса в будущем (вопрос 10).

Подводя итог открытым ответам (Вопрос 8), 15 студентов из 22 отметили следующие идиомы как наиболее интересные и полезные: Burning the midnight oil, shooting in the dark, low-hanging fruit, catch the bug, stack overflow, bite the bullet, white hat.

На вопрос 9 о том, какие дополнительные ресурсы или методы, по мнению учащихся, могут улучшить преподавание идиом в этом курсе, двое из них представили эффективные предложения по реализации, например, использование карточек Quizlet, видеороликов или подкастов, где идиомы естественным образом используются в контексте.

Обсуждение. Результаты этого исследования подчеркивают эффективность курса ESP в преподавании идиом и дают ценную информацию для совершенствования будущих стратегий обучения. Данные, собранные как из количественных, так и из качественных источников, иллюстрируют в целом положительный прием, а также определяют области для улучшения.

Результаты обучения. Количественные данные указывают на высокий уровень успешности: 95% идиом хорошо усваиваются учащимися. Этот хороший результат отражает эффективность используемых методов обучения, таких как ролевые игры и примеры, представленные во время уроков. Качественные результаты согласуются с этим, поскольку учащиеся продемонстрировали в целом положительный опыт изучения идиом (78,5%), и лишь небольшая часть (7,1%) предполагает улучшение. Этот баланс указывает на то, что, хотя курс и успешен, корректировки могут еще больше улучшить процесс обучения.

Актуальность и практическое применение. Актуальность идиом в академической сфере студентов была еще одним важным компонентом. Большинство (71,4%) полностью согласилось с тем, что идиомы актуальны, при этом 21,4% указали на частичное совпадение. Это говорит о том, что, хотя большинство идиом были выбраны правильно, более индивидуальный выбор может повысить контекстуальную применимость и влияние. Открытые ответы подкрепляют это, поскольку студенты выделили такие идиомы, как «сжигание полуночного масла» и «белая шляпа», как особенно полезные, что указывает на предпочтение фраз, тесно связанных с их профессиональным контекстом.

Методы обучения и уверенность. Предпочтения студентов в отношении методов обучения, как показал опрос, обнаруживают сильную склонность к групповым дискуссиям (42,9%), а не к наглядным пособиям и контекстуальным примерам. Это говорит о том, что интерактивная и совместная деятельность больше находит отклик у учащихся, создавая более увлекательную среду. Кроме того, 64,3% студентов сообщили о повышении уверенности в использовании идиом, что является свидетельством эффективности курса. Однако 28,6% студентов, выразивших неуверенность («Может быть»), подчеркивают необходимость дополнительного подкрепления, например, возможностей практики или индивидуальной поддержки.

Последствия для будущих курсов. Результаты предлагают несколько последствий для будущих итераций

курса. Во-первых, уточнение выбора идиом для лучшего соответствия академическим и профессиональным потребностям студентов позволит максимизировать актуальность. Во-вторых, включение большего количества интерактивных групповых занятий и использование цифровых инструментов, таких как Quizlet или видео, могло бы удовлетворить предпочтения и потребности самых разных учащихся. Наконец, предоставление дополнительных возможностей практики и адресной поддержки может укрепить уверенность среди студентов, которым требуется дополнительная помощь.

Результаты имеют различные последствия для того, как курс будет развиваться в будущем. Во-первых, актуальность можно повысить за счет точной настройки выбора идиом, чтобы он лучше соответствовал академическим и профессиональным потребностям студентов. Во-вторых, потребности и предпочтения самых разных учащихся можно удовлетворить, используя цифровые ресурсы, такие как Quizlet или видео, и добавляя больше интерактивных групповых занятий. Наконец, предоставление студентам, которые нуждаются в дополнительной помощи, большего количества возможностей для практики и целенаправленной поддержки может повысить их уверенность.

Заключение. Курс ESP эффективно способствовал изучению 95% идиом, а большинство студентов

положительно отзывались о результатах курса. На эти оценки повлияла применимость идиом к академической и профессиональной среде студентов, а также интересные стратегии обучения, такие как групповые дискуссии. Хотя рекомендации по использованию дополнительных ресурсов, таких как цифровые инструменты, открывают возможности для дальнейшего совершенствования курса, повышение уверенности в использовании идиом у 64,3% участников показывает высокий уровень достижения целей курса.

Хотя большинство идиом были хорошо освоены студентами, комментарии относительно улучшения курса (7,1%) подчеркивают необходимость более селективного выбора идиом и предоставления большей помощи учащимся в усовершенствовании их практических навыков. Включение различных ресурсов, таких как карточки Quizlet, подкасты и видео, будут содействовать заполнению этих пробелов и повышению эффективности освоения курса.

В целом курс оказался полезным в обучении студентов идиоматическим выражениям, соответствующим их академическим и профессиональным потребностям. Улучшая обратную связь со студентами и рассматривая выявленные области инклюзивности, преподавание данного курса в будущем может еще больше повысить успех и знание студентов.

ЛИТЕРАТУРА

1. Cowie, A. P. (1998). *Phraseology: Theory, analysis, and applications*. Oxford University Press.
2. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for specific purposes: A learning-centred approach*. Cambridge University Press.
3. Hymes, D. H. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics: Selected readings* (pp. 269–293). Penguin Books.
4. McCarthy, M., & O'Dell, F. (2003). *English vocabulary in use: Upper-intermediate with answers*. Cambridge University Press.
5. Robinson (1991). *ESP (English for specific purposes)*. Oxford University Press.
6. Widdowson, H. G. (1983). *Learning purpose and language use*. Oxford University Press.
7. Wray, A. (2002). *Formulaic language and the lexicon*. Cambridge University Press.



Jonibek XAYITOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti kafedra mudiri, PhD
E-mail: xayitovjonibek77@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Shomirzayev taqrizi asosida

DEVELOPING THE CREATIVITY OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

Annotation

The article discusses the development of creativity among future technology teachers through digital technologies, as well as the effective use of digital technologies by learners. It highlights methods for determining the attitudes of teachers and students toward digital technologies and their assimilation. Additionally, it examines the current state and challenges of digital technologies and explores ways to use them effectively.

Key words: Technology, future, subject, teacher, creativity, digital technologies, development, quality, efficiency.

РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В статье рассматриваются развитие креативности будущих учителей технологии с помощью цифровых технологий, а также эффективное использование цифровых технологий учащимися. Освещаются методы определения отношения преподавателей и студентов к цифровым технологиям и их освоению. Кроме того, обсуждаются текущее состояние и проблемы цифровых технологий, а также способы их эффективного использования.

Ключевые слова: Технология, будущий, предмет, преподаватель, креативность, цифровые технологии, развитие, качество, эффективность.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI KREATIVLIGINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘ljak texnologiya fani o‘qituvchilarini kreativligini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish hamda ta‘lim oluvchilarni raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishi o‘qituvchi va talabalarning raqamli texnologiyalarga munosabati va o‘zlashtirishni aniqlash usullari yoritib berilib, bundan tashqari raqamli texnologiyalarning hozirgi holati va muammolari, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Texnologiya, bo‘ljak, fan, o‘qituvchi, kreativ, raqamli texnologiya, rivojlantirish, sifat, samaradorlik.

Kirish. Ta‘limda kreativlikni rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali kreativlikni oshirish nafaqat o‘quvchilarga, balki o‘qituvchilarning o‘ziga ham yangi imkoniyatlar ochadi. Shunga qaramasdan, ko‘plab o‘qituvchilar raqamli vositalarni to‘liq o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa ulardan samarali foydalanishga xalaqit bermoqda va ijodiy yondashuvlarni cheklamoqda [1].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — bo‘ljak texnologiya fani o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali kreativlik salohiyatini oshirishga ko‘maklashuvchi samarali yondashuvlarni aniqlashdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarga oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, kreativlikni rag‘batlantiruvchi usullarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Ko‘pgina o‘qituvchilar uchun raqamli texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llash texnik yoki psixologik to‘siqlarni keltirib chiqaradi. Bu to‘siqlarni bartaraf etish uchun, bir tomondan, ularning texnologik bilim darajasini oshirish, boshqa tomondan esa ijodiy salohiyatini rag‘batlantirish lozim. Ushbu tadqiqot aynan shu yo‘nalishda amalga oshirilgan va mavjud muammolarni hal qilish bo‘yicha takliflarni beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlarni o‘rganish jarayonida raqamli texnologiyalar va kreativlikning o‘zaro bog‘liqligi hamda pedagogik metodlar va innovatsiyalar bo‘yicha bir qator muhim yondashuvlar aniqlangan. Ismoilov (2020) zamonaviy raqamli platformalar ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etishini ta’kidlagan. Bu platformalar o‘qituvchilarga o‘quv materiallarini samarali yetkazib berish va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash imkoniyatini yaratadi. Karimova (2021) o‘z tadqiqotida vizual dasturlash vositalari va multimedia resurslarining ijodiy salohiyatni oshirishdagi

ahamiyatini ko‘rsatgan [2]. Shuningdek, UNESCO (2023) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarni qo‘llashdagi qiyinchiliklarini yengib o‘tishda malaka oshirish kurslarining ahamiyatini tasdiqlagan. Amaliy tadqiqotlar esa raqamli vositalar yordamida ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishda moslashtirilgan o‘quv dasturlari va treninglarning samaradorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etishda mavjud resurslardan samarali foydalanish muhim ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosida sifat va miqdoriy yondashuvlarning uyg‘unligi ta’minlandi. Raqamli texnologiyalarning kreativlikni rivojlantirishdagi o‘rnini o‘rganish uchun bir qator tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Tadqiqotda qatnashgan ishtirokchilar sifatida O‘zbekistonning pedagogika universitetlarida tahsil olayotgan bo‘ljak texnologiya fani o‘qituvchilari tanlab olindi. Tadqiqotda ishtirokchilar soni 120 nafarni tashkil etib, ular orasida turli o‘quv yurtlaridan bo‘lgan talabalar ishtirok etdi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida ishtirokchilarning raqamli texnologiyalar bo‘yicha dastlabki bilim va ko‘nikmalarini aniqlash maqsadida maxsus so‘rovnoma o‘tkazildi. Bu bosqichda ishtirokchilar raqamli vositalarni qanchalik samarali qo‘llay olishini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar yig‘ildi. Keyinchalik ushbu ma’lumotlar tahlil qilindi va o‘quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi aniqlandi.

Ikkinchi bosqichda ishtirokchilarga raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha maxsus trening mashg‘ulotlari tashkil etildi. Ushbu treninglarda ularga multimedia vositalaridan foydalanish, interaktiv ta‘lim metodlarini qo‘llash, shuningdek, innovatsion texnologiyalar asosida darslarni o‘tkazish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar berildi. Treninglar davomida ishtirokchilar bilan real vaziyatlarni

modellashirish va ijodiy yondashuvlarni shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar bajarildi.

Uchinchi bosqichda esa trening va mashg'ulotlarning samaradorligini baholash uchun sinov ishlari o'tkazildi. Sinov jarayonida ishtirokchilarga turli murakkablikdagi vazifalar topshirilib, ularning kreativlik darajasi o'lchandi. Olingan natijalar miqdoriy va sifatli tahlil qilindi, natijalarning statistik ishonchiligi aniqlandi. Tahlillar davomida raqamli texnologiyalar asosida ishlash ko'nikmalari o'quvchilarning kreativlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar asosida, ishtirokchilarning raqamli texnologiyalarga oid bilim va ko'nikmalarini oshirish orqali ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishning samarali metodlari ishlab chiqildi. Bu metodlar o'z navbatida o'quv jarayonlarida joriy etilishi mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar shaklida taqdim etildi. Umumiy natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar orqali o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish pedagogik faoliyatda yuqori natijalarga olib keladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida olingan natijalar tahlili bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativlik darajasini oshirishda raqamli texnologiyalarning samaradorligini isbotladi. Dastlabki bosqichda o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning aksariyati raqamli vositalardan foydalanish borasida yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligi aniqlandi. Ayniqsa, ta'limda interaktiv va innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim darajasi past ekanligi kuzatildi.

Ikkinchi bosqichda trening mashg'ulotlari ishtirokchilarning bilim va ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirdi. Mashg'ulotlar davomida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda dars rejalari yaratish, taqdimotlar tayyorlash va interaktiv metodlarni qo'llashga oid amaliy mashqlar bajarildi. Ushbu bosqichda o'qituvchilar yangi bilimlarni tezda o'zlashtirishi va amalda qo'llay olishi qayd etildi.

Sinov ishlari natijalari ishtirokchilarning kreativlik darajasida sezilarli o'sish kuzatilganligini ko'rsatdi. Masalan, ishtirokchilar darslarni virtual ta'lim platformalari yordamida tashkil etish, interaktiv o'yinlar va animatsion materiallardan foydalanish orqali ijodiy yondashuvlar namoyish eta oldi. Maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlarni bajarishda ishtirokchilar nafaqat mavjud bilimlardan foydalangan, balki yangi g'oyalari va yechimlar taklif qila olgan. Bu esa raqamli texnologiyalar o'qituvchilarning ijodkorlik salohiyatini oshirishda qanchalik samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar o'qituvchilarning dars jarayonlarini innovatsion va ijodiy tashkil etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Jumladan:

Interaktiv metodlar va vositalar: Dars jarayonida interaktiv taqdimotlar, virtual laboratoriyalar va multimediyalar resurslari o'qituvchilarning ijodiy yondashuvini rivojlantirdi. Ishtirokchilar ushbu vositalar yordamida murakkab mavzularni qiziqarli va tushunarli shaklda yetkazishni o'rgandi.

Ijodiy fikrlashni rag'batlantirish: Treninglar davomida ishtirokchilar uchun tashkil etilgan loyihaviy va muammoli topshiriqlar ularning mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirdi. Bu esa ularning darslarda yangi yondashuvlarni qo'llashga bo'lgan ishonchini oshirdi.

Praktik natijalar: Ishtirokchilar tomonidan ishlab chiqilgan dars rejalari va ta'lim materiallari yuqori darajada innovatsion va ijodiy bo'lganligi qayd etildi. Bu materiallar sinov jarayonida samarali qo'llanilib, o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali nafaqat o'qituvchilarning ijodiy

salohiyati oshadi, balki o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi ham kuchayadi. Bu jarayonning samaradorligini ta'minlash uchun texnologiyalarni o'rgatish va qo'llash metodikasini takomillashtirish lozim. Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha yangi istiqbolli yo'nalishlarni aniqlashga imkon berdi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativligini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish, ta'lim jarayonini yangilash va samaradorligini oshirishga katta yordam beradi. Bu o'qituvchilarga nafaqat o'quvchilarni o'rgatish, balki ularning kreativ fikrlashni o'rgatishda ham yordam beradi. Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga to'liq integratsiya qilish, innovatsion ta'lim yondashuvlarini qo'llashni osonlashtiradi va o'qituvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini yangilashga xizmat qiladi [3].

Raqamli texnologiyalar yordamida o'qituvchilar o'quvchilarga interaktiv darslarni taqdim etishda yangicha yondashuvlarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va onlayn platformalar orqali o'quvchilarga texnologiya fani bo'yicha keng ko'lamli amaliy tajribalar taqdim etish mumkin. Bu esa o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini oshirib, ularni ilg'or texnologik yechimlarni yaratishga ilhomlantiradi. O'qituvchilar esa bu jarayonda o'z kreativligini va pedagogik malakasini oshirishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Shuningdek, raqamli texnologiyalar o'qituvchilarga o'z o'quv metodlarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini beradi. O'qituvchi, darsni masofaviy yoki aralash ta'lim usullari yordamida tashkil etish orqali o'quvchilarning diqqatini jamlash va darsga bo'lgan qiziqishni oshirishi mumkin. Bu innovatsion yondashuvlar orqali texnologiya fanining ahamiyatini o'quvchilarga yetkazish va ularni zamonaviy texnologik muhitda faol ishtirok etishga rag'batlantirish o'qituvchining kreativligini rivojlantiradi.

Kreativlikni rivojlantirishda o'qituvchilarni doimiy ravishda raqamli vositalarni o'rganishga va ulardan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanishga yo'naltirish zarur. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilarni raqamli resurslar va ta'lim platformalari bilan tanishtirish, ularning zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan tanishishini ta'minlash muhimdir. Shuningdek, o'qituvchilarni o'z bilimlarini rivojlantirish va pedagogik kreativlikni oshirishga undash uchun malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etilishi kerak.

Natijada, raqamli texnologiyalar orqali bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirish, nafaqat o'quvchilarning ilmiy yutuqlarini oshiradi, balki ularning ijodkorlik qobiliyatlarini kengaytiradi. Bu jarayon orqali o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatini samarali tashkil etib, o'quvchilarga nafaqat an'anaviy bilimlarni, balki innovatsion fikrlash va yangi texnologik echimlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini ham o'rgatadilar. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, o'quv jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi, shu bilan birga, o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

O'qituvchilarning kreativligini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim jarayoni, nafaqat ta'lim tizimini yangilaydi, balki o'quvchilarda yangilikka bo'lgan qiziqishni va zamonaviy texnologiyalarga bo'lgan e'tiborni ham kuchaytiradi. Bu o'qituvchilarning o'z ishlariga nisbatan mas'uliyatini oshirib, ularning pedagogik mahoratini va bilim darajasini yaxshilaydi. Shunday qilib, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativligini raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish, ta'lim tizimining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.
3. "Learn to Program with Scratch: A Visual Introduction to Programming with Games, Art, Science, and Math" Majed Marji. 2014 yil
4. Texnologiya [Matn] : 7-sinf uchun darslik / – Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2023. – 240 b.
5. Eshaliyev O'.S., Nurmatov Z.Sh., Xayitov J.X., Informatika va raqamli texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Termiz: 2024. 202b.

6. Raqamli texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi''-Maqola/-Mirzahmedova Nargiza Dilmurodovna Nizomiy nomidagi TDPU "Axborot texnologiyalari" kafedrasida katta o'qituvchisi
7. Xayitov J.X. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 3/2022. –B. 78-81. (13.00.00: №31).
8. Xayitov J.X. Texnologik ta'lim praktikumi darslarida talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish tamoyillari va kreativlik sifatlarining tavsifi // Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari. Mavzusida xalqaro ilmiy-texnik anjuman. Termiz, 2022. -B. 389-392.
9. Nurmamatov Z.Sh. Innovatsiyalarning ro'li va ahamiyati ta'limda. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. - Namangan. www.journal.namdu.uz ISSN: 2181-0427 . 1/2023. –B. 645-650.(13.00.00:№30).
10. Nurmamatov Z.Sh. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash. Fan, ta'lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari. - Andijon. 2022 - y. B. 31-34.
11. Nurmamatov Z.Sh. Current status of development of innovative activity of future technology teachers. International Conference of Scientific and Management Current Affairs. - Angliya. 2022 - y. B. 1-4.



УДК: 37.022

Муитарий ХОЛМАТОВА,

Научный сотрудник Наманганского государственного университета

E-mail: xolmatovamushitariyakramovna@gmail.com

Под руководством Замитовны Р.В., профессора, д.ф.н., НамПГИ

ФИЛОСОФСКИЙ АСПЕКТ СУЩНОСТИ И ПРИНЦИПОВ ГЕНДЕРНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются философские аспекты сущности и принципов гендерной толерантности. Вопросы гендерного равенства и обеспечения прав мужчин и женщин прошли сложный и длительный путь исторической трансформации, отражая ключевые этапы развития западной и восточной цивилизаций. Анализируются исторические и культурные предпосылки формирования гендерных стереотипов и их влияние на общественное сознание. Эти изменения интегрировались в научно-когнитивное и социально-философское мышление, формируя теоретическую базу для современного осмысления социальной справедливости.

Ключевые слова: Гендерная идентичность, гендерная толерантность, идентичность и самовыражение, гендерное равенство, взаимопонимание, комполитизм, идеи смирения и терпимости.

GENDER BAG‘RIKENGLIK MOHIYATI VA TAMOYILLARINING FALSAFIY JIHATI

Аннотация

Ushbu maqolada gender bag‘rikenglik mohiyati va tamoyillarining falsafiy jihatlari muhokama qilinadi. Gender tengligi, erkak va ayol huquqlarini ta‘minlash masalalari G‘arb va Sharq sivilizatsiyalari taraqqiyotining asosiy bosqichlarini o‘zida aks ettiruvchi murakkab va uzoq tarixiy o‘zgarishlar yo‘lini bosib o‘tdi. Gender stereotiplarini shakllantirishning tarixiy va madaniy shart-sharoitlari va ularning jamoatchilik ongiga ta‘siri tahlil qilinadi. Bu o‘zgarishlar ilmiy-kognitiv va ijtimoiy-falsafiy tafakkur bilan birlashtirilib, ijtimoiy adolatni zamonaviy tushunishning nazariy asosini tashkil etdi.

Kalit so‘zlar: Gender identifikatori, gender bag‘rikenglik, o‘ziga xoslik va o‘zini namoyon qilish, gender tengligi, o‘zaro tushunish, komopolitizm, kamtarlik va bag‘rikenglik g‘oyalari.

PHILOSOPHICAL ASPECT OF THE ESSENCE AND PRINCIPLES OF GENDER TOLERANCE

Annotation

This article discusses the philosophical aspects of the essence and principles of gender tolerance. Issues of gender equality and ensuring the rights of men and women have gone through a complex and long path of historical transformation, reflecting key stages in the development of Western and Eastern civilizations. The historical and cultural prerequisites for the formation of gender stereotypes and their influence on public consciousness are analyzed. These changes have been integrated into scientific-cognitive and social-philosophical thinking, forming a theoretical basis for the modern understanding of social justice.

Key words: Gender identity, gender tolerance, identity and self-expression, gender equality, mutual understanding, comopolitanism, ideas of humility and tolerance.

Изучение философского аспекта гендерной толерантности в Узбекистане является особенно важным в контексте продолжающихся демократических реформ и процессов модернизации. В последние десятилетия гендерная политика стала неотъемлемой частью социальной политики, направленной на обеспечение равенства и справедливости для всех граждан. Узбекистан активно поддерживает международные инициативы, направленные на повышение роли женщин в обществе, что подчеркивает важность философского осмысления этого явления для дальнейшего развития страны.

В своём первом выступлении на пленарной сессии Совета ООН по правам человека Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев определил проведение гендерной политики одним из ключевых направлений деятельности Узбекистана в рамках Совета ООН по правам человека и приоритетной задачей демократических преобразований в самой стране. Глава государства ещё раз подтвердил намерение кардинально повысить роль женщин в общественной, политической и деловой жизни страны [1].

Важнейшими международными документами, формирующими основу для развития гендерной толерантности, являются «Декларация принципов толерантности» ЮНЕСКО и «Декларация прав человека», в которых подчеркивается значимость достижения гендерного равенства как главной цели для общества. Эти документы становятся основой для дальнейших шагов в области социальной политики Узбекистана, в особенности в

контексте интеграции международных стандартов и ценностей.

С древнейших времён гендерная проблематика становилась предметом оживлённых дискуссий, начиная с идей о равенстве, впервые сформулированных древнегреческим философом Антифонтом, и заканчивая современными концепциями, охватывающими следующие исторически значимые этапы: зарождение женского движения; борьба за избирательные права; формирование теорий равенства; стремление к равноправию в эпоху Французской революции; эволюция теории равных возможностей; развитие феминизма в его либеральных и радикальных направлениях; теории социальной социализации; изучение гендерных различий; концепции мужского доминирования, в том числе работы Роберта Коннелла; исследование гендерных аспектов в правоведении, психологии и медицине; активизация борьбы за права женщин.

Ещё в античности философы осознавали ключевую роль толерантности как условия успешного взаимодействия между людьми и гармоничного существования общества. Для них толерантность была не просто социальной необходимостью, но и этическим принципом, формирующим основы духовной и социальной гармонии. Сократ и Платон, например, рассматривали «терпимость» как важнейший элемент интеллектуальной аскезы. В их понимании она способствовала уважению различных мнений и взглядов, что, в свою очередь, укрепляло взаимопонимание и создавало

предпосылки для устойчивого развития общества [2]. Сократ подчеркивал важность диалога как способ понимания и принятия различных точек зрения. Сократ верил, что истинное знание и добродетель доступны каждому человеку, независимо от его происхождения или пола. Он считал, что добродетель и справедливость являются главными целями человеческой жизни. Он полагал, что добродетельный человек будет стремиться к справедливости и гармонии в обществе, что включает уважение к правам и достоинству других людей.

Аристотель (384–322 гг. до н.э.), развивая свои идеи в работе «Никомахова этика», предложил концепцию добродетели как меры между крайностями, что можно интерпретировать как ранний подход к осмыслению толерантности. Добродетель, в его представлении, находила выражение в способности сохранять умеренность и избегать крайностей в действиях и суждениях, что резонирует с современными представлениями о терпимости как умеренности в отношениях между людьми [3]. Следует отметить, что для Аристотеля человек – это, прежде всего представитель мужского пола. Согласно Аристотелю, женщины преимущественно связаны с семьей и ее локальным окружением, где они могут наилучшим способом реализовать свои способности. Более того, он проводит различие между подлинным свободным и самостоятельным человеком (человеком в лучшем смысле этого слова) и человеком, который от природы обладает рабской ментальностью.

В полисах Греции рабы живут в состоянии несвободы, вынужденные заниматься тяжелым физическим трудом. Для Аристотеля такая жизнь является менее ценной, чем жизнь, которую ведут в полисе свободные греческие мужчины. Существует соответствие между предназначением раба к несвободному состоянию и его личными качествами. С этой точки зрения, раб находится ниже свободного греческого мужчины. Таким образом, Аристотель помещает как рабов, так и женщин ниже свободных греческих мужчин. Женщины и рабы по своей природе, по своим качествам находятся на более низком уровне, чем свободные мужчины, которые чувствуют в общественной жизни города-государства. Поэтому, когда говорится, что человек реализует свою природу в полисе, следует помнить, что, согласно Аристотелю, это не относится к женщинам и рабам [4].

Диоген Синопский (412–323 гг. до н.э.) внёс важный вклад в развитие идей космополитизма, проповедуя равенство всех людей вне зависимости от их происхождения или социальных различий. В его трудах, таких как «Изречения Диогена», нашли отражение идеи о равноправии как базовом принципе общественного устройства, который позже стал основой многих философских и правовых концепций [5].

Однако историческая реальность зачастую противоречила этим философским идеалам. Гендерное неравенство, например, принимало различные формы и было глубоко укоренено в культурных и социальных традициях. В Древнем Риме женщины не обладали гражданскими правами, не могли участвовать в выборах или занимать государственные должности. В некоторых обществах существовали жестокие обычаи, такие как обряд сати в Индии, когда вдова сжигалась на погребальном костре мужа, или практика убийства новорождённых девочек в некоторых регионах Востока. Эти примеры демонстрируют, насколько глубоко дискриминация могла проникать в общественные нормы, формируя неравенство на уровне культурных и социальных структур.

Например, Платон говорил метафорически, что некоторые люди сделаны из золота, другие из серебра, а остальные из железа и меди. Однако он полагал, что всеобщая система образования и воспитания обеспечит каждому мужчине и каждой женщине отвечающее их способностям место в обществе, где они могут выполнять общественную функцию, для реализации которой подготовлены наилучшим образом. Одаренные мудростью будут править обществом. Обнаружившие мужество будут защищать общество. Когда каждый занят тем, для него он

подходит наилучшим образом, и когда все социальные функции реализуются наилучшим (по Платону) способом, то общество является справедливым. Справедливость является добродетелью, связанной с обществом, и есть гармония трех следующих добродетелей.

Мудрость

Мужество

Умеренность (послушание)

В раннем «Средневековье (V–VIII вв.) термин «толерантность» первоначально означало пассивное терпение, добровольное перенесение страданий как телесных (боль), так и душевных (зло). Смыслом толерантности в этот период было «страдательное действие», смирение» [6]. Общество того времени было строго гендерно-разделенным, и роли мужчин и женщин были четко определены и закреплены. Женщины имели ограниченные права и свободы, и их роль в основном сводилась к домашним обязанностям и заботе о детях.

Например, Августин Блаженный (354–430) в трактате «О Граде Божием» рассматривал терпение как христианскую добродетель и способ достижения духовного совершенства [7]. В своей автобиографической книге «Исповедь» Августин описывает свои переживания и размышления о женщинах и их влиянии на его жизнь. Он придерживался традиционных для своего времени взглядов на гендерные роли, считая, что женщины должны быть подчинены мужчинам. Тем не менее, он также подчеркивал важность духовного равенства между мужчинами и женщинами в христианском контексте.

В свою очередь, Иоанн Златоуст (347–407) в своих «Беседах» развивал идею смирения и терпимости как пути к спасению, подчеркивая их важность для духовного роста человека [8]. Он рассматривал гендерное неравенство как следствие грехопадения первых людей и считал, что это неравенство установлено Богом для ветхих греховных людей. Однако, если мужчина не выполняет свои обязанности, жена, обладающая большей добродетелью, может занять его место и учить его правильной христианской жизни.

Одним из первых философов, который обосновал необходимость терпимого отношения к иноверам, был Фома Аквинский. В своём труде «Сумма теологии» он утверждал, что иноверцы должны быть терпимо восприняты, если их взгляды не угрожают христианской вере. Фома Аквинский имел амбивалентные взгляды на гендерные роли и их значимость. С одной стороны, он считал, что женщины, как и мужчины, созданы по образу и подобию Божию и достойны спасения и вечной жизни. С другой стороны, он ассоциировал женское с чувственностью и телесностью, что делало его взгляды на женщин второстепенными по сравнению с мужчинами.

В то же время, Пьер Абеляр, развивая метод критического мышления в своём труде «Да и Нет», поднимал вопросы диалога между различными позициями и важности открытого обсуждения противоположных точек зрения [9]. Абеляр подчеркивал важность человеческого разума и давал ему высокую оценку, что во многих случаях вводило его в конфликт с Церковью. Его философия была направлена на анализ общих понятий и их отношения к вещи и языку, а также на взаимоотношения знания, разума и религиозных догм.

Кроме того, Пьер Бейль (1647–1706) в своем «Философском комментарии» защищал право на свободу совести и веротерпимость, подчеркивая важность уважения к индивидуальной свободе вероисповедания для создания стабильного и справедливого общества [9]. Его взгляды на толерантность были связаны с идеей веротерпимости, которая возникла в контексте религиозных войн и конфликтов того времени. Бейль подчеркивал важность уважения к различным религиозным и философским взглядам, даже если они расходились с его собственными убеждениями.

Примечательным историческим событием, заложившим основы современного феминизма, стала «Декларация прав женщины и гражданки», опубликованная французской писательницей и активисткой Олимпией де Гуж

в 1791 году [10]. Этот документ, провозглашающий необходимость равенства полов, открывался призывом: «Женщины, пробудитесь. Разум звучит по всему миру. Добивайтесь своих прав». Одним из ключевых тезисов декларации стало утверждение: «Если женщина имеет право подняться на эшафот, она должна иметь право подняться и на трибуну». В своём манифесте де Гуж подчёркивала, что предоставление гражданских прав только мужчинам препятствует достижению подлинного равенства, и настаивала на доступе женщин к избирательному праву, государственной службе и другим сферам общественной жизни [10].

Одним из ключевых фигур этого движения стала Симона де Бовуар, французская философ и феминистка. Её работа «Второй пол», опубликованная в 1949 году, оказала значительное влияние на женское освободительное движение. В этой книге де Бовуар подробно исследовала положение женщин в обществе и утверждала, что женщины не рождаются, а становятся женщинами через социальные и культурные процессы. Она анализировала патриархальные структуры и призывала к освобождению женщин от традиционных гендерных ролей.

Симона де Бовуар особо заботило неравноправное социальное положение, которое занимали женщины как особая группа. По отношению к мужчинам женщины определялись как другие, отличные от них. Именно мужская «точка зрения» определяла и мужчин, и женщин (как «второй пол»). Преобладало мужское самопонимание и мужское понимание других, то есть «второй половины» человечества. В целом, женщины определялись как второстепенная часть людского рода и усваивали это представление о себе и о мужчинах [4].

Имеется, однако, другой способ переинтерпретации женских ролей и идентичностей. Можно утверждать, что и невозможно, и нежелательно бороться за равенство, когда речь заходит о взаимопонимании. Можно утверждать, что мужчины и женщины различны, что они понимают себя и других по-разному и что, следовательно, было бы иллюзией верить, будто в любой ситуации они будут признавать друг друга в качестве равных. Они могут признавать друг друга в качестве равноправных, но вместе с тем фундаментально различающихся. И мужчины, и женщины являются «другими» относительно друг друга. Именно так оно есть и так должно быть.

Опираясь на философию языка и психоанализ, она утверждает, что мужчины и женщины необходимо различны и что лучшее, чего можно и необходимо стремиться достичь, - это признание их базисного различия, их «непохожести» [4]. Люси Иригарей подвергает критике традиционное понимание равенства, основанное на восприятии человечества как единого вида. Она утверждает, что существуют два различных вида людей – женщины и мужчины, и что это различие должно быть признано и принято. Иригарей полагает, что игнорирование этого факта ведет к неправильным выводам и искажениям в рассуждениях о гендерных ролях.

Данный подход Иригарей подчеркивает важность признания гендерных различий и их роли в формировании идентичности и социальных взаимодействий. Она стремится показать, что попытка уравнивать все под единой категорией «человека» не учитывает глубокие и важные различия между полами, которые должны быть уважены и поняты для достижения истинного равенства.

Идентичность – индивидуальная и коллективная – стала центральной темой нашего общества. Не только природа более не способна к самовосстановлению. Поэтому вопрос об идентичности очень сложен. Кто я? Кто мы? Откуда мы и куда движемся? Возникающие проблемы сложны и в социальном контексте. Вообразим себя шестидесятилетней еврейской матерью из рабочей семьи во Франции. Социально, кто я на самом деле? Француженка? Человек среднего возраста? Еврейка? Мать? Или женщина? Я все это, и многое другое в разной степени [4]. Будучи французской женщиной среднего возраста, я несомненно ощущаю влияние культуры, традиций и истории своей страны. Это влияет на мои взгляды, ценности и поведение. Как еврейка, я нахожу связь с историей своего народа, религией и обрядами, которые придают моей жизни особое значение и глубину.

Роль матери добавляет еще один важный слой к моей идентичности. Забота о детях, их воспитание и поддержка – это неотъемлемая часть моей жизни, которая формирует моё понимание любви, ответственности и жертвенности.

Наконец, моя гендерная идентичность как женщины также важна. Она определяет мои жизненные опыты, взаимодействие с окружающим миром и восприятие самого себя.

ЛИТЕРАТУРА

1. <https://yuz.uz/ru/news/gendernaya-politika--odin-iz-glavnix-prioritetov-deyatelnostiuzbekistana-v-sovete-oon-po-pravam-cheloveka>
2. Лосев А.Ф. История античной эстетики. – М.: Искусство, 1963 - 1994, в 8 т. – Т. 5. Ранний эллинизм. – М.: Искусство, 1979.
3. Аристотель. Никомахова этика. - М.: ЭКСМО-Пресс, 2007.
4. Крымский С.Б. История философии: учебное пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М. ВЛАДОС, 2000.
5. Диоген Лаэртский. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов. - М.: Мысль, 1998.
6. Днепров Т. П. Эволюция смысла толерантности в истории философско-педагогической мысли // Сибирский педагогический журнал. 2009. №2.
7. Августин Блаженный. О Граде Божием. - Мн.: Харвест, 2000.
8. Иоанн Златоуст. Полное собрание творений. - М.: Святытель Иоанн Златоуст, 2006.
9. Абельяр П. История моих бедствий. - М.: Республика, 1992.
10. Декларация прав женщины и гражданки // Wikipedia. - 2025. URL: - https://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Декларация_прав_женщины_и_гражданки&stable=0&redirect=no (дата обращения: 04.01.2025).
11. Mamasoliyevich, N. K. (2023). INFORMATION CULTURE: A NEW APPROACH. World Bulletin of Social Sciences, 19, 129-134.



UDK:184.7(653.6)

Mo'min HOSHIMXONOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti professori v.b, falsafa fanlari doktori
E-mail: ziyadullag@bk.ru

F.f.d B.Turayev taqrizi asosida

THE INTERPRETATION OF HUMANISTIC VIEWS ABOUT A COMPLETE, PERFECT MAN IN THE CREATION OF ALISHER NAVOY

Аннотация

This scientific article analyzes the interpretation of humanistic views on the perfect, perfect person in the work of the Uzbek poet and thinker, statesman and public figure, genius Alisher Navoi.

Key words: Heritage, ruler, sultan, sahibkiran, enlightened, poetry.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ЦЕЛОСТНОМ, СОВЕРШЕННОМ ЧЕЛОВЕКЕ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОЯ

Аннотация

В данной научной статье анализируется трактовка гуманистических представлений о совершенном человеке в творчестве узбекского поэта и мыслителя, государственного и общественного деятеля, гения Алишера Навои.

Ключевые слова: Наследство, правитель, султан, владелец, учёный, поэтический конкурс.

ALISHER NAVOIY IJODIDA BARKAMOL, KOMIL INSON HAQIDAGI GUMANISTIK QARASHLAR TALQINI

Аннотация

Ushbu ilmiy maqolada o'zbek shoiri va mutafakkiri, davlat va jamoat arbobi, daho Alisher Navoiy ijodida barkamol, komil inson haqidagi gumanistik qarashlar talqini tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Meros, hukmdor, sulton, sohibqiron, orif, mushoira.

Kirish. Alisher Navoiy merosida Husayn Boyqaro madhi asosan quyidagi, bir - biri bilan mustahkam bog'liq uch yo'nalishda ko'zga tashlanadi:

1.Chin insoniy fazilatlar, go'zal xulq-atvor va yetuk xislatlar sohibi, mehribon, g'amxo'r, asl do'st, suyukli, vafodor «yor»;

2.Ulkan mamlakatning ham ota, ham ona avlodi tomonidan shohlnk huquqida bo'lgan qudratli hukmdori, buyuk Temurning davomchisi — «sultoni sohibqiron», saxovatli va odil, raiyatparvar va orif, el-yurt osoyishtaligi va farovonligi yo'lida muntazam qayg'uruvchi hamda raqiblari ustidan zafar qozonuvchi «shohi g'oziy»;

3.Iste'dodli ijodkor, «Husayniy» taxallusi ostida qalam tebratgan sohibi devon shoir, badiiyatni nozik tushunuvchi va yuksak qadrllovchi, «she'riyat poyasin yetti ko'ktin o'tkargan», san'at ahlining saxiy homiysi, xususan ona tilida ijod qilishga tinmay da'vat etib, rag'batlantiruvchi, o'z qoshida shoirlar guruhini to'plab, muntazam ravishda o'tkaziladigan she'riyat bazm-mushoiralarining tashkilotchisi.

Ravshanki, bunday yo'nalishlarga ajratishda shartlilik mavjud: ijodkor Husayn Boyqaro madhining shakllanishi va qiyomiga yetkazilishida qudratli hukmdor «shohi g'oziy» qiyofasi va qadrdon do'st— sodiq yor siymosi ham gavdalangan hamda shubhasiz o'z ta'sirini ko'rsatgan va aksincha. Chindan ham, Husayn Boyqaroni yuksak ijodiy iqtidor, nozik tab' va she'riyatning zukko bilimdoni, jumladan, Navoiy she'riyatini «sloh etib» zeb-u ziyat beruvchi xurdadon sifatida ulug'lovchi bitiklar mohiyati va maqsadiga ko'ra sadoqatli do'st va muzaffar hukmdor madhining uzviy bir qismidir [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy o'z asarlarida ma'naviy poklik, xalqparvarlik va ma'rifatparvarlikni kuylab, o'z avlodlariga katta adabiy-falsafiy va ilmiy meros qoldirdi. Navoiyning jamiyat taraqqiyoti, shaxs kamoloti bilan bog'liq fikr va mulohazalari qadim faylasuflar g'oyalari bilan hamohangdir. Navoiy ijodining bosh xususiyatlaridan biri, so'zsiz, kishilar o'rtasidagi mehr-muhabbat, o'zaro hurmat, bag'rikenglik va ezgulikning markaziy o'ringa qo'yilishidir [2].

Navoiy orzu qilgan komil inson, bunday olganda, tasavvufdagi komil inson mezonlariga to'g'ri keladi. Navoiy g'oyalari ham tasavvuf g'oyalariga hamohang. Buning ustiga ulug' mutafakkirning komil insonlarga xos ibratli hayoti uni so'fiy yoki mutasavvif deb atashga, qaysidir ma'noda, asos qilib ko'rsatilishi mumkin. Biroq uning ijodidagi sof irfoniy maqsadlarda yozilgan g'azaliyoti va qasidalarini hisobga olmaganda, aksariyat asarlari tahlili o'zgaracha yondashuvni talab qiladi.Uzoq yillik kuzatishlar Navoiy asarlarini faqat dunyoviy nuqtayi nazardan tahlil qilish adolatdan bo'lmasligi singari muvofiq kelsa-kelmasa irfoniy g'oyalarni ro'kach qilib tahlil qilish to'g'ri emasligini ko'rsatmoqda. Navoiy inson va olam, borliq falsafasini tushuntirishda tasavvuf ta'limotidan keng foydalangan.

Navoiy o'z oldiga buyuk vazifa - insonni tarbiyalash missiyasini qo'ygan. Uni so'fiylardan ajratib turadigan axloqiy jihat - jamiyatni tarbiyalash masalasiga global yondashuvdir. Shu yo'lida, avvalo, o'zi ibrat bo'ldi va boshqalarni ham bunga da'vat qildi.Tasavvuf ana shu buyuk maqsadni amalga oshirishda vosita bo'ldi va Alisher Navoiy ijodida o'ziga xos talqinini topdi. Shu nuqtayi nazardan Navoiyning "komil inson"i tasavvufning ikki g'oyaviy platformasi orqali shakllantirilgani haqida gapirish mumkin.

Muazzam «Xamsa»da Navoiy orzu-idealidagi komil insonlarning butun bir turkumiga duch kelamiz. Ular orasida tarixiy shaxslar ham, afsonaviy shaxslar ham, shoir tomonidan mahorat bilan yaratilgan badiiy obrazlar ham bor [3].

Navoiy g'azallarida pirsiz tariqat bosqichini o'tab bo'lmasligi, kamolot yo'li rahnamosiz amalga oshmasligini ta'kidlaydi. Chunki riyozat yo'li og'ir va murakkab bo'lib, bu yo'lga yetuk yetakchi boshchiligida kirmagan kishi adashishi mumkin. Chunonchi, «Majolis un-nafois»da zamondoshi shoir Kamoliddin Binoiyning o'zidagi qusurlardan qutulish uchun riyozat yo'lga kirgani, lekin biror piring etagidan tutmagani bois hech bir natijaga erishmaganini yozadi: «Bu sifati salbiy uchun faqr tariqin ixtiyor kildi va riyozatlar ham tortti, chun piri va murshidi yo'q erdi, o'z boshicha qilgon uchun hech foyda bermadi». Shuning uchun ham tasavvufda har jihatdan komil murshidga murid tushib, bu ma'naviy rahbarning azm-u irodasiga

bo'ysunish, o'z ayb-u nuqsonlarini uning ko'rsatmalariga binoan tuzatish eng maqbul va eng keng tarqalgan yo'l hisoblanadi. «Ista komil xizmatin taftlatni raf' aylay desang», - deb yozadi bu haqda shoirming o'zi.

Komillik maqomiga ko'taradigan ma'naviy rahbarni Navoiy pir, murshid, komil, orif, soqiy, piri mayxona, piri maykada, piri dayr, piri ishq, piri xarobot, piri mug'on, piri hammor kabi majoziy timsol va sifatlar bilan ulug'laydi. Shunga muvofiq mayxona, maykada, dayr, dayri fano, xarobot, butxona so'zlari ana shunday komil insonlar suhbat, davrasi va yig'iladigan joyini anglatadi. Chunonchi:

Qadah gar bermasang, ey dayr piri, ne osig' ranjkim,
Suluk etmas asar gar pirdin yetmas hidoyat xo'b.

Dayr - nasroniyalar ibodatxonasi bo'lib, majoziy ma'noda mayxonani, «hammaslak pokboz oshiqlar davrasini» [4], shuningdek, «zoti ahadiyatdan huzurlanish»ni [5] bildiradi. Dayr piri - mayxona piri, demakki, tariqat piri, ma'naviy peshvodir [3].

Islom dini namoyandalari Muhammad payg'ambarni mukammal shaxs, komil va yetuk inson namunasi sifatida e'tirof qiladilar. Zeroki, ul zot o'zida butun hamida xislatlar va go'zal fazilatlarini jo qilgan, ruhi pok, ilohiy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan, ma'naviy va aqliy kamolotga erishgan shaxs bo'lib, komil insonning yerdagi timsoli hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Komil inson ta'limining muayyan ta'siri Alisher Navoiyning falsafiy va axlokiy qarashlarida ham o'z aksini topgan bo'lib, komil inson g'oyasi Suqrot, Aflotun, Arastu, Iskandar Zulqarnayn, Farhod, Shirin singari ijobiy qahramonlarning obrazlarida badiiy ifodalanadi. Shoir dostonlarida ular tarixiy shaxslar sifatida talqin etilmaydi, balki uning axlokiy dunyoqarashiga monand badiiy obrazlardir. Komil insonning mavjud timsollari sifatida Navoiy asarlarini maxsus boblarida Nizomiy Ganjaviy, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy nomlarini tilga oladi. Shoirning ta'rifiga ko'ra, nomlari zikr etilgan shaxslarda yuksak ilm (ma'rifat) va san'atkorlik axloqiy poklik va ma'naviy kamolot bilan uzviy ravishda bog'langan. Bu holni biz Farhod obrazida batafsil va izchil gavalanishini ko'rishimiz mumkin.

Farhod Navoiyning axloqiy qarashiga monand obraz, u komil insonga xos barcha sifatlarni o'zida mujassamlantirgan: Farhod — rassom, mohir san'atkor, usta, bilimdon olim va dono mutafakkir, ayni vaqtda u dovyurak jangchi hamdir. Unda biz ikki fazilatli sifatning, ya'ni hikmat va insoniylikning uzviy ravishda ifodalanishini ko'ramiz. Shunga ko'ra, Navoiyning ijobiy qahramonlari boshqalarning jabr-zulm tortishini, dard-hasratlarini ko'rar ekanlar, ularga nisbatan hamdardlik, rahmdillik bilangina cheklanmay, balki o'zlari ham yovuz kuchlarga, zolimlarga qarshi boradilar. Buni Farhodning yovuz kuchlarga qarshi janrlarida ko'rishimiz mumkin [6].

Avvalo, komillik, Navoiy fikricha, insonning insoniylik tabiati, imkoniyatlari va ma'naviyati chegaralaridagi komillik bo'lib, buning oliy bosqichi Alloh mohiyati o'z vujudida mavjud bo'lganligi uchun Allohning mukammalligi, jilosi, ziyosini yaraqlagan oynadek aks ettira olishi, uni bevosita tuyish va tan olish, taslim bo'lishdir. Bu nihoyasiz riyoziyotlar va ma'rifat orqali mumkin bo'ladi yoki Navoiy o'z iborasi bilan aytilsa, «Man arafa» hadisida bildirilganidek, inson o'zligini bilish orqali Xudoning mohiyatini biladi, «vaslga yetadi», go'yoki sadaf, toza gavharga aylanadi [8].

Navoiy o'zining «Xamsa»sida har tomonlama yetuk, barcha go'zal fazilatlarini to'plagan komil inson timsolini yaratdi.

Navoiyning qimmatli fikrlaridan biri shuki, o'zini yetuk va komil deganlar hech qachon komil zotlar bo'la olmaydilar. Zero, faqat johil kimsalar, o'z kamchiligi, nuqsonlarini ko'ra olmaydiganlar va ko'rishni ham istamaydiganlar komillikka da'vo qiladilar. Bundaylar, Navoiy iborasi bilan aytganda, «Nuqsonlar ichra komildir», «noqisdir».

Nqqs uldurkim o'zin komil degay,
Komil ulkim, nuqsin isbot aylagay [8].

Mutafakkirning fikricha, bola tarbiyasida, ayniqsa, muallimning o'rni beqiyosdir. «Uning /ya'ni, muallimning/, - deydi buyuk adib, - ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila olmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashdan o'zlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim, bunga nima yetsin. Shunisi ham borki, u to'dada fahm-

farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa, qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqi ko'pdir, agar shogird podshohlikka erishsa ham, unga /muallimga/ qulluq qilsa arziydi»:

Haq yo'lida kim senga, bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado, oning haqqin yuz ganj ila.

Mutafakkirning aytishicha, agar "hak yo'lida" biror kishi bir harf o'rgatgan bo'lsa ham, uning o'rmini hech qanday boylik bosa olmaydi [10].

Navoiyning salafarlari Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Sa'diy, Hofiz ijodlarida ham may va mayxo'rlik haqida gap ketsa-da, lekin ularda bu narsa muhokama mavzuiga aylanmagan va qattiq qoralanmagan. Alisher Navoiy esa Bahrom Go'r obrazi orqali mayparast shohning fojiasini ko'rsatib, Boyqaroni undan saboq olishga chaqirgan. Buning sababi shuki, mayxo'rlik, aysh-u-ishratga berilish XV asrda Hirotda keng avj oladi, faqat sulton saroyidagina emas, boshqa joylarda ham hokim-amaldorlar, sipohiyalar, hatto din arboblari, shayx-u qozilar bo'sh vaqtlarini bazmi jamshidlar uyushtirib mayxo'rlik qilish bilan o'tkazganlar. Chog'ir ichish bora-bora aholining quyi tabaqalari hayotiga ham kirib kelgan, xonaqo, madrasalarda tunni bedor o'tkazgan mastlarning shovqin-suroni, beboshliklari ko'ngilsiz voqealarga olib kelgan. Bu hol ulug' gumanist Alisher Navoiyning tashvishiga solmasdan qolmasdi, shuning uchun o'z asarlarida bu bema'ni odatga qarshi chiqib, badmastlikning xunuk oqibatlarini ko'rsatish bilan falokatning oldini olmoqchi bo'ladi [11].

Tahlil va natijalar. Navoiy ilmiy va adabiy asarlarni yaratishda o'z davridagi olimlar, adiblar va shogirdlariga namuna bo'lgan. Uning deyarli barcha asarlari tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyatga ega. Shoirming besh dostonidan iborat shoh asari «Xamsa»da inson kamolotining barcha masalalari qamrab olingan. Undagi birinchi doston—«Hayratul abrora» haqiqat, ishonch, ezgulik, sevgi va do'stlikni ulug'lovchi falsafiy asardir. Unda o'sha davr uchun dolzarb axloqiy, tarbiyaviy, ijtimoiy-falsafiy fikrlar bayon qilingan. Adolat, muruvvat, saxiylik, odob, kamtarlik, qanoat, insof, ishq-vafo, rostgo'ylik, do'stlik, o'zaro yordam va boshqa ajoyib fazilatlar, oddiy mehnatkashning jamiyatdagi o'rni ifodalangan. Ana shu olijanob fazilatlar ta'rifida alohida-alohida hikoyalar berilgan.

«Farhod va Shirin» dostonida san'atkor bosh mavzu — sevgini tasvirlash bilan birga, yuksak insoniy fazilatlarini ibratomuz ifodalashga ham alohida e'tibor bergan. Bosh qahramon Farhod — barkamol inson, oqil, zakovatli, yengilmas botir, vafodor do'st, mehnatsevar, bilimdon va xalq hurmatiga sazovor bo'lgan kamtarin bir yigitdir. Navoiy Shopur qiyofasida do'stlikning ajoyib kuchini ko'rsatadi. To'rt yoshidan ko'p ilm va hunarlarni, bir necha tilni o'rgangan Farhod o'zining bilimi, hunarini yurt nafi, xalq foydasi uchun ishlatishga intiladi, quyosh tafti ostida ariq ochayotgan jafokash xalqqa yordam qo'lini cho'zadi. Mehinbonu va Shirin yuksak madaniyatli, axloqli, pok qalbli, iffatli, o'z vatanini sevadigan va zakovatli ayollar timsolidir. Umuman, dostondagi barcha ijobiy timsollar nomusli, sof vijdonli, haqiqiy insonlardir. Dostonda Navoiy yovuz kishilarning axloqiy chirkini, adolatsizligi va qabihligini ham tasvirlaydi, zulm va nohaqlikka, aldanchilik va firibgarlikka g'azab — nafrat bilan qaraydi [12].

Konfutsiy: «Ota-onaga ehtiromsiz yashashdan ko'ra o'lim afzaldir», degan ekan. Ota-onaga muhabbat — ularni qadrlash haqidagi eng sodda va teran gaplardan biri emasmi bu? Mazkur mulohazalarni bayon qilishdan murod shulki, dinga aloqadorligini ro'kach etib ancha muddatlardan buyon Navoiy she'riyatidagi ayrim muhim va kerakli ma'nolarga ham e'tibor bermay qo'ydik. To'g'ri, ular bosilib chiqqan. Lekin tahlil va tadqiqdan chetda. Navoiy «Munshaot»dagi bir xatida yozadi: «Payg'ambar... buyurubtur- kim, tengri taolo rizosi ota rizosiga vobastadur va tengri taolo g'azabi ham ota g'azabiga vobastadur. Bas kishi ota rizosin hosil qilsa, tengri taolo rizosin ham hosil qilmish bo'lg'ay va ota g'azabiga uchramish bo'lg'ay. Mundog' bo'lg'andan so'ngra kishi nechuk ota rizosidin ayru dam urgay yo qadam qo'yg'ay. Va mashoyix... so'zidurkim... otang parvardigoringdur, bu jihatdinkim, tengri taolo seni yo'ldin bor qilmoqqa vasila uldur va tufuliyatdin (yoshlikdin) shabob (yigitlik) sinnig'acha (yoshigacha) parvarish berguvchi ul. Va Hakim Sulaymon... so'zidurkim, ota qodiri dayyum (panoh), ona roziqi marsum (rasm

qilingan)... Shundan so'ng shoir Adib Ahmadning quyidagi ruboysini keltiradi:

Atodin xato kelsa ko'rma xato,
Savob bil xato toki qilsa ato.
Atoning xatosin bilg'il savob,
Seni yuz balodin qutqarg'ay Xudo.

Agar yuqoridagi buyruq so'zlarni payg'ambar emas, o'zga bir donishmand aytganida ham uni payg'ambar o'rnida ko'rmoq lozim edi. Axir u ota rizosini Xudo rizosi bilan tenglashtirgan. Otani ulug'lash bundan ortiq bo'ladimi? Unda otangni qadrlamas ekansan, dunyoda sen uchun muqaddas hyech nima yo'q, otangni sevsang — Tangrini sevganing bo'ladi degan mantik, singdirilgan. Ota qadrin o'g'li bilmas zamon — shum zamon. Shumligi shundaki, u mehrsizlikdan bag'ri qurib bitgan, xudbin va oqpadar farzandlarni voyaga yetkazadi.

Sayyid Hasan mashhur shayx — Xoja Ahrorga e'tiqodda bo'lgan. Buning isboti shuki, Sayyid Hasan Ardasher umrining oxirgi yilida Xoja Ahromi ziyorat qilish uchun maxsus Samarqandga safar qiladi. Umuman olganda, Sayyid Hasanning suluki va tasavvufiy e'tiqodida o'ziga xos jihatlari bor. Buni bir boshdan ko'rib chiqqan odam shuni anglaydiki, u biror-bir nazariya yoki ta'limotga ko'r-ko'rona ishonadigan, biror gapni mahkam tutib olib, o'shandan tashqariga chiqmaydigan mutaassib darveshlardan emas. Uning darveshligi — ko'ngil amri, tabiati, fe'l atvorining taqozosi edi. Dunyo va uning boyligi, noz-ne'mati, shukuh-u shuhratiga e'tibor qilmaslik, faqr go'shasini hamma narsadan afzal bilish, faqat ma'naviy suhbatni pisand etish, she'r-u shuur, ilm-u donishdan lazzatlanish Sayyid Hasanga ko'ringan xislat bo'lgan. Hatto, rindlik shug'liga giriftor bo'lganini ham Navoiy xuddi shu siyratdagi faqirlik va fanopeshalik bilan izohlaydi. Zeroki, rindlik ham tarkidunyochilikning bir ko'rinishi, o'zini uzlatga — Iloh panohiga otish, beparvolik va mol-u mulkka, toj-u taxtga bepisandlikning ko'rinishi edi. Ammo Sayyid Hasan nainki rindlarga bosh bo'lib, ularga otalarcha g'amxo'rlik ko'rsatgan, balki shu holda ham toat-ibodatni kanda qilmagan, "mutabarrak"(tabarruk) mazoratga borib, darveshlar va ahlulloh majolisiga yetib, o'z maxslari (halos bo'lishi) uchun fothalar tilagan:

Rindlardin bir rind aningdek yo'q erur ogoh rind,

Shoh edi rind ahliga, valkim erdi shoh rind [14].

Ayni paytda Navoiyning komil inson konsepsiyasi bir qadar o'ziga xosliklarga ham ega. Navoiyning komil inson to'g'risidagi ta'limotining asosiy aspektlari quyidagilar: avvalo, komillik, Navoiy fikricha, insonning insonlik tabiati, imkoniyati va ma'naviyati chegaralaridagi komillik bo'lib, buning oliy bosqichi Alloh taolo mohiyati o'z vujudida mavjud bo'lganligi uchun Alloh taolo mukammalligi, jilosi, ziyosini yaraqlagan oynadek aks ettira olishi, uni tuyishi va buni tan olishidir.

Farhod — nihoyatda kamtar yigit. Shahzodalik, otasining mol-davlati uni mahliyo qilmaydi. U o'zini oddiy kishilarning biri deb hisoblaydi va mazlum xalqni chin ko'ngildan sevadi, Farhod mazlumlarning dardiga malham bo'lishga intilar, umumning manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yar edi:

Chiqarib so'zlug' so'z boshidin dud,
Sovuq oh aylab ohin otash olud.
Bo'lib el anduhidin ko'ngli g'amnok,
Ya'qo chokni ko'rib, ko'ksin qilib chok.

Shuning uchun xalq Farhodni sevadi, uning dard-alamidan qayg'uradi, shodligi bilan quvonadi. [15:496]

Ma'lumki, Navoiyning o'zi xam naqshbandiya tariqatiga kirgan, Jomiya murid tushgan edi. Naqshbandiya tasavvufni Muhammad (s.a.v.) sunnatiga muvofiqlashtirgan tariqat bo'lib, u tarkidunyochilikni, islom asoslaridan har qanday chekinishni rad etadi.

Xulosa va takliflar. Navoiy idealidagi komil insonlar birinchi navbatda xuddi shu uch buyuk avliyo edi. Shoir aqidasi ko'ra haqiqiy yetuk inson xuddi shular singari bo'lishi, kamolotga intilgan kishi ulardan o'rnak olishi, ularga o'xshashga intilishi kerak. Zero, ham xalq ham Haq rizosiga sazovor bo'lgan bu qudsiy zotlar XV asr uchun komillik timsoli edilar. Ular yo'lchi yulduz kabi odamlarga kamolot yo'lini ko'rsatib turardilar. Shuning uchun biz Navoiy idealidagi komil insonlar borasida to'xtalar ekanmiz, shu uch buyuk zot xususida fikr yuritish insonga zavq bag'ishlashini his etamiz. Albatta, o'z navbatida, Alisher Navoiyning o'zini ham ana shu komil insonlar jumlasiga kiritamiz. Chunki u e'tiqod qo'ygan, amal qilgan va talab etgan shart-u qoidalardan kelib chiqadigan bo'lsak, Navoiyning o'zi ham tom ma'nodagi komil inson ekanligi ayon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdug'afurov Abdurashid. "Xazoyin ul – maoniy" jumboqlari. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. 2000/5. B.: 6-7.
2. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy aqidalari. (birinchi suhbat) T., "Navoiy universiteti" nashriyot – matbaa uyi. 2018. B.: 3
3. Haqqul Ibrohim. Ochilov Ergash. Ishq va hayrat olami. (maqolalar to'plami) Toshkent. "O'ZBEKISTON". 2016. B.: 248.
4. Rustamov A. Shoirning birinchi g'azali. B.: 179
5. Haqqulov I. O'zbek tasavvuf she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 1995. B.: 42.
6. Akademik Xayrullayev M.M. tahriri ostida. O'zbekistonda ijtimoiy – falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Toshkent, "O'zbekiston". 1995. B.: 175
7. Alisher Navoiy. Lison ut – tayr. Ilmiy – tanqidiy matn. – Toshkent: Mehnat, 1993. B.: 23.
8. Shayx Aziziddin Nasafiy. Komil inson. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1992. 14-avgust.
9. Mas'ul muharrirlar: Aliqulov H va boshq. O'zbekistonda ijtimoiy – axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. Toshkent. Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007. B.:203.
10. Muhiddinov M. "Xamsa"larning birinchi dostonlarida komil inson tasviri. Samarqand. Samarqand Davlat universiteti. 2001. B.: 28.
11. Hasanboyeva O. Hasanboyeva J. Hamidov H. Pedagogika tarixi. Toshkent. "O'qituvchi" 1997. B.: 102-103.
12. Haqqulov Ibrohim. Zanjirband sher qoshida. Toshkent. "Yulduzcha". 1989. B.: 52-53.
13. Komilov Najmiddin. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. Tavhid asrori. Toshkent. 1999. B.: 108-109.
14. Mallayev Natan. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti, 1965. B.: 492



Siroj HAMRAYEV,
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
E-mail: sirojbek84@mail.ru

TDTTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida

SOCIO-ECONOMIC MECHANISMS AND PECULIARITIES OF OWNERSHIP AND ENTREPRENEURSHIP

Annotation

This article reflects on the socio-economic mechanisms and peculiarities of ownership and entrepreneurship. The socio-economic development strategy implemented in Uzbekistan is attracting domestic and foreign investment by creating a favorable business and investment climate, achieving a strong development of the ownership sector.

Key words: Ownership, entrepreneurship, socio-economic mechanism, Development, Strategy, Business, human, investment, consumption, science and technology, consistent economic, legal and political reforms.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ОСОБЕННОСТИ СОБСТВЕННОСТИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Аннотация

В данной статье рассматриваются социально-экономические механизмы и особенности собственности и предпринимательства. Стратегия социально-экономического развития, реализуемая в Узбекистане, направлена на привлечение внутренних и иностранных инвестиций путем создания благоприятного делового и инвестиционного климата, обеспечение активного развития сектора собственности.

Ключевые слова: Собственность, предпринимательство, социально-экономический механизм, развитие, Стратегия, Бизнес, люди, инвестиции, потребление, наука и технологии, последовательные экономические, правовые и политические реформы.

MULKDORLIK VA TADBIRKORLIKNING IJTIMOY-IQTISODIY MEKANIZMLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mulkdorlik va tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasi qulay ishbilarmonlik va sarmoyaviy muhitni yaratish orqali mahalliy va xorijiy sarmoyalarni jalb qilmoqda, mulkdorlik sektorining kuchli rivojlanishiga erishmoqda.

Kalit so'zlar: Mulkdorlik, tadbirkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm, taraqqiyot, strategiya, ishbilarmonlik, inson, sarmoya, iste'mol, fan-texnika, izchil iqtisodiy, huquqiy va siyosiy islohotlar.

Kirish. Bugunki kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasi qulay ishbilarmonlik va sarmoyaviy muhitni yaratish orqali mahalliy va xorijiy sarmoyalarni jalb qilmoqda, mulkdorlik sektorining kuchli rivojlanishiga erishmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlarning yarmidan ko'pi, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarining 80 foizi, ochilgan har 3 ta ish o'rinining har 2 tasi shu sohaga tegishli. Shu bilan birga, kichik va o'rta korxonalar o'z vaziyatidagi o'zgarishlarga nisbatan sezgir bo'lganligi sababli, ular bozor konyunkturasining o'zgarishiga tezda javob berishlari va ishlab chiqarish va iste'mol sohasidagi tegishli bo'shliqlarni to'liqroq va o'z vaqtida to'ldirishlari mumkin. Bundan tashqari, kichik va o'rta mulkdorlik va tadbirkorlik jamiyat uchun zarur barqarorlikni ta'minlab, o'rta sinf shakllanishining asosi bo'lib, mamlakatimizda demokratik yo'naltirilgan, izchil iqtisodiy, huquqiy va siyosiy islohotlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlamogda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatini yashiradigan har qanday byurokratik muammolarni bartaraf etish, ular faoliyati sirlarini qisqartirish ushbu sohani davlat tomonidan tartibga solishning muhim masalalaridan biridir. Mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish sivilizatsiyalashgan bozor yarmarkasi mexanizmini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Muayyan vositalarni shakllantirish va rivojlantirishda mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlarining o'rni shubhasizdir. Eng avvalo, mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatining axloqiy-huquqiy normalarining shakllanishi mehnatning erkin va fuqarolik bozor shakllarini rivojlantirish va adolatsiz mehnat tendentsiyalarini bartaraf etishning ijobiy belgisidir. Bu omil bozor narxlarini yanada sivilizatsiyalashgan usullarda tartibga solishda ayniqsa dolzarbdir.

Lee Shulman Amerikalik pedagog olim, o'qituvchining pedagogik bilimlarini, mahoratini va kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Shulman o'qituvchining o'qitish mahorati va pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan omillarni o'rganadi. U o'qituvchining refleksiv amaliyoti, o'z-o'zini baholash, hamkasblar bilan hamkorlik qilish va doimiy ravishda kasbiy o'sishda bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. John Hattie Yangi zelandiyalik pedagog olim, ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganib, meta-tahlil tadqiqotlarini o'tkazgan. Hattie o'z tadqiqotlari orqali o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish va ularning kompetensiyasini oshirishga qaratilgan tavsiyalar beradi. U o'qituvchilarning o'z amaliyotlarini tahlil qilishlari, hamkasblari bilan hamkorlik qilishlari, o'z ustilarida ishlashlari va yangi o'qitish usullarini o'rganishlari muhimligini ta'kidlaydi. Hattie o'qituvchilarni o'zlarining ta'sirini o'lchashga va o'z darslarini doimiy takomillashtirishga undaydi [7].

M.X.To'xtaxodjayeva: Biologiya o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassis, biologiya darslarida interfaol ta'lim metodlarini qo'llashning samarali usullarini o'rgangan va tavsiyalar bergan. To'xtaxodjayeva har bir dars mavzusiga mos interfaol metodlarni tanlash muhimligini ta'kidlaydi. Ba'zi mavzular guruhli ishlashni talab qilsa, boshqalari munozara yoki loyiha ishlarini talab qilishi mumkin. O'qituvchi o'quv maqsadlari, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va mavzuning xususiyatlarini hisobga olgan holda, eng samarali metodlarni tanlashi kerak[3]. O.T.Mo'minov pedagogika sohasidagi olim, "Muxbir" metodi va uning o'quv jarayonidagi ahamiyati bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning ilmiy ishlarida "Muxbir" metodini qo'llash bosqichlari va o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish usullari yoritilgan [12]. Jane Vella Amerikalik pedagog olim, katta yoshli o'quvchilar uchun mo'ljallangan "dialogik ta'lim" nazariyotchisi. Uning ishlari o'quv jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan va "Muxbir" metodining asosi hisoblanadi. Jane Vella dialogik ta'limni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslangan muloqot sifatida ta'riflaydi. Bu yondashuv o'quvchilarni o'z bilimlarini qurishga, fikrlarini erkin ifoda etishga va o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Vella, ta'limning asosiy maqsadi shunchaki ma'lumot berish emas, balki o'quvchilarga o'z bilimlari va ko'nikmalarini mustaqil rivojlantirishga yordam berishdir deb hisoblaydi. Vella o'qituvchining roli an'anaviy tarzda ma'lumot beruvchi emas, balki o'quv jarayonini yurituvchi, o'quvchilarni qo'llab-quvvatlovchi va ularga o'zlarini o'rganishga yo'naltiruvchi fasilitator bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. "Muxbir" metodida ham o'qituvchi o'quvchilarga yo'nalish beradi, ularga tadqiqot o'tkazishda ko'maklashadi, lekin o'quvchilarning o'zlarini o'rganishlariga va xulosalar chiqarishlariga imkon beradi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda "Muxbir" metodining samaradorligini o'rganishga qaratilgan bo'lib, "Gul va uning qismlari" mavzusi misolida amalga oshiriladi. Nazariy metod, empirik metodlar, tahliliy, intervyu va so'rovnomalar metodlaridan foydalanildi.


Ushbu tadqiqot metodologiyasi bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda "Muxbir" metodining samaradorligini ilmiy asosda o'rganish va aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari biologiya ta'limini takomillashtirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. "Muxbir" metodi - bu o'quvchilarga faqat ma'lumotlarni qabul qilishni emas, balki o'z bilimlarini ulashish va tahlil qilish imkoniyatini yaratish orqali o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Bu metodda o'quvchilar o'zaro muloqotda bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha fikrlar almashadilar, shu bilan birga o'rgangan bilimlarini amaliyotga tatbiq etadilar.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarning "Gul va uning qismlari" mavzusini o'qitishda "Muxbir" metodidan samarali

foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarda mustaqil o'rganish, ma'lumot to'plash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va taqdimot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

1. Dars jarayoniga tayyorgarlik bosqichi: Darsning boshida "Gul va uning qismlari" mavzusini e'lon qiling, mavzuning ahamiyatini, gulning o'simliklar hayotidagi rolini tushuntiriladi (gulning ko'payishdagi ahamiyati, xilma-xilligi). O'quvchilarda tadqiqotga qiziqish uyg'otish uchun savollar berish (masalan, "Gullarning qaysi qismlari uning ko'payishida muhim?"),



Rasm. Gulning umumiy tuzilishi.



2-Rasm. Turli hil gullar.

Nega gullar turli xil shakl va ranglarda bo'ladi?

Har bir o'quvchi yoki guruhlar uchun tadqiqot savollarini shakllantirish: O'quvchilarga o'zlarini tadqiqotchi kabi his qilishlari uchun ochiq savollar berish (masalan, "Gulning qismlari qanday vazifalarni bajaradi?", "Gullarda changlanish jarayoni qanday amalga oshadi?", "Gullarning o'simliklar hayotidagi ahamiyati nimada?").

O'quvchilarni mavzuni turli aspektlardan o'rganishga undash.

Guruhlarga bo'linish va yo'nalishlar berish: O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lish (3-4 kishi). Har bir guruhga o'ziga xos tadqiqot yo'nalishini berish (masalan: 1-guruh gulning tuzilishini, 2-guruh gulning changlanishini, 3-guruh gulning urug'lanishini, 4-guruh gulning o'simliklar uchun ahamiyatini o'rganadi). Guruhlarga o'z tadqiqotlari uchun aniq vazifalar va yo'nalishlar beriladi.

Ma'lumot manbalarini aniqlash: O'quvchilarni tadqiqot uchun zarur bo'lgan manbalar bilan tanishtirish (darslik, o'quv qo'llanmalari, internet resurslari, ilmiy maqolalar, botanika bog'lari, gerbariyalar, tabiat muzeylari). O'quvchilarga ma'lumot to'plash usullarini (kuzatish, intervyu, adabiyotlarni o'rganish) tushuntiriladi.

2. Tadqiqot olib borish bosqichi:

O'quvchilar ma'lumotlar to'plashadi: O'quvchilarga o'z yo'nalishlari bo'yicha ma'lumot to'plash uchun vaqt berish. Har bir guruhga o'z tadqiqot yo'nalishiga mos ma'lumot manbalarini tavsiya qilish va internet, kutubxona, botanika bog'i kabi joylardan ma'lumot topishda yordam berish. O'quvchilarga ma'lumotlarni yig'ishda o'zlarini reja tuzishlariga va savollar tuzishga imkon berish.

Intervyuvni tashkil etish:

O'quvchilarni o'z tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar (botaniklar, biologiya o'qituvchilari, bog'bonlar) bilan intervyu o'tkazishga yo'naltirish.

O'quvchilarga intervyu uchun savollar tuzishda yordam berish, ularga etiket qoidalarini tushuntirish.

Savollar.

Bu mavzuni o'rganishdan oldin gullar haqida qanday tasavvurlarga ega edingiz?

Mavzuni o'rganish jarayonida eng ko'p e'tiboringizni tortgan narsa nima bo'ldi?

Changlanish jarayoni qanday amalga oshadi? Changlanishning qanday turlarini bilasiz?

Urug'lanish jarayonini tushuntirib bering.

Changlanish va urug'lanish jarayonlarida gulning qaysi qismlari muhim rol o'ynaydi?

Intervyu natijalarini tahlil qilish va ularni tadqiqot ma'lumotlariga kiritish.

Kuzatish va amaliy ishlar:

O'quvchilarga gul tuzilishini bevosita kuzatish va uni mikroskop yordamida o'rganish imkoniyatini berish.

O'quvchilarga gulning changlanishi jarayonini kuzatish uchun imkoniyat yaratish (masalan, o'z bog'larida yoki botanika bog'ida).

O'quvchilarga amaliy ishlar davomida suratlar va videolardan foydalanishni tavsiya qilish.

3. Tahlil va umumlashirish bosqichi:

Ma'lumotlarni tahlil qilish: O'quvchilarga to'plagan ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashirish va tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish. O'quvchilarga jadval, diagramma va sxemalar tuzishni tavsiya qilish. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda analitik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Xulosalar. O'quvchilarga o'z tadqiqotlari natijasida olingan xulosalarni aniq va ravon ifodalashga yordam berish. O'quvchilarga o'z tadqiqotlari natijalari haqida fikr yuritishga yo'naltirish. O'quvchilarga o'z xulosalarini boshqa guruhlar natijalari bilan solishtirishga yordam berish.

4. Taqdimot bosqichi:

Taqdimot tayyorlash: O'quvchilarga o'z tadqiqot natijalarini taqdimot shaklida (prezentatsiya, poster, videolavha) tayyorlash imkoniyatini beriladi. Ularga taqdimot uchun vizual materiallardan (rasmlar, diagrammalar, videolavhalar) foydalanishni tavsiya qilish va ularga taqdimot tuzilmasini tayyorlashda yordam berish (kirish, tadqiqot maqsadi, jarayoni, natijalari, xulosalar).

Taqdimot o'tkazish va muhokama: Har bir guruhga o'z tadqiqot natijalarini taqdim qilish uchun vaqt beriladi, taqdimot vaqtida o'z fikrlarini erkin ifoda etishga imkoniyat berish va boshqa o'quvchilarni va o'qituvchini savollar berishga va muhokamaga jalb qilish hamda muhokama davomida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, o'z fikrlarini himoya qilish va

boshqalarning fikrlarini hurmat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga o'rgatiladi [3,6].

O'qituvchi uchun metodik tavsiyalar:

O'quvchilarga tadqiqot davomida yo'nalish berish va yordam ko'rsatish.

O'quvchilarni o'z-o'zini o'rganishga rag'batlantirish.

O'quv jarayonida o'quvchilar o'rtasida hamkorlik va o'zaro hurmat muhitini yaratish.

Tadqiqot davomida o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash.

O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularga moslashtirilgan yondashuvni qo'llash.

Tadqiqot natijalarini baholashda o'quvchilarning faoliyati, mustaqilligi, ijodkorligi va o'zlashtirish darajasini hisobga olish.

“Muxbir” metodidan foydalanish jarayonida

o'quvchilarning quyidagi jihatlarini baholanadi:

Ma'lumot to'plash va tahlil qilish ko'nikmalari.

O'z fikrini aniq va ravon ifoda etish ko'nikmalari.

Hamkorlik va guruhda ishlash ko'nikmalari.

Taqdimot qilish ko'nikmalari.

Mavzuni o'zlashtirish darajasi.

Ijodkorlik va mustaqil fikrlash.

Xulosa va takliflar.

“Muxbir” metodining nazariy asoslari, pedagogik afzalliklari va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli tahlil qilindi. Ma'lum bo'ldiki, “Muxbir” metodi o'quvchilarning faol ishtiroki, mustaqil o'rganishi va o'zaro hamkorligiga asoslangan pedagogik yondashuv bo'lib, o'quv jarayonini faollashtirishda muhim rol o'ynaydi.

“Gul va uning qismlari” mavzusini o'qitishda “Muxbir” metodini qo'llashning amaliy jihatlarini o'rganildi va uni dars jarayoniga integratsiya qilishning metodik asoslari ishlab chiqildi. “Muxbir” metodida o'quvchilar faol ravishda ma'lumot to'plash, intervyular o'tkazish, kuzatishlar olib borish, o'z tadqiqot natijalarini tahlil qilish va taqdim etish orqali o'z bilimlari va ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Intervyu va so'rovnomalar natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar “Muxbir” metodini qiziqarli, samarali va amaliyotga yo'naltirilgan metod deb baholashdi. Ular ushbu metod o'zlarining o'rganish faoliyatini faollashtirishga, mustaqil fikrlash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berganini ta'kidladilar.

Tadqiqot davomida “Muxbir” metodi yordamida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tadqiqotchilik, kommunikativ, pedagogik va muammolarni hal qilish kabi kasbiy kompetensiyalari sezilarli darajada o'sganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

- Vella, J. (2002). Learning to Listen, Learning to Teach: The Power of Dialogue in Educating Adults. Jossey-Bass, 2-bosqich, 25-58 betlar.
- Vella, J. (2008). The Vella Model: A New Approach to Teaching and Learning. Adult Education Quarterly, 58(3), 179-183 betlar.
- To'xtaxodjayeveva, M. X. (2013). Biologiya fanini o'qitishda metodik yondashuvlar. Toshkent: O'qituvchi, 45-76 betlar.
- To'xtaxodjayeveva, M.X. (2016). “Gul va uning qismlari” mavzusini o'qitishda interfaol metodlarning o'rni. Innovatsion ta'lim texnologiyalari jurnali, 1(2), 45-56 betlar.
- Kagan, S. (1992). Cooperative Learning. Resources for Teachers, 113-128 betlar.
- Shaykhutdinov, M. S., & Karimova, D. X. (2018). Ta'limda interaktiv metodlar va ularning o'qitishda samaradorligi. Toshkent: Fan, 120-150 betlar.
- Pedagogika asoslari. (2017). O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 200-220 betlar.
- Turaev, F. (2015). Biologiya fanini o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 84-105 betlar.
- Gulnara, M. (2021). Innovatsion ta'lim metodlari va ularning o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasiga ta'siri. Toshkent: Fan, 45-67 betlar.
- Kuchman, L. (2013). Pedagogical Strategies for Effective Teaching: Engaging Students in Learning. Oxford University Press, 18-40 betlar.
- Khamidov, T., & Umarova, Z. (2016). Ta'limda didaktik metodlar va ularning o'qituvchilarning rivojlanishiga ta'siri. Toshkent: O'qituvchi, 157-179 betlar.
- Mo'minov, O.T. (2020). “Muxbir” metodini o'rta ta'lim tizimida qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston pedagogika jurnali, 1(45), 23-35 betlar.
- Muslimov, N.A. (2022). “O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni”. Fan va texnologiyalar jurnali, 1(42), 58-70 betlar.
- Solihov, S. (2010). Ta'limda interaktiv yondashuvlar va metodik vositalar. Toshkent: Fan, 230-250 betlar.



Гульнора ШАХМУРОВА,
Профессор Ташкентский государственный педагогический университета

Рецензент док.пед наук, проф. Д.Шарипова

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN SCIENCE TEACHING

Annotation

This article presents the possibilities of using artificial intelligence in teaching natural sciences. Using mathematical functions and logic, a computer system imitates the learning process. Such technology - artificial intelligence contributes to the improvement of the educational process and learning environment. This will make it possible in the near future to demonstrate a progressive approach to the introduction of artificial intelligence in the economy and social sphere.

Key words: Artificial intelligence, virtual reality, natural sciences, education, methodology, learning process, schools.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ОБУЧЕНИИ ЕСТЕСТВЕННЫМ НАУКАМ

Аннотация

В данной статье представлены возможности использования искусственного интеллекта в преподавании естественных наук. Используя математические функции и логику, компьютерной системы имитируя процесс обучения. Такая технология - искусственного интеллекта вносит свой вклад в улучшение учебного процесса и обучающей среды. Эта даст возможность в ближайшее время продемонстрировать прогрессивный подход к внедрению искусственного интеллекта в экономику и социальную сферу.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, виртуальная реальность, естественные науки, образование, методика, процесс обучения, школы.

FAN O'QITISHDA SUN'IY INTELEKT

Аннотация

Ushbu maqola tabiiy fanlarni o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Matematik funktsiyalar va mantiqdan foydalanib, kompyuter tizimi o'quv jarayonini simulyatsiya qiladi. Ushbu texnologiya - sun'iy intellekt ta'lim jarayoni va o'quv muhitini yaxshilashga yordam beradi. Bu yaqin kelajakda iqtisodiyot va ijtimoiy sohaga sun'iy intellektni joriy etishda progressiv yondashuvni namoyish etish imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, virtual haqiqat, tabiiy fanlar, ta'lim, metodologiya, o'quv jarayoni, maktablar.

Искусственный интеллект (ИИ) играет революционную роль в современном мире, оказывая глубокое влияние на самые разные отрасли и аспекты повседневной жизни. Он преобразует способы, которыми мы работаем, учимся, занимаемся творчеством и взаимодействуем с технологиями [1].

Искусственный интеллект:

-используется для автоматизации рутинных и сложных задач во многих отраслях, например, в производстве, банковском деле, медицине и ритейле. Он способствует повышению эффективности и сокращению времени на выполнение задач;

-вносит значительный вклад в научные исследования, помогая анализировать большие объемы данных, создавать новые материалы и лекарства, и даже предсказывать эпидемии;

- используется для создания персонализированных обучающих программ, предоставления обратной связи студентам и оптимизации процесса обучения. Технологии ИИ также могут помочь преодолеть языковые барьеры и делают образование доступным для более широкого круга людей;

- играет ключевую роль в медицинской диагностике, лечении и управлении данными пациентов. Он помогает в

быстром анализе медицинских изображений, предсказании рисков заболеваний и разработке индивидуализированных планов лечения;


- лежит в основе персональных помощников, таких как Siri и Alexa, и используется для персонализации пользовательского опыта в социальных сетях, стриминговых сервисах и онлайн-играх;

- используется в системах видеонаблюдения для распознавания лиц и в кибербезопасности для обнаружения и предотвращения угроз;

-самоуправляемые автомобили, беспилотные летательные аппараты и интеллектуальные транспортные системы – это лишь некоторые из примеров применения ИИ в транспорте, что способствует повышению безопасности и эффективности;

- используется для прогнозирования потребностей в энергии, оптимизации использования возобновляемых источников энергии и мониторинга экологических условий [2].

Искусственный интеллект имеет значительное значение в образовании, поскольку он трансформирует способы обучения и преподавания, а также открывает новые возможности для студентов и учебных заведений:



В каждом из этих аспектов, ИИ открывает новые возможности, но также представляет и ряд вызовов, включая вопросы конфиденциальности, безопасности и этики.

В общем, ИИ в образовании предлагает уникальные возможности для улучшения качества обучения, делая его более персонализированным, интерактивным и доступным, что особенно актуально в эпоху цифровизации и постоянных технологических изменений.

Каждая из этих аспектов отражает постепенное развитие и интеграцию ИИ в образовательный процесс, предлагая новые подходы и инструменты для улучшения качества и доступности образования.

Основные принципы использования ИИ в обучении:

В образовании применяется ряд технологий искусственного интеллекта (ИИ), каждая из которых вносит свой вклад в улучшение учебного процесса и обучающей среды:

Адаптивное обучение: Системы адаптивного обучения используют алгоритмы машинного обучения для анализа процесса обучения студента и адаптации учебного контента и заданий под индивидуальные потребности и скорость обучения.

Интеллектуальные тьюторские Системы: Эти системы предоставляют персонализированные рекомендации и обратную связь студентам, помогая им понять сложные концепции и улучшить учебные навыки.

Чат-боты и виртуальные ассистенты: применяются для обеспечения непрерывной поддержки студентов, отвечая на их вопросы и предоставляя помощь в реальном времени.

Анализ естественного языка: Технологии обработки естественного языка (NLP) используются для анализа текстовых ответов и эссе студентов, помогая в автоматизации оценки и предоставлении конструктивной обратной связи.

Игровые технологии и симуляции: игровые образовательные платформы и симуляции, использующие

элементы ИИ, делают обучение более интерактивным и увлекательным, помогая учащимся лучше усвоить сложные концепции через практический опыт.

Персонализированные рекомендации контента: ИИ может анализировать образовательные потребности и интересы учащихся для предоставления персонализированных рекомендаций учебных материалов, курсов и дополнительных ресурсов.

Прогностический анализ: системы на основе ИИ способны предсказывать учебные траектории студентов, выявлять риски отставания или отсева и помогать в разработке стратегий вмешательства для поддержки учащихся.

Автоматизированная администрация: ИИ также используется для автоматизации административных задач, таких как расписание занятий, управление ресурсами учебного заведения и отслеживание успеваемости студентов.

Эти технологии ИИ способствуют созданию более эффективного, инклюзивного и персонализированного образовательного процесса, помогая как учащимся, так и учителям достигать лучших учебных результатов применение ИИ в обучении естественным наукам.

В области физики для обучения используются различные программы на основе ИИ, включая:

Symbolab: использует продвинутые алгоритмы машинного обучения для решения математических и физических задач, от элементарной математики до сложных дифференциальных уравнений (рис.1).

Sumath: анализирует и решает физические задачи, предоставляя пошаговое руководство, аналогичное помощи учителя.

Wolfram Alpha: предлагает экспертные ответы на основе динамических вычислений, широкого массива данных и сложных алгоритмов (рис. 2).




Рис 1. ИИ в области математики и физики Symbolab




Рис 2. ИИ для разных областей наук

StudyMonkey: AI-поддержанный тьютор и помощник по домашним заданиям, предоставляющий мгновенные ответы на различные вопросы по физике.

Mathway: Обширный ресурс для решения задач по математике, физике и тригонометрии, предлагающий экспертные решения в удобном интерфейсе.

Эти инструменты представляют собой эффективные средства для улучшения процесса обучения физике,

предлагая студентам и учителям доступ к продвинутым аналитическим и решающим способностям ИИ.

В области химии образовательные программы на основе ИИ предлагают разнообразные инструменты и приложения, которые способствуют глубокому изучению и пониманию химических процессов. Некоторые из них включают: HyperWrite's Chemistry Assistant: это инструмент на базе ИИ, разработанный для ответов на вопросы по химии

и решения химических задач. Он упрощает сложные химические проблемы и предоставляет подробные, понятные решения. Особенно полезен для студентов, учителей и исследователей, помогая в выполнении домашних заданий, подготовке к урокам и экзаменам, а также в научных исследованиях.

В области химии ИИ также играет ключевую роль в обнаружении молекулярных свойств, проектировании молекул, открытии новых лекарственных препаратов, проведении ретросинтезных реакций и проведении предсказательного анализа. Эти приложения ИИ помогают ускорить и упростить процессы обнаружения и анализа, которые традиционно могли занять гораздо больше времени и ресурсов. Эти инструменты и методы открывают новые горизонты в обучении химии, обеспечивая более глубокое понимание предмета и способствуя развитию навыков критического мышления и решения проблем у студентов.

В области биологии для обучения используются различные программы на основе ИИ, предназначенные для улучшения понимания сложных биологических процессов и структур. Вот несколько примеров таких приложений:

Интеллектуальные Обучающие Системы: Эти системы используют алгоритмы ИИ для предоставления персонализированной поддержки и руководства студентам. Они адаптируются к индивидуальным стилям обучения и предпочтениям, предлагая настроенные объяснения и практические упражнения.

Виртуальная Реальность и Симуляции: VR-симуляции предоставляют погружающиеся обучающие опыты в биологии, позволяя студентам исследовать сложные биологические структуры, среды и процессы. Такой подход улучшает понимание и вовлеченность в процесс обучения.

Чатботы и Виртуальные Ассистенты: ИИ-поддерживаемые чатботы и виртуальные ассистенты предоставляют мгновенный доступ к информации, отвечая на вопросы студентов и предоставляя руководство по темам биологии.

Анализ Данных и Визуализация: Алгоритмы ИИ могут анализировать большие биологические наборы данных, выявлять закономерности и создавать визуализации. Эти визуализации помогают студентам интерпретировать сложные данные и понимать биологические явления.

Эти инструменты и методы значительно улучшают образовательный процесс в биологии, обеспечивая более глубокое понимание предмета и способствуя развитию навыков критического мышления и решения проблем у студентов.

Один из примеров виртуальной лаборатории по биологии - это "Virtual Biology Lab", созданный доктором Томасом Джонсом (рис.3). Эта бесплатная, онлайн-ресурс предоставляет образовательный материал для изучения биологии. Лаборатория имитирует естественные среды и реакции живых организмов на изменяющиеся условия, предлагая мир для исследования, а не четко заданный путь обучения. Здесь представлены различные модели, включая популяционную экологию, генетику популяций, клеточную биологию и другие, что позволяет студентам проводить эксперименты и собирать данные в разнообразных виртуальных условиях.

Существуют некоторые исследования и обзоры, касающиеся использования ИИ в образовательном процессе в целом, которые предоставляют важные выводы.

Одно из исследований, проведенное Chu et al. в 2022 году, сфокусировано на топ-50 наиболее цитируемых статьях о применении ИИ в высшем образовании с 1996 по 2020 годы. Основными темами в этих работах были предсказания учебного статуса студентов и применение ИИ в инженерных курсах, а также в профилировании и предсказании. Важно отметить, что ИИ чаще всего использовался в качестве инструмента для профилирования и предсказаний в образовательном процессе.

В другом исследовании, Zawacki-Richter et al. в 2019 году исследовали использование ИИ в высшем образовании с 2007 по 2018 год и выделили четыре основных направления применения ИИ: профилирование и предсказание, оценка и оценочная деятельность, адаптивные системы и персонализация, интеллектуальные обучающие системы.

Узбекистан активно развивает сферу искусственного интеллекта. В последние годы в стране наблюдается усиление фокуса на технологии ИИ, что включает создание инновационных исследовательских центров и программ обучения в этой области. Учреждения высшего образования и частные компании проводят исследования и разрабатывают решения на основе ИИ. Узбекистан также сотрудничает с международными партнерами и организациями для ускорения развития этой отрасли. Это свидетельствует о стремлении страны использовать ИИ для решения местных задач и улучшения жизни населения.

Так, Первая в стране виртуальная химическая лаборатория заработала в школе Ахангаранского района, в 12-й общеобразовательной школе ввели программу "Интерактивное обучение VR" по направлению "Умное образование". В ходе урока химии ученики надевают очки виртуальной реальности и переносятся в лабораторию, где могут безопасно проводить химические опыты. Также стоит отметить, что Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев подписал Указ о создании совместного альянса для развития искусственного интеллекта, согласно предложению Министерства по развитию информационных технологий и связи, Министерства инновационного развития, государственных органов, коммерческих банков и крупных промышленных предприятий. Альянс был создан с целью ускорения и совместной реализации приоритетных проектов по внедрению технологий ИИ в экономической и социальной сферах, оптимизации затрат на их развитие и распространения лучших практик в этой области в государственных органах и организациях. Это указывает на серьезный подход к развитию искусственного интеллекта на государственном уровне в Узбекистане [6].

В заключении, Узбекистан демонстрирует значительные достижения в развитии ИИ, подчеркнутые личным вкладом Президента страны, который способствовал созданию альянса для ускорения внедрения ИИ в различных секторах. Страна демонстрирует прогрессивный подход к внедрению ИИ в экономику и социальную сферу. Однако остаются вызовы, особенно в образовании, такие как трудность обучения учителей более взрослого поколения использованию новых технологий. Будущие перспективы развития ИИ в Узбекистане выглядят обнадеживающе, но требуют продолжения вложений в образование, обучение и инфраструктуру для достижения полного потенциала этой технологии.

ЛИТЕРАТУРА

1. Искандерова Ш.Д. Влияние искусственного интеллекта на современный мир // "Science and Education" Scientific Journal. 2023. Volume 4, Issue 4. С.564-570.
2. Хотамова, Г. К. Reforms in the education of Uzbekistan: state and prospects / Г. К. Хотамова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 20 (362). — С. 203-206. — URL: <https://moluch.ru/archive/362/81090/> (дата обращения: 24.02.2024).
3. Зулфоров Х. З., Шахмурова Г. А. Цифровое общество и цифровое образование в биологии // Республиканская научно-практическая конференция «Трансформация высшего образования в условиях цифровых технологий». Ташкент. 2023. С.130-134.
4. Зулфоров Х.З., Шахмурова Г. А. Методы и средства обеспечения связи теории с практикой в курсе анатомия и физиология человека для студентов на дистанционном обучении // Изучение и сохранение растительного и животного

мира: Материалы Международной научной конференции молодых ученых Казахстана и Узбекистана. – Алматы, 2023. – С.129-132.

5. Gulyamov, S.S., Shermukhamedov, A.T., Mukhiddinova, M.H. (2022). Development of artificial intelligence in Uzbekistan. SJ International journal of theoretical and practical research, 2 (5), 7-17.
6. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта» от 17 февраля 2021 № 4996. <https://lex.uz/docs/5297051>



UDK:152.26(045)

Javohir SHERMATOV,
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi
E-mail: javoxirshermatov94@gmail.com

QarDU professori B.Jurayev taqrizi asosida

O'SMIRLARDA ZO'RAVONLIK HISSI NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada psixologik tadqiqotlar orqali o'smirlarda zo'rvonlik hissi kelib chiqishini belgilovchi psixologik indikatorlar jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy psixologiyada o'smir orasida zo'rvonlik hissingin profilaktik chora-tadbirlariga doir tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'smir, zo'rvonlik hissi, psixologik xususiyat, qiyosiy tahlil, o'zaro ta'sir.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE EXPRESSION OF VIOLENCE IN ADOLESCENTS

Annotation

This article reveals the aspects of psychological indicators that determine the emergence of a sense of violence in adolescents through psychological research. Also, analytical information is provided on preventive measures for the feeling of violence among adolescents in modern psychology.

Key words: Adolescent, feeling of violence, psychological characteristic, comparative analysis, interaction.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ НАСИЛИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В данной статье посредством психологических исследований раскрываются аспекты психологических показателей, определяющих возникновение чувства насилия у подростков. Аналитические данные о мерах профилактики чувства насилия у подростков представлены в современной психологии.

Ключевые слова: Подросток, чувство насилия, психологическая характеристика, сравнительный анализ, взаимодействие.

Kirish. So'nggi yillarda bolalarga nisbatan sodir etilayotgan zo'rvonliklar soni oshib bormoqda. Har yili kamida bir milliard bola u yoki bu zo'rvonlikka duch keladi. Bu dunyo bolalarining yarmi demakdir. Dunyodagi 2 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalarning to'rtidan uch qismi – taxminan 300 million nafari uyda o'z qarovchilari tomonidan ruhiy tazyiq yoki jismoniy jazoni boshdan kechiradi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 30 ta mamlakatda bir yoshli bolalarning taxminan 10 tadan 6 tasi muntazam ravishda zo'rvonlikka asoslangan tarbiya asosida voyaga yetmoqda. Ijtimoiy himoya milliy agentligi matbuot xizmatining ma'lum qilishicha, dunyo bo'ylab har yetti daqiqada bir o'smir zo'rvonlik oqibatida vafot etadi. Qayd etilishicha, nogironligi bo'lgan bolalar nogironligi bo'lmagan bolalarga qaraganda zo'rvonlikni boshdan kechirish ehtimoli deyarli to'rt barobar yuqori. To'rtta yosh boladan uchtasi o'z tarbiyachilari tomonidan muntazam ravishda zo'rvonlikka asoslangan ravishda tarbiya qilinadi. Maktab yoshidagi bolalarning yarmi - 732 million nafari maktabda jismoniy jazo to'liq taqablanmagan mamlakatlarda yashaydi.

Psixologik zo'rvonlik, shuningdek, hissiy yoki ruhiy zo'rvonlik – bu psixologik jarohatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan zo'rvonlik shakli bo'lib, tashvish, ruhiy tushkunlik, travmadan keying [2] va ikkilamchi travmatik stresslarning buzilishi deb baholanadi. Zo'rvonlikning bu turi hokimiyat nomutanosibligi holatlarida, masalan, haqoratli munosabatlar, bezorilik, ayniqsa ish joyidagi zo'rvonlik va bolalarga nisbatan zo'rvonlik qilish ko'rinishida keng tarqalgan [3].

Bu holat ko'pincha haqoratli munosabatlardagi kuch muvozanati holatlari bilan bog'liq bo'lib, ish joyida zo'rvonlik, gazlayting va mavqeini suiiste'mol qilish holatlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, qiynoqlar, boshqa zo'rvonlik holatlarini amalga oshirgan, inson huquqlarini poymol etuvchi shaxslar tomonidan, xususan, sudsiz hibsga olish, yolg'on ayblovlar, yolg'on hukmlar va tuhmat, masalan, davlat va ommaviy axborot vositalari tomonidan sodir etilgan taqdirda, noqonuniy deb hisoblaniladi.

Olimlar va tadqiqotchilar psixologik zo'rvonlikning turli xil ta'riflari borligini ma'lum qilishgan [4]. Hozirgi kunda o'tkazilayotgan tadqiqotlarga ko'ra, „psixologik zo'rvonlik“ va „emotsional zo'rvonlik“ atamaları, agar psixologik zo'rvonlik bilan bog'liq bo'lmasa, bir-birining o'rnida qo'llanilinishi mumkin [5]. Aniqroq qilib aytganda, „hissiy zo'rvonlik tabiatan jismoniy emas, balki hissiy bo'lgan har qanday zo'rvonlikni o'z ichiga qamrab oladi“. Bu og'zaki haqorat va doimiy tanqiddan tortib, qo'rqitish, manipulyatsiya kabi holatlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Bu ishonch va mansabni suiiste'mol qilish, boshqa odamni boshqarishga urinish, kimnidir qo'rqut yoki izolyatsiya ostida saqlash yoki kimningdir o'ziga nisbatan bo'lgan hurmatini buzish uchun so'z yoki harakatlardan foydalangan holatda sodir etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hissiy zo'rvonlik turli shakllarda bo'lishi mumkin. Qo'pol xatti-harakatlarning uchta umumiy namunasi, jumladan: tajovuzkorlik, inkor etish va minimallashtirishni o'z ichiga oladi. To'xtatib turish rad etishning yana bir shaklidir. Jazo sifatida tutqunlikda ushlash, tinglashdan, muloqot qilishdan bosh tortish va hissiy jihatdan chekinish holatlarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Emotsional zo'rvonlikning aniq ta'rifi bo'lmasa ham, hissiy zo'rvonlik og'zaki va psixologik zo'rvonlikdan tashqari bo'lgan boshqacha ko'rinishdagi ta'rifga ega bo'lishi mumkin.


Bir qator tadqiqotlar og'zaki qilingan tajovuz, dominant xatti-harakatlar yoki hasadgo'ylik oqibatida sodir etiladigan xatti-harakatlarning alohida hodisasi „psixologik zo'rvonlik“ atamasini tashkil etmasligini aniqlagan. Tomison va Tuccining yozishicha, "emotsional zo'rvonlik vaqt o'tishi bilan yuzaga keladigan xatti-harakatlarning holati yoki namunasi bilan tavsiflanadi ... Shunday qilib, „barqaror“ va „takroriy“ bo'ladigan holatlar hissiy zo'rvonlikdagi har qanday ta'rifning hal qiluvchi tarkibiy qismi bo'la oladi". Muallif, advokat va jinsiy jinoyatlar bo'yicha sobiq tergovchi Andrew Vachss hissiy zo'rvonlikni „boshqa shaxs tomonidan muntazam ravishda kamsitilinishi“ deb ta'riflaydi. Bu qasddan yoki ongsiz (yoki ikkalasi) bo'lishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, jismoniy va jinsiy zo'rvonlik bir biridan farqli o'laroq, bitta hodisa hissiy zo'rvonlikni tashkil etmaydi. Ushbu turdagi zo'rvonlik iqlim yoki xatti-harakatlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi va hissiy zo'rvonlikni aniqlashning muhim tarkibiy qismi uning tizimli, takroriy tabiatidir. Hissiy zo'rvonlik qasddan yoki ongsiz bo'lishi mumkin, lekin bu alohida hodisa emas, balki doimo davom etadigan xatti-harakatlardir.

Bolaga nisbatan psixologik zo'rvonlik odatda ota-onalar yoki ularga g'amxo'rlik qiluvchilar tomonidan bolaning kognitiv, hissiy, psixologik yoki ijtimoiy rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar namunasi sifatida aniqlanadi. DSM-5 ga ko'ra, bolaning psixologik zo'rvonligi ota-ona yoki tarbiyachi tomonidan jiddiy psixologik zararga olib kelishi mumkin bo'lgan og'zaki yoki ramziy harakatlar sifatida

belgilanadi [6]. Masalan, baqirish, boshqalar bilan solishtirish, ism qo'ng'iroq qilish, ayblash, gazni yoritish, manipulyatsiya qilish va voyaga etmaganlik maqomi tufayli suiiste'mol qilishni normallashtirish.

Ba'zi ota-onalar stress, yomon tarbiya ko'nikmalari, ijtimoiy izolyatsiya va mavjud resurslarning etishmasligi yoki farzandlarining noto'g'ri umidlari tufayli o'z farzandlariga hissiy va psixologik zarar etkazishi mumkin. Straus va Fieldning ta'kidlashicha, psixologik tajovuz amerikalik oilalarda keng tarqalgan xususiyatdir: „bolaga nisbatan og'zaki hujumlar, xuddi jismoniy hujumlar kabi, juda keng tarqalgan bo'lib, deyarli universaldir“. 2008-yilda ingliz va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot. otalar va onalar o'z farzandlariga nisbatan og'zaki tajovuzkor bo'lish ehtimoli teng ekanligini aniqladilar.



1-diagramma

Shaxs xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasi natijalari

Shaxs xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan so'rovnomaga ko'ra, turli hududlarda istiqomat qiluvchi o'smirlarda ya'ni o'smir o'quvchilarda asabiylashganlik shkalasi 4-7 farq bilan, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan jinoiy xulq-atvor 5-6 bilan, ruhiy siqilish shkala 4-6, jizzakilik 5-5, o'ta tajovuzkor xulq-atvor shkala 4-6, tortinchoqlik 5-5, ochiqlik-oshkoralik 3-5 va ta'sirchanlik-o'zgaruvchanlik 4-6 farqni aks ettirgan.

Jamiyatda zo'rvonlikni oldini olishda quyidagi xususiyatlarni inobatga olish muhim sanaladi: tarbiyaning roli: Bola va o'smirlarni zo'rvonliksiz muhitda tarbiyalash, ularga

hamdardlik, o'z-o'zini nazorat qilish va o'zaro hurmatni o'rgatish. Psixologik ta'lim: Jamiyatda ijobiy munosabatlar va hissiy intellektni rivojlantirish maqsadida psixologik ta'lim dasturlarini tashkil etish. Psixologik yordam: Zo'rvonlikdan jabrlanganlarga professional psixologik yordam ko'rsatish.

Psixologiyada zo'rvonlik – bu insonlar o'rtasidagi munosabatlar dinamikasini, kuch va hukmronlik elementlarini, shaxsning ruhiy salomatligi va ijtimoiy o'zaro munosabatlaridagi ta'sirlarni o'rganish uchun muhim mavzulardan biri hisoblanadi.

Zo'rvonlik xususiyatlari so'rovnomalari natijalari

Zo'rvonlik xususiyatlari	Zo'rvonlik xususiyatlari	
	Qishloqda yashovchilar	Shaharda yashovchilar
Yuqori	32%	37%
O'rta	42%	35%
Quyi	28%	28%

Xulosa va takliflar. Tadqiqotdan olingan natijalarga ko'ra, o'smirlar orasida ular bilan shaxslararo munosabatlarga kirishish orqali, ular bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonida zo'rvonlikni baholashning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish orqali Qashqadaryo viloyatidagi shahar va qishloqlarda yashovchi o'smir yoshlarning zo'rvonlik xususiyatlari so'rovnomalari olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, qishloqlarda yashovchi o'smirlarda zo'rvonlik xususiyatlarining yuqori darajasi 32%, shaharlarda yashovchi o'smirlarda esa, 37 foiz ko'rsatkichlar bilan o'rin olgan. Demak,

shaharlarda yashovchi o'smirlarda, qishloqlarda yashovchi o'smirlarga qaraganda biroz yuqoriroq ekanligi natijalardan ayon bo'ldi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bolalarning o'zlaridagi ijobiy xarakter xislatlarini anglashini rag'batlantirish, bolalarni o'z xulq-atvorini o'zi baholashga o'rgatish, bolaga ishonish, olani oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag'batlantirish, bolaga fanga, kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, bolani bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishlarini nazorat qilishni tashkil etish kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Козлова М.М. Профилактика буллинга в подростковой среде в условиях среднего профессионального образовательного учреждения // Образовательная среда: теория и практика. Материалы IV Международной научно-практической конференции, 28 мая 2021 г. – Астрахань: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования «Астраханский государственный университет», 2021. – С. 125–129.
2. Dutton, D. G. (1994). Patriarchy and wife assault: The ecological fallacy. *Violence and Victims*, 9, 125–140.
3. Maiuro, Roland D.; O'Leary, K. Daniel. *Psychological Abuse in Violent Domestic Relations*. New York:Springer Publishing Company, 2000 — 197-bet. ISBN 0-8261-1374-5.
4. Thompson, Anne E.; Kaplan, Carole A. (February 1996). "Childhood emotional abuse". *The British Journal of Psychiatry* 168 (2): 143–148.
5. O'Leary, K. Daniel. *Psychological Abuse in Violent Domestic Relations* (en). Springer Publishing Company, 2004. ISBN 978-0-8261-1146-3.
6. *Diagnostic and statistical manual of mental disorders: DSM-5.*, 5th, Arlington, VA: American Psychiatric Association, 2013. ISBN 978-0-89042-554-1.



UDK:152.26(045)

Nargiza SHUKUROVA,
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi, Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: profil.uz444@gmail.com

QarDU professori DSc B. Jurayev taqrizi asosida

PSIXOLOG TALABALARDA KASBIY REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING TARIYAVIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Аннотация

Maqola psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlarini kompleks tadqiq etishga bag'ishlanadi. Tadqiqot psixologiya ta'limi kontekstida professional refleksiv kompetentlikning shakllanish mexanizmlari va psixologik faktorlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, determinant, kasbiy refleksiya, ong, psixologik determinant.

EDUCATIONAL-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL REFLECTION IN PSYCHOLOGY STUDENTS

Annotation

The article is devoted to a comprehensive study of the educational and psychological determinants of the development of professional reflection in psychology students. The study reveals the mechanisms and psychological factors of the formation of professional reflexive competence in the context of psychology education.

Keywords: Competence, determinant, professional reflection, consciousness, psychological determinant.

УЧЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕФЛЕКСИИ У СТУДЕНТОВ-ПСИХОЛОГОВ

Аннотация

Статья посвящена комплексному изучению педагогических и психологических детерминант развития профессиональной рефлексии у студентов-психологов. В исследовании раскрываются механизмы и психологические факторы формирования профессиональной рефлексивной компетентности в контексте психологического образования.

Ключевые слова: Компетентность, детерминанта, профессиональная рефлексия, сознание, психологическая детерминанта.

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimining strategik vazifalari pedagogik va psixologik ta'lim sifatini oshirish, mutaxassislarining professional kompetentligini rivojlantirish va jamiyatning dolzarb ehtiyojlariga moslashuvchi kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Psixologiya yo'nalishi talabalari uchun kasbiy refleksiya professional tayyorgarlikning eng muhim komponenti hisoblanadi, chunki u mutaxassisning shaxsiy-kasbiy rivojlanishining sistemali mexanizmi va professional kompetentlikning asosiy indikator sifatida xizmat qiladi. Psixologik ta'lim tizimida kasbiy refleksiyaning metodologik asoslari quyidagi fundamental yo'nalishlarni o'z ichiga oladi

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirish mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, ushbu murakkab psixologik fenomen bir qancha ilmiy maktablar va yo'nalishlarning diqqat markazida bo'lgan.

Xorijiy psixologik maktablar kontekstida kasbiy refleksiya asosan professional o'sish va shaxsiy rivojlanishning muhim komponenti sifatida qaraladi. Klassik nazariyachilardan D. Schön professional refleksiyaning ikki asosiy aspektida o'rgangan: "harakatdagi refleksiya" va "harakatdan keyin refleksiya". Uning konsepsiyasiga ko'ra, professional refleksiya mutaxassisning o'z faoliyatini doimiy tahlil qilishi, baholashi va takomillashtirishi jarayonini ifoda etadi.

Buyuk Britaniyalik tadqiqotchi M. Eraut professional o'rganish va refleksiya integratsiyasiga alohida e'tibor bergan. Uning izlanishlariga ko'ra, refleksiv faoliyat mutaxassisning kreativ potensialini ochishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Eraut professional refleksiyaning uch asosiy darajasini ko'rsatgan: qisqa vaqt ichida refleksiya, refleksiv faoliyat va chuqur refleksiv o'rganish.

Germaniyalik psixolog R. Arnolds esa refleksiyaning kreativ aspektlarini tadqiq etgan. Uning fikricha, refleksiv faoliyat faqat o'tgan tajribani tahlil qilish emas, balki yangi innovatsion yechimlarni generatsiya qilishning strategik mexanizmidir.

Mahalliy psixologik maktab kontekstida A. Qodirov, B. Ro'ziqulov, M. Jo'rayev kabi olimlar professional refleksiyaning shaxsiy-motivatsion aspektlarini o'rganishga e'tibor qaratadilar. Ular kasbiy refleksiyaning mutaxassisning professional identifikatsiya jarayoni, o'z-o'zini anglash va rivojlanish mexanizmi sifatida qaraيدilar.

G'. Nurmuhammadov psixolog talabalarda refleksiv kompetentlikning diagnostikasi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan. Uning izlanishlariga ko'ra, refleksiv kompetentlik professional tayyorgarlikning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, uning shakllanishi bir qancha psixologik determinantlarga bog'liq.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirish:

Murakkab, ko'p komponentli psixologik jarayon
Professional rivojlanishning sistemali mexanizmi
Shaxsiy-motivatsion determinantlarga bog'liq bo'lgan strategik tizim

Adabiyotlar tahlili shunday xulosaga kelish imkonini beradiki, psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirish dolzarb va kompleks metodologik masala bo'lib, uning chuqur empirik tadqiq etilishiga hali ham katta ehtiyoj mavjud. Psixolog talabalarda kasbiy refleksiya mavzusi XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlaridan boshlab filofosfiya va psixologiya sohasining diqqat markazida bo'lgan.

Klassik filofosflar Aristotel va Platon refleksiya tushunchasining dastlabki nazariy asoslarini ishlab chiqishgan. Ular shaxsning o'z-o'zini anglash va baholash qobiliyatini tadqiq etishgan.

XVII asrda J.Lokk refleksiyaning bilish jarayonining muhim komponenti sifatida ko'rib chiqqan. Uning fikricha, refleksiya insonning ichki tajribalarini idrok etish va tahlil qilish imkoniyatidir.

XIX asrning ikkinchi yarmida nemis filofosfi V.Diltey refleksiyaning shaxsning o'z-o'zini anglash va madaniy kontekstni tushunish mexanizmi sifatida tadqiq etgan. U refleksiyaning shaxs

va uning tarixiy-madaniy muhi o'rtasidagi munosabatlarni tushunishning asosiy usuli deb hisoblagan.

XX asrning boshlarida Amerikalik psixolog U.Jems refleksiyaning shaxsning kognitiv faoliyatining muhim komponenti

Savollar	Refleksiya darajasi yuqori bo'lgan talabalar (%)	Refleksiya darajasi past bo'lgan talabalar (%)
Kasbiy faoliyatni tahlil qilish uchun vaqt ajratish (Ko'p)	78%	22%
